




Asqad
Muxtor

Chinor





YOSHLAR
KUTUBXONASI

Asqad
Muxtor

Chinor



YANGI ASR AVLOD
TOSHKENT
2018

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(50')6

M - 93

Muxtor, Asqad

Chinor: roman / Asqad Muxtor. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 576 b.

ISBN 978-9943-27-560-7

Asqad Muxtorning bu romanisharq adabiy an'alarini eslatuvchi yangi bir shaklda yozilgan. Chinorning azim shoxlariday har tomonga tarvaqaylab ketgan qissalar jonli vogelikni aks ettirsa, uning teran ildizlari – hikoyatlar yaqin o'tmish haqida, rivoyatlar esa pildirab uchgan yaproqlar singari yengil, ular badiiy tafakkur qanotida qadim afsonalarga borib tutashadilar...

Bularning hammasi ham bir o'zbek oilasi haqida. Bu oila katta, qadimiyl, madaniy, mehnatkash va shu ma'noda «tagli-zotli». Uning har bir a'zosi xalq hayotida ma'lum bir mas'uliyatli yukni o'z zimmasiga olgan. Jonajon tuproqqa chuqur tomir yoygan, baquvvat va qadimiyl Chinor mangulik ramzi, xalqimiz timsolidir.

Oila boshi Ochil buvaning safari bilan shartli ravishda o'zaro bog'langan qissalarning har biri mustaqil axloqiy-estetik fikrni ilgari suradi. Hikoyatlar va rivoyatlar esa bu fikrni quvvatlab, yanada mustahkamlaydi.

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(50')6

ISBN 978-9943-27-560-7

© Asqad Muxtor, «Chinor». «Yangi asr avlodi», 2018.

Tog‘ bag‘ridagi huv o‘sha bulut bulut emas, chinor. Darvoqe, tog‘ning o‘zi ham, qishloq ham uning nomi bilan Chinortog‘, Chinorqishloq deb ataladi. Bizning Ochil buva shu yerda tug‘ilgan. Men gapni to‘g‘ri shu kishidan boshlamoqchi edim-u, lekin bu joylarda chinorsiz hech narsani tushuntirib bo‘lmaydi. Hatto guzar, undagi katta gavjum choyxona haqida gap ketganda ham, «Chinorda chaqchaqlashib keldik», «Chlnorga borib bir osh qilaylik», deyishadi. Butun qishloq shu chinorning soyasida joylashgan.

Ochil buva bugun chinor bilan xayrslashmoqda. Butunlay emas, albatta. Vaqtincha. U safar oldidan, har gal shunday qiladi, tirik odam bilan xayrslashganday uzoq tikilib, pichirlashib xayrslashadi.

Hali oppoq tong. Nur uyg‘otgan qushcha tovushining ilk kumush halqachalari osmonga o‘rlab ketdi. Nim shabadada yashil bulutning har joy-har joyi sovunday ko‘pirib, azim chinorning sirli bag‘ridan chiqib kelgan sokin va qudratli shovillash olamni tutdi. Quloq solmaganga bu tovush eshitilmaydi ham, lekin Ochil buva uchun hozir tong ham go‘yo mana shu shovillashdangina iborat edi. U guzardagi katta oq tosh supada tikkal turibdi. Ana shu tog‘ qishlog‘ida bunday qoyatosh serob, ular yo‘lkalarda zinapoya, ariqlarda

ko'prik, chashmalarda bosma, choyxonalarda supa vazifasini o'taydi. Chinor ham ana shunday qoyatoshdan o'sib chiqqan-u, lekin uning tomirlari tosh ostidagi ona tuproq bag'rida Chinortog'ning ildizlari bilan tutashib ketgan deyishadi.

Hali oppoq tong. Guzarda ham, qishloq ko'chalarida ham bir kimsa yo'q. Faqat Ochil buva bilan chinor yuzma-yuz turishibdi.

Ochil buvaga u doim tirikday, qadrdon suhbatdoshday tuyuladi. Dono suhbatdosh. Yoshi allaqachon mingdan oshib ketgan. Ming yil! Uning navnihol paytini ko'z oldiga keltirib bo'lmaydi. U vaqtlar yil sanog'i faqat uchta raqam bilan ifodallangan bo'lsa kerak. Ming yil! Har bahorda yangi libos, yangi hayot. Uning o'n to'qqiz qulochli g'o'dir tanasi o'zining minglab qatlamlari bilan go'yo hayotning manguligini tasdiqlab turadi. Son-sanoqsiz panja barglari ham betinim qimirlab, nurli havodan rizqini terib olayotganday, yuksaklikka intilgani intilgan. Ochil buva uni doim yosh ko'radi. Mana hozir ham oppoq tongda navqiron gurkirab, butun vujudidan sarin yoshlik barq urib turibdi. Tarvaqaylab o'sgan silliq, yashil butoqlaridan ko'z o'rmalab tepaga chiqqan sari tanasi sutday oqarib boradi. Guzar ustiga og'ib turgan yettinchi butog'i hali juda yosh, borgan bo'lsa besh yuz-olti yuz yashardir, uning tanasi qiz siynasiday oppoq, sof. U Ochil buvaning yigitlik chog'ida ham xuddi shunday edi, o'shanda ham uning ko'ngliga shu qiyos kelgan.

Ha, chinorga tikilib Ochil buva butun umrini eslaydi. Unga qarab tursa ko'z oldida dengizday bir cheksizlik, yam-yashil cheksizlik ko'rinadi.

Umri cheksizday tuyuladi. Go'yo o'zi ham ming yillardan beri yashayotgandeg-u, yana ming yillar umr ko'radigandek. Shunda u chor atrofga, butun tabiatga xuddi xo'jayinday nazar tashlaydi, tog'lar orqasidagi qora bulutlar, uzoqda yilt-yilt etgan chaqmoqlar bilan senlab gaplashadi:

– Qo'y endi, tongni qiynama, tong otib olsin!

Uzoq tikiladi buva chinorga. Uzoq suhabat qiladi, xayrlashadi. Oxiri ko'ksida soqoli sal titrab, tovushsiz, ko'z yoshsiz yig'lab yuboradi. Yo'q, u qattiq g'ussa chekayotgani yo'q. Chamasi, yig'lagan ham uning o'zi emas, go'yo boshqa birov...

RIVOYAT

Bu chinorni Ochil buvaning uzoq ajdodlaridan biri vabo yili o'tqazgan deyishadi, o'shandan beri bu yerlarga biron ta ofat yo'lamagan ekan. Shuning uchun chinorning ziyoratiga atrof-tevarakdan har yili tumonat odam kelib-ketadi. Shunday bo'lsa ham, uning g'o'dir po'stlog'ida pichoq yarasi u yoqda tursin, biron ta tirnoq izi ham yo'q. Chunki chinorning tanasiga tig' tegsa qon tirqirarmish...

Bir yili – u vaqtarda Ochil buva yetmishlardan endi oshgan payt ekan – qishioqning qariyalari chinorning yoshini hisoblab, uning mingga kirdigan faslini taxminlab, e'lon qilishibdi. E'tiqodga ko'ra, chinor mingga kirgan soati o'zidan-o'zi lovillab yonib ketishi kerak ekan.

O'shandan keyin Chinorqishloqda ham, uning atroflarida ham necha haftagacha tahlika hukm suradi. Chinorning atrofi, guzar, hatto qishloq ham huvillab qoladi. Xalq qirga, dalaga ko'chib

chiqqan, tog‘ etagidagi yashil bulutdan kecha-yu kunduz ko‘z uzmaydi. Qariyalar toat-ibodatdan bosh ko‘tarmaydi, hamma karomatli yong‘inni vahima bilan kutadi.

Bu vahimali kutishdan toliqqan aholi oqsoqol-lardan aniq kunni belgilashni talab qiladi. Chollar uzoq kengashib, chinorning o‘t olish paytini aniq aytishadi.

Voqeа safar oyi ikkinchi jumasining yarim kechasi yuz berishi kerak edi.

Bu bashoratga faqat Ochil buva ishonmaydi. Chunki bolaligida bobosidan eshitgan hikoya-lar hamon yodida edi. Chingizzon zamonida chor atrof tutun ichida qolib, dalalar, qishloqlar, bog‘lar lovillab yonganida ham, shu chinorning ulkan yashil bo‘rki xuddi hozirgiday gurkirab, «Hayot mangudir, hayot tugamaydi!» degandek, asta shovillab turavergan ekan.

Yo‘q, Ochil buva chinorning yonib ketishiga ishonmaydi. Yo, ishonmay, yo lovillab o‘t oladigan bo‘lsa, qadrdoni bilan birga yonib ketish niyatida, o‘sha kechasi o‘zi yolg‘iz chinor qoshiga ketadi.

Qishloq aholisi uni shovqin-suron, yig‘i-sig‘i, qarg‘ish, duo, mehr-shafqat, la’nat, hayrat va tahsinlar bilan kuzatib qoladi. Ochil buva Chinorso‘qmoqdan asta yurib, tun qorong‘iligiga singib yo‘qoladi.

Safar oyining ikkinchi juma kechasi bu atrofda yosh-u qari tun bo‘yi bedor, Chinortog‘ etagida haybat bilan qorayib turgan chinorga uzoqdan tikilib tong ottiradi.

Chinor yonmaydi.

Ochil buvaning o‘zi bu kecha haqida biron vaqt biron ta odamga batafsil hikoya qilganini hech

kim bilmaydi-yu, lekin xalq orasida u haqda ertasigayoq duv-duv gap tarqaladi. U kechasi bilan guzardagi o'sha tosh supada tik turib, chinorga tikilib chiqqan emish. Bir soat, ikki soat, o'n soat tikilibdi, go'yo qismatini kutganday, ko'zlaridan yosh tirqirab chiqquncha tikilibdi.

Chinor yonmabdi.

Chinor yonmabdi-yu, lekin bir dam tilga kirib, xuddi inson singari gapirgan emish.

«Men yonib ketsam, zamon oxir bo'ladi!» – degan mish chinor.

O'shandan buyon odamlar unga tikilishadi. Lekin chinor oxir zamonni emas, mangulikni eslatadi odamlarga. Yuzdan oshgan chollar ziyoratga kelganda: «Yoshligimda uni qariya deyishardi, endi o'zim qariyaman, u bo'lsa o'sha-o'sha», – deyishadi. Hozir uning yoshini hech kim bilmaydi. Uning yoshini sanash ham gunoh hisoblanadi.

Bu voqeа atrofidagi gaplardan yana biri shuki, chinorning gapirganini eshitgan odamning umri boqiy bo'larmish.

Bu gapning qanchasi rivoyat, qanchasi haqiqat – bilmayman, lekin Ochil buva hamon hayot, bu yil qovun pishig'ida to'qson to'rtga kiradi, hali chinorday baquvvat. Unga qarab tursangiz, chinorning gapirganiga ham ishongingiz keladi. Chinor bilan yolg'iz ro'baro' qolib, astoydil ixlos bilan qulq solsangiz, siz ham uning asriy xayollarini eshitganday bo'lasiz. U zamonlar haqida, hayotning kuchi, zavolsizligi haqida gapiradi. O'yga tol-sangiz, uning sokin shovillashida inson tovushini ilg'aganday bo'lasiz. «Nahotki, nahotki mening ham umrim...» deb pichirlaganingizni bilmay qola-

siz. O'z tovushingizni eshitib, hushyor tortasiz-u, jilmayib qo'yasiz. Chinor hamon shovillaydi.

Yo'q, chinorning gapirganiga birdan-bir guvoh hozircha Ochil buva. Buning rivoyatligini ham hamma biladi, haqiqatligiga ham hech kim shubha bildirolmaydi. Yuqorida aytganimdek, chinor haqida gapirmay turib, Ochil buvaning ta'rifiga kirishish ham qiyin. Chunki bu gaplarni bilmagan odam ham, Ochil buvani ko'rsa, albatta bir azim kuch esiga tushib: «Chinorday odam ekan!» – deb bir karra hayrat barmog'ini tishlamog'i bor.

...Ochil buva o'rtancha o'g'li brigadir Tolibjon bilan birga hovli to'ridagi alohida xonada istiqomat qilardi. Irg'ay tayog'ini to'qillatib guzardan qaytib kelsa, kolxoz¹ning «GA3-69»i hovli-da tayyor turgan ekan. Uvali-juvali Tolibjon ham xotin, bola-chaqasi bilan chiqib, boboni kuzatgani otlangan edi. Bobo haydovchi bolaning salomiga alik oldi-da, ayvonga chaqqon chiqib, qoziqdagi safar chakmonini bilagiga soldi. Keyin kelinining, nevaralarining peshanalaridan bir-bir o'pdi.

– Azimjon, kun tig'iga qolmay yo'lga chiqib olaylik! – dedi Ochil buva mashina tomon yurib. Ichkaridan hali ohori to'kilmagan yangi beqasam to'n kiygan, jussasi kichik, muliavachchaga o'xshash rangi siniqqina bir yigit ikkita tugun ko'tarib chiqdi. Azimjon shu edi. Ochil buvaga qaraganda u boshqa bir olam: g'archli yaltiroq etik, sheviot shim, ipak ko'ylak... hammasi bejirim, hammasi nafis, taxi buzilmagan. Ayniqsa, beqasam bilan chust do'ppini endi kiyganga

¹ Kolxoz – sobiq ittifoq davrida jamoa xo'jaligi shaklining qisqartmasi.

o'xshaydi, xuddi omonatday ehtiyot qilardi. Ochil buva uning oldida tog'dek. Chang qo'nsa bilinmaydigan qum rang ko'n etikning brezent qo'nji baquvvat boldirida yumshoqqina yig'ilib turidi. Uzun oq yaktak ustidan pastgina, bo'shgina bog'langan qiyiqlar belning qadimiy navqiron kuchini ardoqlayotgandek. Boboning keksaligi faqat katak-katak charmdek pishiq ko'ksini to'ldirib turgan qorday oq to'rva soqolidangina bilinar edi. Ochil buva o'tkir qora ko'zli, serqosh, chiroyli yigit bo'lgan. Uning yigitlik ko'rki hozir ham mo'yloving bir uchi bilangina jilmayishidami, sal cho'kkan ko'zlarining yiltirashidami, qirg'iz qalpoqni qiyaroq qo'ndirishidami – nimasidadir saqlanib qolgan.

Ular tugunlarni joylab, ochiq mashinaning ikki yon kursisiga chiqib o'tirishdi.

– Akamni so'rab qo'ying, buva! – deb qichqirib qoldi Tolibjon chug'ur-chug'ur bolalarini qo'lltig'iga olib.

Biz-chi, azizlarim, biz qayerga o'tiramiz? Biz ham borishimiz kerak-ku, Ochil buvadan gap ochgan ekanmiz, u bilan yo'lga chiqishimiz zarur. Bu uning umr yo'li desak, katta ketgan bo'larimiz, yo'q, bu uning har yilgi oddiy safari. Lekin bu safarda ham u mana shu ona yerga, haligi azim chinorday tomir yoygan katta oilasining bir qismini aylanib, jigarbandlarining holidan xabar olib, otalik burchini o'tab qaytadi. Ne-ne odamlar, voqealar, taqdirlar...

Qiziqmi? Qiziq deganlar yuraversin.

Ketdik.

Siz bilan bizga joy ham zarur emas. Chetdan kuzatib ketaveramiz.

Mashina hademay asfalt yo'lga chiqib oldi. Hali quyosh ufqda, yo'llar shabnamdan qorayib, uzoqlarga chorlab turibdi. Dovonlar, qirlar oshib o'qday ucharkan, Ochil buva uzoq tog' etagida g'uj bo'lib turgan chinor qorasidan ko'z olmas edi. Azimjon esa ufqqacha qizarib yotgan kakra gulining tungi uyqudan bosh ko'tarishini birinchi ko'rishi. Bu cheksiz gilamning lovillashidan ko'zi tolgandagina bobosiga qarab gap qotadi.

– Qaysi yo'ldan yuramiz, bobo?

Uzoqda oltinlangan bug'doyzorlar, paxta dalaclarini shartta kesib ufqqa sanchilgan yo'llar yaltirar, yaylovlarda ilon izi so'qmoqlar chuvalashib yotar edi.

– Bu yo'llarning qaysi biridan yursang ham bironta jigarbandingga duch kelasan, bolam, – dedi Ochil buva olis-olislarni ko'zi bilan birato'la ilg'amoqchiday uzoqlarga qarab. Xo'rsindimi, dala havosidan o'pkasini to'latib nafas oldimi, soqol enlagan ko'ksi qalqib ketdi. Ochil buva bolalari-yu nevaralaridan bir yuz o'ttiz yettitasini biladi. Undan narisining – evara-chevaralarning hisobiga yetolgan emas. Bu oila butun o'lda bo'ylab yoyilgan. Mana bu qadrdon ona tuproqning har qarichiga ildiz otgan bu avlod. Bir yeriga bir nayza sanchsang, shularning tomiriga tegadi. Kattakon bir el. Lekin bobo uchun esa oddiy oila. «Bolalarim», deydi.

Azimjon qirqlarga borib qolgan bo'lsa ham, Ochil buva unga «bolam» deganida yarashib turadi.

– Hozir Orif tog'amnikiga boramizmi?

– Orif tog'angnikiga boramiz, bolam.

– Orif tog'am kattamilar, mening oyimmi, bobo?

– Sening onang katta edi, bolam.

Bir haftadan beri savolga tutayotgan Azim-jonga u qarindoshlarining ko‘plari haqida gapirib berdi. Orifjon tog‘asi haqida ham hikoya qildi. Le-kin hammasini gapirib tugatib bo‘ladimi? Qaysi birini aytsin? Bularning hammasini gapirib be-rishdan bitta-bitta borib ko‘rish oson. Buning ustiga, bobosining hikoyalariga Azimjon uncha tushunqiramayapti ham shekilli. Urug‘ini zamon shamoli uchirib, begona yurtda unib chiqqan bu zaif nihol boboning dengiz dovuliday shiddatli va go‘zal hikoyalarini ko‘tarolmadi chog‘i, oxiri ishonmay qo‘ygani bilinib qoldi. Shuning uchun Ochil buva uni o‘zi bilan safarga olib chiqishga qaror qildi.

Azimjon begona yurtda tug‘ilib katta bo‘lgan. Ota yurtimda qavm-qarindosh-u avlod-ajdodimiz tamom qirilib ketgan, degan fikrda ekan. Daf’atan butun bir el, yuzlab jigarbandi, bu tuproq, bu manzara, bu tarix, bu afsonalar-u, bu voqealar – barchasi o‘ziniki ekanini hali aqliga sig‘dirolgani-cha yo‘q.

Azimjon o‘zi badavlat korchalon. Yigit yoshi-dan buyon qorako‘l bo‘yicha noyob mutaxas-sis. Tug‘ilgan yurtidagi katta qorako‘l firmasida salmoqdorgina ota meros ulushi bor ekan. Esi-ni tanibdiki, bobolar yurtiga bir ziyorat qilishni orzu qlardi, mana, xalqaro ko‘rgazma bahona kelib qoldi. Avval xalqaro ko‘rgazmada mashhur bir firmaning eksperti to‘satdan yo‘qolib qolib, anchagini to‘polon bo‘ldi. Keyin, Azimjon bobo-sini topgandan so‘ng, qayerdaligini va bu o‘lkada bir fursat qolajagini bildirib, g‘avg‘oni tinchitdi.

Mana bir haftadirki, u buvasi bilan birga. Ota-bo-bo rasmiga havas qilib, g'archli etik, shoyi qiyiq, beqasam to'n, chust do'ppi olib kiydi. Bularni olib ham ketmoqchi. U yerda yevropacha kiyinadigan boyvachcha ulfatlari ko'rib, hayratda qolishlari turgan gap...

Azimjon o'zicha jilmayib qo'ydi. Oh-ho, ularni hayratda qoldiradigan gaplar ko'p hali. Bobo-chi? Chinor-chi?

- Bobo, chinorning gapirganini eshitganingiz rostmi?

Bu vaqt ular Qoraqarg'a degan dovondan oshib, ko'z ilg'amas keng, tekis yaylovga chiqdilar. Nayzaga kelgan oftob mashinaning oldingi oynasida charaqlab, ko'zni oladi, ro'paradan esgan issiq shabada yuzlarni yalaydi. Bu - ulug' sahroning etagi edi, ufqlar sarg'ish, garmsel ham o'shaniki. Yaylovda podalar yoyilgan. Yo'l chetida chor burchak qilib qirqilgan, supadek-supadek marmarlar yumalab yotibdi. Kon yaqin, yuk mashinalari buzilib, yukeni tashlab ketgan shekilli.

Issiqdanmi, kamxo'raklikdanmi – podalar juda sust jilar, mollar o'tlashdan ham ko'ra bir-birlariga biqinish, suyanish payida edilar. Ochil buva qoshini chimirgancha o'y surdi-da, mashinani to'xtatib, xarsang soyasida bir-birlarining pinjiga biqinib, suyanib turgan ikki qo'yning oldiga bordi. Cho'p bilan junlarini ag'darib, titkilab ko'rdi. Qichqirib cho'ponni chaqirdi. Nariroqdag'i o'tovdan ovoz kelmagach, haydovchiga imo qildi, haydovchi ustma-ust bosib uzoq signal berdi. O'tovdan bola ko'tarib chiqqan cho'pon u yoq bu yoqqa shoshib alangladi-da, mashinani ko'rgach,

yo'l tomon yurdi. Bu juvozkunda singari g'o'labir, norg'ul yigit edi.

– Qo'yga oqsil tushibdi-ku, bola, nima qilib o'tiribsan? – dedi Ochil buva.

Cho'pon dovdirab, tutilib qoldi, oqarinqirab ketdi. Nima deyishini bilmay, qo'lldag'i go'dakni ko'rsatdi.

– Buning oldidan ketolmay qoldim, ota, tobi yo'q.

Ochil buva bolaning qovog'ini, og'zini ochtirib boqdi.

– Buni kelinga olib kirib ber, kabob qilib, ikki qoshiq selidan ichirsin. O'zing mashinaga chiq.

Cho'pon bolani olib kirib, xotiniga berdi-da, yugurib kelib mashinaga chiqdi.

Ochil buva keta-ketguncha unga tayinlab bor-di: darrov karantin e'l-on qilish, yo'llarga dori-langan qipiqlik solib, postlar qo'yish, ko'plab veterinar olib kelib, saratonga qoldirmay ofatni bar-taraf qilish... Girdig'um yigitning ko'zлari borgan sari katta ochilar edi. U ahvolning jiddiyligini endi tushundi shekilli, sovxoz²ning qo'toni oldida mashinadan tusharkan:

– Xo'p bo'ladi, Ochil buva, xo'p bo'ladi, Ochil buva, – deb tinmay takrorlardi.

– Qimizing bormi?

Yigit yugurib borib qo'ton orqasidagi o'tovlarning biridan meshda qimiz olib keldi. Ochil buva, Azimjon, haydovchi navbatlashib ikki kosadan simirdilar. Bobo yo'l chetidagi oq quvray gulini uzib chakkasiga qistirdi-da, joyiga chiqib o'tirdi.

– Hoy bola, qaysi sovxoz bu? – deb so'radi u mashina jilgach. Mesh qo'ltiqlagan cho'pon

² Sobiq ittifoq davrida davlat xo'jaligi shaklining qisqartmasi.

sovxozining nomini atab qichqirgancha to'zon ichida qoldi. Ular qishloq yonidan burilib, uzoqda sarobday ko'ringan yassi tog'lar sari yo'l oldilar.

Tabiat sokin, ufq jimirlaydi, tikkada tinmay chuldiragan to'rg'ay tovushi jaziramani sal kesganday bo'ladi.

– Cho'pon ham bo'lganmisiz, bobo? – yana in-gichka ovozi eshitildi Azimjonning.

– Ha, chorva ham boqqanmiz, paxta ham ekanmiz, qilich ham chopganmiz, bolam.

– Chinorning gapirganini...

– Ha, el og'zidan eshitgan bo'lsang, unisi ham rost bo'lsa bordir... Mana, yerning ham nafasini, yurak urishini eshitsa bo'ladi.

– Eshitilmaydi-ku?

– Go'dakmiz-da, go'dakmiz. Go'dak ona siy-nasiga yopishib emishni biladi, uning nafas olishi-yu, yurak urishi bilan ishi yo'q...

– Siz ham go'dakmisiz, bobo? – kulib so'radi Azimjon.

– Ha, men ham go'dakman. Mana shu yay-lovlarda yalang oyoq shabnam to'kib yurgim keladi. Maysalarda chaqaloqday yumalagim keladi. Qurbim kelsa, yer yuzidagi jamiki yo'llarni ya-yov kezib chiqardim. Kapalakning qanotiga yoki biron oddiy bargga uzoq tikilib qaraganmisan? Gulni hididan taniysanmi? Uzumning xillarini sanaganmisan? Hammasini ko'rib to'yish, hammasi bilan... xayrlashish kerak.

Bobo jim qoldi, Azimjon bilan haydovchi bola ham anchagacha indamay yurdilar. Bobo davom etdi:

– Agar men yozuvchi bo'sam, butun umrimni bittagina kitob yozishga sarflardim.

(Mana bunisi endi, azizlarim, menga tegishli. Butun umrni bitta kitobga sarflash? Bu qanaqa kitob ekan?)

– U qanday kitob, bobo?

– Xayrlashuv kitobi. Tabiat bilan, uning husni, ko'rki, ulug'vorligi bilan, barglar, gullar, to'rg'aylar, chashmalar, yulduzlar, sahrolar, jamiiki go'zalliklar bilan to'yib, xo'rsinib, yig'lab xayrlashuv kitobi. Shunday kitob yo'q, bolam. Shunday kitobni yozgan odam bearmon ketardi...

Ochil buvaning gapi menga ham ta'sir qildi, azizlarim. Lekin men, avvalo, Ko'rishuv, Tani-shuv kitobiarimi yozardim. Chunki san'atkor tabiatning mo'jizalari bilan ko'rishgach, tanishmay o'tib ketayotgan odamlar ham ko'p.

Azimjon oddiy jazirama cho'llarni, ko'z qamashtiradigan osmon gumbazini endi ko'rayot-ganday, es-hushi tevarak-atrofda, yo'l bo'yida lip-lip o'tayotgan takalarning soqol qo'ng'iroqlarini ushiab ko'rgisi kelar, yovshan taglaridan uchgan bulduruqlarni ko'zi bilan uzoqlarga qadar kuza-tib qolar edi.

Ular yana uch soat yo'l yurdilar, yo'l yursa-lar ham mo'l yurdilar. Bu cheksiz kengliklarda cho'ponlar tashlab ketgan eski hujralarning gu-vala devorlaridan o'zga hayot asari ko'rinas edi. Uch soatdan beri biron kimsa duch kelgani yo'q.

Kechga yaqin yaylov tugab sahro boshlanadi-gan yerga yetib keldilar, sarg'ish barxanlar, chi-royli gullagan saksovul butalari ko'rindi. Botayot-gan quyosh nurida uzoqdan bir nima oltinday

charaqladi. Bu haykal edi. Bronzadan byust. U asfalt yo'l tugab, dashti-biyobonga son-sanoqsiz karvon yo'llari, cho'pon so'qmoqlari kirib ketadi-gan joyda, kichkinagina, chanqoq gulzor o'rtasi-da yo'nilgan xarsang ustida turibdi. /

Cho'qqi soqolli keksa odam. Kechki oftobda nurlanib turgan yuzining chuqur ajinlari bu biyobonlarning qadimiy fojialaridan, uzoq zahmatkash umr va ajoyib g'oyibona taqdirdan darak berardi. Keksa cho'pon bu sahrolarni tiz cho'ktirgan bahodirday qisiq ko'zlarini ufqlarga tikib turardi.

Azimjon bahaybat xarsang atrofini aylanib, haykalga uzoq tikildi, oltin yulduzga barmoqlarini tekkizib ko'rdi. Haykal qarshisigacha ataylab kelgan tikka asfalt yo'lga, kimsasiz bo'shliqlarga, dengiz ufqiday uzoq, shafaqdan tovlangan ufqqa tikildi. Keyin keksa cho'ponning oltin chehrasiga yana razm soldi.

– Jabay?! Buva, Jabay emasmi?

U qahramonning portretini ko'rgazmada ko'rgan edi.

– Ha, otang rahmatlikning halokatli xatosini tuzatgan Jabay shu, – dedi Ochil buva toshga o'tirib. U Jabayga tikildi, lekin ko'z o'ngiga boshqa qiyofalar, tahlikali zamonlar keldi.

Salqin tushdi, so'lg'in gulzorga jon kirdi, chigirtkalar chirillay boshladi. Bunday oqshom o'yylatadi.

HIKOYAT

Tush payti. Shabada o'tovning keragalarini asta g'irchillatadi, saraton yaylovining boshni aylantiradigan epkinini olib keladi. Atrof tinch, cho'ponlar quyosh tig'idan qochib, mizg'igani kirib ketishgan. Bozorqul bunday paytlarda bosh egib xomush o'tirardi, bugun esa serg'ayrat, jonsarak. Shabada keltirgan kuvroq pichan hididan, allaqanday yovvoyi gullar hididan boshi aylanib, tolg'anib turibdi. Bugun Onabibi shu yerda.

Ana u o'tov soyasida ivirsib yuribdi, goho qadam tovushi, goho kuv pishgani eshitiladi. Bozorqul eshikka kelib tashqariga qulq soldi, Onabibini ko'z oldiga keltirdi: u anordek tiqmachoq, durkungina, otash...

Eshik pardasiga yaqinlashishini poylab tutrib, bilagidan mahkam ushiadi, ichkariga tortdi. Onabibining tarang ko'kraklari qizil bo'z ko'ylik ichida dirkillab ketdi, undan pishloq hidi kelardi.

– Voy, u nimasi... Kuppa-kunduzi... – dedi u Bozorqulning serjun ko'kragiga panjasini tirab. Bozorqul pardani qiya ochib, u yoq bu yoqqa qaradi.

– O'g'riday alanglaysiz-a... – piq etib kulib yubordi Onabibi.

– Onabibi...

– O'g'rilikka o'rgangan bo'l mang tag'in yaylovda yurib... – erkalanib, bo'shashib shivirladi Onabibi.

Yigit uni bag'rige tortdi. «Nega yalang oyoq yuribsan?» deb qulog'iga pichirladi. Onabibi javob bermadi. Cho'ponning murti qattiq botgan edi to-mog'iga...

Onabibi Bozorqulni sevib tekkan. Eri har zamonda Chinorqishloqqa tushib turadi-yu, lekin

Onabibi yugurib yaylovga kelgani-kelgan. Podachining halim go'jasidan semirib, ikki yuzi lo'ppi, las kamzul ustidan zebigardon, qo'lтиq tumor taqib yurardi, bekorchilikda o'sma tortib, xol qo'ndirardi. Bu yerda biroz noqulay albatta, nuqul yosh-yalangning ko'z o'ngida, bir dam yolg'iz qolishlari ham mahol. Ammo shunday bo'lsa ham, shu yer yaxshi. Onabibi biladi – Bozorqulga ham shu yaxshi. Ular bir-birlarini ko'rmasalar, darrov so'lib qoladilar.

– Bozorqul... yomon yigit ekansiz, – degan shivirlash eshitilardi o'tovda.

Bozorqul yomon yigit emas. Yaylovda o'sgan bo'z bola, keng yag'rinli, hayotga o'ch. Qarshi begining bilimdon gumashtasi rahmatlik Omonqul farangning bitta-yu bitta o'g'li edi u. Omonqul farang uni qorako'lchi boy qilolmay o'lib ketdi. Niyati juda katta edi. «Buxoroning qorako'li Farangistonda naqd tilla, – derdi u o'g'liga, – bu-naqasi hech qaysi yurtda yo'q, olamda qorako'l bozorining kindigi o'zimizda, bilib qo'y, qorako'lchi boy bo'lmasang, rizo emasman!» Omonqul farang bekning moli bilan Yevropaga qatnar, hatto bir marta amirning karvoni bilan Parijga ham borgan edi.

Bozorqulning onasi juda chiroyli xotin edi, to'y-hashamda tavanboshi bo'lib yurib o'lib ketdi. Bozorqul yig'lab-siqtamadi ham, u otasini yaxshi ko'rardi. Otasi havasmand kishi edi, buni ham havasmand qilib o'stirdi. Hozir u yetim bo'lsa ham, shu yoshida bekning to'qqiz suruviga bosh cho'pon, qorako'lchi boy bo'llsh uchun bundan qulay bo'sag'a bormi?

– Niyatimga yetaman, mana bu to'polonlar o'tib olsin-chi... – derdi u Onabibiga.

Lekin «to'polonlar» uch yildan buyon davom etyapti, o'tib ketadiganga o'xshamaydi; zamon-a qalqib turibdi, bek tugul, amirning o'zi ham qutquda emish. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan ishlar, bekning yaylovlardan gohida ot choptirib qizil askarlar o'tib qoladi.

– Menga hech nima kerakmas, o'zingiz omon bo'lsangiz bas, – derdi Onabibi uning tikandek mo'yloviqa barmoqlarini qadab. Barmog'idan doim pishloq hidi kelardi.

Onabibi yaylovga bir kunga deb kelardi-yu, Bozorqul oqshomda o'tov ostonasidan kirib, xurjunini yelkasidan tashiamasdanoq bo'yniga osillb: «Chinorqishloqqa ertaga ham ketmasam maylimi?» – deb erkalanardi, Bozor bo'lsa bu gap-ga: «Sen yaylovda shirinroqsan», – deb hazillashib qo'ya qolardi. Shu bilan Onabibi yana bir-ikki kun qolib ketardi.

Lekin bugun...

Bugun Onabibi «Ertaga ham ketmasam maylimi?» deb erkanganida Bozorqul hazillashma-di, o'zidan xavotir olganday, g'alati bir vahima bilan bag'rige bosdi-da:

– Onabi... sen ketma, sira ketma! Uqdingmi?
– dedi. Bu ehtiros emas, bu qo'rquv edi. Onabibi payqadi:

Yigit o'z sevgisining mustahkamligiga ishonchi komil emasdek, sevgilisini kimdir, nimadir tortib olayotgandek qo'rquvda edi. U bir necha kun shu holatda yurdi. Onabibi erkalanib ham, noz qillb ham ko'radi, hazil boshlaydi, quvnoq kulgi bilan

ovutmoqchi bo'ladi. Lekin Bozorqul o'sha-o'sha. Unda sirli bir o'zgarish bor. Kechalari sovuq terga botib, uxmlamay chiqadi, kamgap bo'lib qoldi. Xotini qishloqqa qaytishni o'ylamay ham qo'ygan, lekin u har zamonda: «Sen ketma, sen keta ko'rma!» derdi negadir sevgilisining yuziga qaray olmay.

So'nggi marta Onabibi uning tovushi qaltirab ketganini sezdi.

– Bozorqul aka, nima bo'ldi? – dedi ko'ziga tikilib. Shu vaqtgacha qiz boladek sho'x, erka Onabibi Bozorqulning oldida birinchi marta shunday jiddiy qiyofada turardi. Bozorqul chirkin xayol bilan qo'lga tushgandek, oqarinqirab ketdi.

– Hech gap yo'q... Hech... Hech... hech nima bo'lgani yo'q, – dedi u tutilib. – Begimiz suruvlarini Ko'hiqofning narigi tomoniga haydamoqchi.

– Ha, nima bo'pti?

– Hech nima.

– Ular uzoq jim qoldilar. Onabibi kuvisi bilan ovora bo'ladi, lekin ishi yurishmaydi.

– Ko'hiqofning u yog'ida nima bor ekan?

– U tomonda... u yog'i begona yurt.

– Ha-a... Xo'sh, nima bo'pti?

– Hech nima.

Onabibi bundan hech xavotir oladigan narsa topmaydi-yu, lekin yana qo'li ishga bormaydi, ko'ngidan vahima arimaydi.

Gapirsangiz-chi! – deydi u toqati toq bo'lib, baqirib.

– Nimani gapiRAY?..

– Nimani o'ylayapsiz?.. Sizga nima? Haydatsa haydataversin!.. Begingiz o'ziga bek.

– Cho'pon-cho'liq saralayapti.

- Kim?
- Bek-da.
- Ha, nima bo'pti?
- Hech nima...

Onabibi shundagina bu «hech nima»da gap ko'p ekanligini birdan payqadi. Qo'lidagi koptokdek pishloqni bo'yraga yumalatib, erining oldiga bordi.

- Siz...
- Bek o'zi saralab olyapti. Yetmish kishi kerak ekan.

- Bu qancha qo'y bo'ladi?
- Hozircha ellik suruv... Bola-chaqasiz, baquvvat odamlarni tanlab olyapti.

- Shunga nima bo'pti?
- Hech nima.
- Boring-e, «hech nima, hech nima» deyverasizmi! – jahl bilan qo'l siltab o'tovga kirib ketdi Onabibi. Uning eriga birinchi marta shunday dag'al gapirishi edi. Bozorqul keragaga suyanib o'tirgancha yer chizib qoldi.

...Bu hayajonlardan charchagan Onabibi qattiq uyquga ketgan ekan, yonida bedor to'lg'anib yotgan eri saharda uyg'otdi:

- Onabi... Onabi... Cho'ponga yuz sovliq, cho'liqqa qirq sovliq va'da qilyapti bek.
- A? Nimaga?
- O'sha yoqqa haydab borganga-da.

Onabibi eriga azob berayotgan jumboqqa tamom tushundi. O'rnidan turib ketdi. Chang'i-roqdan g'ira-shira yorug' tushib turardi. Juvon yoqasi ochiq oq surp ko'ylakda, sochlari to'zg'igan, ko'ksi sutdek oqarib ko'rinar edi. U keragaga orqasi bilan suyandi. Eriga qaradi-yu so'z topolmadi, uning niyatini payqab, titrab ketgan edi.

– Har cho'ponga... har cho'liqqa... – deb eri bir nimalarni sanar, hisoblar edi. Onabibi bularni eshitmadı. Miyasida erining avval shunchaki aytgan so'zlari endi temirday jaranglar edi: «O'zi tanlab olyapti... bola-chaqasizlarni... Cho'ponga yuz sovliq...»

O'tovdag'i turmushning lazzati qochdi. Onabibi yolg'iz qolganida o'zini koyiydi: «Tashiab keta-man degani yo'q-ku? Qayoqdan oldim bu xunuk, bachkana xayollarni?»

Xotin kishi ming qilsa ham xotinligiga borar ekan. Tavba, mol-dunyo deb sevgan qaylig'ini tashlab ketarkanmi?! Shu o'ylagan yomon o'ylarimmi bilsa bormi, tilkalab tashlasa ham arziydi!»


U o'ziga shunday tasalli beradi-yu, ko'nglining qaysi bir burchagida dahshatli haqiqat hamon pusib yotganini sezadi. Shunday bo'lsa ham Bozorqulni kutganda ichidagini bildirmay, xush-chaqchaq kutadi. Bozorqul ham o'tovga yugurib kirib keladi, sevgilisini ko'rib ko'zidan sarosima qochadi. Xotinini xuddi yo'qotib qo'yayotgandek ilgarigidan ham mahkamroq quchadi.

– Sen nima, tashlab ketadi deb o'yladingmi?

– Yo'g'-e, nega endi? Qayoqdan oldingiz bu gapni? Shunday qilib, har kuni ikkalasi ham bir-biriga yolg'on gapiradi.

Bu uzoq davom etishi mumkin emas edi. Bir kuni ular shunday bir-birlariga dalda berib quchoqlashib turganlarida Bozorqul yig'lab yubordi.

Bu xunuk yig'i, erkak yig'isi orani ochiq qildi, hayotni ham, muhabbatni ham yondirib yubordi. Hamma narsa sovigandan keyin Bozorqul-



ning yuragidagi illat yalang'ochlana boshladi. Bek unga alohida iltifot qilib bir yuz o'ttiz sovliq yozganini xotiniga aytdi. «Men albatta qaytib kelaman, uch oylik yo'l ekan, haydab boramiz-u, qaytaman, beknikiday qo'ramiz, suruv-suruv qo'ylarimiz bo'ladi, dadamday qorako'l ortib, Farangistonga qatnayman, beknikini emas, o'zim-nikini. Jaraq-jaraq tilla qilib qaytaman...»

Onabibiga bu gaplar gap emas, allaqanday sovuq vishillash bo'lib eshitilar edi.

– Tezroq keting, jo'nang! – deb baqirib yubordi u bir kuni. Muk tushib yig'ladi. Bozorqul uning yig'i-sig'isiga ko'nikib qolgan, o'z ahd-u niyatlari bilan mast edi.

– Hademay jo'naymiz. Bek o'zi ham shoshyapti. Qoraqum eshonning fotihasiga qarab turibdi, – dedi Bozorqul sovuqqonlik bilan. U endi ishchan, o'zini ancha bosib olgan edi.

...Qoraqum eshon bekniliga dabdaba bilan uch izvosh haydatib keldi-yu, fotihasi cho'zilib ketdi. U kelganidan beri bekning avzoyi buzilib, ishi yurishmay, uch haftagacha suruvsularini yo'lga chiqarolmadi.

Nihoyat duysi fotiha bo'ldi shekilli, bosh cho'ponlarga otlar berildi. Bekning qo'ylari har kechasi yetti suruvdan bo'lib to'qqiz kunga-cha yo'lga chiqib jo'naydigan bo'ldi. Bozorqullar uchinchi kechada ko'tarilishdi. Uning oti «Qirg'iy» laqabli besabrgina qora to'riq edi, tungi shovqin, cho'liqlarning «qurey, qurey»i, bo'ribosarlarning cho'l osmonini boshga ko'tarib hurishlari bilan g'ayratga kirib, tun o'tganini bilmay ham qoldi. Tong otganda qarasa, oldinda hov necha toshga-

cha yer-u osmon qop-qora bulut: tepada chang buluti, yerda suruvlar... Orqadagi yer ham shugorday qop-qora... Tuni bilan shunday yurilgan bo'lsa, orqadagi suruvlar changdan bo'g'ilib o'lmadimikan? Bozorqul darrov oldinga ot chop-tirdi: quduqdan keyin suruvlar enlatib, ikki-uch yo'lda solinsin.

Quyosh chiqqandan keyin itlarning ovozi tindi. Aqli bo'ribosarlar suruvlarni bo'ylab oldinga chopib boradilar-da, to hammasi o'tib bo'lguncha cho'zilib yotib dam oladilar.

Birinchi quduqda suruvlarni enlataman deb ancha ivirsib qolishdi. Kechga yaqin quyoshning qizg'in nurida bugun chiqqanlarning ham buluti qorayib ko'zga tashlandi. Dashti biyobonda uzoq ufqlardagi sharpa ham ko'rindi. Sharpa – uzoq, harakat bilinsa – yaqin, ovoz eshitilsa, undan ham yaqin. Cho'ponning masofa o'lchovi shu. Bozorqul orqadagilarning shoshilayotganini fahmildi. Keyin bilsa, oldindagilar ham jadallah haqida buyruq olishgan ekan. Oldinda quduq-ma-quduq yo'l boshlovchilar bu biyobonlarning har bir qudug'ini, har bir so'qmog'i-yu, karvon yo'llarini yod biladigan keksalar. Bozorqul ularni tanimaydi. Bu minglagan suruvlar ham, cho'pon-cho'liqning hayot-mamoti ham shular qo'lida. Bozorqul o'ylab qarasa, bu yerda taniydigan odami juda kam, hammasi begona. Bozorga o'xshash mol-dunyo dardi bilan omad izlab chiqqan tavakkalchi bo'ydoqlar bo'lsa kerak-da...

Kechasi ular har joy-har joyda chovgun osib, to'p-to'p bo'lishdi. Orqadagilarning ham ba'zilari yetib keldi. Bozorqul ular orasidan Chori-daqqi



degan tanish cho'liqni topib oldi, dardlashib yotdilar. Tizza-yu tirsaklari qadoq bo'lib ketgan jikkakkina Chori-daqqi boshqa gap qurib qolgan-dek, Qoplonning dumini qanday chopib tashlagani, qulog'iga qalampir sepib o'ziga yedirsa ham, qopog'on bo'limgani, lekin odamga sodiqligi haqida gapirardi. Bozor esa bu birinchi kechada negadir o'ksib Onabibini esladi. O'choqlardan oqquvray isi aralash pishloq hidi kelar edi. Bozorqul yotolmadi, o'rnidan turib ketdi, kelgan iziga tikilib qaradi, lekin u ko'rinas, uni cheksiz qora tun yutgan edi.

Cheksiz qora tun, cheksiz biyobon. Hali yo'l ham cheksiz. Birinchi tuni endi o'tyapti. Birinchi azobli tun... Hechqisi yo'q, avval shunaqa qiyin bo'ladi, keyin o'rganish bo'lib ketar.

Lekin ikkinchi, uchinchi kechalar undan ham og'ir bo'ldi. Chori-daqqidan turmush haqida biron bama'ni gap chiqmaydi. Bekning to'plagan odamlari allaqanday bir-biriga el bo'lmaydigan, olchoq odamlar ekan, ularning jirkanch qiliqlari, peshtaham gaplari Bozorning ko'nglini aynitar edi. Uni yolg'izlik qiyndi.

O'n ikkinchi kuni orqadagi suruvlardan, ikki cho'pon o'ldi, degan xabar keldi. Bu gap odamlarni ahillikka sal moyil etdi, kechalari gurunglar kattaroq, to'plar jipsroq bo'ladigan bo'ldi. Faqat Bozor qovushmas edi, u diliga yaqin odam topa olmadi.

Ammo u tetik. Anovi ikkov o'lsa o'libdi-da, o'zlari aybdor; mijozlari nozik bo'lsa, yo'nga chiqib nima qilishadi? Bozornimg bu jihatdan ko'ngli to'q, uning zuvalasi pishiq, uncha-munchaga bo'sh keladigan emas. Biroq...

Yarim oydan keyin turmush qattiq o'zgardi. Qora to'riq ham endi gijinglamasdi, it ovozlari ham onda-sonda hazin eshitiladi. Ikki suruv yo'lda qolib ketdi: ba'zi cho'ponlar ishratga berilib, tajribasiz cho'liqlar bu suruvlarni g'ira-shirada shag'aldan haydab qo'ygan ekan, tuyoqlari tushib ketibdi, oyoqlari qip-qizil go'sht, bir-birining ustiga yiqilgan... Tashlab ketishga to'g'ri keldi. O'sha kuni alamzada cho'pon bir cho'liq bolani urib mayib qilibdi, endi uning holi nima kechadi...

Ofat birin-ketin kela boshladidi. Ikki kun ko'zlab borilgan quduq quruq chiqib, aylanish yo'ldan uch dovon oshib suv izlashga to'g'ri keldi. Tashnalik, oziqsizlik yangi ofatlar keltirdi, oqsil tushgan suruvlarni ajratib dashtga quvdilar. Sirtlari, etlari shilimshiq bo'lib oqib tushayotgan joni-vorlar jaziramada yo'l siz kengliklarga o'lim izlab ketar ekan. Bozorquuning yuzlaridan sho'rtak yosh oqib tushar edi. Bu kunlari ko'p odam o'ldi. Qo'y kamaygan sari odam ortiqchalik qilib, ularni birov ataylab o'ldirayotganga o'xshardi... Shunday xunuk fikr miyasiga kelganidan Bozorqul o'zini koyidi: «Tavba, astag'firullo! Tavba, astag'firullo!» – deb yomon o'ylarni ko'nglidan quvdi. Lekin endi uning o'ziga ishonchli ilgarigidek zo'r emas edi. O'limning sabablari bu qadar ko'pligini, ajalning har qadamda poylab turishini endi bilyapti. Birovni qoraqurt chaqqan, birov go'shtdan zaharlanib o'lgan, birlini oftob urgan... Ajab, cho'ponni ham oftob uradimi?

Bozorqul ba'zida chalopdan ichi quydurasa yoki kechasi suyaklari zirqirasa ham cho'chib ketadi. Qirq kundan beri yo'lda. O'sha-o'sha ja-

zirama, o'sha-o'sha cheksiz ufqlar, jimir-jimir hovur... Endi u olamdan uzilgan, orqaga yo'l yo'q, mana shu suruvsalar, mana shu xudo urgan odamlar nima bo'lsa u ham shu.

Bir kuni, tog'ga yetganlarida, ungurdan koptokdek yumalab chiqib kelgan Chori-daqqi hovliqib Bozorni bir chetga imladi. Hozirgina quturgan itdan qutulgandek, ko'zlari ola-kula, qonsiz yuzlaridan sharros ter oqib tushmoqda, tili zo'rg'a gapga keldi:

– Bugun suyuq ichmas ekansiz, bir cho'liq bola tayinladi, – pichirladi u alanglab, – bekning odamlarini tanisang aytib qo'y dedi.

Bozorqul tushunmadi.

– Bekning odamlari?..

– Ha, Qoraqum eshonning odamlari ham bor ekan-da. Orqadan kelib qo'shilgan o'ttiz suruv o'shaniki ekan.

– Suyuqni nega ichmas ekanmiz?

Chori-daqqi qutsiz ko'zlari bilan atrofga alanglagancha, «qaydam», dedi-da, toshdan toshga sakrab, jo'nab qoldi.

Dovonning eng mashaqqatli joyi kelgan edi, tog' yo'llari aylanish, xavfli, tosh. Yantoq yo'q, keksa cho'ponlar ham bilmaydigan allaqanday o'lanlar quvrab-qovjirab yotibdi. Qorako'l qo'ylari o'zimizning o'sha tuganmas, dag'al beor yan tog'imiz bilan tirik edi. Ularning shu yaxshi xususiyati bu yerda ofatga aylandi, yantoq yo'q...

Nimalarni o'layapti Bozorqul?.. Chori-daqqi nima deb ketdi-yu, bu nimalarni o'layapti! Suyuq? Eshonning odamlari? Cho'liq bola aytidi? Jinni bo'lib qolmadimikan bu Daqqi? Juda

ko'zлari bejo edi? Pichirlagancha jo'nab qolishi ham g'alati...

Bu yo'lда har nimaga ishonsa bo'ladi. Bozorning o'zi ham keyingi haftalarda uyqudan qoldi, kechga-cha egarda zo'rg'a o'tiradi. «Qur-ey!», «Qur-ey!» bilan it vovillashi asabiga tegadigan bo'ldi, qulog'iga paxta tiqsa ham, hatto tip-tinch kechalari ham «qur-ey, qur-ey!» bilan itlarning ulishi naq miyasi-da shang'illab turadi. Keyingi paytlarda odam o'li-shi hech gap bo'lmay qoldi. O'ttiz-qirq chaqirimga yoyilgan bu qora bulut ichida ne hollar bo'lmaydi! Chorig'i chaqa qilib, yarasi qurtlab ketgan cho'liq bolalarni biyobonga tashlab ketishayotganmiss. Bozorlarning tungi gulxaniga ahyon-ahyonda bun-dan ham xunuk xabarlar yetib keladi...

Bugungi qo'nim yovvoyi tog'tosh orasida, bo'ri in qo'yadigan zax ungurda bo'ldi, tuni bilan itlar ulib chiqdi. Bozorqul o'choq ustida vaqirlagan qozonni ko'rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. «Suyuq ichmas ekansiz...» Nima gap o'zi? Chori qani?

Bozorqul o'choqma-o'choq hansirab yurib, Chorini topib keldi. Ajab, shu Chori-daqqi yonida bo'lgani uchunmi, yuragi biroz bosildi. Tinchlanib cho'zilib yotdi. Chori suyuq ichadigan kosasi-ni xurjundan olmadi ham, o'z meshlaridan ayron shimirib, yonboshlab yotishdi.

- Chori, nima gap? - dedi biroz tinchigan Bozor.
- Fahmlayapsizmi, o'lib, yo'lда qolib ketayot-ganlar hammasi bekning odamlari...

Bozor turib o'tirdi, Choriga tikildi. Daqqi jin-niga o'xshamaydi. Badani uvushib ketdi. Bir ni-mani tushungandek bo'ldi-yu, bu o'yni zo'r berib ko'nglidan quvar edi.

- Bo'lмаган gap.
- Eshon kallakesarlarni yollab, yo'lda bizni qirib tashlashni buyurgan bo'lsa-chi?

Bozor ham xuddi shuni o'ylab o'tirgan edi. Qonida mol-dunyo dardi qaynagan Bozor buni tez tushundi. O'zining yigirma suruvi bilan quvib kelib, chegaraga yetgandagina birovning ellik suruvini ham o'ziga qo'shib olish va yetmish suruv qorako'l bilan dorilomon musulmonobodda birdan paydo bo'lish niyati chakki emas. Lekin Bozorqul buni eshondan kutmagan edi. Eshonda bunday niyat bo'lishi bek odamlarining xayolida ham yo'q.

Bek odamlari?... Bozorquning vujudi muzlab qolgandek edi. Bek odamlari kimlar? Bozorqul ularni tanimaydi-ku? Bu yo'lda odamlar allaqachon aralashib ketgan. Har kim o'zini biladi, xolos. Ochiq gaplashish, surishtirish, o'z odamla-ringni atrofingga to'plash xavfli...

- Bizni asta-sekin qirib tugatadi ular, - dedi yarim tunda Chori-daqqi. Uning tovushi vasiyat qilayotgan odamning tovushiga o'xshardi.

- Senga o'sha gapni aytgan cho'liq kim o'zi?
- Menga o'xshagan bir bola. Nozikkina-yu, juda mard, ko'rkar. O'choq boshida sho'rvaga zahar solganlarini ko'ribdi, - Chori yuzini yerga berib yig'ladi.

- Qo'rqma, Chori! - dedi Bozorqul negadir o'rnidan turib, belbog'ini siqib bog'ladi. Chori ham turdi. Ular atrofga tikilib, bir qadam, ikki qadam nari-beri yurib, oyoqda tong ottirdilar. «Qo'rqma, Chori, qo'rqma», - deb qo'yardi Bozorqul har zamonda.

Lekin shundan keyin uning uchun azobli kunlar boshlandi. Shu kuni tongdayoq, ikki cho'ponni tosh bosibdi, degan xabarni eshitib, tizzalari bo'shashib ketdi. Tikka qoyalarga qarab, orqaga chekindi. Tog' yo'llarida ko'pincha otni yetaklab yurishga to'g'ri kelardi. Egarga o'rgangan odam yerda o'zini kuchsiz sezadi, uzoqlar ko'rinxmaydi, qandaydir noma'lum xavf-xatar kutib turgandek bo'ladi.

Bozorqul endi otda yursa ham, yayov yursa ham har qadamida ajal xavfi. Kushandas kim, do'sti kim, pichoqqa duch keladimi, toshgami, zahargami – bilmaydi. Bu yerda hali hech kim birovni himoya qilgani yo'q. Tog' yo'llari qora tunlar, yolg'izlik, bu dahshatli o'ylar – bari sening dushmaning. Bozorqul bir-birini yeyayotgan odamlar orasida qoldi. Har daqiqa tahlikada yashash, har sharpaga, har soyadan yurak hovuchlash, tunlari uyqu o'rniga sovuq terga pishlb yotish, har qultum suvdan o'lim kutish Bozorqulni cho'pdek qilib qo'ydi. Tosh ustida kaltakesak lip etsa ham yuragi uzilib tushgandek bo'ladi-yu, holdan toyadi. Chori ham ko'rinxmay ketdi. Tirikmikan? Tirigida haligi cho'liq bolani ham yaxshiroq surishtirib olmadi. Yosh bo'lsa ham, nozik bo'lsa ham, har qalay yoningda tirik jon...

«Oh, Onabibi, Onabibi!.. O'zinggina emas, har bir so'zing bir botmon tilla ekan, jonginam! Yonginangda bo'lsam oyoqlaringni o'pardim... Uzoq ketdim, uzildim. Endi orqaga yo'l yo'q».

Oldinga-chi?

Bozorqul podalar yopirilib, qop-qora bo'lib yotgan tog'larga qaradi. Tinmay siljib ketayotgan bu suruviar endi uning yuragini hovliqtirmadi, ke-

lajak boylik bo'lib emas, qora ofat bo'lib ko'rindi. Oldinda mana shu shum mavhumlikdan o'zga hech narsa yo'q edi.

U dunyoning qaysi burchagida yuribdi? Nega? Bu yo'llarning, bu jaziramaning oxiri bormi? Insonlar qani, insonning issiq chiroyi, mayin kulgisi qayoqqa ketdi? Bozorqul kechasi mana shu chalkash o'ylar bilan azobda yotar ekan, o'ttiz qadam narida bir nimaning qorasi ko'rindi. Pichog'ini qinidan olib, qimir etmay yotaverdi, nafasi tezlashib, ko'kragi qalqib-qalqib tushar edi. Sharpa qimirlamadi. Bozor ham undan ko'z uzmadni, har ehtimolga qarshi darmon yig'ib yotdi. Gulxanlar o'chgan edi. Qayoqdandir xunuk ovoz keldi, suruvlarning bir to'lg'anib qo'ygani eshitildi. Tun to'la dahshat. Bozor qaltiroqdan, qo'rquv-dan tamom tolib, mudrab ketgan ekan, ko'z ochib qarasa, tong otibdi. Haligi qora hamon turibditikka tosh ekan...

Bunday paytda odam kuladi. Bozorqul bo'lsa g'azabdan boshini toshga urgudek bo'ldi – o'zining bu ayanch kunga qolgani alam qilardi.

Shu kuni birinchi marta oyog'ida turolmay, cho'l qalqib ketgandek bo'ldi. Otining bo'yini quchoqlab ancha turib qoldi. Chorig'idanmi, meshdanmi allaqanday qo'lansa hid chiqdi. Ko'zi tinib, bir nuqtaga tikildi, xurjun sirtidan semiz bit o'rmalab ketib borardi.

Bugun kuni bilan ot yetaklab yayov yurdi. Uzangiga o'rgangan oyoq shilinib ketdi. Oqshomga bazo'r yetib, ko'ngli aynib yiqlidi. Shundagina kuni bilan tuz tatimagani yodiga tushdi. O'choq tomondan kalla-pocha isi kelib, yana ko'nglini

ag'dardi. U chalqancha yotar, bit talagan tani-ni qashishga majoli yo'q edi. Kechasi qandaydir keksa odam kelib, oyog'iga namakob qo'yib ketdi. «Olgindi bo'lib qolibdi», degani Bozorning qu-log'iga chalindi, u behush edi.

Bozorning ko'zlarini kosasiga cho'kib, terisi su-yagiga yopishib qolgan. Qimirlashga darmoni yo'q, ichida bir joyi lovillab yonadi, to'rsiqdagi iliq suvni ichgan sari qora ter bosadi tanini.

Kechalari ertangi yurishni o'ylasa, o'limiga rozi bo'lgudek. Birov qorong'ida kelib pichoq ursa yoki zahar berishsa ham mayli, endi unga baribir, faqat bedarmon holda biyobonga tashlab ketishmasa bas. Quyosh tig'ida yonib, chirib-sasib, necha kunlar davomida azob bilan asta jon berish yoki tiriklayin qashqirga yem bo'lish... Bu o'ylarning o'ziyoq Bozorqulni tobora qovjiratar, ado qilar edi.

Yana bir kun odamlarga bildirmaslikka urinib, ot yoliga osilib, sudralib, kalovlab yo'l bosdi-yu, undan keyingi kuni o'rnidan turolmadi. Hushiga kelib ko'zini ochsa, yonida ot yo'q.

– Qirg'iy... Qirg'iy!.. – deb chaqirdi boshini ko'tarib. Ovozi o'zidan bo'lak hech kimga eshitil-gani yo'q, boshi shilq etib tushdi. Quyosh ko'zga urardi.

– Qirg'iy... – dedi Bozorqul. Bu gal ovozi ham chiqmay, so'nggi umidi – «Qirg'iy» labida qoldi.

Bozorqul yerga qulq soldi – tinch. Yelga qu-loq soldi – jimjit. Ketishdi! Tashiab ketishdi! Ab-laahlar, yirtqichlar!..

G'azab kuch berib, o'zini ko'tarib yerga urdi, qiyalikdan yumalab ketdi, yuzlari, qo'llari shilinib,

toshga borib taqaldi. Ichida bir nima uzilgandek, tizzasini quchoqlab, tirishib qoldi. To'rsig'i oftobda yumalab yotibdi, xurjuni egarda ketgan, badanlari shilingan, qonli, kir, qo'lansa, juldur kiyimda xuddi eski lattaday kichkinagina bo'lib tosh soyasida yotardi.

Og'riq bosilib, ko'zini ochsa, quyosh butunlay erib yoyilib ketgandek, osmon yonar, tepasida pashsha g'uvillar edi. Boshini ko'tarib qaray olmadi. Nima bor ekan atrofda? Nahotki bu azob, yolg'izlik va o'limdan o'zga hech narsa bo'lmasa. Nahotki o'ylagani kelsa? Oftobda qurtlab o'lish, ko'ksingni qashqir g'ajiganini ko'rib yotish... ivv... ivv...

Bozorqul yig'layolmas, na ko'z yosh, na darmon bor edi. U «ivv-ivv!» degancha yengil qaltirab yovvoyi bir tovush chiqrarar, shu bilan iztirobini bosib, har zamonda hushidan ketar, tinib sal darmon yig'ar edi. Tushga borganda tili shishib og'ziga sig'may qoldi. Nariroqda to'rsiqda suvi qaynab yotipti, tik-kaga chiqib ololmaydi, toshning soyasi ham qochdi. Bozor so'nggi darmonini yig'ib, to'rsiq tomonga intildi-yu, issiq toshlarni changallab, yuztuban yotgancha hushidan ketdi...

Uni kimdir yuzigasov u suv sepib, hushiga keltirdi. Qorong'i edi. Bozor labidagi suv tomchilarini yaladi. Birpasdan keyin og'zida qo'y sutining ta'mini sezdi. Boshidagi odam ho'l latta bilan uning yuzini, ko'kragini artar, o'zi esa boladek hansirar edi. Keyin u hansiragancha Bozorni ko'tarishga harakat qildi. Ko'tarolmadi. Birpas nochor o'tirib, nafasini rostladi. Yana urindi. Bu safar bir iloj qilib opichdi, tog'dan pastga tushib ketdi. Bozorning qulog'ida nimadir qattiq

shovillar edi – nima ekan; toshlar yumalayaptimi? Dovulmi? Shalolami?..

Bozorqul keyinroq fahmladi – ko'tarib keta-yotgan odamning nafasi, yurak urishi shunaqa eshitilayotgan ekan. Bozor unga kuchi boricha tarmashdi-yu, kimligini so'ramadi. Baribir emas-mi – odam-ku, qashqir emas. Odam bllan birga bo'lishdan katta baxt bormi! Qayoqqa olib borsa ham mayli, mima qilsa ham mayli.

Endi odam uni ikki qo'lting'idan olib, oyoqlarini sudrab tushib ketyapti. Lekin Bozor payqamay qoldi: bu o'sha kungi ketishmi, yo boshqa kummi? Qanchadan beri sudrab ketyapti ekan? Bozor har zamonda hushidan ketib turar, og'zidan qo'y sutining ta'mi ketmas edi.

Hushiga kelganida haligi shovillash yana qu-log'iga eshitildi. Bozor endi buning nima ekanligini biladi, najotkorining qattiq azob chekayotgani, uning badani qora terga botib, har zamonda yiqilib qolayotganini sezadi, yiqilganida tizzasi toshga tilinib, tish orasidan asta ingraganini ham payqadi. Lekin jussasi kichkinagina bu odam uni qayoqqadir eltish uchun jonini o'rtaga qo'yib qasam ichgandek, bolasini tishlab qochayotgan yirtqich singari bardoshli, o'ziga rahmsiz edi. Bozor hali uning yuzini ko'rolgani yo'q, qorong'i. Shuning hammasi tunmi yoki hushsizlikmikan?

Qancha yurganlarini bilmaydi, bir vaqt Bozorqul ko'ksida muzdek nafas, butun badanida huzurbaxsh bir salqin sezdi. Qarasa, jilg'achada yotibdi. Tong. Suv tiniq. Osmon ham tiniq. Odam uning boshini etagiga qo'yib o'tirgan edi.

– Tuzukmisiz?

Bozor, yana hushimdan ketyapman, deb o'yla-di. Bu ovoz uning yuragini tilib ketgan edi. Toqatsiz to'lganib, «Kasalman, meni yomon dard chal-gan», deb pichirladi, yana to'lg'andi, zaif tovushi bilan faryod qildi:

- Onabi! Tovushing qulog'imga eshitilyapti!...
- Keyin nafasini bosib, najotkoriga murojaat qil-di: – Xotinim... Xotinimning tovushi eshitilyapti qulog'imga. Siz kimsiz? Nega meni qutqazdingiz? Bu qayer? Ust-boshim qani?
- Juda juldur bo'lib ketgan ekan, yoqib tash-ladim.

Yana o'sha ovoz. Bozor qaltirab ketdi, boshini ko'tardi.

- Tuzukmisiz, Bozorqul aka, menman, menga qarang... U Bozorni suvdan chiqarib o'tqazdi. Bo-zorqul o'tirardi-yu, ko'zi tingan edi.
- Menman, Bozorqul aka, men, Onabibi.

Bozorqulning xira ko'zlariga chindan ham Onabi-bining qiyofasi ko'rindi. U o'xshardi ham, o'xshamasdi ham. Cho'liq chakmon kiyib belini chilvir bilan bog'lagan taqir boshida kulohrmi, taqiya...

Bozorqul uni titroq qo'llari bilan paypaslar, yuziga tikilar, lablari titrashidan o'pkasi to'lib kelayotgani bilinar edi. U birdan xunuk tovush bilan yig'lab yuborib, Onabibining titilib ketgan chorig'iga yopishdi, oyog'iga panjalari bilan tir-mashib, yuzlariga surdi.

Onabibi ham yig'lardi, hushsiz yotgan, cho'pday bo'lib qolgan erining soqol bosib ketgan betlarini silardi.

- Siz ketgach besh kundan keyin, Qoraqum eshon ham odam tanlayapti, deyishdi. Sochim-

ni qaychilab tashladim-da, cho'liq bola bo'lib kiyinib bordim. «Yosh ekansan, jo'na bola», deyishdi, biroq keyin bir nima bo'lib qoldi shekilli, darvozadayoq ushlab hammamizni suruvga haydashdi, o'sha kuni yo'lga chiqdik. Yo'l-yo'lakay hamma-mizni xatga olishdi. Kuning kalta kelgur eshon odamlarining yomon niyatini ikkinchl kuniyoq payqadim. Qo'rmaslikka, charchamaslikka qasd qildim. Bilardimki, siz ketgan tomonga ketib boradim. Chori degan cho'liq bola bilan sirdosh boldim, unga anovilarning niyatini aytdim, u sizlar tomonga borib-kelib turdi, bekning odamlaridan tanganlarini ogohlantirdi. Keyin Choridan sizning qayerdaligingizni bildim. U bechora qoraqurt chaqib o'lib ketdi. Menga sizni topib berdi-yu, o'lib ketdi... Egarga minolmay qolganingizda men yoningizda edim, uzoqdan kuzatib yurdim yiqilib qolishingizni poylab. Bilardimki, yiqilib qolganlarni tashlab ketishyapti... Siz yiqilib qolgan kuni kechasi men ham uzoqda toshlar orasida yashirinib, karvondan qoldim. Ular uzoqlashishi bilan qosh qorayganda sizni borib topdim...

Bozor bu gaplarni eshitmadi. U hamma voqeani anglagan edi. U faqat ro'parasida Onabibi o'tirganini miyasiga sig'dirolmas edi, xolos.

– Onabibi... Onabibi... – derdi yuz-ko'ziga tikilib, – sochlingni oldiribsan... Meni kim ko'tarib keldi?

Onabibi uning bu gapidan, yana esi og'yapti, deb o'yladi. Lekin Bozorqul davom etardi:

– U vaqt kuyov bola edim. Dadang menga shunday degan: «Mol-u dunyo dardi boshingni yeydi, oshiqlik dardi joningga ora kiradi». Esimda.

– Dadam har kimning o'ziga tegishli gapni aytadilar...

– Onabibi... men endi o'lmayman. Ajalning sovuq sharpasi yonimdan o'tib ketdi. Endi senga nima qilay? A? Oyoqqa turganimdan keyin aytasanmi?

– Yo'q, hozir aytaman... Meni seving.

Bozorqul ho'l ishtoni yopishib turgan qoq suyak oyoqlariga, ingichka bilaklariga, kichkina boladek bo'lib qolgan jussasiga boqdi. Ikki qo'li bilan yuzini to'sib, boshini egdi.

– Mening qanchalik pastkash ablah ekanimni hali ham tushunmadingmi?.. – dedi u yerga gapirgandek.

Onabibi indamadi. U nima bilandir ovora, belbog'ini titar, ivirsir edi.

– Qayerdamiz? Sen bilasanmi? – deb so'radi Bozor anchadan keyin.

– Hozir bilamiz-da! – deb Onabibi o'rnidan turdi.

... Bir tog' qishlog'ida u Bozorqulni uch oy parvarish qilib oyoqqa turg'azdi. Qishloq odamlari ning tili, urf-odati yot bo'lsa ham, g'urbat chekkan musofirlarga imo-ishora bilan mehr ko'rsatishdi, avval boshpana topishdi, keyin Onabibiga ish, kir-chir berib turishdi. Lekin Onabibi keyingi haftalarda tog'dan shox-shabba yig'ishga, kir yuvishga qiynaladigan bo'lib qoldi. Bo'yida bor edi. Hali olti oyga yetmay, oyog'i juda og'irlashlb tog'da uzoq o'tirib qoladigan, butun vujudini og'riq tutib qiynaydigan bo'ldi. Onabibi bu dardni eriga aytmay, anchagacha andisha qildi-yu, oxiri aytishga majbur bo'ldi. Uni yotqizdilar.

Shundan qilib, Bozor turdi-yu, xotini yiqlidi. Endi ular bu begona qishloqning o'z kishisi

bo'lib qolishgan edi. Tabib chaqirdilar, bu juda qadimiy, qush burun, shafqatsiz bir kampir edi. «Ahvoli yomon, homilasi ikki-uch oyligida og'ir yuk ko'tarib qo'yibdi», dedi u.

Bozorqul boshini ushlab yerga o'tirib qoldi. «Og'ir yuk» – uning o'zi edi. Umuman, u bu dunyoda keraksiz og'ir yuk bo'ldi, xolos...

Onabibi bolasini yetti oyligida tug'di.

Tug'di-yu, o'zi olamdan ko'z yumdi.

Azimjon begona yurtda qon yig'lagan otasining qo'lida qoldi.

Azimjon haykal soyasida o'tirar, biroz xafaroq edi. Allaqachon o'lib ketgan dadasingin «halokatli xatosi» haqidagi gap yoqmadi shekilli, anchadan keyin:

– Dadam meni telpagiga solib katta qilgan... – deb qo'ydi.

– Men ham Onabibini katta qilaman deb umrimning yigirma yilini bekning ostonasiga to'kkaman. Dadangni yomonlamoqchimasman. O'sha yili yo'q bo'lib ketgan o'zbek qorako'lchilagini yana tiklash uchun butun bir avlodning umri kerak bo'ldi. – Ochil buva haykalning g'udur xarsangini kafti bilan urib-urib qo'ydi. – Yantoqdan tilla qiladi, azamat! – dedi oltinlanib turgan do'sti Jabayga «xayr» degandek qarab.

Endi ular chorrahadan burilib, uzoqlarda ko'karib ko'ringan tog' tomon yurdilar. Asfalt yo'l tugagan edi. Mashina orqasidan uzun chang buluti sudraldi. Kech salqin, onda-sonda uchraydigan quvoqlarning soyasi uzun, quyoshning usqda qolgan kichik parchasi cho'g'dek yonar edi. Azimjon bosh egib o'tiribdi.

– Dadamning eng katta gunohi – meni vatan-gado qilganidir deb o'ylar edim... – dedi o'ychan.

Ochil buva unga qaradi-yu, indamadi. Bu nevarasiga birinchi marta shunday rahmi kel-di. Taqdiri notayin. Qirqqa kiray debdi-yu, hali uylanolmabdi. Davlati katta emish... Davlatni nima qiladi? Vatangado. Muncha kichik jussasi ham? Chumchuqdek. Hozir shunday kichkina bo'lib qoldimi yo ilgari ham shunaqamidi? Ochil buva uning boshini siladi. Azimjon boshini ko'tarib bobosining yuziga qaradi. Ko'zining qorachig'i xira, nam edi.

– Orif tog'amning bolalari nechta?

– Orif tog'angning farzandi yo'q, bolam. Qorong'i tushdi. Mashinaning chirog'i uzoqlarni, yo'lning past-u balandini yoritar, unda chang, chivin-chirkay g'ujg'on o'ynar edi. Soat o'n birlarda ular tog' etagidagi vodiyga kirib keldilar, bir-biriga tutash qishloq ko'chalari, qator terak dala yo'llari boshlandi. Guzarlar, choyxonalar hali gavjum, suv sepilgan tuproq hidi, gul-u rayhon hidi anqigan, mashinani laycha itlar vovillab kuzatib kelar, ro'paradan chiqqan mashinalar lip-lip ko'z qisar edi.

Tuman markaziga kiraverishda yana asfalt yo'l boshlandi, son-sanoqsiz chiroqlar, hali so'nib ulgurmagan tungi shovqin kutib oldi ularni. Bu qishloq ham emas edi, shahar ham. Bir tomonda endigina podadan qaytgan targ'il bo'kiradi, ko'prik boshida kallaklangan tutlar, ikkinchi tomonda kunjara hidi, elektr simlariga oppoq paxta gardi ilashgan, yog' zavodining quvvat beruvchi stansiyasi gup-gup ishlab turibdi. Ochil buva

hali bu tumanni ko'rmagan edi, Orifjon bu yerda yangi. Tog' tumanlarini ham, cho'ldagi yangi sovxozlarni ham o'ziga qo'shib olgan katta tuman deyishadi.

– Hoy, bola, – dedi Ochil buva chiroq tagida pista chaqib turgan o'smirlarga qarab, – Orif Ochilovning hovlisi qaysi?

– Raykom³nikimi?

– Ha.

– Hov, muyulishda. Garajli darvoza.

Darvoza ochiq edi. Hovli to'rida dasmolqovoq bilan to'silgan ayvon, yonma-yon ikki xona, birlida chiroq yonib turibdi. Mashinadan tushganlarnga daraxtzor hovlining salqini urdi. Bobo-nevara chiroqli darvozaga qarab yurdilar, ochiq oynadan uch bolaning o'ttasida o'tirgan Orif tog'a ko'rinar edi. Bolalardan biri kichkina. Orifning tizzasida o'tirib, qolganlarga xalaqit beryapti. Qolgan ikki bola, biri qiz, biri yigitcha, ikkisi ham 15–16 yoshiarda, masala yechish bilan ovora. Orif ikkaliasining yozuvini kuzatar, dam biriga, dam ikkinchisiga izoh berib, goh ular bilan olishib ketar, goh peshanasini tirishtirib o'ylab qolar edi.

Ochil buva bilan Azimjon tugunlarini ko'targancha to'xtab, kuzatib turishdi. Azimjon hajajonda edi, bobosiga savol nazari bilan boqdi. Ochil buva mo'yloving bir uchi bilan kulib labiga barmoq bosdi: «jim!»

Stol atrofida janjal boshlandi. Qiz bilan yigitcha masala talashib shovqin solishdi, Orif ham nimanidir baqirib gapirar, lekin bir-birlarining

³ Sobiq ittifoq davrida tuman partiya qo'mitasi birinchi kotibining qisqartmasi.

gaplarini eshitmas edilar, Orif tog'a qizning boshiga bir shapati tushirdi, kichkina chinqirib yig'lay boshladi, yigitcha dastro'mol bilan uning burnini chimchilab artib oldi, daftarlar yerga sochilib ketdi...

Bu payt haydovchi mashinani garajga kiritayotgan edi, Orifjon motor ovozini eshitib o'rni dan turdi, hammasi jim bo'ldi.

Ochil buva yo'taldi. Orifjon chiqib keldi, bolalari derazadan sakrab tushib ketishdi. Ota-bola ayvonda uzoq quchoqlashib turishdi.

– Tan-joningiz omonmi, dada? Shuncha yo'l bosib... O'zim borardim... Tolibjon bardammi? – dedi Orif yo'lda charchagan keksa otasiga qayta-qayta tikilib qarab.

– Hammalari salom deyishdi. Sen ishli odam san. Meniki bir umrlik ta'til, – dedi Ochil buva so'ri labiga o'tirib soqolini silarkan. – Mana, jiyaning Azimjon, dunyoning narigi burchidan topib kelibdi.

– Azimjon?

Azimjon tugunni qo'yib, yo'lda changib ketgan etigi, ust-boshiga o'ng'aysizlanib qaradi, tog'asi tomon odimladи.

– Yopiray! O'sha o'zimizning Azimjon-a! – Orif ning qoracharoq, sergo'sht yuzida mehr balqib turardi. Uning keng quchog'ida Azimjon yo'q bo'lib ketdi.

– Obbo jiyan-ey! Til bilasanmi?

– Bilaman, Orif tog'a.

– Qani-qani, ichkariga kiringlar, etikni yeching, dada... Onabi, qayoqdasan, ko'r pacha sol mehmonlarga! – Orif suyagi buzuq og'ir gavdasi

bilan qandaydir chaqqon harakat qilib, quvonchda ivirsir, gapirar, so'rар, savollarga javob berar edi. Javonlar ochilib ketdi, qaymoq, asal islari keldi. Tashqarida o'choq yallig'landi.

- Onabibini tanimabman.
- Ha, dastyor bo'lib qoldi.
- Anovilari qani?
- Ulari qo'shnimizning bolalari. Yormat bilan Normat, Ochil buva keldilar, deb suyunchi olgani chopishdi shekilli, – kuldi Orifjon qo'liga to'kilgan shinnini yalab.

– Meni bilishar ekan-da... Sen-chi, – Ochil buva Onabibiga qiziqib qaradi, – sen meni taniysanmi?

– Ha, – dedi Onabibi tetik turib, – osmon gum-bazini qurganda g'isht uzatib turgan ekansiz, to'g'rimi?

Ochil buva o'g'liga qaradi: «Shunaqa degan-miding?» Rohat qilib kuldilar.

Mehmonlar yuvinib bo'lguncha, rux samovar keldi, tunuka barkashga jiz-jiz etib cho'g'i tushardi. Orif non sindira turib Azimjonga qaradi, hozir uning uchun qizig'i Azimjon edi: qayerdan, qanday qilib paydo bo'ldi, qanday odam, fikrida, ko'nglida nima bor? Qanday katta bo'ldi, taqdiri qanaqa?

Ochil buva bularning hammasini bir boshdan hikoya qila boshlaganda telefon jiringlab qoldi. Orifjon turib kursiga o'tirdi-da, go'shakni oldi.

U avval ruhi tushibroq, anchagacha indamay quloi soldi. Lekin ko'nglida norozilik kuchaya borgani yuzidan bilinar edi.

- Xo'p, Mariya Vasilyevna, lekin men bunga qarshiman. Senga ilgari ham aytgan edim, ho-

zir ham aytaman... Xo'p, xo'p, sen olib kelgansan meni, lekin endi yo sen ishlashing kerak, yo men. Masala shunday bo'lib qoldi... O'zing baqiryapsan! Odamgarchilik qolmabdi senda, yurak qolmabdi... A? Yana o'sha gap! Unday bo'lsa kotibliging kerak emas menga, men avvalo odamman, ha! – Orifning tovushi tobora balandlashar, g'azabga aylanib borar edi. – Sendan yaxshi tushunadi o'shalar! Nima qilsang qillaver, faqat telefonda baqirma! – u go'shakni taraq etib qo'yib qo'ydi.

Onabibi ostonada ikki kosada shirchoy ko'tarib turardi.

- Mariya Vasilyevnang o'sha Maryammi? – so'radi Ochil buva ham ishtahasi bo'g'ilib.
- Ha... Ha-da. Erkak odam bo'lsa-ku, yetti pushtini yo'qlab bir so'kardim-u, xumorimdan chiqardim...

– Viloyat kotibi bilan ham shunaqa gaplashadimi odam! O'zing kimsan? – ovozini ko'taribroq so'radi Ochil buva. Qovog'i osilib tushdi.

Orifjon boshini solganicha o'tirar edi...

Azizlar, yo'lovchilarimiz birinchi manzilga yetishdi. Vaziyatga qaraganda biz ham bu bekatda to'xtab, bir qissa eshitamiz shekilli. Lekin ibrat uchun avval

RIVOYAT

Sir yoqasidagi Forob qishiog'ining mardumi Muhammad ahli donish orasida jumla jahonga ma'lum va mashhur edi. Ilm-u hikmat bobida Arastudan so'ng ustodi soniy bo'lib, Al-Forobiy

nomi bilan musharraf edi. Alqissa, yunon safaridan qaytarda minglab g'aroyibot qatori bir mo'jiza olib qaytmish erdikim, uning oti naydir.

Attangki, ustodning qaytishi bu dafa elda shodiyona bayram bo'lmasdi. Boiskim, fuqaroning aksari, jumladan, Al-Forobiyning yakka-yu yagona jigarband og'asi ham Bilujiston mulkiga asir tushib, yoppasiga haydab olib ketilgan edi.

Ustod iztirobi beedad chekdi. Nay chalib, nola qildi. G'urbat-u hijron dardida «Cho'li Irog»-u «Ushshoq» yanglig' ko'p sitamgar navolar ijod etdi. Nihoyat bardoshi tugab, aqalli jigarbandini tilab olish umidida Bilujiston shohining arki ma'shumiga qarab ravona bo'ldi.

Bu dargoh baayni jahannam, falak gumbazini oh-nola tutuni tutgan, qiyomat qoyimning xuddi o'zi edi. Ustodning og'asi yanglig' mo'r-malax qullar yasoq-yasoq bo'lib qaynoq kun tig'ida qora terga botib zahmat tortar edilar. Ustod bu bedodlikni, inson qadrining nechog'lik tuban tushib ketganligini ko'rib, og'asini ham, niyatini ham faromush qildi.

– Bu nadirki, bu azobda bino qilursiz? – deb savol qildi ustod.

– Shohimiz jahoning sakkizinchı mo'jizasini barpo etmoqdalar, – dedi qamchisidan qon tomgan sarkor, – sen jahongashta darvishga o'xshaysan, shavkatli shohimizni duo qil.

Ustod undan yuz o'girib qullar orasiga kirib ketdi.

Terisi ustixoniga yopishgan, majolsiz qullar uzoqdan xarsang tashir, tuproq qazir, balandlikka tosh ko'tarib chiqar edilar. Ular och-yalang'och,

xasta tanlari yara-chaqa, shom-u sahar betimiz zahmat chekib, tunlari chivinga talanar ekanlar. Eng mudhishi ulkim, bu bevatan bechoralar orasida noma'lum bir ofat, kasal tarqalibdi. Bu dardming na bir sababini, na davosini biron kim-sa bilmasmish. Qullar andoq qirilmoqda ekanki, shohning o'zi ham tahlikaga tushibdi: uning qullari bu ofatdan qirilib, tugab ketsa, sakkizinch mo'jizani kim bino etadi? Shoh shon-shuhrat qozonmoqchi, jahonga nom chiqarmoqchi axir!

Binobarin, shoh qullariga muruvvat qilib, beradigan yemagini andak oshirib, haftada shir, oyda bir go'sht ham ulashtiradi. Ishboshilarga tilla tarqatadi: qullar o'lmasligi kerak! Ammo ofat chekinmas, qullar hamon pashshaday qirilar edi.

Ustod bu miskinlar orasida uzoq yurdi, birga yotdi, birga turdi, hamdard bo'ldi. Kunlardan bir kumi umi sarkor ko'rib, so'roqqa tutdi:

– Hoy, musofir, sen darvishga o'xshamaysan, kimsan bu do'zaxni ixtiyor etgan?

– Men Al-Forobiyman, – dedi ustod. Sarkorlar-ning esi og'ib qolay dedi, ko'zlarining soqqa-si chiqib ketdi. Ular avval asta tisarilib, so'ngra tirqiragancha orqalariga qaramay qochdilar.

Shu kumiyoq Forobiyni navkarlar olib ketdi, shoh uni o'z huzuriga da'vat etgan edi. Ustod arkoni davlatning hashamatli saroylarida necha chaqirim poyondozlarmi bosib o'tib, shavkatli Birlujiston shohining huzuriga yetdi. Shoh surmaday qora soqolli, banoras to'n va oltin toj kiygan yoshgina, Yusuf alayhissalomdek husni barkamol bir zot ekan. U taxtidan qo'zg'alib al-Forobiying istiqboliga chiqdi.

– Bizning mulkimizga tashrif buyurgan ekan san, biz mammunmiz. Ammo nechun bizga ma'lum etmadning?

Shohning imosi bilan uning oyog'i ostiga bir tovoq oltin to'kdilar. Ustod pinak buzmadi, u bunday shohona dahmazalar, «muruvvat»larni ko'p ko'rgan edi.

– Nega chorladingiz, shoh? – so'radi u soddagina qilib.

Kamlda «shavkatli shahanshoh», «shohl jahon» deb ulug'lashlariga o'rgangan shoh bunday muomalaga bu safar g'azablanmadi.

– Bizning sodiq qullarimizga qirg'in kelibdi, uning davosini topib ofatga barham bergaysan, – dedi u, kattagina charm xaltada tillani uning oyog'iga o'zi tashladi.

– Bu mening qo'limdan kelmaydi, shoh.

– A? – dedi g'azablanib shoh, jadal borib taxtiga o'tirdi. – Sening ilm-u fuzul aro shuhrating, Ustodi Soniy noming g'alatmi? Sen bu ofatning qayoqdan kelganini, nima ekanini bilmaysanmi?

– Bilaman, shoh. Lekin davolash qo'limdan kelmaydi.

– Kimning qo'lidan keladi?

– Bu faqat sizning qo'lingizdan keladi.

Shoh taxtdan sakrab turdi. Saroy ahliga farmonlar berdi: ustodi Soniy saroyda qoladi, unga tillado'zi to'n kiygizilsin!..

– Xo'sh, ustod? Bu qanday ofatdir va biz uni qay yo'sin davolay olurmiz?

– Bu sog'inish-sarg'ayish, firoq dardidir, shoh... Buming davosi ularni o'z vatanlariga qaytarishdir. Faqat shundagina tirik qoladilar. Aks holda qirilib ketgaylor, – dedi al-Forobly.

– Sen donishi suxandonsan, bilamiz, hazil-mutoyiba qilmoqdasan. O‘z vaqtida buning ham qadriga yetgaymiz. Ammo hozir so‘zning chini...

– So‘zning chini shu.

– A? Bilasanki, biz qullarni o‘z vataniga qaytarmaymiz, bundan ko‘ra ularning qirilib bitguncha shu yerda mehnat qila turgani biz uchun afzal.

– Bilaman. Ammo kasal shudir va o‘zga davosi yo‘q. Shohning g‘azabi tug‘yon urdi:

– Yo‘qot! Oyog‘iga kishan solib qullikka tashla!

– deb baqirdi.

... Shunday qilib, ustodi Soniy shoh saroyidan qul bo‘lib qaytdi, kishanini zo‘rg‘a sudrab yurgan ming-minglab majolsiz qullarga kelib qo‘sildi.

Kunlar, oylar tubanlikda, g‘urbatda o‘tdi. Minglar bilan taqdiri bir edi ustodning. Qirg‘in-barotni, o‘limni bo‘yinlariga olgan qullar uchun u tanujon, birdan-bir ravshan fonus edi.

Bir oqshom ustod qo‘ynidan nay olib, nola mashq qildi. Quloqlari zangli kishan jarangidan batang bo‘lgan qullar nozik nay navosini eshitib titrab ketdilar, yotgan, turgan, o‘tirgan joylaridan jilmay qoldilar. Nay navosi dam barglarda o‘yagan bahor yeli, dam uzoqdan momaqaldiroq nafasi kabi, to‘zonli shom havosini lim-lim to‘ldirgan, juda uzoqlardan chorlab kelganday qalbiarni talpintirar, har kimning aytolmay yurgan mungli tuyg‘ularini hikoya qilar edi.

Qullar har oqshom nay tovushiga to‘planadigan bo‘ldilar. Navolarning dardli avji dillarni tilkalar, odamlar esa bu jarohatdan lazzat topib o‘zligini unutar edi.

Odatda nola tinglaganda, go‘yo gunohlari yuvilgan beg‘ubor qalb oynasi chil-chil sinadigan-

dek, azongacha hech kimsa indamas edi. Ammo bir gal kimdir uh tortib qo'ydi. Shu uh sukunatni chil-chil sindirdi-yu, jonlanish boshlandi.

– To'lqinlar... – deb pichirladi kimdir.

– O'tloqlar... – dedi birov.

– Zangori gumbazlar...

Bu gaplardan nimanidir anglagan ustod o'zining «Peshravi diyor» degan uzun va dardnok no-lasini chala boshladi.

– Bu bizning Sayxunimiz-ku... – dedi bir qul kuy tugaganda.

– Chaling, ustod!

– Bu navo bizning Forob bog'larini namoyon etdi!

– Chaling, ustod!

Bu tovushlar avval faryoddek eshitildi. Ammo so'ngroq qullar Forobiyan: «Yurtimizni namoyon eting, ustod!» – deb iltimos qiladigan bo'ldilar. Har oqshom nay sadosi yangrar edi. Ranglari-ga qon yugurdi. Ular navo go'zalligida namoyon bo'ladigan vatanga ko'ndilar, ko'nikdilar. Endi ular yig'lar, kular, o'y surar edilar. Ajal ofati che-ki...

Jahonning sakkizinchı mo'jizasi bino bo'ldimi, yo'qmi – roviylar bilmaydilar. Ammo odam qal-bidagi go'zallik tuyg'usi mo'jizalar mo'jizasi ekan-ki, inson usiz inson emasdir...

QISSA

Odam hamisha go'zallikka intilishi kerak.

(Onore de Balzak)

Shu yili mayning o'rtalari edi-yu, lekin ob-havo erta bahorgidek mayin, ahyon-ahyonda mo-maqalldiroq guldurab, iliq yomg'ir sevalab, tuproq hidi yurakni hovliqtirar, ko'ngilda yashirinib yotgan quvonchlarni yuzga, ko'zga qalqitar edi. Orif akaning dilida esa pinhoniy quvonch ko'p. Avvalo, bu tumanga, o'ylamagan joyda bu qadrdon tumanga kelib qolganligi...

Shaharda, ochig'i, «yuzga chopar»ligi tufayli uni qayoqqa qo'yishni bilmay qolishgan edi. Keyingi yili silliqqina qilib sanoat bo'limiga o'tkazishdi, shaharning sanoati esa ikkita paxta tozalash zavodi bilan bitta ta'mir ustaxonasidan iborat edi. Orif aka yaxshi tushundi: bu – undan qutulish, uni faoliyatdan mahrum qilish niyatida qilingan ish. Shuning uchun ham eski qadrdoni Mariya Vasilyevnaning bu viloyatga, xususan, bu yangi tumanga ishga taklif qilib qolishi Orif akaning naq ko'nglidagiday bo'ldiki, nimasini aytasiz!..

Orif akaning bu yerga kelishga allaqanday ichki, hazin sabrsizlik bilan rozi bo'lishiga yana bir nozik sabab bor edi. U ham bo'lsa Saragulning xotirasi.

Saragul rahmatlik Ko'yki degan tog' tumanining Shivilg'on qishlog'idan edi. Ko'yki hozir shu yangi tumanga qo'shilib ketgan.


Shivilg'on!.. Shivilg'on... Orif akaning eng shirin yigitlik paytlari uning sirli manzaralari bi-

lan, butun umri uning unutilmas xotiralari bilan bog'liq. Saraguldan judo bo'lganidan buyon u yerlarga borgani yuragi dov bermadi, lekin tushida ham, o'ngida ham o'sha yerning alamlari, quvonchiari uni chorladi.

Mana endi borishi mumkin. Borishi kerak. Kelganidan beri shuni o'ylardi. Endi u Shivilg'onga shunchaki ko'ngilchanlik, ziyorat deb emas, ish yuzasidan ham borsa bo'ladi. Bugun Mariya Vasilyevna uni raykom byuro a'zolari bilan tanishtirganida ham Orif akaning xayolida shu edi. Byuro a'zolari hurmat va sopolik bilan qo'l berishdi-yu, ko'plarining na qiyofasi, na ismlari yodida qoldi. «Ertagayooq Shivilg'onga!», «Avvalo Shivilg'onga!» deb ta'kidlar edi ko'nglida.

Ertasiga yana allaqayoqda bo'g'iqqina momaqalldiroq guldurab, beozorgina yomg'ir sevalab o'tdi, bo'liq tuproq hidi anqidi. Raykomning to'zon rangidagi kichkinagini eski gazigi dik-dik sakrab dala yo'liga chiqqanda tuman markazida hali kun uyg'onmagan, onda-sonda chiranchoq jo'jaxo'rozlarning qichqiriqlarigina eshitilar edi. Orif akaning tongda turib yolg'iz yo'lga chiqqanini hech kim bilmaydi, faqat Mariya Vasilyevna payqagan bo'lsa ehtimol. Kecha byurodan keyin, viloyatga qaytib ketish oldidan uyga kirib, Onabibining sochiga yangi qizil tasma taqib qo'ydi. Bir piyola choy ichib ketdi.

Mariya... Maryam... Vaqt o'taverar ekan. U ham ellikdan oshdi shekilli. Orif esini tambdiki, u ishda. Charchamaydi, qarimaydi. Lekin sog'lig'i uncha yaxshi emasga o'xshaydi. Jilmayishida



g'alati bir ma'yuslik bor, kulgichlarining atrofida mayda ajinlar yig'iladigan bo'libdi.

Ammo ishda o'sha-o'sha dadillik, biroz hissiz-roq qat'iyat, keskin va samimiy gaplashish...

– Bilib qo'y, Orif, og'ir tuman, katta tuman.
Asosan yangi sovxozi, yodingda bo'lsin!

- Nega erga tegmading, Mariya Vasilyevna?
- Asosan yangi sovxozi, bilib qo'y.

Kecha xayrslashayotganda ularning gapi shu bo'ldi. Hoynahoy u hozir uyg'oq. Orif akaning tongda turib Shivilg'onga jo'nashini kechayoq payqagan edi. Payqagan edi-yu, lekin ikkalasi ham bu haqda gap ochmadi...

Tong otdi. Yomg'ir yuvgan tiniq havo ufqdagi tog' tizmalarini ham sof zangori rangga chaygan; sal namiqqan ilon izi yo'llar ruldag'i yo'lovchining yuragini hovliqtirib uzoqlarga chorlab yotardi.

Orif aka bu yo'llarni yaxshi biladi. Bu yo'llarni yayov kezgan baxtiyor yillarini unutgan emas.

Bugungi safar uning uchun yoshlikka qaytish, to'g'rirog'i, yoshlikning qaytib kelishi edi. U qayerda bo'lmasin, o'n yillardan beri bu joylarning qadrdon suratini ko'nglida saqladi. O'rakach-o'rakach ishkomlari-yu, salqin buloqlarigina emas, yo'l yoqasida o'sgan har bir otquloq bargi ham jonga yaqin, ko'zga issiq, cheksiz xotiraclar manbayi edi.

Orif aka shuncha yo'llar, shuncha ellar kezib, na o'z yurtimizda, na Yevropa mamlakatlarida Shivilg'onday go'zal tog' qishiog'ini uchratoldi. Sobiq Ko'yki tumanida («Sobiq! Negadir uni «sobiq» qilib qo'yishibdi!») har bir kichkina qishloqning ham o'ziga xos chiroyi, o'ziga xos fazilati bor.

Shivilg'on tog'-tosh orasida ko'm-ko'k ishkom-larda ko'millb yotgan qishloq, mashhur shivilg'oni uzum shu yerdan tarqalgan. Orif aka Saragulning oldiga Shivilg'onning ko'rkini bahona qilib kelardi.

Darhaqiqat, bahona qilsa arzirdi-da. Qishloqning katta ko'chasidan tog'dan pastga qarab oqqan Shivilg'onsoyning shovillashi ham, muzdek shabadasi ham uzoqdan ko'krakka urardi. Qishloqqa kirib kelgan odam, kim bo'lmasin, tepadan shovillab, ko'piklanib tushayotgan sersha'lola soyga qarab anchagacha turib qolardi. Soyning ikki qirg'og'i bo'ylab tikka chiqib ketgan tabiiy oq xarsang zinalar hovlilardan devor oshib egilib tushgan yashil tok soyasida doim namchil, unda qizil ko'ylak kiygan qizaloqlar yalang oyoq chopqillagani-chopqillagan. Shalola zarralaridan ularning kokillari doim yaltirab ko'rinar, ular istagancha qichqirib shovqin solishar, ovozlar eshitilmas edi. Orif aka Saragulni ham birinchi marta mana shu ko'chalarda uchratgan...

Orif aka o'sha paytlarda ham, keyin Saragulga uylanganida ham, Shivilg'onga kelib qolsa mana shu ko'chaning pastida turib tepaga, son-sanoqsiz shalolalarga tikilishni yaxshi ko'rardi. «Petergof! Petergof!» derdi har safar hayratda qolib. Eng tepada, uzoqdagi muzli cho'qqi ertalab zangori, kunduzi ko'zni olgudek charaqlab, oqshomda esa qashqa buzoqning kallasiday qoraqo'ng'ir ko'rinar edi.

Bu markaziy ko'chadan ikki tomonga kirib ketgan tor ko'chalar tog'-u tosh orasida shu qadar past-u baland, hovlilarni qoplagan yaxlit tok ostida shu qadar qorong'i, shu qadar chakalaksi-

mon bo'lib ketgan ediki, bunga pochtachilar ning odatlanib qolgani-yu, odamlarning adashmay yurganiga Orif aka har safar hayratlanardi. Tog' havosining azbaroyi musaffoligidan, bu yerda g'arq pishgan mevazor bog'larning xushbo'yigina emas, kichkina bir yovvoyi gul hidi ham, tog' bag'rida qovjiragan bir cho'p hidi ham dimoqqa o'tkir tuyular, sharsharalarning doim bir xilda-gi tinimsiz shovillashi asablarni allalar, butun qishloqqa yoyilgan sarin shabadasi esa odamni doim tetik tutar, bu yerning yosh-yalangi-yu qari-qartangi bir umr toshdan toshga sakrab yurar, toliqmas edi. Bu yerda istiqomat qiluvchi har bir kishi, bu yerning har bir o'g'il-qizi bolaligidanoq tok parvarishining ikir-chikirigacha o'rganib olar, qishloqdan tepadagi tog' bag'rida qorayib o'sgan cheksiz pistazor, yong'oqzor o'rmonlarning har bir so'qmog'ini yod bilar edi. Orif aka bilan Saragulning bu qorong'i so'qmoqlarda ataylab adashganlari, ini to'zg'igan arilar quvlaganida oydin buloqlarga duch kelib, muzdek suvda yuvinib quvonganlari, soyga gulchambar oqizib baxt sinaganlari... qachon edi bularning bari? Chindan ham bo'lganmidi? Yo tushmidi bular...

Orif aka GAZga tormoz berib, shimining cho'ntagidan ro'molchasini oldi, peshanasini artdi. Quyosh ko'tarilib qolgan. Mashinaning yonginasidagi ariqda shildirab suv oqar, tikkadagi to'rg'ay dam kaltagina sayrab qo'yar, dam ariqning chuldirashiga qulq solgandek, to'xtab qolar edi.

Xayolidagi manzaralarga berilgan Orif aka bordan esladi: u yerda endi Saragul yo'q... U yerda ham, umuman butun olamda ham yo'q.

Bir o'zi chiqmay, birontasi bilan birga kelsa bo'larkan. Yolg'izlik odamni ezadi. Birdan orqaga qaytgisi kelib qoldi.

Biroq darrov o'zini o'ngladi-yu, shaytonga hay berib, starterni bosdi. Ikki soatlarda sobiq tuman markazi Sumbultomchi keladi. Sumbultomching o'zini ko'rish uchun ham kun bo'yи yo'l yursa arziydi.

Bu joy o'zi tog' qishiog'ining o'rtasidagi bir tabiiy mo'jiza ismiga qo'yilgan.

Sumbultomchi – noyob mo'jiza. Uni tasvirlab ko'z oldingizga keltira olishimga ishonmayman. Um ko'z oldiga keltirish uchun albatta borib ko'rish, soatlab tikilib turish kerak.

Avvalo, Sumbulni ko'rganmisiz? So'raganimga xafa bo'l mang. Bu hamisha yam-yashil, noyob gi-yohni g'azallarda ko'p ishlatgan ba'zi shoirlar ham o'z ko'zlar bilan ko'rmagan ekanlar. U haqiqatan soch tolasi kabi nozik va tim qora, bargi esa juda mayda, zargar qo'lidan chiqqandek nafis, qoramtil ko'k va yiltiroq bo'ladi. Sumbulning o'sishl uchun albatta buloq suvi, tosh va pastqam jarlik kerak.

Endi ikki qavatli uydek katta qoya toshni ko'z oldingizga keltiring. Shu qoyaning ichiga o'yilib kirib ketgan katta tabiiy g'or. G'orning tosh shiftidan to'rt-besh gaz uzunligidagi millionlab sumbul pastga qarab solinib yotibdi. Sumbulning har bargidan tiniq buloq suvi tomib turadi. G'orning og'ziga yaqinlashganingizda siz avvalo quyosh nuri va buloq suvi zarralaridan paydo bo'lgan ajoyib naykamalakni ko'rasiz, keyin ko'zingiz sal ko'nikkach, bosh ustingizda qora soch tolalaridagi milliard-milliard yiltiroq bargchalarda

ko'z yoshiday mo'lт-mo'lт etib turgan tomchilarni, ularning oyoq ostingizdagи oydin buloqqa yomg'irdek tomishini ko'rasiz, tomchilarning ajoyib sirli, kumush tovushini eshitasiz, bag'rингизга rohatbaxsh salqin kelib uriladi. Bu yerda hamma narsa doimiy. Yozin-qishin shunday. Mangu shunday.

Tabiatning bunday mo'jizalari boshqa yerlarda albatta qadamjoga aylanib, nodon bid'atchi, xurofotchilar qo'liga o'tadi. Sumbultomchi esa tog'da o'sib, yuzdan oshgan tabarruk qariyalar otalig'ida edi.

Orif aka ularning ko'pi bilan oshna edi. Ular bilan u dunyodan, bu dunyodan dono gaplarni gaplashib o'tirishni yaxshi ko'rardi. Hozir u o'sha otaxonlarni qo'msab, o'zicha ma'yusgina jilmayib qo'ydi.

Saragulning bobosi Halim buva ham shu qariyalardan biri edi. «Ochilni Sumbultomchiga olib kel, tanishtir», deya-deya olamdan o'tib ketdi bechora.

Bu tog' qishloqlari o'sha vaqtda, o'ttizinchi yillardayoq ko'pgina chirkin diniy urf-odatlardan negadir xoliroq, odamlari fisq-fasodni bilmas, qizlari erkin, ochiq bo'lar edi. Orifni shunisi o'ziga tortdimi, ishqilib, viloyatdan vakil bo'lib yurib, mahbubasini shu yerdan topdi. Bu yerning olov qizlari butun vodiyya mashhur edi.

Saragul, masalan, paranji yopingan emas. Uning yuzi doim yonib turardi... Birinchi marta yolg'iz qolgan oqshomlari hozir Orif akaning ko'z o'ngida xuddi chaqmoq shu'lasida yorishgandek gavdalanadi. Tog' yonbag'ridagi qandaydir cheksiz tokzorga kirib qolishgan edi ular. Pastda ham, balandda ham, tog'da, toshda, hamma

joyda son-sanoqsiz so'rilar, ishkomlar. Uzumzor, uzumzor... Sira oxiri ko'rinmas edi. Ular xuddi sehrlanganday, chiqarga so'qmoq topolmay yurishar, adashdik deb piqirlab kulishar, oqshomda atrofdagi bukri ishkomlar g'alati, soyalar ertakdagiday sirli tuyular edi. Hamma yo'llar tanish-u, sira qaytib chiqisholmaydi, kuz salqini badanlarni junjita boshladi, ular qo'lтиqlashib olib, bir-birlariga taft berib hamon aylanishar, ichlarida esa ikkovlari ham birdan yo'l topilib qolib, ajralish payti yetib kelishidan qo'rqar edilar. Hamma vaqt, bir umr mana shunday bir-birlarining og'ushida, bir-birlarining mehr-u haroratlarini qalbdan sezib, yonma-yon yuradigan-dek his qilardilar o'zlarini. Ular bu bog'larning har pastqam burchagi, har so'qmog'i, har qarich maysasini yod bilishar, lekin hozir negadir yo'l topib chiqib ketisholmas edi.

Astoydil qosh qorayganda Saragulning badani ni titroq chulg'adi.

– Biz... biz aka-ukamiz-a, Orif aka? Men singlingizman, shundaymi? – dedi u negadir tovushi qaltirab. Orifning bag'ri unga iliq-issiq, lekin allaqanday qo'rqinchliroq edi bugun. Orif indamadi. Ular sodda edilar. Bir-birlariga intilishlarini chindan ham faqat do'stlik, aka-singillik hissi deb atashga urinardilar.

– Sovqotib yurma tag'in... – Orif uni pinjiga yaqinroq tortdi. Endi yurish o'ng'aysiz edi, ular sekinladilar, to'xtadilar, Saragulning vujudi qizib ketdi. Og'ush ikkalasini ham yondirar edi. Lovil-lagan yonoqlar, yuzlar asta bir-biriga siypalanib, ular o'zlari ham bilmay bir-birlarining lablarini

izlab topishdi... Ko'zlar yumuq, atrof qorong'i, badanlarda xavotirli bo'shashuv... Bu azobli laz-zat qancha cho'zilganini bilishmaydi, ikkovlari-ning ham labiari yal-yal yonib zirqirardi.

Qo'rqib ketgan Saragul titroq gavdasini asta chet-ga oldi. Shu holda birpas yerga qarab turdilar. Kuz salqini gupurib turgan qonni sal sovitganda, bosh ko'tarib bir-birlariga qaradilar, ularning ko'zlarida bir-birlariga minnatdorlik ham, bu otashin baxt onidan biroz qo'rquv ham bor edi.

– Yaxshi emas... – dedi Saragul.

– Nega, men akangman-ku... Men seni yaxshi ko'raman... Axirsovqotib ketuvdik... Anov birda ham...

– U... bunaqa emas edi, – dedi Saragul, lekin qorong'ida chaqnagan ko'zlarida birinchli muhabbat bo'sasining sirli lazzatini yana bir totish istagi yonib turardi. Orif choponini uning yelkasiga tashlab, yana bag'riga tortdi...

...Nimadir gurs etib, QAZning orqa g'ildiragi chuqurga tushib, kuzov qattiq sakradi, kabina-ning ichi changga to'ldi. Shirin xayollari lip etib o'chgan Orif aka uyqudan uyg'ongandek atrofga qaradi: qayer o'zi bu? Mashina hamon sakrar, taraqlar, qiya bo'lar, toshga tegar, chang to'zg'itar edi. Eh-he, bu Sumbultomchiga kiraverishdagi asfalt yo'l-ku! Juda o'ydim-chuqur bo'lib ketib, asfaltdan har joy-har joyda parchalar qolibdi, xolos. Yo yo'l boshqa bo'ldimikan? Obbo, ko'pri-k ham chatoq-ku. Orif aka g'urra bo'lgan peshanasini ushlab atrofga qaradi, ko'prikda bir nima bo'lib qolsa, tevarakda bitta-yarimta qarashib yuboradigan odam ham topilmasa kerak.

U bo'ynidagi, yoqasidagi changni qoqib, omonat ko'prikkqa qarab yo'l soldi. GAZ jonivor ilang-bilang bo'lib yotgan chirik xodalarni bosib bir mo'jiza bilan ko'prikdan o'tib olgan edi, chiqaverishda shalop etib loyga botib qoldi. Besh-o'n daqiqqa qo'ng'izdek vizillab yotib, undan ham chiqib oldi-yu, ichi-tashi-ga allaqanday qo'lansa balchiq chaplanib ketdi. Bu yo'llardan ko'pdan beri mashina yurmaganga o'xshaydi, Sumbultomchiga bora-borguncha shunaqqa – o'yilib, shalag'i chiqib ketgan, chang, tosh... Yo'l-ku tushunarli: sobiq tuman! Lekin nega biron kimsa ko'rinxaydi? Sarg'aygan qiyaliklarda echki boqib yurgan bitta chol bilan bitta boladan boshqa hech kim uchramadi.

Orif aka dam to'xtab nafas olib, dam arava yo'lga o'tib, tog'-toshda motorini tarillatgancha buloqqa yetib bordi, markazga kirishga vaqt yetmas edi, kechgacha Shivilg'ondan aylanib qaytishi kerak. Hovliqib kabinadan chiqarkan, tepalikdan buloqni ko'rib, yuragi orqaga tortib ketdi: buloq atrofi botqoq, chuqur tuyoq izlari, mol tezagi, tepasida ko'k pashsha buluti g'ujg'on o'ynardi. Supurgiday yulib tashlangan sumbul tolalari botqoqqa g'arq bo'lgan qiz sochlari day taralib, loyga botib yotibdi. G'orning og'zida sassiq shaytontaroq g'ovlab gullagan. Qoya tepasida sarg'ish tuproq nurab, o'pirilib, shabadada pastdag'i suvga, o'tlarga, botqoqqa tinimsiz to'zon purkab turardi... Bu yerda ham hech kimsa ko'rinxaydi. Orif aka horg'in, o'ychan orqaga qaytib, rulga o'tirarkan, birdan isitma tutganday bo'shashib ketdi...

Shivilg'onning yo'llarini ham qovjiragan qaqla, shuvoq bosib yotibdi. Mashina sakrar, rul ham

bo'ysunmay har zamonda traversi g'irchillab, g'ashga tegar edi. Orif aka zo'rg'a dovon oshib, yarim soatcha chang to'zg'itib yurgandan keyin, ko'zi juda toliqqach, qolgan yo'lni yayov bosgi-si keldi. Shivilg'on ko'riniq qolgan edi. Tanish, juda ham tanish yo'llar. Yo'l yoqasidagi har tup na'matak, har tikka tosh yurakka jiz etib tegadi. Orif aka aziz ostonaga qadam qo'yganday, shimi-ni qoqib bir poy qo'lqopini kamariga qistirdi-da, boshini ko'tarib uzoqlarga qaragancha qanday-dir qadrdon, tanish belgilarni ko'zi bilan qidirib ketaverdi. Shivilg'onning qulooqqa tanish shivil-lashi eshitildi, tog'ga o'rmalab ketgan uzumzor-lari qorayib ko'rindi. Lekin tinch, odam sharpasi ko'zga chalinmas edi.

Issiq, dim, quyosh endi oqqan payt; to'g'ri, bunday mahalda qishloq ko'chasida odam bo'lmay-di. Xarsang zinachalarda shalola zarralari bilan o'ynab qiyqirishayotgan qizil ko'ylakli qizaloqlar-ni ko'rmoqchidek, ilgarigi odaticha toshdan dadil sakrab, ko'cha boshiga chiqqan Orif aka taqqa to'xtadi. Avval shuni ko'rdiki, zina-zina bo'lib ket-gan xarsang qirg'oqlarda hech qanday qizaloqlar yo'q edi. Ko'chaning ikki chetidagi uylarning ko'pi buzilib, sinchlari tashib ketilgan, eshik-de-razalarga taxta qoqilgan, xarsang zinalarda bot-mon-botmon eski paxsa loy bo'lib somoni chiqib yotibdi. Sharsharaning zahridan Orif akaning eti uvushib ketdi. Qandaydir bir qadrdonini yo'qot-gan odamdek, tizzalari bo'shashib, tepaga asta chiqib bordi. Tanish tor ko'chaga qadam qo'yishi bilan zax po'panak hidi nafasini bo'g'di: qarovsiz uzumlarga yoppasiga kul tushgan edi. Kimning-

dir zaif qo'llari bilan tol chiviqqa chala ko'tarilgan zanglarda onda-sonda charoslar qorayib ko'rinar-di-yu, toklarni bachki novda bosib, g'ovlab yotardi. Xayolida o'tmisx xotiralari, og'ir o'ylar, ko'nglida g'alati hislar chuvalib, Orif aka jin ko'cha-yu eski tokzorlar oralab ancha yurdi. Oyoq ostida xazon shildirar, chlrigan uzum boshlarida ari g'uvillar edi. Bu orada cho'qqi ortiga yumalagan quyosh quriy boshiagan kimsasiz bog'larni xazonrezgi pallasidagidek sarg'aytirib yubordi. Orif aka daf'atan dilida qarilik yukini sezdi...

Kechki sokinlikda qayerdadir «to'q-to'q» etgan tovush eshitilardi. Orif aka g'ovlagan kakra, supurgi oraslda yer bag'irlab yotgan, kul hidi an-qib turgan kasalmand uzumlarmi oralab horg'in yurib bordi. Qarasa, notanish bir chol qiyshayib yotgan ishkom ostida toklarni bolta bilan chopib yiqityapti. Orif aka uzoqroq to'xtab, cholning hansirashiga, «to'q-to'q-to'q» etgan yolg'iz bolta tovushiga quloq soldi. Bir vaqtlar uning birinchi muhabbat bo'sasini begona ko'zdan yashirgan qadrdon keksa toklar gursillab yerga yiqlilar edi. Orif aka chala vayron bir chaylaning ustuniga suyanib, manglayini sidirib artdi, cholga nima deyishini bilmay uzoq turdi. Shivilg'onlik tokka bolta urishga majbur etilgan bo'lsa, bu yerda ancha-muncha voqealar yuz beribdi-da...

– Ota...

Chol avval eshitmadi-yu, keyinroq g'ira-shirada begona odamni ko'rib, boltani belbog'iga qistirdi. Yaktagi ham oppoq, ko'kragini bosgan junlari ham oppoq, kichkina jussasi bukchayganroq, lekin paylari chayir edi cholning. Salomlashgan-

dan keyin, o'rik yoyib qo'yilgan chophonining bir yengiga o'tirib, nos otdi.

– Uvol bo'lyapti... Gunoh, – dedi mehmonning yuzida savol aralash achinishni ko'rib. – Vodiyga kasal tarqatadigan joyga aylanib qoldi. Qaraydigan odam yo'q. Yaxshisi...

– Bu yerning odamlari cho'lga ko'chirilganmi?

– Ha, cho'ldagi yangi sovxozlarga. Tog' qishloqlarimинг hammasi ko'chgan.

– O'z ixtiyorlari bilan ko'chishganmi? – Orif aka ham ro'paraga chordana qurib, do'ppisini yerga qo'ydi.

– Sen kimsan o'zing, o'g'lim? Tanimay turibman, – dedi chol javob berish o'rniغا. Ayyorroq ko'zlarini qisib qaradi.

– Ismim Orifjon. Hov, Halim otaning nevarasi Saragulni olib ketuvdim, esingizdam?

– E, ha, eshitganman. O'zingni ko'rgan emasman-u, eshitganman. Tan-joning omonmi ishqilib? Saragul anov do'xtir qiz edi-da, u ham olamdan o'tdi chamamda... Ha-a. – Chol nosni tuflab, oq cho'qqi soqolini siladi. – Qolganlarning umrini bersin... Ha, ixtiyoriy, ixtiyoriy ko'chib ketishdi. Avvaliga norozilik, qarshilik ham bo'ldi-yu, keyin, gazetada chiqqandan keyin karnay-surnay bo'lib ketdi... Xizmat qayerda, o'g'lim?

– Shu tumanda...

– Ha, hukumatning o'zi biladi ishqilib. Sovxozda tunganmas xazina bor deyishadi. U yerlar hukumatga juda foydali ekan.

– Hozir qishloqda hech kim yo'qmi?

– Bor. Besh-o'nta qari-qartang qolganmiz. Bizlarga foyda ham, xazina ham shu yerda, otabobomizning xoki poki...

– U yerlar ham begona emas, ota – dedi Orif aka.

– To'g'ri aytasan, begona emas. Ammo bu yerlar-chi, begona ekanmi? Kimga begona ekan? Cho'ldan kelganlar taxta urilgan eshiklarni, ko'zibekilgan buloqlarni, kul bosgan uzumlarni ko'rib, yig'lab qaytib ketyapti. Ming xazina topsa ham, odam ko'ngilchan bo'ladi, bolam. Faqat xazina boylik emas, mehr ham boylik. Odam ko'zining quvongani ham boylik.

– Yig'lab qaytib ketishar ekan, shu yerda qolaverishsa bo'lmaydimi? – deb so'radi Orif aka.

Chol yer tagidan qarab qo'ydi.

– Meni sinab nima qilasan, o'g'lim. O'zing tumanda ishlar ekansan... – «Tuman» degan so'zga endi e'tibor berib qoldi shekilli, chol mehmonga xavotir bilan razm solib, o'rnidan turdi. – Bizni tumanda hamma biladi, bizga ruxsat berilgan. Yangi ekansiz, ishonmasangiz, borganda nachaylik⁴dan so'rang...

Orif aka birdan xavotir olib qolgan cholgarahmi kelib, indayolmadi. Chol uzoqlashib ketdi. Uning birdan g'alati bo'lib qolgan kichkinagini yuzi yo'lda bora-borguncha Orif akaning ko'z o'ngidan ketmadi.

Yo'l hall yorug' bo'lsa ham, Orif aka faralar ni yoqdi. Tikka tushgan chiroq nurida o'ydim-chuqurlar qop-qora vahlimali bo'lib ko'rinar, oynaga son-sanoqsiz kapalaklar, chivin, chigirtkalar kelib urilar edi. Sobiq tuman yo'llaridan o'tguncha Orif aka holdan toyayozdi, bir yarim

⁴ Boshliq, ruscha «Nachalnik» so'zining buzib talaffuz etilishi.

soatdan keyingina ravon yo'nga chiqdi-yu, xayol-lari sal tartibga tushdi. Kecha qorong'i, dim edi. Tog' qishioqlarining salqin epkini orqada qol-di. Lekin og'ir taassuroti hamon sudralib kelar, charchatar, xayolni chuvaltirar edi.

Sobiq tumanning ahvoll, tog' qishioqlaridagi xalqning cho'ldagi yangi sovxozlarga ko'chiril-ganligi, cholning aytgan ko'p gaplari Orif akaga avvaldan ham taxminan ma'lum edi. Lekin hozir cholning o'zi uning ko'z o'ngidan ketmay qoldi. Uning tovushi qulog'iga chalinadi: «Odam ko'ngil-chan bo'ladi...» «Mehr ham boylik», «Odam ko'zi-ning quvongani ham boylik». U nega Orif akadan cho'chidi? Orif akaning aybi nima? Xayrlashmas-dan jo'nab qoldi-ya! Saragulni tanirmidi ekan? Balki urush yillaridagi hayotini bilar. Surishtirish, eslab, gaplashib o'tirish kerak edi. Bo'lmadi.

Endi tezroq haydash kerak. Onabibi kutib qol-gandir. Xayriyatki, Onabibi bor. U hozir Orif aka-ning chalkash xayollarida birdan-bir yorug' nuq-ta. Orif aka og'ir xayollardan, o'tmishdan qoch-gandek, Onabibi sari intilar, gazni ustma-ust bosib qora tunni yorib borar edi. Lekin o'tgan kunlar bosib kelib, xayolini yana chuvaltirdi.

Onabibi... «Mayli, emiz. Oti Onabibi bo'la qolsin...»

O'n besh yil avval edi. Orif aka urushdan keyingi tiklash ishlaridan, Belorussiyadan qayt-di. Qaytib kelsa, ostonaga qadam qo'yishi bilan – chaqaloq yig'isi!

Yuragi shig' etib ketdi. Nima gap o'zi? Doktor Saragulni tug'maydi degan, ular tirnoqqa zor edi-lar. Yo o'zgarish bo'ldimi? Unday desa Orifjon-nинг ketganiga qancha bo'ldi o'zi? Yoki...

Orifjon bir zumda ming xayolga borib, bir isib, bir sovib, ichkariga kirib borsa, Saragul beshik ustida alla aytib o'tiribdi.

– Qumrining bolasi, Qumri o'lib qoldi... – deb darrov izoh berdi Saragul erining ko'ksiga tashlanib.

– A?

Qumri – Saragulning hamqishlog'i, juda yaqin dugonasi, yetim qiz edi.

Fermada ishlab yuradigan bu qizni Orif tanir edi, yuragi achishib ketdi, xotinining boshini siladi.

– Tug'di-yu, o'lib qoldi o'tgan hafta. Qishloq kasalxonasida... – dedi Saragul yig'lab.

– Eri kim?

– Eri yo'q edi...

– Buning otasi bordir axir?!

– ... Qiziqmisiz, – dedi Saragul Orifjonning ovozini balandlatganidan xafa bo'lib, otasiz bola bo'ladi, degan ma'noda. – Xabar olmadi.

– Bilmagandir?

– Bilgan. Yomon odam ekan. Xabar olmadi. Qayerda ekanini bilmas edik. Keyin, qamalibdi, degan gap tarqaldi.

Orifjon beshik ustiga kelib, chaqaloqning yuzini ochib ko'rди. O'y lab turib bir jilmaydi-yu, yana jiddiy tus oldi. Nima deyishini bilmassi.

– Hujjatini ham olib keldim... – dedi Saragul, keyin: – ...emizdim, – deb qo'shib qo'ydi past ovoz bilan.

Orifjon nima deyishini bilmadi. Juda kutilma-gan gap edi bu. Kechgacha bu haqda xotiniga bir nima demadi. Saragul safardan kelgan Orifjonga issiq suv, ovqat, non-choy, kiyim-bosh tayyorlab ivirsir, dam beshikka, dam eriga qarab qo'yar

edi. Ular hamma vaqt ikkov yolg'iz yashab, ohista shov-shuvsiz, kam tashvish hayotga o'rganib qolgan edilar, bugun bo'lsa uyda qandaydir tashvish, shoshqaloqlik... Kechqurun dasturxon ustida Saragul erkalanib eriga yaqinroq o'tirgan edi, bola yig'lab berdi. Eri xotin ko'z tikishib qoldilar.

– Ol, emiz... – dedi Orifjon. Ko'ngli ilib ketdi. Begona bolaning xotinining ko'kragini cho'lp-cho'lp emishi avval erish tuyulib, g'ashiga tekkanday, uni ancha bezovta ham qildi, lekin Orifjon o'zini bosib olishga urindi.

– Oti Onabibi bo'la qolsin... Opamning oti, – dedi.

Saragul chaqaloqni ko'ksiga bosib, eri kelgandan beri birinchi marta bemalol, chin ko'ngildan jilmaydi.


... Uyda hozir Orif akani shu Onabibi kutyapti. Juda zoriqb kutyapti, Orif aka buni biladi. Ular o'n besh yildan beri chinakam mehr-oqibatli ota-bola bo'lib yashamoqdalar. Orif aka ko'p joyda mas'ul ishiarda ishiadi. Qayerga borsa yangi joy, yangi uy beradilar, yoqqan yolg'iz chirog'i shu – Onabibi. Eng og'ir damlarda dilini shu chiroq yoritadi, eng azobli yo'llarda shu chiroq issiq uyga chorlaydi, ko'nglini yumshatadi. Faqat, qayerdadir unga ota tegish vijdonsiz bir odam borligini eslaganda qattiq xafa bo'ladi Orif aka. Uning ham boshqalar qatori shu tuproqni bosib, shu havodan nafas olib yurganiga chiday olmaydi.

Balki u odam endi olamda yo'qdir. Nima bo'lsa ham kichkina Onabibi Orif akaniki. Saragulning evaziga qolgan jigarbandi. Taqdir uning bag'ridan sevimli Saragulini yulib oldiyu, o'rniغا mana shu

ovunchoqni, mana shu qimmatga tushgan jajji baxtni berdi.

Saragul go'dakni ikki yil bag'riga bosib yurib, holvaytar, shinni yalatib katta qildi. Onabibi hammaning havasi keladigan, lo'ppi, sochlari jingalak, qiqir-qiqir kulganida kulgichi nur sochadigan qizcha bo'lib, tetapoya qilganida, Saragul eski o'mniga, Shlvilg'ondagi kasalxonaga ishga kirdi. Orifjon partiya maktabiga o'qishga ketgan yil edi. Urushdan keyingi og'ir yillar, uch-to'rt qishloqqa bir kasalxona, na ixtisosli shifokorlar, na transport bor, yo'llar buzuq, Saragul yolg'iz, qishin-yozin kecha-yu kunduz tinim bilmasdi. Lekin u charchamadi, qaytaga shu yillari juda ochilib, durkun juvon, obro'li «doktor opa» bo'lib ketdi. Uning sevimli eri, dilbar qizchasi, qutlug' kasbi bor, o'zi salomat, yosh, g'ayratli. Kuni bilan uyma-uy yugurib kasal boqar, mакtab bolalarini emlar, uzoq tog' qishloqlariga otda borib kasallarga yordam ko'rsatar, kechalari o'tirib eriga xat yozar, Onabibisini erkalab to'ymas edi.

Baxtsizlik mana shunday kunlardan birida yuz berdi. Kichkina Onabibi difteritga yo'liqib, birdan nafas olishi og'irlashib qoldi. Saragulni ishdan chaqirib kelishdi, kelsa vaqt o'tib qolibdi, bolaning holi og'ir, emlashga vaksina kerak edi. Saragul o'zini u yoqqa urdi, bu yoqqa urdi – vaksi-na yo'q, dorixonada ham, kasalxonada ham, ambulatoriyada ham yo'q. Kimdir qo'shni qishloqqa yugurdi, Saragul tumanga ot choptirdi. O'zi bolaning oldiga qaytdi, Onabibi dokaday oqarib ketgan, nafas olishga qiynalar edi. Saragulning jigar-bag'ri ezilib ketdi, ko'z oldida bolaning o'lim



bilan olishuvi, ojizlik... U o‘zining doktor ekani-ni ham unutib, sovuq devorga yopishib yig‘lar, qo‘snnisi bilan hamshira qiz unga taskin berishga urinar edi.

Olti soat deganda – bu olti soat Saragul uchun olti azobli kunday imillab o‘tdi – tumandan xabar keldi: difterit zardobi tumanda ham yo‘q ekan, viloyatga telefon qilishgan – bo‘lsa ertalab yetka-zib berisharmish.

– Ertalab?!

Saragul paxtaligi bilan tivit ro‘molini yo‘l-yo‘lakay qo‘lga ollb, ambulatoriyaga qarab yugurdi. Qosh qoraygan edi. Daralardan rutubatli sovuq shamol esib turibdi. Bu tog‘ qishloqlari qalin qorli yumshoq qishga o‘rganib qolgan. Lekin bu yil qish qahrli kelgan edi, qor yo‘q, badanni junxitadigan qora sovuq.

Birpasdan keyin Saragul ambulatoriya hovlisidan ot egarlab chiqdi. Bu uning qishloqlarga minib yuradigan sevimli, yuvosh jiyron qashqasi edi. Hamshira qiz ham, qo‘ni-qo‘snni ham Saragulning viloyatga otlanganini tushundi.

– Doktor opa... – dedi hamshira vahimaga tushib. Saragul uzangiga oyoq qo‘yarkan, unga gap bermadi:

- Onabibining yonidan jilmang, jon singlim.
- Axir, opa, qop-qorong‘i tun, izg‘irin, ayoz! Boshqa birov...

– Tumanimizdagi bu ahvolga men o‘zim aybdorman, – dedi Saragul, – undan keyim... Onabi-bi uchun kerak bo‘lgan dorini hech kim mendan ko‘ra tezroq olib kelolmaydi. – U etik qo‘njidan qamchi dastasini olishi bilan, jayron qashqa

yo'rtib, uchirib olib ketdi. «doktor opa» qorong'i ko'chaning u boshida kichkinagina bo'lib bir ko'rindi-yu, zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Kechasi bolaning ahvoli yana og'irlashdi, tongga yaqin nafasi tamom bo'g'ilal boshladi. Hamshira qiz ojizlikdan sochini yulishga tayyor bo'lib turganda ko'chada ot dupuri eshitildi.

Saragulning qo'l-oyog'i yog'ochday qotib, qahratonda muzlab yerga tushgan polopon singari kichkinagina, dumaloqqina bo'lib qolgan edi. Tong yorug'ida ko'm-ko'k yuzi jonsizzay ko'rindi. Labiari bir-biriga tegmay sal qimirladi, «Tirikmi?» deb so'radi shekilli. Ko'plashib uni zo'rg'a otdan tushirib oldilar.

Onabibi faqat vaksinaga qarab turgan ekan, ikki kun deganda boyagi-boyagiday lo'ppigina, kuldirgichli shirin qiz, tipir-tipir yurib borib onasini «achom» qiladigan bo'ldi. Lekin shu kuni kechasi baland isitma Saragulning ahvolini oshkor qildi. Uni darrov kasalxonaga olib ketdilar, Orifjonga telegraphma berdilar.

Ikki kundan keyin Orifjonni viloyat kasalxonasida qovog'i soliq bosh shifokor qo'llarini ojizona yoyib kutib oldi.

- Kech xabar qilishdi, ikki taraflama zotiljam...
- deb tushuntira boshladi u. Lekin dahshatli voqeani anglagan Orifjonning qulog'iga gap kirmas edi. Shifokor jim bo'lib qoldi.

- Xotiningizning qanday odamligini bilarmidингиз? – deb so'radi u oxiri.

Orif aka o'sha vaqtida bu savolga javob berolmadidi. O'lim xabari bllan birga tug'ilgan bu savol o'sha vaqtida uni gangitib qo'ygan edi. Hozir javob beroladimi?

Qanday odam bilan yonma-yon yurganini, qanday odam bilan turganini keyin bilib qolar ekan kishi. Oddiy qishloq qizi Saragulning yangi-yangi fazilatlari o'ylagan sari ko'proq ochilardi, Orif aka ularni hali-hanuz kashf etib tugatolgan emas. Hozir sochlari oqarib ketdi ham, Saragulni o'ylaydi, dard-u alami ham, o'ksish iztirobi ham, yupanch-quvonchlari ham shu o'ylarida.

Bir chekkasi, bunga Onabibi ham sabab bo'lyapti. Uni Saragul o'z o'rniغا shuning uchun tashiab ketgandek. Qiziq, ona suti bilan kirar ekanmi, qiliqlari, yurishlari doim Saragulni esga soladi. Shu bo'lmasa Orif aka boshqaga uylanib ketarmidi hali. Yo'q, u unuttirmadi. Shu ovunchoq bilan umr o'tdi. Endi u mana shu shirin qizchasi bilan, unga doim yo'ldosh bo'lgan azobli va shirin xotiralar bilan o'tib ketishga qasd qilgan...

Orif aka yo'lga tikilaverishdan ko'zi toliqib, ariq yoqasida birpas to'xtadi. Tormozni tortib qo'yib, pastga tushdi. Tun qorong'i, qop-qora osmonda yulduzlar charaqlagan, qirda traktormi, kombayn chiroqlarimi yiltillar edi.

Sal yozilib, sof havoga to'ygandan keyin, to'satdan hushiga kelganday, bir narsa esiga tushdi: qiziq, borishda-ku baxtiyor damlar, jami shirin, quvonchli voqealar lip-lip etib hayolidan o'taverdi, qaytishda bo'lsa nuqul xunuk, ko'ngilsiz xotiralar chulg'ab olyapti. Nima gap o'zi?

Orif aka o'z holatiga o'zi tushunolmadidi. Hech qachon bunday bo'lgan emas edi. Bu kimsasiz tun, bu sovuq yulduzlar, bu yolg'izlik unga birdan og'ir tuyulib ketdi. Shartta chiqib o'rniغا o'tirdiyu, ustma-ust gaz berib, mashinaşı tikka dasht yo'lini chaqirimlab-chaqirimlab yamlay boshladi.

Onabibi mudrab o'tirgandir. Otasi qay vaqtida kirib bormasin, tong otguncha ham chirog'ini yo-qib qo'yib, kutib o'tiradigan odati bor. Mashina ovoziga yugurib chiqqan qizining muzdek peshanasidan o'psa, Orif akaning ko'ngli yorishadi-ketadi. Tezroq haydash kerak.

Tuman markazi tungi uyquga tolgan, faqat yog' zavodining elektr stansiyasigina bir me'yorda gupillab turardi. Parkning rangdor marjon chiroqlari ham so'ndi, bog'ning burchak-burchaklarida vaqt ni unutib, kech qolgan yosh-yalang chiroq o'chganda sho'xlik bilan xandon kuldii-da, keyin yana hammayoq jimjit bo'lib qoldi.

Derazada chiroq yo'q edi. Orif aka bu paytda Onabibining uxlashi kerakligini bilsa ham, negadir ko'nglida alamli yolg'izlik, g'ashlik sezdi. Garaj darvozasini g'irchillatmasdan sekin ochib, mashinani qo'ydi, qorong'i hovlidan o'tib, yechinmay, yuvinmay, hatto chang qo'lqopini ham echmay, supaning burchagiga borib o'tirdi. Jim. Qorong'i. Olamda hech kimi, hech narsasi yo'qdek, faqat shu jimlik, shu qorong'ilik uni mangulikka chulg'ab olgandek edi. Qo'lqopini yechib chakkalarini ushladi, kuni bilan rulda o'tirib toliqqan vujudida qon horg'in-horg'in gupillardি. Birdan yuragi uzilgudek bo'lib, qorni ochganini sezdi, lekin negadir kissalaridan papiros qidira boshladi. Papiros yo'q edi. Uyga kirdi, qorong'ida tokchalarni, eski plashch cho'ntaklarini titkiladi - chekadigan biron chimdim narsa topilsa-chi! Bo'g'llib ketdi, kursiga qoqilib bir nimalarni ag'dardi. Oshxonaga kirib, noiloj yana o'tirgan edi, stolda qo'li bir narsaga tegdi, qarasa bir quti

«Belomor». Orif aka alamlı jilmayıb qo'ydi, o'ziga o'zi jahli chiqdi: «Nima gap o'zi, muncha bo'g'ilmasam!» Birpas o'tirib o'zini bosdi. Oshxonani tutgan shirin taom hidi dimog'iga endi kelib urildi. Ayvonda chiroq yondi – kostryul qop-qog'inining taraqlashiga Onabibi ham uyg'ondi shekilli.

– Dada, shovlani o'zingiz isitib yeya qoling... – dedi uyqu aralash.

Orif aka uqalagan papirosini chekmay qutiga solib qo'ydi, etigini tozalamay kirgani esiga tushib tashqariga chiqdi. Ayvonda ust-boshini qoqib, yuvindi. Uxlab yotgan Onabibiga tikilib turdi-da, qo'llarini ishqalab, tetik bo'lishga urinib, ichkari kirdi, iliq-miliq shovlani kosaga suzdi.

Lekin yana birdan ishtahasi qochib, haligi g'ashlik tag'in qaytib keldi, tetik bo'lishga ataylab urinayotganini payqab qoldi. Uyqusi kelmas edi, hozir yotsa azongacha dam u yonboshiga, dam bu yonboshiga ag'darilib, azob chekishini biladi. Birdan, yuz grammgina bo'lsa ham ichgisi kelib ketdi. Lekin bu uyda topilarmidi? Bu uyda biron marta erkak-xotin jam bo'lib tuzukroq ulfatchilik qilgan bo'lmasa. Nuqlu chug'ur-chug'ur bola-chaqa. Shu ham tirikchilig-u...

Orif aka o'zini qayoqqa qo'yishini bilmay ko'chaga chiqdi. Nariroqda qishloq do'koni bor edi. Zinasida choy qutilaridan so'ri qilib Mustafo cho'loq o'tiradi. Kechasi ko'chada hech kim bo'lmasa ham, Mustafoni topasiz, qishin-yozin shu yerda, o'qlanmagan eski miltig'ini quchoqlab mudragani-mudragan.

– Salom, qariya.

– Iyi, assalomalaykum, iptash...

- Chorakta topiladimi? - dedi Orif aka.
- A? - Mustafo cho'loqqa kechalari har xil odamlarning ishi tushadi. Lekin bunday marta-balni odamning shunaqangi iltimos bilan kelishi uni biroz gangitib qo'ydi. «Qiziq kishi ekan yangi boshlig'imiz», dedi ichida. Keyin oqsoqlanib, qu'tilar orasida ivirsiy boshladidi. - Tigimi... tobila, inim, tobila...

Choraktani bo'lib ichishdi. Mustafoning og'zi qulog'ida edi, Orif aka uyga kirmay, oyog'i tortgan tomonga qarab yurdi. Ufq g'ira-shira yorishib kelayotgan edi, ko'chada hali hech kim yo'q, u bo'lsa qayoqqa ketayotganini o'zi bilmaydi, hali-gindan og'zi bemaza bo'ldi, xolos, ko'ngli yorishmadi. Kechasi qorovuldan araq olib ichganini eslab, battar g'ijindi.

U o'z ahvolini bilar, lekin ko'nglidagi g'ashlikni nima deb atashni bilmas, uni so'z bilan birovga tushuntirish emas, o'zi uchun aniqlab olishga ham ojiz edi. Bu dilxiralikni tarqatib yuborish kerak. Mana sarin tong otyapti, mana istirohat bog'i tinch, qorovullarning yo'lkalarga paqirlab suv sepgani uzoqlardan eshitilyapti.

Ammo Orif akaga bu yerda ham hech nima xush kelmadidi. Bog' nuqul zarang daraxtidan iborat ekan, shiraning uyasi. Bunday suvli janubiy tumanlarda istirohat bog'larida ko'rkardek dekorativ daraxtlar o'tqazsa ham bo'lardi. Zarang boshqa daraxt o'smaydigan suvsiz cho'llarga noilojlikdan o'tqaziladigan fayzsiz daraxt-ku. Yo'lkalarning ham ikki tomoni yettiyillik haqidagi standart diagrammalar bilan to'lib ketibdi. Atirgullarni to'sib nima qilarkin...

Orif aka asta yurib, hovuz oldidan chiqdi. Hovuz atrofidagi daraxtlarga, simyog'ochlarga qizil alvonlar, shiorlar osilgan edi. Daraxt tagidagi yashil o'rindiqda yolg'iz odam ko'rindi. Gilam do'ppi kiygan bu cho'tirroq odam tuman gazetasining muharriri Nazarov edi, Orif aka uni uzoqdan tanidi.

– Xo'sh, ilhom kelyaptimi? – dedi Orif aka yanqlashib.

– E, salom! – Nazarov qizarinqirab yondaftarini yashirdi. – Barvaqt chiqib qolibsiz, ishgami?

– O'zлari-chi?

– Erta turib biroz aylanadigan odatim bor...

– Idora shu atrofdami?

– Yaqin, hov vodxoz⁵ning ro'parasida. Qani, birpas o'tiring, havo yaxshi.

Orif aka o'tirdi. Hovuzda qandaydir plakat suzardi, shamol yulqib uchirgan bo'lsa kerak. Bog'ning narigi burchagidagi choyxonaga saksovul tushdi, gursillagan tovush, aravakash bilan choyxonachining gaplari baralla eshitilib turardi.

– Gazetamiz bilan tanishyapsizmi, Orif aka? – dedi Nazarov. – Tuzukmi?

– Tanishyapman. Kampaniya o'tkazishga usta-si farang bo'lib ketibsiz, – dedi Orif aka. – Dashtga ko'chish – kampaniya, makkajo'xori – kampaniya, sog'liqni saqlash – kampaniya, ko'chat o'tqazish – kampaniya...

– Bu yaxshimi, yomonmi, Orif aka?

– Men baho bermoqchi emasman, uka. Ammo lekin hayotni ortiqcha rasmiylashtirib yuboramiz... – Orif aka birdan o'yga toldi. U o'ziga

⁵ Suv xo'jaligi (ruscha qisqartma)

ham aniq bo'lмаган bir gapni boshlab qo'ygani-ni fahmlab qoldi. – Mana ro'parangizdagи shiorni o'qing: «Kompleks mexanizatsiyani turmushga keng tatbiq qilaylik!» «... Keng tatbiq qilaylik!...» Xo'p... qaysi ma'noda?

– Gazetalarda shunday yoziladi, qabul qilingan...
– Bilaman. Kompleks mexanizatsiya ham yaxshi narsa. Lekin mana men, siz, anig'ini aytganda, qanday «tatbiq qilamiz?» Nima qilishimiz kerak? Anig'i?

Nazarov yelkasini qisdi. Orif aka davom etdi.

– So'ngra bu yerda, istirohat bog'ida, shu shiorga jiddiy e'tibor bergen odam yonidagi sevgilisiga aytadigan gapini aytolmay qoladi-ku? Demak, jiddiy e'tibor berish shart emas, shunchaki bezak...

Nazarov bu gapga qo'shilmaganini bildirib, hazillashmang degandek iljaydi.

– Yo'q, yo'q, nega, bezak, bezak! Buni endi hamma shunday deb biladi. O'z gazetangizda shunday deb yozyapsiz: «Tuman klubining pesh-toqi shior va chaqiriqlar bilan bezatilgan edi». Shundaymi?

– Ha, tadbir oldidan...

– Demak, bezak. Chunki shior va chaqiriqlar o'z ma'nosini yo'qotib qo'yyapti. Shuning uchun undagi «keng tatbiqlar»ga ham e'tibor bermay qo'yganimiz. Shuning uchun ularni istagan joyga yozib osaveramiz. Buni biz o'zimiz qilyapmiz. Urush vaqtidagi «Qasos ol!» degan plakat yodingizdam?

– Ha, ona surati solingan bo'lar edi...

– Ha, ona surati. U Vatan nomidan xuddi ko'zingizga qarab xitob qilar, sizdan aniq javob kutar, esingizni joyiga keltirar edi.

– Ha!

– Siz o'sha plakat qoqilgan joyni «chaqiriqlar bilan bezatilgan» deb ayta olarmidингиз?

– Yo'q, Orif aka.

– Barakalla.

Ular jim qolishdi. Nazarov ro'parasidagi o'nlab shiorlarga bir-bir ko'z qirini tashiadi. U necha yildan beri yoz kunlari deyarli har tong shu bog'ga kirib bir aylanadi, shu vaqtgacha biron ta shiorni razm solib o'qib ko'rмаган екан.

– Ana, ro'parangizda yana bir alvon: «Ko'cha tozaligi uchun kurashni qizitaylik». «Kurash!» Buyuk, muqaddas, sinfiy, inqilobiy so'z. Har qadamda «Kurash», «Shon-sharaflar...» Bu mo'tabar so'zlarning qadri tushib ketyapti. Mana sof havoda o'tiribmiz, kislorodsiz yashab bo'lmaydi. Lekin biz har muyulishda «Yashasin kislorod!» deb qichqirmaymiz-ku. Biz shunchaki nafas olamiz. Nafas olaveraylik-da axir!

– Gapingiz to'g'ri. Lekin nima qilish kerak?

– Bilmayman! – dedi Orif aka shartta kesib. Lekin bir zumdan keyin davom etdi: – Chamamda, avvalo, o'zimiz samimiyl bo'lishimiz kerak. Mana o'zingiz tabiatan qanday bo'lsangiz shunday. So'ngra gazeta oddiy insoniylik haqida yozishi kerak. Kampaniyasiz, rasmiyatsiz, soxtaliksiz, insoniylik haqida...

Nazarov gapga juda qiziqib, uning og'ziga tikilib qoldi.

– Yana?

«Yana?» Nima, siz mendan ko'rsatma kutyapsizmi? – Orif aka muharrirga qarab kului: – Bilib qo'ying, men sizga hech qachon ko'rsatma ber-

mayman, «yana» emish. Bilmayman, vassalom! O'zingiz o'ylang. O'ylaganingizni menga ham aytin, mana men sizga aytganimday...

Orif aka soatiga qarab muharrirga qo'l berdi. Nazarov kulardi.

- Nega iljayyapsiz?

- Alomat odam ekansiz, Orif aka... - dedi Nazarov hamon kulib.

- Odam... bu odam haligacha ish boshlagani yo'q. Nimadan boshlashni bilmay yuribman, - dedi Orif aka ketayotib. U endi negadir jadalroq, tetikroq qadam tashlardi. Endi ko'nglida nimadir aniqlangandek, g'ashliklari o'yga aylana boshlangandek bo'ldi.

Biroq shu kun ham, ertasiga ham xayollarining ipini ushlolmay, fikrlarida yorug' bir nuqta topolmay parishon yurdi. Raykomda ham kunlari asosiy ishni tutib ololmaganday odatdag'i tashvishlar, tanishlshlar bilan o'tardi. Bo'lim boshliqlarini bir-bir chaqirib suhbatlashdi. Navbatdag'i byuroda ko'rildigan masalalar bilan tanishib, xo'jalik ishlariiga doir masalalarning hammasini tuman ijro-qo'mi prezidiumiga o'tkazib yubordi. Qishloq xo'jalik bo'limiga kirib, kichkina bir majlisga duch kel-di. Majlisda boshdan-oyoq o'tirdi-yu, gapirmadi, ko'pgina miroblar, raislar bilan tanishib oldi.

Kechqurun yakunlab qarasa, bironta amaliy ish qilmabdi. Unga nimadir xalaqit berardi. Odamlar bilan gaplashganda ham bo'lar-bo'lmasga tixirlik qilib, yana ancha-muncha dilxiralikni orttirib oldi. Temir yo'l vokzalining boshlig'i bilan gaplashganda ham yuk tashish grafigi u yoqda qolib, ikkinchi darajali gap bilan dilozorlik qildi.

– Katta peshlavhga yozib, butun xalqqa pesh qilib qo'yibsiz, «Deputatlar xonasi» deb! Menga tushuntiring-chi, nimaga?

Vokzal boshlig'i haqiqatan ham bu haqda hech o'ylamagan ekan, tushuntirib berolmadi.

– Deputat hamma qatori zalda kutsa, ko'z tegib qoladimi? Yo chipta ololmaydimi? Xalq boshqayu, deputat boshqa ekan-da? Yo u xalqni kamroq ko'rishi kerakmi? Umi kim saylagan o'zi?

– Hamma joyda shunday axir...

– Hamma joyning o'z odamlari bor, jiyan. Bu yerda siz bilan biz o'ylashimiz kerak. Mening savollarimga javob berolmadingiz, shundaymi? Men ham javob berolmayman. Boring, o'ylang, salomat bo'ling.

Bu bo'shangroq yigit bilan xayrlashgandan keyin Orif aka yana o'zini koyiy boshladi. Bemazza, dag'al gap. O'zing javob berolmasang, undan so'rab nima qilasan? «Boring, o'ylang!» emish. Birinchi ko'rib turgan odaming bo'lsa. Qanday kishi, o'y-fikri nimada, xulqi qanaqa, balki yuragida dardi bor, balki bir yengiltakdir...

Hammamiz ham shunaqa. Insonni avvalo inson deb emas, faqat bir ijrochi deb bilamiz. Eh-timol, uning boshida senikidan ham chigalroq savollar, balki go'zal fikrlar bordir. Kim so'raydi undan bu haqda? Senmi? Yo'q. Sen raykom koticibsan. Sen: «Bajardingmi?» deb so'rashing kerak. Bajargan bo'lsa yaxshi, bajarmagan bo'lsa, «Boring, o'ylang!»

Xo'sh, uning o'ylarini, bola-chaqasini, kayfiyatini birov so'rashi shartmi? O'zi kelib bemalol gapirsa bo'lmaydimi? Raykomga-ya? Ha, raykomga.

Odamlar orasida, oddiy odamlar bilan rahbarlar orasida, odamlar bilan raykom va hukumat organlari orasida shunday muhit yaratish mumkin emasmi? Shunday muhit yaratilsa ediki, odam uylda nimani o'ylagan bo'lsa, majlisda ham shuni gapisra, ko'nglida nima o'ylar tinchlik bermayotgan bo'lsa, raykomda ham, obkomda ham... Obkomda?

Orif akaning ko'z o'ngida Mariya gavdalandi. Uch-to'rt kundan beri yo'qotib yurgan narsasini birdan topib olgandek ko'ngli sal yorishib, ertasigayoq Mariyaning oldiga borishga qat'iy qaror qildi.

«Boraman, boraman, – dedi Orif aka kechasi bilan shu xayolda to'lg'anib. – Ish boshlolmayotganimni, nimadir xalaqit berayotganini aytaman». Nima? Nima xalal beryapti? Buni u aytib berolmaydi. Orif aka tayyor formulalarni yoqtirmaydi. Suhbatda tug'ilgan haqiqat puxtaroq bo'ladi. Shuning uchun kim bilandir, yaxshisi, Mariya bilan gaplashish kerak...

Shu payt ayvonda gaplashib o'tirgan Onabibi bilan Temirning gurungi Orif akaning diqqatini bo'ldi. Siyrakkina iliq yomg'ir tomchilamoqda edi. Temir bilan yonma-yon, tizzasini quchoqlab o'tirgan Onabibi kaftini yomg'irga tutib qiqirladi:

– Voy, mana tomdi, iliq-miliq! Qo'lingni olib kel-chi!

Temir jiddiy bola, kam gapisradi. U o'ninchi sinfning a'llochisi, Onabibini o'z singlisidek doim himoyasida olib yuradi. U aqli, bo'y-basti kelishgan, ko'rkar yigitcha. Yog' zavodi direktorining o'g'li, sal faylasufroq. Orif aka qizi bilan uning do'stligini yashirin bir mehr bilan kuzatib yuradi.

Kech soat o'n birlar. Nam tuproq va o't-o'lan hidи ochiq derazadan kirib, uyni to'ldiradi. Bolalarning gurungi bo'g'otdagи musichalarning kukusi bilan bo'linib turibdi. Temir yo'lkaga to'shalgan soy toshlarini kuzatardi.

– Ko'rdingmi, ba'zi toshlarga hali yomg'ir tomabdi, – dedi u salmoqlab. – Endigi tomchining qaysi toshga tushishini hech kim aytib berolmaydi. Yomg'ir tinganda shuncha tosh ichida bittasi quppa-quruqligicha qolishi ham mumkin. Bunday holni odamlar mo'jiza deyishadi. Aslida bu qonun. Tasodiflar natijasida tug'ilgan qonun. Mana, hozir ho'l bo'lмаган bitta ham tosh qolmadi. Hammasi bir xilda tim qora. Millionlab tasodifdan qonun tug'ildi. Demak, yomg'ir nima?

– Qo'ysang-chi, biz hali bularni o'tmaganmiz.
 – Tentak, bu dars emas. Biz ham o'tmaganmiz.
 – «Tasodif», «qonun...» Yomg'irning iliqligini ayt-sang-chi! Hidini qara. Mana, kaftimni hidlab ko'r-chi...

Orif aka ichkaridan bolalarni ko'rmayotgan bo'lsa-da, ularning bexos yaqinlashib qolganda bir-biridan asta nariroq surilib o'tirishganini, qarama-qarshi, chala-chulpa gaplari o'zlariga juda ham ma'qulligini, hatto Onabibining jazzi kaftidan xom yong'oqning achimsiqroq hidи kelishigacha bilib yotibdi. Onabibi hassos qiz. Go'zallikdan zavqlana biladi. Temir bo'lsa quruq mulohazachi. Gulni ko'rsa tomosha qilish yo hidlash o'rniga santimetrlab o'lchay boshlaydi. Shuning uchun ham ular bir-birlariga zarur bo'lsalar kerak. Shuning uchun ikkalasi ham yaxshi. Biri bo'lmasa biri bo'larmidi? Ikki yorti – bir butun. Orif aka o'zicha xayolchan jilmayib qo'yadi.

Shu jilmayish uning og'ir, chigal o'ylarini ko'nglidan ko'tarib tashlaydi. Endi Temirning aqli, mavhum gaplari, Onabibining qiqirlashi uzoqdan eshitilgandek bo'ladi. U ochiq derazadan iliq yomg'ir sevalashini, musichalar kukusini tinglab uyquga ketadi...

Mariya Vasilyevnaning xonasi turli nav g'o'za tuplari, hosildorlik diagrammalari, iqtisodiy jadvallar bilan... bezatilgan edi. «Bezatilgan» demasak bo'lmadı. Chunki bu yerda ularning boshqa vazifa-si yo'q. Qabulga kirgan odam bu murakkab raqamlarni tahlil qilib o'tirolmaydi, albatta. Orif aka devorlarga qaradi-yu, ko'nglidagi rosmana iliq gaplarni yo'qotdi-qo'ydi. Bunday joyda odam beixtiyor o'zini sipo tutishga, so'zlarigagina emas, tovushiga ham rasmiy tus berishga urina boshlaydi.

Lekin Orif akaning ro'parasida bolalikdan tanish, chehrasida hali ham sho'xlik shu'lasini saqlab qola olgan, istarasi issiqliqina xotin o'tirardi. Mariya Vasilyevna yangi raykom kotibining kelganiga juda xursand bo'lib o'midan turdi. U o'rta bo'yli bolsa ham, yoshi o'tib, ancha to'lishibroq qolganligidan pakanaroq ko'rinaridi. Orif aka uning erkakcharoq siltab uzatgan qo'lini siqib, qabulga kirganlar o'tiradigan kresloga cho'kdi. Mariya Vasilyevna bir go'shakni yelkasi bilan qulog'iga qisib, ikkala telefonda birdan gaplasharkan, kalender varag'iga nimanidir yozdi, nimanidir o'chirdi-da, «ertalabdan shuncha ish!» degandek og'ir uh tortib, go'shaklar ni taraqlatib joyiga qo'ydi.

– Xo'sh, xizmat?

– Xizmat yo'q, shunchaki biroz gaplashaman deb kelgan edim...

Mariya Vasilyevna qoshlarini baland ko'tarib, hayratomuz, sho'xchan tikildi:

- Bekordan-bekor-a?
- Ha, – dedi Orif aka sodda qilib.

Mariya Vasilyevna birdan qah-qah otib kulib yubordi. U chiroyli emas, yuzi hatto shiddatli-roq, lekin kulsa ko'rksam bo'lib ketar edi, Orif aka hali kulgining sababini tushunib yetmasa ham, qo'shilishib kului.

– Voy Orifjon-ey, shunchaki gaplashib o'tirgani degin? Yana nima yoqadi! Guzarga choyxonaga chiqib ketayotib, bu yerga adashib kirib qolgan bo'lma tag'in? – Mariya Vasilyevna yana xandon otib kula boshlagan edi, Orif akaning birdan qovog'i solinib qolganini ko'rib to'xtadi.

– Maryam, sho'x kulgi senga juda yarashadi. Lekin ertadan kechgacha, – Orif aka devorlarga qaradi, – bunday qurshovda o'tirish odamni tarashday quritib yuborsa kerak.

Mariya Vasilyevna buni o'rinsiz tanbeh deb tushundi. Og'rindi.

- Ishingni gapir.
- Ishni boshlayolmayapman. Bir nima xalaqit beryapti.
- Nima?
- Nimaligini bilsam senga kelarmidim.
- Ana xolos... Xo'p, kelibsan, yaxshi, xursandman. Fikringni aniqlab, takliflaring bilan kelmaysanmi, kotib?
- Men fikrimmi emas, ahvolimni aytgani keldim. Shunchaki suhbat...
- Yosh bolamisan?.. Obkom bu!
- Ana... ana... – dedi jilmayib Orif aka, kresloga qulayroq joylashib o'tirarkan, – sal suhbatlashuv-

dikki, tayyor fikr ham tug'ilib qoldi: obkomga odam shunchaki o'z hayajonlarini aytish uchun ham kelishi mumkin.

Mariya Vasilyevna tushunib turibdi: bekorchi odam emas-ku, bunday mas'ul kishining dardlari, hislari ham ishi bilan bog'liq bo'ladi. Ammo Orifning bu gaplari obkomga tanbehday tuyulyapti, shuning uchun Mariya Vasilyevnaning chehrasidan ko'lanka ketmadi.

– Gapir, gapir, nima, yo'q deyapmanmi, tashvish, hayajonlaringni gapir. Xizmat?

– Qo'ysang-chi «xizmat»ingni... – dedi Orif aka peshanasini uqalab. U Mariyaning ochilib gaplashishga qo'ymayotganini sezardi. Shuning uchun gapni tanlamay yuzadagisini aytib qo'ya qoldi: – Shivilg'onga bordim...

– Bilamiz...

– Tog' tumanini tugatib chakki qilibsizlar. «Yana tanbeh», deb o'yladi Mariya Vasilyevna.

– Tog' tumanining tugatilganini bilarding-ku.

– Bilar edim-u, tugatishning bunday bo'lishini bilmas ekanman.

– Qanday bo'lar ekan?

– Ma'muriy jihatdangina emas, uni nom-nishonsiz butunlay tugatib yuborishga qasd qilinibdi.

– Unchalik emas. Senga shunday tuyulgandir, bu tabiiy...

– Gap menda emas. Buloqlar qurigan, bog'lar so'ligan. Uzumzorlarni kul bosib yotibdi. Kimsasiz qishloqlar, taxta qoqilgan derazalar, ko'rshapalak uyalagan qutsiz uylar, gul o'rniga sassiq-alif o'sgan hovlilar tog' manzaralariga qabristonday sovuq tus berib turibdi, yo'l yo'q, ko'priklar

buzuq... Yurtning ko'rkam bir go'shasi edi-ya. Necha minglarga vatan... Behurmat qilinibdi, poymol etilibdi. Uvol... Mana bu yerda bir nimasi bo'lgan odam shunday qilmaydi! – dedi Orif aka ko'ksini mushtlab.

– Sen kimni ayblayapsan, Orif? Sening shaxsiy tuyg'ularingni men tushunaman. Lekin obkomda...

– Men hozircha seni ayblayapman. Bu yerda mening shaxsiy tuyg'um emas, inson tuyg'usi, go'zallik tuyg'usi, vatan tuyg'usi haqida gap ketyapti...

– Yo'q, bu o'zingning ko'ngilchanlik hislaring, Orif. Bilaman, og'ir xotiralar seni ezib qo'yibdi. Lekin buni obkom ishiga aralashtirish...

– Xo'p, sen aytganday bo'lsin: bu mening shaxsiy tuyg'ularim deylik. Lekin men ularni ichimga yutib ketolmayman axir! Xo'sh, ularni, bu tuyg'ularni qayoqqa qo'yishim kerak? Kimga aytishim kerak? Kimga...

– Menga qara! – Mariya Vasilyevna o'rnidan turib, majlis olib borayotgandek, qalam uchi bilan stoldagi oynani taqillatdi. – Hozirgi sening tumanningda biz yetti yildan beri qora terga botib ishladik, uning iqtisodiyotini qayta qurdik, pastdagi yovvoysi cho'lni jilovlab, suv chiqardik, hayot bag'ishiadi, aholi ko'chirdik, u yerda oltita sovxozni barpo etguncha ona sutimiz og'zimizdan keldi. Bu sovxozlar oldiga bu yil o'z xarajatlarini qoplash vazifasini qo'yanmiz. Sen bundan ham bexabarsan. U xo'jaliklarda ahvol hali ham og'ir... Sen, raykom kotibi, u yerlarga haligacha biron marta boardingmi? Cho'l zahmatkashiari ning g'ayrat-shijoatlarini ko'rdingmi? Yo'q. Bor-

may-ko'rmay turib viloyat qo'mitasining bo'yniga ayb qo'yyapsan... Ilk muhabbat go'shalariningi bir sayr etib kelib, ko'z yosh qilib yuribsan: «Oh-voh! Tabiat manzaralari!...»

Orif aka indamay bosh egib qoldi.

«Attang, bu ishlim ham xato bo'ldi, – deb o'yladi u namiqqan peshanasini qo'lining sirti bilan ar-tib. – Haqiqatan ham, hech narsa ko'rmay-bilmay turib, da'vo, dimoq... Men bunday emas edim shekilli...» Qizishib gapirganidan hansirab qol-gan Mariya Vasilyevna stol orqasida u yoqdan-bu yoqqa yurardi:

– Rahbar...

Past ovoz bilan aytilgan bu so'zdan Orif aka hushyor tortdi.

«Rahbarligimni pesh qilma!» deb jerkib tashlash-dan o'zini arang tiyib qoldi. Boshini ko'tarmadi.

Mariya Vasilyevna kelib uning yelkasiga qo'lini qo'ydi-da, «Men-ku tushunaman...» degandek qarab, tasalli bergen bo'ldi.

– Gaping to'g'ri, Mariya Vasilyevna. Men hozir sovxozagda ketaman.

– Xayr, – Mariya Vasilyevna qo'l berdi. Yo'lakda jild qo'lтиqlagan sipo yigitlar, ortiqcha gap gapir-maydigan qizlar juda ishchan qiyofada u yoq-bu yoqqa o'tib turardi. Orif aka bosh ko'tarmay jadal chiqib ketdi. Zarang soyasida turgan GAZning kabinasiga kirib o'tirdi-da, peshanasiga tars etib urdi. «Ilk muhabbat», «Ko'z yoshi», «Oh-voh...» Ko'nglim cho'kib qorovuldan aroq tilab ichgan-larimni, raykomdagagi suhbatlarda odamlarni be-kordan-bekor ranjitganimni bilsa nima der edi ekan! Cho'lda qilinayotgan ishlar u aytganday

bo'lsa, men vahima qilib yurgan bu tashvishlarim haqiqatan ham kulgili...

Eng yaqin sovxozagacha bir yuz o'ttiz chaqirim yo'l. Shunday bo'lsa ham, Orif aka benzinni tekshirib ko'rdi-da, cho'lga qarab haydadi.

Changga botib to'rtinchı sovxoza kirib borganida qosh qoraygan edi. U charchaganidan hech kimni, hech narsani ko'rmasdi ham, ko'rgisi ham kelmadi. Faqat rosa ochiqqanini va qorong'ida qandaydir g'uborli shamol esayotganini sezар edi. Uni kutib olgan kishi – ishchilar qo'mitasining raisi Uzairov – kir kepka kiygan, bukriroq keksa odam edi. U mehmonning raykom kotibi ekanini bilib, nuqul rejadan gapiraverdi: bu yil falon tonna beramiz, yanagi yilga rentabel xo'jalik bo'lishni vazifa qilib qo'ydik, yaqinda gazetada ham yozishdi – davlatga katta foyda...

- O'rtoq Uzairov, oshxona qayerda?
- Mehmonxonaga boramiz, o'rtoq kotib, ovqat tayyor.

Orif akaga biroz jon kirdi. Lekin mezbonning haligi gaplari hamon qulog'iga kirmasdi. Uzairov ancha xushomadgo'y bo'lib chiqdi. Qo'lga suv quygan, kursi toza bo'lsa ham, mehmon o'tirishidan oldin ro'molchasi bilan changini artilib qo'ygan, ovqat oldidan «yuzta»ni shama qilgan... Orif akaga bu qiliqlar yoqmasa ham, azbaroyi qorni ochligidan, mastavaga non to'g'rab indamay tushiraverdi. Keyin og'ir tortib, barvaqt uxlab qoldi.

Erta bilan mehmonni eshitib partkom kotibi yetib keldi. Bu To'lagan degan do'ng peshana, qop-qora, kamgap, kansuququmgina yigit edi. Orif

aka unga, «Sovxoz shaharchasini birga aylanib chiqaylik», deb taklif qildi. Ular piyoda chiqib ketdilar.

Havoda to'zon, uzoqlar ko'rinxmas edi.

- Shamol hali ham bosilmabdi-da.
- Endi boshlanyapti, – dedi To'lagan.
- «Afg'oni» degani shumi?
- Ha.
- Qancha davom etadi?
- Kamida uch kecha-yu uch kunduz.

Shundan keyin ular indamay yuraverdilar. Bir chaqirim, bir yarim chaqirim... Sovxoz shaharchasi asosan shu bir ko'chadan iborat edi. Hovli, tomorqa yo'q. Uylar hammasi bir xil: ikki qavatli, ikkita kichkina ayvonli, ikki oila uchun. O'n qadam ichkarida badrafxona. Hammasi shunday, bir uy, bir badraf, bir uy, bir badraf. Boshqa hech narsa yo'q, na bir qoziq, na bir jo'yak, na bir nihol... Elkikta, yuzta, ikki yuzta... Uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketgan. Oralarida «afg'oni» quturib yuribdi.

– Odamlar o'z uyini topadimi ishqilib?
 – Topmay qayoqqa borardi... – mujmalroq javob berdi kamgap To'lagan. Shu bilan yana indamay ketaverishdi. Bir yarim kilometrcha yurgandan keyin To'lagan to'xtadi:

- Bu yog'i ham shunaqa, ketaveramizmi?

Ular qaytishdi. Qaytishda shamol orqadan edi, Orif aka ko'zini, qulqlarini artib, darrov qorayib ketgan ro'molchasini cho'ntagiga yashirdi. To'lagan yangi raykom kotibidan gap kutardi. Bunisi ham ilgarigilariday bo'lmasa kerak axir, hech bo'lmasa bir g'azablanib qo'yar: «Bu yerda qanday turibsizlar? Yetti yildan beri biron ko'chat

o'tqazsanglar, tomorqa, bog' qilsanglar bo'lmas-midi? Bu shamol, bu bir xildagi minglab badraf-lar manzarasi odamni sil qiladi-ku axir!»

Yo'q, kotib bu haqda gapirmadi. Buning o'rmi-ga To'laganning o'zini surishtirdi:

- Bola-chaqa bormi?
- Bitta qizimiz bor, - dedi To'lagan o'ng'aysiz-lanibroq.
- Ha, yaxshi. Mening ham bir qizim bor. Onabibi.
- Meniki Firuza.

Kotibning muloyimgina o'ychan chehrasi, undagi tabiiy otalik mehri To'laganga yoqa tushdi. Shundan keyin u sal dadillanib, savollar yordamida bo'lsa ham, o'zi haqida gapirib berdi. Umi partkom kotibligiga o'tgan yili saylashgan ekan. Ishining mazasi yo'q, uning o'z fikricha, eplol-mayotgan ekan. Sovxozning xo'jaligi katta, ancha ishlar chalkash, hal qilinmagan. Eng muhimi - odamlarning kayfiyati... To'lagan hozir juda band, qishloq xo'jalik iqtisodiyoti institutida sirt-dan aspirant, oilasi yosh, uch oydan beri qizchasi kasal. Ishni eplolmayotganiga shular ham sabab bo'layotgan ekan.

Orif aka bu gaplarga hech narsa demadi, o'git ham qilmadi, tasalli ham bermadi. Yana chuqrorroq o'yga toldi, xolos.

Tushdan so'ng ular to kechgacha partiya qo'mitasida o'tirishdi. Bo'lim boshliqlarini, keksa xodimlarni chaqirishdi. To'lagan Orif akaga juda ma'qul tushdi. U sovxozda rahbarlikni eplol-mayotgan bo'lsa ham, odamlarni yaxshl tanir, har birining oilasi, uyi, dardini bilar, o'z shaxsiy ishlarini ham sovxozi ishlariga aralashtirib gapirar

edi. Keyingi kuni ular ertadan kechgacha buxgalteriyada, hisobot bo'limida ishslashdi. To'lagan bu yerda Orif aka uchun ajab bir kashfiyot bo'ldi: u sovxochning iqtisodiy imkonlarini bosh moliyachi bilan buxgalterdan ham yaxshiroq bilar ekan. Zehni tez, tahlilga moyil, qaysi ko'rsatkich qaysi raqamga borib bog'lanishini, eski-yangi hujjatlarни, raqamlarni yod aytib berardi. Orif aka yana bir narsani sezdiki, buxgalter bilan moliyachi unga shunchaki qobiliyatli talaba, yoqlaydigan dissertatsiyasini yod bilishi kerak bo'lgan zehni chaqqon yigitcha debgina qarar ekanlar.

To'lagan o'pirilishlarni tahlil qilganda ular: «Attang, ish qolib ketdi, ha, mayli endi...» degandek, qoshlarini chimirib, «otalarcha» miyiqda kulimsirab turdilar. Ammo Orif akaning tasavvuricha, sovxochning olti yildan beri o'zini oqlolmayotgani ham, hosil va daromadning pastligi ham, ishchilarning og'ir kayfiyati ham mana shu ichki xo'jalik hisobotining chatoqliklariga kelib bog'lanar edi. Shuni tushuna boshlagandan keyin u To'laganni yonidan qo'ymadidi.

To'rtinchi kun deganda garmsel tindi. Ammo nafas olish hali ham og'ir, uy havosi bo'g'iq, g'uborli; jihozlardan, deraza tirqishidan, kiyimlardan chang burqib turgandek edi.

Nonushtadan keyin Orif aka To'laganni boshlab ko'chaga chiqdi. Uchinchi uyning ochiq ayvonida bir oila choyshabdan soyabon qurib, nonushta qilib o'tirgan edi. Chug'ur-chug'ur bolalar qurshovida o'tirgan qariyaning istarasi issiq ko'rindi. «Shivilg'onlik!» dedi Orif aka ichida. U shivilg'onliklarni allanimasidan, yuz tuzilishidan, jilmayishidan, chehrasidan tanir edi.

– Vaalaykum assalom, qani, choyga qarang, mehmon – dedi chol. Chol deb, u Orif akadan uncha katta emas, faqat soqol qo'yib, dehqoncha, manglayiga qiyiq tang'iganidan keksaroq ko'rinar, ota degisi kelar edi odamning. Ayvon tor edi. Orif aka zinaga o'tirib, uzatilgan piyolani oldi.

– Tor joyga chiqib olibsizlar?

– E, bu la'nati garmselning dastidan uch kundan beri qamalib o'tirib, dimiqib ketishdi bu churvaqalar, – dedi ota, – nonga qarang.

– Tog'dan tushganmisizlar?

– Topdingiz, mehmon, shivilg'onlikmiz. – Ota yangi buxankani olib, avaylab maydaladi. – Qani, To'laganboy, siz ham o'tiring.

– Men bir narsaga hayronman, aka, – deb choyni puflab gap boshladi Orif, – sovxoza ko'pchilik sobiq Ko'yki tumanidan ko'chib tushgan odamlar ekan. Bir umr sof havoda, tog'da yayrab o'sgan xalq, bir umr bog'-rog' qilib shirin-sharbat meva yetishtirgan mirishkorlar, yam-yashil hovillarni, tokzor-u buloqlarni tashlab kelib, bu yerning sharoitiga qanday chidab yuribsizlar?

Ota yer tagidan To'laganga qarab qo'ydi.

– Bu kishi tumanning yangi kotibi bo'ladilar, Mansur ota, dilingizdagini gapiravering, – dedi To'lagan odatdagagi sodda ochiqlik bilan.

– Ha, endi dilimizdagи ko'riniб turibdi: osон emas. Ammo hukumat bir nimani bilib qiladi, mana keldik, besh yildan beri shu yerdamiz.

– Unisini bilamiz, bu sovxozlardan hukumatga, xalqimizga juda katta iqtisodiy foyda keladi. Lekin hukumat har bir kishining ko'nglidagini hisobga ololmaydi-da. Mana, siz Shivilg'oni sog'inmaysizmi?

– Sog‘inamiz. Bolalar-ku ko‘nikib ketishyapti. Ammo biz keksalar... o’sha ko‘kalamzor qishloqlarimizga achinamiz, uka. Qochib ketganlar ham ko‘p bo‘ldi, nimasini aytasiz!

– Qochib ketish mardlik emas. Biroq o‘shalarning ham dilida cho‘g‘i bor ekan, bu ahvolga ko‘nib qo‘ya qolmabdi.

– Bizni ayblayapsiz chog‘i, uka?

– Ayblayotganim yo‘q, hayron bo‘lyapman. Dehqonsizlar axir. Nahot yetti yildan beri biron bog‘ u yodqa tursin, to‘rtta ko‘chat ko‘kartirib, ayvonchangizni garmseldan to‘solmagan bo‘lsangiz?

Mansur ota o‘zini bosib anchagacha jim o‘tirdi, piyola chaydi, dasturxonadan non ushoqlarini terdi, bo‘g‘in-bo‘g‘in bo‘lib qotgan qo‘pol, keksa barmoqlari sal titrar edi.

– Yetti pushtim bog‘bon o‘tgan, uka. Mening ota kasblmdan ayrilib, bu yerda yurishimni oson tutmang – tirnoqni etdan ajratganday gap bo‘ldi bu. Bog‘ dedingiz, ko‘chat dedingiz. Krandan suv tashib, deraza tagida ikki turgina shaftoli ko‘kartirishga ham urinib ko‘rdim. Kulgi qilishi, bu yerda bu bekorchilik nishonasi hisoblanarkan. Shunga ham qaramas edik, dehqonmiz axir, qani endi bir parchagina tomorqa-yu ihta bo‘lsa, ko‘chalarga ariq olinib, suv keltirilsa, biz bu garmsel la’natini yengolmasmidik! Bog‘ gurkiran joyga shamol kelmaydi. Ammo, uka, eng muhimi – ko‘chat mana bularni boqmaydi,

– Mansur ota chug‘urlashib dasturxonadan turib ketishayotgan bolalarni ko‘rsatdi. – Shivilg‘onda boqardi, bu yerda boqmaydi. Bu yerda biz oylikni paxtadan olamiz. Ishlash kerak.

– Yashash-chi?.. Yashash ham kerak, – dedi Orif aka asta, o'zi o'ziga. Keyin choyga, suhbatga rahmat aytib, o'rnidan turdi. Ular bir-birlarini tushunishdi, «Xafa bo'lmaisiz», «Ko'nglingizga olmaisiz», deyishdi bir-birlariga.

Orif aka bu kunlarda sovxochning o'nlab turli odamlariga duch keldi. To'lagan u bilan yura-verib, buncha suhbatlardan bu kishining miyasi achidi, fikrlari chuvalashib ketdi, deb o'yaldi. Ammo Orif aka nimanidir topgandek, savollarni hamon bir tomonga burar edi.

RTSning qo'rasida qoramoya bulangan pakaganina bir ta'mirchi yigit uning kimligini surishtirmasdan do'q qilib ketdi:

– Istamasam meni majbur qilolarmidi? Bekor gap! O'zim, o'z ixtiyorim bllan ishlab yuribman. Ko'pincha oylik chiqmaydi, sovxoz kambag'al, lekin ishiayman. Nega? O'ylab ko'ring-chi? Yo non topib yeyolmasmidim? – Yigit qo'llarini artgan yog'li lattani burchakka otib, yaqinroq keldi.

– Komissiyamisiz, aka, yozing. O'tgan safar ham bittasiga ancha gap aytuvdim, muxbir ekan, gazetaga hamma gapimning teskarisini yozib chiqdi. Yozing siz ham! Lekin bir narsani aytin: bugun – dasht, shamol, ish; ertaga – dasht, shamol, ish; indinga – dasht, shamol, ish... Bu nima, yashash shuming o'zimi? Keyin nima bo'ladi, xo'sh?...

Orif aka o'rniga nariroqda siniq chorpoya ustida oyog'ini chalishtirib, papiros chekib o'tirgan duxoba do'ppilik oliftaroq yigit tirjayib javob berdi:

– Nima bo'lardi, yana o'sha it yotish, mirza turish...

To'laganming har kuni eshitib yurgan gaplari. Lekin Orif aka bu suhbatlarning har biri haqida

soatlab o'ylab, yondaftarlarini to'ldirib-to'ldirib oldi.

– Bu keyingisi kim? Sillig'i? – deb so'radi u.

– «Sillig'i» – Ubaydullaxon degan, hozir klub mudiri. Asosiy ishi plastinka aylantirish, – dedi To'lagan.

Oltinchi kun deganda viloyatdan direktorning o'zi kelib qoldi.

– Ziyom Ziyoxonovich, – dedi To'lagan uni derazadan ko'rib. O'zi kutgani chiqib ketdi.

Orif aka ham deraza oldiga bordi. Direktorning uyi ko'chaning narigi yuzida ekan, «Volga» kelib to'xtashi bilan bolalari, haligi Ubaydullaxon, yana besh-olti kishi chiqib, yukxonadan tugun, quti, bidonlarni ko'tarib kirib ketishdi. Shahardan kelgan sovg'alar ichida bir-ikki banka qaymoqdan tortib, dasta-dasta obi nongacha bor edi.

Ziyoxonov raykomning sobiq kotibi edi. Orif aka uni ishdan olinishi paytida, so'nggi plenumda ko'rgan, u haqdagi gaplarni eshitgan edi: o'zi shahardagi uyida turadi, tumanga uch-to'rt kunda bir kelib «rahbarlik» qilib ketadi, deyishgan edi. Hali ham ahvol shu ekan-da...

Yarim soatdan keyin Ziyoxonov mehmonxona-ga kirib, salomlashdi, uzr so'radi. U Orif akadan yoshroq, lekin yuzini ajin bosgan, ko'zлari chuqur botgan, qoshlari malla rang, yorg'oq boshi sarg'aygan o't orasida yotgan konserva qop-qog'idek yaltirab ko'rinar edi.

– Bir haftadan beri shu yerdamiz, – dedi Orif aka kulib, – na qaymoq, na obi non. Dehqonchilikni yig'ishtirib qo'yibsizlar chog'i.

– Dehqonchilikning g'amida yuribmiz-da idora-ma-idora, – dedi Ziyoxonov kesatiqni tushunma-

ganga olib. – Biridan zapchast tilaysan, biridan ximikat... To'lagan! Choy!

Orif aka direktorga hayron bo'lib tikildi-da, eshikni ohib To'laganni chaqirdi.

– Choyni keyin ichamiz, siz keraksiz.

To'lagan kirib o'tirdi.

– Ziyoxonov, – dedi Orif aka, – o'zingiz partiya xodimi bo'lgansiz... lekin bir hisobda, siz hech vaqt... bo'lganga o'xshamaysiz. Partkomning kотibi yosh bo'lsa ham, siz bilan bizning ilmimizni birga qo'shsa, unikichalik bo'lmaydi.

Ziyoxonovning kayfiyati buzildi, yuzida ajini yana ham ko'paygandek bo'ldi.

– Raykom kotibi bo'lganingizdan keyin o'rgatasiz-da, gapiring, qulog'im sizda, – dedi ikki qo'lini stolga tashlab.

– Siz nima uchun ishdan olinganligingizni hanuz tushunmabsiz, Ziyoxonov.

– Nega tushunmas ekanman? Ko'ngilchanlik! Ko'ngilchanlik qildim. Kerak joyda qattiqqo'llikni ishga solmadim. Davr bo'lsa shiddatli, shafqatsiz. – Ziyoxonov qo'llarini ezg'ilab jim qoldi.

Orif aka uning qanday odamligini bilishga uringanday yuziga tikllib turardi. Ziyoxonov davom etdi:

– Boplab ta'zirimni berishdi, ayb o'zimda. Kelajakning muhtasham binosini quryapmiz, mangulikka quryapmiz. Bir million-yarim million pulni, ortiqcha besh-olti yuz odamni ayab o'tirish kerak emas edi. Uyqudan qol, ochlikka chida – ayama ekan. Asrlar uchun quryapmiz, avlodlar uchun.

– Bunday «qattiqqo'llikni» tushunarmikan avlodlar? – dedi Orif aka, – o'zingizni aldab nima

qilasiz, Zioxonov, sizni buning uchun ishdan olishgan emas-ku axir. Aksincha, qattiqqo'llik haddan ziyod edi, odamgarchilik, oddiy insoniylik yetishmagan sizda.

- Mana endi siz kelibsiz, siz qiling odamgarchilikni.
- Gap shundaki, siz bu yerga kelib ham o'sha eski usullaringizni qo'llayapsiz. Sovxozda ishchilarning turmushi...
- Biz davlat xizmatidamiz, o'rtoq Ochilov.
- Siz odamlar xizmatidasiz. Odamlar, ishchilar, har bir mehnatkash rozi bo'lmaguncha davlat rozi bo'lmaydi.
- Sovxoz avvalo o'zini oqlashi kerak.
- Mana yetti yil bo'libdi, qachon oqlaydi? Ungacha-chi? Odamlarning tirikchiligi shu ahvolda qolaveradimi?
- Ahvoliga nima bo'libdi: Oq uy – ola bargak. Arz qilishgandir-da. Qo'riq yerlarni ko'rishmagan, u yerda azamatlar chaylada, yerto'lada yotishibdi. Odam tabiatи ajab qiziq: rohatga darrov ko'nikamiz-da, qadriga yetmay qo'yamiz.
- Orif aka Zioxonovga tikilmay qo'ydi, uning xayoli uzoqroqqa ketib qoldi shekilli, gavdasini orqaga tashlab, hech kimga qaramay, go'yo o'ziga o'zi gapirdi:
 - Odam ming yillardan beri yaxshi yashay deb intiladi, kurashadi, mehnat qiladi, zahmat chekadi. Bugunga kelib u sal tuzuk yashay boshlasa, nimaga hayratda qolishimiz kerak, tushunmayman? - U yana Zioxonovga qaradi: – Xo'sh, mma qilamiz, direktor?
 - Nima qilaylik, aytинг. Paxtaning narxini tushirasizmi, rejani kamaytirasizmi, shamolni

to'xtatasizmi? Yoki sovxozimiz yeridan bir xazina topib berasizmi?

– Bularning hammasini ham o'ylab ko'rish kerak, – dedi Orif aka. Kulib turgan Ziyoxonvning birdan qoshi chimirildi. – Xazinalardan biri bo'ssa, mana, yoningizda o'tiribdi. Siz unga choy tashitib yuribsiz.

Ziyoxonov To'laganga qarab, taqir boshini qashladi.

– Hozircha bir ish qilaylik. To'lagan, yaqinroq o'tiring, – dedi Orif aka jildidan qog'oz-qalam olib. Uchalasi to'garak stol atrofiga joylashdilar. Oq xalat klygan bir rus xotin choy olib kirib, derazadan charaqlab tushayotgan olovli quyoshni oq darparda bilan to'sib, devordagi soatni ham yurgizib chiqib ketdi. Xonaga fayz kirgandek, fikrlar chaqqonroq ishlab ketgandek, bu uch xil odam o'rtasida allaqanday yaqinlik tug'ilgandek bo'ldi. Keyinroq Uzairov bilan bosh buxgalter ham kirib o'tirishdi.

– Raykomning bir nuqsoni shuki, – deb boshladi Orif aka, – biz xo'jalikka ko'pincha ma'muriy yo'llar bilan boshchilik qilamiz. Qo'llimizda iqtisodiy dastak yo'q. Raykomga ilmiy-iqtisodiy das-tak kerak. Samarqand kolxozlaridan birida men bir voqeа bilan tanishgan edim. Kolxozi boshqaruvi qoshida ilmiy maslahatchi sifatida iqtisodiy kengash tuzilibdi. Rais rahbar. Hamma iqtisodiy masalalarini, rejalashtirish, hisobot ishlarini boshqaruв majlisiga shu kengash tayyorlaydi. Kengash hisobchilar kurslari ochgan. Ekin yel-larining har bir kartasi o'z pasportiga ega. Buni birovlar kartaning «daftari», ba'zilar kartaning

«kasallik tarixi» deb atasharkan. Bu daftarlarda haqiqatan ham har bir kartaning tarjimayi holi, barcha ko'rsatkichlari, ochligi-to'qligi, foyda-ziyoni, talabl, dardi, bari ko'zgudagiday ayon. Bu dehqonchilikning iqtisodiy tahlili. Kengashning maxsus xonalariga osilgan jadvallar barcha zaxiralarini, kim qaysi ish jarayonida – o'g'it berishdami, haydashdami, qayerda nima yo'qotgan, buning sabablari, qaysi tadbirni amalga oshirishda qaysi brigada yo zveno, yoinki agronommi, suvchimi – kim aybdor – hammasining tahiili har bir savodli kolxozchiga ko'rinish turibdi. Bu manzara hamma uchun. Bunga qiziqqan, bilgan har bir kolxozchi o'zini butun kolxoz ishiga javobgar deb, xo'jayin deb his etadi. Kolxozchi ilgari qayerda haqini yo'qotgan, nega kam olgan – bilmasdi. «Mening nima daxlim bor», deb ketaverardi. Qaysi traktor qayerda ta'mirsiz qolib, necha ming so'm zarar yetkazgan – bu bilan ishi yo'q edi, bilmasdi. Endi biladi! Talab qiladi! Bu tashabbusning ruhiy ta'siri ham katta. Odam ko'pchilik orasida o'z mavqeyini his qiladi. Xo'jayinlik g'ururi, kolxoz boyligiga javobgarlik hissi paydo bo'ladi. Biladiki, kolxoz yo'qotsa, u ham yo'qotadi. Ilgari biz devorlarda va'dalarimizni yoki ish natijalarimizni pesh qilardik. Endi ishimiz tahiilini ochib tashlaymiz. Bu moddiy manfaatdorlik haqida quruq so'z emas, uning aniq yo'li. Iqtisodiy kengashning ishi ko'p, faoliyati keng. Lekin hozircha sovxozda mana shu aytganlarimni qilib ko'rsak deyman. Qanday fikrlar bor?

O'tirganlar bir-birlariga qarashdi, indashmadi. To'lagan ko'zlari yonib turar, Uzairov qog'ozga allaqanday geometrik shakllar chizar, bosh

buxgalter bo'lsa qamalib qolib derazadan derazaga qarab uchayotgan qushdek u yoqdan bu yoqqa yurar edi. Ancha jimlikdan keyin hamma birdan gapira boshladi, savollar ko'payib ketdi. Kengashda necha kishi bo'ladi? Kimlar? Buni qishioq xo'jalik boshqarmasida qilsa bo'lmaydimi? Bu tajriba haqlida biror kitobcha yo'qmi? Samarqandga borib kelinsa qanday bo'larkin?

Bu masalalar uzoq muhokama qilingandan keyin Orif aka taklif kiritdi:

– Raykom kengashni tashkil etish va boshqarish uchun To'laganni tavsiya qiladi. Partkomning kotibi, moliya mutaxassisi, yosh, g'ayratli...

Halidan beri indamay o'tirgan Ziyoxonov birdan o'rnidan turdi, «Kelishib qo'ygan ekansizlar da?» degandek, To'laganga qaradi, bir yashirin fitna sezgandek bezovta bo'lib qoldi:

– Siz kolxoz tajribasini gapirdingiz, o'rtoq Ochilov, – dedi negadir stoldagi qog'ozlarni yig'ishtirib, – sovxozi davlatning o'zi nazorat qiladi.

– Gap nazorat haqida emas, Ziyoxonov. Bu o'z-o'zini tahlil qilish. Doimiy tahlil! Tushundingizmi? – deb uqtirdi Orif aka. U Ziyoxonovning bezovtalik sababini tushunishga urinardi: nima ga rangidan qon qochdi? To'laganning mavqeyi oshishidan qo'rqedimi? Kengash huquqlarimni cheklab qo'yadi deb cho'chiyaptimi? Yo boshqa biron xavotiri bormi?..

Orif aka yana to'rt kun boshqa sovxozlarda yurib, charchab, unniqib, soqollari o'sib uyga qaytganida, qizi uning chang hidi kelib turgan bag'riga o'zini tashlab yig'lab yubordi. Onabibi sog'inganini bunday ochiq bildirmas edi, bir gap bo'lganga o'xshaydi.

– Nima gap, onam? – dedi otasi uyga razm solib, uy ozoda, jihozlar sarishta, kechki quyosh nurida Orif akaning charchagan ko'zlariga hamma narsa yumshoq, yoqimli ko'rinar edi. – Biron voqeal yuz berdimi?

– Hech nima bo'lgani yo'q, – dedi Onabibi, lekin yana piq etib yig'lab, burnini tortdi-da, teskari o'girilib, yuzini berkitdi. U sochini maydalab o'rgan, yupqa batist ko'ylagi ichidan o'smirlargacha xos uchli yelka suyaklari turtib chiqib turardi. – Sizni mакtabga chaqirishdi..

«Hech gap emas ekan-ku...» Orif aka yengil tortib, ko'nglida jilmayib qo'ydi, hatto sevinib ham ketdi. Katta ishda ishlagani uchunmi, uni hech qachon mакtabga suhabatga chaqirganlari yo'q edi. Lekin sirtdan «jiddiylik»ni yo'qotmadidi.

– Nima qilib qo'yding?

– Hech nima... Muallimam uyimizga kelmoqchi edi, o'zlari boradilar, dedim. Hammaning dadasi mакtabga boradi...

Orif aka qizaloqqinani bir bag'riga bosib ovutgisi keldi-yu, pedagog bilan suhabatga borishdan oldin bunday qilmaslik kerak deb, o'zini tiydi. Mакtabda aibatta bir «ish» ko'rsatganki, bekorga chaqirishmaydi.

Orif aka ertasiga mакtabga bordi.

Ilmiy mudir xonasida uni sinf rahbari Shafigullina kutib oldi. U biologiyadan ham, ijtimoiyotdan ham dars beradigan keksa, to'g'rirog'i, qarib qolgan muallima edi.

– Biz huzuringizga suhabatga bormoqchi edik, safarda deyishdi, o'zingiz kelibsiz bezovta bo'lib... Kechirasiz, ya'ni, rahmat... Gap Onabibi to'g'risida.

– Noma'qul ish qilib qo'ydimi?

Nima desak ekan? H-ha, ha. O'tgan hafta rus tili darsidan «Bizning oilamiz» degan mavzuda insho yozdirilgan. Mana qizingizning «inshosi!» – Shafigullina inshoni ko'zoynagiga yaqinroq keltirib, yana bir tikildi-yu, Orif akaning oldiga qo'ydi.

Onabibi inshosida o'z otasi haqida eshitgan barcha gapini to'kib solgan edi. Onasining uni deb xor bo'lganlari, uyatga qolganlari... Onasi kasal bo'lganida ham xabar olmay, hatto o'limiga sabab bo'lganlari, Onabibi tug'ilganida vijdonsiz-larcha tashlab ketganlari...

Onabibi shunday iflos odamning boshqalar qatori yashab yurganiga g'azablanadi.

«U tufayli mening oilam yo'q. Boshqalarni-ki singari onam, ammam yoki akam yo'q. Hech bo'lmasa bitta singlim bo'saydi... Hozir ota tuttingan bir mehribon odam bilan turibman», – deb oxirida qo'shib qo'yadi.

Orif aka uzoq o'qigach, shu bir bet qog'ozni ushlagancha nam klpriklarini pirpiratib uzoq o'tirib qoldi. Yurak-bag'ri ezilib ketganidan, qayerda o'tirganini ham unutgan ekan, Shafigullinaning:

– Ko'rdingizmi? – degan xirqiroq tovushidan cho'chib tushdi.

– Nimani aytyapsiz?

– Qo'lingizdagini.

– Ha, – dedi Orif aka qog'ozni hamon qo'lidan qo'ymay. Uning tovushida og'ir iztirob, ojizlik, horg'inlik bor edi.– Ha.

– Bolalarni bunday tuban fikrlardan saqlash siz bilan bizning vazifamiz, – odatdagи nasihatga tushdi keksa pedagog. – Ularni yuksak, pok his-

lar, porloq davrimiz haqida yorqin o'ylar ruhida tarbiyalash...

– Menga qarang, siz... – Orif aka imshoni ko'rsatib, sinf rahbariga hayron bo'lib tikildi, – siz buning uchun Onabibini aybiayapsizmi? Bu gaplarning hammasi to'g'ri-ku!

– Yosh bolaning sovet oilasi haqida shunday o'ylashi pedagogikaga to'g'ri keladi deb o'ylaysizmi?

– Pedagogikani... bilmadim, – Orif aka yelkasi ni qisdi, – lekin bularning hammasi to'g'ri. Mavzu shunday ekan. Har kim o'z oilasi haqida yozishi kerak ekan, shundaymi?

– Shunday. Ammo mana qarang, boshqa bolalarning insholarini. Mana! Mana! – Shafigullima bir necha dasta inshoni stolga olib qo'ydi. – Hammasi yorqin! Ikir-chikirni kovlashtirmay, baxtli oila haqida, baxt haqida g'urur bilan yozishadi.

– Baxt... men aminmanki, Onabibi baxtning nima ekanini aytib berolmaydi. Gapning ochig'i, yoz, desalar, buni men o'zim ham yozib berolmasdim. Lekin Onabibi o'ylaganini, ko'nglidagini yozibdi. Bu yomon emas. Men buni taqiqolmayman.

– Bu... xunuk axir, tushunyapsizmi? – dedi Shafigullina qo'lida Onabibining inshosini silkib.

– Bu – haqiqat! – dedi Orif aka.

– Siz, o'rtoq Ochilov, uyda kam bo'lasiz, kecha-yu kunduz safarda, daladasiz. Bola yolg'iz, o'z holiga tashlab qo'yilgan. Xulqi ters, og'ziga kelganini gapiradi, yozadi. Biz bunga yo'l qo'yolmaymiz.

– «Og'ziga kelganini» emas, o'ylaganini gapiradi, bolamni men ham bilaman, hurmatli muallima.

– To‘g‘ri, siz otasiz, lekin otalik mehri bizning pedagoglik ishimizga xalal bermasligi kerak. Adabiyot o‘qituvchisining arzlarini hali sizga aytganim yo‘q.

– Yana nima?

– Onabibi o‘qituvchi bergen reja bo‘yicha yozma ish yozishdan bosh tortgan.

– Sabab?

– Sabab – mana, – sinf rahbari tortmadan bir parcha qog‘oz olib berdi, – mana, yozma ish o‘rniga o‘qituvchining obro‘siga putur yetkazadigan mana bu xatni tashlab ketibdi qizingiz.

Orif aka qoshini chimirib bu xatni ham uzoq o‘qidi:

«Men Oneginning so‘rovnomasini to‘ldirmayman. Ruxsat bersangiz, «Yevgeniy Onegin»ni sinfda to‘la aytib bergim keladi. Men uni yod bila-man. «Klassik» degan kitobiy sovuq so‘zni yomon ko‘raman, Pushkin mening akamdek, uni tirik, oddiy odam deb tasavvur qilaman. Tushimda ko‘rganman...»

– Ko‘rgan, ko‘rgan! – deb yubordi Orif aka, yosh boladek. – Bahorda edi, tongda yotog‘idan yugurrib chiqib menga aytib bergen. Buning hammasi rost! Rost!

Shafigullina oq tushgan qoshiarini uyib, qari yuzini xunuk burushtirib, hayrat bilan qarab turardi. Orif aka qo‘lidagi xatning o‘qituvchi arzini tasdiqlashi kerak bo‘lgan hujjat ekanini eslab, haligi bolalik quvonchini yo‘qotdi. Jiddiy gapirdi:

– Menga qarang, men buning uchun ham unga tanbeh berolmayman. U nimani o‘ylagan bo‘lsa shuni yozgan. Yo o‘ylaganini yashirishi kerak-

midi? Dilda boshqa, tilda boshqa, shundaymi? Uyda boshqa gapni gapirib, mакtabda boshqa gapni yozishga о'rgatishmi bizning vazifamiz?

– O'qituvchi shu xatga nima deb baho qо'ya-di, o'ylang?! Biz imloga, fikr ifodasiga qarab baho qо'yamiz. Bu bir parcha xat – betgachoparlik... Biz baho qо'yishimiz kerak. Nimaga qо'yamiz? Qizingiz «ikki» olib o'tirsa-yu, siz qanaqa otasiz... – Kampir qizishib ketganini payqab, qaltiroq qо'li bilan ko'zoynagini arta boshiadi. – Kechirasiz.

– «Baho qо'yish kerak...» Bola nimalarni o'ylashi sizlarga baribirmi?

– Nega? Bola yorqin o'ylar o'ylashi kerak. Biz shuning g'amini yeyapmiz.

– Ba'zan ko'nglida yorqin o'ylar bo'lmasa-chi? Soxtalik, ikkiyuzlamalik qilishi kerakmi? Maktabdaligidayoq-a?.

Kampir bu gapga darg'azab bo'libmi, yo javob topolmay, jim qoldi. Anchagacha yerga qarab turgandaan keyin Orif aka davom etdi:

– Kechirasiz, xayolimga bir gap keldi: o'sha... Onabibining otasini aytaman... uning soxtaligi shunaqa joydan boshlanmadimikan?

Shafigullina g'azabdan bezvtalanib qoldi.

Orif aka birpasdan keyin o'zicha o'y o'ylagan-dek sekinroq qо'shib qо'ydi:

– Ziyoxonovning ham... balki undan katтарог'ining ham...

– A? Bir nima dedingizmi?

– Yo'q, o'ylab ko'ray deyapman. Yo'qlaganingiz uchun rahmat, men suhbatimizni albatta o'ylab ko'raman. Xayr.

Orif aka kigiz qalpog'ini qo'lltig'iga qisib chiqib ketdi.

Uyda Onabibiga nima deyishini bilmadi. Qiz xavotirda, otasidan bir gap kutar, ish bilan ivrisib turib, yer tagidan unga qarab qo'yar edi. Onabibi so'rida falsafa o'qib o'tirgan Temirni hovlidan haydab chiqardi, otasiga choy damlab keldi, yana yer tagidan qarab qo'ydi. Orif aka sezib turardi, oxiri chiday olmadi, qizini bag'rige bosdi. Ko'ngli to'lib turgan Onabibi uning bag'rige yuzini yashirib, burnini tortdi.

Shundan keyin Orif akaga o'sha birinchi kundardagi og'ir kayfiyat, g'ashlik yana qaytib keldi. Raykomda ham, prezidiumda o'tirganida, safarda ham ko'nglida bir nima toshdek bo'lib turar, ishning jilovini ushlab olishga xalaqit berib, xotirini parishon qilar edi. Yangi kotib bir necha oygacha byurolarda gapirmadi, katta tadbirlarga aralashmadni, uning ishga «kirishuvi» cho'zilib ketdi.

Bir kuni viloyat anjumanida Mariya Vasilyevnaning juda katta nutqini eshitgandan keyin to'ppa-to'g'ri uning uyiga kirib bordi.

Mariya Vasilyevna noshud eridan ajralgandan beri, sochi oppoq oqargan bir ammasi ham urushda o'lib ketgan ukasining ikkita bolasi bilan birga uch xonali uyda turardi. U hozirgina yuvinib chiqqan, yuzida muvaffaqiyatli ish kunden keyin bo'ladigan odatdag'i mammunlik barq urib turar, sochini boshiga turmaklab, xonaki keng-kovul ko'ylak kiyib olgan edi, qomati nozik bo'lmasa ham, durkun ko'rindi Orif akaga.

– Kirganing yaxshi bo'libdi, – dedi u xushvaqt bo'lib, – o'zim ham chaqirmoqchi edim. – Kuni bilan majlisda o'tirib, yana choy-poy ichmasdan yo'lga chiqish...

– Bu safar tayyor fikr bilan keldim.

Mariya Vasilyevna o'tgan safargi suhbatni eslab lablni tishiadi.

– Uyda ishdan gapirma, qani, o'tir, – dedi u stol atrofiga kursilarni qo'yib.

– Amma!

– Hozir, Masha! – deb qichqirdi ammasi oshxonadan ruschalab. – Mehmon jindek ichadimi?

– Ichasanmi? Ichadi, ichadi! – dedi Mariya mehmonning javobini ham kutmasdan.

– Uyda gapirma degin? Uyda bo'lak gap, idorada bo'lak gap ekan-da? Uyda o'z o'ylaganimizni, o'z ko'nglimizdagini gapiraylik, majlisda bo'lsa nuqlu o'zimizni yaxshi ko'rsatadigan, muxbirlarga, hujjatlarga, rahbarlarga kerak bo'lgan gaplar ni so'qaylik, shundaymi?

Ularning ko'zlari uchrashdi. Mariya Vasilyevnaning hammomdan keyin lovillab turgan chehrasi so'ndi.

– Sen nima deyapsan, Orif? Yana kayfing buzuq...

Orif aka tirsagini stolga tirab, manglayini kaf-tiga qo'ydi.

– Ha, juda ham dilozor bo'lib qolibman, Maryam. Kechir...

Amma chuqur likoblarga qo'ziqorin sho'rva suzib keldi. Piyoladan qaymoq tomizib, eskicha guldor yog'och qoshiqlarni oldilariga qo'yib ketdi. Oshxonadan kotletning jizillashi eshitilardi.

Yaxshi ham o'sha jiz-biz bor ekan. Bo'lmasa bu jimlikda qoshiq taqillagani ham, sho'rva xo'rilla-gani ham eshitilib, battar o'ng'aysiz holga tushar edi. Mariya Vasilyevnaning ishtahasi bo'g'ilgan edi, qoramtil sho'rva ustida oydek bo'lib turgan qaymoqni atalab-atalab, qoshiqni surib qo'ydi.

– Gapir endi bo'lmasa... Mening nutqimni aytyapsanmi?

Orif aka sho'rvaga qaragancha jilmayib turardi.

– Nega iljaysan?

– O'zing bilarkansan. Men bilmasmikansan deb o'ylardim. Unda yana ham xunukroq bo'lar-di. Darvoqe, ikkalasi ham dahshatli...

– Tushunadiganroq qilib gapirolasanmi?

– Ha... Odamlar o'zi uchun – xuddi o'zi, o'z insoniyligi, o'z o'ylari bilan... Idorada yoki majlisga borsa-chi, shundoq plakat bo'ladi-qoladi. Ba'zilari buni o'zi bilib qiladi, ba'zilar esa bilmay. Ya'ni, bir qiyofada ikki kishi bo'lib yashashga o'rganib, shunday tarbiyalanib qolgan. Buning ikkalasi ham yaxshi emas deyapman.

– Xo'sh, men ham shunday ikkiyuzlamachl ekanman, qani, gapir-chi.

– Men unday keskin so'zlarni qo'llamoqchi emasman. Nutqing nimanidir pesh qilish, illyustratsiya qilish niyatida balandparvoz tarzda tuzilgan. Tahiil yo'q. Tahlil uchun ijobiy, salbiy, yaxshi-yomon kerak, haqiqiy ahvol kerak. Senda esa, u yo'q. Ya'ni, umuman senda emas, majlis-dagi senda.

– Davom et.

– Misol. Tog' tumanidan sakkiz ming vatan-parvar cho'lga ko'chib tushdi, deysan. Bilasanki, ulardan yetti yuztasi qochib ketdi. Lekin ko'nglingdagi bu gapni sen aytmaysan. Cho'lga hayot keltirdik, deding. Bilasanki, ayni paytda tog' bag'ridagi azaliy obod qishloqlar sarg'a-yib so'lidi. Lekin sen bilib turgan bu gapingni ichingda saqlab qolasan. Azamat dehqonlarimiz

tashabbusi bilan olti sovxozi qad ko'tardi, bu – davlatga uch yuz ming tonna paxta demakdir, deding. Bilasanki, bu sovxozi yetti yildan beri o'zini oqlagani yo'q, garmsel azob bermoqda, hosil kam, daromad kam, azamat dehqonlarning turmushi og'ir. Lekin ko'nglingdagi bu gap majlisda chiqmaydi. Chunki sen u yerda mana bu Maryam emas, plakatsan. Bu gap plakatni buzishi mumkin.

Farovonlikka erishishni xamirdan qil sug'urgandek oson deb o'ylamaysan, lekin shunday deb ko'rsatmoqchi bo'lasan. Har bir yaxshi ishning bir qiyinligi bor, qarama-qarshiliksiz ish bo'lmaydi – buni bilasan, lekin sen hamma ishni bir yoqlama, yaltiroq qilib ko'rsatishga urinasan. Buni zalda hammamiz bilib o'tiramiz, lekin hamon tinglaymiz, qarsak chalamiz. Nazarimda, biz ish qilayotganimiz yo'q, o'z-o'zimiz bilan bekinma-choq o'ynayapmiz.

– Xo'-o'-p... majlisda o'sha ikkala tomonni ham barobar aytib solsak, nima bo'ladi?

– Nima bo'ladi? Haqiqiy ahvol ko'z oldimizga keladi. Tahlil etamiz. Qanoat hosil qilamiz. Insoniyroq bo'lamiz. Samimiyat yuzaga keladi. Hayot tabiiyroq bo'ladi. Bir-birimizning qalbimizni ko'ramiz. Qani, ichadigan bor degan eding shekilli...

– Amma! – deb qichqirdi Mariya Vasilyevna. – Xo'sh, har holda bir ish qilyapmiz-ku, oldinga qarab ketyapmiz-ku, buni isbot qilish kerak emasmi?

– Kimga?

– Xo'sh, nihoyat yutuqlarni targ'ib qilish, xalq ichida tashviqot ishi bor axir, buni ham bekor qilasanmi?

– Agar og'zakigina bo'lsa, biryoqlama va yaltiroq bo'lsa, bekor qilaman, – deb kului Orif aka, keyin yarim qadah aroq quyib ichdi.

– Sening gaplaring esa og'zakigina emas, hatto xayoliy.

– Yo'q, mening aniq fikrim bor... Sening o'yning ni bllib turibman: bu shunchaki mulohaza deysan, senga mulohaza emas, amaliy ish kerak. Lekin meningcha, mulohazaning o'zi ham ish. Rahbar uchun his etish, ayniqsa odamlarning ko'nglini his etish – astoydil ish. Bilasanmi, bir dehqon menga nima dedi? – Orif aka yondaftarini olib varaqladi. – Mana: «Faqat xazina boylik emas, mehr ham boylik. Odam ko'zining quvongani ham boylik».

– Chiroyli mulohaza qilib, «his qilib» yuraversangiz, yana bir yilda sovxozlarning rentabelligini ta'minlamasangiz, ishdan olamiz.

– Bunga shoshmanglar. Xulqim og'irligi shundaki, men bu ikkalasini bir-biridan ajratolmayman. Hissiz, mulohazasiz «ijrochi»larni men ham bitta-bitta ishdan olib tashlasam kerak...

– Tumanni uzoq aylanib shu fikrga keldingmi?

– Fikr o'sha-o'sha: Ko'yki tumanini tugatish, u yerdagi yetti pushti mirishkor bog'bon o'tgan muqim aholini ma'muriy yo'l bilan cho'lga ko'chirib tushirish noto'g'ri bo'lgan!

– Obbo, yana o'sha Ko'yki tumani! – Shu joyda Mariya Vasilyevna o'zi ham yarim qadah ichib yubordi. – Iqtisodiy zaif tuman edi axir. Rivojlanish istiqboli yo'q, yerini kengaytirib bo'lmaydi, xo'jaligi bir yoqlama – davlatga bergen mevasi bir kolxozning paxtasiga arzimaydi. Hududi tog'-tosh,

xususiy uzumzorlardan, bog'lardan iborat. Xususiy mulkchilik uyasi. Vodiyning bozorlari shivilg'onliklar bilan to'lib yotardi. Cho'ldagi sovxozi bo'sha – davlatga tayanch. Bu gaplarni bolalar ham biladi, men senga tushuntirib o'tiribman.

– Men bola emasman-da. Men bilamanki, cho'ldagi paxtani o'z ota kasbini muqaddas bilgan bog'bonlar dilini ranjitmasdan ham olish mumkin edi. Bizda qo'riqlar ochish tajribasi katta... Vodiy bozorlariga kelsak, men ularning doim mo'l-ko'l bo'lishini istayman. «Ko'yki – vodiyning ko'rki» degan gap bor edi ilgari. Hozir bu gap kulgili bo'lib qolibdi. Sen bilan bizdan kulishadi, Maryam. Go'zal qiz o'z husnini pulga chaqsa – shunday kulgi bo'ladi...

– Aynima. Iqtisodiy zaif tumandan davlat manfaatdor emas, bilasan.

– Bo'lmasa Kavkaz sohilidagi tumanlarni yopaylik, Qrimni ham tugataylik, u yerlarda shifobaxsh havo va azaliy dilbarlikdan boshqa narsa yo'q. Paxta bermaydi, axir, nima haqqi bor...

– Qo'pol kinoya. Kotleting sovib qoldi.

Mariya Vasilyevna o'zini bosib, kalta-kalta javob berib turibdi-yu, ammo ich-ichidan qaynab ketayotgani bilinib qolardi. «Bu nima qilmoqchi? Obkomning yetti yil davomida qilgan ishini, viloyatning dong'ini chiqargan tashabbusni bekor qilmoqchimi? Nega o'ziga choh qaziydi? Chalkash, mayda fikrlar, vaziyatni anglamaslik... undan kutmovdim. Nahotki yuqorida shu fikrni qo'llashar deb o'ylasa!»

Mariya Vasilyevna uning sal oqarinqiragan go'shtdor yuziga boqdi. Orif aka bu vaqtgacha

ikki marta tushirib olgan edi. Aroq unga yoqmaydi, ichsa rangi o'chadi.

– Menga qara, Orif, kommunizmning moddiy texnika bazasini yaratish degan gapni eshitganimisan? Butun mamlakat shu bilan band. Sen bo'sang sentimental xayollaring bilan chuvalashib yuribsan. – Mariya Vasilyevna jahl bilan o'rnidan turib ketdi. Sal badani uvushganday bo'lib yelkasiga tivit ro'mol yopindi-da, shkafga suyandi. Orif aka o'tirgan joyida indamay bosh egib qolgan edi.

Shu xilda ancha vaqt o'tdi. Ko'chalarga allaqachon tun qorong'isi va sukut cho'kkon, muylishdagi katta fonuslar ham o'chgan edi.

– Nimani o'ylab qolding? – dedi Mariya Vasilyevna.

– Esimga tushib ketdi... – dedi Orif aka boshi ni ko'tarmay. U juda sekin, og'ir gapira boshiadi. – Urushdan kelganimdan keyin, avval Ochil buvani borib ko'rdir. – Orif aka otasini hamma qatori «Ochil buva» deb atar edi. – Keyin Saragulni... ikkinchi kuni bo'lsa tong otar-otmas Sumbultomchiga yugurdim. Shunday uzoqdan ko'rishim bilan xayolimga bir gap kelibdi: «Urushda o'lib ketsam nima bolardi!...» Frontda men o'limni o'ylab bunchalik dahshatga kelmagan edim, shu yerga kelib... – Orif aka o'ylaganining hammasini aytmay, gapining yarmini yutib, dam sekin, dam ovozi balandlashib, uzoq gapirdi. – Sumbultomchini yana bir ko'rish uchun jon tiksa arziyi deb o'ylardim. U mening yosligimni mana shunaqangi g'alati qilib tarbiyalab qo'ygan ekan.

– Sumbultomchi...

– Ha. Mana, qora tun. Noma'lum so'qmoqlarda sharpa. O'lim sharpasi. Biz uning g'ashiga te-

gamiz. Qorong‘ilik tugamaydiganga o‘xshaydi... Birdan quyosh! Qandaydir begona quyosh. Biz razvedkadan qaytamiz. Yana, bu safar ham omon qaytyapmiz. Shunda qayin tagidami, botqoqdam, qirg‘oqda yo vayronadami bir gulga, tiniq osmonday zangori gulga duch kelaman. Yoki yolg‘iz vizillab yurgan bolariga... yig‘layman... Itning bolasiday, ahmoq bir go‘dakdek, do‘stilarimdan yashirib yig‘layman. Sumbultomchi esimga tu-shadi...

Mariya Vasilyevna uning yelkasiga qo‘lini qo‘yib, asta silkidi. Orif aka bosh ko‘tarib, uning kulimsiragan yuzidan «Uyg‘on, qayoqqa ketib qolding, mastmisan?» degan ma’noni o‘qidi.

– Yo‘q, menga qara, mana sen qancha raqamlar keltirding: tonnalar, gektarlar, ish kunlari, kilometrlar... Odamlarning quvonchlari-chi, mening o‘sha ko‘z yoshlaram, qorli cho‘qqilarning, buloqlarning dillardagi jilvasi, keksa bir ko‘ngilning ranjishi, orzular, odamlarning ixlosi, ishonchi, ko‘ngil butunligi... Bularni nima bilan o‘lchaymiz? Qayerda gapiramiz?

Mariya Vasilyevna: «Bas endi, kech boldi, kayf qilib qolding», demoqchi edi, «Qayerda gapiramiz?» deganini eshitgandan keyin, yana ro‘paraga o‘tirdi. Lekin endi ko‘rdiki, Orif aka mast emas edi.

– Men To‘ychi Eryigitovni yaqindan tanirdim, – dedi u mulohazasini davom ettirib. – Savodli, ongli yosh yigit edi. Ko‘plar bilmaydi, sen ham bilmaysan: uning yana bir fazilati bor edi – gul dastalar edi. Sira erinmasdi. Ba’zan ertalabdan kechgacha shu bilan shug‘ullanishi mumkin edi. San‘at deb bilardi gul dastalashni. O‘z ko‘ng-

lidagiday dastalay olsa, unga kitob o'qiganday uzoq qarab qolardi. Yapon gulchilarining kitoblarini topgan edi. Qizlar uchun gul dastalash san'atini o'rgatuvchi kurs ochishni orzu qilardi... Seningcha, shu yigit DZOTga tashlanish oldidan nimalarni o'ylagan ekan?

– Guldastani demoqchimisan?

– Yo'q.

– Nimani bo'lmasa?

– Hech nimani. Unday daqiqada odam hech narsani o'ylamaydi, vaqtি bo'lmaydi o'ylashga. Endi sen javob ber: DZOTga qarab qanday kuch uni talpintirdi ekan?

– G'azab.

– G'azab yo'lbarsda ham bo'ladi.

– Onglilik.

– G'azab va ong bilan birga qalb kerak. Katta, boy, olижаноб inson qalbi!

Mariya Vasilyevna ikki barmog'i bilan peshanasini qisib, horg'in tovush bilan stolga qarab gapirdi:

– Bu gaplaring hammasi to'g'ri. Lekin sen tumanning xo'jalik ishlariga faqat shu nuqtayi nazardan yondashsang, biz sendan reja o'rniغا gap olamiz chamamda...

«Aql, iroda, mantiq – hammasi bor, ammo bir qatragina his, yurak ham bo'lsa-chi! – deb o'yladi Orif mashinani yurgizmay, orqasiga suyangancha o'tirib qoldi... Uzoq o'tirdi. Kayfi yo'q, ozgina bo'lsa ham, allaqachon tarqagan edi. Xiyobonda allaqanday qushlarning chug'ur-chug'uri, qo'nalg'a tanlab ivirsigani eshitilardi.

Orif aka tunga qulоq solib o'tirib mudrab ketgan ekan, tush ko'ribdi. Tushida Onabibi labi-

ni cho'chchaytirib yig'layotgan mish: «Bittagina kichkina singilcham bo'lsa ham mayli edi...» der mish o'ksib.

Orif aka uyg'ondi-yu, Onabibining inshosini eslab jilmayib qo'ydi. Tushda ko'rganlari xayollariga ulanib ketdi: yolg'iz, haqiqatan ham yolg'iz boyaqish. Mana hozir ta'til, Temir ham oromgohga ketib qolibdi. Onabibi uyda yakka o'zi o'tiribdi intizor bo'lib. Ota bo'lsa bu yerda...

Orif aka qayerda mudrab o'tirganini endigina payqadi. Oppoq tong otgan edi. Shahar ko'chalaliga birpasda jon kirib, asfalt yo'lkalarda to'q-to'q oyoq tovushiari, do'kon, garaj eshiklarining g'irchillab ochilgani, sutchilarining chaqiriqlari eshitildi. Orif aka ko'zini ochmay, boshini orqaga tashlab birpas o'tirdi. Kimdir:

– Xo'jayka... binagrat chkanka! – deb bo'g'iq ovoz bilan qichqirib o'tdi. Orif aka beixtiyor jilmayib qo'ydi. Ko'zini ochib qarasa qichqirgan odam yo'q, mashinaning shundoq oldidan bir xotin uyqusiragan bolasini shoshib-pishib yetaklab ketyapti.

«Bitta kichkinagina singilcha...» Onabibiga shunaqasidan bo'lsa jonini jabborga berib, kuntuun parvona bo'lardi-da. Yo birontasini boqib ol-sammikan? Topilarmidi bu zamonda... Xom xayol. Topilib qolsa-chi? Topilib qolsa-chi?

Orif aka kabinadan chiqib, mashinasining atrofini aylandi, g'ildiraklarini tepib ko'rdi. Topilib qolsa-chi? Maslahat soladigan odam yo'qda. Maryam... Maryamni xafa qildi. Chakki bo'ldi. Yo bosh egib borib uzr so'rasamikan?..

Nariroqda favvoradan sharillab otilgan suv Orif akani hushiga keltirdi. Bu nima gap? Odamlar

yangi ish kunini boshlayapti, u bo'lsa tushdagi xayollari bilan ovora.

U favvoraga borib yuzini yuvdi-da, eski cherkovning naryog'idagi meva bozoriga o'tib, bir kosa qatiq ichdi. Endi jo'nayman deb shoshib kelayotganida haligi bo'g'iq tovush yana eshitildi:

– Xo'jayka, binagrat chkanka!

Orif aka tovushni tanidi.

– Simyog'och? – deb yubordi ro'parasidan chiqib. Bu shivilg'onlik Ergash edi. U yengil brezent etik kiyib, oq yaktak ustidan qat-qat qiyiq bog'lagan, qiyqda gulqaychi, chorpichoq, payantak, yana allanimalar osig'liq, yelkasida uzun dastakli qaychi.

– Iya, Orif aka. Haligi... assalomu alaykum! – ikki qo'lini uzatdi shoshib qolgan Ergash. U novcha emasdi, «Simyog'och» laqabi unga otasidan qolgan. Otasi dong'i ketgan bog'bon bo'lsa ham, juda sodda bo'lган ekan. Bir kuni unga bir sho'x montyor bola daladagi simyog'ochlarni sotib ketibdi. Montyor dalada elektr simi tortayotgan ekan, «Nima qilyapsan?» debdi chol. «Simyog'och o'tkazdik, – debdi bola, yarimta ichkisi kelib qolganmi, hazillashibdi: – O'tqazdig-u, xato o'tqazib qo'yibmiz. Endi tashib ketish juda qimmatga tu-shadi. Sotmoqchimiz», debdi. Simyog'ochlar ham tilsa juda so'ribop ekan. Savdo ko'pga cho'zilmabdi, chol hammasini arzon-garov sotib olib, bola-ga bor pulini sanab beribti. O'shandan beri xalq orasida bularning laqabi Simyog'och bo'lib ketgan. Ergashga laqabgina emas, hunar ham ota meros. Ishkomda tug'ilib, chaylada katta bo'lган bu istarali yigit sohibkorlikni o'n besh yoshidayoq egallab, san'at darajasiga ko'targan edi.

*Shivilg'onda hatto ashula ham bor.
Simyog'ochning bog'lari marjon uzum,
Marjon qilib taqa qol, shahlo ko'zim...*

Sentyabr oylari ishkomlarda barg ko'rinas, shig'il husayni, har boshi naq birl savat bo'ldi. Har donasi kahrabodek sap-sariq, beg'ubor, quyosh botganda ichida cho'g' yonib turganday ko'rinar edi.

– Nima qilib yuribsiz, S... sim... Ergash?

– Shundoq... – dedi otasi kabi sodda Ergash qo'lga tushib qolgan boladek, belidagi, yelkasida-gi asboblarni qayoqqa qo'yishini bilmay. – Ray-kom bo'psiz, aka, eshitib xursand bo'ldik.

– Gapni chalg'itmang, siz cho'lga, sovxoza ko'chib tushmaganmidingiz?

– Ko'chib tushgan edik, aka.

– Bo'lmadimi?

– Bo'ljadi...

– Sovxozdan qochib, shaharda eshikma-eshik xomtok qilib yuribman deng?

Ergashning soqol bosgan yuzi bo'zarib ketdi, tipirchilab, atrofga qaradi.

– Kasal, aka, qaysi hovliga kirmang tok kasal. Tog'dan kul tushyapti, – dedi Ergash o'zining kasal bolasi haqida gapirgandek mung'ayib.

– «Xo'jayka binagrat chkanka» mish. Paxta ekish o'zi bo'lmaydi. Chidamapsizda-a?

– Men chidayman, aka. Har narsaga chidayman... – Ergash barg shirasi singib ketgan qadoq kaftiga boqdi, kattiq prujinali bog' qaychisining dastasini g'irchillatib qisdi. – Bu yerda ham pulni so'qayotganim yo'q... Bog' bering menga, qaytib boraman, raykom aka!

Orif aka yigitning tovushida yig'lagsirash ohangini eshitgandek bo'ldi. Shu zumdayoq o'zining ko'ngliga ham bir nima soya soldi. Bu unga tanish g'ashlik edi.

– Qochgan bo'lsangiz yuravering! – dedi Orif aka jahl bilan va jadal qayrilib jo'nab qoldi.

Jo'nadi-yu, Ergashga juda achindi. Bir vaqt kimsan mirishkor bog'bon, hamma bog'dor tu-manlarga dong'i ketgan, o'z o'rnini topgan, hayotdan mammun, qo'li gul yigit edi. Hozir bo'lsa ko'chama-ko'cha... Uning ustiga, jerkib tashladi. Birovning hovlisidagi tokning kasalini yig'lagudek bo'lib gapiryapti. Uning aybi nimada? O'z qutlug' kasbiga shu qadar ko'ngil qo'yganidami?

Orif aka birpas toptanib turdi-da, haligi joyga qaytdi. Qarasa, Ergash narigi muyulishda bir yelkasi bilan devorga suyanib, bosh egib turardi. Orif aka uni chaqirmadi, oldiga bordi. Yo'taldi. Ergash cho'chib bosh ko'tardi.

– Esimga tushdi, nos chekardingiz shekilli, Ergashvoy, bormi?

– Ha... ha-ha, bor, – deb yigit qat-qat qiyiqlari-ni tita ketdi. Jez qoplagan nos qovoqning popukli tiqinigacha kul tushgan uzum novdasining zax hidi singgan edi.

– Ha, kul tushib yomon bo'libdi-da, – dedi Orif aka bir chimdim nos otib. – Yo'qotish qiyinmi?

– Yo'qotish mumkin. Ammo lekin butun vodiyga tarqasa yomon bo'ladi.

– Ha... undoq deng. – Orif aka kamaridan qalpoqni olib, qoqib boshiga kiydi. Oftob qizita boshlagan edi. – Menga qarang, Ergash, siz... Shivilg'onga qaytib boring.

Ergash ko'zini pirpiratib, tushunmagandek, savol nazari bilan qaradi.

– Qayting, ha. Butunlay.

– Hazillashmang, Orif aka.

– U yerda ba'zi keksa bog'bonlar bor. Mansur otani ham qaytaramiz. Kuchlaring yetgancha bog'larni tiklanglar. Sumbultomchiliklarni ham asta-sekin qaytaramiz.

– Orif aka! Raykom aka! Chiningizmi?

– Aytganday, bola-chaqa qalay, sog'-salomatmi hammasi?

– Ha.

– Olib keting barini. Uylarni, chaylalarni tuza-tib olinglar. Keyinroq bog'larni borib ko'raman. Pul-mul qalay?

– E-e, pul kerakmas menga! Kunimiz o'tar. Baxtimizga o'zingiz kelib qolibsiz, aka, rahmat! Shivilg'onne yana gullatmasam, rahmatlik otam mendan rizo bo'lmasin.

U soqollari o'siq bo'lsa ham, aliaqanday ko'rkan bo'lib ketdi. Hovliqib qolganidan Orif akani quchoqlab ham olmoqchi edi shekilli, o'zini bosib, qo'pol qo'llarini uzatib qo'ya qoldi. Orif akaning ham ko'ngli o'sib ketdi.

– Simyog'och! – dedi xayrlasharkan, yelkasiga qoqib.

Orif aka ishdan qaytib kelganida hovli to'la bola edi. Shovqin-suron bilan mashinani qurshab olishdi, biri kabinaga kirib, biri kuzovning orqasiga osilib, biri tepasiga chiqib, rosa yayrab qichqirishdi. Onabibi otasining bag'ridan qutulgandan keyin, bitta-bitta quvib yurib hammasini har yoqqa tirqiratib yubordi. Hovli jimjit bo'lib qoldi.

– Tirmizaklar!.. – dedi Onabibl xivichjni tashlab. Keyin «parovoz-parovoz» o'ynagani tashib chiqilgan kursi, primus, paqir, kitob yana allanimalarni hovli yuzidan yig'ishtirib oldi.

Orif aka maykachan, kavush kiyib chiqib, so'ri atrofiga shakarob qilib suv sepdi. Radio operalar dan mungli ariyalar eshittirar edi. Dim havoga rohatbaxsh salqin oqim sezilar-sezilmasgina oqib kirmoqda edi. Choydan keyin Orif aka kitoblarini, gazeta-jurnallarini ko'tarib chiqib, so'ridagi xontaxtaga ag'dardi. U bir necha kechadan beri tog' tumanlarining iqtisodiyotini o'rganardi.

Onabibi dasturxonni yig'ishtirgach, oyoq uchida cho'zilib xontaxta tepasidagi lampochkani burab yoqdi.

- Maryam xolamni ko'rdingizmi, dada?
- Ko'rdim, senga salom aytdi.
- Mehmonxonada yotdingizmi?
- ... Ha.

Onabibi dam u yoqqa o'tib, dam bu yoqqa o'tib, dadasingin atrofida o'ziga ish topib, tinmay bidirlar edi.

- Mehmonxona chiroyli-ya? Derazalari ka-atta!
- To'rtinchi qavatidamidingiz, dada?
- A? Ha, ha. To'rtinchi qavatida.
- Qip-qizil cho'g'dek poyondozlar solingan. Yaxshimi, dada?

– Kayfiyattingga qarab, qizim. Ko'ngling to'q bo'lsa, vaqting chog', ishingdan mamnun bo'lsang, hammasi ham yaxshi, – Orif aka yonboshiab yotgancha daftarlariiga nimalarnidir yozar, kitoblarning orasiga xatcho'p qistirar edi.

– To'g'ri, dada, mening ham ko'nglim har xil bo'ladi. Goho yaxshi, goho... Nimaga yaxshi, qan-

doq yomon – hech aytib berib bo'lmaydi. – Onabibi ko'rpa chaga chiqib, ingichka, uzun oyoqlarini etagiga o'rab o'tirib oldi. – Temirlarning sinfida-chi, dada, bir kuni rosa tortishuv bo'ldi. Temir hamma narsaning ta'rifi bor, hamma narsani tushuntirib bera olaman, deydi. U baxtni ham ta'riflab berdi, ko'nglini ham, muhabbatni ham..

– Nima dedi?

– Voy, esimda qoptimi? Keyin Komila opam uni bopladi. Ularning Komila opa degan o'qituvchisi bor. Bu yil kelgan. Yoshgina-yu, o'zi o'qituvchi, qiziq. «Qani bo'lmasa atirgulning hidini so'z bilan ta'riflab ber-chi?» dedi o'sha Komila opa, – Onabibi piq etib kulib yubordi, – Temir ta'riflab berolmay, rosa xijolatda qoldi. Ajab bo'ldi, maqtanmasin, a, dada?

– Ha, qizim, so'z bilan aytib berib bo'lmaydigan talay narsalar bor dunyoda... – dedi Orif aka, kitobini yopib, ko'zini bir nuqtaga tikib qoldi. Radio tindi. Faqat chiroq zirillab yonar edi. Anchadan keyin qarasa, Onabibi o'sha o'tirgan joyida ko'r-paga o'ranib yotib olibdi, ko'zlari yumilib-yumilib ketayotgan edi.

– Menga hozir yaxshi, – dedi kipriklarini ko'tarolmay, cho'chchaygan lablari blan shi-rin tamshanib. – Nimaga yaxshilagini ham bila-man. Negaki bugun siz uydasiz... – shu so'z bilan pinakka ketdi.

Orif aka uning kichkinagina ma'sum yuziga tikilib, ko'ngli g'alati bo'lib qoldi. Anchagacha ish qilolmadi. Keyin chiroqni o'chirib, Onabibi ning ustini yaxshilab yopib qo'ydi-da, daftalarini qo'lтиqlab, oyoq uchida uyga kirib ketdi.

U tuman gazetasining eski sonlarini varaqlab o'tirarkan, tantanali bir sahifada Ergashning suratini ko'rib qoldi. «Simyog'och» kulaymi, kulmaymi degandek, mujmalroq bir qiyofada chaqchayib turardi. Surat tagida maqolasi. Ergash hamma tog'liklarni cho'lga ixtiyoriy ko'chib tushishga chaqirar, «Ko'chishga bo'yni yor bermagan sharmandalı eskilik qoldiqlari bizning oramizda bo'lishi mumkin emas!» deb qat'iy ishonch bilan xitob qilar edi. Ergash shunday til bilan yozardiki, uning oldida ba'zi so'z ustalari ham ip esholmasdi. «Sher o'mrovli azamat cho'lquvarlarning vatanparvar safida baxtiyorman...»

Bu oylarda gazeta har kuni «sher o'mrovli cho'lquvarlar»ning hayqiriqlari, chaqiriqlari bilan to'lib chiqqan edi. Go'yo cho'lda baxt-saodat, xazinalar mana men deb shundoqqina tayyor turibdi-yu, uni borib egallash shu vaqtgacha hech kimning xayoliga kelmagan; shuning uchun tog'dagi butun boshli qadimiy bog'dor qishioqlarni huviliatib ko'chib ketishda biron ta bahs yoki ikkilanish, qiyinchilik, yoki biron muammo asari yuz bergen emas.

Orif aka Ergashning suratiga yana tikildi. Bu yerda u nechog'li jo'n! Dovdirab qarab turishi ham, so'zlari, fikrlari ham. Ertalab shaharda uchragan Ergash bo'lsa – butunlay boshqa. Ko'zlariga boqib, soddagina gaplariga quloq solsangiz, o'ylarini, dardini, ishqini, ko'nglidagi ezguliklarni sezasiz...

Yo'q, hayotni jo'nlashtirib bo'lmaydi. U o'zining chigal murakkab o'zanlari bo'ylab oqadi. Mana Orif aka kun-tun safarda, dalada, idorada.

U uchratgan odamlarning hammasi sher o'mrovli azamat emas, bir-biriga sira o'xshamaydi, har biri o'zgacha olam, lekin har biri alohida mislsiz xazina. Har bir kolxozi yoki sovxozening o'z muammo-si, o'z fazilati, qiyinchiliklari bor. Haqiqiy cho'lquvarlar – harbiydan bo'shagan askar bolalar, oliy maktab diplomlarini ushlagan mutaxassislar, maktab attestati, oliygoh yo zavod yo'llanmali bilan yangi yerda muqim qotadigan haqiqiy ko'ngillilar yuzlab kelmoqda. Ma'muriy yo'l bilan ko'chirib keltirilganlar, adashib kelib qolib, keyin o'z bog'larini sog'inib, o'zini omonat sezib astoydil ko'nikolmaganlar esa ketib qolmoqda. Har kimning kelishi ham, ketishi ham alohida bir voqeа. Ko'p o'ylar, xazinalar, insoniy munosabatlar bilan, oila, ko'ngl, kasb, taqdir bilan bog'liq.

Yo'q, odamni, hayotni jo'nlashtirib bo'lmaydi. Orif akaning o'zi ham keyingi vaqtarda bu hayotga astoydil sho'ng'ib, o'zida g'ayrat va qanoat sezaboshladi. Uzoq qishloqlarda qolib ketadi, byuro-larda ilgarigidek jim o'tirmaydi, hatto shiypon-larda ham nutq so'zlashiga to'g'ri keladi, ko'plar bilan nizolashib ham oldi, ko'p do'stlar orttirdi, chigal muammolarga duch kelib uyqudan qoldi, holdan toydi, ulfat topib chaqchaqlashdi, bularning natijalarini ko'ra boshladi. Endi uni hamma joyda yo sevishadi, yo yomon ko'rishadi, xullas, beparvo kutadigan yoki tanimagan odam yo'q.

Bir kuni uzoq sovxozdan kechasi qaytib, ertalab ishga kech keldi. Qarasa, qabulxona to'la odam. Raislar, sovxozi direktorlaridan bir necha kishi, muharrir Nazarov ham shu yerda; Orif akaning ko'zi darrov To'laganga tushdi, uni o'zi yo'qlatgan edi, esidan ko'tarilib ketibdi.

– Kechirasizlar, – dedi u o'tirganlar bilan salomlashgach. Keyin hammami birdan ichkari-ga taklif qildi. Xona kichkina, sodda, kursilar tartibsiz qo'yilgan, javonlar qiya ochiq, kitoblar sochilgan, onda-sonda gul. Bu birinchi kotibning xonasidan ko'ra ko'proq yosh dissertantning ish xonasiga o'xshardi.

Orif aka stoliga o'tmasdan To'laganming yoniga kelib o'tirdi.

– Firuza qalay?

– Tuzalib ketdi, Orif aka, rahmat. Men... men dissertatsiyaning muddatini kechiktirishga ijozat oldim, mana telegramma.

– Nega? – Orif aka telegrammani diqqat bilan o'qib chiqdi.

To'lagan qop-qora qo'li bilan do'ng peshanasini ishqab, «gapiraveraymi?» degandek atrofga qaradi. Atrofdagilar dam o'zaro gaplashib, dam bularga qulq solib o'tirishardi.

– Xo'sh, nega? – takrorladi Orif aka.

– Bu iqtisodiy kengash deganingizning o'zi bir institut chiqib qoldi.

– Xo'sh, xo'sh?

– E, bu meni domiga tortib ketdi, Orif aka. Ko'r ekanmiz, paypaslanib yurgan ekanmiz. Ichki xo'jalik hisobi deganingiz bir xamirturush ekan deb qo'ydim. Hammaning ko'zi ochilib, har kim o'zi qimirlab qoldi: biron jarayonda kimningdir kissasiga zarar yetkazmaslikka urinadi, u mustaqil, u javobgar. O'zi kam olsa, haqi kimda qolganini ko'rib turadi – avtoparkchilardami, mexanizatorlardami, aviatorlardami, suvchilar-dami.. «Vodxoz» oltinchi bo'limga bergen suvini

bir yarim baravar ko'p yozib yurgan ekan. Kecha borsam, fermalarigacha elektrga ham, suvgaga ham hisoblagichlar o'rnatib qo'yishibdi. Har brigadir hozir mahsulotning tannarxonini yil oxiridagina emas, har oyda bilib, hisoblab boryapti. Hisobchilarni o'qityapmiz... – To'lagan suyunchiga kelgan boladek hovliqib, tez gapirardi, nafasi ichiga tushib ketdi. Jildidan qog'ozlarni oldi. – Mana bular zaxiralaramiz. Millionlarni yelga sovurib yurgan ekanmiz. Agar yanagi yilga reja oshirilmasa, tannarxonini kamaytirish hisobiga sovxozi birinchi marta o'zini oqlaydi.

– Reja oshirilmasa. Ha.

– Buni o'ylab ko'ramiz... – dedi Orif aka To'laganning hisobot jadvallariga tikilib. Boshqalar gapga qiziqib, o'rinlaridan turishgan, bularni qurshab olishgan edi. – Menga qarang, To'lagan, kengash yana bir necha masalani ko'tarishi kerak: birinchidan, «afg'oni»ning qanotini sindirish masalasi! Olimlar bilan bog'laning. Zaxiralarni hisoblab ko'ringlar: cho'lni ko'kalamzorlashtiruvchi maxsus brigadalar tuzishga kuchimiz yetadimi? Ikkinchidan, eski bog'dor dehqonlarning xohishini, yoshini, kasbini, vaqtini hisobga olib, ularga sovxozi shaharchasida bog'lar yaratish imkonini tug'dirish kerak...

To'lagan hammasini yozib borardi. Atrofdagilar jonlanib, shovqin kuchayib ketdi.

– Orif aka!.. O'rtoq Ochilov... Nima uchun...

Orif aka gapini tugatmagan edi, To'laganga qarab davom etdi:

– Modomiki, kengash astoydil ishga tushgan ekan, unga buyurtmamiz bor. Sizga birinchi

buyurtma raykomdan: musobaqada birinchilik mezonlarini ilmiy ravishda ishlab chiqish kerak. Oldin bajargan yutib ketaverishi kerakmi yo boshqa shartlar ham hisobga olinadimi? Mahsulotning tannarxi, masalan... Yoki kolxoza ma'muriy chora ko'rilganlar soni... Aytganday, Ziyoxonov qalay, yordam beryaptimi?

To'lagan nima deb javob berishni bilmay yelkasini qisib, o'yga tolgan edi, telefon jiringlab qoldi. Orif aka stolni aylanib o'tib, go'shakni oldi.

– Labbay! Kim?.. E-ha, Simyog'och!.. – deb yubordi xursand bo'lib, atrofdagilarga o'ng'aysizlanib qaradi-da, «Kechirasiz» deb qo'ydi kimgadir.
 – Qulog'im sizda, Ergashvoy... Bog'lar qalay? Ni-ma-nima, kim? – Orif aka birpas jim qoldi, rangi oqarinqirab ketdi. – Qachon? Mahallada. Xo'sh... Kasalxonada. Ha... Keyin ko'rinnmadimi?

Go'shakni qo'yib odamlarga qaradi. Lekin hech narsani ko'rmayotgandek edi. Keyin o'zini bosib, gap nimaga kelib to'xtaganini eslashga urindi. Ro'parasida Nazarovni ko'rib, hazillashmoqchi bo'ldi.

– Sizning qahramoningiz... Ergash.

Muharrir tushunmadi shekilli. Hech kim ham kulmadi, hazll chiqmadi. Orif akadagi o'zgarishni payqamagan direktorlardan biri haligi gapni davom ettirdi:

– O'rtoq Ochilov, bu nega bizlarda yo'q... ken-gash?

– Ha, rost, nega? Bizning sovxozung nimasi kam?

– Bizlar chetda qolaveramizmi?

– Bilmadim... – dedi Orif aka jilmayib. U suhbatning nimaga kelib to'xtaganini esladi. Ko'rib

turibdiki, qabulga kelganlar o‘z yumushlarini unutib, To‘laganning gapiga diqqat berishdi. Ular-ga hozir boshqa hamma masalalar ikkinchi darajali bo‘lib qoldi. – Raykom... raykom buni hamma kolxoz-sovxozlar uchun katta tajriba markaziga aylantirish niyatida, – deb tushuntira boshladi u. – Hatto shunday orzumiz ham bor: kelgusida shu iqtisodiy kengashlar negizida qishloq xo‘jalik iqtisodiyotining jamoatchilik ilmiy-tekshirish institutini ochish mumkin... Lekin nom berish oson. Buni hali ko‘p o‘ylash, tajribada sinash, ko‘p ish qilish kerak. Istananglar, mana To‘lagan batafsil gapirib bersin. Fikrlashinglar. Men... Mening zarur ishim chiqib qoldi.

U shovqinli xonasini bularga tashlab chiqib ketdi. Ko‘chaga shoshilib chiqdi-yu, zinaning pastida to‘xtab qoldi. Nimaga chiqdi? Qayoqqa borishi kerak?

U qayoqqadir borishi, shoshilishi kerakligini bilardi. Lekin qayoqqa? Nega?

Orif aka uyga tomon shoshib ketayotganini payqadi. Ha, uyga, Onabibining oldiga. Qayoqqa borsin bo‘lmasa? Onabibini tezroq ko‘rishi kerak...

Telefonda Ergash unga xunuk xabar yetkazdi. Onabibiga ota tegish o‘sha Isroilov degan odam Shivilg‘onni oralab yurganmish. Odamlardan bolasini surishtiribdi, mahalla komissiyasiga, kasalxonaga kiribdi...

«Niyati buzuqqa o‘xshaydi, aytib qo‘yay dedim, aka», – dedi Ergash.

– Nima niyati bo‘lardi? Onabibida uning zarra-cha haqi bo‘lmasa!..

Shunday bo'lsa ham Orif aka yuragining dukur-dukuridan qo'rqar, yo'lkada salom ber-ganlarga ham alik olmay, tezlab borar edi. Darvoza oldida to'xtab, buklog'liq qalpog'i bilan peshanasini artib, nafasini rostladi.

Eshik ichkaridan tambalangan edi, tirqishdan qo'l solib ochay desa, hadeganda ochilavermadni, qo'li qaltirardi. Bir amallab ochdi. Hovli huvillab yotibdi. Vujudi sovib, eti jimirlab ketdi.

– Onabibi!..

Hech kim javob bermadi. Qo'shnining iti vovil-ladi, xolos.

Orif aka birdan majolsizlangan oyog'ini bazo'r sudrab uyga qarab intildi. Agar shu mahal uyqu-siragan Onabibi ko'zlarini ishqalab ro'parasidan chiqmaganda, yiqilib qolishiga ham ko'zi yetgan edi. Qizini bag'rige bosdi. Jajjigina, chuvakkina, issiqliqina shu vujud unga darhol quvvat bag'ish-ladi. Shunday bo'lsa ham Onabibi bir nimani payqadi. Otasi hech qachon shoshib kelib uning peshanasidan bunday qaltirab o'pmas, sochlarini bunday silamagan, ko'zlariga bunday g'alati qaramagan edi.

– Nima bo'ldi, dada? Nimaga barvaqt keldingiz?

Orif aka uni bag'rige yana bir bosib, yonginasida ostonaga o'tirdi.

– Terlab ketibsiz. Men ham uxbab qolibman, biram dim. Choy qo'yay.

– To'xta, Onabibi... – dedi Orif aka uning qo'lidan ushiab. Keyin nima deyishini bilmadi-da, qo'yib yubordi. – Ha, mayli, bor, choy qo'y. – O'tirgan joyida qizi qayoqqa borsa undan ko'z olmay o'tirdi. Anchadan keyingina nafasi rostla-

nib, yuziga rang kirdi. O'shandagina o'zini o'ylab, kullb qo'ydi: «Tentak! Nimaga hovliqib yugurib yuribman? Qizimga birov tahdid solyaptimi? Tahdid solib bo'pti! Uni ko'rmagan, tanimagan bir yaramas tahdid soladimi? Qizimning emgan ona sutidan tortib, ko'z nurigacha o'zimniki!»

U tizzasiga shap etib urib, o'rnidan turib ketdi.

Shu kundan boshlab Orif aka uydan kam chiqadigan bo'ldi. Chiqsa ham barvaqt qaytadi, eshikdan hovliqib kiradi-da, Onabibining tovushini eshitgandagina o'ziga keladi.

Dam olish kuni Onabibini shaharga olib borib o'ynatdi, gastrolga kelgan opera teatrining «Doktor Aybolit» degan spektakliga olib kirdi, ko'ylaklar olib berdi, bir bo'g'cha har xil sovg'alar bilan qaytib kelishdi. Onabibi shu kunlari sal ulg'aygandek, to'lishib, o'zgarib, quvonchi ichiga sig'may, kulganda chehrasi nur sochadigan bo'lib qoldi. Lekin ochilgan sari Orif akaning ko'nglini bulut chulg'ar edi. Isroilov uning xayolidan ketmaydi. Bir kun emas, bir kun bezrayib kirib kelishi bor. Lekin uning basharasini ko'rishdan ham kutish azob bo'ldi. Ana keladi, mana keladi deb, yuragini hovuchlab yuraverish Orif akani juda ezib qo'ydi. Kechalari ham xayoli o'shangang ketib qoladi. «Kelib nima qiladi, qaysi yuzi bilan keladi-yu nima deydi? Qishloqqa borgan bo'lsa, yurgandir-da...» deydi bir ko'ngli. Lekin ko'zini yumsa, allaqanday sharpalar eshitiladi qulog'iga, eshikni taq etib ochib kirib keladigandek...

Eng qiyini bu ahvolni Onabibidan yashirish edi. Orif aka yolg'on qiliqqa, ikki qiyofada yashashga o'rganmagan...

Ikki hafta shunday muttasil xavotirda yurgach, Orif aka charchadi. Isroilov qorasini ko'rsatmadi. Orif aka uning ablalhligiga batamom ishonib, endi nafrati ichiga sig'may qoldi. Bu nafrat xavotirning ham o'rnini bosdi. Orif aka kerak joyga bema'lol boradigan bo'lib, ishi ilgarigi iziga tushdi-yu, lekin diliqa tugib qo'ydi: «Topaman men u ablahn! Manavi ishlarim bitsin-chi, qayerdan bo'lsa ham qidirib topib, basharasiga bir tupurib xumordan chiqaman!»

Orif aka saratonning jazirama kunlaridan bida, Ergashga bergen va'dasiga muvofiq, bog'lar dan xabar olgani sobiq Ko'yki tumaniga chiqib ketdi. Chollar, soyliklar, yonbag'irlar qovjirab sarg'ayib ketgan bo'lsa ham, ostobda charaqlab yotgan qorli cho'qqilar tagidagi ko'hna tog' qishloqlari ko'm-ko'k bo'lib gurkirab yotardi. Ungurlarda pistazorlar qorayib ko'rinar, jilg'alarning betinim sadosi eshitilar, uzilib tushgan qoyalar ostida qulab yotgan keksa yong'oqlarning yod hidi anqib, atrofga, dim havoga asta taralar edi. Bu yerlarda hech kim yo'q, ilon izi so'qmoqlarni o't bosib ketgan, o'nqir-cho'nqir, past-baland, ko'm-ko'k, dimiqib yotibdi. Ba'zan qoyalar sirtiga tirmashib chiqsangiz, ro'parangizda mislsiz manzara paydo bo'ladi. G'ovlab ketgan tashlandiq bog'lardan ko'tarilgan yengil hovur jimirlab, havo rang harir pardadek, tog'ning vodiyya cho'zilgan etaklarini ko'zdan yashirib turadi, tikilibroq qarasangiz, uzoqdagi tepalar, qirlar, mirzateraklar xuddi ertakdag'i serminor qal'alarning zangori ko'lankasidek ko'rinati.

Shunday qoyalardan biriga chiqqanda Orif aka pastda ko'zni olgudek charaqlab yotgan bir

narsani ko'rdi. Bu, shubhasiz, mashina edi, mashinaning oldingi oynasi quyoshda shunday charaqlayapti. Lekin kim bu, yo'siz qanday kelib qoldi, nima qilib yuribdi bu yerda?

Orif aka toshlardan sakrab, yo'siz qiyaliklar-dan sirg'anib, yugurib tushdi. Biroq mashinaga yetmasdan to'xtab qoldi: ne ko'zi bilan ko'rsinki, o'nqir-cho'nqir yo'ldan asta yurib Mariya Vasilyev-na kelardi. U qo'lini soyabon qilib qorli cho'qqilar-ga qarar, azim emanlar soyasida nafas rostlab, yana yurar, to'xtab yovvoyi gullardan uzar, qo'li-dagi yo'nilmagan tayoq bilan o't-o'lanylarni titkilab bir nimalar qidirar edi. U yolg'iz, qizlarga o'xshab yengsiz kalta ko'ylak, poshnasiz botinka kiygan, yupqa oq durrasini boshiga, peshanasini, yuzini oftobdan to'sadigan qilib bo'shgina tang'ib olgan, yuzi, bilaklari issiqdan qizarib ulgurgan edi.

Orif aka uzoqdan, soyaroqda turib uni kuza-tarkan, kulib, kaftlarini bir-biriga ishqalab qo'ydi. U negadir Mariya Vasilyevnaning bu yerga kelib qolishiga o'zini sababchi deb his etardi. Shundaymi, boshqachami, ishqilib kelibdi-ku, shuning o'zi ham Orif akaga kutilmagan bir suyun-chi bo'ldi. Quvonib ketganini tan olmasa ham, Maryamga o'zining gaplari ta'sir etgan bo'lishi mumkinligini ich-ichidan o'ylab qo'ydi.

Mariya Vasilyevna ham Orif akani ko'rib, qo'lga tushgan boladek, qizardi-yu, ko'ngliga shunday o'y kelishini bilib, «Gapim ta'sir qilibdi, Ko'ykini ko'rgani kelibdi» demasin deb, o'zicha oldini oldi:

– Shundoq, ozgina sof havo olay deb... Hordiq chiqaray deb kelgan edim, – dedi beparvoroqqina,
– dalada yurib o'pkalarga chang to'lib ketdi.

– Yo‘q, Maryam, ochig‘ini aytaver, mening gaplarimdan keyin tog‘ tumaniga qiziqib qolgan-san. Odam ko‘ngli tortgan ishni albatta qilishi kerak. Yaxshi qilibsan kelib.

Mariya Vasilyevna «qitmir!» degandek keskin qarab qo‘ydi Orif akaga. Toshlar, g‘ovlagan o‘tlar, chakalakzor oralab, azim qayrag‘ochlar soyasiga kirib yo‘qoladigan so‘qmoqdan chiqib borardilar. Tikkaroq yerlarda Orif aka uning tirsagiga kaftini asta tegizib, odob yuzasidan sal suyagan bo‘ladi.

– Nima, menga chiroyli manzaralar sayohati, shunchaki tog‘ sayri yot deb o‘ylovingmi? Sizga iqtisodiy kengashning raqamlariga mukkangizdan ketish yarashadi-yu, bizga jindak lirika yarashmaydimi?

Ular ikkalasi ham atrofni yangratib kulib yuborishdi. Mariya Vasilyevnaning kulgichlari nurlanib ketdi. Orif aka o‘scha rabfakdag‘i dum-dumaloq olov qizni ko‘rgandek bo‘ldi.

– Eshitibsan-da?

– Eshitganda qandoq! Kolxozlarda boshqa ishni yig‘ishtirib qo‘yishibdi-ku. Hammasini eshitib turibmiz. Deputatlar xonalarini yo‘qotganiningni ham, parklardan shlorlarni oldirib tashlaganiningni ham, sovxozlarda tog‘liklarga javob berayotganiningni ham, maorif tizimiga, gazetalarning uslubiga aralashayotganiningni ham... bundan keyin yana nima karomat ko‘rsatkansan – faqat shunisini bilmay turibmiz.

Orif aka kulib turaverdi. Mariya Vasilyevna ning bu po‘pisasi uning ishlarini ma‘qullash bo‘lmasa-da, qoralash ham emas edi. Bir dovon ga chiqqanda ular tomiri bilan ag‘darilib yo‘lda

ko'ndalang yotgan baqaterakka o'tirib dam olishdi. O'ngda bir xil kiyangan, bo'y-basti ham bir xildagi behisob ko'k archalar uzun-uzun saf tortib qiyalikka chiqib ketayotgan askarlardek ko'rinar-di. Tepada tik tog'lar chakalakzorlarga qora soya solib turibdi. Bu yerda hamma vaqt salobatli su-kut hukm sursa kerak. Ayniqsa tong otganda... Yengil shabnam hali yerda, o't-o'lanlar, gullar orasida yotadi, tiniq osmon tagida butun vodiy ko'z oldingizda kaftdek yastangan, qayerdadir chashma ko'zi miltillaydi, havo sofligidan archa hidi, asal hidi anqiydi. Shunda namtob so'qmoqlarda yalang oyoq yurib, yerga jondoshligingni sezsang, ko'ngling allanechuk osoyishtalik, ezgu lik bilan toladi.

– Bu joylar odamning chiroyli xayollariga o'xshaydi, Maryam. Odam... o'tib ketadi. Uning chiroyli xayollari qoladi.

Mariya Vasilyevna qolida o'ynab turgan bargni birinchi marta ko'rayotgandek, aylantirib-aylantirib tomosha qilar, nafis tomirlariga uzoq tikilar edi.

– Mana ko'rdingizmi, kungurachalariga, tomir-chalariga, shakliga diqqat bilan tikilsangiz, shu bitta kichkinagina bargda ham qonuniyat bor. Onabibining do'sti Temirning isbotiga qaragan-da, qonuniyat tasodiflardan tug'ilardan ekan...

Mariya Vasilyevna bargchaning ajab murakkab simmetrik qonuniyatlarini bir san'at asaridek tomosha qilib, huzur qilar edi. Orif aka buni sezib, mammun, sergap bo'lib qoldi.

– Ba'zi olimlarning faraz qilishicha, har bir nar-sa, mana shu barg ham, odam ham elektronlar-ning maxsus birikmasidan iborat ekan. Qa-

chondir, million yillardan keyin shu birikma tasodifan yana bir takrorlanib qolsa, odam ikkinchi marta hayotga qaytib kelishi mumkin ekan. Agar qonuniyat, Temir aytganday, tasodiflardan tug'ilsa...

– Yaxshi yupanch.

– Lekin menga yoqmadi. Elektron, birikma, qonun... Undan ko'ra jannat-do'zax, u dunyo haqidagi afsona chiroyliroq...

– Ikkii bor yashash imkonidan mamnun bo'lmay, yana go'zallik ham talab qilasiz.

– Sen bo'sang shu yerda ham go'zallikni unutyapsan.

– Gap fan haqida edi shekilli.

– Gap odamning ma'naviy dunyosi haqida...

Ular yana jim qolishdi. Oftob qizita boshigandan keyin bu yerdan turib ketishdi. Orif aka tosh tagidan sizib chiqqan bir chashmadan yotib suv ichdi. Suv sovuq ekan, tishlari zirqirab ketdi. Mariya Vasilyevnaga do'lana terib berdi. Keyin negadir Isroilovdan gap ochdi. Uning Shivilg'onga kelib yurgani, o'zming sarosimaga tushib qolganlari, Onabibi ham bir nimani sezib, kechalari turib kelib dadasining uyqusidan xabar olishi... hammasini batafsil gapirib berdi.

– Yo'q, men uni topaman, yerda bo'lsa qulog'idan, osmonda bo'lsa oyog'idan tortib...

– Uni topib nima qilasan, tushunmadim, – dedi Mariya Vasilyevna. – Sudga berolmasang, isboting bo'lmasa... Qaytaga u seni sudga berib, bolani tortib olmasin. Bir umr ovunchog'ingdan ajrab qolasan. Shuncha mehnat sarflab, shuncha tarbiya qilganingdan keyin... Yolg'izlik seni yeb qo'yadi.

– Men unga g'azabimni aytmasam, yuragimga sig'maydi! – dedi Orif aka negadir qadamini tezlatib. Keyin Maryamning orqada qolganini ko'rib qaytib keldi. – Olgan xotinini, tirik bolasini tashlab ketgan, insonning insonlik tuyg'usiga tupurgan bir iflos. Boshqa joyda ham yana o'sha ishini qilib yurgan bo'lsa-chi?! Shunday odamning bu atrofda yurganini bila turib, men qanday tinch uxlayman?

– Tavba... – dedi Mariya Vasilyevna, qo'lidagi xivichni sindirib tashiadi. – Zap topgan ekanmiz-da raykom kotibini. Seni qanday qilib saylashganiga hayronman.

– Raykom yaxshi, – dedi Orif aka, – xudo qilib saylashsa, unamas edim: men odamman. Raykomda bo'lsa, avvalo odam kerak. Darvoqe, obkomda ham. Mana, sen, kotiblik burchingdan tashqari nima ish qilding?

– Nima qilishim kerak edi?

– Men bola boqib olmoqchiman, Onabibi singilcha talab qilyapti. Maslahat ber, yordam qil, nima qilsam bo'ladi?

Orif aka dag'alroq tovush bilan gapirdi. U Maryamdan «Obbo, raykom kotibi bola boqib o'tirsa endi», degandayroq e'tirozni kutgan edi. Lekin Mariya Vasilyevna unday demadi, to'xtab avval uning ko'ziga, keyin o'mrovli ko'kragiga tikilib qarab qo'ydi. Endi bu odamning qo'pol so'roq qilishlari g'ashiga tegmay qo'ygan edi. Qaytaga yolg'iz qolganida uning so'roqlarini o'ziga berib ko'rар, o'zining uzoq yillar davomida faqat ish bilan bo'lib sal quruqshagannamo yolg'iz hayotini o'ylar edi. Bugun bu g'alati odam uni o'zgacha bir dunyoga olib kirib, aylantirib chiqqandek bo'ldi.

Quyosh tikkaga kelganda ular xayrlashadigan bo'ldilar. Orif aka Ergash bilan Mansur akaning bog'larini borib ko'rishi kerak edi. Mariya Vasil'yevnaming esa kechqurun shaharda majlisi bor ekan.

– Juda yaxshi nafas oldik, yengil tortib ketdim...
 – dedi u mashinasi tomon yurarkan. U do'lana terib yurgan haydovchini chaqirib, motorini yur-gizguncha Orif aka nariroqda qarab turdi. Mashinaga chiqay deganda Mariya Vasilyevna daf'atan bir nimani eslagandek Orif akaning yoniga keldi:

– Men ko'p o'zgarganman, ko'p narsani yo'qotganman. Bilaman. Lekin qachon? Qayerda? – U yerga qarab yelkasini qisdi. – Bu savolni sen bergen eding. Endi men o'zimdan so'rayapman...

U birpas jim turib mashinasi tomon ketdi. Orif aka uning quyoshda qizargan yum-yumaloq yelkasiga, qalin xazonni bosib ketayotgan o'ychan qadamlariga tikilgancha turib qoldi. Mashina yurgandagina ancha gap esiga tushib, qichqirdi:

- Onabibiga singilchani maslahatlashamizmi?
- Maslahatlashamiz!
- Tog' tumanini qayta tiklaymizmi?
- A?

Orif aka qo'lini karnay qilib qichqirib takrorladi. Tog'lardan aks-sado keldi. Lekin Mariya Vasilyevna eshitmadidi. Mashina pastlikda yillab bosilib yotgan o'rmon tuprog'ini changitib, qalin pistazorlar soyasiga kirib yo'qoldi.

Orif aka bilan Mariya Vasilyevna ba'zan mana shunday bir-birlariga yaqinlashib kelgandek bo'lsalar ham, ularning qarama-qarshiliklari tugamadi. Ayniqsa, ish yuzasidan ularning fikrlari

tobora keskin to'qnashar edi. tumanda ham, viloyatda ham xodimlar ularning yig'inlardagi, kengash va byurolardagi, gazetalardagi dahanaki janglariga ko'nikib qolishgan, biri so'zga chiqsa, ikkinchisi albatta qarshi gapirishini kutib turishar, ularning olishuvi bo'limasa, majlis ko'ngilsiz o'tganday tuyular edi.

Ammo keyingi tuman majlisidagisi hammasidan oshib tushdi. Yig'ilishdagi shov-shuv boshqa tumanlarga ham yetib, butun xalq orasiga tarqaldi. Qayerga to'rtta odam to'plansa: «Ochilov yana qovun tushirganmish!», «Juda boplabdi! Qachongacha...» «Endi nima bo'larkin?» deganday vahima gaplarni eshitasiz. Aslida hech narsa bo'lgani yo'q. Orif aka tuman majlisida so'zga chiqib, ko'nglidagi gapini aytib soldi, xolos.

Uning asosiy takliflari shulardan iborat edi: cho'lga tog'dan ko'chirilganlar orasida o'z qishlog'iga qaytishni talab qiluvchilar bo'lsa – ularga javob berish: sovxozlarda muqim qolganlarning hammasiga, ikki yilda bog' qilish sharti bilan, tomorqa ajratish; sovxozlarning paxta sotish rejasini kamida ikki yilgacha hozirgi darajada qoldirish va undan oshirib bajarganlarga ustama mukofot belgilash; tog'da sobiq Ko'yki tumanini tiklash, uning o'ziga xos iqtisodiyoti bilan alohida shug'ullanish...

Lekin bu takliflarni aytish uchun Orif aka ko'p idoralarning ichiga kirib chiqdi, ko'pgina xodimlarning avra-astarini ag'darib, ba'zilarning ma'naviy dunyoni mutlaqo unutib, nechog'lik soxtalashib, daqqi bo'lib qolganini gapirib berdi. Ayniqsa, Zioxonovga, hatto Mariya Vasilievnaga

ham qattiq tegdi. «To'g'ri, azob va shafqatsizliklar evaziga hisobot tayyorlash davrlari o'tib ketdi. Lekin, nazarimda, hozir ba'zi boshqa illatlar uchrab qolyapti. Masalan, ayrim rahbar xodimlar ijodiy kishilar emas, quruq ijrochilarga aylanib qolayotgani yo'qmi? Rahbarlik deganimiz goho ko'rsatma beradigan mexanizmga o'xshab qolmayapti mi? Xalq biladi: ko'pchillgimiz aqlli kishilarmiz. Lekin qalbimiz ham borligini bilisharmikan? Bor-di-yu, odamlar rahbarni qalbsiz deb o'yłasa – bu dahshat-ku axir!»

Orif aka gapirganda Mariya Vasilyevna bir necha marta sapchib o'rnidan turdi. Bu zalda o'tirgan odamlar uchun odatiy hol edi, ammo gapning bu safar odatdagidan keskin ketganligi zalni jonlantirib yubordi. Bu tortishuvga hech kim beparvo qololmadi. Zal dam guvillab qo'yari, ham onda-sonda qarsak yangrab, yana tinar edi.

– Taklifingizning birontasida davlat manfaati yo'q, – dedi Mariya Vasilyevna. Qattiq olishganda ular «siz»ga o'tar edilar, bu ularni yana ham uzoqlashtirar, yana ham murosasiz qilib ko'rsatar edi.

– Ana shu-da, – deb ilib ketdi Orif aka, – biz biron mansabga o'tirsak, o'zimizni davlat manfaatining birdan-bir himoyachisi deb his etamiz. Go'yo boshqalar davlat manfaatini bizchalik qadrlay olmaydi, go'yo davlatni ulardan himoya qilishimiz kerak. Bu yerda o'tirgan har bir kishi biladiki, davlatimiz tobora qudrat to'plashi zarur. Lekin davlat mana shu o'tirganlar, dalada ishlayotganlar, odamlarimizning o'zi emasmi? Ularning manfaati, ularning faravonligi, ko'ngli butun bo'lishi, baxt-saodati davlat manfaati emasmi?

Odamlarning davlatimizdan mammunligi, aminligi, ma'murligi, unga ixlosi va sadoqati – davlatimizning beqiyos boyligi va qudrati emasmi? Turmushimizning afzalligi shundaki, inson manfaati bor joyda davlat manfaati bor. Aksincha! Va aksincha. Buni bir-biridan ajratgan odam yo qoloq bo'ladi, yoki qog'ozbo.

– O'sha birinchisi – siz! – dedi Mariya Vasilyevna barmog'ini nuqib.

– Ikkinchisi – siz – deb yubordi Orif aka ham ovozini pastlatibroq. Lekin zal eshitdi. Zal gan-giganday jim bo'lib qoldi. Faqat Zioxonov bilan yonidagi bir-ikkita odam kursilarini g'irchillatib, rohat qillib tirjayar edi. Odamlar nima deyishni bilmay birpas lol qolganda, Zioxonov kursining suyanchig'iga tayanib, beparvogina o'rnidan turdi. U ko'pni ko'rgan, eski xodim. Bunday paytlarda majlisni noqulay holatdan qutqarishi kerak. Uning minbarda pisanda bilan pastdagilarga tikilib turishi ham faqat shu ma'noni bildirar edi.

– Biz ko'p majlislarni, kengashlarni ko'rganmiz. Lekin shuncha rahbar o'rnlarda ishiab bunaqasini eshitganimiz yo'q edi, – dedi u ajin bosgan yuzini burushtirib. – Bu ikki rahbar o'rtog'imizning orasi buzuq ekan, bizning nima gunohimiz bor? Har majlisda bularning janjalini eshitaverib qulqlarimiz batang boldi-ku, qachongacha chidaymiz? Bugun bo'lsa mana, obkomning kotibini ochiqdan-ochiq qog'ozboz deb atadilar, bu balki to'g'ridir, balki... noto'g'ridir. Gap bunda emas. Lekin biz faollarning tarbiyasi...

Zioxonov bahsning mavzuyiga diqqat qilmay, faqat «ikki rahbar o'rtoq»ning munosabatlarini

o'ylab o'tirgan ekan shekilli, nutqida gapni o'sha tomonga burib yubordi. Orif aka ko'targan mavzu chuqurroq, odamlar bu mavzuda bahslashishga tayyor emas edilar, shuning uchun ko'pchilik indayolmay o'tirdi, shunchaki so'zga chiqqanlar esa Ziyoxonov boshlagan yo'ldan ketishdi.

– Biz sher o'mrovli azamat cho'lquvarlar qatorida tantana bilan, karnay-surnay bilan cho'liga ko'chib kelganlardanmiz. O'rtoq Ochilov bizga, javob beramiz, deyapti, bu biz uchun haqorat. Bizlarni kim deb o'ylayapsiz, o'rtoq Ochilov? Biz cho'llarni bo'ston qilish uchun...

Orif aka ravon yozilgan nutqni qog'ozga qarab o'qiyotgan duxoba do'ppilik silliq yigitni tanidi – bu o'sha to'rtinchi sovxozining klub mudiri Ubay-dullaxon edi. U zalga emas, ayrim odamlarga, avval Mariya Vasilyevnaga, uning ko'zini uchratolmagach, muharrir Nazarovga, viloyat gazetasining muxbiriga qarab gapirdi.

Keyin To'lagan qo'zg'aldi. U zalga qarab emas, negadir ko'zini yerdan olmay gapirardi, ovozi past, gapi no'noq. Raqamlarga to'lib ketgan gipidan shu anglashildiki, bir-ikki yil reja bir darajada tursa, tannarxini kamaytirish va ichki zaxiralar hisobiga sovxozi nihoyat o'z sarfini o'zi ko'tara boshlashi, ishchilar davlat buyurtmasini oshirib bajarishdan manfaatdor bo'lib, maishiy-ma'naviy qanoat hosil qilishlari mumkin. Shunda «afg'oni»ni yengsa bo'ladi, hosil yana ham ortadi. Dasht o'zlashtirildi. Bu yaxshi. Lekin «Dashti ni o'zlashtirdik! Dashti ni o'zlashtirdik!» deb olti yildan beri ko'krakka uraveramizmi? Oldinga siljishni ham o'ylash kerak. Bu – dasht axir, garm-

sel tinmay quturib yuribdi. Buni ko'ykillik bo'lgani uchun gapirayotgani yo'q, bu yerda, bu sharoitda bog'lar oddiy bir ehtiyoj, bu yerda bog'siz, daraxtsiz yashash mumkin emas. Ayniqsa, tog'dagi sof havo, ko'm-ko'k tabiatga o'rgangan dehqon xalq uchun... Tomorqa xususiy mulk sifatida emas, salomatlik uchun, ko'ngll boyligi uchun kerak. Shuning uchun Ochilovning taklifi to'g'ri. Ko'yki tumanini ham tiklash kerak. U vodiyning sayr gohi, ko'kalamzor bog'i. Tayyor bog'ni so'ldirish xalqimizning tabiatiga yot.

Majlisdan keyin Orif aka, Mariya Vasilyevna, yana bir nechalar foyedagi bufetda limonad ichishdi.

– Majlisning pachavasi chiqdi... – dedi yuzidan qon qochgan Mariya Vasilyevna.

Orif aka kului.

– Siz Zioxonov fikrida ekansiz shekilli?

– Majlis yaxshi bo'ldi, – dedi jindek pivo ichib olgan Nazarov, – eshikdan chiqish bilan esdan ko'tariladigan silliq majislardan ko'ra shu yaxshi, odamlarni uncha-muncha o'ylatadi. – U pivosining ko'pigini puflab, ko'tarib yubordi-da, og'zini yengi bilan artib, cho'tirlari qizargancha shoshib jo'nadi: – Ketdim, buni boshqacharoq qilib yoritish kerak.

Kech kirib qolgan, havo dim edi. Manglayini reza ter bosgan Orif aka Mariya Vasilyevnani ku-zatib chiqdi, uyg'a bir piyola choyga taklif qildi.

– Xalqning gapini eshitdingizmi? – dedi Mariya Vasilyevna taklifga javob bermasdan, o'z mashi-nasi tomon yurib.

– Xalq... haligi Ubaydullaxonmi? Menga qara, Maryam, – Orif aka uning orqasidan ergashdi, –

axir u, xalqning dilidagi u yoqda tursin, o'z vijdoniga ham xilof gapirdi-ku. O'zi bilan gaplashсангиз: «It yotish – mirza turish...», majlisda bo'lsa, «Sher o'mrovli vatanparvar!..» Bu o'зимиз tarbiyalagan shunday bir toifa odamlarki...

– Siz meni shu toifa odamlarga qo'shgan edingiz, esingizdami?

– Nima qilay, yomon ko'raman!.. – dedi Orif aka ko'ksiga qo'lini qo'yib. Mashinaga yetib borgandan keyin, Mariya Vasilyevna kabinaga chiqib o'tiravermasdan, qayoqqadir, chetga qarab o'yланib qoldi.

– Ziyoxonovning gapi bugunoq Birinchiga yetib boradi...

– Mana Ziyoxonov boplab ketdi! – dedi Orif aka birdan esiga tushib. – Haqiqatan ham, tajribali odam ekan. Endi uni ishdan olish mushkul bir muammo bo'ladi.

– Nima, uni ishdan olish kerakmi? – hayron bo'ldi Mariya Vasilyevna.

– Ha, shunday edi, sezib qolganga o'xshaydi, endi ish qiyimlashadi: rahbarlarni tanqid qilganim uchun quvg'инга uchrayapman, deb da'vo qiladi, qarab turasan. Vaziyatdan foydalanish deb shuni aytadi.

– U nima qilgan ekan?

– To'laganning iqtisodiy kengashi ancha-muncha narsaga aniqlik kirityapti. Direktor ko'п zaxiralarni yashirib kelgan, sababi hozircha no'malum. Lekin gap bunda ham emas. Gap shundaki, Ziyoxonovda rahbar sifatlari yo'q.

Mariya Vasilyevna indamasdan, asta kabinaga chiqib o'tirdi-da, jo'nab qoldi.

Ertasiga tuman majlisi haqidagi har xil shovshuv hamma joyga yetib bordi. Gazetalar uni har xil yoritdilar: birovlari bir tomonni, birovlari ikkinchi tomonni qoralab, yana birovlari «janjalli yig'in»ni tanqid ruhida yozib chiqdilar. Nazarov o'z gazetasida bahsning mavzusiga zo'r berib, jur'atsizroqqina bo'lsa ham, Orif akaning fikrlarini ma'quladi, viloyat gazetasi esa kichkina xabarda asosan ikki rahbarning «jonga tekkan» nizolarini g'azab bilan qoralab, faqat Ubaydullaxonning nutqini to'la bosib chiqardi. Majlisning buzilganligi, Ochilovning kelishmagan g'alati tezislар bilan chiqishi, viloyat rahbarlaridan birini katta majlisda «qog'ozboz» deb haqorat qilganligi obkomning birinchi kotibiga yetib bordi. Aytishlariga qaraganda, Birinchi juda g'azablanganmish. «Bo'ldi, ko'p toqat qildik, mojaroni bir yoqlik qilinglar: yo unisi isblasin, yo buni-si!» deganmish. Orif akaning takliflari bilan tanishgandan keyin, bir kun xonasida o'tirib olib, ertasiga byuro a'zolarini bitta-bitta chaqirib gaplashgan emish. Nima gap bo'lganligi ma'lum emas, xullas, ahvol jiddiy edi.

Orif aka bu g'alayonlar bilan bo'lib, yaramas Isroilovni qidirib topish niyatini ham yodidan chiqarayozgan edi, u ablah o'zi haqida o'zi eslatib qoldi. Shu asabiy kunlarda uning Onabibiga otalik haqini da'vo qilib, Orif akani sudga bergenligi ma'lum bo'ldi.

Buni Orif aka idorasida telefon orqali viloyat sudining tergovchisidan eshitdi. Tergovchi suhbatga kelish uchun ruxsat so'radi.

– «Suhbat...» So'roq deyavermaysizmi, kelaver-ning, – dedi Orif aka.

– Biz sizni hech narsada aybiayotganimiz yo‘q. Lekin raykomda noqulay bo‘larmikan... – deb chaynaldi tergovchi.

– Juda qulay bo‘ladi. – Orif aka suhbatni uyga tayinlagisi kelmasdi, bu tushunmovchilikni Onabibi bilmay qo‘ya qolsin deb o‘ylardi. – Biz muhim ijtimoiy-axloqiy masala haqida gaplashamiz, shu yerga kelavering.

Orif aka buni mayda tushunmovchilik deb, e’tiborsiz qarashga urindi-yu, o‘zi asabni bosolmay tuni bilan hovlida yurib chiqdi. Umrida sud degan narsani ko‘rmagan edi, mana tergovchiga ham ishi tushib o‘tiribdi. Beor Isroilov badbas-hara bir maxluq qiyofasida ko‘z oldiga keldi. Endi uning yuzini ko‘rgisi yo‘q edi. Bir vaqt topib gaplashaman deb, g‘azab bilan niyat qilib yur-ganiga endi o‘zi hayron. Yo‘q, u bilan gaplasha-digan gapi yo‘q!

Ertasiga tergovchini uyqusizlikdan charchagan, asabiy bir holatda kutib oldi. Tergovchi yiltirab turgan qora sochining farqini ochib silliq taragan, ozoda va puxta kiyingan, yuzi oq mum-dan yasalgandek ifodasiz, loqayd bir yigit edi. Orif aka unga Onabibining butun tarixini, xotini Saragulning o‘limini, keyingi yillarni – hamma-sini bat afsil gapirib berdi. Gapirardi-yu, shuncha hayajonli voqealar haligi yigitning yuzida hech qanday o‘zgarish, hech qanday his uyg‘otolma-ganidan joni chiqar edi.

– Endi bildingizmi Isroilov degan shaxsning kim ekanini? – dedi Orif aka jerkib. Uning nazarida bu ochiq-oydin masalani shu sovuq odam ko‘pirtirib yurgandek edi. – Xotini o‘ldi, xabar olmadidi, bola-

si tug'ildi, xabar olmadi, mana yana o'n besh yil o'tdi, u biron marta, bolam tirikmi, deb ko'zimizga ko'ringani yo'q. Endi nima kerak unga? Ikki ayolning, qadrdon Saragulimning o'limi evaziga kelgan, qimmatga tushgan bola bu. Men bilan pachakilashmasin u yaramas, aytib qo'ying!

– Men unga hech narsa demayman, – dedi tergovchi, – mening uchun ikki tomon ham barobar.

– Barobar?!

– Ha, biz ikki tomonning ham fikrini eshitamiz, hujjatlari bilan tanishamiz.

– Mening hech qanday hujjatim yo'q. Mening hujjatim ana – sog'-salomat o'stirgan qizim! Men – otaman.

– Siz boqqan ota, u tuqqan ota, bizning vazifamiz ajrim qilish.

– Ota? Nimasiga ota? Hali men u bilan teng bo'ldimmi? Hali meni u bilan bir kursiga o'tqazmoqchimisiz? Hali men... hali u..

Orif akaning shuncha tutaqqani yigitning parvoyiga ham kelmadи. Yozib-yozib o'rnidan turdi-da, qanday sovuq salomlashgan bo'lsa, xuddi shunday xayrlashib, eshik tomon yurdi.

– Hali boladan so'rashingiz kerak, bilib qo'ying, qani, ko'ramiz – bola nima deydi, – Orif aka kerilibroq gilam ustida u yoq-bu yoqqa yurdi.

– Albatta so'raymiz. Lekin bu bizga ma'lum, bola albatta sizni deydi, chunki u o'z otasini tanimaydi, – dedi yigit chiqib ketayotib.

– Ana shu-da! O'zingiz ham bilar ekansiz-ku!

– Orif aka o'sha do'q ohangida tutaqib davom etdi. Tergovchi chiqib ketgan edi, Orif aka uni quvib chiqargandek his etdi. – Ikki tomon barobar

emish-a! Men ham ota, u ham ota emish-a! Tenglashtirganini qara, ovora bo'ladi!.. – deb g'o'ng'il layverdi u anchagacha o'zini bosolmay.

Keyin, garang bir holatda uzoq yolg'iz o'tirib goldi. Qo'li ishga bormasdi. Mariya Vasilyevna bilan gaplashgisi kelardi, ikki marta go'shakni oldi-yu, yana qo'yib qo'ydi. Keraksiz qog'ozlarni titib hushtak chala boshiadi... Qarasa, hammasi yolg'on, ish qilayotgani yo'q, dilini sovuq tosh bosib turibdi. Kechga yaqin yana vahima bosdi. Hovliqib uyga bordi.

– Dadajon! – deya quvnoq qichqirib Onabibi qarshi chiqdi, uning sochlari yoziq, qo'llari qurum edi.

– Temir keldi, – dedi u, – kitoblariningizni qarang, narvoncha qo'yib shiftgacha taxlab chiqdik. Yuring, bir ko'ring, – ichkariga sudradi u dadasini.

– Boshqa hech kim kelmadimi?

– Keldi, – dedi Onabibi, birdan tovushidagi, yuzidagi cho'g' so'nib, qo'llari osilib tushdi, – bir kishi keldi.

– Nima dedi? – Orif aka o'tirib, o'zini bosibroq so'radi.

– Haligi... o'z dadangni bilasanmi, dedi, yo'q, dedim. Innaykeyin... bu dadangni yaxshi ko'rasanmi, dedi, ha, dedim. O'z dadangni topib beraylikmi, dedi, bilmasam, dedim. Topsak, qaysi dadang bilan turasan, dedi...

Orif akaning peshanasiga sovuq tomchilar qalqdi. Onabibining yig'lashga shaylanib, uchib turgan lablariga tikilgancha, undan qismatini kutgandek jonsaraklik bilan sabrsizlanardi.

Onabibi birdan chinqirib, uning bag'riga otildi.

– Dadajon, kerakmas! Kerakmas! Siz dadamsiz! Siz dadamsiz!

Badaniga iliq yugurgan Orif aka uning yelkasini silab, kului, yupatdi:

- Voy tentag-ey, albatta-da... Albatta-da. Qo'y, esingdan chiqar. U kishi bekorchi gaplarni gapirib yuribdi. Esingdan chiqar, xo'pmi? Hech gap yo'q. – Orif aka kostyumini yechgani ichkari tomon bordi. – Temir semiribdimi oromgohda?
- dedi quvnoq ovoz bilan. O'zi ko'zidan tirqirab chiqqan bir tomchi yoshni bildirmay artib oldi.
- Zap yaxshi taxlabsizlar-da kitoblarni. Endi bir kitob kerak bo'lsa, sira topolmayman.

Onabibi qichqirib kulib yubordi, dadasi ham qo'shildi. Qizcha yugurib kitobxonaga o'tdi, dadasi uning etagidan ushlolmay qoldi. Ular narvonchani tokchalarga tirkab qo'ydilar, avval Onabibi eng tepaga chiqib, kitob topish qanday osonligini ko'rsatdi, keyin Orif aka ham chiqqan edi, gurs etib yiqilib tushdi. Bo'ldi kulgi, bo'ldi kulgi.

Xonama-xona yurib kuldilar. Xonalar bugun qandaydir fayzli, yangroq, plita choynak ham qopqog'i shaqiliab xuddi kulayotgandek blqirlab qaynar edi.

Qo'shni kampir osh olib kirdi.

– Qishioqdan ovsinim keluvdi, aylanay Orifjon, shovqinlaringni eshitib esimga tushdi. Nasibanglar... – dedi Yormat bilan Normatning buvisi das-turxonga o'ralgan lagandagi oshni so'riga qo'yib.

Choydan keyin Onabibi so'rida barvaqt uxlab qoldi. Orif aka, oyog'ida chuvak, qo'lini orqasiga qo'yib, anchagacha hovlida aylanib yurdi, tunga, asta cho'kayotgan jimlikka qulqoq soldi. Qo'shni hovlida Yormat bilan Normatning mashmashasi hali tingani yo'q, buning ustiga uzoqdan kelgan mehmonlarning gapi tugamas edi.

– Normatingiz shundoqqina dadasingning o'zi-ya, aylanay ovsin! Quyib qo'ygandek...

Orif aka birovning mahram gapini eshitmaslik uchun devordan uzoqlashdi. Ketdi-yu, qulog'iga chalingan haligi gap shayton taroqdek ilashgan edi unga. Qulog'ida yangrayverdi: «Dadasining o'zi-ya», «Quyib qo'ygandek...» Uyga kirdi ham shu gap eshitildi, kitob varaqladi ham shu gap tiliga kelaverdi...

Keyin u so'riga, Onablbinning yoniga kelib o'tir-di. Qizcha oy yorug'ida shiringina pishillab uxlardi. Orif aka uning sochini siladi, doimiy kulgi kapalagi qo'ngandek, cho'chchayib turgan kichkina lablariga boqdi. «Qizim... sen-chi? Sen kimga o'xshaysan? U menga o'xshamaydi... U chiroyli».

Orif aka birdan ko'ngli o'ksib, tungi yolg'izlikning og'rig'ini sezdi. Engashib qizining boshiga peshanasini qo'ydi, bir nimalar pichirladi.

Boshini ko'tarib, yana yuziga tikildi. Kimga o'xshar ekan? Marhuma onasi ham chiroyli emas edi...

Orif aka birdan o'zini orqaga tortdi. Otasiga! Nahotki? O'sha qallob Isroilovga-ya? Orif aka uni badbashara bir maxluq deb tasavvur etar edi. «Isroilov... To'xta! Sen chiroyli bo'lishing mumkin. Lekin sen vijdonsizsan. Sen bunga husn bergen bo'lishing mumkin. Lekin men ota mehrini berdim, bu ham tengsiz boylik. Yurak berdim».

Orif aka o'ziga tasalli beradigan ko'p dalillarni o'yladi-yu, yupanolmadni. Yana o'sha fikr kelaverdi boshiga. Nahotki o'xshasa? Yaxshi ham o'zini ko'rmagan ekan...

Qiz uni doim esga soladigan darajada o'xshash bo'lsa-chi? Bir umr. Yo'q, yo'q, ko'rmaydi, bormaydi.

Orif aka Onabibiga bo'lgan muhabbatiga gard yuqishidan, soya tushishidan qo'rqardi.

Ikki kundan keyin tergovchi yigit idoraga yana kelib bir necha savol berdi va ketishda xatjildda sudning chaqiruv qog'ozini stolga qo'ydi. Orif aka buning nima ekanini darrov bildi. Yigitni to'xtatib, bosiqroq bo'lismaga harakat qilib, so'radi:

– Har holda, aytin-chi, nima uchun viloyat sudi ko'radi?

– Da'vogarning iltimosi shunday. Tuman sudi xolis bo'lomasligi mumkin.

– «Da'vogar!» Demak, men «aybdor» deb atalar ekanman-da! Marhuma xotinin bilan, biz inson-ga xos oliyjanoblik qildik, deb o'ylardik. O'n uch yildan beri shu o'yda ko'nglim o'sib, o'zimdan mammun edim. Siz sovuq nazaringiz bilan nega poymol etyapsiz bu hislarni! Siz...

Tergovchining mumday harakatsiz yuzida biron tuyg'u ifodalanmadni.

– Sudda gapirarsiz gapingizni, – deb chiqib ketdi.
– Bormayman! Ovora bo'lasizlar! – deb qich-qirib qoldi Orif aka orqasidan va chaqiruv qog'ozini yirtib-yirtib savatga tashiadi.

U qilgan ishining to'g'riligiga amin edi. Shuning uchun ko'ngli ajoyib bir rohat og'ushida tinchidi. Bir kun o'tdi, hech kim bu haqda eslatmadni, ikki kun o'tdi, uch, to'rt, besh...

Orif aka o'zining sovxozlari, iqtisodiy kengashlari, garmselni yengish, tomorqa, bog'dorchilik brigadalari, tog' tumanini tiklash singari ishlari bilan band bo'lib ketdi. Kechqurunlari uyda Onabibi, ba'zan esa faylasuf Temir bilan suhbatda, Yormat bilan Normatni tizzaga olib, o'zini ovutar, dam olar edi.

Shunday oqshomlardan birida, esingizda tur-gandir, lop etib Ochil buva bilan Azimjon kirib keldi. Yormat bilan Normat yugurgilab suyunchiga chiqib ketishdi, Ochil buva kichkina Onabibi bilan, Orif aka umrida ko'rmagan jiyani Azimjon bilan tanishdi. Mehmon kutishdi. Orif aka ichki dardini bildirmadi. Keyin telefon jiringlab, qandaydir nizolardan darak berdi, esimgizzadir?

Esingizda bo'lsa, mana endi qissaning bu yog'ida mehmonlar ham ishtirok etadi.

– Viloyat kotibi bilan ham shunaqa gaplashadimi odam?! O'zing kimsan! – ovozini ko'tara tushib so'radi Ochil buva. Qovog'i osilib tushdi. Orif aka boshini solgancha o'tirar edi.

– Viloyatning byurosiga qo'yadigan bo'lishibdi... Mening «kirdikor»larimni, – dedi u anchadan keyin g'amgin kulib. – Masalani Maryam doklad qilar ekan. Eshitdingizmi ovozini?

Kechasi bilan mehmonlar uch-to'rt oylik voqeanning hammasidan xabardor bo'ldilar. Kechasi bilan uqlamay gapirib chiqqan Orif aka barvaqt turib, byuroga tayyorlandi. Ertalab Temir yetib keldi. Onabibi, Azimjon uchalasi kutubxonadan chiqolmay qolishdi. Azimjon ham nimasi bilandir bola edi. Har narsaga sinchkovlik qilgan, har narsaga hayratda qolgan... Ota-bolaning ular bilan ishi bo'lindi. Faqat kitobxonadan har zamonda Onabibining chinqiriq ovozi eshitilib qolardi:

– Dada, dada! Azimjon akamning oyilari ham Onabibi ekan!

– Buva, buva! Temir muallimi bilan masala talashib qoluvdi, yengibdi!

Ota-bolaning qulog'iga bu gaplar kirmasdi, al-batta. Ochil buva Orif akaga dalda berar, «Nima

bo'lsa ham, faqat ko'nglingdagini gapir, o'z o'ylagan o'yingga qildek soxta gap aralashsa, yutib chiqqaning bekor», deb o'git o'qirdi.

U o'g'lining ko'ngliga ishonch solib, yelkasi-ga qoqib kuzatdi. Orif aka ko'chaga chiqqanda eshikdagi pochta qutisiga ko'zi tushdi, ochib qarasa, ko'ziga ilon po'stidek yashil qog'oz ko'rindi – yana sudga chaqiriq. Qo'lida ushiab birpas o'tirdi-da, g'ijimlab cho'ntagiga soldi. Tinchib ketdi, deb o'ylagan edi. Hali ham mijg'ishayotgan ekan-da. «Borib bo'pman, qolaversa, raykom kottibiman-a! Nima ham qilardi...»

U raykomga borib mashinani chaqirdi-da, to'g'ri viloyatga qarab yo'l oldi. Keta-ketguncha boshqa narsani unutib, byuro majlisini ko'z oldiga keltirishga urindi: «Mening majlisdagi takliflarimni muhokama qilishadimi, o'zimnimi? Takliflarimni muhokama qilishsa – men ulardan qaytmayman, men ularni yana ham asoslayman. Viloyat bilan oldindan kelishmagan bo'lsam, tuman majlisi-da o'z fikrlarimni aytishga haqqim bor. O'ylaganimni hamma joyda baraila aytaman, ba'zilar ning po'panagi to'zg'isin, mayli, meni haydashsa haydashsin, men his uyg'otaman, his! Maryam bo'zarib, chinqirib gapiradi-ku. Gapirsa gapirar, «qog'ozboz» deganimni ham qaytib olmayman... Menda qoloqlikdan asar topgan bo'lsa, balli, lekin unda ham qog'ozbozlikdan ancha-muncha yo'q emas. Bilib qo'yisin».

Byuro majlisi juda kechikib boshlandi. Mariya Vasilyevna yo'q edi. Uni yana birpas kutishgandan keyin, birinchi kotib asabiyroq qiyofada orqa eshikdan kirib, e'lon qildi:

– Mariya Vasilyevna yo'q, bugun kelmaydi, shuning uchun ikkinchi masaladan boshlayveramiz. – Birinchi kotib pastakkina, yuzlari salqi, peshanasi keng, ko'zlar o'tkir kishi edi. U Orif akaga ko'z qirini tashlab, qo'shib qo'ydi: – O'rtoqlar, har xil mulohazaga bormasliklaringiz uchun aytib qo'yay, Mariya Vasilyevnaning kelmaganligi uzrli, tumandan qaytayotib dashtdag'i sovxoza to'satdan tobi qochib, yotib qolibdi. Yurak kasali deb xabar berishdi.

«Titilib ketsam ham jang qilaman», deb shay bo'lib o'tirgan Orif aka birdan qurolini oldirib qo'ygandek, sarosimaga tushib qoldi. Ko'z o'ngida Maryam, uning tog'ga chiqqandagi og'ir hansi-rashi, oqarinqiragan yuzi ko'z oldiga keldi. Qayerda? Qaysi sovxozi? Garmseda qolib ketdimikan? Rutubatli garmsel nafasni bo'g'adi...

Orif aka chiqib ketmoqchi bo'libmi, beixtiyor bir o'rnidan ham turib qo'ydi-yu, u yoq bu yoqqa qarab, yana asta o'tirdi. Majlis boshlanib qolgan edi. Qandaydir RTSlarning qarzlari haqida gapi-rishardi, Orif akaning qulog'iga kirmadi. Yurak!.. Yurak kasall. Orif aka o'z yuragining ham qinidan chiqqudek bo'lib dukillayotganini sezdi. Vujudi yonib ketayotgan edi... «Tez yordam» yubo-rildimi, yo'qmi, aytishmadi ham... Qaysi sovxozi? Uchinchi bo'lsa, ambulatoriyasi bor...

Odamlar hech narsa bo'lmaqandek hamon gapirishar edi. Bir masalaning muhokamasi Orif aka nazarida besh-olti soatga cho'zilgandek bo'ldi. Bir ilojini qilib chiqish kerak... Chiqib ketish kerak.

Orif aka eshikni mo'ljallab, alanglab turganda birinchi kotib salqi yuzini stoldan ko'tarmay so'rab qoldi:

— Siz-chi, Ochilov, sizning fikringiz qanday? Orif aka o'zi bilan o'zi ovora, gapdan bexabar edi.

— Men... Mening fikrim yo'q, — dedi u.

— Qiziq. Shunday muhim masalada-ya?

Hamma jim bo'lib qoldi. Byuro a'zolari o'zi-ga qarayotganini Orif aka ko'rmasa ham, sezib turardi. Bir amallab bu daqiqani ham o'tkazdi. Tanaffus bo'lishi bilan yugurib tashqariga chiqdi. Mashinasining oldiga borib to'xtab qoldi. Miyasi-ga bir nima kelib, to'xtab qolmasa, jo'nab ketadi-gan edi. Qayoqqa?

Mashina atrofini bir-ikki aylandi. Ichkariga bir kirib, yana chiqdi, endi majlisda o'tirolmashligini bilardi. Sovxozga jo'nashga ham bo'yni yor ber-madi. O'tirdi-yu, uyga qarab haydadi. Nega? O'zi ham bilmaydi.

O'chakishgandek, yo'lda ta'mirchilar ish bosh-lagan edi, aylanib o'tadigan vaqtincha yo'llar o'ydim-chuqur, chang. Orif aka rulni siqib ush-lagancha, sakrab-sakrab, tezlab borar, pesh-nasidan sharros ter oqar, namchil yuz-ko'ziga chang yopishib asabiga tegar edi! Majlisda qat-nashish kerak edi, o'tirolmadi, odamgarchilik yuzasidan bo'lsa ham Maryamdan xabar olishi kerak edi, borolmadi. Endi nima qilib, qayoqqa ketyapti? Uyda nima bor?

Haqiqatan ham, uyda hech kim yo'q edi. Orif aka shoshib kirgancha hamma xonalarni bir aylandi. Jimjit.

Orif aka chang ust-boshi bilan Onabibining karavotiga gurs etib o'tirdi, qalpog'ini g'ijimlab, yerga qaradi. Qayoqdaykin bular? Yurak kasali... Yurak kasali har xil bo'ladi. Birdan olib ketadi-gani... Oylab qimirlatmay qo'yadigani...

Orif aka birdan o'ziga o'zi ayanch ko'riniib ketdi. Ayanch. Ojiz. Jur'atsiz. Bir qarorga kelolmaydigan. O'z hislarini idora qilolmaydigan...

«Nima qilib o'tiribman!» deb g'azabli alam bilan o'rnidan turganida ko'cha eshigi g'ichilladi. Ochil buva qaytib keldi, tizzasigacha tushgan uzun oq yaktagi sal g'ijim, etigi chang edi. Shoshmasdan kelib paqirdagi suvdan ichdi, savlatli soqolini kafti bilan silab artib qo'ydi. Uning vazminligi Orif akaning ham asabini sal tinchitdi. Ular katta mehmonxonada, stol yonida uchrashdilar.

– Qayoqda edingiz, dada?

– Maryamdan xabar oldim, – dedi Ochil buva. Orif akaning yuzi lov etib ketdi. Ko'ngli to'lishib-roq otasiga bir nafas qarab turdi-da, yosh boladek birdan bag'riga tashlandi. Chol boshini sarak-sarak qilib, burushgan qo'li bilan o'g'lining yelkasini asta siladi.

– Tentak... Ustingdan chang burqib turibdi...

– Ahvoli qanaqa? – so'radi Orif aka otasining oq jun bosgan ko'kragidan boshini ko'tarmasdan.

– Ahvoli yaxshi. Kasalxonaga yotqizishibdi.

– Rahmat, dada...

Orif aka tovushi o'zgarganidan o'ng'aysizlandi shekilli, yuzini chetga oldi. Ota-bola ko'pdan bunday quchoqlashmagan edilar.

Shu payt qayoqdandir o'ksik yig'i tovushi eshitildi. Cho'chib qulq solishdi.

– Onabibi... – Orif aka kitobxonaga yugurdi, hovliga chiqdi. Onabibi yo'q edi. Lekin yig'lagan – Onabibi, Orif aka buni darrov payqadi. Qayoqda, nega yig'layapti?.

– Menga qara, Orifjon... – Ochil buva ichkari-dan chaqirdi. Uning ovozi ilgarigidek vazmin,

salmoqli bo'lsa ham, Orif aka unda bir sarosima asarini sezdi. Qaytib ichkariga kirdi. Ochil buva stol yonida bir varaq qog'ozni ushlagancha, o'g'liga vahimali savol nazari bilan qarab turardi.

– Mana bu... Stolda yotgan ekan, o'qidingmi?

Orif aka qog'ozni qo'liga oldi. Bu sud hukmning nusxasi edi. Orif aka avval negadir orqa-oldini aylantirib ko'rdi, hukm uzun edi, o'qib chiqishga toqat qani hozir, sarosimada qog'ozdan qandaydir so'zni, qandaydir hal qiluvchi jumlanı qidirdi. Topolmadi. Boshidan o'qishga to'g'ri keldi.

Sud ikki tomonning ham arzlarini, dalillarini eshitib, hujjatlari bilan puxta tamishib, shunday bir xulosaga kelgan edi. Fuqaro Ochilov Orif bolani go'dakligidan boqib olib, qo'lidan kelgancha ta'limg-tarbiya berib, sovet kishisiga xos olivjanob ish qilgan. Ammo bolaning asl otasi bo'lmish fuqaro Isroilov Muhammadamin o'z vaqtida shaxsga sig'inish xatolarining qurboni bo'lib, uzoq muddatga nohaq qatag'on qllinganligi tufayli xotini va bolasidan xabar olish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Buning ustiga, bola o'qiyotgan maktabdan vakil qilingan pedagog Shafigullinaning guvohligiga ko'ra Onabibining sog'lom tarbiya topishi uchun uyda munosib sharoit yo'q: fuqaro Ochilov xizmat yuzasidan muttasil ishda, safarda, bo'lib, bola kecha-yu kunduz yolg'iz qoladi, u o'z holiga tashlab qo'yilgan, pedagoglar bilan muomalasi dag'al, bola asabiy va qaysar bo'lib o'smoqda, binobarin, uni bu sharoitda qoldirish pedagogikaga xilof va yosh o'smirning kelajagi uchun xavfli.

Fuqaro Isroilov Muhammadamin endilikda har tomonlama to'la oqlangan, oilasi, uy sharoiti

yaxshi va boshqa barcha huquqlarini tiklash bilan birga otalik haqini talab etishga haqlidir.

Yuqorida zikr etilgan dalil va mulohazalarni nazarga olib, viloyat xalq sudi masalani fuqaro Isroilov foydasiga hal qiladi.

Orif aka hukmni oxirigacha o'qiyolmadi ham, ko'z o'ngi qorong'ilashib, kursiga o'tirib qoldi. Tomog'i qaqrab, o'pkasi halqumiga kelgandek bo'g'ilar, ro'parasida stolda turgan choynak bilan piyolaga tikilar, quyib bir qultum sovuq choy ichish esiga kelmas edi. Qulog'iga haligi yig'i tovushi eshitildi. Qayerda, qani, demadi. Xuddi bu uyning yig'isi, o'zi yig'layotgandek edi. Ochil buva ham ojiz. U nima qilishini bilmay, etigini yechib, kavush kiydi, yana bir nimalar qildi, hammasi behuda ivirshish edi.

– Onabibi!!! – deb qichqirib yubordi Orif aka birdan hushiga kelgandek. Onabibi o'rniga eshikdan Temir otilib kirdi. Orqasidan ostonada Azimjon ko'rindi, u issiqda yarashmagan beqasam to'nda, shu bo'yи bilan so'loqmonday bo'lib Temirning orqasidan ergashib yuribdi.

– Biz sizni qidirib shaharga bordik... – dedi Temir yerdan ko'zini olmay. Keyin yalt etib Orif akaning yuziga qaradi, ko'zida alam, g'azab o'ti chaqnardi: – Siz sudga bormabsiz, Orif amaki, Onabibini himoya qilmabsiz, bosh tortibsiz! – dedi-da ichkariga kirib ketdi.

Orif aka o'rnidan turib, «Onabibi!» deb eshikka intildi. U Temirning Onabibini qayoqqadir yashirib ketganini payqagan edi. Hujrada bo'lsa kerak, yig'i tovushi o'sha yerdan kelardi.

Bu mahal darvoza oldiga taksi mashinasi kelib to'xtadi. Undan bir xotin, bir erkak tushib, to'g'ri

hovliga kirib kelishdi. It yo'qmi, degandek u yoq bu yoqqa alanglab, ayvonga qarab yurishdi. Bular ikkalasi ham o'rta yoshdagi, kelishgan, yaxshi kizingan odamlar edi. Ayniqsa erkagi: yo'l-yo'l ipak ko'ylagining yoqasini ochib, pidjagini bilagiga solib olgan, soqol-mo'ylovini hozirgina qirdirgan, doim iljayibroq turadigan, odamning dilini xira qiladigan darajada shirin-chuchmal aftli bir kishi edi. Orif aka uni qayerdadir ko'rganday edi. Bir emas, bir necha marta ko'rgandek. Ko'chadami, muyulishdami, o'zinimi, sharpasinimi...

Ular uyga kirganda Orif aka uning qo'llida qog'ozni ko'rdi-yu, tizzalari bo'shashib, op-poq oqargancha uy o'rtasida lol bo'ldi-qoldi. Bu shubhasiz o'sha Isroilov edi. Yonidagi xotini. Ular Onabibini olib ketgani kelishgan. Kelganlar salomlashishdi shekilli, yana bir nimalar deyish-dimi-deyishmadimi, Orif aka eshitmadi. Qiziq. U Isroilovni badbashara bir maxluq deb o'ylardi. Bu bo'lsa qizday qirmizi, birovga ozor beradigan odamga o'xshamaydi... «To'xta, men badbaxt ni-mani o'layapman? Nimani o'ylash kerak? Nima deyish kerak?...»

Bu mahal ichki eshikni ochib Onabibi chiqdi. Ko'zlari qizargan, yuzlariga ko'z yoshi iz sol-gan, chuvakkina vujudi qaltirar edi, qo'lida kich-kinagina tuguncha. U avval Isroilov tomon yur-di. Ro'parasida to'xtab, suratdagiday muttasil iljaygan, shirin yuziga tikildi. Isroilovning orqa-sida og'zi katta, qulog'ida og'ir oltin sirg'a silki-nib turgan novcha xotini kulishini ham bilmay, kulmasligini ham bilmay, yuzida ko'proq yig'iga o'xshagan sun'iy bir ifoda bilan, bo'lg'usi o'gay

qiziga erining yelkasi orqali qarab turardi. Onabibi keskin qayrilib, Orif aka tomonga yurdi, uning ro'parasida to'xtab, qonsiz yuziga tikildi. U yig'lamas edi. Ertalabdan beri qorong'i hujrada yig'lab, ko'z yoshi qurib qolganga o'xshaydi. Orif aka unga intilib, ikki qo'lini endi cho'zgan edi, qiz qo'lidagi tugunini uning oyoq ostiga uloqtirdi-da, Isroilovning yonidan yugurgancha o'tib, eshikni bor kuchi bilan taraqlatib yopib chiqib ketdi. Eshik tepasidagi katta chamadon shaloplab tushib, ochilib ketdi, undan yangi yil archasi o'yinchoqlari sochilib chil-chil sindi. Hamma o'zini eshikka urdi. Onabibi chopgancha chiqib, taksining eshigini shartta ochib, ichkariga kirib o'tirdi. Uning ketidan Temir yugurdi. Undan keyin iljaygan Isroilov bilan uning xotini lapanglab chiqib taksiga o'tirdilar. Mashina atrofida gir aylanib Temir baqirar, yig'lar edi. Orif aka ning yugurib chiqishga majoli kelmadi, u ayvonitoring ustuniga manglayini bosgancha suyanib qoldi. Ko'chadan taksi mashinasining motor tovushi, chang ichidan tipirchilab qichqirib qolgan Temirning ayanchli ovozi eshitilardi. Ochil buva o'g'liga kursi olib chiqib berdi. Orif aka ustunni quchgancha o'tirdi. U ko'chaga qarar, hech narsani ko'rmas edi...

Temir qaytib kirmadi. Azimjon bo'lgan voqeadan garangsib, darvoza oldida anqayib turardi.

Orif aka hovlidagi jimlikdan qo'rqqandek uyga kirdi. Ostonadan hatlaganda poshnasi tagida po'rsildoq o'yinchoqlar g'irchillab maydalandi. Rang-barang shisha parchalari butun uyda sochilib yotibdi. Ilgarilari Orif aka hovlida bir shi-

sha parchasi ko'rsa, egilib olib, allaqayoqlarga el-tib tashlaguchi edi...

Polda yotgan tugunni oldi. Qiziga o'tgan yak-shanba olib bergen qarg'ashohi ko'ylak bilan Onabibining bolaligidan yaxshi ko'rgan moviy ko'zli eski qo'g'irchog'i ro'molga tugilgan edi. Orif aka yana kursiga o'tirdi, ikki qo'li bilan boshini ushlab, peshanasini stolga urdi, butun alami yig'ilib endi diliga quyilgan edi, o'kirib yig'lab yuborishiga sal qoldi.

– Dada...

Ochil buva hovlida, u ham nimaga qo'lini urishini bilmay yuribdi. O'g'lining oldiga kirmaydi. Kirsa yo so'kishi kerak, yo yupatishi... Ha, yolg'iz yig'lasa yig'lab olsin, yig'lamasa sal sovib o'ziga kelsin. Chorak soatlardan keyin yana Orifning ovozi keldi.

– Dada!

Ochil buva kirdi, belbog'iga ikki qo'lini tirab o'g'lining qoshiga keldi. Orif aka boshini ko'tarmay so'radi.

– Maryam byuro haqida... hech nima demadimi?

– Yo'q... faqat, mana bu xatni... – Chol belbog'ining qatidan xat chiqardi. U buni bularning o'zaro gapi bo'lsa kerak deb, berishga payt topolmay yurgan edi. – Berib qo'ying degandi.

Orif aka xatni olib, ochmay stolga tashladи. Yana olib, unga ko'z tikkancha o'ylab qoldi. Ocha boshladи.

Ochil buva o'g'lining xayoli haligi fojiadan sal boshqa yoqqa chalg'iganidan ko'ngli yorishib, tashqariga chiqdi. Tok tagiga kirib, shira to'plab

qolgan uzumlarga qaradi, og'ir boshlarini ushlab-ushiab ko'rdi. Jonivor rosa bo'lib beribdi. Bu kimsasiz hovlida bular endi kimning ko'zini quvontiradi?

Bobo o'g'liga rahmi kelganini o'zidan yashirishga urinib, uzumlarga achinganday gapirardi.

Shu mahal ichkaridan qattiq qahqaha eshitildi. Chol qulqlariga ishonmay, uy tomon qayrildi. Oyoq ostida xazon shitirlardi. Qahqaha yana eshitildi. Bu safar Ochil buva qo'rqib ketdi. Uyda Orifdan bo'lak hech kim yo'q. Ha, Orif. O'shaning tovushi.

Ochil buva yuragini ushiab, lapanglab yugurdi. Kulgi hamon eshitilardi, endi aniq, yangroq, quvnoq...

– Dada! Ha-ha-ha! Voy, ha-ha-ha!

Bobo eshikni ochib ichkariga kirsa, Orif aka Onabibining kichkina karavotida chalqancha yotib, oyoqlarini osmonga ko'tarib, ichaklari uzilguday qah-qah urardi. Bir qo'li qornida, bir qo'lida xat.

– Voy qizaloq tushmagur-ey, eshikni taraqlatib chiqib ketdi-ya! – deb kulardi Orif aka. U qog'ozni otasiga uzatdi.

Maryam yozar edi:

«Viloyat sudidagi ishdan xabar topib, men Isroilov deganni surishtirdim. Qanday bilganimni keyin gapirib berarman, hozircha senga kerak ma'lumot shu: Isroilov katta tovlamachi. Sudga topshirgan hujjatlari qalbaki. U qalloblik va chayqovchilik bilan qo'lga tushib, o'n ikki yil qamoqda yotib chiqqan, hozir «shaxsga sig'inish qurban» bo'lib olib, yana ulgurji chayqovchilik bilan shug'ullanib yurgan bir muttaham ekan.

Bu juda aniq. Onabibi uchun xavotir olmasang bo'ladi. Men kecha ham u ishlab turgan shahar prokuraturasida edim. Ishni oxiriga yetkazolmay, qaytayotib mana bu yerda yotib qoldim... M..»

Orif aka o'rnidan turib ketgan, juda o'zgargan, harakatchan, serg'ayrat edi. Dadasining atrofida aylanib, uyda u narsani bu yoqqa, bu narsani u yoqqa qo'yib, go'yo tartib o'mnatar, tinmay gapirar edi.

– Voy qizaloq tushmagur-ey, eshikni taraqlatib chiqib ketdi-ya! – derdi nuqul, go'yo qizining umrida qilgan eng katta yaxshiligi shudek. – Qalay, keyin nima dedi, dada, qandoq yotgan ekan? Sizni darrov tanidimi? O'sha-o'sha-ya? Byuroni sira ham gapirmadi deng? – Ortiqcha ezma bo'lib qolganini o'zi ham sezdi shekilli, dadasining oldida to'xtab so'radi: – Birovning ablah bo'lib chiqqaniga bunday xursand bo'lish yaxshi emas-a, Dada, nima dedingiz? Lekin yo'q... men bunga suyunayotganim yo'q. Men uning qallobligini ilgaridan bilardim, ko'nglim sezardi. Uning qayerdadir bemalol yurganidan dunyo tordek tuyular edi menga. Endi suyunganimki... – yelkasini qisdi, yana kuldi, – bilmayman nega suyunganimni, aytib berolmayman. Buni Temir aytib beradi, u faylasuf.

U Azimjonni chaqirib, yangi go'sht topib kelisti buyurdi. O'zi oshga urindi.

– Jigan, qaytishda ikki chimdim ziravor ham ola keltinglar.

– Xo'p bo'ladi. Haligi-chi, tog'a? Undan kerakmasmi?

Orif aka kulib yubordi.

– Obbo jigan, esi joyida. Olib kela qol, yigitlar yig'ilishib qoldik. – otasiga sho'xlik bilan ko'z

qisib qo'ydi, – bir ulfatchilik qilaylik. Voy qizaloq tushmagur-ey, eshikni taqillatib chiqib ketdi-ya! Voy, Onabibi tushmagur-ey...

Orif aka qo'lida kapgir bilan turib, uzoq o'ylanib qoldi. Eshik taraqlaganda uning dill qattiq jarohatlangan ekan shekilli. Shu gapni takrorlab go'yo yarasiga malham bosar edi.

– Tushmagur-ey...

Ochil buva unga qarab ko'zi quvonadi. Qorayib turgan osmonda oqshom sharpasi hukmron edi. Quyuq, zangori o'rik tutuni buralib-buralib hovlini butunlay chulg'ab oldi. Bu tutundan uylarga oilaviy bir fayz kiritadigan, tanish, xonaki hid taralar edi.

– Obbo, qizalog'i tushmagur-ey... – dedi yana Orif aka. Qizigan qozonga jaz etib piyoz tashladi...

Shu bilan birinchi qissa tugadi. Endi mehmonlar ketishlari kerak. Orif aka tongda raykom garajidan mashina chaqirib, ularni shaharga, undan aeroportga eltib qo'yishni haydovchiga tayinladi. Azimjon unga qarab turib, o'ylardi: birinchi ko'rgan odaming ham bir necha kunda shuncha yaqin bo'lib qolishi mumkin ekan. U tog'asining butun ich-tashini, xulq-u xayolini, o'tmishini, tashvish-u orzularini batamom bilib olgandek edi. Jigarchilik ekan-da. Buning ustiga, shu bir necha kun ichida ular shuncha voqealar, shuncha ehtiroslar bilan bo'lib, bir necha oyning savobini topishdi. Xayrlashganda Azimjon tog'asining suratini diliga joylab qolgisi kelgandek, yuziga uzoq tikilib turdi.

– Diydor ko'rishish nasib qilmasa... omon bo'l, jyan, yurtingga omon qayt, toleying yor bo'lsin,


– dedi Orif aka. Nevarasining ko'ngli to'lishib ke-layotganini payqagan Ochil buva oldini olib uning yelkasiga qattiq-qattiq qoqib qo'ydi:

– Endi bunga Komilani ko'rsataman, – dedi u, – keyin Akbaraliga o'tamiz, uni o'zim ko'rmaganimga ham olti-yetti yil bo'ldi chamamda. Yetim narsa, onasi ham nimjonroq edi, xabar olmay chakki qilibsan.

Orif aka otasi bilan quchoqlashib xayrlasharkan, aybini bo'yniga olib, Akbaraliga ko'pdan-ko'p salom topshirishni iltimos qilib qoldi. Mashina ertalabki namtob tuproqda jimjimador tas-madek ikkita iz qoldirib, tuman markazining kat-ta ko'chasidan dala yo'liga chiqib ketdi.

Hali shabnam ko'tarilmasdan turib, uzoqlarda cho'lda bo'lsa kerak, ikkita-uchta quyun anchagacha yo'rg'alab yurib, ufqda yo'q bo'lib ketdi. Qarshida esa qadimiyligi vodiyning paxtazorlari, tog' etaklarigacha ko'm-ko'k. Onda-sonda ochilgan chanoqlar bu ko'k dengizda yaltirardi.

Dalalarda terim taraddudi. RTS qo'ralarida zangori kombaynlar karvon-karvon bo'lib turi-shibdi. Yaktagineg bir yengini chiqarib belbog'iga qistirib olgan yigitlar shiyponning radiosini baland qo'yib, shoshmasdan xirmon shibalashadi. Shiyponning soya tomonida esa qizlar, dam pichirlashib, dam qiqir-qiqir kulishib, pardoz qili-shadi, etak tanlashadi, o'sma qo'yishadi. Uzoqda dori sepadigan, barg to'kadigan samolyotlar gu-rillab, goho ularning qiyqiriqlarini bosib ketadi. Hali ish qizigancha yo'q. Lekin kuzning taraddudi hammani dalaga chorlagan. U Orif akaning hay-dovchisi pakanaqina, pishiq, cho'tir bola bugun



dimog'i chog', olamni to'ldirgan oftobga, nurga, yorug'likka to'y mayotgandek, talpinib, gurkirab, g'ayratiga sig'may haydab borardi. Yonlda o'tirgan Azimjonning kimllgini bilgandan keyin, dili-dagini to'ka ketdi.

Kuz yaqin. O'zbekistonda eng dilbar fasl. Oltin kuz. Bu ibora kuzda oltinlanib sarg'ayadigan Rossiya o'rmonlari tufayli tug'ilgan bo'lsa kerag-u, lekin u ko'proq bizning o'lkamizga xos. O'z nomi bilan oq oltin o'lkasi-da! Haqiqiy oltin kuz – oq oltin kuzi. U hali barglari to'kilganda ko'rasiz: bu cheksiz dalalar yoppasiga bodroqdek oqarib ketadi, uzoqda xirmonlar charaqlaydi, yo'llar ham, jo'yaklar ham olisdan oqarib ko'rindadi. Tut shoxlarida, telegraf simlarida pag'a-pag'a oq paxta. Panjarali bunkerlar asta lapanglab kelib avtopoyezd platformalariga bulutday ag'dariladi, yo'llarda paxta ortgan mashinalar tinmay g'izilaydi, etakda paxta, qizlarning boshlarida paxta, tarozida paxta, oyoqqa paxta ilashadi. Mezon tolalari uchib kelib yuzlarga yopishadi...

Ba'zan paxtani terib tugatish maholdek ko'rinadi. Tunlar sovigan sari chanoqlar qars-qars ochilib, oydinda tishini ko'rsatib jilmayaveradi, kechagina paxtasi terib ketilgan kartalar, ertasi-ga qarabsizki, yana oppoq bo'lib turibdi-da.

Kech kuz yana ham fayzli. Dala shiyponining orqasidagi hovuzga sumbula suvi to'lib, qayrag'och barglari qayiqday suzadi, hovuz atrofida cho'g'dek yongan gultojixo'rozning yerga to'kilgan qop-qora urug'ini olib, tol shoxidagi to'rqovoqqa shundoq sepsangiz, shomda bedanangiz rosa sarmast sayraydi-da. Bitbildiq, bitbildiq, bitbildiq...

Chaylada pichan ustida yotib qolganmisiz? Hidiga mast bo'lib uxlaydi odam. Shabnamdan ko'r pangiz nam tortib og'irlashganda boshingizni mundoq chiqarib quloq solsangiz, qovun polizza ko'kchalarning tars-tars yorilganini eshitasiz. Tong sahar shabnam ko'tarilmay turib, yalang oyoq yugurib o'sha yorilganini tong sovug'i bilan qarsillatib yeb olsangiz bormi! Oh-oh-oh...


Orif akaning haydovchisi o'zi gapirib, o'zi rohat qilardi. Azimjon bularning bittasini ham ko'rman, uning ko'zlarini yaltirab, og'ziming suvi keldi.

– Sayohat qilib yurgan bo'lsangiz, eh-he, hali ko'p ajoyibotni ko'rasiz! – dedi haydovchi.

Aeroportda Azimjon bu cho'tir bola bilan zo'rg'a ajrashdi. Umuman Azimjon bir narsani fahmladiki, bu yerda eng ko'ngilsiz narsa odamlar bilan ajrashish, xayrlashish ekan. Har safar ko'nglinimg bir joyi uzilgandek bo'ladi. Ikkinchisi qaytib ko'rmasligini bilganidanmi...

Aeroport katta, gavjum edi. Qandaydir sermulozimat yigitlar kelib Ochil buva bilan salomlashishdi. Nevarasini yetaklagan chol-u kampir bir quchoq gul ko'tarib perronga yugurib o'tdi, kuzak gullarining o'tkir hidi qoldi havoda. Sharlik, qishloqlik, erkak, xotin, yelkasiga bo'g'cha osgan yosh-yalang, sershovqin bola-chaqa – bari quchoqlashib ko'rishgan, o'pishib xayrlashgan... Bu yerlarda odamlarning qarindosh-urug'i muncha ko'p!..

Ana, qoshiarini terib, kipriklariga surma tortgan, Marg'ilon atlasidan kaltagima ko'ylak kiygan styuardessalar o'tib ketishdi. Bari durkun, bari barkamol, farishtadek, bari Fotima-Zuhromi,



nima balo, bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Cho'tir haydovchi aytgan ajoyibotdan biri shu bo'lsa kerak-da...

Qiziq, bu yerda hamma narsa katta, cheksiz, keng. Samolyot ham muhtasham bir qasrdek, pastda ko'ringan yashil vodiylar ham, yaylovlar, biyobonlar ham cheksiz. Ana, oqish bulutlarning tepasidagi qoramtil fazo ham cheksiz, azaliy, abadiy. Azimjonning yonida o'tirgan buvasi ham hozir goho azaliydek, abadiydek ko'rindi va bir zumga Azimjondan qayoqlargadir uzoqlashib ketgandek bo'ladi. U to'qson to'rt yoshda... Azimjon uni umrida birinchi bor ko'rdi. U naqador uzoq Azimjondan...

Lekin buvasining oppoq o'siq qoshlariga, chuqur ajinlar tilkalagan issiq chehrasiga qara-ganda bir zumlik bu taassurot darrov yo'qoladi. Buvasining ko'zlarida yerning tashvishiari. Azimjonning tan-joniga rohatbaxsh iliqlik yugurdi.

Ular tushlik ovqat qilib, plastmassa idish-lardagi choyni ichguncha ham bo'lmay samolyot qo'nadigan keng beton maydon ko'zga ko'riniq qoldi. Bulutlar tepasidagi tubsiz qoramtil fazoning yuqini qanotlarida olib tushgan azim samolyotning g'ildiraklari yerga tegdi. Yer bilan osmon go'yo shu maydonga kelib tutashardi.

Ular mehmonxonaga joylashguncha kech kirib, teatr oldidagi kamalak favvoralar ko'kka qarab sapchigan, atofdag'i gulzorlarda bitta ham bo'sh o'rindiq qolmagan edi. Azimjon mehmonxona-ning boloxonasida turib pastda qaynagan ko'cha-yu maydonlarni, olisda yongan rang-barang neon lavhalarni uzoq tomosha qildi. Keyin choy cha-qirib, tugundagi yog'liq patir bilan choy ichdilar.

Kela kelguncha bir-birlariga ikki og'iz so'z qotmagan bobo bilan nevara, ko'ngillarining teran bir yerida shu o'y saqlangan ekan shekilli, biroz dam olgandan keyinoq Orif akadan gap ochdilar. Ayniqsa, Azimjon tashvishda edi: endi tog'asining ishl nima bo'ladi? Onabibini qaytib ololadimi, yo'qmi? Majlisda ishdan ham olib tashlashsa...

– Haligi o'ris xotin qattiq dushman ekan-da Orif tog'amga. – dedi Azimjon.

– Maryammi? – deb kului karavotga chiqib chordana qurib o'tirgan Ochil buva. – Ular bir-birlariga sira ham dushman bo'lolmaydi, bilib qo'y, bolam, – bobo soqolini tutaqilab, keyin qo'lining sirti bilan tagidan ko'tarib silab, o'ychan jilmayib o'tirar edi. – Buni ba'zilar tushunmaydi-yu, ammo lekin bir kun emas-bir kun er-xotin bo'lib qo'ltiqlashib yurishsa, men sira hayron bo'lmasdum, ha.

– Orif tog'am bilan o'sha xotin-a?

– Bular bir umr olishsa hamki, ikkalasi bamisoli yalakat mag'iz, ha. Ularning orasiga hech kim ola sololmaydi. Bu do'stlikning ildizi, eh-he, bolam, juda ham chuqur, juda ham chuqur...

Azimjon yana deraza oldida turib qoldi. Maydon hamon qaynar edi. Poytaxtning ulug'vor maydoni. Bir qarashda begona, bir qarashda esa shunday qadrdonki, yig'lavorging keladi. Do'ppilar, shlyapalar, durralar, sallalar. Kimdir baxtini uchratgan, kimdir ilhaq, intizor. Ochil buva chiroqlarni yoqmay, o'rnida cho'zilib yotib, gapini davom ettirar edi.

– Sen bilmaysan, jon bolam. Bu juda ham eski, juda ham chuqur.

Azimjonning ko'z o'ngida boshqa bir maydon gavdalandi.

HIKOYAT

Maydon xuddi mozor singari jimjit. Unda g'uj-g'uj odam guvaladay qalashib, tirband bo'lib turibdi-yu, lekin jimjit. Ahyon-ahyonda bir o'q uzi-lib, ovozi maydon ustida uzoq yangrab turadi-da, yana mudhish jimlik cho'kadi.

Keng maydon u yog'idan bu yog'igacha past-u baland qilib yirik-yirik tosh to'shalganday, lekin bu tosh emas, yaxlit yelkalar. Juldur yelkalar, yalang'och, oriq yelkalar, bukchaygan yelkalar. Olti ming odamning yelkasi. Ularning yuzini ko'rib bo'lmaydi. Ularga shunday ikki bukilib, yerdan ko'z uzmay turish buyurilgan. Bosh ko'targan otiladi. Ahyonda yangragan o'q ovozlari esa botayotgan kunni yoki ona shahar vayronalarni bir ko'rib qolish uchun, yoxud biron jigarini izlab alanglagan, bebardosh sho'rliklarni uchirib ketar edi.

Olti ming egik bosh. Ertalabdan beri to'pga tutilayotgan isyonkor shaharning bir amallab jon saqlagan bir qism aholisi mana shu edi. Bular ko'proq bola-chaqa, xotin-xalaj, qari-qartang; garnizondan yetib kelgan jazo otryadlari ularni shahar chetidagi mana shu taqirga haydab chiqdi. Kappon sahni deb ataladigan bu joy doim oppoq sho'ri chiqib, qishin-yozin sizot suvdan botqoq bo'lib yotadigan bir maydon edi. Yoz kunlari unda qal'adagi askarlar dupur-dupur mashq qilar, olachiq tikib o'q otar, qopga somon tiqib nayza sanchar edilar, shahar fuqarosi buni bekorchilikda devor raxnalariga tizilib toza tomosha qilar, bola-baqra bo'lsa atrofdagi do'ng

tepalarda yopirilib yotar edi. Endi ma'lum bo'ldiki, o'sha mashqlar bejiz emas ekan. Ana o'sha askarlar maydonning chetida, baland qo'rg'on tagida saf tortib, miltiqlarining nayzalarini maydonga o'qtalib shay turishibdi. Kappon bostirmasi yonida ularga buyruq berib turgan qip-qizil, jez mo'ylov, kelishgan zabit maydonda hech kim bosh ko'tarmayotganidan zerikib ketgandek, betoqat, oq qo'lqop kiygan qo'llarini bir-biriga ishqalab-ishqalab qo'yardi. Bugun u ertalabdan beri shunday ishladiki, boshqa birov bo'lsa cho'zilib yotib olardi. Endi esa zerikib qolayotganga o'xshaydi. Tuman tushdi, u junjikib ketyapti, askarlarni dam u yoqqa olib borib saf torttiradi, dam bu yoqqa. O'q otilemaganda maydonda faqat shuning tovushi yangraydi. Buyruq so'zları anglashilmaydi, keskin yangroq tovush eshitiladi, xolos: – Hau-hau, hau-hau!

Maydondagi xalq uning ovozini ham, o'zini ham yaxshi taniydi. «Jezmo'ylov» deb atashadi. Tuproqko'rg'onning eng johil, piyonista, qaysi qovoqxonaga kirsa birovni urib mayib qiladigan bebosh bir zobiti edi. O'z xotinini ham bir kazakka rashk qilib, bolta bilan chopib o'dirgan ekan. Hozir u zerikib ketyapti. Qo'rg'onning ichkarisida kattalari, maydondagilarni nima qilamiz, deb keksa general bilan maslahatlashyapti chog'i. Jezmo'ylovga aytsa-ku, qiradi-tashlaydi-ya. Bu hezalak cholning maslahati achchiq ichakdek cho'zilib ketdi...

Qosh qorayar, sovuq tuman quyuqlashar, odam to'shalgan maydon ustida qo'lansa ivir ko'tarilar, onda-sonda yilt etgan inson chehra-

si jezmo'ylovning imosi bilan shamdek o'char edi. Kimning kimi tirik, kim tul, kim yetim – hali ma'lum emas. Bu odamlarning butun alam-iztiroblari, butun achchiq faryodi hali ichida. Maydon o'likdek jimjit. Faqat pastda, yelkalar panasida, oyoqlar ostidagina zaif hayot sharpasi yer bag'irlab asta g'imirlaydi. U yerda odamlar bir-birlarining yuzlарини ko'radilar, yerdan ko'z uzmagan holda bir-birlariga pichirlab so'z qota oladilar.

– Shahar yer bilan tekislanib ketdi, Madumar, – derdi bolasining bo'ynidan bosib turgan Ochil taqachi yonidagi qo'shnisiga. Madumar kulol bo'qoq edi, uch soatdan buyon egilib turish unga go'r azobi bo'ldi. Lekin fikri xayoli bolasida. Uning ham bolasi yonida. Yolg'iz bolasi.

– Boshingni ko'tarma, – deb pichirlaydi har nafas bolaning kokilidan yerga tortib. O'n besh yoshigacha bolasining kokilini kestirolmadi sho'rlik. Bu yil endi bitta echki orttirib Shohizindaga boradigan bo'lib turgan edi, mana bu falokat yuz berib... – Boshingni ko'tarma deyapman, o'risning yuzini ko'rib qolsang, moxov bo'lasan! – derdi Madumar xirillab.

Ochil taqachi Madumarni taniydi, kulollar rastasi taqachilikning shunday yonginasida. Madumar o'zi dilkash yigit, kasbi korlik odamni boshiga ko'taradi. Hamma kasbiarning pirini bilar, Ochil taqachiga «Dovud payg'ambarning o'ziga qo'l bergansan», deb haziliashar edi. Lekin bir fe'li bor – o'risni ko'rgani ko'zi yo'q. Necha yil yonma-yon ishlab, necha yil bahslashib, Ochil taqachi uning shu ko'r-ko'rona e'tiqodini sindirolmadi. Hozir ham uning bolasiga aytgan gapini eshitib, o'ylab

turdi-yu, bu safar bir nima deyolmadi. Nima ham desim Madumar bechora? «Boshingni ko'tarma, o'q yeysan!» desinmi? Bolaga-ya?..

Pastda hayot oyoqlar oralab hamon o'rmalardi. Dam ilondek vishillab xunuk mish-mish taralar, dam taqdirga tan bergen birontasi Azroil haqida achchiq hazil tarqatar, kimdir noumid shayton, degandek bilar-bilmas bashorat qilar edi.

– Eshitdingmi, yarim kechaga oborib hammani bitta-bitta otib tashiarmish...

Bo'g'iq faryod, yig'i yer bag'irlab bir-biriga ulanib ketadi.

– Shuncha odamni otolmaydi, shahar ko'chalarda yotgan o'liliklarning hisobiga yetsin avval...

– Qo'zg'olonning boshliqlarini terib olarmish... Kimdir xotinchalish xunuk tovush bilan yig'lab, burnini artardi:

– Men qo'zg'olonini bilmayman, mardikorga olib ketgan ko'chaga ham chiqqanim yo'q, aytinglar, jon qo'shnilar, qozoq o'risga aytinglar, nachalikka aytinglar...

– Nafasingni o'chir, ko'sa! – dedi unga kimdir.
– Bitta senmiding! Son ming odam bosh egib turibdi bu yerda!

– Voydod, birodarlar, o'lib ketaveramizmi, gunohimiz nima!

O'q yangradi. Yana kimdir ketdi. Ochil taqa-chi past-u baland gaplarga qulqolar, o'zidek chidam bilan ikki bukilib turgan to'qqiz yashar bolasining belini silar, o'ylar edi. O'limni emas, bo'lib o'tgan voqeani o'ylardi. Nahotki shu bilan tamom bo'lsa? Yo'q, shuncha qon, shuncha qurban bekor ketishi mumkin emas. O'zbek yerlarida hali bunaqasi bo'limgan. O't tushdi, o't ketdi...

Madumar kulol hadeb tipirchilagan bolasining kokilidan yerga tortardi. Tun ayoz, oydin. Chor atrofda askarlar gulxan yoqib isinishar, qo'rg'on tagidagilar hamon saf tortib, maydonga miltiq o'qtalgancha turishar, Jezmo'ylov bo'lsa yonida qilichini salanglatgancha saf bo'ylab do'q-do'q yurar edi. Odamlar bir-birlarini suyab, diydirashar, loyga yiqilib qolgan paranjili kampir ustida kimdir bukilgancha yosin o'qir edi. Yarim tundan o'tganda Madumarning bolasini axiyri o'q uchirib ketdi. Otasining shuncha xavotiri bejiz emas ekan, qaysarlik bilan bosh ko'tarib, askarlarga qarabi bola boyaqish. Ochil taqachi iztirobda qaddini rostlab, nimanidir jon-jahdi bilan baqirmoqchi bo'lgan Madumarni yelkasidan zo'rg'a bosib qoldi. Shundan keyin Madumar bolasining o'ligi ustida egilgancha azongacha g'iq etmadi.

Azonda ichkaridan o'ntacha zar pogonli zabit chiqib, o'ntasi barobar osmonga o'q uzib, nog'ora chalgandan keyin, bitta ko'zoynakli tepalikka chiqib farmon o'qidi. General janobiari oq podsho hazrati oliylari nomidan marhamat ko'rsatib, fitnachi shahar aholisining og'ir jinoyatiga qaramasdan, fuqaroning hayotini saqlab qolishga qaror qildi. Oq podsho hazrati oliylarining irodasiga qarshi bunday fitnalarning oldini olish maqsadidaga bu shaharning aholisi shu soatdan boshlab Mirzoning cho'liga badarg'a qilinadi hamda ulardan birontasiga bironta shahar yo qishioqda panoh bergenlar oliv jazoga tortiladi.

Maydon birdan qo'zg'aldi. Boshiga qon quyilgan, ko'zlari qip-qizil odamlarning qad ko'tarolganlari gandiraklab ketdi, belini yozolmaganlari

qichqirib yubordi: Biri og'riqdan, biri o'lindan qolganiga, biri «badarg'a» degan so'zning dahshatidan, biri xudoni tilga olib; biri jigarining murdasini o'z qo'li bilan yerlolmay tashlab ketayotganiga...

O'liklarni oldirmadilar. Madumar ko'zida yoshi qurigan, qo'llari qaltiragan holda, bolasining kokilini kesib, qo'yniga soldi-da, askarlar oyog'i ostida qolgan murdadan zo'rg'a ko'z uzib, olomon ichida kimglargadir suyanib, odimlab ketdi. Atrofida otliq askarlar podachilardek hay-haylab baqirishib, qamchilab olomonni avval bir joyga g'uj qilishdi, keyin tong otmasdan cho'lga qarab haydab ketlshdi.

Tong otganda Ochil taqachi atrofida hech kimni tanimadi. Olomon to'zon buluti ichida asta sudralib hamon yurib borar, orqadan baqirib-chaqirgan otliq kazaklarning so'kinishlari eshitilar edi. Ochil taqachi o'g'lining qo'lidan mahkam ushlagancha alanglab odimlar, «Madumar amaking qani? Ko'rmadingmi?» deb so'rар edi. Bola eshitmadi. Uning qulоq-burniga tuproq to'lib, bitib ketgan edi.

Tong qorong'sida bo'lib o'tgan to'polonda kimlardir qochib ulgurdi, kimlardir otilib ketdi, cho'lda olomonni ikkiga bo'lib ham yuborishdi shekilli, xullas, hozir, odam kecha kechqurungidan ko'ra ancha kam edi. Kun chiqib, yo'siz, kimsasiz cho'lning keng ufqi ko'ringandan keyin, quv-g'indilarning yelkalariga oftob tegib, olomonga sal jon kirdi. Nima bolsa ham oyoq ostida yer, tepada osmon, tirik qolishdi, biron joyda rizqlari sochilib yotgandir axir, terib yeishar, bundan yomon kunlar ham o'tganki, bosh omon bo'sin ish-

qilib. Juvonmarg bo'lib ketgan begunoh bandalar oz bo'ldimi shu uch kun ichida! Yigitning guli qirilib ketdi, o'sha kunlari ko'chaga chiqqan borki, nobud bo'laverdi, mahallalar xonavayron, bozor to'pga tutildi, shahar yer bilan yakson, machitning minorasigacha uchib ketibdi. Bu ketayotganlarni xudo yarlaqab jonini saqlab qoldi. Mana bu orqadagi la'natilar ham nariroqqa borib zora qaytib ketishsa, o'shanda tirikchilik o'zlariga qoladi...

Biroq oftob tikkaga chiqqan sari yurish qiyinlashardi. Suv yo'q, yozi bilan qovjiragan cho'l lovillay boshladи. Qariroq xotinlar darmonsizlikdan paranjiga chuvalashib, kalovlanib qolar, yalang oyoq bolalar tovoniga tikan kirib g'ingshib yig'lar, yiqilganlarni tetikroq erkaklar oyoqqa turg'izib suyab borar edi.

Oqliq kazaklar, – ular ko'p emas, sakkiztacha edi, – cho'lning ichkarisiga kirgan sari olomonga uncha e'tibor qilmay qo'yishdi. Ular orqada qolib, bir nimalar kavshab, bir-birlaridan tamaki tutatishar, ba'zilari yalang'och bo'lib olib sariq junli badanini oftobga solgan, orqaroqdagilari bo'lsa, egarda bemalol uxlab kelishar edi. Ular bilar-dilarki, endi bu sillasi qurigan olomon na qarshilik ko'rsata oladi, na qochishga harakat qila ola-di, yurib tursa bo'lgani.

Chindan ham yaydoq biyobonda podadek olo-mon o'z changi bilan birga siljib, tobora sekin-lashsa hamki hamon sudralab, noma'lum man-zillar sari hamon jilib borar edi.

Kechga yaqin otliqlar bir yerga to'planib, to'xtab qolishdi. Ularning soyalari sho'ri chiqqan taqirda uzun yastanib yotardi. To'xtashga buyruq bo'lma-gani uchun odamlar madori boricha bir-birini

suyab oldinga siljiyverishdi. Yarim soatlardan keyin sakkizta otliq uzoqda bir qora nuqtadekkina bo'lib ko'rindi, keyin esa, jo'nab ketishdi shekilli, ular turgan joyda bulutdek chang muallaq turib qoldi. Ajab, chang bulutining bir chekkasi qip-qizil edi...

– Ketishdi, Ochil, tashlab ketishdi – dedi Madummar. Bolasidan judo bolgandan beri endi birinchchi marta so'z qotgan Madumarning tovushida fojiaviy bir tushkunlik sezildi. Askarlarning tashlab ketishi go'yo bir qayg'u edi. Olomon orqaga va atrofga bir qayrilib qaradi-yu, ilgarigidek bosh eggancha yuraverdi, chunki atrof bo'm-bo'sh, pesdek oppoq sho'rxok taqirlar, qovjiragan tikanak, chaqirtosh qum... Hast asari yo'q, to'xtaydigan joy emas edi. Olomon yuraverdi. Go'yo oldinda bir manzil bordek...

Lekin oldinda hech narsa yo'q edi. Cho'l, cho'l, cho'l... Bir giyoh dardida yongan o'sha cho'l. Ne-ne karvonlarni yutib ketgan o'sha o'lik cho'l. Katta cho'l, Mirzacho'l.

Olomon kichkina bir dovon oshgandan keyin qiyalikda gapsiz-so'zsiz cho'kdi. Uni go'yo umidsizlik, darmonsizlik tun qorong'isi yelkasidan bosib cho'ktirdi-yu, shu bilan to tonggacha bosh ko'tartirmadi. Mudhish taqdir odamlarni bir-birlariga yaqinlashtirib qo'ygan edi, tanish-notanish, bir-birlariga hovur berib, g'uj bo'lib qotdilar, hech kim ahvolini gapirmadi ham, nima bo'ladi deb so'ramadi ham...

G'ovur-g'uvur ertalab boshlandi. Kechadan beri tuz totmaganliklari ham, ochliklari, tashnaliklari ham, bundan keyingi qismatning mud-

hishligi ham endi bilindi. Hech narsa ma'lum emas edi: endi nima bo'ladi, yegulikni qayoqdan topishadi, nahotki shu yerda qirilib ketish kerak bo'lsa?.. Kecha, tirik qoldik deb sevinib, bu yog'ini o'yashmagan ekan, yoppasiga halokatga mahkum etilganliklarini endi fahmlashdi...

Bunday sarosimada ochlik, o'lim jadal bosib kelayotgandek bo'laverdi. Odamlar yana bir necha soat tentirashdi, biron alaf ko'karib ko'ringan yo sizot suvi yilt etgan joyga yugurishdi, umidsiz qaytib yana bir yerga to'planishdi: odam bir-birini topar ekan, bir-biridan doim madad izlar, bir-biriga muhtoj bo'lar ekan, tarqab ketishmadi. Sizot suvda ko'kargan bir parcha qamishzor panasiga makon qiladigan bo'lishdi. Orada eng tetik, tadbirliroqlari Ochil taqachi bilan Madumar kulol edi. Ular yana bir-ikki odam bilan chiqib ketib, kechga yaqin qayoqlardandir bir etak boshoq terib kelishdi. Uni uqalab, bolalarga ulashib chaynatishdi.

Kulfat tadbirkor qiladi kishini. Har kuni kimdir bir chora topar edi. Toshga yig'ilgan shabnam ham, yumronqoziq inidagi don ham, qamish poya ham, sizot suv ham, qizg'aldoq piyoz ham – hammasi ish bera boshladi. Ammo jonga ora kirgani boshoq edi. Oyog'ida darmon bor kimsa borki, sahardan to oqshomgacha o'nlab chaqirim kezib, qir etaklarida o'rilgan bug'doy poyalarini oralab, bir cho'ntakmi, bir hovuchmi boshoq terib qaytar-di. Tunlar sovuq, kunlar issiq. Ochil bilan Madumar yerto'la kovlashni buyurishdi, yerga xashak to'shatishdi. Xotinlar o'choqqa xorxas terib kelar, chollar qamishdan bordon to'qib, kasallarning

ostiga to'shar, bolalar tongda turib boshoqqa yugurar edilar.

Bolalar... Ochil bilan Madumar ko'rib turibdiki, tirikchilik o'ziga yarasha bir izga tusha boshlagan bo'lsa ham, odamlarning ko'zi so'niq, boshlari ham. Chunki bu holda qachongacha kun kechirish mumkin, ertaga nima bo'ladi, qilichini olib qish kelyapti, yiqlilib qolganlar, ochlikdan shishganlar ko'payayapti. Bolalarning bolaligi yo'qoldi, o'yin yo'q, kulgi yo'q, otalarining ko'zlari ga tikilishadi.

Ochil taqachi yerto'lasida har oqshom o'z o'g'lini kutadi. «Bugun hammadan ko'p teraman, bir joyni bilib oldim», deb dasasiga dalda berib ketadi-yu, oyoqlari qonab, oriq boldirlari shilinib, barmoqlari ko'karib, tilinib, qaytib keladi. Bir kuni u chivin talagan yuzlari oppoq oqarib, o'pkasini bosolmay yig'lab kelib otasining etagiga darmonsiz yiqlidi. Ota tushundi: u bir dona ham boshoq topolmagan. Ochil taqachi bolasining yara-chaqa boshini siladi: «Qo'y, shunga ham yig'imi, ana sholg'om qaynatib qo'ydim, yeb ol», dedi u o'zining ko'z yoshini zo'rg'a tiyib. «Sholg'om» degani keyingi kunlarda topilgan qandaydir chuchuk tomir edi. Keyin-keyin borib o'g'li yig'lamaydigan boldi, hatto boshoqqa borganda bir sherigi to'satdan yiqlilib jon berganda, ko'tarib kelolmay, o'ziyoq ko'mib kelaveribdi. Buni u qaytib kelganda shoshmay, yig'i-sig'isiz gapirib berdi. O'lgan bolaning onasi ham faryod solgani yo'q. Ochil taqachining o'g'lini bo'lsa, «Katta bo'lib qolibdi», deyishdi.

Odam ko'mish ko'pincha yig'i-sig'isiz o'tadigan bo'lib qoldi. Har kuni kimdir ko'z yumadi, birov

ochlikdan, birov kasaldan, birov ishqorli sizot suv ichib... Ko'pchilik eshitganlar: «Qutulibdi sho'rlik» deb, tirikchiliga ketaveradi. Bular taqdirga tan bergenlar, o'zining o'ligi ham shu biyobonda qolib ketishini bo'yninga olib qo'yganlar edi. Lekin yozmishga bo'yin egmay, nimadir kutib ko'ziga uyqu kelmagan, ko'nglida isyon o'ti so'nmaganlar ham bor edi. Bular Ochil bilan Madumar atrofida maslahatlashishar, har xil taxminlar qllishar, odamlar to'plangan joyga borib, atrofda xalq, hayot, katta dunyo borligini eslatib dillariga cho'g' solishga, hayot shamini so'ndirmaslikka urinishar edi.

- Birontasi eslar axir, do'stlarimiz bor edi...
- Yuqoridan marhamat bo'lar...
- Jo'nash kerak bu yerdan!
- Qayoqqa?
- Odamlar turgan yerga. Moxovga ham boshpana beradi kishilar. Ketaversak, biron qishloq, shahar, aqalli bir o'tovga duch kelarmiz axir.
- Keyin sening dastingdan ularni ushlab dorga osishsin, qishlog'iga o't qo'yishsin, shundaymi? Yo'q, biz begunoh odamlarni balo-qazoga duchor qilolmaymiz.

Bir kuni shunday xashak tutatib o'tirganlari-da, qamishzorda bir sharpa sezildi. Qorong'i edi. Shabada ekan, deb yana gapga kirishganlarida, kimningdir hansiragani aniq eshitildi.

- E, bu o'zimizning jinni-ku!
- Haqiqatan ham, bu keyingi vaqtda esi kir-di-chiqdiroq bo'lib qolgan kasalmand bir bukri edi. Biroq u o'zi yolg'iz emas, ikki qo'lida kichkina bir gavdani ko'tarib turibdi. Hamma o'rni-

dan turib unga qaradi. «Yana bir bola o'libdi-da», deyishdi. Bukri ko'tarib kelgan gavdani yerga qo'ydi, bu haqiqatan ham bola edi, qiz bola. Qamish tagidan suv hovuchlab yuziga sepdi.

– Kim u, hey jinni? – deb qichqirishdi. Jinni indamadi. Qiz bola tirik ekan, boshini ko'tardi. Jinni umi avaylab turg'izib odamlar tomonga boshladи.

– O-o-ov! – dedi jinni uzoqlarni ko'rsatib. – O-o-ov! O'sha yerdan topdim, o'lib yotgan ekan... O-ov uzoqda!..

Qiz bola gulxan yorug'iga kelganda, shu'la shunday tushgan ekanmi, nima bo'ldi-yu, hamma avvalo uning yum-yumaloq yuzini ko'rdi. Bu yerdagilarnikiga sira o'xshamagan bu lo'ppi, kichkina qirmizi yuz hayratda jilmayib turardi. Odamlar avval ko'zlariga ishonmay sarosimada qolishdi. Qizcha birdan qichqirib, gulxan tomon-ga otildi.

– Hay bola! Hay bola! Men seni qidirdim, senga, senga keldim! – deb u yugurib borib Ochil taqachining o'g'lini quchoqlab oldi. – Men seni qidirdim, men seni topdim! – dedi chinqirib.

– Qizimka... – dedi «Hay bola» ham ichiga cho'kkан ko'zlarini katta ochib. – Dada, bu Qizimka-ku, tanimadingizmi? Qizimka, qayoqdan kelding, bizni haydashdi, sen nega kelding?

– Senga keldim, mana, mana, mana! – deb «Qizimka» qo'ynidan uchta olma, fartukchasinining cho'ntaklaridan xo'roz, g'ildirak shaklidagi pryaniklarni olib «Haybola»ning etagiga to'kdi.

Hamma ularni qurshab, nima deyishni bilmay, uchta olmaga, shirin pryaniklarga allaqanday qo'rquv va ishonchsizlik bilan qarab turar edi.

– Sen, Qizimka, non olib kelsang bo'lardi, ana novcha Alimat ham, Mukambar xola ham o'lyapti.

– Voy, pryanik nondan shirin-ku... – dedi Qizimka, – keyin birdan qo'rqib, moviy ko'zлari olayib ketdi: – O'lyapti? Nimaga o'ladi?

Qizcha o'zini qurshab turgan odamlarning qoq suyak bo'lib qolgan, yara-chaqa bosgan, shishin-qiragan isqirt yuzlariga vahima bilan bir-bir qarab chiqdi, hech kimni tanimadi, bosinqirayapman shekilli deb, baqirib yubormaslik uchun kafti bilan og'zini to'sdi. Gulxan chirs-chirs yonib tugayotgan edi, uning tutuni qo'rqinchli basharalarni to'sdi. Shunda olomonda g'ovur boshlandi. Kimdir qichqirib yubordi:

– Jezmo'ylovning bolasi! O'shaning qizi-ku bu!

Orani yorib, yirtiq chorig'i bilan tutab yotgan gulxanning kulini bosib, to'zg'itib, oldinga Madumar otilib chiqdi. Kulolning ko'zлari kosasidan chiqqudek dahshatli, ikki qo'llining chayir panjalari yozib, Qizimkaga tashlanmoqchi bo'lib kelardi.

– Jallodning haromisini menga ber, itning bo'lasidek bo'g'ib tashlayman! – deb qichqirdi u. Bo'qog'idagi tomirlari ko'karib bo'rtgan, iztirobda esini yo'qotib, nima qilayotganini bilmas, panjalari bolaning bo'g'ziga to'g'rilab borar edi. Ochil taqachi uni siltab tashladi.

– Madumar!

Kulolning ko'zлari hech narsani ilg'amay, faqat qizchani ko'rayotgandek edi, u yana qaytib kela boshiadi. Ochil yana qattiqroq siltagan edi, Madumar odamlarning oyoq ostiga, kulga ag'anadi.

– Go'dakdan o'ch olasanmi, nomard? – deb qichqirdi Ochil. Orada Madumarning tarafini olib

ko'ziga qon to'lganlar ham yo'q emas edi, buni payqagan Ochil, uning o'g'li, yana bir-ikki kishi Qizimkani gavdalari bilan to'sishdi.

- Bolaning nima gunohi bor? – dedi yana Ochil.
 - Bizning bolalarimizning nima gunohi bor edi?
 - Qirilib ketganlarning, o'ligi cho'lda qolganlarning-chi?
 - Mana bu o'lim to'shagida yotgan zaifalarning nima gunohi bor?
 - Norastaning bunga daxli yo'q, bu go'dak axir, u bizni qidirib kelibdi! – dedi taqachi endi xalo-yiqqa yalingansimon.
 - Sening bolangni qidirib kelgan, – dedi Madumar juldur ust-boshidan kulni qoqib, – sen azal-dan o'risparastsan, kelgindi!
- Ochil taqachi jizzaxlik emas, olti yilgina av-val Chinordan kelib, rastada taqachilik do'konı ochgan edi. Usta taqachi. O'ziga to'q bo'lsa ham, mehnatkash odam. Mehnati bilan mol orttirdi, obro' topdi. Shuning uchun «kelgindi» unga juda og'ir haqorat edi. Qariyalar buni sezib bosdi-bosdiga o'tishdi.
- Noma'qul gapni qo'y, Madumar, kelgindi bo'lsa ham dardimizni tortishib yuribdi-ku... – deyishdi.

Xaloyiq asta tarqala boshiadi. Qizimka Hay-bolaning orqasida, uning oyog'iga suyanib o'tirib uqlab qolgan edi. Ochil taqachi uni ko'tarib yet-to'aga olib kirib ketdi. O'g'li quvray yoqib, yoritib turdi, bolani bordonga yotqizdilar. U dong qotib uxlardi, uzun qo'njli qizil botinkachasi shilinib ketgan, kraxmallangan fartukchasi kir, otasing mo'ylovidek jezrang sochlari seckilli yuziga sochilib yotibdi.

– Qizimka... – deb pichirladi Haybola yuziga tikilib. U birpas gaplashmoqchi, «qo‘rqma», deb tasalli bermoqchi edi. Eshitmadi.

Qizimka juda shaddod edi. Qo‘rg‘on tagida «yakkashta qulqoq» o‘ynaganda o‘g‘il bolalar bilan mushtlashgani-mushtlashgan, doim yuz-ko‘zi ko‘kargan, qop-qop otishda o‘g‘il bolalardan qolishmas, Haybola bilan ham necha marta timdalashgan, soch yulishgan edi. Bir kuni ular mushuklari ni ayrbosh qilishdi. Haybolaniki yovvoyiroq baroq mushuk edi, qo‘shti bolaning kaptarxonasiagi kaptarlarni bezillatib qo‘ydi. Shuning uchun, almashtirvorib bopladir, deb yursa, baroq ikkinchi kuniyoq qaytib keldi. Qizimkaniki ham o‘zi qaytib boribdi. Rosa kulishdi. Keyin ular mushuklaridan har xil narsa almashish uchun, bir-birlariga sovg‘a yuborish uchun foydalanadigan bo‘lishdi. Masalan, Haybola uning mushugining bo‘yniga o‘zi yasagan sopqonini taqib yuborsa, baroq o’sha kuniyoq beliga bog‘liq xaltachada faqat oq podsho zabitlarining uyida bo‘ladigan «otnon», «pabrikon pryanik» olib qaytardi. Haybola pryanikni o‘sanda yaxshi ko‘rib qolgan. Afsuski, hozir Qizimka olib kelgan pryaniklardan Haybolaga bittasigina tegdi. Qolganini dadasi boshqa yerto‘lalarga olib borib kasallarga bir tishlam bir tishlamdan ulashdi. Olmalarning faqat bittasini Qizimkaga qoldirdi. Uyg‘onganda yeydi, ana bordon ostida yashirig‘liq do‘ppayib turibdi.

Haybola olmaning hidiga anchagacha uxlolmay yotdi-yu, keyin ko‘zi yumilib ketibdi. Dadasi bo‘lsa bu kecha uxlagini yo‘q. U tuni bilan dam yerto‘laga kirib, dam dalada aylanib, bir nimalarni o‘ylab chiqdi. Tong oldidan Qizimkani uyg‘otdi.

– Yaxshi uqlab oldingmi? – dedi u kulimsi-rab. Qiz ko'zlarini uqalab, g'ira-shira yerto'lanning qorong'i burchaklariga xavotirlanib qaradi.

– Endi sen qaytib ketishing kerak, Qizimka, – dedi Ochil jiddiy gapga o'tib. – Ko'rib turibsan, bu yerda yeydigan hech narsa yo'q, suv yo'q, odam-lar tashna, bolalar ochdan o'lyapti. Sen qaytib ket, kuzatib dovondan oshirib qo'yishadi, kech-gacha shaharga kirib borasan.

Qiz tushundi.

– Haybola ham ketsin! – dedi u.

– Bizlarga mumkin emas. Haybolaga ham mumkin emas. Senga mumkin.

Qiz o'ylanib qoldi, indamadi. Bir kechada uning ham bolaligi yo'qolgandek edi. Ochil bilan o'g'li uning indamay qolganini rozilik alomati deb bilishdi.

– Borganda dadangga nima deysan, bu yerga kelganiningni aytasanmi? – deb so'radi Ochil.

– Yo'q! Bormayman dadamga! – deb qichqirib yubordi qiz. Sepkilli yuzi o'zgarib, ko'k ko'zlarida g'azab chaqnadi. – Bormayman! Mast bo'lib keladi, kechasi aroq so'raydi, shiftga to'pponcha otadi, qo'rqaman! Bormayman dadamga!

Qizcha chinqirib tipirchilar, yig'lar edi. Bu payt yerto'la og'ziga to'plangan odamlar bir-birlariga qarab, boshiarini sarak-sarak qilishdi.

– Tushida ham qonda suzsa kerak-da, odamxo'r, bosinqirib to'pponcha otadi, – dedi oradan endi sal o'ziga kelgan Madumar.

– Vijdon azobida Jezmo'ylov!

– Vijdon nima qiladi unda!

Ochil taqachi yerto'ladan chiqib qaddini rost-ladi, oqarib kelayotgan usfqla qaradi, tizzalarini uqaladi.

– Havoni to'smanglar, yerto'la dimiqib ketdi, – dedi u odamlarni chetlatib. – O'zi nariroqqa yurdi, nima qilamiz, degandek yigitlarga qaradi. Odamlar bir nimani sezgandek, unga ergashishdi, ular taqachining ko'ngliga bir fikr kelganini yurish-turishidan payqashar edi. Ancha nariga borib, cho'kkalashib o'rtaga maslahat solishdi. Chorak soatdan keyin shovqin ko'tarilib, maslahat majlisi to'zg'ib ketdi, yerto'laga qarab kela boshladilar. Orada hammadan ham Madumar qattiqroq shovqin solardi.

– Ilon bolasi – ilon! Balki otasi o'rgatgandir.

– O'rgatishga o'rgatmagan-ku, lekin bola-da, ishonib bo'ladimi? Chunonchi, shaharga qaytganda ko'ngli o'ksib ketib, dadasinikiga kirib borsa. «Qayerda eding?» «Falon joyda». «Nima deyishdi?..» Bola qo'rqib hamma gapni aytib solsa...

– O'sha zahotiyoy hammasi tapir-tupur ot solib keladi-yu, birimizni qo'ymay qiradi-ketadi, – dedi Madumar, cho'lda yotgan yuzlab o'liklarni ko'rgandek atrofga qarab. Bu bo'lishi mumkin bo'lgan gap edi. Odamlar xavfsirab, Ochil tomondagilar ham ikkilanib qolishdi.

– Xo'sh, nima qildik bo'lmasa? – dedi Ochil bosiq o'ychanlik bilan. – Ochlikdan qirilib keta-veramizmi? Hozir odamlarimizning yarmi o'lim to'shabida yotibdi. Ochlikdan tashqari, yana kasal oralab qolsa, bir haftaga bormaymiz. Bizga qayerdan najot kelishi mumkin? Nimani kutyapmiz? Bunday ojiz, sharmandali o'limdan har qanday tavakkal yaxshi.

Madumarning telbalarcha baqirig'i oldida bu mulohaza jo'yaliroq tuyuldi. Ochil tomon yana

bosib ketdi. Hech kim qarshilik ko'rsatmagach, Ochil yerto'laga kirdi.

– Qizimka, – dedi qizchaning yoniga o'tirib, eplaganicha muloyimroq qilib. – Mayli, sen dadangga borma. Yo'q, yo'q, sira borma. Lekin shaharga qaytishing kerak.

– Haybola ham borsin!

– Yo'q. Haybola bormaydi. Sen o'zing borasan. Hozir kuzatib qo'yishadi, xumdonning tutunini mo'ljallab yuraversang, kechasi shaharga kirib borasan. To'g'ri borib, Beshquvurdagi cherkovning panjarasidan oshasan, Matvey amaking derazasini chertasan. Tushundingmi? Matvey amaki bor-ku, qo'ng'iroqchi, taniysanmi?

Qizimka bosh irg'adi.

– Ma, olmaning yarmini yeb ol.

Yerto'la eshidida turganlar ichida yana Madumar qichqirdi:

– Qo'ng'iroqchi! Yana o'ris! Yana o'risga tutib bermoqchi bu taqachi!

– Sen jim tur, bo'qoq, chinqiraverasanmi!

– Sen o'risdan nima yaxshilik ko'rgansan? – deb kimningdir yoqasiga osildi Madumar kulol. – Xotiningni otga bostirib o'dirgan kim? Kulbangni xonavayron qilgan kim? Ertaga sening ham suyagingni chiyabo'ri g'ajib ketadi!

Chora izlab, o'y o'ylab tinkasi qurigan och olo-monga bu shang'ilik yoqmadi. Madumarni chetga surib, yerto'laga qulq solishdi.

– Qizimka, – derdi Ochil. Og'zidan suvi kelib, yutinib o'tirgan bolasining boshini silardi. Qizimka yarimta olmani bir tishlab, qolganini Haybo-laga berdi.

– Qo'ng'iroqchiga aytasan: hammasi och, suv yo'q, yuztacha odam o'libdi, deysan, qolganlari ham ko'pi bordonga uzala tushib yotibdi, qirilish-yapti, deysan.

– Tushundingmi?

Qizimka ustma-ust bosh irg'adi. Shaharga albatta borish kerakligini endi u ham yaxshi tushungan edi.

– Shunday qilmasang, Haybola ham ochdan o'ladi, bildingmi, yana juda ko'p bolalar ochdan o'ladi. Tushundingmi?

– Tushundim.

Dadangga sira-sira ko'rinma. Matvey amaking nima desa shuni qil. Uyidan chiqma, mezanada, qo'ng'iroqxonasiga joy qilib beradi.

– Yana kelsam maylimi? Haybolaga non olib kelaman.

– Yo'q! Yo'q, yo'q! Sen mening gapimni qo'n-g'iroqchiga yetkazsang bas. Shunda senga men ham dada bo'laman, Haybola ham senga aka bo'ladi, mana bu turgan hamma amakilaring ham dada bo'ladi, xo'pmi?

Madumarning yana jini qo'ziy boshladni, u peshanasiga tars etib urib, og'zi ko'piklanib bir nimalar deb qichqirdi. Uni yonidagilar bosishdi.

– Yana bitta gap bor, Qizimka, – davom etdi Ochil taqachi. – Qo'ng'iroqchini xoli topib, ayt: Yarofey boboning mo'rchasiga tushar ekansiz, degin. Hov toshloq mahalladagi Yarofey cho'loq bor-ku, bilasanmi?

– Tor ko'chada.

– Ha, balli. Yarofey cho'loqning mo'rchasiga tushar ekansiz, degin. Uqdingmi? Esingdan chiq-maydimi?

— Yo‘q.

— Xo‘s, qani, nima deysan?

— Matvey amaki, Yarofey cho‘loqning mo‘rchasi-ga tushar ekansiz, deyman.

Ochil taqachi qizchani tizzasidagi o‘g‘liga qo‘sib quchoqlab, suydi.

— Barakalla, aqli Qizimka.

Haybola bilan Qizimka xayrashganda taqachi-ning ko‘zidan yosh chiqib ketdi. Yigitlar qizchani dovondan o‘tkazib qaytib kellshdi. Hamma o‘sha tomonga qarab turardi.

— Tetik bo‘linglar, birodarlar, kasallarga qaranglar, ko‘nglim sezib turibdi, do‘srlar bizni qutqazishadi, — dedi taqachi ishonch bilan.

— Inshoollo... — deyishdi qariyalar.

Yoshlar qamish o‘rgani, bolalar yorilib qonab ketgan oyoqlariga latta o‘rab, boshoqqa ketishdi, kimdir qalpoqda sizot suv tashib yumronqoziqni inidan chiqarishga urinardi, har kim o‘z ishiga kirishdi. Le-kin Madumarning atrofidagi ba‘zi odamlar hamon shang‘illashib, tahdid qllishar edi.

— Bu chayoning ertaga otliq qozoq, o‘rislarni boshlab kelsa...

— Shuncha jonning uvoliga qolasan, taqachi.

— Bizni o‘risga sotib qutulish niyatining bo‘lsa, biron otliqning qorasi ko‘rinishi bilan avval sening giriboningdan olamiz, bilib qo‘y, — dedi Madumar. Ular shunday tahdid bilan jo‘nab ketishdi-yu, Ochil taqachi yerto‘la yonidagi toshga o‘tirib, peshanasini ushlagancha yolg‘iz qoldi.

Alamzada Madumarning gaplari xalqning ishonchini susaytirib, Ochilga azob bermoqda edi. Keyin ular yana ham ko‘payishib, Ochilning oldiga kelishdi.


- Menga qara, Yarofey cho'loqning mo'rchasi-dagi – qurolmi?
- Ha, qurol, – dedi Ochil ham ochiqchasiga.
- Shaharning yer bilan tekis bo'lib ketgani yetmaganmidi? Hali ham tavbangga tayanmabsan-da? Senga o'xshaganlarning dastidan bo'ldiku bu xunrezlik!
- Hoy, Madumar, sen Jezmo'ylovning gapini qilyapsan, – dedi bir chol. Bundan Ochil biroz dalda topdi.
- Birodarlar, – dedi u og'irlik bilan, – agar sizlarda biron boshqa tadbir bo'lsa, aytimlar, men bu yo'ldan qaytay.
- Ochil to'g'ri aytadi, o'ladigan ho'kiz boltadan toymaydi.
- Qurol – hozir birdan-bir yo'limiz, – dedi Ochil.
- Shunday-ku, ammo lekin shuncha odamning taqdirini bir go'dakning qo'liga topshirding...
- Qonxo'r jallodning arzandasiga...
- Bas qil, Madumar!
- Quroling boshingni yeydi! – dedi Madumar ketayotib qo'shib qo'ydi: – Taqachini ko'zdan qochirmanglar, yigitlar! Bir kori hol bo'ladigan bo'lsa, ha!..
- Ochil yana tosh ustida yolg'iz qoldi. Kechqurun u o'g'li terib kelgan bug'doyni hafsalasizgina chaynadi-da, yana chiqib toshga o'tirdi. Odamlar uzoqdan unga qarab-qarab qo'yardilar. Birov xavotir bilan olayar, birov ikki og'iz tasalli berib ketar, «madumarchilar» bo'lsa bo'ridek yer tagidan tikilib, uni ko'zdan qochirmaslikka tirishar edilar.
- Uxla, bolam, uxla. Uxlasang, qorning ochmaydi... – deydi Ochil o'g'liga. Oriqlab musichadek

bo'lib qolgan o'g'li bordonga cho'zilib uxlaganda, g'amgin jilmayib «Haybola», deb qo'yadi shivirlab. Ko'zida sal umid uchquni yonadi. Keyin yana birdan yuragi orqaga tortib ketadi: Madumarning gapida jon borligini o'zi ham sezar, o'zining qaltis tavakkalidan qo'rqar edi. Jezmo'ylov qizini qidirishga tushgan bo'lsa kerak. Tutib, chirqiratib hamma gapni ayttirsa... Aytmasa o'ldiradi ham, uning qo'lidan keladi. Bola qo'rqb ayrib qo'ysa, qurol ketadi, o'rtoqlar halok bo'ladi, Samarqandga, Xovosga ketgan iplar uziladi, bu yerdagilar... bu yerdagilar shunday ham qirilib ketadi...

Bu dahshatli manzara har zamonda ko'z oldiga kelib, Ochilning butun vujudini karaxt qilib qo'yar edi. Ikki kun og'ziga bir don olmay, tunlari ham uxmlamay toshda o'tirdi. Yana qaysi yerto'lda kimlardir jon berdi, qandaydir voqealar bo'ldi – u qimir etmadi, go'yo asabi ham, sezgilari ham o'lgan edi. Odamlar endi unga, aqldan ozdimi deb, xavotir bilan qaray boshladilar.

Uchinchi kuni kechasi Madumar boshliq kimlardir kelib, (Ochil bu latta-puttaga o'ralgan, yara-chaqa, eti suyagiga yopishgan odamlarni tanimadi ham), birpas indamay turib, yana ketishdi, achinishyaptimi, g'azabmi – bilib bo'lmashdi. Yarim tun deganda butunlay kutilmagan tomonda o't ko'rindi. Kechasi suyak yonadi deyishardi, balki... Yo'q, uzoqda miltillagan o'tlarning bir me'yorda tebranishidan kimlardir mash'ala tutib kelayotgani ma'lum edi. Lekin kimlar? Nega cho'l tomondan?

Ochil qimirlab qoldi. Hozir yo u yoqli, yo bu yoqli bo'lishi kerak. Qo'rqb yig'lagan xotin-xalaj-



ning, sovuq nafas qilgan madumarlarning ovozini o'chirib, gulxanlarni so'ndirishga, hammani ovoz chiqarmay yotishga buyurdi. Yigitlarni yoniga chaqirib, mash'alalar kelayotgan tomonga oldinroq chiqib, qorong'ida cho'kkalab turishdi. Bularning kimligini bilib, shunga qarab harakat qilish kerak edi.

G'ovur-g'uvur gaplar eshitila boshladi, ular ko'pchilik emas edi.

– O'rislar... – dedi Madumar.

– Sallotlar emas, ko'rinish turibdi.

– O'lesi bo'lib yotgan olomonni kishi bilmas bir yoqlik qilib ketish uchun to'rtta to'pponchalik mirshab ham yetadi.

– Jim!

Mash'alalar yolqinlanib turardi, ular yaqinlashib qoldi.

– Hoy jizzaxliklar! – dedi xirillagan bir tovush ruschalab.

Ochil o'rnidan turdi.

– Hoy xaloyiq! Bormisanlar! – dedi yana haligi tovush.

Ochil ular tomon yurdi, keyin birdan yugura boshladi, boshqalar ham yetib borishdi. Kelgandalarni mash'alalar qumga suqib o'chirishdi. Boshlashib yerto'lalar yoniga kelishdi, jizzaxliklar ularni qurshab oldilar.

Bular yettita mujik edi. O'siq sochlari tel-pakday, soqollari ko'ksiga tushgan, bo'z xalta ko'yylaklari tizzadan, ikkitasi yalang oyoq, qolgalari chipta kavush kiygan. Hammasingning yelkasi-da qop, qo'llarida yonmagan tayoq.

Qoplarini yerga qo'yib, ustiga o'tirishdi. Holdan toygan edilar.

– Ochil kim? – dedi yuzini soqol bosgan, faqat sholg'omdekkor burnigina ko'rinish turgan eng keksasi. Ochil oldinga chiqdi. – Biz Balashovka xutoridanmiz. Xalq qalay?

– Ahvol og'ir. Xalqning uchdan biri... Sizlar...

– Biz tong shishmasdan xutorga qaytishlmiz kerak, mana bu sizlarga qoq non, cho'chqa yog'i, tuz, piyoz, jiyda, baliq...

Ular hech narsa demay qoplarni tashlab darhol yo'lga otlanishdi. Xalq nima bo'lganini hali ham tushunmagandek, churq etmay turardi. Ochil mujiklar ortidan yugurib ergashdi:

– Sizlarga rahmat. Lekin gapiringlar axir, kim topshirdi, bu yog'i nima boladi, hech kim hech narsa dedimi? Mening otimni qayoqdan bilasizlar?

Sholg'om burunli keksa Ochilning ro'parasida to'xtab, yuziga qaradi, bir qo'lini kiftiga qo'ydi.

– Bizga topshiriq shunday bo'ldi. Biz ham bir vaqt bu yerga surgun qilingan odamlarmiz. Xo'p, dedik. Boshqa hech narsa bilmaymiz, – dedi-da, jo'nab qoldi. Qorong'i tunda ularning qorasi tezda yo'qoldi.

Ochil yerto'lalar yoniga qaytib borsa, Madumar hammani tartibga solib, bosiqqlik bilan oziq-ovqat ulashyapti. U qandaydir o'zgarib ketgan, odamlarga yaxshi muomala qilar, bolalarni yupatar edi. Hammayoqni o'z tasarrufiga olgandek. Bosh ko'tarib qaramasa ham, Ochil undagi o'zgarishdan mamnun bo'lib, «xo'jalik ishlari»ni butunlay unga qo'yib berdi.

– Haybola! – deb chaqirishdi uzoqdan. Ochilning o'g'lining oti «Haybola» bo'lib ketgan edi. – Dadangning ulushini ham olib ket.

Dadasi toshda o'tiribdi. U reja tuzishi kerak. Endi nima bo'ladi? Bu mujiklarning ishi hoyna-hoy «qo'ng“iroqchi»ning imosi bilan bo'lgan. Demak, Qizimka yetib boribdi. Odamlar yeb-ichib sal darmon yig'ib turishsin-chi, topshiriq bo'lib qolar. Shunday tashlab qo'yishmaydi.

Ovqatlari tugagan kuni tongotarda o'n bitta otliq kazak cho'lni changitib birdaniga ufqdan chiqib qoldi. Yelkalarida miltiq, yonlarida qilich. Qiyomat-qoyim bo'lib ketdi. Qiy-chuv, dod-faryod ko'targan xalqni sal tinchitib, Ochil otliqlarga peshvoz chiqdi. Nariroqda ular bilan gaplasha boshladi. Xaloyiq o'lim kutar, jimjit, faqat shoshib kalima keltirganlarning shivirlashi eshitilar edi.

– Ko'rdinglarmi, sotdi o'risga! – deb baqirib yubordi birov. Bu yana o'sha Madumar edi. – Aytmovdimmi, musulmonlar, men sizlarga nima devdim! – dedi u g'azab aralash yig'i tovushi bilan. – Bolasini ushlanglar sotqinning, bolasini bermaymiz! – U Haybolani sersuyak yelkasidan mahkam ushiab oldingi safga tikka qilib qo'ydi, – ottirsin! Ot, jallodlar!

Lekin bular otadiganlar emas, Samarcand garnizonining bolsheviklari edi. Ularga quvg“indilar ni Xovos temiryo'lchilari ixtiyoriga yetkazish topshirilgan ekan. Ochil buni xalqqa tushuntirgach, «otliq kazaklar» olomonni Xovos tomonga haydab ketishdi. Yo'lda uchragan rus xutorlarida, ko'chmanchi chorvadorlarning o'tovlariда odamlar bularni «Ana, Jizzax qo'zg'olonchilarini Sibirga haydab ketishyapti», deb qarab qolishar edi. Bola-baqra, qari-qartang, ayniqsa, kasallarning ko'pi o'sha ko'chmanchi qozoqlar bilan, bir vaqt

Mirzacho'nga surgun qilingan rus mujiklari bilan qolib ham ketishdi. Qolganlari ikki kun deganda «konvoy» bilan kechasi Xovosga kirib bordilar. Bu yerda depo ishchilari ularning bir guruhini Farg'ona poyezdiga, bir to'dasini Toshkent poyezdiga o'tqazib, har yoqqa sochib, to'zg'itib yubordilar. Tetik yigitlarni esa depochilar uyma-uy olib ketib yashirishdi. Yarofeyning mo'rchasi ostiga ko'milgan qurol yetib keldi. Keyin Yarofey cho'loqning o'zi ham, Matvey qo'ng'iroqchi ham, Qizimka ham shu yerda paydo bo'lib qoldi.

– Hali ham ko'z oldimda turibdi ularning uchrashuvi, – dedi Ochil buva shiftga tikilib yotgancha. Uning keksa ko'zlarida uzoq o'tmishdag'i bir kichik quvonchning zaif nurlari bor edi.
 – Qizimka loladekkina qirmizi ko'ylakda, lo'ppi yuzlarini sariq sepkil bosgan. Haybola bo'lsa juldur, ozg'in. – «Haybola!» – «Qizimka!» Qich-qirgancha yugurib borib quchoqlashishdi, yana olma, pryanik. Bu qizaloq otasidan voz kechishni ham, shuncha xavfli yo'l bosib, shuncha mushkul ishlarni ham go'yo o'sha Haybolani yana bir ko'rish uchungina qilgandek edi... Qizimka o'sha Mariya Vasilyevna edi-da, tushundingmi? Haybola bo'lsa – Orif tog'ang.

Azimjon, tushunib turibman, degandek bosh irg'adi. Uning ham xayollari allaqayoqlarga ketib, Toshkent mehmonxonasining bir xonasida o'tirganligi, vaqt allaqachon yarim tunga yaqinlashgani esidan ham chiqqan ekan.

– Yo'q, ular hech qachon bir-birlariga dushman bo'lisholmaydi, bolam. Bu oshnachilikning ildizi

chuqur – dedi Ochil buva, kechqurungi gapini yana takrorlab. – Men bu yerga o'rislar kelgan yili tug'ilganman. O'risning har xilini ko'rdim. Le-kin yaxshisi bilan o'sha kezlardayoq erish-arqoq bo'lib ketganmiz, ha!..

Ular aeroportda tikka turgancha ikki sixdan kabob yeb olib, yarim soatdan keyim Nukusga uchishdi.

Bobo bilan nevara samolyotda, mashinada, otda, piyoda, paroxodda, poyezdda o'lkani eniga-bo'yiga kezib, hali ko'p gaplashdilar. Bu elning deyarli butun tarixini yelkasida ko'tarib kelgan bobo bilan begona yurtda o'sgan nevaranning bir-biriga aytadigan hangomasi ko'p. Ular gaplashib ketaverishsin, nasib qilsa, ular bilan endi Komilanikida uchrashamiz. Hozir esa, odadagicha, qissa oldidan mana buni eshitining:

RIVOYAT

Ajoyib mamlakat, Sevgi mulki!.. Hamisha bahor, hamisha oftob, banoras osmonidek bepoyon usqlari ham zangori, harir. Undan faqat gohi-go'hida yengil hovur ko'tarilib, shu'la pardasi osha iliq yomg'ir tomchilaydi-da, chamanlarning, barra o'tloqlarning xush bo'yini yer uzra taratadi.

Sevishganlarning qalblari shirin-shirin talpingani-talpingan. Ko'zlaridagi mastona ehtiros tumani osha bir-birlarini ko'radilar, xolos. Sevgi mulkining sultoniyu malikasi ham, hokimi-yu fuqarosi ham shular.

Butun bir mamlakat ikkovlari uchun juda keng emasmi dersiz? Yo'q, keng emas. Tor ham

emas. Chunki sevgi mulkini ular o'zlar uchun, o'z qurbilariga yarasha, o'zlar yaratganlar. Ular uchungina shunday go'zal, nafis, poyonsiz. Uning chegarasi yo'q.

I-ya? Chegarasiz mamlakat ham bo'ladi?

Yo'q, uning chegarasi bor albatta. Lekin qayerda? Hech qayerda. Va hamma yerda. Har qadamizingizda. Yo'lingizda, bog'ingizda, ufqlarda, qalbingizda, ishingizda, gapingizda... U shishadek nozik, bir ehtiyotsiz odim qo'yish bilan bosib olib, chilparchin qilishingiz mumkin.

Butun boshli bir mamlakatni-ya?

Ha, butun bir mamlakatni.

Shuning uchun, rivoyatda aytilishicha, Sevgi mulkingin chegara chizig'i bo'lmasa ham, posboni bor emish.

Kunlardan bir kun sho'x bir Navqiron chegaga kelib, Posbonga yo'liqibdi.

– Xo'sh, yo'l bo'ssin?

– Malikani ko'rmoqchiman, juda dilbar emish. Posbon uni kirtmabdi. Ro'parada Sevgi mulkingin chamanzor vodiylari yomg'irdan so'ng gurkirab, kamalak rangida tovlanib yotar emish...

– Axir Malikaning go'zal jamolini bizdek sho'x navqironlar tomosha qilmasa...

– Yo'q! – debdi Posbon.

– Men u dilbarga bir jahon qaynoq muhabbatimni olib keldim.

– Yo'q kirmaysan! – debdi Posbon, – Malikam muhabbatga muhtoj emas.

– Kirgizmaysizmi?

– Ota-onasi kelsa ham kirgizmayman. Posbon Navqironni kirgizmabdi.

Ammo shu zahoti chegarada bir ayol paydo bo'libdi. Bu qomati raso, yuz-ko'zida mehr to'la, mushtipar ayol ekan.

- Yo'l bo'lsin?
- Men bolalarimning oldiga, – debdi ayol.
- Yo'q, kirgizolmayman.
- Men ularning onasiman-a! Ular mening mehrimga, o'gitimga muhtoj.
- Bu mamlakatda ular faqat yolg'izlikka muhtojlar.
- Och qolishlari bor, ehtimol, yo'lga solishim kerakdir.
- Ular to'q, ular muhabbat bilan to'q.
- Men bolalarimning oldiga kiray!
- Xudosi kelsa ham kirgizmayman! – deb yuboribdi Posbon.

Shu payt chegarada Olloh taoloning o'zi paydo bo'libdi.

- Yo'l bo'lsin? – deb so'rabdi Posbon.
- Menden unday deb so'ramaydilar, men Xudoman, – debdi oppoq soqolli nuroniy chol qiyofasidagi parvardigori olam.
- Iloji yo'q, – debdi Posbon.
- I-ya, – debdi xudo, – axir seni ham, ularni ham, bu Sevgi mulkini ham men yaratganman, meni kiritmaslikka kimning haddi sig'ar ekan?
- Kirgizmayman, – debdi Posbon.
- Axir ular mening marhamatimga, rizq-ne'matimga muhtoj, balki ular uchun Sevgi mulki nokomildir, mening amr-u irodam...
- Men posbonman, kirgizmayman, – debdi Posbon.

Xudoni ham kiritmabdi.

Xudo ham iziga qaytibdi.

Posbon o'zidan mammun bo'lib, cheksiz shaffof osmon-u osoyishta chamanlarga mahliyo ekan. Shu osuda bir damda daf'atan qattiq portlash yuz berib, Sevgi mulki chil-chil bo'lib ketibdi. Na sevgi-yu, na sevishganlar, na tiniq osmon-u va na chamanlar... Faqat tutun buruqsab yotganmish.

Buni chegaradan darg'azab bo'lib ketgan xudo qildi deb o'ylarsiz?

Yo'q. Gap shundaki, sevishganlar och qoldi, deb o'ylagan rahmdil bir chumoli bug'doy donasini ortmoqlab, chegaradan yashirincha o'tgan ekan.

Ichkariga bir qadam qo'yishi bilan...

QISSA

*«Buni faqat ikki kishi kashf etadi.
Uchinchisi, kim bo'lsa ham, oshiqcha...»*

(Qayerdanligi yodimda yo'q.)

Komilalarnikiga ular kechga yaqin kirib boshirdi. Katta hovlida hech kim ko'rinxasdi. Ochil buva chevaralariga olgan sovg'alar to'la xurjunni yelkasidan tushirib, yerga qo'ydi-da, salqin darvozaxonada turib hovli ichkarisiga ko'z soldi. Hovlini o'rab olgan paxsa devor baland, pishiq, devor bo'ylab shildirab oqqan ariq yoqasida tik qomatli qator yosh teraklar oqshom shabadasida dam oqarib, dam qoramtil rangga kirib, shitirlab turibdi. Hovli etagigacha olma, o'rik, olcha, shaftoli. Bo'sh joyning bir qarichini ham qoldirmay pomidor, piyoz, kartoshka, kashnich ekib tash-

lanibdi, jo'yaklar tekis sug'orilgan, namiqib turibdi. Uyning yonboshida sim to'r bilan to'silgan kattagina tovuq katagi, undan narida o'tinxona, molxona. Katta ayvon shiftiga qalampir shodalar, makkajo'xori so'talari osilgan.

Ochil buva nevara kuyovini eslab miyig'ida kulib qo'ydi. Sattorni u Komila shu hovliga kelin bo'lgan yillari ko'rgan, bosh ko'tarib odamning yuziga qaramaydigan uyatchangina yigit ko'rинган edi. Pishiqqina ekan. Hovlisini qara, meva deysanmi, sabzavotmi, rezavormi, hammasi muhayyo! Supurgisigacha g'ovlab o'sib yotibdi.

«Ammo biron tup gul ekmagan ekan, shunisi chakki bo'libdi», – deb o'ylab qo'ydi Ochil buva. Bu gap shunchaki xayoliga keldi-yu, zumdan keyin, shu o'ydanmi, bir narsani sezibmi, ko'ngliga g'ashlik cho'kdi.

– Hov, kim bor! Uchqun, To'lqin! – deb evaralarini chaqirdi Ochil buva ayvonga chiqib. U hali ularni ko'rmagan, bultur Komila yuborgan suratlariga qarabgina bilar edi. Chopqillab chiqib qolishsa, albatta taniydi-ku tirmizaklarni...

Ichkaridagi qaysi bir xonadan kichkina Uchqunni yetaklagancha lapanglab Anzirat chiqdi. Sattorning onasi. U yosh beva qolib, hali ham husnini yo'qotmagan, dakanasini dol qo'ygan durkun, xomsemizroq xotin edi. Mehmonlarni ko'rib etagini lippasidan tushirdi-da, cho'ltoq supurgisini qo'lidan tashlamadi, beparvo qarab turaverdi.

– Omonmisan, Anzirat, tanimadingmi?

Xotin churq etmadi.

Bu sovuqlikni Azimjon ham payqadi, u xurjuni ayvonga qo'yishni ham, qo'ymaslikni ham bil-

mas, garangsigan edi. Ochil buva desa, ko'chadagilar, tumandagilar, aeroportdagilar, Markaz-qo'mdagilar, butun el-yurt taniydi-yu, qudasi tanimasa-ya!

– Nega tanimay, tanidim.

Ochil buva «qudamizning bo'lgani shu ekan» degan xayol bilan, qulochini yozib evarasi tomon yurdi, uning oldiga borib cho'kkaladi.

Uchqun yalang oyoq, beqasam to'ncha kiyib, ko'kragidan qiyiqcha bog'lagan, olti yoshiardagi shirin bola edi. Ochil buva uning qansharmadi, iyagidami, yuzining qayeridadir Komilaga o'xshashligini topdi.

– Sen-chi, sen tanidingmi opoq buvangni? Qani-qani, beri kel-chi. Uchqunmisan sen? Ho-o, barakalla, katta yigit bo'lib qolibsan-ku. Qani, tog'asi, xurjunni oching-chi, Uchqunboyga nimalar bor ekan, – Ochil buva evarasini qo'ltig'idan olib, dast ko'tarmoqchi edi, Anzirat uni qiyiq-chasidan ushlab o'ziga tortdi.

– Qo'ya qoling, aylanay, o'yinchoqlari bor...

– Nima gap, quda? – Ochil buva o'rnidan turib, Anziratga xavotirlik bilan qaradi.

– Quda demang! Qo'ying, bolada haqingiz yo'q. Bor, do'mboqqinam, bor qoqindiq, bor o'yiningni o'yna, – deb Anzirat Uchqunni ichkariga kirgizib yubordi. Bola uyga kirdi-yu, yangi aliflangan og'ir eshikni qiya oolib, tirqishiga burnini suqqanicha mehmonlardan ko'zini uzmay turaverdi.

– Mundoq tushuntirgin axir, Komila qani? Bir gap bo'ldimi?

– Komilangizning nima bo'lgamimi bilmayman-u, bizga hech gap bo'lgani yo'q, xudoga shukur, ro'zg'orimiz but, boyagi-boyagidaymiz.

– Yotig'i bilan gapisang-chi, kelining qani?

– Unday kelinim yo'q mening.

– Komila...

– Komila yo'q... Yo'q, dedim-ku axir, ketgan, mana ikki bolasini tirik yetim qilib tashlab ketgan, ha! – Anzirat borgan sari asabiy bidillab, oxirida baqirib yig'lab yubordi: – Boshqa er qilib ketdi, eskidan jazmani bor ekan, yer yutkur maqtagan nevarangizning, o'sha bilan yetaklashib ketdi, bolaginmamning yuzini yerga qaratib, behayo! – Anzirat qo'lidagi supurgini burchakdagi sandiq orqasiga uloqtirdi.

Ochil buva bo'shashib ketdi, u yoq bu yoqqa o'tirgani joy izladi. Azimjonning ham xurjuni yelkasidan sirg'alib tushgan edi, u bobosini suyadi.

– Yig'i-sig'ini qo'yib, avval mundoq, kelinglar, degin, axir, uzoq yo'l yurib kelganmiz, mana bu Komilaning ammavachchasi bo'ladi, chet eldan kelgan, joy qil, ko'r pacha sol, nafasni rostlab bafurja gaplashaylik. Ko'chaga quvib chiqarmassan axir, kech kirib qoldi... – Ochil buva sandiqqa o'tirdi. Anzirat hamon javrar edi:

– Komilangizni gapirmang menga, ha, hali bu ikkala gulday bolaning uvoli tutadi uni, qarab turing. Sattor qo'yday yuvosh-u, qaytib borsam yana bag'riga olaveradi deb o'ylasa kerak. Eshlimgimga qadam qo'yib ko'rsin-chi buzuq!

– Sattor qani? – dedi so'nggi so'zdan nafsi olin-gan Ochil buva.

– Sattorgmam binoyiday ishlab yuribdi, marta-basi, obro'si joyida, qirchillama yigitga nima ko'p – qiz ko'p, hali shunday bir qizni olib berayki, xudo xohlasa! Ha!..

Bu payt mактабдан kelган To'lqin buvisining keyingi gapidan bo'зарib ketdi. U bunday gaplarga uncha-muncha tushunadigan, o'n-o'n bir yosh-lardagi bola edi. Yana xijolatga qolmaslik uchun Ochil buva bu evarasi bilan yengilgina so'rashib qo'ya qoldi. Buvisining gapini eshitib titrab ket-ganini ko'rib achindi. Bunday gaplar juda ko'p bo'lsa kerak bu uyda. Bola bechoralarga qiyin. Ularning tarbiyasi, asabi, ruhiyat... Nima bo'ldi ekan-a bu Komilaga? Ochil buvaning eng yaxshi ko'rgan nevarasi. Kimsan Olimtoy darg'aning qizi, Amudaryo flotining atoqli kapitani! Bu ni-masi? Nima bo'lyapti o'zi?

– Qayerdan topsa bo'ladi uni... – so'radi Ochil buva. Komilaning ismi har safar qudasining asabiga tegayotganini sezgan edi, shuning uchun beixtiyor ovozini pasaytirdi: – Komilani... – Bu nom hozir o'ziga ham xunuk eshitildi, uni bu uyda tilga olish haromdek sezilardi.

– Jazmanidan borib so'rang!

– U qayerda ekan? Kim?

– Ha, u kishi mening Sattorimga o'xshagan jo'n aravakash emas, albatta. U kishi mulla, aka-dimning piliyanida ishlab mo'may pul toparmish. Puliga uchgan u o'lgir. Xudoga shukur, sil emish, ha. Tavbasiga tayanib qaytib kelib, bolalarim deb ko'rsin-chi, yaqiniga yo'latarmikanman?

Ochil buva boshini quyi solgancha, bo'shashib o'tirar, Komilani o'ylar edi. U har qanday og'ir ah-volda ham o'zini bunchalik yo'qotmagandi, hozir bo'lsa miyasi karaxt, tili lol bo'lib qoldi. Shuncha yo'ldan sevimli nevaram, jajji evaralarimni ko'ra-man, degan umid bilan kelgan, ularni Azimjonga

ko'rsatmoqchi edi. Endi bu isnodga qanday chidaydi. Ochil buvaning urug'ida bunaqa gap sira bo'lмаган. Qanday sharmandalik!

Anzirat qaysi uylardadir yurib hamon shang'il-lar, kimlarnidir qarg'ar, Komilani har xil sifatlar bilan tilga olgamida Ochil buvaning birdan buk-chaygan yelkasi sapchib titrardi. Evaralari ham allaqayerda, burchak-burchakka pusishdi...

Komila bo'lsa bu mahal Chorjo'y portida reyd-dagi «Orol» teploxdodining kapitan ko'prikchasida turib telegramma o'qir edi: – «Yoqlash haftanining oxiriga belgilandi, o'paman Matniyoz».

Komila o'tkir ko'zlarini chaqnatib atrofga nazar soldi, paroxodlarning tartibsiz chinqiriqlari, kater motorlarining guvillashi, dispatcherlarning karnayda asabiy baqirishlari, portdagi kranlarning g'irchillashi orasida uning aqli tez ishiar, chora izlar, reja tuzar edi.

Xo'sh... Haftanining oxiri. Hozir atrofga o'n kundan beri joy kutib reydda turgan og'ir yukli kemalar tirband bo'lib yotibdi. Qирг'oq devorida bir qarich bo'sh joy yo'q. Kutsa, «Orol»ga bir haftada ham navbat kelmaydi. Undagi yukni bo'shatib, yangi yuk olish uchun ham kamida bir kecha-yu kunduz vaqt kerak.

Yo'q, bu ahvolda bo'lmaydi. Komila nima qilsa ham, barjani botirib sudga tushsa ham, pi-yoda yurib bo'lsa ham chorshanba kuni Nukusga yetib borishi kerak. Bu Matniyoz uchun ham, uning uchun ham hayot-mamot masalasi. Matniyozning yetti yillik azobli mehnati, bundan keyingi hayoti, sog'lig'i, respublika uchun muhim bir masala, Orolning taqdiri, qolaversa, Komila-

ning shuncha azob, iztirob va qurbonlar evaziga kelgan o‘tli-cho‘g‘li muhabbatি o‘rtaga qo‘yilgan. Chorshanba kuni u yerda respublikadan, deltadagi sovxozlardan, Toshkentdan ko‘p mutaxassislar, orolshunoslар, xo‘jalik xodimlari, iqtisodchilar, geograflar, geolog, gidrologlar, Matniyozning do‘s-t-dushmanlari, shu jumladan, albatta professor Shuman ham yetib keladi. Uni yeb tashlashlari mumkin. Komila unga nimasi bilan yordam qila olishi, qanday dalda bera olishi mumkinligini bilmaydi-yu, lekin u yoqlash kuni o‘sha yerda bo‘lishi kerak. Matniyoz o‘zini o‘tga uryapti. Komila albatta yetib borishi kerak.

Teploxdolar keng yoyiq daryo yuzini yangratib chinqirishar, barjalar moyli suvda tinmay chay-qalar, qirg‘oqda jonga tekkan «Vira!» «Mayna!» de gan xitoblar quloqni qomatga keltirar edi. Komila qiyqirib o‘zini to‘lqinga urgan oqcharloqlarning dadil fidoyiliklarini toniosha qilib turdi-da, butun jamoani palubaga to‘pladi. Jamoa, botsman Qayipbergen akani hisobga olmaganda, hammasi norg‘ul yoshilardan iborat edi. Ular o‘zlarining tutgan yeridan kesadigan, ko‘z tikkan joyini yondiradigan dovyurak kapitanlarini yaxshi ko‘rar, uning uchun o‘tga-suvga kirishga tayyor edilar. Faqat cholgina (jamoada Qayipbergen akani «Chol» deyishardi) Komilaning «erkakchalish qiliqlari»ni yoqtirmaydi, yigit bo‘lsa kallakesar bo‘ldi, deb yuradi. Komila ham jamoasi uchun har qanday qaltis ishga tayyor. Sehrgar Jayxunning ko‘pni ko‘rgan keksa kapitanlarini qoyil qilish qiyin, lekin Komilaning oqimga qarshi o‘rlashdagi dadil manyovrlari o‘shalar orasida ham afsona

bo'lib ketgan. Jamoa yoshlari uni faqat shuning uchungina yaxshi ko'radi deb bo'lmaydi, albatta. «Orol» muttasil rentabel kema, uning machtasi-da sharaf tamg'asi – qizil vimpel to'rt yildan beri hilpiraydi. Bunday kemaning yigitlari har qanday port shahrining xiyobon-u restoranlarida paydo bo'lsa – qizlar uchun unutilmas voqeа. Pul ko'p, kiyimlar bashang, tugmalar tilladay yiltillagan...

– Yo'q, ming qilsang ham, bizning kapitan manaday yigit! Olimtoy darg'aning qomi bor unda!
– deyishadi ular. U nimaiki buyursa, hammasi tayyor.

Bugun ham kapitanning bir imosi yeta qoldi. Orqada turgan «Orol» bandargohdan bo'sh joy topib, aylanma, qaltis, tor yo'llar bilan, tiqilinchda surilib-sirg'alib o'tib, tasodifan bo'sh turgan bitta-yu bitta knextga g'ippa tirkaldi. Komila asabiylashib kalavasini yo'qotgan port boshliqlarini telefonda «ezg'ilab», gangitib, epaqaga keltirguncha matroslar bandargohdagi qabulchi, hisobotchi qizlarni xushomad bilan qo'lga olib, ortishga qulayroq, sohilga yaqinroq yuklardan azmoyish olib, kranchi do'stlari bilan kelishib qo'ydilar.

Komila boshliqlarning roziligini «yulib» olishi bilan, yigitlar yukchilarni ham kutmasdan tryumga otildilar, kranlar temir izdan g'ildirab kelib, kechasi bilan «Orol»ga xizmat qllganiga boshqa kapitanlar garang edi. Qarab turishdi-yu, keyin ular buni noilojlikdan o'zlarining yigitona muruvvatlariga yo'yishdi.

– Mayli, izzati, qiz bolaning oldiga tushgan nomard, – deb sipolik bilan mo'ylovlarini silab qo'yishadi.

Nima bo'lsa ham, ikkinchi kuni tong-la «Orol» safarga tayyor edi. Tuni bilan mijja qoqmasa ham, ko'zlar yonib rubkada g'oz turgan Komila tong qorong'isida ilon izi yo'llardan ehtiyot bilan o'rmalatib, chiroqsiz kemani reydga olib chiqdi, faqat erkin suv yuziga chiqqandagina, hamma o'zining oyoqdan yiqilguday charchaganini pay-qadi. Shunda ham faqat cholgina yonidagilarga g'o'ng'illab qo'ydi:

– Bunaqa shoshishdan jahannamga yo'liqmasak-da. Bu-ku kuyov bolaning qo'yniga shosh-yapti, bizchi, bizga nima naf bu qaltis ishlardan?

Unga hech kim javob bermadi. Ular Komilaga ishonishardi. E'tiqod shunday ediki, u nima qilsa ham – to'g'ri, hatto oilasini tashlab ketganini, boshqa erga tekkanini bilishganda ham, jamoada uni choldan boshqa hech kim aybsitmadi. Shunday qilibdimi – demak, bir gap bor, bilib qiladi.

Bo'tana Amu keng yoyilib, to'lqinsiz, lekin sirli bir ulug'vorlik, haybat bilan, yuzadan qaragan-da juda sekin, ammo kuchli, teran oqim bilan siljib borardi. Quyosh tikkaga ko'tarilganda ikki qirg'oqda oltinlanib sarg'aya boshiagan chakalaklar, kuz shamolini pisand qilmaydigan quyuq, qoramtil yashil qamish o'rmonlari, tinmay nurab yotgan qumloq jarliklar suzib o'ta boshladi. Amu go'zal, ammo sehrgar, jodugar daryo. O'zani bo'sh, qirg'oqlari tayinsiz, kutilmagan joyda farvaterda qum tepalar, balchiq orollari, tosh to'g'onlar paydo bo'ladi. Loyqa daryo tubidan ularni pay-qab, o'z vaqtida chap berib o'tish uchun kapitan to'lqinlarning aroyishini, mavjlarning aldamchi jimjimalarini, oqimlarning teran yo'llari, asov

xulqi va hiylakor tovlanishlarini ko'z bilan ko'rib-gina emas, ichki bir his bilan sezib, tez va dadil qarorga kela olishl kerak. Aks holda, kema ham, yuk ham, ekipaj ham har lahza xavf ostida.

Lekin hozir xatarli bahor emas, Amu kun sayin o'zini dam chapga, dam o'ngga tashlab, be-ma'ni to'lq'onmaydi, hozir kuz, qirg'oqlar o'sha-o'sha. Biroq kuzning ham o'z makri, o'z qiliqlari bor. Kuzda daryo daf'atan sayoz tortib, o'zanning toshloq joylarida o'tkir qoyalarni yalang'ochiab ketadi. Shulardan birontasi ko'ndalang turib qolsa o'ziga to'qnashmassa ham, ikki tomonidagi kuchli oqimni yorib o'tish mahol bo'ladi.

Ammo hozir rubkada oqil va mohir kapitan Komila turibdi, shuning uchun karvon odat-dagidan tez ketayotgan bo'lsa ham, ekipaj xotir-jam. Uning bo'yдор xipcha qomatiga qoramtil havo rang forma yopishib tushgan, oq yoqa, erkakcha galstuk, baland ko'ksida durbin osig'liq; zarrin kokardali furajkasi tagidan kalta qirqilgan qora sochlari daryo shamolida o'ynaydi. Sal pu-chuqligi, iyagi oldinroq turtib chiqqanligi demasa, u ancha ko'hlik, chehrasi o'tli, qoracha juvon. Lekin u jamoadagi yigitlarni ko'rki bilan emas, irodasi bilan asir etgan.

- Soldor to'lqin!
- Qiya oqim!
- Diqqat, taqir! – deb shturmanni keskin-keskin ogohiantirganida, lotsmandan tortib orqadagi barjachilargacha bu qisqa so'zlardan katta ma'no uqib, jadal harakatga tushishardi.

Faqat chol hamon chaynalib, o'zidan-o'zi to'n-g'illaydi:

– Jazmanimga yetaman deb, bizning boshimizga yetmasa-da bu mov mushuk! Oqimga qarab ketyapmiz-a! Tag‘in yuk bilan! Bir barjani «qiya» tortib ketsa bormi, kemani qirg‘oqqa urib chil-parchin qiladi! Bizning ishimizda-chi, bolalar, kech qolish yaxshi emas, ammo shoshilish – as-falasofilin degan gap, ha.

Lekin karvon yaxshi ketyapti. Birinchi kechada biroz mizg‘ib olgan Komila tongda yana ko‘pri-chani o‘zi egalladi. Kuz quyoshining zaif taftini daryo shabadasi yalab ketar, barja etagida baliq sho‘rva qaynatayotgan matroslarning kichkina gulxanlari dilni o‘ziga tortar edi, u yerda ajab sarguzashtlar, sho‘x hangomalar bir-biriga ulanib ketadi odatda. Komila ilgari bunday gurunglar-ga qulqoq tutishni yaxshi ko‘rardi. Hozir bo‘lsa u o‘zi bilan o‘zi ovora, ko‘zlarini qisib oldinga tikiladi, karvонни shoshiradi, Matniyozga intiladi, uni ko‘z oldiga keltiradi, u bilan gaplashadi.

Matniyoz Orolda urushning oxirgi yili, o‘sha og‘ir qishning etaklarida paydo bo‘ldi. U paytda endi yigirmaga kirgan, hammaga taniqli, pu-chuq, shaddod qiz Komila kombinatning baliqchi katerida ishlardi. Urush davrida dengiz bo‘yi pos-yolkalarida odam kamayib, kombinatning ham puturi ketgan, motor xo‘jaligi izdan chiqib, ov asbobiari eskib, titilib, ovga chiqish faqat tinch, ayoz kunlarigina bo‘lar edi.

Qish chiqar oldidan Orol ancha quturib ola-di. Deyarli har haftada allaqayoqlardan izg‘irin, qora bulut ko‘tarilib, bo‘ron turadi-da, hech kim uydan chiqmaydigan, zerikarli, namchil, xira kunlar – dovul kunlari boshlanadi. Bu yerliklar dovulning boshlanishini bir kun oldin bilishadi.

Shunday namchil xira ertalardan birida Komi-la kapitanlar baragidan chiqayotib nariroqda bir begona odamni ko'rib qoldi. U eski bandar-gohning chirib cho'kib ketgan sepoysalariga, sasigan baliq ustida qiy-chuv solib talashayotgan chorloq galalariga qarab, shamolda xayol surar, harbiy kiyimi ustidan yarashmagan qizil sharfini tomog'iga ehtiyot bilan o'rav, toqatsizlanar edi.

Bu yerda yangi odamning paydo bo'lishl siyrak voqeа bo'lganidanmi, Komilaning sho'xligi tutib, askarga bir tegishmoqchi bo'ldi chog'i, xullas, nimadir uni o'sha tomonga tortdi.

– Malikaning qizil yelkanini kutyapsizmi? – deb hazillashdi Komila.

Yigit ma'yus kului. Uning yuzi oriq, rangsiz, burni qirra, chuqur botgan katta ko'zlarining oqi allaqanday moviy edi.

– Nahotki ertakdagи shahzoda menday jo'n bo'lsa?

– Siz bu yerlik emassiz.

– Topdingiz, Xorazmdan keldim. Biron ish topilsa kirmoqchiman.

Komila qiyg'och qoshini uchirib yelka qisdi. Etikchasining uchlariq qarab:

– Xorazmda ish qurib ketgan ekanmi? – dedi.

Keyin gap to'xtab qoldi. Yigit negadir gapirolmadi,

«Uyatchan ekan, shoshirib qo'ydim» deb o'yladi Komila.

– Lekin yaxshi qillbsiz, askarbop ishlar hozir Orolda ham juda ko'p...

Dengizdan «yulg'ich» izg'irin kelib, gapning bu yog'ini uchirib ketdi, yigit shamolga orqa o'girdi-da, bir qo'li bilan ko'kragini ushlab, bir qo'lliga

ro'molcha olib og'zini to'sdi. Nafasi bo'g'ilgandek birdan yuzi bo'zara boshladi, ko'zlaridan tirqi-rab yosh chiqdi. U o'pkasi uzilib ketgudek bo'lib yo'talarkan, oriq yelkasi uchib, ko'ksi temirchingning eski damidek xirillar edi. Bo'ynidagi ko'k tomirlari o'ynoqilab ketdi. Yigit bir-ikki daqqa shunday azob chekkach, ro'molchasini cho'nta-giga yashirib, qizga gunohkorona qaradi.

- Aybga buyurmaysiz... vaqt-bevaqt shunday..
- Urushda yaralanib...
- Ha, o'q parchasi o'pkaga tegib o'tdi.

U sharfining uchi bilan sovuq ter qalqqan peshanasini artdi-da, indamay qoldi. «Bu notanish qiz mening oldimga nega keldi-yu, men unga ahvolimni nega gapiryapman, shartmidi? – deb o'yladi yigit. – Sir bermay, ha, shundoq aylanib yuribman, deb ketaversam bo'lmasmidi?» Shuni o'yladi-yu, o'zi boshlanib ketgan oshkora gapni davom ettirdi:

– Doktorlar baliq moyi buyurishgan, ancha-muncha ichish kerak ekan, – dedi yigit. U yo'tal azobidan qutulgandan keyin, yuziga qizillik kirib qandaydir chiroyli bo'lib ketgan edi, qarashlari mayin, aqli, ochiq. Komila bu o'zgarishga hayron bo'lib qarab qoldi.

– Shuncha baliq moyi qayoqda hozir!.. Toshkentda ham topilmaydi. Ba'zi tanishiarim «Orolga jo'na, o'sha yerda topiladi», deb maslahat berishdi. Shuning uchun kelganman ochig'ini aytsam. Lekin biron ish topish kerak, ishlamaganga kim beradi...

– Yo'q, yo'q, siz hozircha ishlamasllgingiz kerak, – dedi birdan Komilla nimadandir qo'rqib. Le-

kin o'zi biron maslahat berishdan ojiz edi. To'g'ri, kombinatda kichkinagina bir qo'l bola usuldag'i moyjuvoz bor. Salogreyka deyiladi. Lekin uning mahsuloti kimlarga beriladi, Komila buni bilmasdi.

– Bu yerda ishlaydigan tanish-bilishingiz yo'qmi?

– Bor edi-da, o'shani orqa qilib keluvdim... – dedi yigit. Uning tovushi pasayib, xirillabroq chiqdi. Komila «Yana yo'tali tutadimi», deb qo'rqib ketdi, yana tutsa unga qarab turolmasligini bilardi, bunday vaqtida birovni tashlab ketish esa odamgarchlikdan emas, yordam ko'rsatib ham bo'lmaydi, biron so'z bilan tasalli beraman desang, kim biladi, og'ir botadimi, notanish odamning ko'nglini bilib bo'lmasa.

– Uni topolmadingizmi?

– Urushda halok bo'libdi. Asanjo'lov degan. Kombinatda hisobchi edi urushdan oldin.

– Hozir qayerda to'xtadingiz?

– O'sha og'aynimning kampiri bor, shu yerda, Mo'ynoqda. O'sha yerda tunab yuribman. Hozircha...

Komila sal yengil tortdi. Agar yotadigan joyi ham bo'lmasa, nima qilardi? Tashlab ketib bo'ladi? Qayerga ham joylardi? Kelib gap qotgamiga ham pushaymon.

U yigit yonidan og'ir, bemaza bir kayfiyatda ketdi. Mo'ynoq ko'chalari tizzagacha qum, u oyog'ini zo'rga sudrab, sho'longa bordi, baliq tuzlovchi qizlar yoniga kirib birpas hangomalashdi, yana qum kechib uyga qaytdi. Lekin ko'ngli yozilmas edi. Ishsizlik. Yolg'izlik. (U qizlardan birgina bo'lgani uchun, kapitanlar baraglda emas, Mo'ynoqning tor ko'chalaridan birida, bir cholnikida ijara da turardi). Tezroq dovul tugab, havo-

lar ochilib ketsa-yu, dengizga jo'nay qolishsa, bu g'ashliklar unutilar edi. U yerda cheksiz kengliklar, o'ylar ham, hislar ham cheksizdek. Dengizning o'z qaltis yo'llari, qandaydir bebosh dadilik, tavakkalchilik talab qiladigan, ham majburiy, ham ixtiyoriy zahmatlari bor. U erkin va shiddatli hayat urush majaqlagan ovul, shahar tirikchiligidagi dilxiraliklardan odamni uzoqlashtiradi, vaqtincha bo'lsa ham alahsitadi, ovuntiradi.

Mana o'sha g'ashliklardan biri hozir Komilani ta'qib qilyapti. O'sha notanish askar, uning bo'ynidagi ko'k tomirlari, oriq yelkasining azobli titrog'i, shunda ham mardona askarlik belgilarni yo'qotmagan ko'hlik yuzi, ma'yus, samimiyo boquvchi qorachiqlari ko'z o'ngidan ketmayapti.

U o'sha xasta, ojiz musofir odamni o'ylayverdi. Dovul tugadi ham. Endigi dengiz safarları ham ilgarigidek bo'lmasdi. Komilaning uyqusi qochdi. Bir kuni ikki kechalik ovdan qaytgach, tog'orada sovun ko'pirtirib sochini yuvayotgan edi, xayoliga bir fikr keldi. Bu fikr ilgariroq kelmaganiga hayron bo'lib, o'zini, esi past, deb koyidi-da, kiyinib kombinatga yugurdi. To'g'ri moyjuvozga kirib bordi. U yerda Ajiniyoz degan yog'och oyoqli bir chol ishlardi. Eski-tuskidan yamab yasalgan par qozonni ishga solib, baliq jigaridan moy qaynatadigan bu qo'l bola juvozni amal-taqal qilib o'sha yurgizgan. O'zi bazar, o'zi tuzatar, o'zi yurgizar, mahsulotga ham o'zi xo'jayin, lekin o'lguday qo'pol, johil, berahm odam bo'lib, qo'li gulligi tufayligina ishiab turar edi.

– Ajiniyoz tog'a, menga... xo'-o'-sh... ikki shisha moy kerak! – dedi Komila eshikdan bo'ronday otilib kirib.



– Nima qilasan?

– Ee... haligi... akamning bolasi, haligi... sil bo'lib qopti. Kichkina bola. Mana mundoqqina, – Komila, ishonarliroq bo'ladi, deb o'yladi shekilli, bolani ham tizza bo'yigina qilib ko'rsatdi.

– Direktordan ruxsat olib kel.

Ajiniyozga yalinish foydasiz edi, Komila kombinat direktoriga yugurdi. Direktor, oltiqduqlik rus, Zosim Prokofyevich, bu yerda juda eski, vijdoni sofligi, to'g'riso'zligi bilan tanilgan keksa odam, hamma bilan qoraqalpoqcha gaplashar edi.

– Senga bermay kimga beraman, shag'alay, yoz arizangni, – dedi u.

Komilani yaxshi ko'rар, epchilligini oqcharloqqa o'xshatib, qoraqalpoqcha «Shag'alay» deb erkalar edi.

Lekin Zosim Prokofyevich rezolyutsiyani «Bir shisha!» deb qo'ydi. Komila ham indamadi, «Hozircha mayli, kerak bo'lsa yana olaman», deb o'yladi. U kasalga qancha moy kerakligini, uni stakanlab ichadimi, tomizibmi, bilmasdi. Xursand bo'lgancha, shishani qo'yniga solib, Asanjo'lovning kampirinikiga ketdi.

Avval yo'tal eshitaman deb, xavotir olibroq ya-qinlashgan edi, yo'q, yigit qamish qo'rada hansirab taxta randalayotgan ekan. Tuxtalar, payraha tasmalari orasida ochiq-sochiq kitoblari yotibdi, «Orol geografiyasi», «Kapital», «Qorabo'g'oz...»

Yigitning yuzlariga qizil yugurib, shimargan yenglarini tushirib, bosh egib salomlashdi.

– Bekorchilikda kampirning tomini yopib beray deb... – dedi u negadir o'zini oqlashga urin-gandek. Uning nafas olishi uzoqdan eshitilardi.

– Mana! – dedi Komila qo'ynida isigan shishani chiqarib. Yigit ikki qo'lini cho'zib unga intildi, shishani olib, uning kahrabo rangiga suqlangandek yoruqqa solib qaradi. Komila uning g'amgin ko'zlari-da quyoshli kundagi teran dengiz ko'rkini ko'rdi.

– Siz... siz ovora bo'libsiz, men buning uchun nima qilishim, nima berishim mumkin sizga... – dedi yigit, keyin o'rinsiz gaplar aytayotganini pay-qab, qisqagina: – Rahmat! – dedi.

– Voy, nima deyapsiz, biz baliqchilarga bu narsa dehqonchilik-ku.

– Qayerdan oldingiz?

– Ombordan! – dedi Komila kerilibroq, «bizga bu cho't emas» degan ma'noda.

– Ana, ishlaganlarga beradi-da, men ham al-batta ishga kirib olishim kerak...

– Yo'q, siz davolaning, – dedi Komila beparvoroq bo'lishga urinib. Lekin o'zi bilardiki, bu yigit ishlay olmaydi, uni ishga olish ham mumkin bo'lmasa kerak, moy esa topiladi.

Komila ketmoqchi edi, yigit to'xtatdi.

– Shuncha yaxshilik qildingiz, otingizni ham bilmayman, kimga minnatdorchilik bildiraman...

– Mening otim Komila.

– Meniki – Matniyoz.

– Matniyoz... Buni qanday ichasiz, qanchaga yetadi? – dedi Komila.

– O... bu anchaga yetadi. Katta rahmat sizga. Men uni uch kunga yetkazaman. Rahmat.

«Uch kunga»? Bu yog'i mima bo'ladi? Yog'och oyoq Ajiniyozning patak soqoli, o'taketgan pok vijdonli Zosim Prokofyevichning «Shag'alay-Shag'alay» deb turib so'raganining yarmini ber-

gani ko'z oldiga keldi. Dehqonchilik emish! Maqtanib ninia qilardim-a?

Lekin bu xavotirlar Komilaning esidan tez chiqdi.

U askarning quyoshda kulgan chuqur dengiz quvonchini eslatuvchi ko'zlarini o'ylardi. Matniyo... Komila u bilan hamon gaplasholGANI yo'q. Direktorga yalinib yana bir shisha moy olib borganida MatniyoZNING yo'tali tutib, yana gaplashomadi. Tarashalar orasida yotgan kitoblar haqida ham gaplashsa bo'lardi, o'zi haqida ham. O'yi, hayollari, maqsadi bordir...

Bir kuni dengizda uni vahima bosdi: ketib qolsa-chi? Unga ish berishmas... Keyingi borganidan uch kun ham o'tib ketdi. Moyning foydasi bo'lmayotganmikin? Yo'q, doktorlar bilib aytgandir. Komila ham qaydadir eshitgan, baliq moyi davo deb. Qancha davolanishi kerak ekan? Bir oymi, besh yilmi? Komila o'ylab qarasa, ko'p narsadan bexabar ekan. O'zining nodonligidan koyinib, dengizdan qaytgan-da albatta kutubxonaga borish, ensiklopediyalarni bir titishni niyat qilib qo'ydi.

Katerning dumida baliqchi qoraqalpoq bolalar do'mbira chalib, Ayabbergen yo'lida nimadir kuylashar, Komilaning qulog'iga kirmas edi. Qaytgisi kela boshladi. Keyingi vaqtida reja bilan ham ishi yo'q. «Nima bo'ldi o'zi menga?» – derdi u ba'zan. «Ketsa ketibdi-da, begona bir odam bo'lsa. Ha, nima bo'pti? Xasta, musofir. Odamgarchilik yuzasidan qarashsam qarashibman-da!» – derdi yana o'z ahvolini o'ziga tushuntirib.

Ovdan qaytgan kuniyoq yana direktorga kirdi. Zosim Prokofyevich arizani olib stolga qo'ydi-yu, qizga otalarcha ochiqlik bilan qaradi:

– Shag‘alay, men seni yaxshi ko‘raman, bilsan, lekin...

– Ajiniyoz boboni avrasam-chi, Zosim Prokofyevich?

– Unda uming ishi prokurorga ketadi.

Zosim Prokofyevich...

– Sen ochig‘ini ayt-chi, kimga?

Komila ochlg‘ini aytdi. Hammasini gapirib berdi. Direktorni yig‘latgudek qilib gapirdi. Zosim Prokofyevich o‘rnida boshqa birov bo‘lsa erib ketardi. Lekin Zosim Prokofyevich yumshamadi.

– Menga qara, Shag‘alay, Ajiniyozning bu te-shik qozoniga ko‘zini mo‘tillatib qarab turganlar ozmuncha emas. Gospitallar, yetimxonalar, bolalar... Bilasanmi, ular qancha? Moskvadan, Kiyevdan, Minskdan, Smolenskdan... Bu moyning har tomchisi o‘lchog‘lik...

Komila direktorga vahima bilan qarab turardi.

Uning hikoyasi Komilanikidan ham ayanchliroq bo‘lib chiqdi. Endi nima bo‘ladi? Nima qilishadi? Ular bir-birlariga savol nazari bilan tikildilar.

– Berolmayman, Shag‘alay, haqim yo‘q.

Komila kaltak yegandek, bosh egib chiqib ketdi.

Shundan boshlab Komila o‘ziga joy topolmay qoldi. Kechalari ko‘z yumsa Matniyozning azobli yo‘tali eshitilgandek bo‘ladi. Endi ketadi u. Xayrlashmasdan ketarmikan?

Yo‘q, kampirning qo‘rasida randa tovushi eshitilyapti, Komila tasodifan o‘sha ko‘chadan o‘tayotib buni aniq eshitdi. Endi nima qilsa ekan? Kutayotganmikan... baliq moyini?

Komilaga ayniqsa dengizga chiqmaydigan kunlari qiyin. Dovul kutilgan bunday xira kunlar

ayniqsa imillab o'tadi. Matniyozdan xabar olay desa, quruq qo'l bilan qanday kirib boradi? U bunga intizor bo'lib o'tiribdimi, unga dori kerak.

Komilaning ko'ngliga hech narsa sig'magan shunday kunlari anavi yelim ham jonga tegdi ke-laverib. Xudoning bergen kuni shu atrofda par-vona, Komilaga chaka-charviday ilashib qolgan. Komila uni «yelim» deydi. Oti Sattor. Baliqchilar artelining motorchisi, posyolkada turadi. Ishga chiqilmagan kuni bo'lsa, Mo'ynoqda ivirsigani ivirsigan. «Ribojarka»da pivo ichadi, kapitanlar baragiga kiradi, Komilaning ko'chasidan o'tadi. Lekin zabondan bermagan, Komilaga qul bo'lish-ga tayyor-u, ichidagini aytolmaydi.

Qo'ydek yuvosh bu yigitning so'zsiz, jur'atsiz sadoqati ilgarilari Komilaga bir ermak edi, hatto ba'zan ko'nglida yorug' bir nuqtadek bo'lib ham ko'rinar edi. Hozir esa g'ashiga tegadigan bo'ldi, u eng ko'ngilsiz, bekorchi paytlarda paydo bo'lar, qovog'i soliq dovul kunlarining bir belgisidek bo'lib qolgan edi.

Bugun ertalabdan dengiz osmoni to'nkarilgan qora qozondek tunni to'sib, olamni zimiston qlidi. Dengizda hali to'lqin yo'q, lekin u qo'rg'oshindek qorayib, nafasi sovib, havoni sho'rtak, zaxkash, yoqimsiz bir rutubat bilan to'ldirdi.

Oqcharloq galalari suv yuzalab bezovta qiy-qirib uchishdi. Bugun ham ish yo'q, ertaga ham bo'lmaydi. Kombinat bandargohida biron ta kater yo motobot ko'rinxaydi, estakada huwillab yotibdi. Brezent saroyda baliq tuzlovchi qizlar yana havoni qarg'ab, pista chaqishadi, ish to'qishadi. Yog'ochoyoq Ajiniyoz ham qozonni qaytarib, as-boqlarini tozalab bo'lib uyiga ketdi.

Komila barak tuyulishida yo'limi poylab turgan Sattorni imlab chaqirdi. Sattor avval ko'zlariga ishonmaganday kipriklarini pirpiratlb turdiyu, keyin yo'rg'alab yetib kealdi. U pidjak ustidan qiyiq bog'lab, etik kiygan, o'rta bo'yli, yumaloq, chorpxaxildan kelgan yigit edi.

– Dengizga chiqamiz, – dedi Komila.

Sattor garang bo'lib, badqovoq, past, qop-qora osmonga qaradi-yu, qo'limi ko'ksiga qo'yib:

– Xo'p bo'ladi! – dedi.

«Nega?» deb surishtirib o'tirmadi ham, Komilaning amriga mahtal edi bu sho'rlik oshiq. Lekin vahima bilan dengizga, osmonga qarayvergandan, Komila shoshib-pishib tushuntirdi.

– Bاليq moyi kerak. Juda zarur bo'lib qoldi.

Kimningdir, Komilaga yaqin bir odamning joni xavfda... Sattor shuni anglagandek bo'ldi. Unga buning ahamiyati yo'q edi. Komilaning bir koriga yarasa, birpas yonida bo'lsa bas. Shuning uchun bosib kelayotgan dovul ham, bunday paytda dengizga chiqish qat'iy man qilingani ham, Komiladek tajribali dengizchining aqlga sig'maydigan bu tel-baligi ham, ko'zga ko'rinish turgan xavf-xatar ham xayoliga kelmadidi. U yarus olib kelgani kolxozga yugurdi. Bunday kunlari baliq faqat yarusga il-nishi mumkin.

Komila uyga borib, ovqatlanib, sochlarini brezent qalpoq ostiga turmab, baliq hidi singib ketgan eski kombinezonini, rezinka etigini kiyib qirg'oqqa kelguncha, Sattor karbas deydigan katta, eshkakli qayiq ichida, chuvalgan yarusning qarmog'ini qarmoqqa, katagini katakka to'g'rilab, kutib turar edi. Paqir, qutilar, taxlangan yelkan,

tag'in allaqanday yuklar bor edi qayiq tubida. Komila rulga o'tirdi. Sattor eshkaklarga yopishdi.

To'lqin qayiqni birdan olib ketdi. Qirg'oqdan uzoqlashgan sari dengizning sovuq vahimasi ko'ngilga o'rmalab kirar, Sattor Komilaga savol nazari bilan qarab-qarab qo'yari, lekin hamon tirishqoqlik bilan eshar edi. U biladiki, yarus bilan ovlash uchun Orolda kamida o'n chaqirim ichkariga kirish kerak, buning ustiga, dovulni sezib, baliq borgan sari pastga qochadi. Sodda Sattorning miyaslda o'zicha juda ustalik bilan payqab olgan bir nozik fikr aylanar edi: «Komila kombinatda taniqli odam, baliq kerak bo'lsa motobot bilan chiqish ham qo'lidan keladi. Lekin u kolxozning karbasida yarus bilan chiqib ketyapti, bahona bu, men bilan chiqib kelishga bir bahona». Bu fikrdan Sattorning ichi yorishib, hayoliga kelmagan bir dadillik bilan hamon ichkariga qarab eshkak eshardi. Dengiz esa hozir to'nnkariladigandek tubdan to'lg'anib, tobora qorayar, qora osmon bilan qo'shilib ketayotgandek edi.

Taxminlangan joyga yetganda ular yarusni bir boshdan qulochlab suvga tushirishdi. Endi kutish kerak, ish yo'q. Sattor ikki yildan beri kuydirgan sanamiga tikilar, uning brezent qalpoq tagidan chiqib to'lqin urgan soch tolalariga, dengiz shamlidan sho'rtak bo'lib ketgan (Sattor shundoq bo'lsa kerak deb o'ylandi) lablariga tikilib, og'zi ochilib qolganini payqamas edi. U nihoyat Komila bilan yolg'iz. Gapirolmasa ham, u bugungi xudo bergen g'animat fursatdan baxtiyor edi.

Komilaning bo'lsa, ko'zi ufqda. Qayiqni teran to'lqinlar chayqayapti. Bu qaltis ish halokatli xato

bo'lmadimikan? Bunday kunda qayiqda dengizga chiqish o'z joniga qasd qilganning ishi, buni hamma dengizchilar yaxshi biladi, Komila ham sezib turibdi, hali kutish kerak, to'rni ko'tarish kerak, keyin uch-to'rt soatli yo'l...

Ko'p o'tmay, xuddi Komila kutgandek, Borsakelmas tomondan izg'irin turib, og'ir qora bulut qatlamlari ko'chdi, qayiq chetiga birinchi barra to'lqin kelib urildi. Bu tanish to'lqin. U qayerdadir, o'sha borsakelmas tomonlardan makkor kuch yig'ib, mash'um sovuqligi bilan pastak qora bulutlarni yana ham og'irlashtirgandek, shamol, bulut, dovul – hammasini birga qo'shib, dengizning butun bir qalin qatlamini qirg'oqlarga olib kelib uradi. Bunday dovulda, qayiqlar u yoqda tursin, katta kemalar ham po'choqdek uchib, chilparchin bo'ladi.

– Ko'taramiz! – dedi Komila qat'iy. Ular chay-qalayotgan qayiqda zo'rg'a oyoqda turib to'rni ko'tara boshladilar. Jigaridan yog' chiqadigan treska baliq siyrak bo'lsa ham, ov baroridan keldi, desa bo'lardi. Sattornimg qo'llariga qarmoq sanchilib, qonab ketgan bo'lsa-da, baliqchi bolasi emasmi, shamolga, xavfli to'lqinga qaramay, qiziqib ketdi, ikki yondan bitta-bitta uzib tashlayvergandan keyin, qutilar ham, qutining tubi ham tipirchilab turgan sadaf tangali yirik baliqlarga to'ldi. Olti pudcha kelardi.

– Bo'ldi, yig'ishtiring! – deya buyurdi Komila. Ufqqa bir qarab qo'yib, toyg'oq baliqlarni bosib, rulga o'tdi. – Haydang!

Sattor ho'l, shilimshiq yengi bilan yuzlarini artab, o'rindiqqa sakradi. Tabiatan ochko'zroq bu

yigit ovning barakasini ko'rib, jonlanib qolgan edi, lekin to'lqinda yukli qayiqning og'ir eshkagi uni tez bukdi. Shamol dam o'ngdan, dam chapdan kelib, xuddi qo'l bilan itargandek, uni go'yo o'rnidan siljedishga urinar edi. Karbas tobora qat-tiqroq chayqala boshladi. Tepada quruq machta xunuk g'irchillar, dengiz bukchaygandek gardani bilan kelib, qayiq ostiga kirib ketar, lekin ko'tarib tashlash o'rniqa, bir mo'jiza yuz bergandek, qayoqdadir asov kuchi sinar, shundan keyin bir zumda qayiq yana ham balandroq to'lqinning sirtiga chiqib ketar edi.

Qayiq oldinga siljimay, o'rkach-o'rkach to'lqinlar asirligida, yakkash bir o'rinda chayqalayotgandek edi. Sattor holdan toydi, peshanasini artadi, tani yonadi, og'zi, labi sho'r, to'lqin yuziga urib, quyruqda Komillaning nima deb qich-qirayotganini eshitmaydi. U paxtaligini, chorig'ini yechib tashladi, yelka paylari tarang, bo'g'implari oshiq-moshig'idan chiqib ketguday bo'lar edi.

Qirg'oq ko'rmasdi, bulut quyuqligidan kun shomdagidek qorong'i. Taxminlab qo'ltiqqa yaqinlashdik deganlarida, qirg'oqdan qaytgan to'lqinlar karbasni ustma-ust ko'tarib tashlay boshladi. Komila taxlangan yelkan ustiga otilib tushdi, Sattor baliqqa toyib eshkaklarni qo'ldan chiqardi. Bu payt dengizda chinakam dovul boshlanib, to'lqin, yomg'ir aralash izg'irin kelib qamchiday savalab ketdi. Ko'z ochib bo'lmas edi, atrof, yer-u osnion suv, hech narsa ko'rmasdi. Chakkasini nimadir tilib ketgan Komila jon-jahdi bilan baqirardi:

– Eshkakni qo'yib yubormang! Eshkakni! Eshkakni!

Qayiqni to'rt-besh metrga yana ko'tarib, boshqa bir qahril to'lqinning o'pqonday qo'yniga otganda, machtaga borib urilib beli mayishgan Sattor, ko'ziga ajal ko'rinish ketib, Komilani ham unutdi. Shunday tashlanganda qayiq yoni bilan tushsa bormi... Sattor mo'ljalni ham yo'qotdi, esini ham... Yo'q, esi joyida edi: u jon-jahdi bilan qutini ko'tara boshladi, tomirlari o'ynoqlab, ikki pudcha baliqni qayiqning labiga ko'tarib to'lqin qa'rige itarib yubordi. Yana baliqlar ustida sirg'ana-surila borib boshqa qutiga yopishdi. Komila dovulda avval uni yaxshl ko'rolmadi, keyin sharpasini ko'rgach, nima qilayotganini tu-shunmadi.

– Eshkakni qo'yib yubormang! – deb baqirgan-cha, oqsoqlanib borib, rulni tutdi. So'ng, quturayotgan to'lqinlar orasida o'lik baliqlarning yiltillagan sirtini, to'lqin bilan qayiqqa kelib urilgan quti taxtalarini ko'rib, payqadi. Sattor tomonga otildi. Qaras, Sattor navbatdagi baliq to'la qutini uloqtirish uchun kuchanyapti. Komila unga tashlandi, butun gavdasi bilan qo'llariga osildi.

– Nima qilyapsiz?! Nima qilyapsiz deyapman sizga!

Sattorning yuzida qon qolmagan, ko'zi o'lik qo'ynikldek ma'nosiz edi.

– Qo'rqoq! Nomard! – deb baqirdi Komila uni bu ishdan to'xtatishga kuchi boricha urinib. Uning ho'l sochlari to'zg'ib, yuz-ko'ziga yopishgan, ko'zlari o'q bo'lib sanchilgudek, chakkasi qonagan, tovushi bitgan edi. O'limi ko'z oldiga kelgan Sattor bo'lsa og'ir qutilardan boshqa hech narsani ko'rmasdi. Ammo Komila qattiq osilgan

edi. Qayiq xatarli chayqalganda birga yumalashdi, lekin uning qo'lini bo'shatmadi.

Jomi halqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig'lab yubordi:

– Cho'kib ketaveramanmi sizni deb... hech kimga aytmay chiquvdim.. Tashiash kerak bu la'natni qutilarni... Jon shirin emasmi sizga... – Keyin bir siltab Komilaning qo'lidan chiqdi-da, yana bir qutiga tarmashdi.

– Yo'q! – dedi Komila yig'lagan bu erkakka nafrati kelib. Yana unga tashlandi.

– Axir shunda jon saqlaymiz! – Yana kuchandi Sattor.

– Yo'q!

Sattor shu dam bo'ridek bo'kirib, birdan o'zini orqaga tashlab yubordi. Komila sochidan mahkam changallab qolmaganda, to'lqin illb ketadigan edi.

Sattor qayiq tubiga sirg'anib tushib, bir qo'lini quchoqlab bo'kiraverdi. Komila jon achchig'ida uning qo'lini tishiab, bir parcha go'shtini uzib olishiga sal qolgan edi, yengidan sharillab qon oqdi.

Sattor shundan keyin o'tirgan joyida bir qo'li bilan qayiqqa mahkam tarmashib jim bo'lib qoldi. Komila shoshib borib, eshkakka yopishdi. Asabi sal tinchlanganidanmi, dovul ham biroz pasaygandek tuyuldi, butun kuchini yig'ib, qo'ltiqqa kirib olish uchun to'lqin bilan olisha boshladи. To'kilib, sinib yotgan qutilar, qayiq tubida suvda suzgan paxtalik, bosilib uvildirig'i sitilib chiqqan baliqlar, majaqlanib yotgan paqir, chervalgan arqonlar ko'ziga ko'rindi. Demak, yomg'ir ham siyraklashib, havo yorisha boshlagan. Lekin

qirg'oq ko'rinnmaydi. Komila qayoqqa suzishni biladi, qirg'oqdan qaytarib urmasa bo'lgani.

– Rulga o'ting! – deb baqirdi u g'azab bilan. Sattor bir qo'lini quchoqlagancha rulga o'tdi, birozdan keyin Komilaning eshkaklarga kuchi yetmayotgani ni ko'rib, taxtaga kelib o'tirdi, eshkakning bittasini qo'lga oldi, ikkovlashib esha boshladilar.

Qo'ltiqqa kirganda to'lqin pasaydi, lekin qirg'oq tim qorong'i edi.

Tongda Ajiniyozni uyg'otib, juvozzonaga yetakladilar. Uch pudcha baliq omon qolgan edi. Chol barining ichini ag'darib jigaridan ikki shishacha moy qaynatib berdi. Kahrabo rang moyning og'ir quyilib shishaga oqishini ko'rgan Komilaning butun charchog'i tarqab, dili yorishdi, kutilmagan-da Sattordan uzr so'rab qoldi:

– Kechirasiz-da, jahl ustida...

Sattorning o'yи boshqa yoqda edi.

– Baliqni nima qilamiz?

– Baliqnimi?.. – Komila buni hech o'ylamagan ekan, hozir juda yaxshi fikr ko'ngliga keldi: – Moyi – menga, balig'i – sizga! – dedi u.

Sattor ichi tozalangan baliqni qayiqda uyiga olib ketdi.

– Qoyil-e, tirik chiqdik-e... – derdi u quvonib. Komila ikki shisha moyni ko'tarib, Matniyozni-kiga bordi. Yigit uni kutmay qo'ygan ekanmi, hayratda tikilib qoldi. Hayajonlanganidan yo'tala boshladi. Moyni ko'ksiga bosib yo'talar edi.

– Siz... siz buni qayoqdan olyapsiz, Komila?

– Voy, qayoqdan olardim, ombordan, – dedi qiz beparvolik bilan. – Vaqt bo'lmayapti-da, kelolmay qoldim. Tuzukmisiz?

Matniyozning yo'tali ilgarigidek emas, yengil-roq edi, biroz et bitib, rang ham kirgan. Lekin u Komilaming qarashidan cho'chib ketgandek, kamgap bo'lib qoldi. Komila bu safar ham uzoq-roq gaplasholmay ketishga majbur bo'ldi.

Qish chiqib, dovulli kunlar kamayib qoldi. Komila ilgari o'lgudek zerikarli bo'ladigan o'sha zax havoli, xira, izg'irinli kунларни qо'msay boshladi. Badjahi Ajiniyoz bilan endi til biriktirib, ishni yo'lga qo'ygamida dovullar siyraklashib ketdi. Moyjuvoz uchun baliq ovlash esa faqat dovul kунларигина bo'lishi mumkin, boshqa kунлари Komila reysda. Komilaning kechasi pichirlagan iltijolariга binoan yana bir necha izg'irinli kun bo'ldi. Ammo keyinroq Sattor gapga kirmay qo'ydi. Avval u chandiq bilagini hammaga ko'rsatib: «Komila tishladi», – deb maqtanib yurdi, Komila bunga e'tibor bermadi, Sattor unga kerak edi, Sattor ham har safar bir necha pud marmarday baliqqa qiziqib, yana bir-ikki marta dovulda dengizga birga chiqdi. Keyin yurak oldirib qo'yib, bu qaltilis oshiqlikdan voz kechdi. Komila so'nggi vaqtda kombinatdan motobot olib, dengizga yolg'iz ham chiqadigan bo'ldi. Jindak-jindak moy keltirganda Matniyoz undan har safar qiziqib so'rardi, ammo so'nggi marta qovoq solib, qo'pollik bilan so'radi:

– Qayoqdan olyapsiz, ochig'ini ayting?

Komila darrov javob bermadi-da, bosh egib kelib, uning bilagidan ushladi, yerdan ko'zini olmay turib:

– Ombordan, – dedi sekin. – Siz tuzalishingiz kerak, Matniyoz... Bo'lmasa...

– Nima «bo'lmasa?»

Komila birdan piqillab yig'lagancha yugurib chiqib ketdi.

Keyin u dovul kuni kechqurun yolg'iz o'zi den-gizga chiqib, bir o'limdan qolib, ust-boshi shalabbo ho'l, sochi to'zg'igan holda kechasi Ajiniyoz cholni qo'yarda-qo'ymay uyg'otib, yarim shisha-gina moyni zo'rg'a eplashtirib, tongda kampirni-kiga keldi. Kirsa Matniyoz yo'q. Matniyoz ketib qolgan edi. Qayoqqa g'oyib bo'lganligi noma'lum.

Komila hamma narsani birdan payqadi-yu, shu ko'yicha achchiq shamolda tentirab qirg'oq tomon yurdi. Etigi qumga botar, sug'urib olishga darmo-ni yo'q, sochlari to'zg'igan, nega kimsasiz sohilga qarab ketayotganini o'zi bilmas edi. Ketdi! Ketdi... Komilaning diliga ilgaridan qutqu solib yurgan narsa shu edi. Ko'ngli sezib yurardi-ya! Nega ahmoq bo'lib unga sir berdi? Nega ahmoq bo'lib uning uchun har dovul kuni ikki shisha moyga jonini tik-di? Sharmandalik! Sharmandalik! Qochib ketibdi! Komila o'z qadriga yig'lardi. Umri bino bo'lib bunday alamli, bunday azobli damlarni kechirgan emas. «Ajab bo'ldi, ajab! – derdi u qirg'oqda, izg'irinda yolg'iz qum kechib qayoqqadir shosharkan. – Ajab bo'pti, yurma birinchi ko'rgan yigitingga yelimdek yopishib, qiz boshing bilan!»

Shunday deb o'zini koyirdi-yu, Matniyozni unutolmasdi. Kechalari uyqu yo'q, dam o'zini ko-yiydi, dam yorug' dunyoni qarg'iyydi, dam Matniyozni... Manzilini ham qoldirmabdi, Xorazmdan so'ratty ham, yo'q...

O'sha kunlardagi telbaligini o'ylasa, hozir ham yuragi o'ynab, yuziga qon tepadi. Matniyoz, nima qilding?

– Qirg‘oqqa yondash! Qirg‘oqqa!

Komilaning xayoli bo‘lindi. Bu Qayipbergen cholning hovliqqan ovozi edi. Komilaning jahli chiqdi. Xayolini bo‘lgani uchun emas, kapitandan ijozatsiz buyruq bera boshlagani uchun. Qorong‘i tushib, daryo yuzini tuman qoplagan edi. Bo‘tana Amu qo‘ng‘ir qora tusga kirib, bo‘g‘iq va sirli shovillay boshladи. Komila payqadiki, Tuyacho‘kdi yaqin. Chakki bo‘libdi-da, bu falokat shayton bo‘g‘izi qoq tunga to‘g‘ri kelibdi.

Ammo hozir Komilani jahannam ham to‘xtat tolmaydi. Oldinda Matniyoz... o‘sha Matniyoz, Komilaga juda qimmatga tushgan, yillar, iztiroblar, yoshlik quvonchlari evaziga, «or-nomus», oila, jigarporalari Uchqun ham To‘lqinni o‘rtaga qo‘yib qo‘lga kiritgani o‘sha Matniyoz, o‘sha shafqatsiz muhabbat, azobli baxt oldinda...

Tuyacho‘kdi – Amuning eng tor joyi bo‘lib, ikki qirg‘og‘i qip-qizil, baland, tikka jar, o‘zanning o‘rta bir yerida esa, o‘chakishgandek ikki qoyatosh, tuyaning ikki o‘rkachi singari suvdan qalqib turadi. Suv ko‘p vaqtda bo‘lsa, qalqmasa ham, oqimni ikkiga ayirib, ikki tomonida sharsharadek shovqinli, xatarli qiya paydo qiladi. «Qiya» degani qirg‘oqqa urib, jar tagida girdob, o‘pqon paydo qiladigan makkor oqim.

Hozir-ku bular ko‘rinayotgani yo‘q, hozir qorong‘i, uning ustiga nafasni bo‘g‘adigan allaqanday quyuq, og‘ir tuman.

– To‘xta! – deb buyurdi kapitan, lotsmanning buyrug‘ini rad etib. Chol g‘azabdan titrab-qaq-shab Komilaga qaradi: «Bu nima qilganingiz?!!»

– Katta projektorlar yoqilsin! – dedi kapitan javob o‘rniga, uzun-uzun signal berdi.

Projektorlar uzoqdan tuynukday ko'ringan Tuyacho'kdining qorasini ko'rsatdi, daryo sathl bug'lanar, bosib tushayotgan og'ir tuman bilan olishayotgandek edi.

– Signalni kimga beryapsiz, bu yerda zog' ham yo'q hozir, esi joyida bo'lsa kechasi hech kim Tuyacho'kdiga yaqinlashmaydi, – dedi chol.

– Hozir ko'ramiz... – dedi Komila. U o'zi ham o'z ishining to'g'riliqiga unchalik amin emas edi. Ammo to'xtab ertani, tuman ko'tarilishini kutish hozir uning miyasiga sig'masdi.

– G'altakni qirg'oqqa tashlashni buyuring, men sizga otalarcha maslahat beryapman, qizim, tumanni qarang, yonginamizdagi barjaning chirrog'ini ko'rib bo'lmayapti, – deb avray boshladi jahlini zo'rg'a bosib Qayipbergen chol. «G'altakni qirg'oqqa» degani «koshka» degan langarni qirg'oqqa, oldinroqqa olib borib o'rnatib, ikki yuz metrli sim arqonli chig'iriq bilan barjani alohida, kemani alohida siljitib, xavfli joydan o'tkazib olishdan iborat edi. Bu kamida o'n ikki soat to'xtash degan gap.

– Qo'rwmang, avval o'rkachlarning ahvolini bilib kelamiz, – dedi Komila. Uming xatarli ishga qasd qilgani sezilib turardi. – Siz projektorni idora qiling. Yigitlar, qayiqni suvga!

– Men aralashmayman bu ishingizga. Kemani jarga urib pachaqlaysiz, barjada Taxiatoshning dizellari, bilib qo'ying. Men Amuda o'ttiz yil suzib, bitta quruq barja ham cho'ktirgan emasman. Siz... siz yosh er qilgan bo'sangiz, ekipajning aybi nima!

Komila ko'n qo'lqop kiygan qo'lini ko'zlariga bosib, birpas yerga qarab turdi. Chol «yig'latdim»

deb o'ylagan edi, shu zumdayoq Komilaning o't chaqnagan ko'zlarini ko'rди.

– Buyruqni bajaring, lotsman! – dedi Komila. O'zi zinadan yugurib tushib, ikki yigit ushlab turgan qayiqqa sakradi, chol uning «O'lchagich oling!», «Siz bu yoqqa o'ting!» degan keskin buyruqlarini eshitlb turardi. Lahza o'tmay Tuyacho'kdining qirg'oqlarini yangratib motor guvilladi, tumanni tilib uzoqlarga sanchilgan projektor nurida motorli qayiq qora tuynukka kirib yo'qoldi.

O'rkachga yaqinlashgan sari qayiqdagilarga motor tovushi pastroq eshitila boshladi, ikkiga ayrilgan oqimning shovillashi ikki baland jar orasida momaqaldiroqdek gumburlar edi. Oqarib turgan o'rkachlarni yonginasiga borganda ko'rishdi, qoya panasida oqimga qarshi ularning yaqinigacha bemalol borish mumkin edi.

– Mana, la'natilar qalqib turibdi! – dedi Komila. Uning gapini yigitlar eshitmadilar, ammo kaptanning vaqtি chog'ligi ko'rinish turar edi. Qoyalar suv ostida bo'lsa xatarliroq. Hozir suv kam ekan, kemani boshqarganda xavf qayoqdaligini darrov payqasa bo'ladi.

– Chap tomon yoyiqroq, keyin, bu qirg'oqda teran girdob ham yo'q...

Yigitlar uning chap tomonni ko'rsatganidan maqsadini taxminan anglashdi, lekin chapda tuman quyuq, qirg'oq ko'rinish mas edi. Komila projektorni kerak joyga to'g'rilamayotgan Qayipbergenni erkakcha boloxonador qilib so'kdi-da, kemani chapdagi kuchli oqimga burdi. Oqimning kuchim, yo'nalishini tekshirish, qirg'oqni tusmol-

lash kerak edi. Shu vaqt qayiq birdan gir aylanib, oqimni yengib o'tolmay, tikka qirg'oq tomon, sovuq qorong'ilikka kirib ketaverdi. Qorong'i, tuman, bir-birlarini ko'rishmas, gaplarini eshitishmas edi. Motorchi yigit o'z joyidan siljiyolmas, Komilani ko'rmas edi: bormi-yo'qmi? Yo uchib ketdimi?

– Kapitan! Kapitan! – deb qichqirardi u motor dastasiga yopishgancha... Kapitan! Qayerdasiz?

Bu payt Matniyozi tashvishda, hayajonda, ko'zlari bilan Komilani zaldan qidirardi. Uning tepasida O'zbekiston va qoraqalpoq yerlarining geografik xaritasi sap-sariq bo'lib osilib turibdi. Go'yo jazirama Qoraqum bilan Qizilqumning olov nafasi qog'ozni ham qovjiratib yuborgan edi. Ko'm-ko'k qon tomiridek Sir bilan Amu buralib-buralib ming-minglab chaqirim sahro yo'llarini bosib o'tadi, uzoq qorli cho'qqilarning kumush xazinasini, qadim vodiylarning orombaxsh salqinini keksa Orolga eltib topshiradi. Orol cheksiz va jonsiz qum dengizlari ichida haqiqatan ham bo'tako'z orol, tabiatning mo'jizasi, tengsiz go'zal bir in'omi!

Matniyozi xarita oldida qo'liga nayzadek ko'rsat-kich tutgan holda dissertatsiyasining mazmunini bayon etadi. U odattdagidek beparvoroq kiyangan, galstugi bo'sh, shimi g'ijimroq, lekin to'lishgan, keksalik belgilari bilina boshlagan, paydor, qora-cha yuzida salomatlik, ishonch, jur'at, hatto qaysarlik zuhur etar edi.

U Komilani topmadidi. Katta zal llq to'la, bo'sh o'rin yo'q, hamma shu yerda. Ishlab chiqarish kuchiarini o'rganish kengashidagi ilmiy xodimlar

– Matniyozning do'stlari ham shu yerda, oldingi qatorda mo'yna sovxoziining bosh zootexnigi, gidroproyekt muhandislari, melioratsiya stansiyasining boshlig'i fan nomzodi Markaryan, Toshkentdan kelgan tanish-notanish olimlar... Prezidiumda esa ishning rahbari, taqrizchilar, ilmiy kengash a'zolari ham eng atoqli mehmon – professor Shuman o'tiribdi. O'rta Osiyo gidrologiyasining keksa nazariyotchisi. Shuman uchun bunday prezidiumlarda o'tirish o'z uylda yonboshlab yotishdek oddiy narsa bo'lib qolgan. Qayerda paydo bo'lsa, zalda ham, foyeda ham shivir-shivir: «Shu! Falonchi-ku!» U bo'lsa shon-shuhratga, yumshoq pijama kiyishga odatlangandek, o'rganib ketgan, bunday shivir-shivirlar parvoyiga kelmaydi, panjalarini bir-biriga oshiq-mosiq qilib kiyib, bosh barmoqlarini bir-birining atrofida asta aylantirib, unga tikilgan ko'zlarni emas, boshqa narsalarni o'ylab o'tiradi.

Professorning chiqishlari doim shov-shuvli bo'ladi. Ikki-uch yilda bir yozsa ham samarali, kutilmagan fikrli maqola bilan chiqib qo'yadi-da, shu bilan yana anchagacha ko'pikning yuzasida, ko'pchilikning diqqat markazida yuraveradi. Shunday yashashga o'rganib qolgan.

Shumanning besh-olti oy oldin yozgan so'ngi maqolasining shov-shuvi hali bosilgani yo'q edi. «Orol yashamog'i zarurmi?» degan bu maqola olimlarni ham, xo'jalik xodimlarini ham g'ala-yonga keltirdi, Matniyozning esa yetti yillik azobli ishining beliga tepdi. Professor maqolasida Orolni asta-sekin quritib, Amuning unga beradigan 40 milliardlik suvi hisobiga 5 million hektar yangi

yer o'zlashtirishning iqtisodiy foydalarini isbotlar edi. Bundan qoni qaynab ketgan Matniyoz shu olti oy ichida dissertatsiyasini ataylab yanada o'tkirlashtirib, bu tezisning xatoligini isbotlashga qasd qildi. Shuman bilan olishishi ko'plarning nazarida boshni devorga urish bilan barobar edi. «Krilovning «Laycha bilan Fil»ini o'qiganmisan?» degan do'stlari ham bo'ldi. Lekin u, o'z ta'biricha, bu «abordaj»ga – hamlaga ataylab azm etdi, ko'p o'yladi, ikkilandi, ba'zan o'zida shunga kuch sezdi, nima bo'lsa ham vijdon izmidan qaytmadi.

Albatta, avvalo professor Shumandan o'z avtoreferatiga qaqshatqich yozma fikr kutgan edi. Kelmadi. Yoqlash marosimiga professorning o'zi kelib o'tiribdi. Hali indagani yo'q, hurmatini bajo keltirib ko'rishdi, prezidiumda ham miyig'ida jilmayibgina o'tiribdi, noroziligi ham bilinmaydi, bezovtaligi ham. To'q mushuk sichqonni tutgach, qo'yib yuborgan bo'lib yana osongina tutib, birpas o'ynab, keyingina shoshmasdan yeydi. Yo bu ham shu xilidanmikan?

Matniyoz shularni o'ylab, ayniqsa, buning ustiga zalda Komilaning ko'rinxaganidan, ancha hayajonlanib, tutillb gapirdi. Keyin qimir etmagan zalning e'tiboridan dadillashib, Shumanga tikka qarab so'z boshladi.

– O'l kamizga ko'z soling, – dedi u qo'lida sal titragan ko'rsatkich bilan xaritada doiralar yasab, – bu sariq ranglar, bu o'lik ranglar shunday ham ko'p. Biz esa, hurmatli professor, buning ustiga yana bir sahro yaratmoqchimiz!

– Siz buning evaziga barpo bo'ladigan yangi obod vodiyni tilga olmayapsiz, hamkasaba, – dedi

Shuman birinchi marta luqma tashlab. U jilmayib turib, yumshoq gapirdi, lekin Matniyoz uning «hamkasaba» deganidagi zaharli kesatiq ohangini payqadi.

– Trishkaning kaftanini bilasizmi, professor?
 – dedi u ham. Zalda jur’atsizgina kulgi eshlitledi. Matniyoz davom etdi: – Orolning raqibiari bu jazirama o’lkada vahshiy sahroning quturishlariga yana ham kengroq erk berib qo'yishmoqchi. Ko‘z oldingizga keltiring, yetmish ming kvadrat kilometrli Orol kosasida yangi sahroning paydo bo‘lishi bu o’lkaning ob-havosini yovvoyilashtirib, bu yerda sarin, zangori to‘lqinlar o‘rniga qum bo‘ronlari o‘ynaydi, sobiq dengiz tubidan ko‘tarilgan zararli tuz zarralari aralash quyuq to‘zon havoni to‘ldirib, atrofidagi yashil havzalarni quritadi.


– Ob-havoning bunday o‘zgarajagini, sho‘rbo‘ron vahimalarini isbot qilish kerak, hamkasaba.

– Ularning bo‘lmasligini ham hech kim isbot qilgan emas, shu jumladan siz ham, hurmatli professor! – dedi hozirjavoblik bilan Matniyoz. Tag‘in davom etdi: – Nihoyat tabiat hissi! Jonajon o’lkamizning go‘zalliklarini his etish, ko‘z quvonchi, hayot chashmalari! Bular sizga begonami, professor? Orol – tabiatning ajib tuhfasi! Orol O‘rta Osiyoning Baykali, balki undan ham afzalroq. Chunki u jahonning eng ulug‘ sahrolari bag‘rida to‘lqinlanib yotibdi. Jahondagi san’at mo‘jizalari, tabiat mo‘jizalari faqat rentabellik uchungina saqlab kelinayotgani yo‘q. Ona yurt tabiatini degan narsaga shunchaki buxgalterlarcha munosabatdan boshqacha muomala ham bo‘lishi kerak. Ne-ne buyuk olimlar necha asrlardan

beri uni halokatdan qutqazib qolish haqida o'ylab kelyapti, siz esa. Siz bu tengsiz go'zallikka, butun bir o'kaning taqdiriga to'ralarcha qo'l siltamoq-dasiz. Ba'zi bir to'ralar hozir ko'pgina mahkama-larda qora terga botib cho't qoqishmoqda, go'zal Orolning fojiasi hisobiga keladigan raqamlarni hisoblashmoqda. Ularning yuragi qilt etmaydi, ular hozir dadil, chunki sizning «ilmiy bashoratlarin-giz» ular uchun asos bo'lyapti. Orol million yillik tunganmas boyliklar xazinasi: yiliga yarim million tonna baliq, million dona qunduz, olamda noyob mo'yna sovxoziining jahon bozoriga ketadigan 70 xil bebaho mo'ynasi! Buni sanab bitirish qiyin. Sizning maqolangizdan keyin esa Orol halokatli ravishda chekinib quriy boshladi, uning banoras ko'zgusi 20 ming kvadrat kilometr kichraydi. Daryo deltalardagi botqoqni bosib o'tolmayapti, delta ko'llari o'lik, suv sho'rlamb, hayotni qu ritmoqda. «Gidroproyekt» hozir Amu bllan Sir-dan foydalanish bosh rejasini tuzgan. Bu rejada Orolning taqdiri haqida bir og'iz so'z yo'q. Bu ham sizning maqolangizning oqibati, professor!

Matniyoz bir necha bor «Professor!» deb xitob qil-gandan keyin Shuman o'rnidan turdi, bu uning, so'z aytaman, degani edi, hamma tushundi.

– Bunday, hamkasaba, – dedi u salmoqla-nib, – siz meni qo'ya turing. Siz dissertatsiyan-gizni yoqlang. Butun xalqimiz kommunizmning moddiy asosini vujudga keltiraman deb jonboz-lik qilayotganda, siz akademiya minbariga chiqib tabiat go'zalligi haqida lirika o'qing, qirq milliard kubometr suvni Orolning botqoq qozonida qay-natib, bug' qilib osmonga uchiraylik, deng; res-



publika sug'orish va irrigatsiya ishlarini, yangi yerlar o'zlashtirishni to'xtataylik, deng...

Uning bu sovuqqon, salmoqli kinoyasiga Matniyoz indamadi, odob doirasida bo'lmasa ham, so'zini bo'ldi:

– Bu demagoglya deyiladi, hurmatli professor. Xalqimizning nima bilan bandligini men ham bilaman. Lekin sizning yondashuvningiz ma'lum fransuz qirolining faisafasiga o'xshab ketadi: «Bizdan keyin olamni to'fon bosib ketmaydimi...»

Zal yana sal jonlanib kullb qo'ydi.

– Men norozilik bildiraman, hurmatli ilmiy kengash! – dedi Shuman o'rnidan turib. Endi u haliday sovuqqon emas edi. Uning vajohati Matniyozni cho'chitdi. U bir zum ikkilanib, uzr so'rashni ham xayoliga keltirdi-yu, uzr so'rama-di. Ammo negadir sal umidsizlik sezdi ko'nglida. Zalga qaradi. Yo'lak uzun, uzoqdagi eshik tomon g'ira-shira edi. Vaqt qancha bo'ldi ekan? Komila hamon yo'q. Nega kelmadi, qayoqda qoldi? Hozir yalt etib ostonada paydo bo'lsa, Matniyoz qaytadan kuchga kirar, ilhomni toshib, qaqshatqich nutq so'zlab tashiar edi.

O'sha kasal vaqtida ham baliq moyidan emas, Komilaning o'zini o'ylab yo'taldan qolgan. Shishani qo'yniga solib kirib kelganida zaif a'zoyi badani yolqinlanib ketardi. O'limni bo'yniga olib qo'ygan askar hayotga mahkam tarmasha boshladi.

– Qayoqdan olyapsiz?

– Voy, ombordan...

Matniyoz ishonmay qo'ydi. Qizning ko'zlarini boshqacha edi. Keyin u Komilaning uning uchun o'limga tik borib, har dovuida yolg'iz dengizga

chiqayotganini payqab qoldi. Bu muhabbat edi. Muhabbat... Unga esa... mumkin emas. Uning haqi yo‘q, Matniyoz yig‘ladi. Qochish kerak. Komilani qutqazish kerak. U yosh. U unutadi. O‘tib ketadi...

Kampir yigitning ahvolidan garang edi.

Shunday qilib, o‘sanda Matniyoz g‘oyib bo‘ldi. U jangda ham bunday og‘ir vazifani bajarmagan edi. Bu qynoq o‘pka kasalining qiyinog‘idan ham dahshatliroq bo‘ldi... Komila qolib ketdi. O’sha Komila...


O’sha Komila hozir uniki. Lekin u nega kelmadidi? Zal to‘lqinlanadi. Matniyoz bu to‘lqinlarni, qarshiliklarni yorib o‘tib, unga intilishi kerak. U yana minbarga chiqdi...

Bu payt Komila ham Amu to‘lqinlarimi yorib unga intilmoqda edi. To‘lqinlar yuziga sapchir, te-pada tikka qora jar, qayiqning motori dam qattiq shamollagan odamdek yo‘talar, dam yana go‘yo talvasaga tushgandek xirillab aylana boshiar, projektoring yorug‘i o‘chakishgandek allaqayoqlarda kezar edi – chol birdan g‘oyib bo‘lgan qayiqni hovliqib qidirayotgan bolsa kerak.

Anchadan keyin bir amallab yoruqqa chiqib olishdi. Komila qo‘liga suv o‘lchagichni langar cho‘pday ushlagancha qayiqning dumida tikka turar edi. Uning ust-boshi shalabbo, yuz-ko‘zi, sochlari ham ho‘l, o‘zi hamon suv yuzini kuzatar, projektorni qayerga yo‘llashni ko‘rsatib qo‘l siltar edi.

Komilani, g‘arq bo‘ldimi, deb hali bir zum yuragi shuv etib ketgan motorchi yigit hozir quvon-ganidan unga qarab nuqul iljayardi:

- Cho‘milib oldingizmi deyman, o‘rtoq kapitan?
- Uming yuzi qo‘rqqanidanmi, projektor nuridan-mi, oppoq oqargan edi.



– Bas, qaytdik! – dedi Komila sochini to'lg'ab tashiab, ho'l furajkasini silkib kiyarkan.

«Orol»ga qaytib chiqishgandan keyin u avval hech narsa demadi, kayutasiga asta kirib, shoshmasdan artinib, kiyimlarini o'zgartirib chiqdi. Hammaning ko'zi unda edi.

– Gap bunday, – dedi u mumkin qadar qat'iy-roq bo'lishga urinib. Chunki sezardiki, hozir qayiqda u bilan birga Tuyacho'kdiga borib kelgan ikki yigit ham endi uning tarafini olmaydi. – Chap tomon oqimga qarshi yurishga yaxshi, o'ng tomondan esa bemalol pastga yursa bo'ladi. Barjalarni bittalab olib o'tamiz

Odamlar bir-birlariga qarab, chakkalarini qashishdi, yerga qarashdi.

– Hozirgina bir o'limdan qutulib, zo'rg'a chiqib keldik-ku, o'rtoq kapitan, – dedi oqarinqiragan motorchi.

– Tuf-ey! – dedi so'z topolmaganidan Qayipbergen chol va to'ng'illagancha davradan chiqib ketdi. – Esi bor odam kunduzi ham tavakkal qilmaydi.

– O'rkachlar suv yuzida, qo'rqaqidan joyi yo'q, – dedi Komila.

– Barjani qiya tortib ketadi-da, paroxodni olib borib jarga uradi, kapitan, meni aytdi deng.

– Buksirni qisqa bog'lang! Har kim o'z joyiga! – deb buyurdi Komila.

Xotin kishi shunday dadil qarorga kelganda erkaklarning bo'shanglik qilishi noqulay edi, tarqala boshladilar. Boshqalar asta joy-joyiga ketdi-yu, yolg'iz Qayipbergen bir chekkada teskari o'girilib turaverdi. «Yo chindan ham xato qilyapmanmi?...»

deb o'yladi Komila unga qarab. Lekin u bilardiki, bunday paytda ikkilanish orqaga chekinishdan ham xavfiroq. U cholning kiftiga qo'lini qo'yib, «xotirjam bo'ling», degandek birpas yonida turdi.

– Men aytadiganimni aytdim, kapitan. Sizdan buyurish, bizdan bajarish... – dedi chol yelkasini qisib.

Keyin Komila tezlab kubrikka chiqib ketdi. Yigirma daqiqa o'tar-o'tmay «Orol» eng sekin tezlik bilan asta-asta siljib, kalta bog'langan bitta barja bilan Tuyacho'kdiga kirib ketdi. Projektor qaychilari qorong'ilikni tilib, suv yuzidagi quyuq tumanni sutday oppoq qilib ko'rsatar edi.

To'lqin qarshiligi kuchaygan sari, mashina bo'limi kuchliroq guvillar, hozir portlab, podshipniklar sachrab ketadigandek edi. Nariroq borib suvning guvillashi boshqa hamma shov-shuvni bosib ketdi, ko'piklanib ikkiga ayrilgan daryo o'rtasida ikki katta qoyaning oppoq qirrasi ko'rindi.

– O'rkachga! O'rkachga yaqinroq! – deb buyurdi Komila.

– O'rkach – qoya, o'rtoq kapitan! – dedi shturman.

– Kinoyani qo'ying. Qoyaga yaqinroq! Qoyaga qancha yaqin yursangiz, xavf shuncha kam!

– Bir yarim metr qoldi, kapitan!

– Yana yaqinroq! Yaqinroq!

– Juda yaqin qoldi, kapitan!

– Yana! Suvda kechasi shunday ko'rinati. Yaqinroq deyman. Barjaning chirog'ini ko'ryapsizmi?

Haqiqatan, paroxodni yana ham o'ngga olmasa qiya oqim barjani ko'ndalang qilib jar tomon torrib ketishi hech gap emas edi. Qoya tomonda esa torgina yo'lak qoldi.

- Qarichlab o'lchang! Qarichlab siljing! O'ngga!
- Qoyaning tubi keng.
- Suv yetarli, dadil bo'ling!

Paroxod guvillab ko'pik sochayotgan oppoq qoyalarning yonginasidan siljib borar, hamma yuragini hovuchlagancha, kema ko'ksining toshga gurs etib urilishini kutar edi. Keyin nima bo'la-di, halokatmi...

Bu o'n daqiqalik guvillagan vahimali tinchlik o'n soatdek imillab o'tdi. Keyin palubada ham, pastda ham, barjada ham birdan qiyqiriq ko'tarildi: «Ur-ra! Ura-a!» deb qalpoqlarini osmonga oti-shar edi matroslar. Paroxod daryoning tinch oqar keng sathiga chiqib oldi. Qayipbergen chol manglayiga qalqqan sovuq terni artib tashiab, devorga suyandi:

– Uf!.. Bo'ldi, qaytib bormayman. Bir mo'jiza bilan o'tib ketdik, har tishiaganda g'archcha moy bo'lavermaydi.

– Bo'pti, siz qoling, ikkinchi barjani men o'zim olib chiqaman! – dedi Komila soatiga qarab.

Paroxod oqimga qarshi burilib, o'rkachlar-ning ikkinchi tomonidan yo'l soldi. Orqada barja bo'limganidan kuchli oqimga qarshi yurish qiyin emas edi.

Yarim soat deganda Komila o'z yigitlari bilan ikkinchl barjani ham «jahannam tuynugi»dan o'tkazib oldi. Tong otganda Tuyacho'kdi uzoqlarda qolib ketgan edi.

Yana yoyilib oqqan jigarrang Amu, balqib ke-layotgan kuzgi quyosh nurida qizargan xazonrezgi chakalakzorlar, yassi qirg'oqlarda yakkam-dukkam saharzez baliqchilar. To'qaylardan yovvoyi

o'rdaklar qag'illab uchdi, qaysi bir kemaga Orol-dan ergashib kelgan baliqchi qushlar mach-ta atrofida aylanishadi, paroxod zixidan ikkiga bo'lingan palaxsa-palaxsa to'lqinlarning oq yoli-ga to'sh urishadi. Komila qilgan ishiga o'zi ham qoyil bo'lib, xayol surib bormoqda. U o'sha dengiz dovullaridan buyon Matniyozni qayta uchratgun-gacha bunday qaltis jasoratga jazm qilgani yo'q edi. Sattor bilan o'tgan turmushi juda ham sokin, alg'ov-dalg'ovsiz, ortiqcha hayajonsiz bo'ldi, bun-day azobli kechalar xayoliga ham kelgan emas.

Baliq moyi bahonasi bilan Matniyozning oldi-ga borib yurgan qirq beshinchı yilning o'sha og'ir qish kechalari, o'sha g'alati, hayajonli, dardli, dovulli kunlar bir tushday o'tib ketdi. Lekin tush o'z yo'li bilan, turmush esa turmushligini qilar ekan. Yoshi o'tayotganini ko'rib Komila ham erga chiqdi. Allaqayoqdan kelib qolib, daf'atan g'oyib bo'lgan bir begona odamga telbadek talpinib yur-ganidan o'zi kulib, o'zini yengiltak, ahmoq deb koyib yurdi-yurdi-da, o'sha o'zining eski, yuvosh xushomadgo'yı Sattorga tegdi-ketdi.

Amudaryo flotiga ishga o'tganidan keyin Xo'jay-liga ko'chib ketishdi – Sattorning ota meros hov-lisi o'sha yerda edi. Baxtini topgan Sattor Komila uchun nimalar qilmadi! Onasi Anziratning ta'biri bilan aytganda, o'zini Alining tig'iga urib, kun demay, tun demay ishladi, ichmay-chekmay top-ganini hovliga tashidi. Arteldan ketib, yemakxo-naga o'tdi, keyin qayerdadir ekspeditor bo'ldi («qa-yerdadir» – Komilaning so'zi, asli – tuman mat-lubot jamiyatida), xullas, tinim bilmadi sho'rlik. Ammo lekin bir-ikki yilda ota meros hovli-joy ikki

marta kengaydi, bog‘, ekin-tikin, parranda, molhol ko‘payaverdi – hammasi Komila uchun edi.

Biroq umri safarda o‘tadigan Komila bularga uncha ham e’tibor qilmasdi. Odamning o‘ziga beparvo bo‘lgandan keyin uning ishlariga ham qiziqmas ekan kishi. Faqat so‘ngroq, To‘lqin paydo bo‘lgandagina Komila taqdirga tan bergandek, o‘zini bu oilaning a’zosi deb sezaloshadi.

Ustdidan achigan qatiq hidi kelib turadigan Anzirat yosharib, serg‘ayrat bo‘lib ketdi, yengini shimarib, etagini lippasiga qistirib molxonada, tovuqxonada ivirsigani ivirsigan. Ba’zan Komilani beozorgina koyib qo‘yadi:

– Voy, o‘rgilay kelin, kuvi pishganmisiz hech, opkela qoling o‘zimga, boring, To‘lqiningizni emizing, tasaddiq.

Bunday vaqtida Sattor xotinining tarafini olardi – kuvi pishmagan bo‘lsa, kimsan Amu flotining dongdor kapitani. Komila desa ovulda ham, poytaxtda ham bilmagan odam yo‘q, bitta o‘zbek qizi bo‘lsa shunchalik bo‘ladi-da, tag‘in nima kerak!

Sattor Komila bilan faxrlanardi. Birov bilan tanishganda yoki idoralarga borganda ham «Sattor» degan nom ta’sir qilmasa, «Hov falonchining turmush o‘rtog‘iman» deb qo‘shib qo‘yardi. Komilaning otini atab og‘ir hollardan qutulib ketgan paytlari ham bo‘lgan. Bir majlisda kimdir Sattorning «xususiy xo‘jalik tarmoqlari» kengayib ketganini aytib, uning daromad manbalariga shubha bildirgandek bo‘lgan edi, Sattor «Amu flotining dongdor kapitani oyiga qancha topadi, bilasanlarmi?» deb hammaning og‘ziga urdi.

Komila bu gaplardan albatta bexabar, u o‘zining shunchaki qalqon-balogardon bo‘lib qol-

ganini bilmaydi, u faqat shuni biladiki, ular o'rtasida necha yildan beri his-tuyg'u, nafrat yo muhabbat haqida gap bo'lgan emas. Ular er-xotin, shunchaki bir-birlariga o'rgambil qolishgan. Biron kiyimga, biron buyumga o'rgangandek. Erkalash, hazil, rashk, sog'inish, bir-biri uchun hayajonlamish, o'zini o'tga-cho'qqa urish ularning xayollarida ham yo'q edi. Sattor uchun bu juda ibratli oila, o'ziga tinch, o'ziga to'q, bekam-ko'st, janjal-suronsiz...

Lekin Komila o'zining qarib, so'lib borayotgani ni sezardi: «Bu nima gap, men qachon bunday bo'lib qoldim? Bas, bu men emasman axir! Men Komila bo'lismish kerak!»

Bu gaplarni Sattorga aytsa, albatta u hech narsa tushunmaydi. U Sattorga qattiq tanbeh berishi, uming turmushini keskin o'zgartirishi ham mumkin, bunga kuchi yetadi, lekin bu bilan Sattor uning qalbini hayajonga soladigan odamga aylana oladimi?

Iztirobini ichiga yutib yuraverdi. Echkilar ma'rab, tappi hidi kelib turadigan hovliga qaytgisi ham kelmay qoldi, ishdan keyin faqat To'lqin bilan Uchqun debgina uyga shoshardi.

Mana shunday kunlardan birida Matniyoz Orolda paydo bo'ldi. Komila uni Nukus ko'chasi da tasodifan uchratdi. Ko'rди-yu, butun vujudi lov etib ketdi. Go'yo oradan shuncha voqealar o'tib ketmagandek, shuncha yillar davomida ular doim birga bo'lgandek, bu uchrashuv esa tasodifiy emas, xuddi shunday bo'lishi kerakdek edi. Komila shoshib kelib, ikki qo'lini uzatdi.

Matniyoz esa bu uchrashuvdan negadir hech hayron bo'lmasdi. Uni go'zal Orol tortganmidi,

uzuq-yuluq tushdek yodda qolgan allaqanday xotiralarmi, xullas, bir necha yil avval bu yerga yana kelib qolgan edi.

– Ha, yolg'onchi! – dedi u ko'risharkan soddaginga kulib. – «Ombordan» deng?

Ikkalasi ham rohat qilib kului, xuddi kunda ko'rishib, shunday chaqchaqlashib yurgandek...

– Yolg'onchi... Yolg'onchi... – deb shivirladi Matniyoz yig'lagudek bo'lib, zalga tikilarkan. Zal guvillar, Matniyoz professor Shumanning ustma-ust yog'dirgan savollariga javob nutqini boshlab yuborolmas, Komila hamon yo'q edi.

– Men, ruxsatingiz bilan, zalga murojaat etaman, – dedi Matniyoz fikrini to'plab olib, – mana bu yerda mamlakatda nodir mo'yna sovxozining bosh zootexniyi o'rtoq Xudoyberdiyev o'tiribdi. U kishidan sovxoz xo'jaligining istiqboli haqida ikki og'iz gap so'rab olsam.

– Menden nimani so'raysiz, mana Markaryanga bering savolingizni! – dedi Xudoyberdiyev zalning o'rtaidan turib.

Melioratsiya stansiyasining direktori Markaryan ham o'rnidan turdi.

– Deltadagi Davliboy ko'l tizimini tozalab ber-sin. Oralaridan suv yo'llari ochsin. Ko'llarni chuchitsin, Oqdaryo, Qipchoqdaryo o'zanlarini kengaytirsin. Bu haqda qaror chiqqan. Buning bo'lsa na puli bor, na texnikasi. O'lik ko'lda, botqoqda qanaqa istiqbol bo'ladi? Endi bu delta-ning melioratsiyasini hech qanday pul, hech qanday texnika bilan tartibga keltirib bo'lmaydi, – dedi Markaryan qo'lini paxsa qilib, keyin ter qalqjan yaltiroq boshini silab, ilova qildi. – Ana, professor maqolasida bor gapni aytib qo'yibdi.

Zal guvilladi. Shuman qo'lini yoyib, yelkasini qisar, «Ishlab chiqarish majlisimi bu, ilmiy kengashmi?» der edi baland ovoz bilan yonidagilarga.

– Men hozirgi zamon ilmi bilan xo'jalik muammolarini sun'iy ravishda bir-biridan ajratmayman, professor, – deya gapni ilib ketdi Matniyoz, – mana ko'raylik: dengiz chekinyapti, undagi tirik boylik qirilyapti. Mo'yna sovxozi ikki yil avval bir milliondan ortiq ondatra terisi berar edi, bu yil ikki yuz mingta rejalashtirgan. Baliq kombinatining daromadi bu davrda to'qqiz marta kamaygan. Tekin ondatra go'shti bazasida boqiladigan kulrang tulki terisi bir yilda olti marta kamaygan. 29 xil noyob nav baliq delta ko'llariga urug'tashlamay qo'ydi. Bularning hammasi maqolangizdan keyin bo'lgan hodisalar, hurmatli professor. Sovxoz, kolxoz, kombinat rahbarlari sizning olamshumul bashoratingizdan keyin qo'lni yuvib qo'lтиqqa urishdi, dov-dastgohni yig'ishtirish kafiyatiga tushib, pul-texnika topish o'rнiga yildan-yil davlat rejasini kamaytirib, butun bir o'lka xo'jaligini mana shu ahvolga keltirdilar. Bu ziyon o'n million so'mlar bilan hisoblanadi! Mashhur maqolangizning har bir harfi tilla bahosiga tushgan davlatga, o'rtoq Shuman.

– Bu – dissertatsiyada qo'yilgan masalaga javob berishdan bosh tortish, – dedi professor o'rnidan turmasdan, boshdagi ziyolinamo sipolikni ham unutib. – Masala qo'yish – ilmiy ish emas, masalani yechish kerak, hamkasaba.

– Siz esa masalani dadil yechgansiz, professor, siz mardsiz! Davlat millionlari hisobiga! – deb Matniyoz minbardan tushib ketdi.

Zakda g'ala-g'ovur ko'tarildi...

Komila tong qorong'isida yukni Taxiatoshga eltib topshirib, birinchi reys avtobus bilan Nukusga jo'nadi. Ular hozir, vaqtincha, Fanlar akademiyasi filialining aspirantlar yotoqxonasi dagi bir xonada turar edilar. Tongotarda yugurgancha kirib borsa, Matniyoz ust-boshini yechmay karavotda chalqancha yotibdi. Uy tutun.

Komila uning papiros chekkanidan bir narsani payqab, yuragi shuv etib ketdi.

– Matniyoz!

Matniyoz sakrab turib, qo'lidagi papirosini derazadan uloqtirdi-da, xotinini quchdi. Komila toliqqan, uyqusizlikdan qizargan ko'zlarini uning yuziga qadadi. Dissertatsiya haqida darrov so'rashga yuragi dov bermay:

– Nega chekding? – dedi, – yaxshimi shu ishing... – O'zi Matniyozning bag'riga biqinib kirib borar, o'zi uni koyir edi. – O'lay dedim, xabaring yo'q.

– Nega, Komila? – Matniyoz uning pidjagini qoziqqa ildi, etiklarini tortib yechdi. Erkakcha tik yoqali oq ipak ko'yakda, paypoqchan Komila kichkinagina qizchaday bo'lib qoldi. Matniyoz bu paxtadekkina, yumshoq, iliq vujudni yana bag'riga oldi.

– Daryo hidi keladi sendan.

– Sho'rtakman.

– Plitada choy tayyor. Nega so'ramayapsan? Yoqlayolmay yiqildim... – deb shivirladi qulog'inining solinchoqlariga labini tekkizib.

Komila bo'shashib ketdi. Bu shum xabarni kutgan edi, uyga kirib kelishi bilan sezgan edi. Nima qilsa ekan? Bechora Matniyoz! Yetti yillik tinimsiz ish. Yarim kechalari kutubxonadan

ko'zlar qizarib qaytganda, yoki ov etigining qo'nji to'la sozliq loyi bilan ekspeditsiyadan kelganida «Kasali yana qo'zimasaydi!» deb yuragini hovuchlab kutib olardi Komila. Mana shuncha tahlikalarning oqibati. U iztirobini yashiryapti. Alamidan sevgilisining yelkasiga boshlini egib, yig'lab yuborgisi kelsa ham, o'zini tiydi.

– Kechir, men yetib kelolmadim... – dedi uning ahvolini sezgan Komila; bag'rining butun haroratini, butun mehrini unga berish uchun, yumshab erining quchog'iga indi.

– Bu haqda keyin, keyin, Komila... Issiq choy ich, uxbab ol. Bilasanmi, men seni kutdim. Zaldan qidirdim. Doim ko'rib turdim seni, Komila...

Komila qorong'ida yurgandek turtinib, tentirab yurib, stol tuzadi. O'tirmasdan, piyolani puflab yurib choy ichdilar.

– Odam ko'pmidi?

Matniyozi bosh irg'adi.

– To'rt soat olishdim...

– Shuman?

– Shuman.

Komila erining horg'in yuziga qaradi.

– Sen xafa bo'lma.

– Men xafa emasman, – Matniyozi o'zini tetik ko'rsatishga urinib, karavotga o'tirib, tizzasiga shapatiladi, – yetarli ovoz olmasam ham, Shumanning yondashuvini astoydil qaqshatdim. Bu nomzodlik unvonidan muhimroq. – U o'rnidan turib ketdi. – Mayli, bo'lmasa – go'rga. Nihoyat qutuldim. Men bu dissertatsiya deb xudbin bo'lib ketdim, senga e'tiborsiz bo'la boshladim. – Komilaning kiftiga ikki qo'lini qo'ydi. – Safaring qalay bo'ldi, Shag'alay? Hech kim xafa qilmadimi?

Komila bir vaqt unga Zosim Prokofyevich haqida gapirib, uning o'ziga «Shag'alay» deb laqab qo'yganini aytgan edi. Bu Matniyozga juda yoqdi. O'shandan beri uni erkalaganda «Shag'alay» deb ataydi.

– Endi bu haqda bas. Bolalarga boramiz, – dedi Komila.

– A?

– Quvonch kunlari ham, xafagarchilikda ham albatta bolalarni ko'rgani boramiz deb shartlashmovdikmi?

– Ha, ha. Agar charchamagan bo'lsang...

Komila kiyimlarini o'zgartirgani to'siq orqasiga o'tdi. Xonaning bir burchagi to'la shiftgacha kitob, ish stoli, bir burchagi parda bilan to'silgan yotoqxona, derazali tomon esa «mehmonxona» atalib, unda ovqat stoli, televizor, magnitofon, toshoyna, uning tepasida Tansiqboyevning «Orol peyzajlari» osig'liq edi. Matniyoz kursilar oralab yurib turgancha Komila kalta sochini orqasiga turmaklab, atlas ko'ylak ustidan ixchamgina jun fufayka kiyib chiqdi. Kechagi shiddatli kapitan yo'q, shiringina, durkun kelinchak, jajjigina jonsarak ona paydo bo'lgan edi.

– Ketdik, – dedi u.

Tanish kemachi chol ularni Amudan o'tkazib qo'yib, orqalaridan ma'noli qarab qoldi. Hali ko'plar Komilaning oilasidagi o'zgarishdan bexabar edi. Matniyozni esa uncha tanimas edilar. «G'ijim kostyum kiyib olgan bu bo'ydor, chayir yigit bizning kapitanni nega qo'ltiqlab ketyapti?» degandek qarar edi odamlar.

Xo'jaylining ko'chalari ilgarigidek chang. Daryo shabadasi sariq terak barglarini pildiratib

uchirib yuribdi. Komila bilan Matniyoz baliq hidi anqib turgan qirg'oq mahallalaridan o'tib, yuqoriga chiqdilar. Univermagga kirib, «Bunisi Uchqunga», «Bunisi To'lqinga» deb, kerak-nokerak narsalar xarid qilib, yelkalariga son-sanoqsiz qutilar, tugunlar osib oldilar.

Matniyoz xotini nima desa shuni qilardi-yu, lekin ich-ichidan unga achinib qo'yardi. Bolasi ni tashiab ketgan xotinning ahvoli shu-da: quruq borolmaydi, sovg'a ko'tarib borsa, yana ta'naga qoladi. Butun mehri o'sha bolalarda ekanini esa hammaga tushuntirish qiyin. Mana hozir Anzirat uyda bo'lsa, tag'in... Qachon tugaydi bu ko'ngilxiralik? Matniyoz Komilani bu dilozorlikdan asragisi keladi-yu, lekin iloji yo'q, nima qilishi mumkin? Bolalarning hech bo'lmasa bittasini talab qilib, yana sudlashsalarmikin? Sud ham jonga tegdi. Sudyalar ham qonunlar majmuasini qo'ya turib, odamlarning bir diligiga kirib boqsalar edi! Kimning dilida hisob-kitob-u, kimning dilida mehr-harat – bir bilishga urinib ko'rishsa ekan!

Sattorning yuk mashinasiga mo'ljallangan katta darvozasiga yetib kelishdi. Ayvonning ustuniga ikkita uloq bog'langan, pastki zinada Sattor bilan Ochil buva indamay bosh egib, yer chizib o'tirishar edi.

Darvoza ochilganda ular o'rinalaridan turishdi. Komila avval tanimay ko'zlarini pirpiratdi-da, keyin yelkasidagi qutichalarni irg'itib tashlab, oldinga otildi:

– Buva! Buvajon!

Biroq Ochil buvaning oppoq qoshlari ko'zini to'sib tushganini, yuzida biron o'zgarish bo'lma-

ganini ko'rib, Komila birdan qanoti singandek, bir qadam qolganda to'xtab qoldi, bobosini qucholmadi.

Nariroqda Anzirat ko'rindi. So'rida Azimjon o'tirardi. Hozir orada yaxshi gap boshlansa otilib chiqqudek bo'lib To'lqin eshik tirqishidan qarab turardi. Matniyoz kiftiga o'nlab qutichalarni os-gancha darvoza oldida qoldi. Hamma jim edi.

– Keling, buva. Eson-omon kelibsiz, xursandsman, – dedi anchadan keyin Komila yerga qarab.

– Sen xursandsan. Sening ishlaring joyida. Le-kin mana men kelib kechadan beri qon yig'lab o'tiribman, – dedi Ochil buva.

– Nima qilibdi, buva?

– Nima qilibdi emish!

– Oldin gaplashaylik, buva, tushuntiray...

– Nimasini gaplashamiz, ko'rib turibman. Shu yoshga kirib egadigan bo'ldim egilmagan boshimni. Nima qilib qo'yding?.. – Cholning tovushi qal-tirab ketdi... – Qaridim men, bolam, qaridim. O'limdan qo'rmas edim, endi qo'rqaman, senlar-ni shu ahvolda qoldirib ketishdan qo'rqaman. Seni, bolalaringni...

– Buva...

– Gapirma, uyati yo'q! Ochil buvaning avlodida hali munaqasi bo'lgan emas.

– Buva, begona odam oldida... – Komila beqa-sam kiyib so'rida sipogina o'tirgan Azimjonga ko'z qirini tashlab qo'ydi.

– Begona emas u. Ammavachchang. Azimjon. Seni ko'rsatay deb olib kelgan edim, tanishtirgani ham nomus qilib qoldim.

– Men nomus qiladigan ish qilganim yo'q axir, buva...

– Oilani buzib, ikki bolani chirqiratib tashlab ketish qaysi odobda bor, esi past? Bu tirik yetimlarning uvoliga qolishdan qo'rqmadingmi?

– Nega yetim bo'ladi, men o'libmanmi?

– O'lganining yaxshi edi, daydi! Tag'in uyalmasdan kelib, ko'zimga baqrayib qarab turganini qara!

– Bolalarimni ko'rgani keldim.

– Bolalaring yo'q bu yerda! – Ochil buva o'zini tutolmay qoldi.

Shu payt Anzirat ham qilpanglab borib, Matniyozning qo'lidagi sovg'alarni oldi-da, darvozadan ko'chaga qarab uloqtirdi. Matniyoz indayolmay, qattiq izza bo'lganicha turardi.

– Bola kelib ko'rib ketadigan buyum emas, bolaga ona bo'lish kerak.

– Buva, siz bilmay aralashyapsiz...

– A? Kolxozning ishiga aralashadi Ochil buva, zavodning ishiga aralashadi, hukumatning ishiga aralashadi, sening ishingga aralasholmay qoldimmi hali? Bor, qayerda daydib yurgan bo'sang, o'sha yerga ket. Bu hovliga qadamingni qo'yma, jo'na! Ko'zimga ko'rinsa!

Komila yig'lab yubordi. Matniyoz yugurib kelib, uni darvoza tomonga boshladi. Azimjon kelib Ochil buvani tinchitishga urinar, Sattor bo'lsa bir og'iz gap aytolmay, og'zini ochgancha bir chetda turar edi. Ichkaridan To'lqinning o'ksib yig'lagani eshitildi.

– To'lqin, Uchqun... – deb qichqirib yig'ladi Komila, lekin Matniyoz uni «O'zingizni xor qilmang» degandek, orqaga qaytishga undadi. Nariroqda Anzirat javrar edi.

– Uchqunginamni ko'rsatmayman, yaqin yo'latmayman, shundoq ham isitmasi bor...

– Kasalmi? – Komila yana qattiq yig'lay boshladи.

– Bor, deyman. Jo'na! Yig'lashni bilgan odam vaqtida o'yashi kerak edi, – dedi Ochil buva. – Darvozani yopib qo'y, Sattor, mening bunday nevaram yo'q!

Sattor yo'rg'alab borib «mehmonlar» chiqar-chiqmas darvozani yopib, yangi yo'nilgan pishiq tol tambani solib qo'ydi.

Hovli yana jimjit bo'lib qoldi. Ochil buva darmonsizlanib, yana o'sha zinaga o'tirdi. Sattor uning yoniga borib cho'kkaladi, yerga tikildi.

Ular shu xilda uzoq o'tirishdi. Ichkarida Anziratning «Girgitton, aylanay», deb nevaralariga parvona bo'lgani eshitilar edi. Ochil buva tiq etsa darvozaga qarab kechgacha o'tirdi. Komila yana qaytib keladi degan umidi bor edi shekilli.

– Chakki bo'ldi, Ochil buva, – dedi ertalab-dan buyon indamay o'tirgan Sattor birdan tilga kirib. – Bunday qattiq ketmasangiz bo'lardi... Ehtimol bir kun borib yarashardik. Yaxshi ko'rmasa ko'rmaapti, mayli, turaverardik. Xotini tashlab ketibdi degan gap yomon..

O'zini bosib olgan Ochil buva Sattorni birinchi marta ko'rayotgandek, yoniga qayrilib unga uzoq tikilib qoldi. U hozirgina dovuldek bo'lib o'tgan voqeani o'ylab, nima bo'lganini aniqlayolmay har ikki tomonning dalillarini sovuqqonlik bilan taroziga solmoqchi bo'lib o'tirganida, Sattorning gapi butun fikri-xayolini ostin-ustun qilib yubordi. Bu beso'naqay, kamgap, yuvosh odam unga hozir to'ngakdek hissiz, ho'kizdek befarq ko'rinish ketdi. «O'z bolamga o'zim nimalar dedim», deb ich-etini yeb turganida shu odamning gapi hamma nar-

sani ochiq-oydin oshkora qildi-qo'ydi. O'ylab qarasa, o'zi ham Komilaga shu odamning gapini aytgan ekan: yaxshi ko'rmasang ham, jirkansang ham turaver. Ya'ni, moldek.

Bobo birdaniga o'zidan ham nafratlanib, o'rni-dan turib ketdi. Shu turganicha o'tirmadi ham, yotmadi ham. Nevarasiga aytgan gaplari o'qtin-o'qtin yodiga tushib, yuragini o'rtar edi. Darvoza tomon ham bir necha marta borib keldi, yerda sochilib yotgan o'yinchoq, avtomobil, koptok, plastmassa askar, g'ildirak, tag'in allanimalarni yig'ib olib, yaktagining etagi bilan changini artdi, pufladi, olib kirib uxlayotgan evaralarining karavotlariga terib qo'ydi. Kichkina Uchqunning peshanasini ushlab ko'rmoqchi edi, bola uyg'oq ekan, gapga tutib qoldi:

– Opoq buva, mening bitta oyim bor, ikkita dadam bor. Bitta dadam oyimniki, bitta dadam meniki. Haligi oyimniki dadam-chi, uyam meniki. Menga toychoq olib bergen...

– Xo'p, xo'p, bolam, – cholning ko'zidan yosh chiqib ketdi, – hozir uxla, ko'rdingmi, hammayoq qop-qorong'i bo'ldi.

Chindan ham hammayoq qop-qorong'i edi. Ochil buva eshiklarni paypaslab asta tashqari-ga, Azimjon yotgan so'riga chiqdi. Azimjon ham uyg'oq edi.

– Endi nima bo'ladi, buva?

– Xato bo'ldi, bolam. Yomon xato bo'ldi, – dedi Ochil buva. O'rniga yotdi. Ag'darildi, to'lg'andi, boshqa hech nima demadi.

Tong saharda ketish taraddudiga tushib qolishdi. Apil-tapil nonushta qilgach, bobo pishillab

uxlab yotgan evaralarining peshanasidan o'par ekan, Sattor bilan onasi bu kutilmagan gapdan hang-mang bo'lib qolishdi. Anziratning yalinib boqishlariga qaramay, Azimjon ham xurjunini yelkasiga tashladi.

Kuz oxirlab kelayotgan edi. Daryoda junjikib qolishdi. Nukus ko'chalarida ham chang to'zg'itib sovuq shamol kezardi. Azimjon yengi bilan yuz-ko'zini to'sib xurjunni ko'targanicha bobosi ketidan arang yetib yurardi.

- Endi Akbaralinikiga boramizmi, buva?
- Ha, shu bugunoq jo'naymiz, - dedi Ochil buva. - Mana shu idoraga birrov kirib chiqaylik.

Azimjon: «Komila shu yerda ishlar ekan, boba kirib undan uzr so'raydi shekilli-da», deb o'ylab, xurjunni yerga qo'ydi.

- Yura qol sen ham, shamolda nima qilasan...
- dedi Ochil buva.

Ular zinadan ikkinchl qavatga chiqib, bir xona-ga kirdillar.

- Prokuror senmisan, bolam? - dedi Ochil buva to'rdagi stolda o'tirgan yoshgina chiroyli yigitga. Tikilib qararkan, yigitning quyuq qoshlari orasida yo'g'on tugun paydo bo'ldi.

- Ochil buvangman, birpas vaqtingni olsam maylimi?

- Xizmat, xizmat, ota, eshitganman sizni. Bar-dammisiz, omonmisiz! Xush kelibsiz...

- Gap bunday, - dedi Ochil buva yumshoq kursiga o'tirarkan, katta ro'moli bilan yuz-ko'zini artib. - Komila mening nevaram bo'ladi, ularning sudlashganidan xabardormisiz?

- Ha, ha, xabarim bor.

– Ishni boshqatdan ko'rish kerak.

Yigit hayron bo'lib, yelkasini qisdi-da, bobo-ning ro'parasidagi kresloga o'tib o'tirdi.

– Sabab, Ochil buva? Hukm viloyat sudida tas-diqlangan. Yo ajralishiari chakki bo'ptimi?

– Ajralishlari to'g'ri. Juda to'g'ri bo'libdi. Lekin bolalarning hech bo'lmasa bittasi, kichkinasi ona qo'lida qolishi kerak.

Prokuror bu cholning soddalik bilan qonunga aralashayotganiga miyig'ida kulib qo'ydi-da, yotig'i bilan tushuntira ketdi.

– Biz avvalo oilani himoya qilamiz. Oila buzilmasın deb ko'p urindik, bo'lmadı. Nevarangiz oyoq tirab turib oldi. Modomiki, oilani buzuvchi tomon u kishi ekan, bolalar ota qo'lida qoladi. Qonun shunday, Ochil buva.

– Oilani himoya qilasiz... Menga qara, bolam, hech qanaqa oila yo'q edi u yerda, bo'lмаган, ha. Mehr-muhabbatsiz oila oila bo'ладими? Biz eski odamlar-ku, ko'pincha nodonligimizga borib, allaqachon yo'q bo'lib ketgan shunday oilalarни tish-tirnog'imiz bilan himoya qilamiz. U bechoralar ham bizni deb, ko'nikishga urinishadi. Asli-da esa bu sovuq osh ichgandek gap... Bunday oilalar oz deysanmi? Biz qariyalar oila buzilmasın deb jon chekamiz. Sizlar-chi? Siz yoshlar-ku, axir. Muhabbatning nima ekanini obdan bilasizlar. Mana sen «qonun shunday» deding. Yaxshi, qonuningda hamma narsa bor ekan, hech narsani ko'zdan qochirmabdi, ko'ngil-chi? Ko'ngil haqida hiron gap bormi unda?

Yigit avval qosh chimirib o'yladi, keyin kului:

– ...Bor... Bu haqda ham u-bu bor, Ochil buva.

– «U-bu!..» Ko'ngil bir-biridan suv ichmasa ham, oilalar qattiq turib himoya qilinsin, muhabbatii turmushmi qadrlagan odam onalik huquqidan mahrum etilsin deyilganmi?

– Yo'q, unday deyilmagan... – dedi sal o'zini yo'qotgan yigit stoldan nimanidir qidirib.

– Deyilmagan bo'lsa, ishni qayta ko'ringlar. Uchqunjon onasining bag'rida bo'lishi kerak. U hozir ichikib, isitmalab yotibdi. Onasini yoniga yo'latishmayapti. Kecha ham... haqorat qilib uydan quvib chiqarishdi... – Ochil buva eshik tagida o'tirgan Azimjonga negadir yalinganday hazin qarab qo'ydi. – Mana, mehmonning oidida...

Azimjon tasdiqlab, tez-tez bosh irg'ab qo'ydi.

– Xo'p, ko'ramiz, buva.

– Sen yozib qo'y, kalendar varag'ingga yoz; kichkinasi Uchqun, onasi – Komila. Olimtoy darg'aning qizi. Ha.

Prokuror sal jilmayib, yozib qo'ydi: «Uchqun. Komila».

– Men surishtiraman.

– Xo'p, xo'p, Ochil buva. Siz bir narsani bilmay gapirmaysiz axir.

«Ha, gapirmayman-a, shundoq ham ahmoqona gaplarni gapiramanki! Kecha eshitsang edi!» deb ichida g'amgin o'ylab qo'ydi Ochil buva. Sog'ingan jigarbandini bag'rige olib suyish o'rninga nohaq haqorat eshitib, yelkalari qaltiragancha yig'lab chiqib ketayotgan Komila ko'z oldiga keldi. Aytganday, yonidagi yigit... Endi yodiga tushdi. Ochil buva unga tuzukroq qaramabdi ham. Bir og'iz gapini ham eshitmadi. Mag'rur bo'lsa kerak...

Hozir topib borib, bir tanishib, bafurjaroq gaplashib o'tirgisi keldi-yu, bo'yni yor bermadi. Kechagi gaplardan keyin qaysi yuzi bilan boradi? Lekin bir borib uzr so'rashi kerak. Manavi ishlari tuzalsin-chi...

- Esingdan chiqmaydi-ya, bolam?
- Yo'q, yo'q, ota, bugunoq ishni so'ratib ola-man, - dedi prokuror.
- Keyin surishtiraman-a?

Ko'chaga chiqqanlarida shamol tinib, quyosh charaqlab ketgan edi. Azimjonga ham xurjun parday yengil tuyulib ketdi. Bobosi ham ancha ochilib, gap ham topila qoldi.

- Nazarimda, bolalarimni muttasil ter gab o'z izmimda tutishga o'rganib qolibman. Ularning ham gapiga quloq solish kerak ekan shekilli.

- Ha, endi, qarilik...
- Yo'q, eskilik!

Azimjon o'ylab turib, gapni o'zgartirdi:

- Buva, Olimtoy tog'am kim bo'lgan?

- Komllaning dadasimi? - Ochil buva soqolini tutamlab, siypab qo'ydi. U bir nimadan g'ururlanganida shunday qilardi. - Orif tog'angdan kattasi, darg'a edi. Yosh o'lib ketdi...

- Komila qo'rqa digan xotinga o'xshamaydi.

- Onasi dalada burgutday erkin o'sgan. Qozoq qizi edi. Bularning xonadonida nima ko'p, xotin-qiz ko'p bo'lardi, ammo paranji bo'lgan emas...

Hozir buvaning gapga hafsalasi bor edi. Olimtoy darg'a haqidagi gap uning kayfiyatiga juda mos tushib qoldi. Keta-ketguncha, Samarqandga yetguncha hikoya qildi.

Azizlar, odam safarga chiqqanda, ermakka al-batta bironta kitobcha ola ketadi. Mening odatim

shunaqa, siz ham shunday bo'sangiz kerak deb o'ylayman. Bu hikoyat siz uchun zora shuning o'rniغا о'tsa.

HIKOYAT

To'ng'ichimni madrasaga berdim deb, Ochil buva hech narsadan xabari yo'q, kerilib yura-veribdi. Olim bo'sa bir qozoq savdogarning karvoniga ergashib, Buxorodan allaqachon qochib ketgan ekan.

Ochig'i, karvonga emas, savdogarning qiziga ergashib qochgan edi. Qizni u dastlab namat bozor yonboshidagi karvon saroyda uchratdi. Olimdan ikki yoshcha katta, anordek tirsillagan bu qiz qop-qop jun ortilgan nortuyaning yonida qo'liga xivich ushlab turardi. Yigitning ko'ziga yolqindek ko'rindi. Olim erkak kishiga bunday ochiq tikilib, charaqlab jilmayib turgan qizni birinchi ko'rishi.

– Ay, mo'lda jigit, neg'ib tursing? – dedi qiz sho'xlik bilan, tuyaning bo'ynidan quhib.

U qizil etik, qizil kamzul kiygan; manglayida, bo'liq ko'ksida kumush tangalar jiring-jiring qilardi. Olim ham endi o'n yettiga qadam qo'ygan, sabza mo'ylov, qora qosh, kelishgan mullavachcha edi. Ular bir-birlarining ko'z qarashlarini darrov tushuna qoldilar.

– Sening otting nima? – dedi Olim ham bu ochiqlikdan dadillanib.

– Bazar kuni kelseng aytamin... – dedi qiz.

Olim bozor kuni ham, begin kuni ham keladigan bo'ldi. Zax madrasa hujralarining ziqlana hayotidan so'ng bu yangi, qaynoq, sirli, yorug'

hislar dunyosi Olimni butunlay o'ziga tortib ketdi. Yonoqlari yonib turgan qozoq qizidan boshqa narsa ko'ziga ko'rinxmay qoldi. Uning oti Jamol edi. Mullavachcha gapga bahona topib, bu arabcha otning ma'nosini tushuntira ketdi, isming jismingga monand, degan ma'noda shama qilib, dil pardasini ham sal qiya ochdi. Qiz sho'x, ochiq, suluv bo'l shidan tashqari, juda pishiq otin ham chiqib qoldi. Shuning uchun ham birinchi kundan boshlab suhbatlari qovushib, ikkalasiga ham bir umr tugamaydiganga o'xshab ko'rindi.

Jamol qaytib ketayotgan kuni shahardan ancha uzoq cho'lda otasining karvonidagilar orasi-da Olimni ko'rib, avval bir oqarib, bir qizardi.

– O'y-bayov, dening sovma... – dedi-yu qinidan chiqib ketayotgan yuragini ushlab, teskari qaradi, yoshli ko'zlarini yashirdi.

Shunday qilib, ko'p o'tmay Olimjon Elekboy degan chorvachi savdogarga ichkuyov bo'lib, Ko'kchatovda qolib ketdi. Bu yerda uning oti Olimtoy bo'lib qoldi.

Elekboy o'zi omi bo'lsa ham, bolalarini cho'l odati bo'yicha o'z erkiga qo'ygan, faqat bilimli bo'l shinsin, o'z mollarini o'zlari sanab, o'zlari orttiradigan bo'l shinsin, deb qayg'urar edi. Olimtoya madrasada o'qigan forscha, arabchasidan ham ko'ra Buxoro ko'chalarida, bozorlarida o'rgangan ruschasi ko'proq ish berib qoldi. Ko'p o'tmay yangi shahardagi boshiang'ich maktabga muallim bo'lib kirdi, bilimli rus, qozoq yigitlaridan do'stesh orttirdi.

Ayniqsa, Omskdagi kadet korpusida o'qiy-digan Valera degan do'sti aqli, bilimi, dilkashligi

bilan uning butun vujudini qamrab olgan edi. Bu do'stiga uni hatto Jamol ham rashk qilib, kech kelganida: «Kecha-yu kunduz o'shanikida qolib ket! Yotib qola qolmabsan-da?» deb achitardi.

Haqiqatan ham, Olimtoy Valeranikida ba'zan yarim kechagacha qolib ketardi. Uning otasi Vladimir Yakovlevich asl zoti zodagonlardan, ya-qinda bu yerga garnizon boshlig'i qilib tayinlangan chor zobiti bo'lsa ham, onasi Yuliya Nikolayevna Olimtoydek oddiy muallima edi. Bu uyda shaharning ko'p bilimli odamlari, musiqa, adabi-yotni sevuvchi tagli-zotli ziyyollari, Valera ta'tilga qaytgan vaqtarda esa yoshlar to'planishar, siyosat haqida, urushlar, shoirlar, podsholar, talaba g'alayonlari haqida tortishuvlar bo'lar, kitoblar o'qilar, hatto mehmonxonada spektakllar qo'yilar edi. Bularning hammasining markazida Valera turardi. Yuliya Nikolayevna o'g'lini yaxshi ko'rар, nima qilsa ixtiyoriga qo'yib bergen edi. Olimtoy uning o'g'lini qanchalik yaxshi ko'rganini bu oilada o'ziga bo'lgan munosabatdan ham anglab oldi. Shaharda eng bilimli, kamtar, sofko'ngilli muallima, deb dong'i ketgan bu mehribon ayol Olimtoyna bolalarning psixologiyasi haqida gapirar, o'qituvchilik uchun olgan oltin medalini o'z o'g'liga ko'z-ko'z qilgandek ko'rsatib faxrlanar edi. U vaqtida kamdan-kam uchraydigan bu mukofot Valeraning xonasidagi qora eman komod ustiga yopilgan yashil baxmal dasturxon qatida yiltillab yotardi. Dasturxon katta, komodga ikki buklab yopilgan, uzun zarrin popuklari polga tekkuday osillb, nurday taralib turardi.

Bu xonodon, undagi odamlar, Valera va uning suhbatlari Olimtoy uchun bir olamdek tuyul-

sa, uyg'a qaytganida u dimiqqan bir burchakka kirib kelgandek bo'lardi. Hovlidagi qora uyda Elekboyning bir-birini zimdan ko'rolmaydigan do'stlari, qozoq boylari, rus savdogarlariga to'planib, qimiz ichishar, shaharning kazo-kazolariga chox qazib, fisqi-fujur, g'iybat so'qishar, ba'zan shaharning martabali boylari qatori Vladimir Yakovlevichni ham o'zlarining hasad, meshchanlik shaltog'iga bulg'ashar edi. Ayniqsa, Elekboyning yon qo'shnisi, asli jallob kazak Gavrila Afanasyevich garnizon boshlig'ini ikki gapining hirida tilga olib, goh uning oq qo'lqop kiyganini, goh sassiq askarlar bilan qanday do'st tutinganini kalaka qilib, ichagi uzulguday xir-xir kular edi. O'tovdagilar kerilishib, kekirishib tarqalishganda Olimtoy yuziga tupuk sachragan odamdek ko'ngli g'ash, tabiati tirriq bo'lib, olam ko'ziga qorong'i ko'rinish, kechalar bilan uxmlamay chiqardi. Bu xonadonda uning birdan-bir ilinji Jamol edi, xolos.

Hali tungi jimlik hukmron. Faqat uzoqdan, Kapako'l qamishzorlarida tongning ilk nuridan uyg'ongan makiyon qirg'ovulning toqatsiz qichqirig'igina eshitiladi. Qilchiqsoyning yuzini bezovolta ko'pirib turgan quyuk oq tuman qoplagan. G'ira-shirada yangi kun tug'ilib kelayotir, tunning so'nggi sirlari etagini sudrab qochmoqda...

Shu mahal Qilchiqsoyning berigi qirg'og'ida ikki sharpa paydo bo'ldi. Ular shahar tomonidan, allaqaysi jin ko'chadan chiqib kelishdi, g'ovlab yotgan jing'il oralab toshloq so'qmoqdan pastga tushishdi. Soy yoqasida to'xtab, bir nima ni gaplashishdi-yu bir-birlariga ergashib, yana pastga, soyning jar tagidan teran oqadigan joyi-

ga qarab ketishdi. Ular bu yerda begonadek asta-sekin, qoqillb-surinib yurishar, bir-birlarini suyashar edi. Oldingisining qoʻltigʻida katta tugun, orqadagisi... orqadagisi xotin kishi chogʻi... Ajabo, kim boʻldi bular, nima qilib yurishibdi tunda, nima sir?..

Tong hamon gʻira-shira, tun bu sirni yashirib qolmoqchidek, ketishga shoshmaydi. Lekin ufq-da osmon yorishib uni qistaydi; tuman pardasi yana oqarib, sal koʻtarildi, harir tortdi, soyning shovillashi eshitila boshladi.

Ikki sharpa tikka qirgʻoq tepasida, gʼovlab oʼsgan yovvoyi oʼt-oʼlanga nimanidir yoygach, birpas tikka turib qoldi, keyin quchoqlashdimi, yigʼlashdimi – bilib boʻlmaydi Erkagi yana bir nimalar koʻtarib kelib oʼrtaga qoʻydi. Soy toshlari sharaqladi. Tosh? Bu nima, ibodatmi, vidolashuv-mi? Oshiqlarmi, oʼgʼrilarmi?

Saharlab hovli etagida paydo boʻlgan Gavrila Afanasyevich bu sharpalarni uzoqdan koʼrib, shoshib-pishib choʼqindi-da, yugurib borib qoʼshnisini uygʼotdi. Elekboy ham oq koʼylak, oq ishtonda, xuddi arvoofday, siyrak soqolni tutamlab qora uydan alanglab chiqib keldi. Ular soy tomonning eski chetaniga borib, qichitqon orqasiga pusishdi.

Sirli sharpalar hamon ivirsir edi. Ularning tugunlari yana ham katta boʻldi, endi uni ikkovlab koʼtardilar.. Koʻtarib jarlikka olib bordilar.

Tong yorishar, tuman siyraklashar, soy shabadasi yovvoyi oʼlan islarini olib kelar edi. Elekboy bilan Gavrila sovuqdan qaltirab, chetanga yopishgancha qirgʼoqdan koʼz uzmay turishibdi. Bir mahal soyning payvast shovillashini buzib,

suvga niinaningdir shaloplab tushgani eshitildi. Elekboy, tanasi jimirlab ketib, ko'zini yumdi. Lekin ochib qarasa, sharpalar ikkalasi ham jar tepasida turibdi. Ular qo'llaridagi tugunni tashlagan edilar.

Elekboy bilan Gavrila bir-birlariga qaradilar, yelka qisishdi. Gavrila to'rva soqoliga barmog'ini turtib cho'qinar, bir qo'li bilan qichitqon achitgan dumbasini qashir edi. Bu payt ko'zlari baqraygan Elekboy chetanga mahkamroq yopishdi.

– Uypirim-ay! Minau Volodimir Yakobiebish emespi?

– A? Jinni bo'ldingmi, qo'shni?

– So'lg'o'y! O'y-bayov! Janindag'i ayelig'o'y! –

Haqiqatan ham, o'shalar edi. Ular jar tepasida birpas turib orqaga qaytishdi. Birovni ko'mib ke layotgandek g'amgin edilar. Vladimir Yakovlevich pidjagini yechib, Yuliya Nikolayevnaning yelkasi ga yopdi, g'ovlagan jing'ilni oralab asta-sekin so'qmoqdan chiqib kela boshiadilar.

Gavrila bilan Elekboyning yuzidagi qo'rquv o'rnini mamnun jilmayish egalladi. Ular hamon qichitqon orasida bukchayib turib tinmay ku zatishar, ko'zlarida sirli sinchkovlikning rohati, birovni jinoyat ustida qo'lga tushirgandek qoniqish, mamnunlik alomati o'ynar edi. Hazilmi, shaharning harbiy xo'jayini, podshoning qo'ygan amaldori, borib turgan badavlat, obro'li zodagon ning qandaydir sirli bir ishidan voqif bo'lish...

Ammo nima sir? Bu martabali, keksa odamlar kechasi, bu yovvoyi qirg'oqda, yolg'iz, o'g'ridek alanglab nima qilib yurishibdi? Suvga nimani tashlashdi, qayoqdan ko'tarib kelishdi, nega? Bu yerda bir gap bor!

Elekboy bilan Gavrila Afanasyevich, xazina topgandek, anchagacha o'zlariga kelolmadilar. Ularni allaqanday ichki bir quvonch garangsitib qo'ygan edi.

– Nemi tastadi? – dedi Elekboy qo'raka qaytayotib. Gavrila o'zida qandaydir kuch sezib, quruqshagan kaftlarini bir-biriga tez-tez ishqardi. «Nemi tastadi» – Gavrila uchun buning uncha ahamiyati yo'q edi. Muhimi – ko'rib qoldi, tanib oldi. Obro'li, qudratli bir odamning tilini qisadigan sir uning qo'lida. Bir kuni ish berib qoldi bu qurol...

Ularning tongsovug'ida sharros terlab, yelpinib, hayajonda gaplashib, iljayib kelayotganini hovli yuzida Olimtoy ko'rib qoldi. Tikilib qaradi-yu, tushunolmay yelkasini qissdi.

Shu kechasi shaharning harbiy va ma'muriy mahkamalarida chiroq o'chmadi: kechga yaqin ko'chalarda, maydonlarda, hovlilarda, hatto garnizon baraklarida ham dasta-dasta varaqalar paydo bo'lgan edi. Varaqalarda ayrim harhiy qismlar, flot ekipajlari qo'zg'olonchi xalq tomoniga o'tayotgani aytilib, polklarni ishchi birodarlariga o'q otmaslikka chaqirilgan, «Yo'qolsin hokimi mutlaq!» deb xitob qilingan edi. Hali bu atrofda bunday hol yuz bergen emas. Shaharda butun politsiya oyoqqa turg'azildi. Tuni bilan hovlilarni tintib, tomlarga, simyog'ochlarga tarmashib yurib, varaqalarni yig'ib olishdi. Sarosimada xirillab qolgan politsiya boshlig'i shalaq telefon dastasini yarim soatcha aylantirib, garnizon boshlig'ini uydan toptirib keldi. U qo'rkoqligini ham, shafqatsizligini ham shirin-shakar gaplari bilan yashirib yuradigan, novcha, ozg'in odam edi.

– Mana, hurmatli Vladimir Yakovlevich, bular garnizon yotoqxonalaridan yig‘ib kelindi. Bezovta qilganim uchun afv etasiz...

– Nima qilay? – dedi Vladimir Yakovlevich beparvoroq oyoq chalishadirib o‘tirib. Mo‘ylovi asabiy qimirlab turadigan bu «shirin so‘z» nodonni u jinidan ham yomon ko‘rardi, bugun esa huzuriga o‘zi bormay, politsiya mahkamasiga chaqiritrib kelganiga battar xunob. – Varaqlar... bu – sizning sohangiz, janob rotmistr.

– Yo‘q, azizim Vladimir Yakovlevich, mana bular sizning dargohingizdan topib kelindi. Demak, afv etasiz, polklaringizda fitnachilar bo‘lsa, buning sizga ham, azizim, ha, sizga daxli bor. Siz buning naqadar xavfli ekanligini tushunib yetmayapsiz. Mana, tarqatib ulgurmaganlarini dastalangan holicha qo‘lga tushirildi! – Politsiya boshlig‘i dastalab bog‘langan varaqalarni yerdan olib stolga do‘qillatib tashilar, o‘zi hamon gapirar, mo‘ylovi asabiy qimirlasa ham, «hurmatli», «qadrali», «azizim»larini qo‘ymas edi. Vladimir Yakovlevich stoldagi dastalarga qarab ko‘zini ololmay qoldi, ular hammasi bir xil kalta-kalta zarrin ipak ip bilan tang‘ib bog‘langan edi. «Marhamat qilib...» «Siz bilan bizning podsho hazratlari oldidagi burchimiz...» «Garnizoningizda...» «Men buning tagiga yetmay qo‘ymayman...» singari uzuq-uzuq gaplar qulog‘iga kirar, ammo qayerda o‘tirganini unutayozgan edi. Zarrin ipak iplar... ko‘ziga tanish ko‘ringan iplar uni lol qilib qo‘ydi.

– Menga bering bularni, janob rotmistr, – dedi Vladimir Yakovlevich o‘zini tutib olib, – men zabitlar orasida astoydil tekshirish o‘tkazishim ke-

rak... – O'rnidan turib dastalarga qo'l cho'zgan edi, rotmistr uni to'xtatdi.

– Afv etasiz, qimmatli Vladimir Yakovlevich, bular bizda qoladi, – dedi yer tagidan qarab. – Tekshirishni biz o'tkazamiz, mana bu zarrin popuklar bizga fitnaning uyasini topib beradi!.. – O'zidan o'zi juda mammun rotmistr bu payt Vladimir Yakovlevichning yuzi oqarib ketganini payqamadi, u o'zi bilan o'zi band, o'z rejalariga o'zi qoyil edi, gapida davom etdi: – Ha, biz o'zimiz tekshiramiz, aziz Vladimir Yakovlevich. Siz esa garnizoningiddagi ahvol to'g'risida yozma izoh berasisiz.

– Yozma izoh?! Sizgami? Men sizga tobe emasman, rotmistr. Kim bilan gaplashayotganingizni unutmang. Mahkamangizni hurmat qilib kelib o'tiribman, ammo meni tergov qilishni xayolin-gizga keltirmang!

U o'rnidan turdi, rotmistr mo'ylovihi likillatib o'tiraverdi.

– Lekin ahvolingiz bunday kibr-u havoga monand emas, azizim...

– Sizning ahvolingizga voy, rotmistr! O'zingiz talvasada qaltirab o'tiribsiz. Mening esa qo'rqadigan joyim yo'q. Yaxshi qoling! – Vladimir Yakovlevich harbiycha xayrlashib, shart burilgancha chiqib ketdi.

Chiqib ketdi-yu, butun badanini sovuq ter bosgan, peshanasini hadeb sidirib artar, zarrin ipak tasmalar ko'z o'ngidan ketmasdi. Bu o'sha dasturxon popuklari... Yulianing sepi bilan kelgan o'sha baxmal dasturxonning popuklari. Bunday dasturxon shaharda boshqa hech kimnikida

yo'q... Vladimir Yakovlevich tuyulishda turgan izvoshiga chiqib, holsiz gavdasini orqaga tashladi.

– Paxom, qamchila.

Uyga kelgach, darrov bolalarning darsxonasi-ga kirib, Yuliya Nikolayevnani chaqirdi. Komod ustidagi baxmal dasturxonning zarrin popuklarini ushiab ko'rib, onda-sonda qirqilgan iplarini xotiniga ko'rsatdi; voqeani batafsil aytib berdi. Yuliya Nikolayevnaning rangi quv o'chib, sarosima bilan eriga qarab qoldi.

– Valera?..

– Shubhasiz...

– Endi nima qilamiz?

Vladimir Yakovlevich javob berolmadi, u eshikdan derazaga asabiy qadamlab yurar, yo'l-yo'lakay harbiy mundirini yechib, kamarini u yoqqa, kiyimini bu yoqqa irg'itar edi.

– Axir bu halokat-ku, Volodya, gapirsang-chi, – derdi Yuliya Nikolayevna yolvorib. Uning chuvak gavdasi yana ham kichkina bo'lib qoldi. – Bolaginamning butun o'qishiari ham, kelajagi ham...

– U birdan o'kirib yig'lab yubordi.

– Yuliya, Yuliya... – Vladimir Yakovlevich yugurib kelib uning boshini ko'ksiga oldi. – Uyat bo'la-di, bolalar kirib qolishi bor, ko'zingni art.

– Ha, ha... Nima qilamiz, Volodya, jonginam?

– Biz uni bu xatarli yo'ldan qaytaramiz albatta. Valera aqlli bola, lekin... lekin u qo'rqa diganlar-dan emas, shunisi yomon. Shunday bo'lsa ham biz uni bu yo'ldan qaytaramiz, Yuliya, amin bo'l. Bu – keyin. Hozir bo'lsa... – Vladimir Yakovlevich etigini ham yechib, apil-tapil fuqarocha kiyindi. Komod ustidan narsalarni yig'ishtirib, dasturxon-

ni sidirib oldi, g'ijimladi: – Hozir mana buni darrov yo'qotish kerak.

Yuliya Nikolayevna g'ijimlab oyoq ostiga tashlangan katta, qimmatbaho, qadrdon dasturxoniga qarab, butun yoshligi, butun umri g'ijimlab tashlangandek, bo'shashib kursiga o'tirdi. Shuncha yillik tinch, osoyishta hayotga zil ketgan edi.

– Ha, ha... – dedi Yuliya Nikolayevna mash'um bir falokatni sezgandek. – Yo'qotish kerak... Butunlay yo'q qilish kerak.

Yarim kechadan so'ng, bolalar uxlaganiga ishonch hosil qilgach, ular tugunni qo'lтиqlab asta chiqdilar.

Qaytib kelganlarida tong otgan edi. Sovuqdan, namdan junjikib, rangi ko'karib, birdan qarib qolgan Yuliya Nikolayevna yalang'och komodni ko'rib yana yig'lab yubordi. Uy huvillab qolgan-dek ko'rindi ko'ziga.

– Marhuma onamdan qolgan bitta-yu bitta yodgorlik edi... Kelinimga tutarman deb niyat qilgan edim, – dedi u pichirlab, o'ksib.

– Yuliya! – dedi Vladimir Yakovlevich norozilik bilan. – Ko'ngilchanlikning vaqt emas axir. O'g'lingning boshi omon bo'lsa, kelinga sovg'a topilar. Yig'layverasanmi! Mana men, ochig'ini aytaman, bir chekkasi, faxrlanyapman: shunday dovyurak, mustaqil bo'libdi, shayton.

– Ha, ha, Volodya... – dedi xotini yoshli moviy ko'zları bilan yalingandek tikilib, – lekin uni qutqazish kerak, jon Volodya, qutqaz uni bu halokatli yo'ldan!

Vladimir Yakovlevich xotinining boshini ko'ksi-ga olib, yosh bolani erkalagandek sochini siladi. Ular kundalik ishlariga kirishmoqchi bo'ldilar. Bo-

lalar turdi, hovlida, oshxonada xizmatkorlar paydo bo'ldi. Uyqusizlikdan, hayajonlardan toliqqan Yuliya Nikolayevna hech narsa yuz bermagandek beparvo bo'lishga urinar, bir joyda o'tirib-turishdan ham qo'rkar edi. Tuman ko'tarilib, quyosh charaqlashi bilan, xushchaqchaq hushtak chalib ko'chaga chiqib ketgan Valera uni biroz tinchitdi: o'sha-o'sha Valera hamma o'smirlarday sho'x, ziyrak, quvnoq; unda na serdiqqat o'ychanlik, na mutaassiblik, na sektantlikdan darak bor. Yuliya Nikolayevna «inqilobchi» deganda negadir avval mana shu xususiyatlarni ko'z oldiga keltirar edi. Valera bo'lsa... yo'q, Valera bola. Uni otasi o'z izmiga oladi, albatta oladi.

Tushga yaqin Valera bilan Olimtoy yugurib kirib kelishdi. Ko'chalarda politsiya otryadlarning izg'ib yurishi, shaharda boshlangan tintuvlar, qamoqqa olishlar ular uchun yangilik emas, kutligan hol edi. Lekin... lekin ularning yugurishdan qizarib ketgan yuzlarida sarosima asari yo'q emas edi. Hovlidan o'tguncha beparvoroq bo'lishga urinib, zinada, ayvonda, zalda hammaga avvalgidek odob va sipolik bilan salom berishdi-yu, Valeraning darsxonasiga yetar-yetmas birdan dukur-dukur yugurib, hovliqib kirib ketishdi.

Kirib yalang'och komod oldiga to'xtashdi. Bir-birlariga tikilishdi. Valera yugurib borib xizmatkorlar xonasini aylanib, so'rab chiqdi:

- Bugun biznikiga hech kim kelmadimi?
- Yo'q.
- Hech kim kelgani yo'q.

Valera darsxonaga qaytib keldi-da, Olimtoyning yelkasiga qo'l tashlab, derazaga o'ychan qaradi:

- Dadam.
- Vladimir Yakovlevich! Qayoqdan bilasan?
- Garnizon. Ip bilan tang'ilgan varaqalar kazarmadan toptirib kelingan.
- Demak, Vladimir Yakovlevich...
- Jim. Hali hech narsa ma'lum emas. Lekin iz yashirilgan, bu aniq. – Valera yalang'och komodni ko'rsatdi.

Ular qaytib chiqqanlarida mehmonxona ostenasida Vladimir Yakovlevichga duch kelishdi.

– Salom, yigitlar, – dedi u tetik. U Olimtoyga qaradi, lekin ko'z o'ngida o'g'li: quyuq qora sochli, uzunroq yuzli, manglayi keng, iyagi baquvvat, oltin pogoni bilan tugmalari yaltiragan kadet mundiri tik qomatiga yopishib tushgan Valera otasiga osoyishta, dadil qarab turardi.

– Salom, Vladimir Yakovlevich! – javob berdi Olimtoy ham o'zini dadil tutib.

Orada aytildigan gap ko'p edi. Vladimir Yakovlevich, chor amaldori, ularning podshoga qarshi fitnasini qo'llamoqchi emas, aksincha, bu ishlaridan qattiq norozi, faqat yosh umrlari xazon bo'lmasin debgina, qo'pol xatolarini o'zlariga bildirmay tuzatdi, ularga qarshi bordan-bir xavfli dalilni suvga oqizib qaytdi, ammo bu degan so'z...

Xullas, gap ko'p. Biroq Vladimir Yakovlevich bularni gapirish o'rniغا ikki og'iz ahamiyatsiz hazil gap bilan o'tib ketdi. Yoshlar ham hech narsa demadilar. Ikki tomon ham hamma gapni tushunib turdi-yu, kerak gap aytilmadi. Aytilmagan gap orada sir bo'lib qoldi. Bu sir esa ularni beixtiyor ittifoqdosh qilib qo'ygan edi...

Politsiya umid uzdi shekilli, shaharda tintuvlar ham, qamashiar ham kamaydi, ota-onaning bolalar taqdiri uchun bo'lgan tahlikasi ham asta-sekin so'na bordi. Valeraning darsxonasida ilgarigidek subbatlar davom etdi.

Bir kun Valera Olimtoymi «G'alati kitob ko'rsataman», deb boshlab keldi.

– «Graf L.N. Tolstoy». «Nikolay tayoq», – deb hijjalab o'qidi Olimtoy sarg'ayib, titilib ketgan kitobchani ikki qo'llab tutib. – Nikolay? Qaysi Nikolay?

– O'zi! – dedi Valera ko'rsatkich barmog'ini shiftga qadab.

– Hozirgisimi?

– Yo'q, avvalgisi. Lekin baribir emasmi?

– Tayoq?! Xi-xi-xi... Ha, baribir, tayoq-a? Xi-xi-xi..

Olimtoy qah-qah urib kulib yubordi. – Tayoq! Voy grafi tushmagur-ey!

– Menga ber, yirtasan, – dedi Valera kitobni olib, – bu menga qimmatga tushgan.

– Necha pulga olgansan?

– Pulga sotadimi buni, o'zbekning afandisi! Kader korpusida oltinchi sinfga o'n ikki ball bilan o'tishim kerak edi. Buni to'shak ichidan topib olib, bahoyimni yetti balga tushirishdi. Endi bilingmi bahosini?

– Buni qanday qilib tag'in qo'lga tushirding?

– Sinf rahbarining xonasidan o'g'irladim, «Sen qanday jur'at qilding so'roqsiz kirib olishga!» deb do'q qilib kelgan edi, «Siz mendan qanday olgan bo'sangiz, men ham sizdan shunday oldim, ora ochiq», dedim.

– Shu bilan ora ochiqmisizlar?

– Ha, hozirgacha.

Olimtoy kitob varaqlasa ham, qahva ichsa yoki Valeraning fortepyano mashqini tinglasa ham hamon do'stini o'ylardi.

– Menga qara, Valer, agar senga qalqon bo'lib turgan zodagon otang bo'lmasa, shu ishiarni qilarmiding yoki qo'rqarmiding? Ochig'ini ayt.

– Sen-chi? Seming otang zodagon emas-ku?

– Men nima qilibman? Men senga ergashib yuribman, xolos.

– Demak, sen mendan ko'ra dovyurakroqsan.

– Men nodonman. Men tushunmayman... – dedi Olimtoy.

– Nimaga tushunmaysan?

– Mana, senga, masalan. Kechagi xatarli ish-dan sen hech narsa yutganing yo'q. Lekin shuni qilganimizga xursandsan. Senga ergashib men ham. Nega? Bordi-yu, falokat yuz bersa nima bo'lardi? Sen nimaga bag'ishlagansan hayoting-ni? Ko'rdingmi qancha savol?

Menda savol yo'q deb o'ylaysanmi? Lekin bilamanki, agar jon-dilingdan yaxshi ko'rgan bir ishing bo'lmasa, o'zingdan, o'z hayotingdan kattaroq, sening quvonchlaringdan, g'am-kulfat-laringdan yuksakroq bir niyating bo'lmasa, yashashingdan ma'no yo'q. Bunday niyat yo'lida yengilish ham qat'iyatingni oshiradi, xolos...

Bunday suhbatlar davom etgan sari ota-onal ko'nglida g'ulg'ula ortar, lekin ular o'g'llarining uydan kam chiqayotganini ko'rib xursand bo'lishar edi. Yaqinda ta'tili ham tugaydi, Omskka jo'nar, o'qishlar bilan bo'lib tinchib ketar.

Ammo Valera bir kuni dadasidan yana garnizondag'i zabitlar kutubxonasiiga kirish uchun

Ollintoy ikkalasiga ijozatnoma yozib berishni so'rab qoldi.

– Kutubxona yopiq, – deb yolg'on gapirdi Vladimir Yakovlevich. Yolg'on bo'lib, uncha yolg'on emas, yaqindagi voqealardan keyin senzura kitoblarni qayta ro'yxatdan o'tkazishi kerak, ammo hozircha kutubxona ochiq edi.

– Bo'lmasa mana buni Sorokinga berib qo'ya olasizmi, dada? – deb iltimos qildi Valera bir kitob uzatib.

– Sorokin?

– Ha, praporshchik Sorokinga.

– Bu nima?

– «Injil». U «Injil» nashrlarining kolleksiyasini to'plar ekan, so'ragan edi. Omskdan olib keldim, juda noyob nusxa.

Kitob chindan ham «Injil» edi.

Xo'p, – dedi Vladimir Yakovlevich. «Xo'p» dediyu, o'zi buning «noyob nusxa»ligidan shubhalandi. Kechasi shubhasini xotiniga aytgan edi, yana ta'na eshitdi.

– Gaplashmading u bilan, Volodya. «Bu yo'ldan qaytaraman» degan eding, urinib ham ko'rma-yapsan. Qutqaz, Volodya, bir umrga armonda qolamiz...

– «Qutqaz!» deysan, bu aytishga oson... – deb ko'rpaning ichida to'ng'illadi Vladimir Yakovlevich. – U yolg'iz o'zi bo'lsa ekan. Meningcha, bular – yuzlab. Balki minglabdir...

O'g'ilning ta'tili tugab, Omskka qaytib ketgandan keyin uyqusiz tunlar kamayib, ota-onalari sal o'ziga kelganda, garnizonda Valeraning izi chiqib qoldi. Sorokinning polkidagi g'alayonlar-



ni yashirish uchun Vladimir Yakovlevich katta boshini kichik qilib, praporshchikni o'z himoyasi-ga olishga majbur bo'ldi. Keyin uni kishi bilmas iste'foga chiqarib qutuldi.

Valera otasiga ancha-muncha tashvish orttirib ketgan edi. Vladimir Yakovlevich chor amaldori bo'la turib, podshoga qarshi kurashga beixtiyor bosh qo'shayotganidan, ish tobora chuqurlashib, o'zimng ikkiyuzlamalarcha ishlay boshlaganidan darg'azab edi. Otasidan norozilik xatlarini olaver-gandan keyin, Valera bir kuni kutilmaganda bir sariq qizni yetaklab qaytib keldi.

- Mana, dada, qaylig'im.
- Katerina, – qiz tizzasini bukib salomlashdi.
- Gimnaziyada o'qigan. Biz turmush quradi-gan bo'ldik, – deb tinmay gapirib ketdi Valera, – bir qo'ra qilib berasiz, cho'chqa boqamiz, batrak yollaymiz, tovuq, o'rdak...

Bu kutilmagan bachkana gapilardan garang bo'lgan Vladimir Yakovlevich hech narsa deyol-may qoldi. Bosh silkib «ha-ha», «xo'p-xo'p» dedi-yu, quloqlariga ishonib-ishonmay chiqib ket-di. Xotiniga gapirib berdi. Yuliya Nikolayevna bu rejalar ni ma'qullab, «Esi kiribdi bolamning, quyilibdi, xudoga shukur!» deb atrofida gиргитton bo'lavergan edi, eri «Bas qil! Javrama!» deb stolni mushtladi.

Bu uning Yullya Nikolayevnaga umrida bi-rinch i marta qattiq gapirishi edi. O'zi ham xafa bo'lib ketdi. O'g'li shunaqa odammi? Ilgarigi Vale-ra qayoqda-yu, bu qayoqda! Nahotki yozgan xat-lari shunga undagan bo'lsa «Qaylig'im...» emish. Bunaqa odamning boridan yo'g'i yaxshi emassi?

Shuni deb qaltis tavakkallarga borib, jon chekib yuribdimi? Yo'q, bu yerda bir gap bor! Valerian bunday o'zgarishi mumkin emas. Yo mana bu qiz... ta'sir qildimi? Gimnaziyachi qiz...

Vladimir Yakovlevich kechasi bilan xonasida u yoqdan-bu yoqqa yurib chiqdi. Dilidagi ilash-qoq g'ashlikni tarqatadigan biron fikr kelmasdi xayoliga. Tongga yaqin boshi zilday bo'lib, holsiz gavdasini endi kresloga tashlagan edi, eshik g'iyq etib ochildi.

– Vladimir Yakovlevich...

Qarasa, qarshisida haligi qiz turibdi. Oyog'ida shippak, kunduzgidan boshqacharoq... «Valeriandan yoshi katta» degan fikr o'tdi otaning ko'nglidan.

– Men bilib turibman, bu kecha uxlamadingiz,
– dedi qiz. – Valerianning kechagi gapiga uxbayolmadingiz. Men sizni xuddi shundaydirsiz deb o'yLAGAN edim. Chindan ham siz bilan men bilgan haqiqiy Valerianni yo'qotish katta fofija bo'lardi.

– Men tushunmadim. Sizga nima kerak?

– U menga xatlariningizni ko'rsatdi, Vladimir Yakovlevich. Men uning do'stiman. Bilasizmi Valerian kim?

Vladimir Yakovlevich o'rnidan turdi. U sevinishni ham, xafa bo'lishni ham bilmasdi. Lekin kechagi gap shunchaki bir sinov ekanini payqab ko'ngli yorishgandek bo'ldi.

– U – isyonchi, Vladimir Yakovlevich. Mana buni o'qing. – «Kelin» kichkina bir gazeta parchasini uzatdi.

Gazetada inqilobning hayratda qolarli tezlik bilan rivojlanayotgani aytilib, «Yoshiarga taya-

ning, janoblar!» deb xitob qilinar edi. Keyin, misol tariqasida, Omsk yaqinidagi o'rmonda bo'lgan temiryo'lchilar namoyishida bir yosh yigitning qonli yakshanba haqida juda ehtirosli nutq so'zlagani aytilgan edi.

– O'sha yigit bizning Valerian! – dedi «gimnaziyachi qiz».

– Bu qanday gazeta?

– Bu bizning yashirin gazetamiz.

– «Biz» deganingiz kim?

– Rossiya sotsial-demokratlari. Siz hali Valerian haqidagi bu gapni kim yozgan deb so'ramadingiz?

– Buning ahamiyati bormi?

– Bor. Buni daho inson yozgan!

Vladimir Yakovlevich o'rnidan turganda stoldagi sham lipillab so'nayozdi. Tun juda tinch, butun xonadon sukutga cho'kkан, tiq etgan sharpa eshitilmas edi.

– Daho inson? – deb so'radi Vladimir Yakovlevich yarim tovush bilan, go'yo bu so'z portlab ketadigandek.

– Ha.

– Daho, demak, buyuk odam. Men chor amadoriman, isyondan uzoq. Ammo daho insonlarni hurmat qilaman.

– Shu buyuk odam o'g'lingizni tilga olganiga xursandmisiz?

– Bu Valerianning taqdiri. Katta taqdir... Siz chindan ham uning qaylig'imisiz?

– Yo'q, Vladimir Yakovlevich, – qiz qizarmadi ham, o'ng'aysizlanmadi ham. – Valerian Peterburgga jo'nashi kerak.

– Qachon?

– Ertaga.

– Yekaterina! – Ota qizga intildi, yelkalaridan ushlab ko‘ziga qaradi. Sham shu’lasida bu sirli, dovyurak qiz birdan unga o‘z qiziday yaqin tuyilib ketdi. – Otangizning oti nima?

– Anisimovna.

– Yekaterina Anisimovna, bu unga juda ham xavfimi?

– U harbiy tibbiyat akademiyasiga qabul qilin-gan. O‘qishga ketyapti, Vladimir Yakovlevich.

– O‘qishga. Hozir Peterburgning nima ekanini bilaman. Siz mendan shunga ruxsat olgani kel-ganmisiz?

Qiz «ha» degandek bosh egib, javob kutmasdan chiqib ketdi.

Ertasiga er-u xotin yuvinib-taranib, o‘g‘illari-ning oldiga chiqishdi. Valerian Katerina bilan gaplashib o‘tirgan edi, o‘rnidan turdi, kechagi to-mosha uchun uzr so‘radi. Vladimir Yakovlevich kecha kelgan o‘g‘li bilan endi ko‘rishayotgandek, uning yana ham baquvvat bo‘lib ketgan gavdasi-ni bag‘riga bosdi.

– Valerian, qanday yo‘l tanlasang ham, sen bizning o‘g‘limizsan, biz seni yaxshi ko‘ramiz, – dedi Vladimir Yakovlevich. Yuliya Nikolayevna qichqirib yig‘lab yubordi.

Lekin o‘g‘li uni suyab, yupatgandan keyin bিroz tinchlandi. Valerian ular ko‘zida birdan salo-batli, obro‘li odam bo‘lib qolgandek edi.

– Sorokin polklarini nima qilaman, Valerian?

– deb so‘radi otasi jiddiy. Valerian baxtiyor edi. «Polklar!..» ular hozir bitta emas, ko‘p...

– Vijdoningiz amr etgan tomonga boshiayversiz, dada, – dedi Valerian.

Bu kun oilalarida «fotiha kuni» deb nom oldi. Shu kuni Valerian «Sariq qiz» bilan birga Peterburgga jo'nab ketdi. Ularni Omskkacha Olimtoy kuzatib bordi. Yo'lda yoshlar bora-borguncha ota-onalari haqida gaplashdilar. Valerian dadasi bilan oyisining qandoq qilib dasturxonga tosh tugib, kechasi Qilchiqsoyga eltib tashlaganlarini kula-kula hikoya qildi.

O'sha tongda hovli etagidan hovliqib chiqib kelgan Gavrila bilan Elekboy Olimtoyning ko'z ol-didan yalt o'tdi-yu, lekin poyezdda bu haqda so'z ochmadi.

– Yaxshi dasturxon edi, – dedi Valera hazil-lashib.

– Menda uning popugidan bor, – dedi Olimtoy, – bir dasta varaq bilan esdalikka yashirib qo'yganman!

– Esdalik emish-a, o'zbekning afandisi! Uni darrov yoqib yubor, – dedi Valerian.

U Omskda xayrlashayotib ham Olimtoyga yana shuni uqtirdi.

Ko'p o'tmay, haqiqatan ham, qama-qama, ta'qib, tintuvlar avj olib ketdi. Eski ishlar, bir vaqtlardagi shubhalar, shu jumladan, «dasturxon popuklari» masalasi ham boshqatdan qo'zg'ala boshladi. Boshqa xonadonlar qatori Vladimir Yakovlevichnikiga ham tintuv kelib-ketdi. Uning «hurmatini qilib» tintuvni rotmistrning o'zi bosh-qardi. Keyingi oylarda ko'p imtiyoz va qo'shimcha huquqlarga ega bo'lgan politsiya boshlig'i shirin so'zlarini hamon tashlamagan, bu so'zlar ko'proq kesatiq bo'lib eshitilar edi.

– Shunchaki ko'p qatori, rasmiyat uchun, azizim... – deb yurib u butun xonalarni alg'ov-dalg'ov qilib ketdi. Hech narsa topolmadi – ikki kun avval bu yerga Olimtoy kelib, «profilaktika» qilib ketgan edi. Umuman Olimtoy hamma narsadan xabardor, ayniqsa, Omskdan qaytganidan keyin, politsianing kundalik rejalarigacha oldin-dan biladigan bo'lib qolgan edi. U rotmistrning bir yildan beri o'sha popukka osilib, podsholikning mukofotini olish dardida yurganini ham bilardi. Vladimir Yakovlevich oilasiga soya tushirmaslik kerakligini ham bilardi, chunki bu oila Valerian bilan, Valerian esa markaz bilan bog'liq. Shularni o'ylab, Olimtoy avvalo qo'shnilarini Gavrila Afanas-yevich bilan qaynotasi Elekboyni ko'z tagiga oldi. Bir-birlarini ham, Vladimir Yakovlevich singari martabali hamshaharlarini ham doimo chohga itarish payida yurgan bu ichi qora odamlar shunday g'alayonli kunlarda paytdan foydalanmasliklari mumkin emas edi.

Haqiqatan ham, Olimtoy o'ylagancha bo'ldi.

Gavrila bilan Elekboy qora uyda qimiz ichib, kechalari bilan uzoq maslahatlashgandan keyin, bir kuni yetaklashib politsiya mahkamasiga ketdilar. Ular mehmonga otlangandek eng yaxshi kiyimlarini, Gavrila qunduz yoqali to'nini, Elekboy bo'lsa tulki tumog'ini kiyib olgan edi. Avval, «Nima deymiz, yolg'on-yashiq qo'shamizmi, suyunchisi-ga nima so'raymiz, qaysi eshikdan qanday kirib boramiz», deb mahkama atrofida anchagacha aylanishdi. Keyin tavakkal qilib kirib borishdi.

– Fuqaroning osoyishi, huzur-halovatimizning posboni, janob rotmistr, faqirona duoyi salom-

larimizni qabul qilgaysiz! – dedi Gavrila Afanasyevich ostonada egilib qo'lidagi telpagini polga tegizarkan. Rotmistr uning paxmoq sochi orasida yiltillagan yorg'oq boshidan jirkanib, aftini burushtirdi-yu, yonidagi Elekboyga ko'zi tushdi. Elekboy siyrak soqolini tutamlab, erib ketgudek iljayib turardi.

– O! Sen Elekboysan-ku? – dedi rotmistr quvonib. – Men hozir senga odam yubormoqchi edim, o'z oyog'ing bllan kelbsan. – Stoldagi qo'ng'iroqchani jiringlatib, eshikdan kirgan ikki mirshabga imo qildi, mirshablar og'zini ochib qotib turgan Elekboyning qo'liga kishan soldilar.

– Men... biz, mirzam...

– Sart muallim sening kuyovingmi? – so'radi rotmistr.

– H-h-ha, ha.

– U bizning huzurimizga o'zi kelib iqror bo'ldi. Mana! – politsiya boshlig'i zarrin dasturxon popugi bilan tang'ilgan bir dasta varaqani ikki qo'lida tilladay salmoqlab ko'rsatdi. – Hammasini o'zim qilganman, deyapti. Bir o'zi qilgan bo'lishi mumkin emas. Mana, masalan, sen uni Buxorodan olib keilib, uyingda yashirgansan. Mana buni ham o'tov keragasiqa tiqib saqlagansanlar, – rotmistr varaga dastasini yana salmoqladi. U omadidan o'zida yo'q mammun edi. Urinishlari bekor ketmadi: mana dalil, mana fitnachi! Endi uning yuzi yorug'.

– Olib chiqing! – dedi u.

Elekboy u yoq bu yog'iga alanglab ikki yonida ikki mirshabni ko'rди, xolos. Qo'shnisi Gavrila allaqachon g'oyib bo'lgan edi. Qachon sirg'alib chiqib ketdi, hech kim bilmaydi.

Ochil buva bilan Azimjon qulqlari bitib Samarkand aeroportiga qo'nganlarida kun nayzaga kelib, lojuvard minoralarning soyasi kaltagina bo'lib qolgan edi. Shuning uchun ular shaharni ham tomosha qilmasdan aeroportdan to'g'ri avtovokzalga kelib, Shodasoyga boradigan avtobusni surishtirdilar. Tog' etaklariga joylashgan kichkinagina yangi kon shaharchasi bu yerdan necha kilometr ekanligini hech kim aytib berolmaydi-yu, lekin «Avtobus bugun yetib boradi», deyishdi. Mehmonlar apil-tapil choy ichib, bittadan noni po'lotiyni belboqqa tugishgach, chiptaxonaga borib navbatga turishdi.

Avtobus tifilinch emas, kursilar yumshoq, derazadan soylar, ko'priklar, kolxoz nomlari yozilgan arklar, oromgohlar, podalar, allaqanday qizil tuproqli qiyaliklar lip-lip etib o'ta boshiadi.

– Buva, Olimtoy tog'am, keyin turmada o'ldimi?
– deb so'radi Azimjon.

– Yo'q, lekin o'shandan keyin o'n-o'n besh yil umri avaxtada, surgunda o'tdi. Faqat inqilobdan keyingina Xorazmdan Chorjo'yga kema haydab, Olimtoy darg'a degan nom chiqardi. Komila bir yasharligida uni Amuda Xorazmdan o'qishga ketayotgan yigirmatacha yosh-yalang bilan birga bosmachilar chavaqlab ketishdi.

Azimjon quyoshni, keng olamni ko'rishga shoshilgandek derazaga qaradi. Avtobus tog' vodiysiga kirib bormoqda edi. Bug'doyi o'rib olin-gan sap-sariq qirlar tugab, uzoqda qorayib ko'ringan haybatli tog'lar tez yaqinlasha boshiadi. Ular cho'qqidagi qora bulutlar bilan birga bostirib keilar, oldindagi asfalt yo'l esa buralib-buralib borib,

salqin yomg'ir hidi kelib turgan ungurlarga kirib yo'qolar edi.

Azimjon bobosiga yondan qaradi. Yorug' deraza oldida, uzoqdagi shafaq qarshisida Ochil buvaning sersoqol, keng peshanali, keksa qiyofasi xuddi qadimiy bir haykalday bo'lib ko'rindi. «Bomga agar haykal qo'yilsa, Jabaynikidan ham haybatliroq bo'lib chiqardi...» deb o'yladi Azimjon.

Tog' oralig'iga qish erta keladi. Bu yerda hozir kech kuz. Tabiat so'limoqda. Yonbag'irlarda gi qovjiragan o'tloqlar yomg'irdan qorayib, jilg'a izlari bilan tilkalanib ketgan. Yakkam-dukkam butalarning qizarib sarg'aygan siyrak barglari zo'rg'a ilinib, qaltirab turibdi. Bulut orqasiga yumalagan qirmizi oftob ham yonib tugamoqda. Tog'lar, bulutli osmon,sovuq ungurlar ham tobora qorayib, yaqinlashib kelardi. Bu o'ychan, tinch o'lish edi, vaqtning o'lishi, kuzning, kunning, draxtlarning o'lishi...

– Buva, o'lim hech ko'z oldingizga kelganmi? – dedi Azimjon.

– Ha.

– Qo'rqmaysizmi?

– Nega qo'rqmas ekanman! Qo'rqqan paytlarim bo'lgan. Sendayligimda ba'zan chunon vahima bosardiki... Lekin o'limda o'lim bor ekan, bolam. Yashashdan murod – o'sha vahimani yengish...

– Qanday qilib?

Bobo uzoq umrini, behisob urug'-aymog'i, oilasini o'yldi.

– Agar qarilik birdan bostirib kelsa bormi, bolam, – deb salmoqlab gapirdi u, – bu juda katta

kulfat bo'lardi odamga. Shukurki, u ko'p ehtiyotkor, sekin-asta, bildirmasdan yetib keladi. Rahmat unga bu mehribonligi uchun. U yetib kelguncha men ko'p narsani tushunib oldim. O'limni ham...

– O'limni ham.

– Ha. Gap shundaki, o'lim ostonasida odamning vijdoni sergaklashadi. Xuddi nashtarday o'tkir bo'lib qoladi. Vijdoningning sadosi butun dunyoning ovoziga qo'shiladi...

– Qanday qilib?.. – peshanasini tirishtirdi Azimjon.

– Mana sendayligimda o'lim mendan hali juda uzoq edi, lekin men undan qo'rqedim. Chollar: «Hech kim bu dunyoga ustun bo'lmaydi» desa, ularning bu sovuqqonligidan butun vujudim qaltirab ketardi: «Nega? Hamma o'ladi, men ham... Men o'lib ketaman-u, mensiz yana bahor kelib, mensiz yana bog'lar gullayveradimi! Men o'lib ketaman-u, mensiz bu o'tloqlar, bu gullar atrini burqitib, shabadada tebranib yashnayveradimi! Bu tog'lar mangu savlat to'kib turaveradimi! Tonglar otadi, soylar sharaqlab oqadi, qizlar qah-qah urib kuladi, mensiz, mensiz! Bari mensiz! Bu qanaqaadolatsizlik!» Ba'zan shayton g'uluviga qulq solib, bir falokat yuz bersa-yu, olamda mendan keyin hech narsa qolmasa, balki o'lim bu qadar alamli bo'lmasdi, derdim ichimda.

– Olgandan keyin hech narsa qolmaydi... – dedi Azimjon, derazaga qarab, – boylik ham, tabiat ham, odamlar ham, hech narsa, hech narsa... o'ylash ham, kulish ham, bilish ham kerak emas... O'tmish, kelajak, hammasi mutlaqo ma'nosiz bo'lib qoladi.

– Yo‘q, bolam, ma’nosiz bo‘lib qolmaydi. Mana, yillar o‘tib dilimdagи o‘sha tahlika asta-sekin o‘cha boshladi. Hozir men o‘limga u vaqtdagidan ko‘ra ancha yaqinman, balki ostonasida turibman, ammo undan qo‘rqayotganim yo‘q. Nega?

– Nega?

– Chunki hozir men bo‘m-bo‘sh ko‘zaday bir narsaman. Ichimdagи hamma yaxshilik, butun kuchim, fazilatlarim, o‘yim, fe‘lim, mehrim, haroratim – hammasi atrofimdagi odamlarga o‘tib ketdi. Butun umring bolalarining, nevara-yu evaralarining umriga, qilgan ishlaringga singishib qolarkan. Men odamlarga, bolalarimga, qilgan ishiarimga batamom o‘tib bo‘ldim. Lekin armonim yo‘q emas, bolam.

– Bearmon odam...

– Qarilikda odam ko‘proq xotiralari bilan yashaydi. Kelajak yo‘q. Ba‘zan yolg‘iz xotiralar bilan qolasan. Bordi-yu, xotiralaring ham arziguлик bo‘lmasa-chi! Bordi-yu, o‘tgan damlaringni eslashga nomus qilsang-chi – bu juda og‘ir, bolam, bu keksalik emas, bu zim-ziyo, zulmat! Mening yorug‘ xotiralarim ko‘p; lekin bearmon odam emasman. Hali bolalarimga beradigan jindek yurak qo‘rim bor. Ular ko‘p, men bittaman. Biri yaqin, biri ko‘zdan uzoq. Biri jo‘jabir-day jon, biri yolg‘iz. Mana Akbarali, senga xolavachcha bo‘ladi. Yanglishmasam, yetti yil boldi ko‘rmaganimga... Yetim narsa edi!

Bu vodiyda kuz osmoni nafasda o‘zgarib turarkan. Teparoqqa chiqqan quyosh charaqlab ko‘rindi. Tog‘ning podalar o‘rmalagan kungay bagrida parcha-parcha bulut ko‘lankalari su-

zib yurardi. Ufqda pastak bir cho'qqiga qo'ngan kechki oftob yupqa bulutlarga oltin tig'larini san-chib, ularni zarrin, shaffof qilib ko'rsatar edi. Av-tobus soyliklar bo'ylagan asfaltdan yugurib, ha-demay archazor daraga kirib bordi. Bu yer soya-salqin, quyosh ko'rinas, osmon yorug' bo'sa ham, pastda oqshom qorong'isi, g'ira-shira bosib kelmoqda edi.

Ana, tog' oralig'idagi yassi qirlarda kichkinagi-na kon shaharchasi. Tikka jar tagida tosh yuma-latib shovillagancha Shodasoy oqadi, narigi sohi-lidagi yalang'och teraklarda qarg'a galalari qishni chorlab tinmay qag'illaydi.

Ochil buva yetti yil avval kelganida, bu joy jilg'a bo'yidagi qadimiy qurama bir qishlog'-u, yoniga yangi solingan bir nechta uzun-uzun, pastak uy-lardangina iborat edi. Hozir ko'rkan shaharcha bo'lib ketibdi, ikki-uch qavatli tosh uylar uzoqdan oqarib ko'rindi. Ko'chalar tikka tog'ni qirqib, al-laqayoqlarga chiqib ketgan keng asfalt yo'llarga tutash, tunuka tomlarda televizor antennalari...

Mehmonlar yetib borguncha qorong'i tushdi, ko'chalarda qizg'ish xira chiroqlar yondi.

Avtobus aylanib yurib, shaharchaning nota-nish bir joyiga borib to'xtadi, yo'lovchilar darrov tarqab ketdi. Ochil buva ust-boshini, telpagini qoqib, xurjunini yelkasiga olgach, Akbaralining ko'chasini mo'ljallab yo'l boshladi-yu, ancha yo'l bosgandan keyin dabdurustdan adashib yurgan-lari ma'lum bo'ldi.

– Shahar o'zgarib ketibdi... GES mahallasi deyilardi, – deb o'zimi oqlashga urindi Ochil buva.

Ko'chalar kamqatnov. Ishchi shaharchasi bar-vaqt oromga tolgan edi. Birovni to'xtatib, GES

mahallasini so'raganlarida, u kishi shaharning butunlay boshqa bir chekkasini ko'rsatdi. Notanish ko'chalardan aylanib, maydonlarni tikka kesib, u yerga yetib borgunlaricha tun yarim bo'lay deb qoldi. Derazalarda chiroq yo'q, onda-sonda ko'cha fonuslari qizarib yonar, biron kimsa ko'rinas edi.

Ochil buva birdan tezlab ketdi – u tanish ko'chadan chiqib qolganini payqadi, «Ko'zim o'tkir hali, esim joyida!» deb maqtana boshladi. Yukini yelkasiga ko'targan Azimjon zo'rga yetib yurardi.

Bir mahal Ochil buva qorong'ida ariqdan sakrab bir derazani taqillata boshladi. «Shu ekan-da», dedi Azimjon ichida sevinib. Uy peshtoqi puxta ganchlangan, uchta katta derazasi ko'cha tomonda, tarnovlari ham, ko'cha eshigi ham qizilga bo'yalgan... Lekin ichkaridan hech kim javob bermadi. Ochil buva yana qattiqroq taqillatdi.

– Shumi o'zi?

– Ha, shu. Men birovning eshigini bilmay taqillatamanmi, bolam. – Yana taqillatdi. – Konchilar shunaqa qattiq uxlaydi o'zi.

– Hoy, kim kerak sizlarga? – dedi narigi betdag'i yo'lordan o'tayotgan bir yigit. Jononni kuzatib qaytayotgan bo'lsa kerak, shoshib ketib borardi.

– G'oziyev shu yerda turadimi? – dedi Ochil buva. Akbaralining familiyasi G'oziyev edi.

– Yo'q, muzey bu, muzey! – dedi yigit to'xtamasdan.

– Muzey?!

Yigit shoshgancha jo'nab qolgan edi. Qanaqa muzey, muzeyi nimasi? Yana darvozani taqilatishdi. Sado chiqmadi. Qayoqqa yurishni bil-

may, anchagacha turib qoldilar, ko'chada biron ta yo'lovchi uchramasa-ya...

– Vaqt kech-da, vaqt kech... – dedi Ochil buva xurjunini bu yelkasiga olib. – Menga qara, biron ta mehmonxonasi bordir, borib yotaylik, juda toliqdim. Ertaga bir gap bo'lar...

Mehmonxona tez topildi: chiroqlar ko'proq tomonga yurishgan edi, katta chorrahadan chi-qishdi, undan sal narida ikki qavatli jo'ngina mehmonxonanining yozuvi ko'riniib turardi.

Navbatchi, xushmuomalagina, uyqusiragan bir kampir, ularni yo'lakning narigi boshidagi katta xonaga joylashtirib, choy damlash uchun objo'shni qayerdan olishni ham ko'rsatib qo'ydi. Yaxshi uyqubop joy ekan. Bir qavatli derazadan uzoqdagi tog' daryosi Shodasoyning bir me'yorda shovullashi eshitilib turibdi.

– Mana, – dedi o'z ko'nglini o'zi ko'tarib Ochil buva, – shukur, yetib keldik. Bemalol dam olaylik. Akbaralini bo'lsa ertaga topib olamiz, hech qayoqqa ketmaydi. – U etigini yechib, odaticha karavotga chiqib chordona qurdi. Shunday bir o'tirib soqolini tutamlab chapga buramasa, nafas rostlaganday bo'lmas edi. – Lekin muzey eshigini qoqqanimiz qiziq bo'ldi, – dedi u yana, – shahar juda ham o'zgarib ketibdi-da, a?..

Charchagan Azimjon yelkasini qisdi. U qo'l yuvgach, qiyig'ini stolga yozib, non sindirdi, xurjanni yoniga tortib kovlashtira boshladi. Ochil buva nafas rostlagach, tunuka choynakni olib, choy damlagani chiqdi.

«Kubovaya» deb yozilgan xonani ochsa, ham-momdagidek issiq hovur gup etib yuziga urdi,

burchakda katta bak sharaqlab qaynab yotar edi. Ochil buva choyni achchiqqina qilib damlab, orqasiga qarasa, bir odam qaynoq suv olmoqchi bo'lib piyola tutib turibdi.

– Choy quyib bera qolay, – dedi.

– Suv ham bo'ladi, dori ichmoqchi edim, – dedi haligi odam. Ochil buva uning yuziga qaramadi, bug' ichida ko'rib ham bo'lmasdi.

– Choy yaxshi, tuting piyolangizni, savobtalab odammiz, – to'latib quyib berdi, choyning xush-bo'y hidi dimoqqa urdi.

– Rahmat, – dedi notanish odam.

Ochil buva choynagini ko'tarib yo'lakka chiqqanda, haligi odamning tovushi qulog'iga tanishdek tuyulib, to'xtab qoldi. Qaytib kirmoqchi edi, u odamning o'zi chiqib, lim-lim to'la piyolasiga tikilgancha yonidan o'tib ketdi. O'tib ketdi-yu, nariroqqa borib u ham to'xtadi. Lekin orqasiga qayrilib qaramadi, cholning to'xtab turganini sezgan edi.

– Menga qarang, bolam, – dedi Ochil buva u tomon yurib, u odam ham o'girildi. Ochil buva shundoqqina ro'parasiga borib to'xtadi. Ular bir-birlarining yuzlariga tikilib qolishdi.

– Sen... – dedi Ochil buva sekin, undan ko'z umzagan holda egilib, issiq choynakni yoniga, poyandozga qo'ydi. Yana tikilib qolishdi. Yo'lakning u boshidagi chiroq ularning yuzlarini xira yoritar edi.

– Buva! – deb xunuk qichqirib yubordi haligi kishi, piyola qo'lidan tushib sindi. Ular quchoqlashib ketishdi.

Bu Akbarali edi. Ochil buva uni zo'rg'a tani-di. Vaqt ko'p o'tganidan emas, yetti yilda odam

munchalik o'zgarmaydi. O'ttiz yoshida bunchalik qarimaydi. Akbaralining hayotida, shubhasiz, bir musibat yuz bergan edi. Uning suyagi qolibdi, xolos. Yonoqlari turtib chiqqan, oq oralagan soch-soqoli o'siq, ko'zlarida nur yo'q. U gapirolmay qoldi, ko'z tagidagi ko'k xaltachalari titrab, yig'lab yubordi.

– Kasalmisan, bolam?

Akbarali yengi bilan yuzini to'sib, bosh silkidi: «Yo'q».

– Qamoqdan chiqdingmi? – dedi Ochil buva tikka qarab.

Akbarali bosh qimirlatdi: «Yo'q».

– Nega bu yerda yuribsan? Mehmonxonada... Akbarali chuqur botgan ko'zlari bilan bobosiga iztirobli tikildi: «Hali hech narsadan xabaringiz yo'q ekan...»

– Hammasini aytib beraman. Sizga aytib beraman, buva...

– Uzoq gapmi?

– Uzoq gap.

– Biz seni qidirib yuribmiz... Azimjon ham shu yerda.

Akbarali tushunmadni: «Nega qidiradi? Azimjon kim?»

– Azimjon-chi, senga ammavachcha bo'ladi. Chet eldan... Seni ko'rgani keldi.

Akbarali tushunmadni. Uning chalkash, zaif o'ylari boshqa yoqda ekani yuz-ko'zidan bilinib turardi.

– Buva, sizga aytib beraman... faqat sizga. – U Ochil buvani o'z xonasiga yetakladi. Xona g'ira-shira, sovuq, bir stol, bir karavot; allaqan-

day qo'lansa hid anqir edi. Ochil buva derazani ochib xonani shamollatgach, Azimjonni chaqirib keldi. Azimjon patnisda non-choy ko'tarib kirdi. Tanishgan bo'ldilar, Akbarali unga tikilib turdi-yu, indamadi, kimligini bilolmadi chog'i. Azimjon ham qarindoshini boshqacha tasavvur etgani uchun, hozir uni ko'rib birdan gap topolmadi.

– Gapir, – dedi Ochil buva. Uning charchog'i ham, uyqusi ham qochgan, ko'ngli bir shumlikni sezganday, keksa, horg'in yuzini betoqatlik ko'lankasi qoplagan edi.

Xullas, do'stlarim, Akbarali qissasiga ham navbat yetdi. Lekin shu payt xayolimga bir rivoyat kelib, u ham shu daftardan o'z o'rnnini talab qil-yapti. Shuning uchun ruxsatingiz bilan, avval...

RIVOYAT

Toshbaqa sudralib bormoqda.

U butunlay tuproq rangida. Bo'yinlari burushgan, ko'zlari o'lik. Joni bor. Qimirlaydi. Qayoqqa borayotganini bilarmikin? Muncha sekin qimirlaydi? Qoni sovuq bolsa kerak-da. Bunday jonivordan o'lik yerning o'zi yaxshi emasmi?..

Toshbaqa bir zamonlar toshbaqa emas ekan. Uddaburon va chaqqon, xushbichim maxluqlardan biri ekan. O'tloqlarda mayin barralardan tamaddi qilib, yaproqlarda yiltillagan shabnam tomchilaridan chanqog'ini qondirib, ko'm-ko'k osmonga tikka qarab, jonivorlar orasida ko'rkar va mag'rur, hayotning zavqini surib, dorilomon yashab yurar ekan.

Kunlardan bir kun Chapgali Mozandaron tomondan yirtqich hayvonlar mo'r-malaxdek

bostirib kelib, jonivorlar o'rtasida jang-u jadal, harb-u zarb boshianibdi. Lak-lak lashkar ketidan lashkar kelibdi, askar ketidan askar; jonivorlar bosqinchi yirtqichiarni dam orqaga surib borib, dam o'zları chekinib, ko'p qurban berishibdi, qirq yil qiron bo'lib, tog' etaklaridagi yashil o'tloqlar qizil qonga belanibdi.

Qumursqadan tortib filgacha, katta-kichik har bir maxluq urushning taqdirini hal qiladigan bir payt kelganda, yonidagi sheriklarining halok bo'layotganini ko'rib, toshbaqaning ko'ngliga bir shumlik, bir g'uluv oralabdi: «Menga navbat kel-yapti-ku, o'lib ketaveramanmi?!»

Osmon juda tiniq, banoras ekan. Yashil o'tlar, rang-barang gullar mayin shabadada asta tebranib, hayotning nash'asini ko'z-ko'z qilarmish.

«Yo'q, yo'q, men o'lmayman!» – debdi toshbaqa. Debdi-yu, yana jangga kiribdi. Lekin yashin chaqnab, yer titrab, yana yovning qo'lli baland kela boshlaganda, uning yuragiga yana g'uluv tushibdi. Shu bir zumlik tahlikadan qaltirab ketgan toshbaqa o'zini beixtiyor safdan chetga olib, ko'l yoqasidagi toshlar orasiga yashirinibdi. Do'stlari buni payqamay, yovga qarshi qonli jangga kirib ketaverishibdi. Toshbaqa esa toshlar orasidan boshini chiqarib, jang suroniga qulq solib yotibdi. Alamlı faryodlar, yirtqichlarning dahshatli bo'kirishlari, do'stlarining o'lim oldidagi yolvorishlari eshitilibdi. U esa «Bo'lar ish bo'ldi», deb titrab-qaqshab yotaveribdi, endi qaytib chiqsa do'stga ham, dushmaniga ham el bo'lmasligini bilibdi.

Yana qirq yil qirg'in bo'lib, ko'p do'stlari o'sha maydonda halok bo'lib ketibdi. O'z yeri uchun

jonini tikkan jonivorlarni yov yengolmabdi. Dushman chala o'lik lashkarlarini sudrab chekinibdi. Bulutlar tarqab, charaqlab oftob chiqibdi. Jang surronlari tingan xushhavo o'tloqlarda yana qo'zi-qu-lunlar o'ynoqlab, qushlar sayray boshlabdi.

«Endi xavf o'tib ketdi, men ham asta chiqay-chi», deb bizning toshbaqa ham bir qimirlagan ekan, yotgan joyidan siljiy olmabdi. Qo'l-oyog'i, boshi qimirlarmish-u, o'zi siljimasmish. Qarasa, qirq yildan beri pisib yotaverganidan, tagidagi tosh bilan ustidagi tosh bir-biriga et o'rib, tutashib ketibdi. Boshi bilan qo'l-oyog'igina chiqib yotgan mish.

Endi nima qilishi kerak? Ost-ustiga qoplanib qolgan toshlarni ham sudrab, ikki qadam yo'lni bir necha kunda zo'rg'a bosib, to'rt oyoqlab yonidagi yo'lga chiqibdi. Chiqsa, uni hech kim tanimasmish, tosh deb o'tib ketaverishibdi. Birov tanisa ham nima derdi, nima deb tushuntiradi? Undan ko'ra, endi u hech kimga indamagani, uni hech kim tanimagani ma'qul. Shunday yolg'iz, kimsasiz, tosh ichida yashashga to'g'ri keladi. Birroq yashash uchun ovqat yeyish kerak. O't ichiga kiray desa, to'nkarilib qolishdan qo'rqiadi. Shuning uchun yo'l yurib, «Onda-sonda tikanlarni yerman» deb, jonsiz sahrolarga chiqib ketibdi.

O'shandan beri uning oti toshbaqa ekan.

Osmonni ko'rmaydi, oftobni ko'rmaydi, bir umr yolg'iz, tosh kosalarini tavqi la'natdek sudrab olamdan o'tib ketarkan. Bolalari ham qalqon ichida tug'ilib, azob bilan tosh sudrab yashab, tosh ichida azob bilan o'lib ketar ekan. O'sha bir zumlik qo'rkoqligi uchun ko'proq azob tort-

sin deb, xudo ham uning umrini hammanikidan uzun qilgan mish. Bu azoblardan uning yuzlari doim burushgan, jonsiz ko'zlari hamma vaqt yerda, rangi esa tuproq bilan teng, bir yashil barg dardida sahro kezib, to'rt yuz yildan beri imillagan...

Toshbaqa hamon sudralib bormoqda...

QISSA

«Eng dahshatli yirtqich – quyon».

Nasriddin Afandi

Akbarali kutilmaganda kechasi kirib keldi. Us-ti-boshi ho'l, etiklari loy, soch-soqolidan yomg'ir suvi tomardi. Qorong'ida yuzlari oqarinqirab ko'rindi, xuddi namgarchilik kuz kechasini boshlab kirgan edi dahlizga.

· Shu kunlari tushida ham, o'ngida ham Shodasoyni ko'rib, yolg'iz ichikib o'tirgan Sharofat xola o'g'lining yuziga tikilibroq qaramadi ham – keksalikdagi birdan-bir shirin orzusining ushalihidan ko'ngli bo'shashib, yig'lab yubordi. Nihoyat! Nihoyat Akbaralisi va'dasming ustidan chiqib, uni olib ketgani kelibdi. Axir Akbarali bir yildan beri «Sizni Shodasoya olib ketaman», deb va'da berib keladi. Mana, nihoyat orzusi ushaligan bo'ldi Sharofat xolaning. Shodasoy, ona yurt!

Sharofat xola Shodasoydan chiqib ketganiga to'rt yil bo'lgan bo'lsa, jonajon tog' daralari bir kun ham ko'z o'ngidan ketgani yo'q. Aslida o'zi Akbaralining dadasidan keyin ikkinchi erga te-

gishi ham, Shodasoydan chiqib ketishi ham xato bo'lgan edi. Kimsan Ochil buvaning sevgan keli-ni, beva bo'lsa ham, o'g'li bilan binoyidek yashab turgan edi, ikkinchi eri rahmatlik, boshini aylan-tirib, qayoqlarga olib ketdi. Buni urug'laridan hech kim yuziga solgani yo'g'-u, lekin yo'qlamay qo'yishdi. Ayniqsa, ikkinchi eridan ham beva qol-gach, unga qiyin bo'ldi, endi ich-etini yeb, Shodasoyni o'ylagani-o'ylagan. Bu uzoq shaharda to'rtinchi qavatdagi huvillab yotgan ikki xonali uyda yolg'iz o'zi, shu yoshida... Yana o'sha konda-gi Akbaralisiga suyanib qolgan edi.

– Keldingmi, aylanay, bolam, – deb gирgitton bo'ldi Sharofat xola shuncha sarg'ayganlarini bir zumda unutib. U yurak kasali, o'pka qisishidan yuzlari biroz salqi, ikki arning dog'ida sochlari-ga barvaqt oq oralagan, lekin ko'zlari tiyrak, chehrasidan juvonlik husni qochmagan bo'ydrogina ayol. Uzoq ivirsidi, tinmay gapirdi, o'g'lining etigini tozaladi, yopinchig'ini siqib qoziqqa ildi, choy damladi...

Bir vaqt qarasa, Akbarali suyanib o'tirib uxlab qolibdi. Sharofat xola shundagina uning kelgan-dan beri og'iz ochib bir gap aytmaganini esladi, shundagina uning qutsiz yuzini ko'rib, qo'rqib ketdi.

– Charchabdi, bola faqir... – dedi-da, yakan-dozga bolish tashlab, yotqizib qo'ydi.

O'zi bo'lsa kechasi bilan uxlayolmay chiqdi, u o'g'lining ertalab: «Qani, oyi, bo'la qoling, qishloq-qa ketamiz!» deyishimi orziqib kutardi. Axir sabri chidamay, saharlab turib o'g'lidan bir xabar oldi, lekin Akbarali hali dong qotib uxlab yotardi.

Shu yotganicha u ertasiga kechga yaqin ko'zlar qizarib, qovoqlari salqib turdi. Onasiga allaqanday begona nazar bilan qarab, boshini egdi. Keyin imirsilab soqolini oldi, deraza oldida tashqariga qarab turib qoldi.

Havoda kuni bilan ro'shnolik ko'rinnadi. Kuzning kalta, xira kuni darrov tugab, shahar tomlarini namchil oqshom qorong'isi qopladi.

Sharofat xola o'g'lidan o'zi kutgan gap u yodda tursin, boshqa bir tuzukroq gap ham eshitmadi. Endi u o'z orzularidan umidini uzib, boshqa bir vahimaga tushgan, Akbaralidan xavotir olib qolgan edi:

– Tobing yo'qmi, bolam? – dedi u sekin o'g'lining yoniga kelib.

– Yo'q, oy... sog'man, – deb o'g'li unga mayin qaradi. Xayriyat, o'sha-o'sha Akbarali, onasiga mehrli, ovozi otasinikidek shirali, beozor. Sharofat xola, uning bu holatiga men sababchimi-kanman, deb juda qo'rqqan edi, uning mayin qarashidan sal dalda topdi.

– Ishing tuzukmi? – jur'atsizgina so'radi u.

– ... Hm.

– Meni olib ketgani keldingmi axir?

Akbarali undan o'zini olib qochmoqchi bo'lgan-dek narigi deraza oldiga bordi, teskari turib javob berdi:

– Yo'q, bormaymiz, oy, men u yerdan ketdim...

Sharofat xola shum xabar eshitgandek, ichidan qaltirab ketdi. Yo'q, bu gapning mazmuni-dan emas, sog'ingan Shodasoyga bormaydigan bo'lganidan emas, o'g'lining g'alati tovushidan seskandi.

– Butunlay-a? Boshliqlaring bilan chiqishol-madingmi? Nega axir, bolam? Yo bir ish qilib qo'ydingmi?

– Yo'q! Yo'q! Yo'q! – deb birdan lovillab ketdi Akbarali. Bo'g'ilib o'shqirdi. – Ketsam haqqim yo'qmi? Istagan joyimga borolmaymanmi, so'ray-verasizmi? – U asabiy holatda yoqasini bo'shatib, taraqlatib derazani ochib yubordi. Sovuq shamol xonaga nam havo bilan yomg'ir tomchilarini uchirib olib kirdi.

Sharofat xola ko'ksiga qo'lini qo'yib, bukchayib qoldi. Bu safar o'g'lining tovushi yana ham xunukroq, begonaroq eshitildi. Biron kulfatga yo'lliqqani aniq, ma'yus ko'zlarida allaqanday hadiksirash, dard bor.

– O'zing gapirmaganingdan keyin so'ray-man-da, bolam. Kutaverib... jigarim ezilib ketdi. O'sha gapingdan beri ko'zim yo'lingda. Yolg'izman. Qarib qoldim... Bag'rimga bosarman deb...

Akbarali dag'alligidan xijolat bo'lib onasining yoniga keldi-da, boshini ko'ksiga bosib, yelkalarini siladi.

– Oyi... – tovushi past, lekin hamon begona, xasta edi. – Oyi, men sizning oldingizga keldim, siz bilan birga bo'laman. Ishga kiraman.. Yomon-mi, katta shahar!

– Nega yomon bo'lar ekan, bolam, yomon emas, tan-joning omon bo'lsa bo'pti ishqilib...

Ona shunday dedi-yu, lekin ko'nglida bir va-hlma temirning zangiday yopishib qoldi. Endi u Shodasoyni tamoman unutgan, fikri-yodi o'g'lining dardida edi: nima bo'ldi unga? Ishlab turgan joyini bekordan-bekorga tashiab kelaveradimi?

Q'zicha tashiab kelgan bo'lsa, unda nega buncha iztirob chekadi? Bola bechoraning rangiga qarab bo'lmaydi. Bir nimani yashiryapti? Yo biron xotin-qiz...

Sharofat xola kalavaning uchini topgandek, sal o'ziga keldi, qo'li ishga qovushib, o'g'lini o'z holiga qo'ydi. «Biron qiz vajidan bo'lsa, bir kun emas bir kun qulfi dilini ochar axir», deb o'ziga tasalli berdi. Uylanmay yoshi o'tib ketayotgan o'g'lining goho qizlar haqidagi gaplari Sharofat xolaga hamma vaqt sirli bir quvonch bag'ishlar edi. Hozir ham shu fikr bilan yupanib, o'g'lining g'alati ahvoliga chiroyliroq tus berishga urinib, o'z ishlari bilan ovora bo'ldi.

Akbarali bo'lsa hamon kamgap, derazaga qarab o'ylagani-o'ylagan, soqol olishni esidan chiqarib qo'yari, soqol-mo'ylovi o'sgan holda ko'chaga chiqib ketar, qaytib yana tor uyga sig'magandek deraza oldida qotib turar edi.

– Gapisang-chi, bolam, o'z yog'ingga o'zing qovurilguncha, dardingni aytsang-chi, – der edi Sharofat xola kechqurunlari.

– Nimani gapiramani? Ish qidiryapman. Topilib qolar...

Gapiradi-yu, boshqa narsani o'laydi – onaizor bilib turibdi. Bir haftaning ichida so'lib qoldi boyaqish. Dardi bo'lakka o'xshaydi.

– Mendan dardingni yashirma, bolaginam, yuragingda borini aytsang, yengil tortarmiding.

– Nimani aytaman! – deb yana jerkib berdi Akbarali. – O'z holimga qo'yasizmi, yo'qmi!!! – U kursini bir tepib, tashqariga otildi. Eshik taraqlab yopilganda onaizor tarsaki yegan odamdek ko'zini chirt yumib, ko'ksini ushlab qoldi. O'pkasi qisib,

deraza tomonga, sof havoga intildi. Derazaning romini ushlab pastga qaragan edi, birdan ko'ziga ajal ko'ringandek boshi gir aylanib, o'zini orqaga tashladi. To'rtinchi qavat juda ham baland, ko'cha o'pqondek chuqur. Sharofat xola sira derazadan pastga qarab ko'rmangan ekan. Akbarali har kuni qaraydi. Nega qaraydi?..

Ona ko'nglini dahshatli o'ylar chulg'adi, vuju-dini qo'rqinch bosib, devorga suyangancha yolg'iz yig'ladi. O'g'li badbaxt. Ko'rinib turibdi – u bad-baxt. Qanday kasofatni boshlab keldi? Zora unutiladigan bir narsa bo'lsa! «Ish topaman», deyapti, ish topsa, balki unut bo'lib ketar...

Sharofat xola darmonsiz yurib borib, karavoti-ga yonboshladi. O'g'li qaytguncha ancha o'ziga kelib qoldi.

Akbarali etigini moylatib, biroz ochilib qaytdi. Dasturxon ustida onasining ma'yusligini ko'rib, gap ochdi.

– Sizni xafa qildim, oyi...

– Ish qidirdingmi?

– Yaxshl ish va'da qilishyapti.

– Ishga kirib olsang bo'lardi. Uch hafta bo'lyap-ti. Zerikyapsan.

– Pulim bor, mana oling, – Akbarali dasturxon ostiga ancha pul qo'ydi. – Tuzukroq ish qidiryap-man.

– Ha, ilgarigisiga o'xhash martabalikkina ish topilsaydi..

– Ilgarigisini gapirmang! – Akbaralining to-vushi yana siniq kosadek jarangladi.

«Yo'q, yo'q, u meni o'ylamayapti. Olam ko'ziga qorong'i. Xudoyo xudovando, nima gap o'zi, bu nima azob?»

Ammo bugun Akbarali uxladi, uncha yotoqchilamadi. Sharofat xola har kecha uning uyquisini poplaydi. Uyqusinigina emas, umuman, o'zini ham, negadir derazani ham poplaydi, uxlamaydi. Xayriyat, bugun Akbarali tuzuk uxladi, hatto jindek xurrak ham otdi, bir zumgina.

Buning ustiga, ertasiga «ishga kirdim» deb ham keldi. O'tirib nonushta qiladigan bo'ldi. Ishtahasi tuzuk, ba'zan gaplashib ham o'tiradi. Sharofat xolaning ko'ngli joyiga tusha boshladi. «Shukur-ey, bolaginam-ey, jonimni halqumimga keltirib, toza yuragimni yording-ku...» derdi o'ziga-o'zi uyda yolg'iz qolganida. U o'g'liga tinmay parvona bo'lar, ishdan kutib olar, erta turib kuzatib qolar, kiyim-boshini yuvib-tozalab, go'jasini, mastavasini vaqtida isitib berar, horib-charchab kechalari tosh qotib uxlari edi.

Akbaralining ham rangiga qon yugurdi, uning yurish-turishida sal-pal parishonlik bo'lsa ham, ilgarigidek emas.

U kombinatga elektrik bo'lib ishga kirgan edi. Qishi bilan yangi sexni ishga tushiramiz deb, har kuni hamma qatori tongdan shomga qadar ishda bo'ldi. Ba'zan kechalari ham chaqirib qolishsa, yo'q demay, brezent shimini kiyib, shaldirshuldur zanjirli «temir tirnoq»larini yelkasiga ilib chiqib ketardi. Odam qatoriga kirib tappa-tuzuk bo'lib qoldi. Kelgan kunlaridagi kayfiyati zerikishdan ekan-da. Ishga kirdi deguncha o'zgar-di-ko'ydi. Sharofat xola ham xuddi shunday bo'lar deb o'ylagan edi. Mehnatda gap ko'p.

Bahor yaqinlashib qoldi. Qish bo'lmasdi desa ham bo'ladi, yomg'ir bilan o'tib ketdi. To'rtinchisini

qavatning derazasidan butun shahar faqat tom-lardan iborat bo'lib ko'rindi; qizil, ko'k tunuka kataklarini, chekkaroq mahallalarning sarg'ish cherepitsa tomlarini yomg'ir top-toza qilib yuv-gan. Qayerdadir, ufqning naryog'ida erta bahor momaqaldirog'ining so'nggi, bo'g'iq guldurosi eshiltiladi.

Akbarali ochiq deraza oldida turib, oshxonaga chiqdi-da, gaz plitaning qulog'ini buradi, kanfor-ka sharaqlab qaynayotgan rux choynak tagidagi zangori tilini lip etib yutdi.

Tovoqchada qaymoq ko'tarib kirib kelgan Sharofat xola yomg'ir suvi sirqib turgan nimchasini boshidan olib qoziqqa ildi.

– Obi non bilan mana buni yeb ol-chi, bolam, hozir choy damlab beraman.

Akbarali erinibgina kelib stolga o'tirdi. U endi o'ttizlardan oshgan bo'lsa ham, yuziga bevaqt keksalikning nuqsi urib qolgan, taroqsiz sochlari-ga oq oralagan, horg'in, so'lg'in edi. Sharofat xola choy damlab kelib, non ushatdi, o'zi ham o'tirib, uzun uh tortdi.

– Zinasidan chiqolmaydigan bo'lib qoldim, bolam, nafasim qisadi.

Akbarali unga achinib, mehr bilan qaradi-yu, indamadi. Onasi keksa, so'nggi oylarda gavdasi birdan cho'kib, chehrasi kamdan-kam ochiladi-gan bo'lib qolgan edi. Akbarali unga qarab-qarab qo'ydi, lekin nazari tobora ma'nosizlanib, ko'zları hech narsani ilg'amayotganday bo'lib qoldi, xayoli boshqa yoqqa og'di shekilli. Onasi yana gap boshlagandagina, beixtiyor o'ziga kelib, qaymoq-qa non botirdi.

– Qirda lola gilam bo'lib ketibdi. Bolalar quchoq-quchoq qilib terib kelishgan ekan, hammasining bargida shundoq g'ubor.

– Yomg'ir ham yuvmabdimi? – hafsalasizgina so'radi Akbarali choy ho'plab.

– Yomg'ir ham yuvvolmabdi, qurum-da, qurum. Bu kombinatlarining mo'risidan ozmuncha gard uchadimi?

Akbarali indamas, ishtahasiz non chaynar edi. Onasi davom etdi:

– O'zimizning Shodasoy lolalari esingdami, o'tdek yonardi-ya! Gard-g'ubor yo'q, shabnam qo'nsa anor donasiday qizarib, miltillab turardi.

– Ayniqsa, tegirmonning pastida... – dedi Akbarali birdan tovushi yumshab. Ajinlari yozilib, yuzida bolalarcha soddalik paydo bo'ldi, – Chimliqsoy bo'yida to'p jiyda bilan teraklar ham turgamikan?

– Turgandir shovuilab, – dedi ona ham ma'sum chehrasi ochilib. – Bolalikda yugurgan so'qmoqlaring shundoqqina ko'z o'ngimda turibdi. Manzuralar bilan shiyponda yotib qolganlaringda azongacha xavotir olib, qaltirab chiqqanman. Sutdek oydin edi...

– Xavotir olib nima qilardingiz... – dedi sekin, shirin xotiralardan bo'shashib ketgan Akbarali. – Cho'milganmiz oydinda... Shodasoyning suvidan musaffo suv yo'q.

– Odamlarni aytsang-chi, bolam!.. Manzura tu shimga kirsa, nuqul eski Chorguzarda ko'raman... Klubning oldida-chi, hov majlis bo'ladijan joy...

– Nega bilmas ekanman Chorguzarni!.. Xidirali buva oqshomlari sada tagiga shakarob qilib suv

sepganida, quyosh tafti aralash rayhon hidi an-qib ketardi. Hali-hali dimog'imda turibdi...

Sharofat xola o'g'lining ham tovushida ajib qo'msash ohangini, ko'zlarida ma'yus xayolchanlikni sezib, eski dardi lip etib yuzaga chiqdi. Issiq kaftini uning qo'liga qo'ydi.

– Qaytib ketaylik, bolam, – dedi past tovush bilan yalingandek, – men ham bamisol pishib turgan mevaman, bugun bor, ertaga yo'q, bolam. Qishiog'imizga qaytaylik.

Akbarali qo'lini tortib oldi, o'rindan turib sutning ko'pigiday ko'tarilib ketdi. Shirin xotiralar ham, xayolchanligi ham birdan yo'qolgan edi.

– Qishloq yo'q hozir u yerda, necha marta aytaman sizga, shaharcha kon shaharchasi bo'lib ketgan.

Shugina gapni sekinroq aytsa ham bo'lardi. Onasini yana ranjitdi. Sharofat xola dasturxonni yig'ishtirar ekan, yer ostidan o'g'liga qarab qo'ydi. Endi u bilan gaplashib bo'lmasligini bilib:

– Jahling chiqmasin, bolam... – dedi.

Akbarali qovog'i solingancha korjomasini qo'ltiqlab ishga ketdi. Ro'moli yelkasiga tushgan Sharofat xola boyagi o'rniga mukka tushib, oppoq boshini ikki kafti orasiga oldi. Momaqaldiroq xuddi tom tepasida qattiq gumburladi-yu, derazalar birdan qorong'ilashib, sharros yomg'ir quya boshladi.

Ona-bola o'rtasida bunday suhbat birinchi marta bo'layotgani yo'q. Gap o'zidan o'zi boshianib ketadi-da, oxiri dilsiyohlik bilan tugaydi. Keyin, «Bir chehrasi ochilib kelsa edi», deb kechgacha yo'liga ko'z tutadi onaizor.

Yo'q, ishga joylashgandan keyingi birinchi quvonchilar ko'p o'tmay so'ndi. Akbarali yana boyagi-boyagiday ruhsiz, qutsiz, indamay kirib kelib, kiyimini ham yechmasdan karavotga o'zini tashlaydi. Birpasdan keyin turib yana deraza oldiga boradi, stolda choyi sovib, onasi ba'zan o'tirgan joyida mudrab qolganini ham sezmaydi.

Xayolida takrorlanaverib, zanglagan mix bilan o'yib yozilgandek xotirasiga o'rashib qolgan o'sha sovuq kuz, o'sha voqealar yana ko'z o'ngiga keldi. Yolg'iz qoldimi – kelib chirmashaveradi. Yolg'izlik esa unga hamisha yo'dosh. Ko'pchilik orasida ham, onasi bilan yonma-yon o'tirganda ham u yolg'iz. Xayolida o'sha o'ylaridan boshqa hech narsa yo'q. O'sha voqealarni xayolidan kunma-kun o'tkazib, o'ziga najot izlaydi. Topolmaydi...

...Shodasoyda qayoqdan ham paydo bo'ldi u kishi! Oti Bektemir edi. Akbarali uning otini tilga olgisi kelmaydi, qo'rqadi. Uyquda alahsirab aytib qo'yishi bor.

Kechasi kelib derazani taqillatdi. «Och, Bektemirman. Dadangning o'rtog'imani», – dedi.

Akbarali unaqa odamni bilmasdi. «Dadangning o'rtog'imani», deganidan keyin, turib eshikni ochdi. Hali-hali ko'z o'ngida turibdi: bir ko'zi ko'r edi bu odamning. Kirib kelishi bilan brezent qalpog'ini yelkasiga tushirdi-da, Akbaralini o'z bolasiday bag'riga bosdi. Undan dimiqqan xom teri hidi kelardi.

– Akbaralimidi oting?

– Ha.

U xaltasini burchakka qo'yib, yomg'irligini yechdi. Ustida pidjagi ham io'q, ko'ylakchan

edi. Akbarali shuncha tikilsa ham tanimadi. Lekin otasi tengi odam edi. Juda uzoqlardan, ko'p qiyinchiliklar ko'rib kelgan bo'lsa kerak, ni-hoyat boshpana topganidan ruhi tetik, jihozlarga tikilib-tikilib qarar, issiq pechkaga qo'l tekkizib kaftini kaftiga ishqar edi.

– Choy qo'yib yubor. Oying yo'qmi?

Mehmonga choy qo'yish esiga kelmabdi. Shoshib qoldi Akbarali. Choyga urindi.

– Oyim... boshqa er qilib ketganlar.

– E-ha... – dedi Bektemir cho'zib. Stol yoniga o'tirib, o'z uyidagidek yengini shimardi. – Shundoq degin, – dedi yana o'ychan. U Akbaralidan baland bo'yli, yuzini chuqur ajinlar tilkalagan, ko'r ko'zi yumuq, ichiga cho'kkon, qora, cho'tir odam edi. – Biz dadang bilan urushga birga jo'nagan edik... Bir eshelonda, – dedi boshqa so'z to-polmaganday. – Kapsanlikman, hov tog'dan.

Shugina ekan-ku. Akbarali dadamga juda ya-qin odammikan deb o'ylagan edi. Hafsalasizgina choy damlab keldi.

– Dadam urushning birinchi yiliyoq halok bo'lgan, – dedi.

– Bilaman. Eshitgan edim.

– Hozir qayoqdan kelyapsiz?

– Buning tarixi uzoq... – dedi mehmon. U choy ho'pladi-yu, hech narsa yemadi. Boshidan ko'p savdolar o'tganligi ko'rinish turardi. Chindan ham tarixi uzoq ekan, kechasi bilan gaplashib chi-qishdi.

Bektemir 1942-yili Mozdok yaqinida qurshoda qolib, uch oy jang qilgandan keyin, ochlikdan sulaygan, o'q-dorisiz o'n yetti yarador bilan birga

dushmanga asir tushdi. Darmonga kirib olay, sal o'zimga kelay, deb lagerma-lager yurib, hamma tanishlarini yo'qotdi. Ularni bir joyda uzoq tutishmas, dam allaqanday yerosti korxonasinga, dam tonnel qurilishiga, dam tosh karyeriga qo'yishar, kechalari bilan notanish yo'llardan kolonna qilib haydashar edi. Bektemir bu yillar ichida ne-ne odamlarni, ne-ne azobiarni ko'rmedi, bir necha tillarni o'rgandi, necha-necha o'limlardan qoldi, necha xil kasalliklarga yo'liqdi. Endi uning bir ko'rmagani o'lim edi. Hamma narsadan umid uzib, o'limini kutar edi u.

Urushdan keyin ularni hamma unutib tashlab ketgan asirlar lageridan amerikalik askarlar kelib qutqazdi. Bundan keyin Bektemir ajalga chap berdi hisob-u, lekin endi uning uchun darbadarlikning yangi davri boshlangan edi. Yevropada elma-el sudralib yurib, rizqini terdi, ikki sog'lom qo'lidan bo'lak tayanchi yo'q edi. Gaplarga qaraqanda, Vatanga qaytish xavfli, u yerda unga o'xshaganlar uchun yana lagerlar tayyor emish...

Lekin yo'q, vatangadolikning azobi go'r azobi bilan teng ekan. O'n uch yil sargardonlikdan keyin yuragini hovuchlab bo'lsa ham, yurtiga qaytdi. Qaytib kelsa, «Yaxshi qilibsiz, boring, oilangiz bilan tirikchililingizni qiling», deyishibdi.

Bektemir peshanasiga tars etib urdi, o'rnidan turib ketdi.

- Kelganimdan beri bironta tanishga ko'rninganim yo'q, seni qora tortib keldim, Akbarali. Dadangni yaxshi ko'rib qolgan edim, kelishim bilan lop etib esimga tushdi...

- Ovqatdan oling, Bektemir aka...

Bektemir dasturxonga qaradi-yu, hech narsani ko'rmadi, u iztirobda edi.

– Menga qara, men... men bir ish qilishim kerak. Nimadir qilishim kerak, bilasanmi!..

– Bola-chaqa omon ekanmi?

– Ha, xotnim, qizim... Lekin hali uyga borganim yo'q, yurak dov bermayapti.

– A?

– Ular mening tirik ekanimni bilishmaydi. Qaysi yuz bilan boraman? Nima deb boraman? – Bektemir yalang'och ko'ksiga, yuragiga, cho'ntaklari ga shapatilab jahl bilan gapirdi: – Nima bilan boraman? Men... bir ish qilishim kerak.

– Ishga kiring.

– Ha, avval – ish. Senga kelganimki... men ga bir ish topib ber, uka. Shunday kasb kerakki, qasd qilib qo'ydim: kecha-yu kunduz ishga sho'ng'ib ketay. Toki odamlar meni ko'rmasin, faqat mehnatimni ko'rishsin. Mehnat! Mehnat! Mehnat! Boshqa narsa kerak emas. Shundagina bir kuni borib xotnim bilan qizimning oyog'iga bosh qo'ysam, balki gunohimdan o'tishar. Akbarali, uka, senga yorildim, yordam qil...

– Akbarali! Hov, Akbarali!

Mudrab o'tirgan Sharofat xolaning ko'zi ochilib ketdi. Qarasa, Akbarali hamon deraza oldida turibdi-yu, ko'chadan chaqirayotgan o'rtoqlarining ovozini eshitmayapti.

– Bolam, chaqirishyapti.

Akbarali xayol changalidan bazo'r qutulib, tolgin kipriklarini tez-tez qoqdi-da, pastga qaradi.

– Hozir, Abdusamad!

Kiyina boshladi.

- Choy ham ichmading.
- Ichgim kelmayapti. Bufetda icharman.

Mayli. Xayriyatki, tanishlari, o'rtoqlari paydo bo'la boshiadi. O'shalar bilan bo'ssa, yaxshi-yaxshi oshna-og'ayni orttirsa, alahsib ketar, unutilar yer yutkur azobli o'ylari.

Sharofat xola bilsa ekan, bu o'ylarning nimaligini! Ona u yoqdan ham yondashib ko'rdi, bu yoqdan ham. Aytmadidi. Aytmaydigan gapga, bitmaydigan yaraga o'xshaydi. Ishqilib, endi yangilanmasa bo'lgani. O'g'lining mana shu yor-do'stlaridan umidi katta.

Oylar o'tib, Akbarali anchagina o'rtoqlar orttirdi. Xuddi Sharofat xolaning o'ylaganidek, yuziga rang, ovoziga jarang qo'shilib yana biroz ochildi o'g'li.

O'rtoqlari bilan «gurr» etib kirib kelar, «gurr» etib chiqib ketar edi. Futbolgami, lola sayligami – ona uchun baribir. Ishqilib, baraka topkur o'rtoqlarining shovqin-suroni bilan andarmon bo'lsa bas.

O'rtoqlari ajoyib. Biri bo'ydoq, biri bola-chaqali, biri texnik, biri ishchi, lekin bir-birini uchratganda bari shaldir-shuldur; hazil, kulgidan timmagani-chi bularning! Sharofat xolaning havasi keladi: peshanasi yorug' onalar ham ko'p. Mana, Abdusamad degan dali-g'uli, baqaloq haydovchi bularga jo'raboshi. O'zi ham zerikish nimaligini bilmasa kerak. Bilmagan narsasi yo'q: futbolni ham ipidan-ignasigacha biladi, oyga uchgan yo'doshni ham. Kombinatda «O'rtoqlik sudi», «Baxt saroyi» degan gaplarni ham shu o'ylab chiqardi, yelkaga kichkinagini priyomnik osib yurishni ham shu rasm qildi. Qayerga borsa,

yosh-yalang yopirilib shunga ergashgami-ergashgan. Shu Abdusamad jo'ralarini boshlab kelsa, Sharofat xolaning o'g'lidan ko'ngli tinch, qo'l qovushtirib o'tirib shularning hazil-mutoyibasiga qulq soladi, o'g'lining ularga choy damlashi, al-lanimalar ustida gap talashishini jilmayib tomosha qiladi.

Yigitlar Akbaralinikiga to'planishni yaxshi ko'rishadi. Sharofat xola beozor xotin, bola-chaqa yo'q, xoli joy. Bir kuni qandaydir sex boshlig'ini pensiyaga kuzatib qaytayotib, bir piyola choyga kirishdi. Hammalari ham shirakayf ekan, kirislari bilan elektr payrovida askiya boshlanib ketdi. Pensionerning hisobiagichi ishlamay qo'yaniyu, kombinat direktorining yorg'oq boshi uch yuz shamli chiroqdek charaqlagani ham qolmadi, kotiba qizning chirsillab ketgani ham qolmadi, xuldas, alla-pallagacha bo'ldi kulgi, bo'ldi kulgi.

Bir vaqt qarashsa, Akbarali yumshoq kursiga cho'kib, bosh egib o'tiribdi, qovog'i soliq. Go'yo bitta o'zi, atrofda kulgi, qahqaha-yu quvnoq o'rtoqlari yo'qdek. Xushchaqchaq shovqin birdan tindi. Mehmonlar bir-birlariga, keyin soatlariga qarashdi, o'ng'aysizlanib o'rinalidan turishdi. Sharofat xola ham ko'ksini ushlab, bezovtalanib qoldi. O'g'lining tanish bu holati zumda onaning ko'nglini g'ash qiladigan bo'lib qolgan edi.

Akbarali o'rtoqlari bilan xayrashmadni ham. Onasi ularni kuzatib qaytib kirsa, o'g'li kiyimboshi bilan karavotda cho'zilib yotibdi.

– Bolam...

Akbarali eshitmadni. Uning fikri-yodi yana o'sha bir ko'zli Bektemirda edi.

Har bir so'z, har bir tafsilot yana xayolidan lip-lip o'tardi: «Yordam beraman, nega yordam bermas ekanman. Konga olib boray, ko'ring. Ishga kiring. Mehnat desangiz, mehnatning zo'ri shu yerda».

O'shanda ertasiga u dadasingin o'rtog'iga konni ko'rsatadigan bo'ldi. Quyoshli kuz ertasi juda chiroyli edi. Ko'l bo'yidagi qayrag'ochlar ning shapaloqdek-shapaloqdek qizg'ish barglari oyoq ostida shitirlaydi, ko'lmaq suvlar jimirlaydi. Tog' shabadasi Shodasoyning sovuq shovqini ni daralarga taratmoqda, uzoqda qorli cho'qqilar quyoshga o'chakishgandek yilt-yilt charaqlaydi, kungay yonbag'irlarda saf tortgan archalar qorayib ko'rindi. So'qmoq yo'l qadam sayin yuqoriga o'rlab boradi, pastda eski Shodasoq qishiog'i sarg'ish daraxtlarga burkanib yotibdi, sal berida unga tutashib ketgan kon shaharchasining tunuka tomlari. Konchilar ishdan chiqqandan keyin uyga qaytadigan yo'lni zap manzarali joylardan solishibди-da! Kela-kelguncha hordig'i ham chiqib ketsa kerak.

Yo'lda duch kelgan odamlar Akbaralini tanib salom berishar, bular ikkalasi barobar alik olib, shoshmasdan gaplashib, atroflarni tomosha qilib borishar edi. Bektemir o'z ishiga ketayotgandek ko'ngli yayraydi. Agar u konga ishga kirib olsa, har kuni mana shu yo'ldan yuradi. Necha yillardan beri birinchi marta o'z odamlari ichida, o'zi uchun yeng shimarib, terga botib, yayrab mehnat qiladi. Keyinroq xotini bilan qizini ko'chirib kelib, uy-joy ham qilib olsa! Bektemirning bir vaqtlar o'ylashga ham yuragi dov bermay yurgan orzulari shu emasmidi? Akbarali buning nimaligi-

ni tushunmaydi, uning uchun bu oddiy bir ish kuni. U shunchaki, yo'l-yo'lakay bir tanishini boshlab, o'zining odatdagi ishiga ketyapti. Kon-chillar kiyadigan qora pidjagini bilagiga tashlab, tor so'qmoqdan mehmonga yo'l berish uchun chetdagi shag'al uyuqlarini shaqir-shuqur bosib odimlamoqda. Bektemir uning oftobda ter tom-chilari yiltillagan yuziga qarab qo'ydi.

Akbarali otasiga uncha o'xshamas, novcha, ingichka, kamgaproq edi. Lekin kechasidagi hikoyalardan keyin oqko'ngil Bektemir aka unga yoqib qoldi, ota o'rniqa mehribon bir odam orttirgandek bo'ldi Akbarali.

– Uylanmabsan-da, chakki qilibsan... – dedi Bektemir aka.

Akbarali yerga qarab kulib qo'ydi.

– Ha, mayli, hali kech emas. Mening qizim ham bo'yi yetib qolgandir. Onasiga tortgan bo'lsa do'ndiqqina bo'lishi kerak, olib kelaman, ko'rasan. Yoqtirsang, senga beraman, xudo xohlasa.

Akbarali yana kulib qo'ydi. Konga yaqinlashib qolishgan edi. Qirlardan, jarlardan hatlab osma vagonetkalar g'izillaydi. Tashlandiq jipslardan paydo bo'lgan tepaliklar dam qizg'ish, dam qo'ng'ir rangga kirib tovlanadi. Kon yaqinida ular suv sepilgan keng asfalt yo'lga chiqishdi.

– Meni kirgizisharmikan? – deb so'radi Bektemir. Ruda ortilgan MAZlar o'tib borardi, Akbarali eshitmadi.

– Hujjatim yo'q, kirgizisharmikan?

– Men bor-ku! – deb qichqirdi Akbarali kulib. Eshitmadi deb o'ylab, ko'kragiga urib ko'rsatdi: – Men, men! Mana bo'lmasa kiyib oling, buni

ko'rsa to'xtatib o'tirmaydi, – deya pidjagini irg'itdi Akbarali. Bektemir aka pidjakni ilib olib, kiydi.

– Yarashdi, yarashdi! – deb qichqirdi Akbarali. Ikkalasi ham xandon tashlab kului. Bu vaqt MAZlar o'tib bo'lgan edi, kon og'zida ularning kulgisi yangrab eshitildi, tog'lardan bir zum aks sado kelib turdi.

– Endi sening o'zingni kirgizmasa-chi? – deb kului Bektemir aka yigitning yana ham ingichka tortgan ko'yakchan gavdasiga qarab.

– Meni tanishadi, – deb qo'l siltadi Akbarali. – Ruxsat olsak ham bo'ladi-yu, idora uzoq. Bitta hiyla ishlataylik-chl, o'tarmikan. – Ikkalasi yana yayrab kului. Bektemir aka ustidagi pidjakka qarab-qarab quvonardi.

– Erta-indin o'zimga ham tegadi, xudo xohlasa.

Qorovulxonada ularga hech kim indamadi, yo'lakda qo'llariga bittadan karbid fonari olib, boshlariga kaska kiyishdi-da, konga kirib ketishdi.

Tog' qa'rining zaxsovug'i birdan ko'krakka urdi. Piyoda yuradigan taxta yo'lak zax devor bo'ylab borar, temir yo'l izlari uchrashgan chorrahalardagina tonnel biroz kengayib, yorug' maydonlarga olib chiqar edi. Bektemir aka bosh ustidagi yo'g'on-yo'g'on kabellarni, issiq-sovuq suv, havo quvurlarini, elektr, telefon simlarimi ushiab qo'yar, Yevropada ishlagan konlarini gapirib, chiroqsiz, havosiz, xuddi ko'rkalamanushdek yer qaziganlarini eslab, u yerlarda insonning xorligini so'zlab borardi. Ular uzoq yurishdi. Tepadan chakka tomib badanlarni junjiktiradi, ruda ortilgan vagonetka eshelonlari o'tganda, qulqlariga barmoqlarini tiqib, devorga yopishgancha to'xtab

turishadi. Necha-necha «tor ko'cha»larga kirib chiqishdi, uzoq shtreklarga borib kelishdi, odamlar bilan gaplashishdi, bir yarim soatcha yurgan-dan keyin orqaga qaytadigan bo'lishdi.

– Ha... – dedi Bektemir aka, – avval yordamchi bo'lib biron kasbga zehn solib yurishga to'g'ri keladi. Murakkablashib ketibdi...

– Nima bo'lsa ham konchi boldingiz endi, Bektemir aka, – dedi Akbarali.

Tog' qa'ri jimjit bo'lib qoldi. Taxta yo'lak tagida shildirab suv oqar, chirog'ini silkib oldinda ketayotgan Bektemir aka o'ychan jilmayar edi: u chindan ham konchiga o'xshaydimi?

Bir mahal tuyulishga kelganlarida qayerda-dir chaqmoq chaqilgandek bir nima yilt etdi-da, ikkalalarining ham ko'zлari qamashib, bir zum hech narsa ko'rmay qolishdi. So'ngra zulmat tarqalganda, bir-birlariga savol nazari bilan qarashdi. Bektemir aka temir yo'ldan sakrab o'tib, oldinga yugurdi. Nariroqqa borganlarida bir nima chirs-chirs etib, yana chaqmoq chaqildi.

– Bu yoqda! – dedi Bektemir yana oldinga yugurib. Ho'l taxtalar ustidan oldinma-keyin yugurib, toyib, qoqilib bir joyga yetib borishsa, yo'l chetida devorlari betonlangan katta kameraning shifti o'pirilib, yo'g'on relslardan yasalgan temir balkalarning bir uchi muallaq osilib yotibdi. Butun temir balkalardan payvandlab ishlangan og'ir shift bir chetidangina ilinib, lopillab turar, har lopillaganida allaqayerda chirs-chirs elektr chaqmoq chaqib butun shtreklarni dam charaqlagan shu'laga, dam zim-ziyo qorong'illkka g'arq etar edi.

Akbarali yaxlit temir shiftning vahimali lopil-lashidanmi yo ko'zlar hech narsani ko'rmay qol-ganidanmi, o'zini yo'qotib baqira boshladi.

– Ehtiyot bo'ling, qoching, Bektemir aka!

Elektr hamon chirsillab ko'z ochirmas edi, ular bir-birlarining qayerda turganlarini ovozlaridan, nafas olishlaridangina payqashar edi.

– Transformator! – deb qichqirdi Bektemir. – Hozir balkalar bosib tushsa, transformator portlaydi! Bu – yong'in degan gap, ichkarida odamlar bor! Bu yoqqa yur!

– Qoching! Nima qilmoqchisiz?

– Transformatorni o'chirish kerak, portlaydi!

– Qoching, bosib qoladi hozir!

– O'chirish kerak, falokat yuz bermasin, qayoq-dasan?

Chirs-chirs chaqmoq chaqilar, temir shift dahshatli lopillar edi. Bektemir uning tagiga kirib, qaytib chiqdi.

– Dastaga bu yondan yaqinlashib bo'lmaydi, ko'zga uryapti. Qayoqdasan, ko'tar buni! – U devor tagida turgan qandaydir eski qutiga yopishdi.

– Qoching deyapman, Bektemir aka! Ana tushyapti! – deb baqirdi Akbarali.

Bektemir bo'lsa bo'yin tomirlari o'ynoqilab qu-tini siljitar edi, quti og'ir, jiqqa suv, chetlariga beton yopishib qotgan...

– Ko'tarishvor! Bir zumda oshib tushib, o'chirib chiqaman! Qayoqdasan?

Chirs-chirs etgan o'lik shu'lada Akbarali uning qonsiz yuzini, og'irlik zo'ridan soqqaday bo'lib ketgan yolg'iz ko'zini so'nggi marta ko'rib qoldi.

– Qayoqdasan?!

– Qoching, Bektemir aka! Tezroq qoching, portlaydi!

Akbaralining tovushi o'ziga ham allaqayoqlaridan eshitilgandek bo'ldi. Qayyoqqa ketayotganini o'zi ham bilmasdan, qoqla-surina qochar, baqirar edi. U negadir birdan darmonsizlandi, to mog'i xirillab, ovozi chiqmay qoldi, chakkasini ushiagan qo'lida qon yuqini ko'rib yana vahimasi oshdi. Uzoqda tuynukdagidek bo'lib kun yorug'i ko'ringanda, hammayoqda chiroq o'chdi. Yo'llar, shtreklar zim-ziyo bo'lib qoldi. Shu payt orqaga bir nima gursillab, uzoqdan mudhish faryod eshitildi. Bu achchiq tovush oyog'idan chalgandek, Akbarali qorong'ida zax devorga yuzi bilan suyanib qoldi. Biroq shtreklardan nimadir guvillab, uni quvlab kelayotgandek edi, haligi tovushning tog' qa'ridagi aks sadosi eshitildi qulog'iga. U tuproq devorga suykalib, tarmashib oldinga siljidi, nafasi bo'g'ilib, uzoqdagi kun yorug'i uni o'ziga tortayotgandek edi. Haligi tovush... Bektemirning tovushi. Uni temir balkalar bosib qoldi. Ulgurmadi. Transformatorni o'chirdi-yu, o'zi chiqib olishga ulgurmadidi... Qochish kerak, endi qochish kerak!

Kimdir qo'rqmadi, u qo'rqli. Bir zumgina qo'rqli.

Bir zum... Bir zum. O'sha hal qildi. Qaytmoqchi ham bo'lgan edi, qaytmadi. Quti... og'ir, sementli quti... Qaytmadi. Qo'rqli. Bir zumgina qo'rquv... Endi qochish kerak! Qochish kerak!

– Qochish kerak!!!

– Bolam, Akbarali! Menga qara, o'rgilay, ag'darilib yot, bolam, bosinqirayapsan...

Akbarali o'rnidan sakrab turib, chakkasini ushlab ko'rди – qo'lida qon yuqi yo'q edi. Ro'parasida rangi quv o'chgan onasi turibdi.

— Uxlaganga ham o'xshamaysan, bolam. Ni-madan qo'rqeding, yomon tush ko'rdingmi?

Akbaralining ko'z o'ngida hamon Bektemir tu-rardi. Lekin Bektemir yo'q. Bektemir temirlar os-tida majaqlanib ketgan... Akbarali xunuk tush-ga o'xshagan bu o'ylarini uloqtirib tashiamoqchi bo'lgandek ko'zini yumib, boshini silkidi. Boshi toshdek og'ir edi...

U qochib keldi. Qochib qutulaman deb o'yla-di. Lekin odam o'zidan qochib qutulolmas ekan. Kallasi ham, ko'ksi ham bo'm-bo'sh...

O'rtoqlari kelganda yana o'zini chetga oladigan bo'ldi. Xola razm solsa, orada eng kamgap, kam-suqumi shu. Keyinroq oshnalari chaqirib kelsa ham, «Chiqmayman» deb javob beradigan bo'ldi. O'shandan beri sheriklari ham kelmay qo'yishdi. Akbarali ularga qulfi dilini ocholmadi, el bo'lol-madi.

Dardingni aytolmaganingdan keyin el bo'lomaysan-da.

Shunday vaqtlar ham bo'lar ekanki, do'stla-ringdan, odamlardan najot so'rolmaysan, o'zing-ni o'zing himoya qilomaysan, o'z orzularing yu-ziga o'zing tuproq tortib, jon rishtalarining o'zing qirqasan.

U yana o'sha-o'sha, gardanidan bosgan ko'rinnmas yukdan bukchayib, dardini birovga aytolmay yo ishida zavq, yo uyqusida halovat, yo oshida ta'm sezmay kunlarni, oylarni yolg'iz, yer suzib o'tkazdi.

Onasi uning ham xuddi o'zidek tug'ilib o'sgan joylarini qattiq dard bilan qo'msaganini sezар, bi-lar edi. Shodasoyga qaytishsa, balki ko'ngli yo-

rishib ketarmidi, u yerda uni hamma biladi, dar-dimi aytishining hojati yo‘q, aybdor bo‘lsa kechirishar... Dardini ichiga yutib yuraversa, bir umr qaddini ko‘tarolmaydi. Qaytish kerak.

Bir chekkasi, albatta, o‘zining ham Shodasoyni yana bir ko‘rib, tuprog‘ini ko‘ziga surtgisi kelganidan, Sharofat xolaning ko‘ngliga bu fikr yana kelib yopishdi:

– Manzura tushmagur ham bola-chaqalik bo‘lib ketgandir, – dedi u o‘g‘liga yana bir kuni kechqurun.

– Bilmasam, – dedi Akbarali, – shu vaqtgacha...
 – Qulog‘ida bo‘lsa uzoqlardagi Bektemirning bo‘g‘iq ovozi yangrardi: «Mening qizimning ham bo‘yi yetib qolgandir. Olib kelaman, ko‘rasan. Yoqtirsang, o‘zingga beraman, xudo xohlasa...» Akbaralining badani uvushib ketdi, bu tovushdan qochmoqchidek, boshini burkab yotdi.

Qish edi. Derazadan antennalarining izg‘irinda hushtak chalgani eshitildi. Onasi ham gapning dilsiyohlikka aylanishidan qo‘rqib jim bo‘ldi. Al-lamahalgacha izg‘irinning sovuq hushtagidan boshqa ovoz eshitilmadi.

Bir bemaza qish bo‘ldiki, qorasovuq, to‘ngak ko‘chiradigan achchiq izg‘irin jonga tegdi, yalang‘och daraxtiar ham, yer ham qop-qorayib, fig‘oni chiqib yotgandek. Bir musaffo qor uchqunlab, bu havoning g‘uborini olib ketsa-chi. Keyingi paytlarda o‘pka qisishi yana zo‘raygan Sharofat xola o‘g‘li ishga ketganda, yolg‘iz derazaga qaragani yuragi bezillab o‘tiradi. Olam bo‘m-bo‘sh ko‘rinadi ko‘ziga. Oh desa og‘zidan olov chiqadi. Bir suv sepib hovli supursa, kelini bilan gap ta-

lashib xumordan chiqsa, qatiq uvitib, devor rax-nasidan qo'shnisiga uzatsa, nafasi ochilib ketarmidi. Tavba, suqsurdek o'g'il o'stirib, shularga zor bo'lib o'tirsa endi...

Bir kuni tushdan keyin salmoqlab laylakqor yog'ib berdiki, shaharning chehrasi ochilib ketganidan bolalar ko'chada «Oftob chiqdi olamga»ni aytib yuborishdi. Oftob qayoqda, par yostiq to'zg'igandek, osmon oppoq bo'lib yotibdi. Yopiray, shuning hammasi yerga tusharmikan?

Sharofat xola kechgacha derazadan ko'z uz-madi. Xamiridan xabar oldi-yu, yana kelib o'tirdi. Laylakqor. Zap topib aytganda odamlar. Qanot qoqmay, asta uchib kelib qo'nadi...

Sharofat xola birdan o'rnidan turib, manglayini derazaga bosdi.

– Subhonollo... Subhonollo! – dedi rangi oqa-rinqirab. Yo'lkada, bulduruq bog'lagan oppoq zarang tagida kelishgangina bir qiz bilan Akbarali turardi. – Tushim bo'lmasin tag'in, – deb Sharofat xola yuz-ko'zini siypadi, bir nimalar deb pichirlab ikki yelkasiga kuf-suf qildi.

Qiz bilan yigit bir-birlariga muhim gaplari bo'lmasa ham, aftidan, ajralolmay turishar, laylakqorni kaftlariga qo'ndirib, erib ketishini tomosha qilishar, qiqirlab kulishar edi. Akbaralining kulishi Sharofat xolaning yuragini o'ynatib yubordi. O'ylab qarasa, ko'pdan eshitmagan ekan uning kulishini. Qiz kim bo'ldi ekan, Sharofat xola uni hech ko'rmagan, ko'rgan bo'lsa uzoq-dan ham tanir edi. To'rtinchchi qavatdan ikkalasi ham pakanagina bo'lib ko'rindi, boshiari, yelkalari oppoq. Qizning qomati durkun, poshna-

li tuflisi bilan oppoq yerni to'xtovsiz toptayverib g'alvir qilib yuboribdi, sumkachasini o'ynagan-chi ba'zan erkalanib, qiyqirib kular, Akbaralidan ko'z uzmas edi. Sharofat xolaga u juda qadrdon ko'rinish ketdi: «Ovla, gирgitton, bolaginamning ko'nglimi ovla. Olib bo'ldim-ku... – Xola derazaga peshanasini tirab yig'lab yubordi. – Xayriyat-ey, xudoga ming qatla shukur! Astoydil bo'lsin, ishq-muhabbat bo'lsin ishqillb. Yosh ko'ngilning ko'chasi ko'p. Do'stlari bilan yupanmasa, qaylig'i bilan yupanar. Ko'ngil savdosidan zo'ri yo'q, u boshqa hamma gard-u g'amni yuragidan siqib chiqaradi. Rost bo'lsin, ilohi, omin, rost bo'lsin». Sharofat xolaning birdan-bir ilinji shu bo'lib qoldi. Darmon ham kirgandek u-buni bahona qilib ivirsir, o'g'lini uzoq yillar ko'rmagandek eshikka ko'z tutar edi. Uni Shodasoydan kutganda ham bunchalik ilhaq bo'limgan.

Akbarali haqiqatan ham odatdagidan bosh-qacharoq bo'lib kirib keldi. Soqoilari toza qirilgan, o'zi ham ancha yashargandek. Oyisi ham hech narsani bilmaganday, unga zimdan razm solib, dasturxon tuzadi. Akbarali yaxshi ko'rgan shovlasini ishtaha bilan tushirib, derazani ochdi, hushtak chalib u yoq bu yoqni aylandi.

– Oyi, ko'klamda mana bu boloxonani oynavonlik qilib, tuzatib olish kerak.

Uning ovozi juda tiniq edi, Sharofat xola to'lqinlanganidan javob berolmadidi. «Oyiginang o'rgilsin, ko'nglimda nimalar bo'layotganini bilsang edi! Nahotki o'sha o'zimning Akbarginamni yangittan topgan bo'sam?!»

Akbarali bo'lsa hamon sho'x hushtak chalib, uch oydan beri gapirmay yotgan eski priyom-

nagini tuzatib qo'ydi. Keyin to'rdagi burchakni mo'ljallab:

– Oyi, shu yerga bitta divan olsak maylimi, juda huvillab yotibdi, – dedi.

– Ol, o'rgilay bolam, ola qol.

– Nafasingiz qalay?

– Yaxshi, tasadduq, bugun qor yog'iб, havo yaxshi bo'lib qoldi.

– Siz endi o'zingizni ko'п urintirmang. Choy qay-natsangiz bo'lgani. Bozorni o'zim qilaman. Daz-molni ham... – Birdan esiga tushgandek, dazmolni shtepselga tiqib, galstuklarini saralay boshladi. Ik-ki-uchtasini dazmollab, qoziqqa osib qo'ydi.

Ona bugun uqlamadi, nafasi siqilsa ham pisand qilmaslikka urinib, qaynonalik orzulariga erk berib, tonggacha tilak tilab, duo qilib chiqdi. Ertasiga gas-tronom oldida Abdusamadni ko'rib qolib, negadir o'zi ham bilmay, oldiga yugurib bordi.

– Voy, o'g'lim, nimaga o'rtog'ingizning oldiga kirmay qo'ydingiz?

– O'rtog'imning ishi katta, xola. Xalaqit ber-maylik deymiz-da. U kishining hozir bizlarga vaqt yo'q. Shaharning eng borib turgan dilbarini o'ziga og'dirib oldi. To'yga boramiz, xudo xohiasa. – Baqaloq Abdusamad ot yolini silagandek, mashinasining kapotini siypab qo'ydi. – Salom deng, xola.

– Xo'п, bo'ladi, otaginam, – Sharofat xolaning tovushi mashinaning dudi ichida qoldi. Uning gapi o'zidan boshqa hech kimga eshitilmasdi.

– Shaharning borib turgan dilbari... To'y... Voy o'lay, qayoqdan keldi men sho'rlikka bu baxt-tole... Voy o'lay...

– Ha, xola, nima bo'ldi?

Bu notanish bola edi. Majolsizlanib qolgan xolaning qo'lidan sumkasini olib, podyezdigacha suyab eltib qo'ydi.

Ajabo, kim ekan-a shaharning borib turgan o'sha dilbari? Bu fikr Sharofat xolani gangitar, cho'chitar, har kuni necha marta xayoliga kelib, charchatar edi. Akbarali bo'lsa hech narsa bo'lmagandek, beparvo kirib kelib, hushtak chalib chiqib ketadi. Vaholanki, Sharofat xolaga ma'lum – hamma gap mana shu beparvolik bilan, mana shu hushtakda. Xola onalarga xos sinchkovlik bilan yana ancha-muncha narsalarni ham bilib oldi: baxt qushining oti Hadya ekan, texnikumi bitiribdi, kombinatning laboratoriyasida ishlarmish.

Ishlar shundoq yurishib ketdiki, hatto o'zi bilan tanishib ham oldi.

Dam olish kuni edi. Ertalabdan oftob charaqlab, yerni eritib yuborgan bo'lsa ham, tog' bag'irlarida, chang'ibop qiyaliklarda qor kumushday yarqirab turardi. Akbarali saharlab turib, dahlizda pishil-lagancha nimanidir bog'lab, tugib, tika boshia-di. Shu payt pastda Abdusamadning mashinasini jimjit ko'chani yangratib gudok chaldi. Sharofat xola derazadan qarasa, eshik tagida bir mashina yigit-qizlar. Yelkalarida ryukzak, kuzovda g'ilof kiygizilgan juft-juft chang'ilar. Hammalari birdan shovqin solib, derazaga qarab qo'l silkishardi.

– Oyi, oyi, mana bumi olib tushing, – dedi Akbar dahlizdan, – hozir tushadi deng, kallayi saharlab mahallani boshlariga ko'tarishmasin. – U onasining qo'liga tuguncha tutqazib, o'zi ryukzakni

yelkasiga olishga urindi. Yuzini ter bosib ketgan, shoshar, pastdagi shovqinni kesolmay, qichqirar edi: – Hozir deyapman-ku, mana bo'ldim!

Sharofat xolaning yuragi chapak otdi. U zina-dan tushayotganida pildirab chiqib kelayotgan qizga duch keldi. Bu Hadya edi. Ular llgari sira uchrashmagan bo'salar ham, bir-birlarini tanishdi. Qandaydir ichki bir sezgi bilan tanishdi bir-birlarini.

– Sharofat xola... – Qiz bosh egib to'xtab qoldi. U kampirni lol qilib qo'ygan edi. – Akbarali akam tushadilarmi?

Sharofat xola bir nima deyolmay iljaygancha tu-gunni uzatdi. Qizni dilbar deganlaricha ham bor edi. Nozikkina oqish yuzida g'ubor yo'q, lablari bo'rtgan, sal-pal qalam tekkan payvasta qoshlari chiroyli chimirilib, «muncha qaradingiz» degandek iymanib turar, qalin sochi qizil beretini to'ldirgan, o'zi oriqqina bo'lsa ham, ko'ksi to'la, paxmoq oq jun fufayka yuzining marmar rangini yanada shu'lalan-tirar, torgina havorang shimi esa qaddi-qomatining barkamolligini ta'kidlab turgandek.

Qizni ko'rib esankiragan Sharofat xola pastda ola-to'polon, shovqin-suronning ustidan chiqib, na Hadyaga, na o'g'liga bir og'iz gap aytoldi. O'g'li bilan Hadya bir-birlarini ko'rib qip-qizarib ketishdi. Akbarali qizning belidan ushlab dast ko'targancha kuzovdan oshirib qo'ydi, keyin yigitlar o'zini ham qo'lidan tortib chiqarib olishdi. Yigit-qizlar qiy-chuv solishar, tinmay kulishar edi. Qayerdadir garmon g'iyq etdi, kimningdir chang'isimi, tayog'imi qirs etib sindi, allakim mashina jilganda chinqirib yubordi.

Mashina jo'nab ketgandan keyingina «Xayr, xola, xayr!» deb qichqirishdi-yu, qulog'i tingan Sharofat yana bir so'z aytolmasdan qolaverdi. Lekin Hadyani rosa to'ylb ko'rib oldi, jo'nab ketgunicha ko'z uzmadi undan. Chiroyli kelin-dan qo'rqib yurardi, mana, xudo berdi chama-si. Chiroylining tashvishi ko'p bo'ladi, deyishadi. Bu – bir. Ikkinchidan, ham chiroyni, ham esni birga ato qilmas ekan xudo. Kamdan-kam bo'ladi. Uchlamchi, chiroyli kelin hech qachon qay-nananing xizmatini qilmaydi.

«Voy, nimalarni o'ylayapman, men esi past. Bandayi noshukur. Bularning hammasi ham be-kor gap, eskilik gap. Bordi-yu, biron ta kam-ko'sti bo'lsa ham go'rga. Kimning kam-ko'sti yo'q? Menga o'g'ilginamning ochiq chehrasi kerak. Chehra-si ochildi uning, bir oydan beri qayta tug'ilganday bo'lib qoldi. Lohovla valaquvvata! Muhabbatda, o'rgilay, muhabbat! Yana qaytib kelmasa bas, o'sha eski dilxiraligi. Paqqos gumdon bo'lib ket-sin ishqilib. Qaytib kelmaydi endi, gumdon bo'lib ketadi, ishq-muhabbat nimalarni yengmaydi!»

Bugun kuni bilan Hadyaning kaptardekkina havorang ko'yakdag'i qomati kampirning ko'z o'ngidan ketmadi. Sharofat xola uni bir ko'rish-da rosa yoqtirib, ko'ngliga jonlashtirib olgan edi, bag'riga bosgisi kelaverdi. Toleyidan cho'chib-cho'chib, xayolida nuqlu, kelinim, deb erkalaydi. O'ylaganmidi axir, osmondan tushgandek, shundoq, barno qiz, esli, ko'hlik, iboli. Tovushi ham beozorgina: «Akbarali aka tushadilarmi?» «Ak-barali» degan tilginangdan onang aylansin! Sen Akbarali bilan menga qanday quvonch, qanday baxt-tole keltirganingni bilsayding...»

Sharofat xola yolg'iz o'tirib yig'lab oldi. Hech qachon bunday rohat qilib yig'lagan emas edi.

Kechqurun derazadan tomosha qilgan manzarasi shirin xayollarining davomidek bo'ldi.

Mashina kelib to'xtashi bilan chaqqon sakrab tushgan Akbarali qo'llarini yozdi, kuzovdagi yigitlar Hadyani chinqirtirib uning quchog'iga otishdi. Qiz ham yerga qattiq urilmaslik uchun noilojdan yigitning bo'yniga osilib qoldi. Abdusamad bo'lsa, shartta gazni bosdi, kuzovdagi yigit-qizlar qiychuv bilan tebranib, qah-qah uring, qo'l silkigancha jo'nab ketishdi. Akbarali qizni hamon ko'tarib turardi.

Sharofat xolaning yuragi qinidan chiqayozdi. «Olib kira qol! Olib kira qol, bolam!» derdi pichirlab.

– Voy o'lay, men nima deyapman, tavba, tavba! – deb derazadan o'zini chetga oldi. Nima qilishini bilmay, yana qaytib keldi. Tashqarida shom qorong'isi, yo'lka chetlarida qor uyumlarigina yaltirab turardi. Akbarali qizni hamon qo'yib yubormay hazillashardi. Qiz tipirchilar, yigit bo'lsa uni dam yumshoq qor uyumiga irg'itmoqchi bo'lib, dam bo'ynidan tishlab olmoqchiday tahdid solar edi.

– Voy qo'pol, voy qo'pol, qizni xafa qilib qo'ymasaydi, – deb Sharofat xola tepada jonini ho-vuchlab turibdi.

Akbarali nihoyat qizni yerga tushirdi. Tushirdiyu, lekin qiz qo'llarini uning bo'ynidan olmadi. Shom qorong'isi quyuqlashdimi, Sharofat xolanning ko'zi xiralashdimi, xullas, o'g'li bilan Had-yasi tushmagur xuddi bir kishidek, bittagina qop-qora soyadek bo'lib qolishdi. Daraxt tagida oppoq qor, qor ustida ikki soya; novcharog'i bu-



lar-u, pastrog'i – ryukzak. Boshqa hech narsa ko'rinmas edi.

Akbarali biror soatlardan keyin olovdek yonib kirib keldi. U bugun sergap, serharakat edi. Tog'lardan, chang'i uchishning zavqlaridan gapi-ra ketdi.

– Hadyaxonni uyigacha kuzatib qo'ydingmi, bolam?

– Hadyani? – Akbarali ko'zлari charaqlab onasi-ga qarab qoldi, – siz uni qayoqdan bilasiz?

Oyisi uzr so'ragandek yerga qarab jilmaydi. Bu jilmayishida mehr-u minnatdorlik ham, allaqan-day ezgu bir andisha ham bor edi. Akbarali asta kelib oyisini quchdi.

– Ovqatingni olib kelaymi, bolam?

– Ollb keling, oyil! – dedi xushchaqchaq Akbarali. U yechinib, yuvingani chiqdi.

– Choy ham damlaymi?

– Damlang, oyil! – deb qichqirdi o'g'li.

Lekin yuvininib chiqqandan keyin divanga cho'zildi-yu, stol tuzalgancha qolaverdi. Tog'sayohatidan qoni qizib yasharib ketgan Akbarali xayolchan shiftga tikilib yotardi. Bu uning lligarigi o'y surishi emas, ko'zлari tiyrak, chehrasi yorqin, xayollari allaqayoqda. Hadyani o'ylayapti, ona buni sezdi. Shu payt o'g'lidan ko'z uzgisi kelmasa ham, asta shipillab oshxonaga chiqib ketdi. O'ylasin, o'ylari juda ham shirin hozir, ko'zlarini o'ylayaptimi, lablarinimi... shivirlashlarini eshit-yaptimi, kulishlarinimi...

Sokin tun cho'kdi. Tashqarida qoramtil osmon bllan qor qoplagan yer oqligi jimgina olishadi. Har derazaga shu'la qo'ngandek, xonalar yorug', iliq, fayzli.

Yoqimli horg'inlikdan keyin orombaxsh uyqu bosib keladi... Uy ichida muhabbat sharpasi kezsa yaxshi-da.

Shu tariqa kunlar, haftalar o'tdi. Sharofat xola o'zining nafasi og'irlashib, hansirashi zo'raygani-ga qaramay, fikri-zikri o'g'lida edi. Akbarall goho og'ir, o'ychanroq qaytsa ham, ko'pincha xush-chaqchaq, kombinat gazetasiga maqtab yozilganlarini hazil-mutoyiba bilan so'zlar, onasining ko'nglini ovlashga, nima bilandir band bo'lishga harakat qilar edi. Uning bu harakatida allaqanday bir sun'iylik, zo'rma-zo'rakilik borligini ona payqamadi.

Bir kuni, Akbarali ishda edi, kutilmaganda eshikdan otlib Hadya kirib keldi. Kirdi-yu, Sharofat xolaning yuziga tikilib to'xtab qoldi. U yana ham durkunroq, olovdek issiq ko'rindi xolaga; ingichka belini qisib keng tillarang kamar bog'lagan, burmali yubkasi ko'pchib turibdi, lekin oqish yuzida, cho'chchaygan lablarida allaqanday titroq, vahima bor edi. Bo'lg'usi kelinining husniga mahliyo, uning to'satdan kirib kelganiga hayron bo'lgan Sharofat xola avvaliga uning holatini payqamadi.

– Sharofat xola! – deb uning bag'rige tashlandi qiz. Ular ko'pdan tanish qadrdonlardek, ona-bo'ladek bir-birlarining bag'rilariga inishdi. Qiz, a'zoyi badani qaltirab, yig'lab yubordi.

– Voy, jonginam, sizga nima bo'ldi, o'rgilay? – dedi esankirab qolgan Sharofat. Qizning tovushi xunuk, u o'ksib-o'kirib yig'lar edi. – Voy o'lmasam, qizim, ko'taring boshingizni, nima bo'ldi?.. – Uni birdan vahima bosib, qizni bag'ridan uzdi: – Akbaraliga bir nima bo'ldimi? Gapiring!

– Yo‘q, unga hech nima bo‘lgani yo‘q, – deb qiz bosh silkigach, ona uni astoydil yupata boshladi. Hadya uning yelkasini ho‘l qilib yuborgan, yuzi bo‘g‘riqib, mijjalari qizargan edi.

– Gapir, nima hasrat tushdi boshingga, dardingni olay, jonginam, – dedi xola qizning boshini, yelkalarini silab.

– U meni... u meni yaxshi ko‘rmaydi, xola, endi nima qilaman?.. – Hadya yana yig‘lab yubordi.

Sharofat xola ko‘ngli yorishib, yayrab jilmaydi. Qizni yana bag‘riga bosib erkaladi.

– Voy, shunga shuncha yig‘i-sig‘imi, o‘rgilay...
 – deb kuldi xola. O‘g‘lining bu nozik niholni qanchalik sevishini u bilmay, kim bilsin! Qizning bu yig‘isi hozir unga ham kulgili, ham shirin tuyuldi.
 – Sizga shundoq ko‘ringandir-da... – tovushini pasaytirib sho‘xlik bilan gapirdi xola. – Yaxshi ko‘radi, aylanay, shunday yaxshi ko‘radiki, es-hushini yo‘qotib qo‘ygan, ha.

– Yo‘q, yaxshi ko‘rmaydi, – qiz jiddiy gapirdi, boshini ko‘tarmay ko‘z yoshini artdi.

– Voy, men bilamanmi, siz bilasizmi, tasadduq? U butunlay o‘zgarib, boshqa odam bo‘lib qoldi. Hammasiga sen sababsan, bolaginam.

Onaning senlab gapirgani ta’sir qilib, Hadya tag‘in ko‘ziga yosh oldi. Lekin pichirlab yana takrorladi:

- Yaxshi ko‘rmaydi...
- Nega endi, gapir, tushuntir axir menga, bir nima dedimi, xafa qildimi, yolg‘on gapirdimi...
- Yo‘q...
- Olmaning ikki pallasidek yarashgansizlar, bir-biriga xudoning o‘zi bichib-tikkan deb hammaning havasi kelyapti, tag‘in nima?..

– Akbarali akam g‘alati... – Qiz yuz-ko‘zini arrib, o‘tirdi, «men tushunmayman, tushuntirolmayman», degan ma’noda yelka qisdi, ojiz tikildi.

– Akbarali... g‘alati. Ayniqsa, keyingi vaqtarda. U ko‘pchilik orasida xushchaqchaq, huda-behuda ga kuladi, meni erkalagan, hurmat qilgan bo‘ladi. Lekin bilasizmi... bularning hammasi zo‘raki, yasamaga o‘xshaydi.

– Nega endi, bolam! – jahli chiqdi onaning.

– U faqat o‘zini ovutishga uringanday. Nazarimda men bilan ham o‘zini ovutish uchun... nimanidir unutish uchun... Nega desangiz, yolg‘iz qolganimizda u menga hech narsa gapirmaydi, ba’zan xayoli allaqayoqlarga ketadi, yonida mening borligimni ham unutib qo‘yadi...

– Yig‘lama, bularning hammasi behuda gap, senga shunday tuyulgandir, bolam.. – Xolaning yuziga ham xunuk soya tushgan edi, lekin u tan olmaslikka, qizga tasalli berishga astoydil urindi:

– Yo‘q, qizim, u seni yaxshi ko‘radi. Menga qara, seni yaxshi ko‘rmay bo‘ladimi-ya!

Qiz tasalli topmadi.

– Yolg‘iz qolsak go‘yo yo‘q bo‘ladi-qoladi. Bir nima surishtirsam, g‘alati qaraydi sovuq nazar bilan. Yaxshi ko‘rgan odam shunaqa bo‘ladimi, xolajon?

– Axir erkala, silab-siypa, bag‘ringga ol...

– Men unday qiz emasman, Sharofat xola, – dili og‘rib, yerga qaradi qiz. – U mendan bir nimani yashiradi.

– Mendan ham... – deb yubordi ona. Beixtiyor aytib yubordi-yu, o‘zi Hadyadan battar ahvolga tushdi. O‘pkasi to‘lib, ko‘z oldi qorong‘ilashdi.

O'sha ilgarigi dardchil Akbarali gavdalandi ko'z o'ngida. Boshini stolga qo'yib yig'lab yubordi. – Tavqi la'nating bor boshingda, bolam!.. Nega ochilmaysan, nega aytmaysan?

Hadya uning aytib yig'lashiga tushunmadi-yu, juda qo'rqib ketdi. Sharofatning yig'isi dahshatli, ko'proq tutqanoqqa o'xshar edi, nafasi qisib, yuzlari oqardi. Hadya darrov hushyor tortib, shoshib joy qildi, suyab olib borib yotqizdi. Ro'molchasi bilan avaylab yuzlarini artdi, suv berdi.

– Xolajon, tinchiannig. Hech gap bo'lgani yo'q, men... men... endi siz gapirmang, dam oling.

Derazani ochib, yelpib, ancha o'tirdi. Onani sal o'ziga keltirgandan keyin soatiga qarab, ketishga otlandi. Akbaralining ishdan qaytadigan vaqtি bo'lgan edi. Hadya xayrashdi. Ostonadan yana qaytib:

– Mening kelganimni aytmang, xo'pmi, xola, – dedi-da, piq etib yig'lab chiqib ketdi.

Sharofat xola hushsiz yotdimi, bosinqiradimi, ishqilib, kechga yaqingina o'z tovushidan uyg'onib ketdi. «Shunday qizni-ya! Shunday qizni...» deb hamon pichirlar edi quruqshab ketgan lablari. Unariroqda o'tirgan o'g'lini ko'rди. Akbarali hamma narsadan xabardor, Hadyaning kelib ketganini ham, onasiga nima bo'lganini ham payqab turar, hammasiga o'zi aybdorligini ham bilar edi chog'i. Shuning uchun onasidan hol-ahvol ham so'ramay, hissiz, o'ysiz, chaqmoq urgan to'nkaday bo'lib o'tiraverdi. Sharofat xolaga u uzoqdan allaqanday qorayib ko'rindi. Oriqlab ketibdi. Birinchi marta o'g'li haqida yomon fikr keldi ko'ngliga, shum qadam... uyga kasofat boshiab keldimi... Shuni o'yladi-yu, ingrab yubordi.


Onaning ko'zlari so'niq edi. Muhabbat keltirgan dastlabki quvonchlar ham so'ndi. Umr shami ham so'ndiradi shekilli.

Sharofat xola yotib qolganidan keyin Hadyanning ham, Abdusamadlarning ham daragi bo'lmay ketdi. Akbarali hammasini o'zidan cho'chitib, bezdirib qo'yganga o'xshaydi. U uyning qorong'i bir burchagida uzoq yolg'iz o'tiradigan bo'ldi. Ba'zan o'z-o'zi bilan gaplashadi: «Bir zum... faqat bir zum... O'sha lahzada bir zumgina o'zimni boshqacha tutganimda edi... Odam o'zini o'zi o'ldirganda ham unga bir zumlik bardosh yetishmay qoladi, deyishadi...» Yana allanimalar deydi. Keyin qo'rqib o'rnidan turib ketadi.

Borib qayoqlardandir ichib keladi, kechasi uxmlamay u yoqdan bu yoqqa ag'darilib chiqadi.

Keyingi vaqtida onasiga, uning betobligiga ham e'tibor bermay, allaqayoqlarda bir nima qidirgandek, bir o'zi tentirab yurar, kech qaytar edi. Bugun ham kun botguncha aylanib yurib, posyolkaning ovloq bir yeridagi kimsasiz bufetga kirib bordi. Bu yerda bufetchi xotin uni tanib qolgan edi, so'ramasdanoq, ikki yuz gramm aroq quyib berdi. Ishsiz kunlari Akbarali bu yerga ikki-uch qayta kelib ketadi, boshqa kunlari bo'lsa ishdan keyin...

Uyda Sharofat xola kasal. O'ziga qaramasa ham, o'g'lining hushtak chalib, papiro tutatib kelganiga ba'zan xursand bo'lib bosh ko'taradi. Ammo qarovsiz qolgan bemorning ahvoli kundan-kun og'irlashardi. Ayniqsa, o'g'lining undan yashiriqcha icha boshiaganini payqagach, u so'nggi ilinjini ham yo'qotgandek bo'ldi.



– Oyi! – dedi Akbarali bir kuni mast holda onasining yoniga o'tirib. – Men hammasini aytib berdim. Sonyaga. Bufetchi xotinga aytdim...

– Nimani aytding, bolam?

– O'shani... U yoqda... odam o'ldirganimni... Sabab bo'lganimni.

Sharofat xolaning ko'zi tindi, xuddi tushdagidek, tubsiz qorong'i jarlikka sho'ng'ib ketdi. Lekin hushi bor edi, gapirolmas edi, xolos. «Iloyo, ketib qolmasam bas. Yana qittak quvvat ber!» deb o'ylaganini biladi. Anchadan keyin tili aylandi:

– U nima dedi, bolam?

– Ichgin, unutasan dedi...

Akbarali omonat o'tirgan joyidan gandiraklab, yiqilib tushishiga sal qoldi. Sharofat xola darmonsiz qo'li bilan uni ushlab qolmoqchi bo'lib, allanima dedi. Endi unga baribir edi. «Endi u dunyoligimni o'ylashim kerak», – deb qo'ydi ichida. Shuning uchun: «Kimni, nega, qanday qilib?» – deb so'rab o'tirmadi.

– Sen, bolam, bufetchi xotinga emas, boshqa hech kimga ham emas, faqat shodasoyliklar oldiga borib gunohingni o'tinishing kerak. Faqat o'shalar gunohingdan kecha oladi. O'zimgni ko'rsat, bosh eg. Boshqalarga yorilganing bilan, u la'nati bo'yinturug'ing gardaningda qolaveradi. Qaytaylik, jon bolam, ko'zim ochig'ida...

Mast Akbarali karavotdan sirg'alib, qoq polga mukka tushdi-da, bo'kirib yig'lab yubordi...

Shu kechadan keyin Akbarali ichkilikni tashlay olmasa ham, soqoli o'sgan, qovog'i salqi, mast holda onasiga qatiq-sut, dori-darmon olib kelib berib yurdi. Ammo Sharofat xola endi na ovqat yer, na dori ichar edi.

Bir kuni u o'g'lini yoniga chaqirib, vasiyat qildi:

– Rozi, bo'l, bo'tam... Shodasoyga olib borib, ota-buvalarimiz yoniga qo'y, men ham rozi ketay, jon bolam... Tirigimda unamading...

Akbaralining kayfi birdan tarqab, zaif badanini titroq bosdi, rangi oqarib ketdi. Faqat anchadan keyingina o'ziga kelib:

– Oyi! – deb o'zini karavotga tashladi. Lekin Sharofat xola allaqachon ko'z yumgan edi...

– Men o'ldirdim sizni, oyijon, men o'ldirdim, men, men, men!.. – derdi Akbarali ikki qo'li bilan salqi yuzlarini changallab.

So'ngra u, yig'lab holdan toygandan keyin, bosh ko'tarib onasining qog'ozdek oq, jonsiz yuzini ko'rди. U shu holda: siyrak, oq sochlari to'zigan, iyagi turtib chiqqan, burni yupqa, ko'zi yumuq murda qiyofasida Akbaralining xotirasi-ga mixlanganday ornashib qoldi. Ko'zini yumsa ham ko'z oldiga keladi. Avvallari Bektemir aka-ning temir reqlar ostida majaqlangan qonli yuzini ko'z o'ngidan quvolmas edi. Endi ikkita bo'ldi: dam onasi, dam Bektemir aka... Birini quvsqa, ik-kinchlsi kelib gavdalaniadi...

Negadir birdan jimlik cho'kdi. Uzoq, og'ir jimlik. Tunmi, qishmi, qancha davom etdi – Akbarali bilmaydi. Ko'zini ochsa, hali ham o'sha yerda onasining jasadi yonida o'tiribdi. Kun issiq, qu-yosh qizitardi, derazalar, eshiklar ochiq, uy to'la odam, uy to'la jimlik. Tuni bilan shunday o'tirib chiqqanga o'xshaydi. Bu odamlar kombinatdan, mahalladan, – qo'ni-qo'shnilar. Akbarali ko'pini tanimaydi. Sharofat xolaning qadrdonlari, tanish-bilishlari bo'lsa kerak. Marhumaning ham-

suhbati, do'sti ko'p edi. Akbaraliniki bo'lsa – yo'q. Bitta ham yo'q. Mana kombinatdan kimdir ta'ziya bildiryapti, kimdir ko'ngil so'rayapti, mahalladan kelgan birov marosimiga bosh... Akbarali ular bilan hech qachon yozilib hangoma qurban emas.

Nariroqda sheriklari bilan Abdusamad ko'ri-nadi. Hammalari astoydil dard chekib, tashvish tortib turishibdi. Abdusamad Sharofat xolaning vasiyatini bilgach, mashinasini yo'lga shaylagani shoshgancha garajga jo'nab ketdi. Kimdir hujjalalar bilan band edi, kimdir telefonda... Akbarali bularning hammasiga befarqlik bilan hissiz, o'ysiz ko'zlarini yer ostidan tikib, esankiragandek, bir yerda qo'l qovushtirib turibdi. Go'yo ona o'limi uning hayotida eng muhim, eng musibatli voqeа emas. Go'yo hali oldinda bundan ham muhimi, bundan ham og'iri bordek. Bordek, ammo nima ekanligi ma'lum emas...

Tobutni pastga olib tushganlarida Akbarali bir chekkada bosh egib turgan Hadyani ko'rди. Nazarida, u hozir bir nafasgina bo'lsa ham o'zini Akbaralidek his etishi kerak, bir nafasgina bo'lsa ham uning ahvolini tushunishi kerak edi. Chunki marhumaning dastiab ko'rpa-yostiq qilib yotib qolishiga o'sha sabab bo'lgan. Hozir u shuni birovga aytolmay turgandek...

Akbarali qizni ko'rib qotib qoldi. Bir intildi ham shekilli, lekin oyoqlari bo'ysunmadi. Nima qilsin, unga borib, bor gapni to'kib solsinmi? Ammo endi nima foydasi bor, baribir birga bo'lisholmaydi-ku.

Ha, yaxshisi bilmay qo'ya qolsin. Bilsa bu ajralish uning uchun shunchaki bir badbaxtlik-

dan qutulishdek bo'ladi. Qo'y, u ham bir narsasi ni yo'qotgandek bo'lsin...

Akbarali qizning yoniga bormadi. Qayrilib, mashina tomon yurdi, zinaga oyoq qo'yib ochiq kuzovga, onasi yoniga chiqdi. Uning ketidan mashinaga yana ancha-muncha odam chiqdi. Tanish-bilish qadrdonlar marhumani so'nggi yo'lga kuzatishga, uning vasiyatini bajo keltirishga otlanishgan edi.

Oftob tobora qizityapti. Mashina sekin yurganidan, shabada kun taftini kesolmaydi. Orqadan yetib kelgan mashinalar guvillab o'tib ketadi, ularning ketidan yengil chang ko'tarilib, yo'l chetidagi o't-o'lanlar tebranib qoladi. Arpa-bug'doy o'rib olingan, qirlar sap-sariq. Oldinda dam qorayib, dam qo'ng'ir tusga kirib tog'lar ko'zga tashlanadi. O'sha yerda, qaysi bir darada Shodasoy...

Akbarali u yerga yana o'z ixtiyori bilan qaytib borishini sira o'ylamagan edi. Hozir ham borgisi yo'q, bormasa ham bo'lardi, lekin negadir oyog'i o'sha yoqqa tortyapti. Taqdir ekan shekilli. Shum taqdir yetaklab ketyapti uni. «Ona vasiyati. Ona vasiyati...» deb takrorlardi ichlda nimagadir dalil keltirayotgandek.

Yo'lga chiqqanlardan beri orada bir og'iz so'z aytilgani yo'q.

Akbarali onasini o'ylashga urinardi. Lekin Sharofat xola uning ko'z oldida nuqlu o'lik qiyofasida gavdalanaverdi. Akbarali bunga chida-yolmay to'lg'andi, kuzov taxtasiga boshini qo'yib o'tirgancha boshqa narsani o'ylashga harakat qildi. «...ulgurar edik. Ikkovlashib barobar urinsak,

ulgurar edik. O'sha beton yopishib qolgan qutini ikkovlashib siljitsak...» Birdan ko'k tomirlari o'ynoqilab chiqqan, ko'zlar baqraygan Bektemir aka ko'z oldiga keldi. Keyin uning majaqlanib ketgan qonli yuzi kelib gavdalandi, Akbarali boshini kuzov taxtasiga urib, ingrab yubordi. Birga ke layotgan hamdard odamlar achinib bir-birlariga qarab qo'yishdi. Har kim o'zicha tasalli berishga urinardi. Qo'rqib ketgan Kenja degan yigit nima qilishini bilmas, tim qora mo'ylovi terdan yaltirar edi. U Akbaralining yelkasiga qo'lini qo'yib, ovutmoqchi bo'ldi:

– Og'ir bo'ling aka, foydasi yo'q... Tiriklar omon bo'lsin...

Shodasoya soat beshlarda kirib borishdi. Akbarali shu yerda katta bo'lib, qabriston qayerdaligini bilmas ekan. Abdusamad bu yerkarga begona bo'lsa ham, har qalay, haydovchi emasmi, adashmasdan topib bordi.

Qabriston ko'prikkka yetmasdan chap tomonda, Shodasoyning shundoq tepasida, balandlikda edi. Bu yerdagi teraklar, qayrag'ochiar hozirdan sarg'ayib ketibdi. Kuz erta kelganidan emas, suv chiqmaganidan bo'lsa kerak. Oyoq osti qalin xazon, uzoqdagi soy shabadasiga tepadan ham sariq barglar pildirab to'kilib turibdi. Oyoq ostida xazon shitirlashi, qosh qorayarda uzoq-uzoqlar gacha eshitilib, bu terakzor qabristonning diqqinafas jimligi yana ham sirliroq, og'irroq bo'lib tuyular edi.

Akbarali endi esladi: uning bolaligida bu joylar yalanglik bo'lib, shodasoyliklar bu yerda uloq chopishardi. Bu teraklar keyin ekilgan, u vaqtlar

soyning bu betida bitta qari tutdan boshqa daraxt yo'q edi. Akbaralining bolalar bilan choyshab tutib tut qoqishgani esida. Soy yoqasidan yalpiz hidi kelardi, mast bo'lib qarqunoqlar sayrardi. Soyning narigi qirg'og'i bo'lsa tikka jar, jar tagida yalmog'iz kamar bor deyishardi. U yerga bolalarni yo'latishmasdi. Akbaralini ham dadasi u yerdan quvlagani quvlagan edi.

U kishi Shodasoyda aravasoz edi. To'g'in egadigan katta kunda butun hovlilarini egallab yotardi. Dadasi ho'l qayrag'ochni qo'r aralash kulga ko'mib to'g'in egar, kegay yo'nar edi. Akbarali bo'lsa otasining yonida ip eshib, shirach qorar, oyisining o'g'irda jo'xori talqon tuyib, zarrang kosaga bir qoshiq shinni solib berishini toqatsizlik bilan kutardi. Qimmatchilik edi-da. Jo'xori talqonni yaxshi ko'rardi Akbarali.

Keyin tog'da kon ochilib, soyning naryog'ida mehmonxona, yana qandaydir katta binolar tusha boshladi. Dadasi aravasozlikni tashiab, konga ishga kirdi. U urushda o'lib ketgandan keyin Akbarali ham konchi bo'ldi.

Endi bularning hammasi Akbaraliga uzoq o'tmishdek, go'yo o'zining emas, begona bir odamning boshidan o'tgan xotiralardek bo'lib tuyulardi. Shodasoy hamon shovillab yotibdi-yu, lekin Akbaralining bolaligi yo'q. Jar tepasida begona bir shahar oqshom chiroqlarini yoqmoqda. Bu yerda esa, qabristonda jimlik...

Halidan beri jonsizday qotib turgan Akbarali qarasa, onasini allaqachon qo'yib bo'lishibdi. U beixtiyor harakat bilan egilib bir siqim tuproq oldi-da, do'ppayib turgan yangi qabr ustiga soch-

di. Faqat shundagina, onasidan judo bo'lganligi hushiga yetib, oyoqlari qaltirab qabr yoniga tiz cho'kdi, yuzini qo'llari bilan to'sib, o'krab-o'krab yig'ladi.

Abdusamad, Kenja, birga kelgan odamlar Akbaralining tepasida birpas turishdi. So'ngra, Abdusamad Akbaralining hozir onasini tashlab ketolmasligini bilib:

– Qorong'i tushib qoldi, Akbarali aka, bo'lmasa biz qaytaylik. Siz hali bir-ikki kun shu yerda bo'larsiz. To'zim bersin... – dedi.

Ular jo'nab ketishdi. Yuk mashinasining guvillashi Shodasoy shovqinida yo'q bo'ldi hamki, Akbarali bosh ko'targani yo'q.

Akbaralining hayotda hech bir ilinji qolmagan, qalbi bo'm-bo'sh edi. Hozir uning ham jonimi olishsa-yu, onaizorining yonginasiga qo'ya qolishsa, mingdan-ming rozi bo'lar edi. Chindan ham, nima qiladi endi, qayoqqa boradi? Birovga maslahat sololmasa! Bu tug'ilib o'sgan joylari ham endi unga begona. Odamlar ham... Hamma, hamma odamlar begona! Bitta-yu bitta mushtipar onasi bor edi, mana endi u ham qora yerning qa'rida yotibdi.

Akbarali ona qabridan bosh ko'tarib, o'rnidan turganida atrof nim qorong'i edi. Oyoq ostida xazon shitirlab jimlikmi buzdi; qo'nalg'ada qushlar cho'chib pitirlashdi. Akbarali teraklarni, qabr do'ngliklarini oralab, panjaralarga, sag'ana toshlariga urilib, so'qmoq yo'lni izlar, allaqanday vahimadan qora ter bosib ketgan edi. Nimagadir ilinib yengi yirtildi, qovjirab o't bosgan do'ngliklar, xarsang toshlar qorong'ida vahimali soyaday kishi yuragiga g'uluv solardi. Akbarali ni-

hoyat so'qmoqni topdi, uzoqdan panjarali darvoza ko'rindi. Biroq muyulishda bir odam qorasini ko'rib, sochi tomirlarigacha muzlab ketdi. Odam juda katta edi, u daraxtlar soyasida, qorong'ida pusib turgandek ko'rindi. Tanini sovuq ter bosgan bo'lsa ham, Akbaralini qandaydir g'ayritabliy kuch o'sha tomonga surgadi. «Qo'rqa veramanmi, endi mening qo'rqa digan joyim yo'q!» deb pichirladi-yu, o'zi istamasa ham oyog'i tortib ketdi. Odam sharpasi daraxt soyasida birpas ko'rinxmay qoldi, Akbarali dadil bosib borardi. Daraxt orasidan oqarinqirab ufq ko'rindi. Shu payt besh qadam-chagima narida haligi sharpa yana paydo bo'ldi. Endi u yoni bilan turardi. Akbarali unga qarab to'xtadi-yu, orqaga tisarildi. Birdan... Havogacha titrab ketdi. U baqirib yubordimi, o'zi bilmaydi, lekin og'zi ochilib, bexosdan tamom gung bo'lib qolgan edi. Akbarali qoziqdek qotdi, tebrandi, qo'li bilan ko'zlarini berkitdi, yana ochdi: ro'parasida... o'zi... ha, o'zi, Akbarali turardi!

Bu yerdan qanday qilib qochganini u bilmaydi, bir mahal borib darvoza panjara siga urilganida sal o'ziga keldi. Xayriyat, yiqlib qolmabdi... Yo yiqlib, yana turib ketdimi? Qancha yotdi? Tildan qolmadimikan?

Gapirib ko'ray desa yonida odam yo'q. O'zicha gapirsa ham bo'ladi-ku. Tili shishinqirab og'ziga sig'may turganga o'xshaydi, lekin yo'q, aylanyapti.

– Yolg'on! Yolg'on! Bas. Qo'rqa mayman! – deb qichqirib yubordi u.

Qorong'ida jimjit qabriston yangrab ketdi, soyning narigi qirg'og'idagi jardan: «...as!» «...an!» degan aks sado keldi. Akbarali o'z tovushi-

dan yana qattiqroq qo'rqb ketgan edi. «Nega qichqiryapman? – deb o'yladi – Bu jinnilik alovmati emasmikan? Bu ko'zimga ko'ringan odam... odam? O'zim-ku bu! Yo jinni bo'lganda odam o'ziga o'zi ko'rinarmikan? O'zim...»

Ha, bu uning xuddi o'zi edi. O'sha qirra burun, yonog'i chiqqan oriq yuz... Lekin qop-qora. Soya!

Akbaralining yana orqasiga qayrilib qaragani yuragi dov bermadi. U qoqla-surila katta yo'lga chiqib olib, bir qo'li bilan peshanasini ushlagancha shahar chiroqlari tomon yurdi. Peshanasi muzdek edi. Lekin u ishonmadi.

«Isitma! Yo'q, jinni emasman men! Isitma bu! Sovuq isitma!» – deb tinmay pichirlar edi, ancha yurgandan keyin orqasiga qayrilib qaradi, asfalt yo'lga allaqayoqdagi chiroq shu'lesi tushib, yiltillab yotar edi. U ko'priordan ham allaqachon o'tib ketgan ekan, bilmabdi. «Tavba, o'ziga ham o'zi ko'rinadimi odam! Yo'q, bir nima bo'lyapti menga, biron joyga borib yotishim kerak. Haddeb o'ylagandan. Hadeb o'ylagandan. Endi o'y-lamayman. Borib yotaman. Qayerga bo'lsa ham. Tavba, hamma azoblarni totdim, endi bir kamim jinni bo'lib ko'cha-ko'yda tentishmidi? Yo'q, o'y-lamayman. Bektemirni ham, oyimni ham, Had-yani ham, o'zimni ham... O'zimni? Go'ristondagi o'zimnimi?.. Ha, ha, o'y-lamayman, hech qaysisini o'ylamayman, bas!» ...

U haqiqatan ham hech narsani o'y lamay qo'ydi. To'g'ri borib mehmonxonaga kirdi. Yo'lakda mudrab o'tirgan semiz xotin biqqi qo'lini cho'zib uning pasportini oldi-yu, kalitni berib, yana uyquga ketdi.

Akbarali kalitda raqami ko'rsatilgan xonani ochib kirdi-da, yechinmasdanoq karavotga cho'zildi. Derazalar lang ochiq, tashqaridan Shodasoyning muzdek shovillashi quloqqa chalinadi. Bu – ruhan charchagan, jisman ezilib ketgan Akbaralining chalkash o'ylarini birpasda allaqayoqlarga olib qochdi, u qachon qotib uxlab qolganini ham bilmaydi. Ertalab junjikib o'rnidan turdi.

Endi u ancha tetik edi. Tungi g'alati voqeani aniq eslab, labining bir cheti bilan salgina ma'yus jilmayib qo'ydi. Qattiq charchagan ekan-da, odamning jinni bo'lishi hech gapmas. Endi nima qilish kerak? Kimga uchrash kerak? Uchrash? Nega? Akbarali hech narsaga tayyor emas, hech qanday rejasi yo'q edi. Karavotda o'tirgancha o'siq soqollarini paypaslab ko'rdi. Och qoringa papiro tutatdi. Eshik taqillaganda cho'chib o'rnidan turdi, odam tovushi eshitilishi bilan kechagi charchog'i yana qaytib kelgandek, ichida nimadir yana so'ndi, bo'shashib, loqayd bo'lib qoldi.

Eshik qoqqan kechagi semiz xotin ekan, Akbaralini ko'rib, qo'rqb ketgandek, g'alati salomlashdi-da, stolga mehmonxona so'rovnomasini tashlab, to'ldirib berish kerakligini aytib, chiqib ketdi.

Akbarali so'rovnama qog'ozni qo'liga oldi. Ikkita. Ikkita tashiab ketibdi. Nega ikkita? Har ehtimolga qarshi deb bo'lsa kerak, biri buzilib-netib qolsa....

Nimalarni o'layapti o'zi? Shundan boshqa o'yi yo'qmi? Yo'q-da, miyasiga tuzuk-quruq o'y kelmay qoldi. Miyasi karaxt. Nima gap o'zi? Nima qilish kerak? Bu yerda nima qilib o'tiribdi? So'rovnama... mana, so'rovnama to'lg'azish kerak.

U beixtiyor g‘ijimlab qo‘ygan so‘rovnomanini stolga yozib, kafti bilan tekisladi-da, qo‘liga qalam oldi. Qog‘ozga tikildi. «Akbarobod qishloq mehmonxonasi» deb yozilgan edi so‘rovnomanining tepasida. Akbarali o‘qidi, negadir iljayib qo‘ydi, keyin hijjalab o‘qigandek, yana uzoq tikilib turdi. Ko‘zini pirpiratdi. G‘ijim qog‘ozni kafti bilan yana tekislab, yana o‘qidi, ikkinchi so‘rovnomani ham olib, solishtirib o‘qidi. Ko‘zini chetga olib birpas o‘tirgach, yana tikildi. Qog‘oz lovillab yonib ketgandek, seskanib o‘rnidan turdi. Eshikka otlimoqchi bo‘ldi-yu, ostonada to‘xtab, yana stoldagi qog‘ozlarga qaradi. Oyoq uchida qaytib kelib, ko‘zini uqalab, yana o‘qidi. Endi buning ro‘yo emasligiga astoydil ishondi, shekilli, yuzi qog‘ozdek oqarib, o‘rniga o‘tirib qoldi. Suvdan chiqib qolgan baliqdek og‘zini ochib ancha o‘tirgandan keyin, qog‘ozga bir nima bo‘lmadimikan degandek qiya ko‘z tashiadi. Qog‘oz turibdi. Tepasiga aniq yozilgan: «Akbarobod qishloq mehmonxonasi» Akbar... Akbarali... Akbarobod... Nega Akbarobod? Shodasoy edi-ku? Oti boshqa bo‘libdi-da. Boshqa... boshqa Akbar.

Shu payt ro‘paradagi toshoynaga ko‘zi tushib, o‘rnidan sapchib turdi. Ko‘zguga yaqinlashdi, birdan terga tushib, tizzalari qaltiray boshladidi: unga basharasini soqol bosgan, yonoq suyaklari turtib chiqqan, rangsiz, yovvoyi bir odam ko‘zlari baqraygancha tikilib turardi.

– Bu boshqa... Boshqa, boshqa! – deb qichqirib yubordi Akbarali. Birdan lop etib kechagi go‘ristonda ko‘rgan odam qorasi yodiga tushdi. U Akbaraliga ko‘proq o‘xshardi...

U hozir boshi tars yorilib ketadigandek, otilib yo'lakka chiqdi. Semiz xotin kahrabodek husayni uzum bilan choy ichib o'tirardi. Cho'chib o'rni-dan turdi.

– Menga qarang... Menga qarang... – dedi Akbarali unga. Lekin tili aylanmay qoldi. Qo'li bilan g'alati harakatlar qildi-yu, xotimning qattiq qo'rqqanini ko'rib, gapirolmay, shoshgancha ko'chaga otildi.


Shu ketgancha yuguraverdi.

Tongda suv sepilgan asfalt yo'laklar salqin, ozoda, tovsilib qolgan kuzak gullar sof havoda xush bo'y taratib turadi. Hansiragan Akbarali bularni payqayotgani yo'q, unga havo yetishmayaishi, etagiga o't ilashgandek hamon yugurmoq-da. Qayoqqa ketyapti – o'zi bilmaydi.

Bir mahal uni kimdir chaqirgandek bo'ldi. U orqasiga qayrilib qarashga jur'at qilmay, to'xtab devorga suyandi. O'pkasi og'ziga tiqilgandek hansirar edi. Haligi ovoz yana keldi.

Bu chorrahadagi reproduktor edi. Unda kon-chilar hayotining so'nggi yangiliklarini eshittirishmoqda: «Akbarobodliklar kecha yana bir qu-vonchli voqeanning guvohi bo'ldilar: mahalliy futbol jamoasi Olmaliq sportchilarini qabul qilib...»

Akbarali yana yugurdi. Uni qandaydir bir dahshat quvlab borar, noaniq bir fikr oldinga sudrar edi. Dokadek oqorgan, badanlari qaltiragan holda go'riston darvozasi oldida paydo bo'ldi. Avval darvozaning salqin panjarasidan ajralol-magandek anchagacha yopishib turdi-da, keyin yana yugurdi, qoqla-surina kechagi qora ko'rинган muyulishga yetib bordi. U oyoqda zo'rg'a tu-



rar, ko'zlarini ishqalab-ishqalab haykalga tikilar, hech narsa ilg'amas edi.

Chala sarg'aygan qayrag'och soyasida, qabr ustida chog'roqqima bronza haykal. Kecha shomda ko'lankaday qorayib, katta, haybatli bo'lib ko'ringan ekan.

Akbarali avval tepada suzib borayotgan bultlarni ko'rdi. So'ngra qayrag'ochning haykalga soya solib turgan shoxini. Shundan keyin o'zining yaqinginadagi yoshlik davriga juda o'xshash, chiroyli, irodali, navqiron bir konchining qiyofasiga ko'zi tushdi.

– Akbarali... – deb pichirladi u negadir, go'yo o'zi boshqa odamdek.

Bu mahal oltita o'quvchi bola kelib, haykal tagida saf tortdi. Bo'ysiraning eng oxirida turgan qizcha galstugini tuzatib, oldinga chiqdi-da, qabrni aylanib o'tib, qo'lidagi guldastani haykal tagiga, marmar ustiga avaylab qo'ydi. O'quvchilar kiprik qoqmay sukut saqladilar.

Ular bu tantanali marosimni bajargandan keyin, qiy-chuv qilib tarqalishar ekan, chekkaroqda indamay turgan begona odamni ko'rib qolishdi. Unga yotsirab, xo'mrayib qarashdi. Akbaralining yoqavayron, ko'zları bejo, basharasi ham, ko'y lagi ham g'ijim, kir, etik qo'njiga kechagi qabr tuprog'i yopishib qotgan edi. Kichkina qizcha unga xavfsirab qarab turdi-da:

– Bu yerda turmang! – dedi jiddiy. Keyin haykalga faxr bilan yana bir qarab qo'yib, o'rtoqlari ketidan chopqillab ketdi.

Qizchaning tovushimi, birdan ketib qolishimi yog'ochday qotib turgan Akbaralini seskantirib

yubordi. Bolaning ketidan «Men Akbaraliman!» deb qichqirmoqchi edi, ovozi chiqmadi, buning o‘rniga «Men tirkman, men tirkman», deb pichirladi.

Odam o‘ziga o‘zi tikilib tursa g‘alati bo‘larkan. Boshqa olamdan, narigi dunyodan kelgandek... Akbaralining hushi o‘zida bo‘lmasa ham, lekin negadir haykalni o‘z qo‘li bilan ushlab ko‘rgisi keldi. Sarg‘aygan o‘tni bosib, o‘zining bronza qiyofasidan ko‘z uzmasdan, asta yaqinlashdi, qo‘lini uzatib sovuq xarsang toshga barmoqlarini tekkizdi. Yana yaqinroq qadam bosay deganida qabr do‘ngligiga qoqindi. Go‘r... Akbaralining go‘ri. Ancha cho‘kib ham qolibdi...»

«Men tirkman, men tirkman...» derdi ko‘ngilda boshqa bir fikr dam-badam bosh ko‘tarib.

O‘zi esa haykalni paypaslarkan, pichirladi:

– Akbarali... Akbarali G‘oziyev...

Toshga o‘yib zarhal bilan yozilgan lavhada ham shunday deyilgan edi:

AKBARALI G‘OZIYEV

*(1931–1960) konchi do‘stilarini halokatdan
qutqarish yo‘lida qahramonlarcha halok bo‘ldi.*

Akbarali endi hech narsaga hayron bo‘lmaydigan bo‘lib qolgan. Hayron bo‘lish, o‘ylash qobiliyatini yo‘qotgan, bir mo‘jiza yuz berib, otasi bilan onasi tirilib kelib, hozir ro‘parasida paydo bo‘lsa ham, hayratda qolmas edi chog‘i. U bir qo‘li bilan xarsangga suyangancha qotib qoldi, ko‘zi tindi. Anchadan keyin zarhal harflar ko‘z o‘ngida yana paydo bo‘ldi: «Akba... Akbarali G‘oziyev... halok bo‘ldi».

U yana ko‘zini yumdi. Miyasining qaysi bir burchidadir kichkinagina umid, bir o‘y sarg‘aygan

bargday zo'rg'a ilinib, qiltillab turar edi: «Ko'zimga ko'rinyapti, hozir ko'z ochaman-u, mening otim o'rnida Bektemir akaning oti paydo bo'ladi!..»

Yo'q, yana o'zining oti paydo bo'ldi. U harflarni paypaslab ko'rdi, ularni qaltiroq barmoqlari bilan qo'porib tashlashga ham urindi. Tilla rang harflar tovlanib turardi. Keyin Akbarali tars yorilib keta-yotgan chakkasini ushiadi. Shu payt barmoqlari-ga boqsa – qon, tirnog'i qayrilib ketibdi.

Qon yuqini ko'rib hushi yorishgandek bo'ldi, bu qon allanimalarni esiga soldi. Qon, zax... qorong'i shtreklar. Dahshatli shovqin, achchiq yovvoyi tovush, ingrash...

Akbarali qonli barmog'iga yana qarab, talpindi, qochmoqchi bo'ldi, keyin bo'shashib to'xtadi: «Axir bu Bektemir aka-ku! Bektemir aka halok bo'ldi! Odamlarni deb... majaqlanib ketdi!»

U qovjiragan maysaga o'tirib yig'ladi. Uzoq yig'ladi, endi tamom hushiga kelgan edi, voqeа butun tafsilotlari bilan yodiga tushdi, yana bir marta xayolidan o'tdi. Hatto o'z ko'zi bilan ko'rma-gan tafsilotlar ham ko'rinish ketdi ko'ziga. Mana, konda chiroqlar o'chib, barcha motorlar, kon-veyerlar to'xtagandan keyin hamma shtreklar-dan qo'l fonarini yoqib konchilar chiqib kelishdi. O'n, o'ttiz, yetmish, yuz kishi... Ular transfor-mator yonida temir tom bosgan yolg'iz murdani topadilar, qurshab oladilar, kaskalarini yechadi-lar. Qorongida uzoq sukut. Yuzlab odamlar hayo-tini saqlab qolgan bu mardning kim ekanligimi hech kim aytolmaydi, yuzi tanib bo'lmaydigan darajada majaqlanib ketgan... Keyin kostyum... kostyum cho'ntagidan ruxsatnoma shaxsiy gu-vohnoma chiqadi.

Akbarali Bektemir akaning baxtiyor kulib tur-gan yuzini ko'z oldiga keltirdi, u konchi kiyimini kiyganda qanday quvonib ketgan edi: «Yarashdi, yarashdi, Bektemir aka!» «Ha, yaqinda o'zimga ham tegadi!..»

Guvochnoma: Akbarali G'oziyev. Hamma yer-da hayratomuz, musibatli tantana. Namoyishiar. Akbaralining nomi tildan tushmaydi. Qariyalar duoda, tirik qolgan konchilarning bolalari uning fidokorligiga bag'ishiab tadbirlar o'tkazadilar. Haykal, muzey... Konchilar qishiog'i «Akbarobod» deb ataladi. «Akbar» desa onalarning ko'ziga yosh keladi. Akbarali ezgu nom...

U bo'lsa ayanchli bir qo'rqoq, chirkin bir hasharotdek kavaklarda pisib yuribdi, o'zining la'nati, iflos vujudini, bir paqirga qimmat jonini o'ylab do'stlik, muhabbat, ona mehridek ezgu narsalar ni poymol qilib kelib, mana go'ristonda o'tiribdi, tiriklar u yoqda tursin, yonidagi qabrlarga ham bosh ko'tarib tik qaragani haddi yo'q.

«Odamlarning soddaligi! Odamlarning sofili... aziz armonlari. Yo'q, bular meni bu dunyo-ga sig'dirmaydi. Men qayoqqa borishim kerak? Bektemir aka! Notanish odam... Qora yerda men yotsam bo'lmasmidi! – Akbarali qabr toshidan boshini ko'tardi. – Men yana o'zimni o'ylayap-man. Nahotki shundan boshqaga yaramasam?.. Yarar edim, o'sha bir zum daqiqadan o'tib olsam, albatta yarar edim. Lekin endi... endi kech. Bir zumlik xato. Bir nafas tubanlik... uni endi butun hayotimni berib ham tuzatib bo'lmaydi. Akbarali o'zining haykaliga qaradi. – Xayr... Bektemir aka».

Oyoqlarini bazo'r sudrab, ko'zini yerdan ol-may, qabriston darvozasidan chiqib ketdi. Meh-

monxonaga yetib borguncha yerdan bosh ko'tarmadi.

Yana bir kun karavotda cho'zilib yotdi. Bu uyqu ham emas, tush ham, o'y surish ham emas, qandaydir his-tuyg'usiz, qorong'iga – yoruqqa, sukutga – shovqinga loqayd, karaxt bir holat edi. Yotgan yerida nimadir kavshadi grafindan suv ichdi-da, yana chiqib ketdi.

O'zining ilgari turgan uyiga bordi. Bu yerda negadir o'quvchilar ko'p, odamlar tinmay kirib-chiqib turardi. Akbarali yo'lkaza ham o'tmadi, uzoqdan qaytdi, oyog'i tortgan tomonga yurdi.

Bironta tanish uchramasdi. Xotinlar, bolalar negadir uni chetlab o'tishadi. Faqat daraxtlar, ariqlar, ko'priklargina tanish. O'sha, necha yillar mакtabga, ishga qatnagan ko'chalari. Lekin hamma narsa, ariq bo'yida o'sgan yalpizgacha begona. Butun olam begona...

U negadir kon boshqarmasiga, keyin qishioq kengashiga borib qoldi. Hamma joyda, peshlavhlarda o'zining otini ko'rib orqaga qaytdi, kaltak yegan daydi kuchukdek o'zini panaga oldi.

Odamlardan qo'rqa digan bo'lib qoldi.

Bugun kechasi bulutdek bug' qaynab turgan kutubxonada «Choy quyib bera qolay» degan tovush necha kundan beri qulog'i eshitmagan birinchi mehribon inson tovushi edi.

– Meni hech kim tanimayapti, bobo! Hech kim tanimayapti... – deb yig'lab yubordi Akbarali qissasini tugatar ekan.

Ko'zlarini javdiratib ag'rayib o'tirgan Azimjingga ham u endi bu dunyoning odami emasdek tuyulib ketdi. Yuzi uniqqan, oriq, cho'kib ketgan

ko'zları nursiz. Odamga tikiladi-yu, hech narsani ko'rmayotgandek. Shuncha hikoyadan keyin ham u Azimjonga begonaligicha qoldi.

Uzoq jimlik cho'kdi. Vaqt yarim kechadan og'ib qolgan, tun salqin edi. Ochiq derazadan Shodasoyning salqini bilan qayerdandir pishgan behi hidi anqib kirdi. Qizg'ish chiroq zirillab yonar, Ochil buvaning ajin peshanasida ikki tomchi ter yaltiar edi.


O'rtadagi stolda o'sha to'ldirilgan so'rovnomalar yotibdi. Azimjon bu jimlikdan nima bilan shug'ullanishini bilmay, stolda yotgan qalamni olib, so'rovnomaga bir nimalar chizdi. Kirill harflarini mashq qilib, «Akbarobod.. Akbarobod» deb takrorlab yozdi. Qiziq... U Akbarobodda o'tiribdi. O'z xolavachchasi Akbaralining shahri. Chiroyli shahar. Chiroyli afsona. Sirli mangulik... (Azimjonning ko'zi Akbaraliga tushdi.) Faqat mana bu odam.

Xona hamon jimjit. Tun ham bu uch odam o'rtasidagi sirni saqlashga qasd qilgandek, og'ir sukulga tolgan edi. Lekin Ochil buva jimlikni buzdi:

– Ha, bolalarim... Odam deb o'lgan odam – doim tirik bo'ladi.

Bobo o'zi o'ylab o'tirgan gapni yakunladi shekilli. Azimjon bunga uncha tushunmadi. Voqeа butunlay buning aksini ko'rsatib turibdi-ku: odamlarni deb o'lgan Bektemir aka degan kishi; u o'lib nom-nishonsiz ketgan. Tiriklar – boshqa...

Lekin Azimjonga bobosining gapi yoqdi: «Odam deb o'lgan odam – doimo tirik». Azimjon buni hatto so'rovnama qog'ozining orqasiga mashq



qilayotgan ruscha harflari bilan yozib ham qo'ydi, yana bir o'qib ko'rdi.

Akbarali ma'nosiz ko'zlari bilan bo'shliqqa tikilib o'tirar edi. Ochil buva «Yotib dam olish kerak», deb o'rnidan turganida u birdan ko'zlari mo'ltilab unga yolvorganday termilib qoldi: «Ay-tadigan gapingiz shumi? Endi men nima qila-man?» degan qo'rquv bor edi ko'zlarida.

– Ertalab miya tiniqroq bo'ladi. Bir chorasin toparmiz, hozir kech bo'lib qoldi, sen ham yotib dampingni ol.

U soqolini silab o'rnidan turganda, salobatli gavdasi xonani to'dirgandek bo'ldi. Uning bir maslahat bermay o'rnidan turishi Akbaraliga o'lganning ustiga tepgandek bo'ldi shekilli, battar quti o'chdi. Azimjon u bilan bir zum yolg'iz qolishga qo'rqqandek bobosiga ergashdi.

Ular o'z xonalariga chiqib yotishdi. Qayerdadir xirqiroq xo'roz qichqirardi.

– Adashib qolgan jo'jaxo'roz bu. Hali vaqt bor, uxla, dampingni ol, – dedi Ochil buva chiroqni o'chirib yotarkan.

Lekin Azimjon payqadiki, boboning o'zi u xlabelotgani yo'q. U hadeb u yoqdan bu yoqqa ag'darilaverdi. Akbaralining fojiasi uni endi to'lg'antira boshladi shekilli. Dam nafasi ichiga tushlb ketar, dam uzun, chuqur uf tortar edi.

Azimjon bir vaqt boshini ko'tarib qarasa, bobosi qorong'ida oppoq bo'lib karavotda o'tiribdi: soqoli oq, ko'ylak-lozimi oq. Tushundiki, boboning Akbaralining oldidan «Yotamiz, dam olamiz», deb chiqib kelgani yotish, dam olish uchun emas ekan.

– Bobojon, nega indamadingiz, maslahat ber-madingiz? – dedi Azimjon bobosining yoniga borib o'tirarkan.

– Men shu uzundan-uzoq umrimda-chi, bolam, hech qachon bunday ojiz, bunday ayanch holga tushgan emasdim, – dedi Ochil buva.

Shundan keyin ikkalasi ham indamadi. Ular shu o'tirganlaricha tong otguncha karavotda o'tirib chiqishdi.

– Dam olsin, o'ziga kelsin, – deb qo'yardi Ochil buva har zamonda. O'zi bo'lsa o'tirgan joyida tebranib, keksa asablarini bosishga urinar, peshanasini artib-artib o'y surar edi.

– Siz hech qachon ayanch holga tushmaysiz, buva, – deb shivirlaydi yonida Azimjon. – Siz... siz hamma narsaga xo'jayinsiz. Nazarimda, qismat ham sizning qo'lingizda... Bizning shirkatimizning bosh direktori keksa odam. Nufuzli pirga qo'l bergen. «Pirimning olti ming muridi bor», deb maqtanardi. U pirni ko'rganman. Juda xasis odam, nasha chekar edi. Mashina bosib ketdi...

Azimjon «Buni nega gapiryapman?» deb xijolat chekib o'tirgan edi, bobosi kulib yubordi – ta'sir qilibdi:

– Pirni mashina bosib ketibdi degin? – Ochil buva yana maza qilib kului.

Shu bilan ular jonlanib, o'rinalidan turishi-di. Derazalar tong shafag'idan qizargan edi. Yuvinib-kiyinishguncha yo'lakda qadam tovushlari ham eshitila boshladi, chelaklarini taraqlatib farrosh ayoliar ishga tushishdi.

Bobo-nevara boshiashib chiqib, Akbaralining eshigini qoqishdi. Qiya turgan eshik ochilib ket-

di. Akbarali yo'q edi. Xona o'sha-o'sha: tartibsiz, derazalar lang ochiq, joy g'ijim.

Ochil buva kirishi bilan yuragi «shuv» etdi-yu, indamay o'tirdi: birpas kutish kerak. Azimjon yo'lakka mo'rалади, allaqayoqlarga borib ham keldi, xonaning egasi hech qayerda yo'q edi. Besh daqiqa o'tirishdi, yigirma daqiqa... Ochil buva toqati tugab o'rnidan turmoqchi edi, stoldagi so'rovnama qog'oziga ko'zi tushdi. «Adem dep o'lgen adem daemo tirik». Bu Azimjonning qo'lli. Kechagi yozgani. Xatolari bo'lsa ham ancha o'rganib qolibdi. Zehni joyida. Bunisi nima? Tagida yana bir xat bor-ku. Qo'lli qaltirab, aji-buji, lekin xatosiz yozibdi. «O'zini deb yashagan – o'lik». O-ho, hikmat-ku! Ikki satr bayt bo'libdi!

Ochil buva jilmaygancha birpas yozuvga tikilib o'tirgach, yuziga yolqin urgandek, birdan o'rnidan turib ketdi. Yalt etib derazaga qarab, qog'ozni cho'ntagiga tiqdi. Eshikka otildi.

O'qdek o'tib ketgan chol bilan yigitga yo'lakdagilar anqayib qarab qolishdi. Azimjon qayoqqa ketishayotganini hali bilmas, bobosiga arang yetib yurar edi. Bobo mehmonxonani aylanib o'tib, o't bosgan chorvoq ustidan yo'l soldi, paxsa devor raxnasidan oshganlarida go'ng tepadagi bir to'da tovuq vahima bilan qaqlagancha tirqirab qochdi. To'zg'igan pat ichidan chiqib kuchukka yo'liqishdi, xayriyat bog'log'liq ekan, tomorqadan tekis yalanglikka chiqib olishdi.

Yalanglikda Ochil buva qadamini sekinlatib, nafasini bosishga urindi. Lekin rangi oqargan, to'g'riga tikilgan ko'zlarida odatdagi vazmin xotirjamlik yo'q edi. Yalanglik ko'm-ko'k maysa, oyoq bosilmagan;

shabnam nuqraday yiltillar, tep-tekis edi. Ikki yuz qadamcha yurganlarida yalanglik birdan qirqilib, tikka tushib ketgan jar tagida qaynab oqqan Shodasoy ko'rindi, salqin shamoli, yurakka vahima soladigan shovillashi yuzlarga urdi.

– Bobo! Beriroq turing! – deb qichqirib yubordi Azimjon. Ovoz eshitilmasa ham, Ochil buva bir qadam orqaga chekindi. Soyning betinim shovillashidanmi, ko'p yugurganidanmi, yo noma'lum haya-jondanmi – Azimjonning boshi aylanib ketdi. Bobosi uning yuziga qarab, ahvolini tushundi, lablari qimirladi: «Bu yerda hamma ham shunday bo'ladi, qo'rqma», – dedi shekilli. Uning etigi qo'njigacha nam, yuzida ojizlik, musibat ko'lankasi kezar, soqoli sal titrar edi. U avval jar ostida ko'piklanib turgan soyga uzoq qarab turdi, keyin cho'kkalab shabnamda qolgan qandaydir izlarni paypasladi, kaf-tini soqoliga surib o'rnidan turdi, orqaga qaytdi.

Azimjon ergasharkan, voqeani tushungan edi. U Akbaralining qissasidan bu jar haqidagi so'zlarini esladi: «Tagida yalmog'iz kamar bor deyishadi. Bolalarni u yerga yo'latishmasdi. Meni ham dadam u yerdan quvlagani quvlagan edi...»

Soyning suroni orqada qolgandan keyin, qaltri-roq bosib ketgan Azimjon so'radi:

– Siz shunga aminmisiz, bobo?..
– Ha, – dedi Ochil buva nevarasiga hazin qarab. Cho'ntagidan g'ijimlangan qog'ozni olib unga tutqazdi. Azimjon dam to'xtab, dam yurib uzoq o'qidi. Akbaralining kechagi qutsiz yuzi, ma'nosiz qarashlari ko'z oldiga keldi.

– Kechqurungi o'sha gapingiz... turtki bo'lib-di-da, – dedi u bobosiga, – Komillani uydan haydab bir xato qilgan edingiz. Bu safar ham...

– Bu safar xato qilganim yo'q. O'zi... bandi mo'rt edi. Uchdi-ketdi.

– Berahmsiz...

– Hayot berahm. – Cholning qatlam-qatlam ajin bosgan ko'z yoshiari namlandi. – Qo'rqoqqa ayniqsa berahm. Bola ahvolni o'zicha tuzatmoq-chi bo'lgan. Lekin yana qo'rqoqlik bilan. Yo'q, xatoni tuzatish, haqiqatni yuzaga chiqazish uchun jasorat kerak, sen ham bilib qo'y!

Yangi ko'tarilgan quyosh charaqlab tursa ham, kuz nafasi kelayotgan sovuq shamol xazonni to'zg'itar edi. Bu shamol maysalardagi shabnamni ham, shabnamdagi izlarni ham birpasda yalab ketdi. Bu payt mehmonxonaga bir mashina yoshlari – turistlarmi, alpinistlarmi shovqin-suron bilan, gullar, ryukzaklar bilan kelib tushgan edi. Eshik oldidagi maydon guvillab yotardi. «Bularga joy bo'shatib berish kerak», – deb o'yładi ichida Ochil buva. Shoshib zinadan chiqib bordi. Lekin eshik oldida bir narsaga borib urilgandek to'xtab qoldi – mehmonxona peshlavhiga ko'zi tushgan edi: «Akbarobod qishloq mehmonxonasi».

Ochil buva yozuvga yana yaqinroq kelib tikildi, iztirobda ko'zini oldi, atrofdagi odamlarga qiya boqdi. Eshik tomonga yurib, yana orqaga qaytdi. U gangib qolgan, vajohati shunday ediki, Azimjon: «Bobom hozir lavhani mushti bilan urib chil-parchin qilsa kerak», deb o'yładi.

– Bobo... – dedi sekin.

Ochil buva bo'shashib, ichkariga qadam qo'ydi. O'z xonalarida birpas jim o'tirib asablariga dam berishdi.

– Endi nima qilamiz, bobo?

- Nima qillardik?.. Qani, tuguningni tug.
- Azimjon hayron bo'ldi.
- Shundoq ketaveramizmi?
- Odamlarga joy bo'shatib berish kerak.

Azimjon: «Bunday chigal voqeani bilgandan keyin nimadir qilish, nimanidir aniqlash kerak, buning nima ekanini bobom o'zi biladi», – deb o'ylagan edi, garang bo'lib qoldi.

– Sen nima, Ochil buva hamma narsani bila-veradi deb o'ylovdingmi? – dedi chol qaltiroq qo'llari bilan narsalarni saranjomlashga qarasharkan.

Azimjon indamadi. Ular yo'lakda Akbarali uchun ham hisob-kitob qilib, avtobus to'xtaydigan joyga qarab jo'nashdi.

Hamma ish qandaydir g'ayriixtiyoriy bir holatda bajarilar edi. Boshlar og'ir, miyaga o'sha dahshatli voqeanning chalkash tafsilotlaridan boshqa narsa sig'maydi.

– Aslida hech narsani o'zgartirmay, shunday qoldira qolsa ham bo'ladi, – dedi Azimjon xur-junni yelkasida ko'tarib borarkan, – o'lganmi – o'lgan. Shaharcha uning nomida. Yopig'liq qozon yopig'liq. Bektemir degan odamga nisbatan... hech kim bilmaydigan adolatsizlikning kimga zi-yoni bor?

– Ha, agar sen bo'lmasang, men bo'lmasam, yoki ikkalamizning ham vijdonimiz bo'lmasa – bo'lak gap edi. Lekin vijdonni qayoqqa qo'yamiz? U yeysi-ku sen bilan meni...

– Shunday deysiz-ku... juda chiroyli qilib qo'yishibdi-da. Shahar, muzey, haykal, gullar, o'quvchilar, lavha, muhr...

- Ko'ngillardagi ezgulik, inson mardligiga ishonch-u hurmatni aytmaysanmi! O'zim ham odamlarning chiroyli o'ylarini, yaxshilik haqidagi afsonalarini sira buzgim kelmayapti... Lekin bunday qoldirib bo'lmaydi. Chiroyli narsa sof bo'lishi kerak... Odamlarning tuyg'usi bilan o'ynashish gunoh. Qaydam, bilmadim, bolam, o'ylash kerak. Sen ham o'yla. Hozir emas, boshimiz andak hushyor tortsin, maslahat soladigan odamlarimiz bor...

Avtobus gangib nima qilarini bilmay qolgan bu ikki yo'lovchini tog'lar orasidan olib chiqib ketdi. Temir yo'l bekatiga yetib kelganlarida shovillab yomg'ir quyib berdi. Sovuq kuz yomg'iri ularni poyezdda ham yana ancha yergacha kuza-tib bordi. Yomg'ir, sovuq, loygarchilik, bekatlar-dagi yugur-yugur, tiqilinch, derazada soat sa-yin almashinib turgan manzaralar, g'alati-g'alati qo'shnilar, qayoqdagi odamlar bilan tanishish, xayrplashish, kutilmagan hangomalar, yotish, turish, tomoq tashvishi – bularning hammasi ularni kechagi og'ir o'ylardan biroz chalg'itdi. Lekin Azimjon hamon kamgap edi. U piyolalarga choy quyib qo'yib, ichishni unutar, ba'zida soatlab derazadan ko'z olmas edi. Qarindoshining g'alati o'limi hamon xayolidan ketmasdi. Tashqarida esa kuzgi yomg'ir yuvgan uzumzorlar, onda-sonda kahrabodek sap-sariq behi, palaklarda o'ksib qolib ketgan so'lg'in xamaklar yiltillab qolar, dam yana birdan ko'z ilg'ammas kengliklar bosh-lanib, uzoq-uzoqlarda ko'k koptokdek yumaloq sadaqayrag'och, kimsasiz shiyponlar ko'zga tash-lanar, paxtasi terib olingen dalalar esa goh jigar-rang, goh surmaday qorayib ko'rinar edi.

– Ajab... – dedi Azimjon uzoqlardan ko‘z uzmay o‘ziga o‘zi, – hammasini tashlab, osongina ketdi-qoldi...

Ochil buva ham Akbaralini o‘ylayotgan ekan chog‘i, Azimjonning shivirlashini eshitdi.

– Nimaning «hammasini?»

Azimjon cheksiz dalalarni, uzoqda oltin rang bog‘larga ko‘milib yotgan qishloqlar, qoramtil tog‘lar, ko‘m-ko‘k osmon – barisini birdan qu-chog‘iga olmoqchidek qulochini yozib, deraza tomonni ko‘rsatdi.

– Mana bularning hammasini...

Bu sodda gap Ochil buvaga ta’sir qildi.

– Bilasanmi, bizning jiyan... «buning hammasini» o‘ziniki qilib olganicha yo‘q edi-da. «Buning hammasi» juda ulug‘ gap. Odam bolasi shu ulug‘likning bir zarrasi. U unga jon rishtasi bilan chirmashib ketishi kerak. Bo‘lmasa, sen aytganday, «oson» ko‘chadi. Mana bizlarga qiyin... «ketish». Bizlar bu tuproqni qonimiz bilan sug‘organmiz. Har bir giyohni, har qarichini o‘z qo‘limiz bilan yasab olganday...

– Bu yerlar qarovsiz yovvoyimidi?

– Gap unda emas. Nima deb aytsam... qandaydir chirkin, tahqir etilgan yerlar edi. Yangilash, orolash kerak edi. Eh-he, bolam, nimasini aytasan! Hov ana u ola tog‘larning naryog‘ida...

HIKOYAT

Boboni u mahal Ochil-firqa deyishar edi. 1929-yili chinorliklar uni O‘rta Osiyo partiya anjumaniga vakil qilib saylashdi.

Hamal chiqib, savr kirgan kunlar. Savr keldi – ekinchiga davr keldi deganlaridek, taqachining ustaxonasi eski omoch, mertik ketmon, tishsiz sixmola, chopqi, qirg'ich, inchunin, turli-tuman temir-tersak bilan to'lib-toshgan, ish qistalang palla. Sarmoyasi temir, dastmoyasi ko'mir degandek, «Yo hazrati Dovud!» deb kecha-kunduz bolg'a uradigan Ochil-firqa shunday dolzarb mahalda, go'shtdan ajratilgan tirnoqdek, ustaxonadan chiqib Toshkentga jo'nadi.

Biroq anjuman ochiladigan kuni ertalab qo'llariga qizil mandat o'rniغا poyezd chiptasi tutqazishdi: janubiy tumanlarni chigirtka bosibdi, anjuman vakillari yoppasiga chigirtkaga qarshi safarbar qilingan edi.

– Chigirtka? – Ochil-firqa og'zining bir cheti bllan jilmayib yelkasini qisdi. U shop mo'yovli, elliklarda bo'lsa ham, qirchillama yigit edi. Endi chigirtka bormidi? Bu unga bir bachkana yumush bo'lib tuyuldi. Shoshmasdan ko'chaga chiqib poytaxt sartaroshxonasida mo'ylovini qirtishiatib, muyulishdagi yahudiy cholga etigini moylatib keldi. Kelsa, anjuman bo'ladigan zalda vahima: yana shoshilinch telegrammalar kelibdi – sariq chigirtka butun Turkmanistonni bosganimish! Yigirma kunda Qoraqumdan o'tib kelib, Amu bo'ylarini – butun Lebobni qurltishi mumkin, Toshovuz, Buxoro xavf ostida emish!

Ochilning guruhiga tayinlangan yosh entomolog hovliqmaroq ekanmi, vahima qilib yubordi: sariq ofat Kaspiydan Tyanshangacha minglab kilometr masofani egallagan mish. Million tonna keladigan katta galalari besh-olti ming kvadrat

chaqirim maydonni qoplab, bog‘, yaylov, ekinzor deysizmi – barini shudgor qilingan yerday qoraytirib kelayotganmish!

Ochil-firqa bu vahimaga uncha ishonmasa ham, hayron bo‘lib qolgan edi. Boshqalar hovliqqan, hayajonda, u bo‘lsa nuqul o‘ylaydi: sariq chigirtka bu yerkarda qayoqdan kelishi mumkin? Ilgarilar bu ofat haqidagi shum xabar Mozandaron taraflardan kelardi. Bizning dehqon bu ofatni bilmaydi, ko‘rgan emas. Nahotki shu gaplarning hammasi rost bo‘lsa?

Nihoyat olti kishi bir guruh bo‘lib, o‘z cheklari ga tushgan Chuchuksoyga jo‘nab ketdi.

Dalalar ko‘m-ko‘k. Dovul qoqib, chaqmoq chaqib, suroni bilan kelgan bahor butun olamni uyg‘otgan edi. Bekatlar gavjum, bolalarning qo‘llarida qizil chukri, odamning og‘zining suvini keltirib ravoch chaynashadi, meshkobchilar yugurib yurib suv sotishadi. Shovqin-suron.

– Kep qoling, ismaloq somsa! – deb chinqirgancha qizchalar chopqillashadi.

Ochilga tabiatning mana shu payti sirli tuyuladi. Navro‘zi olam, sumalak qaynagan kechalar, barra qo‘zilarning birinchi ma‘rashi, qandaydir shirin tashvishlar, soflikka, kenglikka intilish... Bunday vaqtarda odamlar ofatni o‘ylamaydi. Go‘yo hech qanday yomonlik bo‘lmaydigandek. Faqat tirlish, yangilanish, yasharish, talpinish, qanot chiqarish...

Qanot chiqarish?

Nahotki oddiy sariq chigirtka shunchalik vahimali bo‘lsa?

Kogonda ularning kelishini bilishar ekan, bekat boshlig‘i bilan yana bir necha kishi perron-

da kutib oldi. Yarim kecha edi. Ochil bu kutib ol-ganlarning tungi sarosimasini ko'rib, hayron qoldi: parovoz yo'q, vagon yetishmaydi, hammasini kerosin, smola, dorilar yuklab janubga to'xtov-siz jo'natib turishgan ekan. Bularga transport yo'q, lekin qanday yo'l bilan bo'ssa ham hoziroq jo'natish haqida buyruq bor ekan. Drezinada jo'nashga to'g'ri keladi...

– Drezinada? Shuncha joyga kechasi-ya?

– Ha, o'rtoqlar, – dedi bekat boshlig'i. U ko'k paxtalik kiygan, ko'zlari qizil, rasmiyroq va juda ishchan kishi ko'rinar edi. – Suv-puv olvolinglar, hozir jo'natamiz.

Ochil gapning jiddiyligiga endi astoydil ishona boshladi.

To'rt yarim ot kuchiga ega bo'lgan motodre-zinaning uch kishilik baland o'rindig'iga besh kishi zo'rg'a joylashib, tong qorong'isida yo'lga chiq-ishdi. Avval bu o'zi yuradigan o'yinchoqdek ham-maga bolalarcha quvонch bag'ishladi, namxush o't-alaf hidi dimoqqa urildi.

– Chu, jonivor! – dedi kimdir sho'xlik bilan. Yo'lovchilarga jon kirib, hazil, kulgi, hangoma anchagacha davom etdi. Lekin bora-bora tun-ning rutubatli salqini zahrini o'tkazib junjikti-ra boshiadi, cheksiz qorong'ilikka dumalab ketayotgan bu bir ko'zli shayton aravani to'xtatib bo'lmasdek tuyular, yolg'iz farasi yo'l chetida-gi o'ydim-chuqurlarni uzoqdan tubsiz jarlikday ko'rsatar edi.

Uch soat davomida oldilarida bironta chiroq miltillab ko'rinsama-ya. Xunuk uvlaydigan chi-yabo'ridan bo'lak tirik jon egasi uchramaydi. Diy-

dirab qolgan entomolog yigit – uning oti Mamajon – Ochil-firqaning pinjiga kirib ketdi, Ochil ham g'ujanak bo'lib olgan bu kichkinagina vujudni butun gavdasi bilan to'sib, isitishga urinar, gapga solar edi. Lekin bu qo'pol, keksa askarning oldindagi ofatga parvo qilmay, sheriklarini kamsitib kesatishlari, ayniqsa bu yigitchani «Chigirtkapolvon» deb atab, boshqalarni ham kuldirib, hadeb masxara qilishlari entomologga yoqmadi. Bu yerda sariq ofatning nima ekanligini hozircha faqat shu yigitchagini uncha-muncha tasavvur etardi.

Tong qandaydir birdan yorishdi. Tong bilan birga chehralar ham yorishib, haligi xafa-gazak gaplar tezda unutildi, ufq ko'rindi, ufq-da yashil teraklarga burkangan qishloqlar, kentlar, qo'rg'onlar uqlab yotardi. Hozirgina tim qora atrof, tekis dalalar, ekinlar o'tloqlar tiniq ko'k rangga kirib, shabnam qatralari jimirlagan pastliklar oqar daryo singari yiltilladi, bo'liq bahoring butun hayotbaxsh ruhi sovuqdan yoshiangan ko'zlarda, ko'kargan yuzlarda barq urdi, dil-lar isib ketdi.

Ular egilib yo'l bo'yida o'sgan qizg'aldoqni uzishga intilishar, o'zlaricha xirgoyi qilib, bu ajoyib temir aravaming beozor vazniga tebranishar, zavq bilan baqirib-chaqirib, o'zlarini isitishga urimishar edi.

Qora tun qa'ridan otilib chiqib, dilbar subhidam qo'ynida sof kengliklar husniga mahliyo bo'lgan, birpasga hamma narsami unutgan bu besh yo'lovchi tuyqusdan nima bo'lganini payqamay qoldi. Hamma o'zini quduqqa tushib ketgandek his etdi. Yo'q, drezina ag'darilgani yo'q. Lekin os-

mon to'nnkarilgandek, bexosdan boshlar aylanib, ko'ngil aynib, hammani dahshat, qo'rquv bosdi. Sutdek oqarib kelayotgan ufq birdan qorong'ilashib, atrofni zulmat bosdi. Drezinaning payvasta sadosi eshitilmasdi, bosh ustidami, quloq ichidami nimadir g'imirlar, shitirlar, asta shitirlasa ham olamni tutgandek edi bu yoqimsiz sharpa.

Bu jarlik ham emas, osmon ham to'nnkarilmagan, bu bulut edi. Juda katta, og'ir iflos bir sarg'ish bulut yo'lovchilarni yerga qapishtirgudek pastlab suzmoqda. Ular buning sariq chigirtka buluti ekanini bilishdi, lekin chigirtkani ko'rishmadi, uning nam, shilimshiq og'irligi boshlari ustida sezilib turar, chirkin shitirlashi dahshat solib, allaqanday qo'lansa hidi ko'ngilni ag'darar edi. Hammalari o'zlarini ojiz sezib qolishdi, ko'pni ko'rghan keksa askar Ochil-firqa ham vujudiga chirmashgan bunday chirkin narsani birinchi sezishi. Drezina soatiga qirq chaqirim tezlik bilan borar, notanish dushmani bilan birinchi marta yuzma-yuz kelgan safarbar guruh beixtiyor boshini ichiga tortib,sovuq o'rindiqqa qapishib qolgan edi.

Ular o'sha ahvolda bir necha daqiqa yurishdimi, bir soatmi – bumi Ochil buva haligacha bilmaydi – bir mahal cheksiz, ko'm-ko'k osmon ko'rindi, ular quduq tagidan tortib olingandek erkin nafas olishdi. Sassiq, og'ir, yashil bulut o'tib ketdi. Lekin ko'ngilda vahimasi qoldi. Shu damdan boshlab dillarini hayrat, qiziqish o'rniga dahshatli hayajon egalladi.

– Bular urg'ochi, bo'g'oz chigirtkalar, pastlab uchyapti, – dedi lablari qaltirab Mamajon.

Boshida chust do'ppi, ovozi ingichka. – Nariroqqa borib qo'nadi. Ekinga, bog'ga, yaylovga yopirilib, ko'kargan nimaiki bo'lsa tomirigacha kemiradi, keyin qora yerga tuxum qo'yadi. O'n besh kundan keyin bundan yuz baravar katta galalar yer bag'irlab... – Mamajon tishi tishiga tegmay qaltilrar, uning gapimi eshitish og'ir, badanlar jimirlab ketar edi. – Yosh chigirtka uchmaydi, yer bag'irlab o'rmalaydi, o'n-yuz chaqirim joyni egallab, iflos suvday yelib, g'imirlab kelaveradi, har birining jag'i tinmay ishlab turadi...

– Bas! – deb baqirib yubordi Ochil. Haligi qo'lansa hid yana dimog'iga kelib urilgan edi. U buni entomologning hikoyasidan deb bildi. Ammo qarasa, hid borgan sari zo'rayib, ko'nglini aynit-yapti. Bir vaqterezina ham siljimay qoldi.

– Chigirtka! – deb qichqirdi kimdir. Yerga qarashsa, butun atrof, sho'r bosgan dala, yo'l, temir izlar ham keta-ketguncha sap-sariq! Oyoq bosgudek yer yo'q. G'iladirak bosganda chigirtka qatlami sitilib reslar yam-yashil shilimshiq modda bilan qoplanar, g'iladiraklar girillab bir joyda aylanar, rezina oldinga siljiy olmas edi.

Yerga tushib itarishga to'g'ri keldi. Pastga tushishlari bilan bu hisobsiz jirkanch hasharot oyoq ostidan sakrab, yuzlarga ura boshladni, yelkaga, qo'yinda, etik qo'njiga, sochlari orasiga to'ldi. Lekin boshqa iloj yo'q, bu doiradan chiqib olish kerak edi, ko'zni shartta yumib rezinanini itarib ketishdi. Toshda ham, o'tda ham, tuproqda ham, temirda ham oyoqlar toyardi. Ochilning tabiatini shu qadar kir bo'diki, birdan ruhi tushib ketdi. Gurkiragan bahor qo'ynidagi bu chirkin-

lik uning tasavvuriga sig'masdi. Tizzalari qaltirab yarim chaqirimcha yugurganlaridan keyin, yuz lariga sof havo tegdi, oyoqlari yerda tirak topib, qo'yin-qo'njilarini qoqdilar. Drezina tez yurib ketgach, salqin shamolda zo'rg'a o'zlariga keldilar. Har biriming ko'nglida bu jirkanch ofatga qarshi kuchli nafrat, o'ch alanga olgan edi.

Tuman markazida ularni qishloqma-qishloq bo'lib yuborishdi. Ochil aka bilan Mamajon bir joyga tushdi. Chuchuksoydan ularga yana bir odam – Matkarimov degan miliitsiya boshlig'ini qo'shlb berishdi. Matkarimov baland bo'yli, keliishgan, mo'ylovini bo'yab yuradigan chiroyli odam edi. Ochil akaning «Shop-shalopni qoldiring», degan iltimosidan keyin to'pponcha-yu kamarlarini, qomatiga yopishib turgan xizmat kiyimini yechib, odmigina kiyinib chiqdi. Bunga biroz og'ringanini Ochil aka ham sezdi-yu, lekin nima qilsin, ularga odamlar bilan ishslash, yotig'i bilan tushuntirib, aholini ofatga qarshi safarbar qilish vazifasi topshirlilgan. Bu yerda ozgina bo'lsa ham zo'rlik, do'q, po'pisa ketmaydi. Miliitsiya kiyimi, to'pponcha bu yerda ziyon yetkazishi mumkin, xolos. Matkarimov ortiqcha qarshilik ko'rsatmasa ham, to'ng'illab qo'ydi.

- Mahalliy sharoitni bilmaysizlar...
- Biz hukumat nomidan ketyapmiz, akasi, – dedi Ochil-firqa gapni qisqa qilib.

Shom oldidan uch otliq notanish qishloqqa kirib bordi. Qishioqning o'zi ko'rimsizgina bo'lsa ham, atrofdagi manzara, tog' etagidagi yam-yashil qirlar, uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketgan taxta-taxta tekis dalalar, ikki yoni qator terak arava

yo'llar, bodroq-bodroq oqarib gullagan shaftolilar g'ira-shirada sirli ko'rinar edi. Ko'chalar bo'mbo'sh, hovlilar jimjit, bu yerdagilarning chigirtka tugul, olamdan ham xabari yo'qqa o'xshardi.

Qishloq kengashi oldida otdan tushdilar. Yungurib chiqib jilovni ushlagan odam yog'och oyoq, yelkasida qo'shotar miltiq, soqoli o'sib ketgan bir chol edi. Dam «taqsir», dam «o'rtoq» deb, mehmonlarni ichkariga taklif qildi, stol tepasida osig'liq qirqinchi lampani imillab yoqdi.

– Siz kimsiz?

– Men qorovulman, taqsir... o'rtoq.

– Bizga rais kerak.

– Rais? E-ha... shundoq deng? Xo'sh... rais yo'q, o'rtoq... taqsir.

Bu g'alati odamdan Ochil akaning ensasi qotdi.

– Qo'shotarni bundoq qo'yib gapiring, birodar. Otingiz nimadi? Qurbonali? Gap munday, Qurbonali. Bizga qishloq raisini chaqirib bering.

– Rais yo'q.


– Qayoqda?

– Yo'q, butunlay yo'q.

– Bu qanaqasi?

Qorovul chaynalavergandan keyim mehmonlar klm ekanliklarini aytib, o'zlarini tanitishdi. Shundan keyin Qurbonali miltiqni burchakka suyab qo'yib, avval shoshmasdan nos otdi, keyin, qishloqda ikki yildan beri birin-ketin to'rtta raisni o'ldirib ketishgandan beri bu lavozimga rozi bo'ladigan odam topilmayotganini aytdi. «Hozircha hamma ishiarga o'zim qarashib turibman», dedi qorovul nosni burchakka tuflab.

Mehmonlar bir-birlariga qarab olishdi.



– Bizlarni nima qilasiz?

– Sizlarni, – Qurbanali to'ngakday qo'pol yog'och oyog'ini do'qillatib borib, eshikni tambalab keldi. Bu vaqt qo'shotarga qo'l uzatgan Matkarimovni tinchitdi: – O'qi yo'q... – Keyin Ochilga qaradi: – Mening vazifam shuki, sizlarni darrrov iziga qaytarib yuboraman. Bekordan-bekor nobud bo'lishning hojati yo'q.

– Chigirtkani ko'rganmisiz, Qurbanali? – deb so'radi Ochil.

– Ko'rgan emasman. Chigirtkaga nima bor shu topda, qorong'i tushyapti, jo'nanglar! Chiroqni o'chirishim kerak.

– Kim axir ular, kimdan qo'rqishimiz kerak?

– Mardonqul qo'rboshidan qolgan kallakesarlar. Hozir ularga surgun bo'lib ketgan Sharif oqso-qolning kenjasি Sanginboyvachcha bosh bo'lgan.

– Qayerda ular?

– Qaydam? Har zamonda paydo bo'lishadi. Hozir sizlarning kelib tushganlaringdan ogoh bo'ldi deyavering. Qayoqdan xabar topishadi, bilmayman.

– O'zingiz xabar bermaysizmi ishqillb? – Matkarimov xezlanib o'rnidan turib ketdi.

Ochil aka uni ko'z qarashi bilan bosdi. Xafa bo'lgan Qurbanali: «Chiroqni o'chiraman, ketinglar», – deb qistalang qildi. Ochil aka uning qo'lidan ushladi, o'tqazib qo'yib, ertami-indin yetib keladigan dahshatli ofat – chigirtkani gapira ketdi.

– Endi bizlarni joylashtiring, ertaga xalq bilan kengashamiz.

– Qayerga joylashtiraman? – dedi qorovul yig'lagudek bo'lib.

– Sanginboyvachcha kelganida kimnikiga tu-shadi?

– Toshxo'janikiga...

– O'sha yerga olib boring bizni.

Buni eshitgan Matkarimovning ko'zлari olayib, ko'rкam yuzidan qon qochdi.

– O'sha yerga olib boring, – deb takrorladi Ochil-firqa, – boshqa joyda yotsak g'aflatda qolamiz.

Qurbanali «men ogohiantirdim, bilgанингни qil» degandek, yelkasini qisib yo'l boshiadi. Chiroq o'chganda, hammayoq qorong'i bo'lib, Matkarimovni battar vahima bosdi. U zim-ziyo ko'chada yog'och oyoqning g'irch-g'irchiga ergashib borarkan, Ochil-firqadan norozi, hadeb to'ng'illar edi: qurolsizlanib, kallakesarlarning uyasiga kirib borish – o'zboshimchalik... qaltis o'zboshimchalik... Kimdir jonidan to'ygan bo'lsa, unga nima, uning joni o'ziga kerak...

Ochil aka bu gaplarni eshitmagandek jadal yuraverdi. U Toshxo'jani ham, iloji bo'lsa, Sanginboyvachchaning o'zini ham tanib qo'ygisi ke-lar edi. Kamlardandir qochib, pusib yurish uchun kelgan emas axir. Hukumat nomidan xalqqa madad berish uchun, ofatga qarshi kurashni uyush-tirish uchun kelgan.

– Bu yerning xalqi Toshxo'janing izmidan chiq-maydi, – dedi Qurbanali, – sizlar bir nima desanglar ham, o'shaning og'ziga tikiladi...

– Quloqmi?

– A?

– Yeri ko'pmi deyman?

– Ko'p...

– Batrak ishlatadimi?

– Be, batrakni nima qiladi. Yettita devdek o'g'li, qizlari, kelinlari, nevaralari... Yarim qishloq aymog'i-ku.

– O'zi bir kolxoz degin?

– ... Kolxoz yo'q hali bizda.

Mamajon ham garang bo'lgan holda eng orqa-da ergashib borar, ertalab chigirtka bulutidan dahshatga kelgan kichkinagina yuragi bu ikkin-chi dahshatni sig'dirolmas edi. Chigirtkadan ham xunukroq ishlarga duch kelishmasa hali.

Toshxo'janing hovlisi ichkari-tashqarili, etak-da keng chorborg' so'qmoq yo'llar bilan boshqa hovlilarga tutashib ketgan – bolalarining xonadonlari bo'lsa kerak. Bular kirishi bilan oy-dinda shohsupadan barvasta bir odam qo'zg'alib, «Xush kelibsizlar», dedi. Toshxo'janing o'zi shu bo'lsa kerak. U qirg'iz qovoq, qoshi siyrak, cho'tir odam edi. Qurbonali boshlab kelganidan, meh-monlarning hukumat odamlari ekanini bildi-yu, chiroyi o'zgarmadi, zahil yuzi qandaydir ifodasiz, nima o'ylaganini bilib bo'lmas edi. Mehmonxona-ga taklif qildi.

– Yo'q, ijozat bo'lsa mana shu atrofda cho'zi-la qolamiz, – dedi Ochil-firqa shotut tagidagi eski so'rini ko'rsatib. Yechinib, ariqda yuvinishdi, Qurbonali ichkaridan choy damlab, patnisda jiy-da, mayiz olib chiqdi, non sindirdi.

Oydinda bu notanish joylar sirli ko'rinar, gap qovushmas, Mamajon bo'lsa o'zini chetroqqa olib o'tirgan uy egasiga zimdan tikilib, o'ylar edi: nahotki kallakesarlarning homysi shu bo'lsa? Bo'lsa bordir: o'lguday to'ng ko'rinati, yuzida bir iliqlik sezilmaydi, kamgap...

– Mehmonlardan xursand emassiz, chamamda, Toshxo'ja uka, nimani o'ylayapsiz?

Qurbanali javdirab qoldi: Toshxo'jani qishloqda uka deyishga hech kimning haddi sig'masdi. Toshxo'ja ham yalt etib Ochil akaga qaradi. U mehmonning o'zidan katta odam ekanini endi payqagan edi.

– Nega, eshigimiz hammaga ochiq, – dedi u yelkasidagi beqasam chophonini tuzatib.

– Hammaga deng?.. – Ochil aka choy ho'pladi. – Qishloq kengashi raislarini pichoqlaydigan mehmonlaringiz ham bo'lar ekan.

Toshxo'ja bu gapdan sakrab tushar deb o'ylashgan edi, pinak ham buzmadi.

– Mening burchim – kelgan musofir mo'min-musulmonga eshik ochish, choy tutish... U ko'chada nimaiki qilsa, gunohi-yu savobi o'z gardanida.

– Odam o'ldirish gunohgina emas axir! Unga sherik bo'lish esa...

– Yo sizlar odam o'ldirmaganmisizlar? – Toshxo'ja kamgap emas ekan, uning o'z hayot yo'sini, o'z falsafasi borligi ko'rina boshladi. – Bolsheviklar miltiq otmaydi, deb ham bolalarni ishontirib bo'lmaydi axir, birodar.

– Inqilob...

– Dehqonga inqilobning keragi yo'q. Men siyosatga aralashmayman. Siyosat nima berdi dehqonga? Mana, siz chigirtka deysiz, dehqon siyosatning jabrini tortyapti: bir bosmachilar kelib qishloqni xonavayron qilib ketadi, bir qizillar kelib ekinni payhon qilib ketadi, keyin yana unisi, keyin yana bunisi... Chigirtka nima ekan buning oldida! Chigirtka emish-a?

Toshxo'ja etagini qoqib turib ketdi, barvasta gavdasi ayvonning qorong'i eshigida g'oyib bo'ldi.

– Ashaddiy aksil-ku! – dedi Matkarimov ko'zlarining paxtasi chiqib.

– Bas, yotinglar, dam olish kerak... – dedi Ochil-firqa so'riga cho'zilib. – Siz ham boring, Qurbonali, rahmat.

– Yo'q, men ketmayman, men shu yerda o'tiramani, – dedi qorovul o'qsiz qo'shotarini quchoqlab o'tirgancha.

– Ketmang, ketmang! Shu yerda o'tiring! – dedi Matkarimov.

Ochil aka yulduzlarga qarab yotarkan, Toshxo'ja haqida o'ylardi. U inqilobning ashaddiy dushmanlarini ko'rgan, lekin bunaqa xildagisini ko'rgan emas edi...

O'ylab yotib pinakka ketib qolgan ekan, Matkarimov uyg'otdi:

– Menga qarang, shu yerda yotaveramizmi?

U vahimada haligacha mijja qoqmagan edi. Bir soatcha o'tdimi, yo'qmi, Ochil akani yana uyg'otdi:

– Eshityapsizmi?

Ochil aka e'tibor qilmadi. Lekin darvozaxonda chindan ham kimningdir sharpasi eshltilar edi. Ko'chadan ot dupuri ham quloqqa chalindi. Matkarimov tikka turib olgan, novcha gavdasi ni qayoqqa yashirishning tashvishida qolgandek alanglar, odati bo'yicha, to'ng'illay boshlagan edi:

– Aytmadimmi, tuzoqdamiz deb! Bu cho'tirning basharasidan ko'rinish turibdi jallodligi! Men ogohlantirdim. Qani endi chorasini topib bering, jo'mard aka! Ko'ra-bila turib kallakesarlarning uyasiga boshlab kelgan – siz edingiz! Uch odamning joni bilan o'ynashyapsiz. Yo ataylab...

Ochil unga shunday qaradiki, qorong‘ida ko‘zining oqi charaqlab ketdi. Hamma oyoqqa turib olgan edi. Ochil aka darvozaxonaga qarab yurdi.

– Qo‘shtig‘ni oling... – dep pichirladi qaltirab qolgan Qurbonali.


Ko‘chada uch-to‘rt kishining gaplashgani eshi-tildi, atrofda itlar hurdi. Birpasdan keyin eshik g‘irchilladi. Ochil qaytib kirdi.

– Otlaninglar! – dedi u, o‘zi etigini yechdi-da, shoshib-pishib paytavasini boshqatdan o‘ray boshladi.

Tumandan chopar kelibdi. Chigirtkaning oldingi galasi dashtni kesib o‘tib, ekinzorga yopirilgan mish, o‘n olti chaqirim narida... Bu mutlaqo kutilmagan hol. Tumanning mo‘jalicha ofatning bu yerlarga yetib kelishiga kamida to‘rt kun bor edi. Agar katta gala bo‘lsa, bu juda xavfli. Kerosin, qoramoy, mum, smola singari yonilg‘ilar yetib kelmagan, aeroplanlar tayyor emas, ximikatlar yo‘q, qishloq aholisiga g‘aflatda...

Chopar Ochilning topshirig‘i bilan tezda tumanga qaytib ketdi. Ochil aka Matkarimovga qishioqdagi kerosin zaxiralarini yig‘ishtirishni buyurdi. Mamajon bilan Qurbonaliga: «Xaloyiqni uyg‘ot, tushuntir, boshlab bor!» deb, o‘zi dalaga ot soldi.

O‘n olti chaqirimni bosib borguncha tong ham oqargan edi. Ochil aka tanish manzarani uzoqdan ko‘rdi. Qizg‘ish chigirtka galalari paxtazorlarga, bog‘larga yetib kelmagan bo‘lsa ham, qir etagidagi bahorikorlikni butun egallagan edi. Ochil aka vaziyatni aniqlash uchun ot choptirib



butun «front liniyasi»ni aylanib chiqmoqchi bo'ldi, lekin oxiriga yetolmay, vahima bilan orqaga qaytdi. Ko'pikka botgan ot ham odatdan tashqari xatarni sezgandek, butun vujudi bilan qaltirar edi.

Ko'p o'tmay Qurbanali bilan Mamajon uyg'otgan qishloq aholisining oldi yetib keldi. Lekin bularning ko'pi ofatga qarshi kurashdan ham ko'ra, «Chigirtka qanaqa bo'lar ekan?» deb qiziqib kelgan tomoshabinlar edi. Mamajon to'dadan to'daga pildirab yurib, ofatning xavfini, chigirtkaning «odatlari»ni, uni qanday qirish mumkinligini tushuntirar edi. Har joy-har joyda xashak, shox-shabba tutay boshladи, bola-chaqa, xotin-xalaj tayoq ko'tarib, tosh, supurgi, kosov - nima duch kelsa qo'lga olib ekinzorga yopirildi. Matkarimovning aravasida kerosin yetib kelganda, erkaklar latta, xashak, loy aralashtirib, qorabuvra yasay boshladilar.

Kechagina shabadada barradek tovlanib yotgan ko'm-ko'k qirlarda qiyomat qoyim bo'lib ketdi, do'zaxdek o't yonar, tutun to'lg'anar edi, qiy-qiriq, taraq-turuq, vahima, yig'i-sig'i... Kampirlar jom qoqib, devonadek baqirishar, erkaklar etigi bilan yer tepib, chigirtkani ezar, bola-chaqa tayoq bilan o'tlarni savalar edi... Lekin mo'r-malaxdek yopishgan milliard-milliard bo'g'oz chigirtka shovqinga, o'tga, suvg'a beparvo, shirali bug'doy maysalarni, yovvoyi gul novdalarni tomirigacha qirtishiab, yo'lida nima duch kelsa quritib, supurib, yaxlit loyqa toshqindek siljib kelar edi. Odamlar uni ezishar, chirsillatib yondirishar, tuproq bilan qorishtirib tashlashar, lekin och ofat o'ligi ustiga yangisi bosib kelaverar edi. Odamlar

alamdan tinmay yer savalar, o'tli qorabuvralarni yumalatishar, otliqlar ekin toptatar, ojizlikdan ko'zlaridan yosh chiqar, xotin-xalaj esa umidsiz, vahimada shovqin solar edi.

Tush payti osmonda tarillab uchta aeroplanchaydi bo'ldi. Tinmay ot choptirib yurgan Ochil-firqanining yangi buyrug'i dalama-dala, qirma-qir tarqalib, butun zararlangan doira aeroplanchaydi bo'shatib berildi, go'ng tutatib, belgilar qo'yildi.

Sillasi qurigan, kir-chir, olaquroq xaloyiq salpal erkin nafas oldi, chet-chetga chiqib qiziqish bilan tomosha qila boshiadi: nima bo'lar ekan? Aeroplanchaydi ham yashil, katta chigirtkalarga o'xshar, odamlar yonidan yer bag'irlab varillab o'tib, ufqlardan yana qaytib kelar edi, ularning uch soat davomida tinmay tarillashi har bir vu-judda takrorlangandek bo'ldi.

Nihoyat aeroplanchaydi qo'ndi. Ertalabdan beri yeb-ichmagan, qulog'i batang bo'lgan odamlar birdan jonlanib, keng dalada quvonchli sadolar ko'tarildi, isqirt bo'lib ketgan odamlar bir-birlarini quchoqlashar, do'ppilarini osmonga irg'itib qichqirishar edi.

Aeroplanchaydi sepilgan zaharli dorilardan to'lqin-to'lqin bo'lib kelgan chigirtka galalari bir-birining ustiga qalashib, yerga qapishib qolaverdi.

Odamlar ham quvonar, ham hayratda yoqalarini ushlar edi: buncha ko'p bo'lmasa! Qavat-qavat, milliard-milliard!

– Xudoyimga hayronman, buncha keraksiz jonni yaratib qo'yib...

- Hoy, xudoga til tekkizma.
 - Endi buni molalab tashlash kerak.
 - Quyosh quritib, tuproqqa qorishtirib yuboradi.
- Dalada hangoma, gurung, quvonch ikki soat-chadavom etdi.

Kechga yaqin... Yaxshi ham ko'pchilik uy-uyiga tarqab ketmagan ekan.

Kechga yaqin o'sha yerga qapishib yotgan yashil ofat asta qalqib, yana g'imir-g'imir siljiy boshiadi. Yo alhazar! O'limgan ekan, gazdan mast bo'lib, dam olib yotgan ekan kasofat! Dimog'iga kirsa, odamni tarashadek qotiradigan zahar bu jirkanch hasharotga kor qilmabdi! Endi nima qilish kerak?

Ojizlikdan alamzada bo'lgan odamlar yoqa ushlab birpas qarab turishdi-yu tomoqlari qirilib ketgan Ochil-firqaning buyrug'i bilan yana eski, ibridoq qurollarga tutinishdi: o'tlar yoqildi, kerosin sepilgan qorabuvralar, latta mash'alalar, tayoqlar ishga tushdi. Keksa dehqonlar xoda, to'ngak, sixmolalarni otga sudratib bug'doyzorga kirib ketishdi.

Kechasi bilan ishiashni uyushtirish zarur edi, Ochil akaga bu qiyin bo'lmasdi, chunki o'chakishgan xalq kunu tunni farq qilmay jon-jahdi bilan kurashar edi. «Agar ertalabgacha tumandan va'da qilingan qoramoy, kerosin kelib qolsa, chigirtkaning tuxum solishiga qo'yaymiz», deb dili ga tugib qo'ydi Ochil aka. Chunki tuxum qo'yib ulgursa, Mamajonning aytishicha, chigirtka yana yuz baravar ko'payadi...

Ochil aka bilan sheriklari tong oldidan jindak nafas rostlash uchun joylariga qaytib kelishdi.

Ularga Toshxo'janing o'zi eshik ochdi. Ochdi-yu, loysuvoq supaga gurs etib o'zini tashlagan Ochilni ko'rib, anqayib qoldi: u go'yo kechagi mehmon emas, birdan qarib, oriqlab qolgan chol edi, yuzlari qurum, soqoliga iflos ter oqib tushgan, qoshiqliari ham kuygan, choponi yirtilib paxtasi osilib yotibdi, qo'llari sidirilib, loy, qorakuya aralash qon qotib qolgan. Darmonsiz, qaltirab etigini tortarkan, Toshxo'ja uning oyoqlari tovonidan etik qo'njlarigacha yashil shilimshlqqqa belanganini ko'rdi. Ochil aka charchaganini endi sezdi shekilli, ariq tomon yurayotib gandiraklab ketdi. Shunda Toshxo'janing o'zi borib, uning boshiga chelakdan suv quya boshladи.

– Qalay, nima bo'ldi? – dedi u sekin, ehtiyyot bilan. Ochil aka sovuq suvni rosa sachratib beli-gacha yuvingach, sal hushyor tortib, uy egasiga qaradi, Toshxo'janing cho'tir yuzida qiziqishmi, achinishmi, xayrixohlikmi, haytovur, qandaydir ifoda paydo bo'lgan edi.

– Ish yomon, hech nima qilib bo'lmayapti... – dedi Ochil.

Ular toshfonar yorug'ida o'tirib choynak-choynak qaynoq choy ichishdi. Non-ponga qarashmadi ham. Toshxo'ja bo'lsa kechagidek chekkaroqda o'tirgancha, hayrat to'la ko'zlarini bulardan uzmas edi.

Tong otganda ularni kuzatib qo'ydi-yu, o'zi ham uyda o'tirolmadi: tavba, bular kim o'zi, nima uchun bunchalik jonlarini berishyapti? Nahotki ish shu qadar jiddiy bo'lsa?

Guzar, ko'chalar huvillab qolgan, biron kim-sa ko'rinas edi. Toshxo'ja o'ylab turdi-da,

og'ilxonadan qari biyasini egarlab chiqib, bahorikor qirlar tomonga yo'rtib ketdi. Qishloqdan chiqishi bilan bog'lar orqasidan barkashdek qu-yosh yuziga urildi. Hali yerning hovuri ko'tarilmagan, yangi tug'ilayotgan kundan bahor hidi kelardi. Toshxo'ja qayoqqa ketayotganini ham unutdi shekilli, sho'xligi tutib, shoxlari devordan oshib yotgan o'rikdan bir hovuch g'o'ra sidirib olib, og'ziga soldi. Cho'tir basharasini burishtirgancha rohat qilib chaynadi...

Biroq u yarim soat yurar-yurmas naq do'zaxning ichidan chiqib qoldi. Qiyg'os nish urgan g'o'zalar, bog'lar ichida qora tutun to'lg'anar, har joy-har joyda chirsillab o't yonar, yosh bargak tutlar kallaklangandek qorayib, uniqib ketgan, osmonni jarang-jurung, qutsiz suron tutgan edi. O'z yerlariga qarab ot solmoqchi bo'ldi-yu, lekin biya alangadan hurkib, qir tomonga olib qochdi. Toshxo'ja tizginni jon-jahdi bilan tortib, g'azabdan jonivorning yuz-ko'zi aralash qamchilab to'xtadi-da, egardan sakradi. U tushgan joy negadir tinchroq, haligi dahshatli suron uzoqlardan elas-elash eshitilardi. Bir payt qarasa, shudgor qilingan qop-qora yer o'rtasida turibdi. Shudgor? Yo'q, bu kechagina to'lqinlanib yotgan yam-yashil lalmikor yerlar edi, hozir poda o'tgandek toptalib, balchig'i chiqib yotibdi, hov tog' etagiga-cha. Biron tup ko'k o't, nihol, barg ko'zga chalin-maydi, qop-qora. Toshxo'ja otni ham unutib telbadek qoqla-surina yurib ketdi, ba'zan poshnasi bilan cho'nqirlarni kovlab ko'radi, qorakuya aralash tuproqni hovuchiga olib tikiladi, qani endi biron ta'zira tizik ildiz uchrasa. Bu qanaqa ofat! Bu

qanday qahri g'azab! Nima gunoh qilgan edi dehqon? Toshxo'janing qisiq ko'zidan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Keyin u bir-biriga qaramay jon-jahd bilan yer savalayotgan, bog' kesib o't yoqayotgan, qoramон, dud hidi anqib turgan to'da-to'da odamlar yonidan o'tdi, hamqishloqlaridan hech kimni tanimadi. Nariroqda yaxlit o't olgan jo'yaklar ichida to'xtab qoldi, kerosin sepilgan jo'yaklarda yer bag'irlab o't o'rmalar edi, chirsillab yonayotgan chigirtkaning qo'lansa hidiga chiday olmay, bochkalar tomon yugurdi. Qoramoy, mum hidi dimog'iga shirin tuyulib, shu yerda to'xtadi. Ustboshi loy, yuz-ko'zi qurum, juldur, shoshqaloq odamlar bir-birini tanimas, gap qotgani vaqtি yo'q edi. Toshxo'ja nima qilishini bilmay, telbadek anqayib turarkan, birov yonidan turtib ketar, birov paqirdagi qoramoyni choponiga surkab o'tar, hech kim indamas, ko'rmayotgandek edi.

Toshxo'ja vahimadan vujudi qaltirab, zo'rg'a uyga yetib keldi. Xalqning bu xilda ofatni yenga olishiga ko'zi yetmasdi. Ochil-firqa qayoqda ekan?.. Toshxo'ja dalada ularning birini ham ko'rmadi. Ular bilan ochiqroq gaplashib ko'rish kerak edi. Nimani? Toshxo'ja ham bilmaydi...

Ochil akalar yana yarim tunda qaytishdi. Toshxo'ja peshvoz chiqib, u-bu gap qotib ko'rdiyu, lekin unga hech kim tuzuk-quruq javob bermadi, hammalari kela solib yutoqib suv ichishi-da, tappa tashiab toshdek qotishdi.

Halgilarning kiyim-boshidan hovlini jizg'anak, kuyundi, dud isi, yana allaqanday sassiq hidlar bosib ketgan edi. Toshxo'ja uxlolmadi. Bitta o'zim

uyg'оqman desa, yo'q, bular ham uxlamagan ekan, azonga borib anov jikkak Mamajonning ovozi eshitildi:

- Ochil tog'a, uxlayotganingiz yo'qmi?
- Gapir, - dedi Ochil uyquli ko'z bilan.

Mamajon birpasdan keyin gapirdi:

- Mening hisobimda chigirtka to'ysi, ertaga tuxum qo'yadi. Bilasizmi, bu nima degan gap? Milliard-milliard chigirtkaning har biri sakkiz-o'ntadan tuxumni yerga ko'madi-da, o'zi jon beradi.

- A? - Ochil-firqa sakrab o'rnidan turdi. - Buni nega endi aytyapsan?

- To'xtang, mening bir rejam bor. Xo'sh... - Mamajon yana anchadan keyingina davom etdi:

- Har tanobda botmon-botmon tuxum. O'n to'rt kun deganda shu tuxumlarning har biridan yangi hasharot bosh ko'tarib chiqadi.

- Menga qara, sen qanaqa mutaxassissan o'zi.

- To'xtang, to'xtang... bu yangi, yana battar och nasl... osmonga ko'tarilmaydi. O'sha kuniyoq yer bag'irlab siljiy boshlaydi. Hozirgidan sakkizo'n marta katta to'dalar... yer yuzidagi yashillikni qiyratib o'rmalaydi. Ularning tabiat shundayki, yo'lida o't uchraydimi, suvmi, jarlikmi, o'z yo'nalishidan na chapga, na o'ngga qittak chetga chiqmasdan, bir to'daning o'ligi ustiga ikkinchi to'dasi o'limiga qarab ham tikka ketaveradi. Xuddi xudosidan buyruq olgandek...

- Sen hasharotning intizomidan zavqlanyapsanmi, nima balo, rejangdan gapir, - dedi narigi supada yotgan Matkarimov.

- Reja shuki, chigirtkaning tabiatidagi mana shu temir qonundan foydalanish kerak. Bizning

ixtiyormizda o'n to'rt kun bor. Shu vaqt ichida butun «front» bo'ylab ariq qazib, keyin bu ariqlarni qoramoy bilan to'lg'azib o't qo'yish kerak. Iloji bo'lsa, ikki qator, uch qator! Aminmanki, ofatning yo'lini to'samiz, o'tga o'zi kelib tushadi.

Hovli jimjit bo'lib qoldi. Atigi o'n chaqirim naraida xunuk fojia yuz bermayotgandek, go'yo qishloqda hamma tinch uxbab yotgandek, bahor shabadasi bog'lar oralab shitirlab yuribdi. Aslida esa bu atrofda kechagi kundan beri na uyqu, na orom bor. Dehqon zoti borki, hozir qon yig'lab yotibdi, dabdala bo'lib, kukuni chiqib yotgan yerlarni ko'rib, hozir odam tugul mol-jonivorlarga ham titroq tushyapti.

Ochil aka apil-tapil etigini kiydi-da, Mamajonning yoniga keldi.

– Tur, uka, tumanga chop! Rejangni ma'qulat. Bu fikring boshqa tumanlarda ham ish berishi mumkin. – U kichkinagina bo'lib ro'parasida turgan ko'ylakchan Mamajonni bag'rige bosdi:
– Barakalla, Idrokli yigit ekansan. Tezda otlan!
Men bu yerda ishni boshlay beraman.

Shundan keyingi yigirma kun xuddi isitma ichida o'tgandek, undan uzuq-yuluq xotiralar qolgan edi, xolos. Avval majlis, majlis, majlis, dam tumanda majlis, dam qishloqda, dam temir yo'l razyezdida, Ochil-firqa yarim kechalari holdan toyib qaytib kelardi. Shu kunlari bildiki, doklad, muzokara, shunchaki gap gapirish ham xuddi ketmon chopishdek charchatar ekan. Mamajonning mashhur bo'lib ketganini ayting. «Mamajonning taklifi», «Mamajonning usuli», «Mamajon ariqlari» deb har majlisda yuz martalab nomi tilga



olinadi. O'zi bo'lsa yo'q, tumanga olib qo'yishdi, hozir u yerda o'nlab qishloqlarga ko'rsatma berib o'tiribdi. Ko'rimsizgina bu yigitcha bosh maslahatchi bo'lib qoldi.

«Eng qiyini, xalqni tashviq qilib, yoppasiga qo'zg'ab chiqish», – deb o'ylardi Ochil-firqa. Chunki xomcho'tlarga ko'ra, faqat shu tumanning o'zida bir qator bo'lsa, ikki yuz sakson chaqirim, ikki qator bo'lsa, besh yuz oltmischaqirim chuqur ariq qazish kerak edi. Ko'p deganda o'n-o'n ikki kun muddat bor.

Lekin oqibatda o'sha eng qiyin degani oson bo'lib chiqdi. Chunki xalq, ayniqsa dehqon ofatning qanday xavfli ekanini ko'rishga ulgurgan edi. Chigirtka bilan bir-ikki kunlik uchrashuv odamlarga shunday ta'sir qilgan ediki, xalq hamma narsani, har qanday fisq-u fasod, bid'at, nizo, adovatni yig'ishtirib qo'yib, dalaga chiqdi. Bekatdan temiryo'lchilar, shaharlardan hasharchilar yetib keldi. To'da-to'da odamlar ketmon, belkurakni yelkaga tashiab, uzoq qishloqlardan piyoda, otda, eshakda, aravada tinmay oqib kelar, aravalarning shotisiga «Hamma ariq qazigani!» «Hamma chigirtkaga qarshi kurashga!» deb yozilgan alvonlar osilgan edi. Ekinni, bog'larni, yashilllkni, bahorni saqlab qolish kerak edi. Rizqi ro'zining, aziz tuprog'ining bulg'anishiga hech kim beparvo qarab turolmadi. Bu dalalar hech qachon bu qadar odamni ko'rgan emasdi. Qumursqa karvonidek uzoq-uzoqlargacha burallib-buralib ketgan odamlar zanjiri tinmay qimirlab turar, minglab ketmonlar ertadan kechgacha dam tushib, dam baland ko'tarilib, oftobda yalt-yalt etar edi.

Keyin... Keyin nuqul o't, alanga. Ikki kecha-yu ikki kunduz ariqlardan yolqin tili chiqib turdi. Bu o't Ochil buvaning xotirasida haligacha yallig'lanib turgandek. Yuzlab chaqirimga cho'zilgan ariqlarda qoramoy bilqillab, chirs-chirs o't yonib, gala-gala yopirilib kelgan chigirtkani yutib ketaverdi. Alangali chiziqning bu tomonida charchab terga botgan xalq tantana qilardi. Necha ming yillardan beri dehqon ahli o'z kuchini bu qadar bevosita his etmagan bo'lsa kerak.


«Chigirtka tamom quritildi» degan kuni kech-qurun tantana qishloqqa, mahallalarga, guzarlaraga ko'chdi, ko'chdi-yu, mana shu yerda shartta qirqildi...

Ochil buvaning xotirasida bu oqshom toshga o'yilgandek o'rnashib qolgan. O'n to'qqiz kunlik zahmat ham bir bo'ldi-yu, shu oqshom ham bir bo'ldi.

Qosh qorayganda qishloq kengashining orqasida cho'loq qorovul Qurbonalining o'ligrini topishdi. Ochil-firqa payqadiki, bu chigirtkaga qarshi kurashtning davomi edi. Ola-g'ovurda esdan chiqib ketgan Sanginboyvachcha lop etib esiga tushdi. Matkarimovga boqdi. Tuman militsiya boshlig'i kechayoq formasini kiyib, to'pponchasini taqib kelgan edi, hozir uning ko'zlari chaqnab ketdi.

Kechasi xalqni zo'rg'a tinchitib, uy-uyiga tarqatib yuborganlaridan keyin, Matkarimov Ochil-firqani chetga chaqirib, maslahat berdi:

- Qishioqda Sanginning kallakesarlaridan albatta kimdir bor. Ikki-uchta jonkuyar kelib, xalqni shunday ishga ruhlantirsa-yu, u tishini tishiga qo'yib jimgina yuribdi deb o'ylaysizmi?

Qishloqqa oyoq qo'ygan qotil qayerda yashirinishi mumkin, fahmlayapsizmi?

Ha, Ochilfirqa fahmlab turibdi, bugun Toshxo'janikiga kirib borish o'taketgan ehtiyotsizlik bo'lardi. Lekin bormasdan ketish ham, bir chekkasi, qochishga o'xshasa, ikkinchi tomonidan, ishni chala tashlab ketish bo'lardi.

Yarim kechada ular Toshxo'ja qo'rasining orqa devoridan aylanib o'tishdi. Og'ilxona tomondan devor pastakkina, butun hovli ko'riniib turibdi, lekin hovuzdagi qurbaqalarning sayrashidan boshqa ovoz eshitilmas edi. Bu xilda o'g'ridek qochib-pusib yurish Ochilga yoqmasdi, lekin Matkarimov qo'ymadni:

– Mehmonxonada chiroq yoniq, ko'ryapsizmi?
Mening orqamdan yuring!

Ular devordan oshib, tanish ariqcha bo'ylab ayvon tomon yurishdi. Ayvonda gilam to'shalgan, oyoq tovushi eshitilmas edi, ichkariga qu-loq solishdi, Matkarimov to'pponchani taqimiga bosib, derazaga qulog'ini qo'ydi. Ichkarida faqat bitta odam, Toshxo'janing o'zi gapirar edi. Oldida necha kishi bor, kim u, nimaga sira indamay quloq solyapti – bilib bo'lmasdi. O'ziga o'zi gapirayotgan bo'lishi mumkin emas, kimdir bor. Lekin xiragina chiroq yonib turgan mehmonxonaning ichini to'la ko'rib bo'lmas edi, derazaga ro'yirost ro'para bo'lish mumkin emas.

Nafaslarini ichlariga yutib quloq solishdi.

– Yo'q, ular menga hech narsa bergani yo'q,
– derdi Toshxo'ja salmoqlab, – menga nima kerak, yerim bo'lsa bor, xudoga shukur. Lekin men ularning yerga bo'lgan mehr-u oqibatini ko'rdim.

Har qarich yerga jon fido qilganlarini ko'rdim. Demak, dehqonning ko'nglidagini bilishadi. Yergaki muhabbatlari bormi, dehqonga do'st...

– Kimga gapiryapti? Nega unga hech kim javob bermaydi?

– Men chigirtkaning nima ekanini ko'rdim. Olamda bu och ofatga quvongan odam, g'o'zada, arpada, bog'da g'imirlagan bu jirkanch hasharotga qo'shilib dehqonning niholini kemirishga tayyor odam bordir deb o'ylamagan edim... Men har qanday musofirga boshpana beraman. Lekin nomardga emas. Odamlar boshiga tushgan kulfatdan foydalanish pastlik emasmi, boyvachcha?

So'nggi so'zni eshitgan Matkarimovning ko'zi chaqnab ketdi. Bir nafasdan keyin ulardan biri eshikni, biri derazani shartta ochib, ichkari-ga sakradilar. Lip etgan chiroqda hamma nar-sa ko'rindi: mehmonxonada dasturxon tuzoqlik edi, poygakroqda o'tirgan uy egasi qimir etmadi. To'rdagi yakandozlarda ikki kishi cho'zilib yotar, qo'l-oyoqlari chirmab bog'langan, og'izlariga sochiq tiqilgan edi.

– Ko'tar qo'lingni, – deb baqirdi Matkarimov to'pponchani o'qtalib. Yotganlar qimirlay ol-madi-yu, Toshxo'ja shoshmasdan turib qo'lini ko'tardi. Ochil unga yaqinroq kelib, «nima gap?» degandek tikildi. Toshxo'ja bog'langanlarni imo bilan ko'rsatib, tushuntira ketdi, bular Sangin-boyvachcha bilan uning yigit ekan, Toshxo'jadan Ochil va uning sheriklarini shu hovlida tutib berishni talab qilishibdi. Toshxo'ja ko'ngan bo'lib, uyquga ketganlarida chirmab tashlabdi.

Toshxo'ja hikoya qilarkan, Ochilning iljaygan yuzini ko'rib, qo'lini tushirdi.

– Ko'tar qo'lingni! – deb baqirdi Matkarimov. Ochil unga olayib qarab, qo'li bilan to'pponchasi-ni chetga surib qo'ydi.

– Bu kishini qo'ying, anovilarga qarang.

Lekin Matkarimov bo'sh kelmay, Toshxo'jani nuqib-turtib, burchakka turg'izdi, qo'lini pastga tushirgani qo'ymadni.

– Nega qo'yar ekanman? Ishi tang kelganda sheriklarini tutib berib qutulmoqchi. Balandroq ko'tar!

Ochil Toshxo'ja oldida juda xijolat bo'lib ketdi. O'zini o'limdan qutqazgan odam bo'lsa...

– Matkarimov, esingizni yebsiz! Qo'ying deyapman! Axir u kishi... Qahramonlik ko'rsatishin-gizning o'rni yo'q.

– Ko'rsatib qo'yaman men unga... qahramonlikni! – U Ochilga shubha bilan tikildi: – Ha, siz nega bularning tarafini olib qoldingiz?

Bu gapga chiday olmay qoni qaynab ketgan Ochil-firqa bir siltab uning qo'lidagi to'pponchasi-ni uchirib yubordi. Matkarimov yerda yotgan to'pponchaga intilgan edi, Ochil aka uni poshna-si bilan bosdi. Keyin o'qlarini chiqarib olib, derazadan uloqtirdi-da, cho'ntagiga soldi.

– Qani o'tiringlar, maslahat qilib olaylik...

Azimjon vagon derazasidan ko'zini ololmasdi. Chigirtkaga qarshi jangni, kinodagi singari, xudi shu derazadan ko'rgandek...

– Keyin mima bo'ldi, buva? – deb so'radi u.

– Nimani aptyapsan, bolam?

– Matkarimov nima bo'ldi?

– Hech nima... Faqat o'ttiz yettinchi yili jindek ovora qildi. Bosmachini yoqlagan deb...

- Toshxo'ja-chi?
- Toshxo'ja uzoq yillar davomida qishloq ken-gashiga raislik qildi. Hozir nafaqada. U ham qarib qoldi boyaqish.

Azimjon bobosining katta umridan yana bir manzara ko'rди.

Bu umrning ich-ichiga kirgan sari o'zini bobosining bir qismidek sezар, uni yana yaqinroq bilgisi kelib, ko'zlariga uzoq tikilar, biron so'zini qulog'idan qochirmaslikka urinar edi.

Sershovqin bir bekatga yetib kelganlarida-gina bobodan xayolini uzib, o'rnidan turdi. Bu Gorchakovo bekti edi.

Farg'onaga ularni bir pakanagina qora yigit o'zining mashinasida olib borib qo'ydi. Ikki tomonda keksa teraklari shovillab turgan katta ko'chada to'xtashdi. Yigit pul olmadi.

- Biz savobtalab yigitlardanmiz, Ochil buva. Siz tanimasangiz ham, biz sizni taniymiz... – deb qo'lini ko'ksiga qo'yib jo'nab qoldi.

Umida bolalarini cho'miltirayotgan ekan. Bolalarning ko'pligidan vannaxona bilan dahliz bir bo'lib, hammayoqqa ko'pik sachrab, suv oqib ketibdi. Voy-bo', bular nechta o'zi... Besh, olti, yetti... Uchtasi yalang'och, ikkitasi ishtonchan, yana bittasi vannada ko'pikka botib yotibdi.. Mehmonlar kirishi bilan hammasi tikka bo'ldi, bir-biridan kichik, xuddi diagrammadek.

- Voy o'lay, dadajonim! – deb Umida Ochil buvaning bo'yniga osildi. Bu, ko'krak burmali keng ko'ylak kiyib, yenglarini shimargan, bilaklariga, bo'yinlarigasovun sachragan, turish-turmushidan xonodon fayzi anqib turgan, bo'yi ko'rim-



sizroq bolsa ham, muloyimgina ko'hlid juvon edi. Hayajondan qoracha yuzlari olovlanib ketdi. Hovliqib qolganidan, lippasini ham tushirmagan ekan, otasidan uyalib qoldi, darrov sochlarini turmaklab durra bog'ladi, qiy-chuv bilan bolalarini joy-joyiga quvdi – biri vannaga, biri u xonaga, biri bu xonaga kirib, shuncha odam hir zumda yo'q bo'ldi-qoldi.

– Bularning men tanimaydiganlari ham bor shekilli? – dedi ota kulib.

– Voy, buvalari, uch-to'rt yilda bir kelasiz-u, bo'lmaydimi? – dedi Umida. U sal uyatchan bolsa ham, juda ochiq edi. Bir zumda u yoq bu yog'ini tuzatib oldi-yu, yana ham ochilib ketdi. Erining xizmat safariga ketganligini aytib, qarindosh-urug'larning hol-ahvolini surishtira ketdi. Ochil buva hozircha voqealarni bat afsil gapirmay, ko'rganlardan duoyi salom topshirdi. Keyin Azimjonne tanishtirdi.

– Voy, o'lmasam!.. Qarang-a, Azimjon deng? O'rgilay dadamdan, siz bo'lmasangiz, biz hali qachon ko'rishar edik! – Umidaning tili chuchukroq edi, quvonganidan burni yonidagi xoilari bo'rtib, juda chiroyli, yosh ko'rinib ketdi Azimjonga.

– Men sizni xola demayman, maylimi? – dedi u.

– Nega, voy? – deb kulib yubordi Umida.

– Umida opa deya qolay?

Umida kulib, rozi bo'ldi. Dasturxon tuzashga unnab ketdi. Uning quvnoq ovozi dam u xonadan, dam bu xonadan eshitillar edi.

– Zap kelibsiz-da, Azimjon. Opam rahmatlikdan bir o'g'il qolgan deb eshitardig-u, ko'rmagan edik. Mana, tanishib oldik. Qarindosh-urug'larni ko'ramiz deb rosa charchagandirsizlar...

Ochil buva yuvinib bo'lib, yengil kiyinib olish uchun xurjunni titayotgan edi, Azimjon unga imo-ishora qilib peshanasiga urdi, buva ham boshini sarak-sarak qilib, yelkasimi qisdi: shuncha bolalik uyga sovg'asiz kelishganiga o'kinishayotgan edi.

Sovg'a-salom yurakka sig'adigan kunlarmidi! Hozir shu uyga kirib kelibgina sal ko'ngillari ili-di. Shu serbola, serxona, serg'avg'o uyning nimasidir ko'ngilga orom berardi. Yechinib yayrab o'tirib, g'am-tashvishni unutib, Umidaning xushchaqchaq hikoyasiga mahliyo bo'lishdi.

Vag'llab turgan samovar kelishi bilan yonboshiab yotgan Ochil buva oyoqlarini buklab chiqib o'tirdi. Birin-sirin kiyinib bolalar ham chiqib kelishdi, bobolarini achom qilishdi. Hammalaridan iroqisovun hidi kelardi. Eng kattasi o'n uchga kirgan, oralari bir yarim-ikki yashar yum-yumaloq sog'lom bolalar edi. Bobo bilan ularning mashmashasi ikki soatlik tomosha bo'ldi. «Qaysi biring o'g'il-u, qaysi biring qizsan, qaysi biring bobongni taniysan-u, qaysi biring tanimaysan?» – deb surishtirdi buva. Keyin nevaralarining otlarini yod olaman deb, ismlarini adashtiraverib, hammasini rosa kuldirdi...

Umida Ochil buvaming eng sevgan qizi, kenjasи edi. Bu uyda hamma vaqt barcha ish joyida, hamma sog'-salomat, hamma narsa mo'l-ko'l, saranjom-sarishta. To'rt-besh xona, derazalari shahar bog'iga qaragan. Ayniqsa, bahor kezлari sahar turib derazani ochsang, sa'valarning sayrashi dilingdagi g'uborni ko'taradi. Balki gap manzara-yu qushlarda emasdir, Umidaning o'zi,

gapi, chehrasi, butun oilasi bilan otaning ko'ngliga orom berardi. Shu yerga kelsa Ochil buva haqiqatan ham yayrab, bir yillik hordig'ini chiqarib ketardi.

Ertalab bolalar biri maktabga, biri bog'cha, biri yasliga tarqab ketgandan keyin, Ochil buva nonushta ustida Umidaga hamma sarguzashtlarni: Orifjon voqeasini ham, Komilaning qissasi, Akbaralining fojiasini ham gapirib berdi. Bir-ikki yil ichida shuncha yangi gap.

– Hammasini eshitib, ko'rib, o'z boshimizdan kechirgandek toliqib ketdik. Faqat mana senikiga kelib andak orom oladigan bo'ldik, qizim, – dedi Ochil buva.

Biroq shu mahal sal chetga qarab turgan Umidaning ko'zlarida bezovtalik, cheksiz bir o'y, bir g'ussa ko'rди. Umida boshini quyi solgan, ko'zini olib qochar edi.

– Uzumdan oling, Azimjon, – dedi diqqatni chalg'itib. Lekin Ochil buva bu yerda ham orom bo'lmasligini darrov payqagan edi.

– Aytaver, Umida, bir gap borligi baribir ko'rinib turibdi. Ering tinch, salomatmi?

– Tinch, tan-joni sog'.

– Nima gap bo'lmasa?

– Hech gapmas... O'tdi-ketdi... – dedi Umida, ma'yus jilmayib.

Aqlli, mehribon, baxmal ko'zli sevimli qizi yana ham yaxshiroq ko'rinishib ketdi otaning ko'ziga. Yo'q, uning turmushida xunuk voqea yuz berishi mumkin emas, u yomonlikni bilmaydi...

– Xayriyat, o'tib ketgan bo'lsa... Nima gap edi? – dedi Ochil buva.

— Men... men bir odamning o'limiga sabab bo'ldim, dada.

Ko'z qarashi osuda, bolajonli hir juvondan bu gapni eshitib, Ochil buva avval qulog'iga ishonmadi. Negadir beparvogina divandan tushdi. Shoshmasdan kavushini kiygachgina:

— Nima? — deb peshanasini tirishtirdi.

Umida unga yalingandek qarab turardi. Ochil buva Azimjon bilan ham ko'z urishtirdi. Keyin qo'lini orqasiga qo'yib xonani bir aylanib chiqdi. Qo'l siltadi:

— Sening ishingda bunday voqeа chor-nochor yuz berib turishi mumkin-ku.

— Yo'q, men doktor sifatida emas, shundoq...

— Shundoq?

Umida gunohkorona bosh silkidi: «Ha».

— Yomon odammidi?

— Qaysi biri?.. — dedi Umida kipriklarini pirpiratib.

Ochil buva bilan Azimjon ikkalalari bir-birlari-
ga qarab, ag'rayib qolishdi.

Ko'rib turibsizki, Umidaning qissasini ham boshdan aytib bermasak bo'lmaydi. Lekin avval, taomilimizga binoan, kichkinagini bir

RIVOYAT

Bu voqeа uzoq Seviliyada bo'lib o'tgan ekan.

...Don Juan qabristonda tosh haykalga tikilib goldi. Bu haykal unga kayf-safo oqshomlaridan birini eslatgan edi. Bir-biriga o'xshash bunday kechalar juda ko'p bo'lgan uning umrida. Lekin bunisi negadir yodida qolgan.

Sokin yotoq derazasidan oshib tushib, go'zal donna Annani quchishga ulgurmagan ham ediki, mana bu kirib kelib...

Ha, bu savlatli odam edi, ko'ksi to'lа nishon, mansabdor, yosh.

Lekin don Juanga baribir emasmi? Katta-kichik, yosh-qari... Uning bir kechalik ishratiga hech kim xalaqit bermasligi kerak...

Bu safar qilichini sug'urib, ridosining etagiga qonini artarkan, go'yo bunday ishni ilk bor qilayotgandek, seskanib ketdi.

...Mana hozir o'shaning haykaliga qarab turib ham negadir eti jimirlashdi.

– Ha, qo'rqib ketdingizmi? – deb so'radi xizmatkori.

– Nega qo'rqarkanman, buni shu oqshom donna Annanikiga mehmonga taklif qilishim mumkin! – deb qah-qah otib kului don Juan.

Darvoqe, buni nega sizlarga hikoya qilyapman? Tosh mehmonning keyin nima qilganini yaxshi bilasizlar-ku? Keling, qissamizga o'ta qolaylik.

QISSA

«Komandorning og'ir qadamlari...»

A. Blok

Umida mehmonxonada eng barvaqt turadiganlardan biri. Bugun ham tong qorong'isida uyg'onib ketdi. Hozir Farg'onada soat o'n ikki, uxbab bo'ladimi!

Kelganidan beri ahvol shu, bu yerning vaqtiga sira ko'nikolmaydi. Yo'lakdagи navbatchi ham - sochlari sap-sariq sepkilli xotin – buni bilib olgan,

eshik tepasida chiroq yonishi bilan kichkinagina qulollikda qahva olib keladi.

- Bitte, frau doctor.
- O, danke scön!

Ikkovlari ham shirin jilmayishadi, bir-birlariga yulduzları to‘g’ri kelib, yoqib qolishgan. Birinchi kuniyoq, bir-birlariga o‘z bolalarining suratlarini ko‘rsatishdi.

– O, ein, zwei, drei... yettita! Bular bilan qanday qilib doktor bo‘ldingiz?! – dedi ko‘zlarini katta ochib navbatchi ayol. Uning oti Berta edi. Frau Berta. Keyin o‘zining ikkita bolasini ko‘rsatdi: – Men ham o‘qimoqchi edim, bular xalaqit berishdi.

Ular bir-birlariga tikilib shirin-shirin kulishdi. Shundan beri o‘rtada muomala shu.

Umida qahvani oyoq ustida ichib, nutqini yana bir ko‘rib chiqdi. Keyin yuvinib-tarandi. Yigirma daqiqali axborot-u, kelganidan beri shu tufayli asabi tarang. Dastur bo‘yicha, xayriyat, bugun unga ham navbat tegadi. «Qutulib olsam, bir to‘yib u xlabel», – deb ahd qilib qo‘ydi Umida.

Yigirma daqiqalik gap-u, lekin yigirma ylllik ish, hayajon, ikkilanish, izlash, alamlar, quvonchlar, zahmatlar natijasi bu. Osonmi! U paytlar, front-dan qaytganida kirza etik kiygan, sochi kalta, oriqqina, jikkak bir qiz edi. Hozir bo‘lsa...

Ko‘zgudan qalin qora sochiarini orqasiga turmaklagan, oq yoqali, to‘ladan kelgan qoracha juvon jiddiy qarab turardi.

- Doktor Qoriyeva!

Umida jilmaydi. Kecha, «xalqaro simpoziumda ishtirok etayotgan eng yosh doktor», deb allaqaysi gazetada suratini ham chiqarishdi. Eng yosh

emish! Sochidagi yiltillab turgan oq tolalarni pay-qashmabdi-da. Har qalay, bugun chiroyliroq bo'lib borishi kerak. Minbarga chiqadi. Kinnochilar, televi-deniye, fotochilar, muxbirlar degandek...

Umida kipriklariga, qo'sh xollga ham sal surma tortdi. Atir kerak emas. Ixcham qora nimcha, ridikyul o'rniga charm jild. Mana, doktor Qoriye-va tayyor!

Lekin hali tong otgani yo'q. Yoki otsa ham chehrasini ocholmay, osmonni yaxlit qora bulut bilan qoplab yotibdi. Bir haftadan beri shunday. Yog'ib yog'maydi, ochilib ochilmaydi. Umida bu yerning vaqtiga yo ob-havosigagina emas, shahriga ham o'rganolmay qiyndi. Ko'kka nayzasimon uchlanib chiqib, cho'qqilari bulutga sanchilgan gotik usuldag'i qizil g'isht imoratlar orasida odam kichkina bo'lib qolgandek, qumursqadek his qila-di o'zini. Umida delegatlar uchun mehmonxona oldiga keladigan mashinalardan foydalanmasdan, bir-ikki marta piyoda qatnab ko'rdi. Jamiyatdan tashqari tasodifiy odamlar, ojizlar orasiga tushib qolgandek bo'lar ekan kishi. Ko'cha o'rta-sida tinimsiz oqib turgan savlatli mashinalarda esa boshqa olam... Umuman, boy shahar, Umida hali uning qadimiy universitetlari, ilmiy laboratoriyalari, klinikalarini borib ko'rmoqchi. Bu re-jalar hammasi bugungi axborotga bog'liq. Muvaf-faqiyatli o'tsa...

Nima gap? Hayajonlanyaptimi? Hozirdan-a? Hazil emas, albatta. Xalqaro simpoziumda o'zbek tibbiyotining bitta-yu bitta vakili! Lekin Umida ma'lum qiladigan kashfiyotning zaminida shogirdlar, ustozlar, butun bir jamoaning o'n-o'n

besh yillik halol mehnati yotibdi. Umida dadil. Dilidagi bu hayajon esa... Lekin shunday bo'lmasligi ham mumkin emas.

...Qora limuzin beton maydonga kelib to'xtashi bilan haydovchi tushib eshlkni ochdi.

– Madam.

Umida, rahmat aytib, ingichka poshnasi bilan taq etib beton plitaga tushdi. Maydon keng edi, uning tuman bosgan narigi chekkasida modern usulida oyna va po'latdan tiklangan tibbiyot akademiyasining binosi oqarib turibdi. O'pka kasalliklari bo'yicha xalqaro simpozium shu binoda davom etmoqda. Maydonga birin-ketin kelib to'xtagan mashinalardan jahondagi turli mamlakatlarning vakillari tusha boshladi. Uzun qora mantiya kiygan, bo'yinlariga faxriy mukofot tasmalari osib, nishonlar taqqan keksa olimlar, smoking kiygan yosh shifokorlar, yaponlar, ing'lizlar, laboratoriyalarda sochlari oqargan qotma xonimlar, o'z milliy kiyimida hindular, afrikaliklar, katak shimli, soqol qo'yan olako'z muxbirilar oyna devorli foyelarning hamma qavatlarini birpasda rang-barang qilib to'ldirishdi. Tashqaridan yuvilib, tuman bilan namlanib turgan bu bino xuddi rangli baliqlar suzayotgan akvariumga o'xshab ketardi.

Umida ham shu oqimga qo'shilib tovushsiz eskalatorda qavatma-qavat chiqa boshladi. Uchinchi qavatning hashamatli keng xollida Gippokrat, Kox, Mechanikov, Gamaleyaning katta portretlari osilgan joyda seylonlik olimlar ko'rishishdi, Umida ular bilan Moskvada tanishgan edi shekilli.

Kuluarda novcha, xushmuomala doktor Berger ko'rindi. U shoshib ketyapti, uning ham bu-

gun nutqi bor, salomlashganlarning ba'zilariga qo'l berib ulgurolmay, jilmayib tez-tez bosh silkib o'tyapti. U oltmishiarga borgan, lekin qomati o'qdek tikka, yuzi qizil, boshi taqir, po'lat rang kostyumi qotma gavdasida shalvirabroq turibdi. Ko'pchilik qatorimi yo tanibmi, Umida bilan ham qo'l olib ko'rishdi. Umida ich-ichidan g'ururlanib ketdi. Doktor Berger! Bu nomni kelganidan beri eshitadi. Uning axborotini hamma hovliqib kutmoqda. Foyeda, minbarda, radioda har kuni shu to'g'rida gap. Doktor Bergerni gazetalar «simpoziumning bosh qahramoni» deb atamoqda.

Umidaning ko'ngli ko'tarilib ketdi. Boshqa sohalarni bilmaydi-yu, lekin ilmda izlaganining ni topasan. Bu esa juda katta baxt. Mana hozir doktor Berger qanday baxtli! O'zagina emas, uni tinglovchilar ham, Umida ham sherik bu baxtga. U yangi bir kashfiyotni birinchilardan bo'lib yaratuvchisining o'z og'zidan eshitadi. Kim bila-di, o'sha kashfiyot bilan birga yangi ufqlar ochilib ketadimi hali! Yangi olamga qadam qo'yish naqadar hayajonli! Umida bunday hayajonni bir-ikki marta boshidan kechirgan. Shundan beri fanda o'zini dadil sezadi. Bugungi axboroti ham, aytarlik katta ixtiro bo'lmasa-da, o'pka xirurgiyasi-da dadil gap. Fanda yaxshi bir turtki bo'lishiga ishonchi komil.

U majlis boshianishidan oldin polshalik ikki dugonasi bilan bufetga o'tib, yengilgina nonush-ta qildi. Keyin gazeta kioskasi oldidan o'tayotib, bir jurnal muqovasida yana Kurt Bergerning su-ratiga ko'zi tushdi. Doktor qo'llarini stolga qo'yib, obyektivga tikilgancha jilmayib tushgan edi. Bi-

lagidagi sariq tuklarigacha bilinib turibdi. Jarroh qo'llari... suyaksizdek, lekin kuchli, barmoqlari pianinochiniki singari uzun.

Majlis zali eshiklarida tablolar yondi. Umida ma'ruzachilardan biri bo'lgani uchun prezidiumda o'tirardi. U yerga to'garak zalni kesib o'tib, zinadan chiqib borish kerak. Baland. Zalning orqa qatorlari ham juda baland. Yarim doira shaklida, zina-zina bo'lib tikkaga chiqib ketgan. Shuning uchun oldida o'tirganlar ham, orqadagilar ham minbarga shundoqqina yaqin bo'lib tuyuladi.

Umida prezidiumning ikkinchi qatoriga, har kungi joyiga borib o'tirdi. Bugungi rais – bukchaygan, to'rva soqol, gollandiyalik olim – eng keyin kirib, prezidiumdagilarning hammasi bilan qo'l berib ko'rishdi. Pensnesini olib, tepadagi matbuot boloxonasiga kinoyали norozilik bilan tikildi: har safar shunday, zal allaqachon tinchisa ham, tepada muxblrlarning g'ala-g'ovuri raislarni anchagacha kuttirib qo'yardi.

Televizion apparatlarning qizil tugmachi-lari yondi. Namoyish ekranlariga yorug' tushdi. Projektorlar charaqlab, kinokameralar chirillay boshladi. Notiqlar birin-ketin minbarga chiqar, ular so'z boshlaganda avval anchagacha tarjima qulochinlarining tilini o'zgartadigan kalitchalari chiqillar edi. Axborotlarning ko'pi odatdagi gaplar, bu yerdagilarning aksariyatiga ma'lum, lekin shunday bolsa ham olam fanida qayd etilishi lozim bo'lgan yangiliklardan iborat. Besh kundan beri bunday gaplar ancha zeriktirdi. Shuning uchun Umidaga o'xshab qulochchin tutmay o'tirganlar ham anchagina. Zal ba'zi-ba'zida-

gina jonlanib, ko'pincha chuqur sukulda, bir momaqaldiroq bo'lishini kutgandek, butun hayrati ni, shavq-u zavqini kimgadir saqlamoqda edi. Bu «kimdir» bugun albatta Kurt Berger bo'lishi kerak, buni hamma biladi. Buni doktor Bergerning o'zi ham sezib, yupqa labiarini qimtigancha, bu shon-sharafdan o'ng'aysizlangandek, kamtarona mung'ayib o'tiribdi.

Unga tushki tanaffusga yaqin so'z berildi. Novcha, sportchilarga xos ko'rkar gavdasi minbar da paydo bo'lganda pastda ham, yuqorida ham hamma projektorlar birdan charaqlab ketdi. Zal oyoqqa turib ketishiga sal qoldi, turmadi-yu, lekin bir guvillab oldi. Keyin birdan chuqur jumlik cho'kdi, faqat fotoapparatlarning chiqillashi, kinokameralarning chirillashigina eshitilar edi. Tipirchilab qolgan muxbirlardan bir nechasi uzun dastali mikrofonlarni minbarga cho'zdi, bir nechasi shoshib yondaftarini ochdi, esnab o'tir ganlarning uyqusi qochdi. Orqada o'tirgan xotin lar, tibbiyot «yukduzlar»ni ko'rgani kelgan oddiy shifokorlar ko'zlariga durbin tutishdi.

Doktor Berger bu hayratomuz taraddudlarga mumkin qadar beparvo bo'lishga, yengil kinoya bilan qarashga urinib, bir zum turdi-da, astoydil sukulga cho'mgandan keyingina yo'g'on, vazmin tovush bilan asta boshladи: bu yuksak minbar ga chiqish naqadar sharafli va ma'sullyatli, ko'p mamlakatlardan kelgan hamkasbiarining qimmatli fikrlarini eshitish, yangi kashfiyotlardan voqif bo'lishdan doktor Berger g'oyat baxtiyor. Fanda har bir kashfiyot fidokorlikni, butun bir umrni talab qiladi va u shunga arziydi. Chunki insoniyatning...

Umida juda qulay joyda o'tirgan edi. Projektorlar notiqni yon tomondan shunday yoritardi-ki, Umida doktorning qiyofasiga mahliyo bo'lib qoldi. Yuz chiziqlari, yonoq suyaklari erkaklarga xos dag'al, yirik, og'zi katta, burun kataklari ham lablari yupqa, boshi tap-taqir. Kipriklari ham sariq shekilli, hatto sariq ham emas, oqishroq. Umida hozir bu kipriklarni ko'rmayotgan bo'lsa ham, unga shunday tuyulyapti... Tuyulyapti? Nega tuyuladi?..

Doktor zavq-shavq bilan gapirmoqda. Uning fan ahliga bayon etmoqchi bo'lgan kamtarona fikrlari bu yerda o'tirgan azizlarning e'tiboriga sazovor bo'lsa, u o'zining o'n yillar davomida katta umid va mushkulliklar bilan o'tkazgan tunlaridan, o'zining qaltis tavakkal bilan qo'l urgan xatarli ilmiy tajribalaridan mamnun bo'lur edi...

Umida qulog'iga qulochchin tutmadı. U nemischanı hali ham tuzukkina tushunadi. Kelganidan beri bu yangroq tilni yana eslab, ancha yangilab oldi. Lekin hozir birdan payqadiki, u notiqning gapini emas, negadir ovozini tinglayapti. Bu yo'g'on, blr qarashda juda vazmin tovush goho bexosdan shafqatsiz yangrab ketishga qodirdek. Yupqa lablari esa qonsiz...

Umidaning kursisi g'irchillab ketdi. Jon qulog'ini notiqqa berib jim o'tirgan zal bunga darrov e'tibor qildi. Umida o'ng'aysizlandi. Lekin zal uni tezda unutgan edi: notiq olamshumul kashfiyotini hali bayon qilgani yo'q, bunday betoqat lahza-da har narsa bo'lishi mumkin.

Biroq Umida hamon gapni eshitayotgani yo'q. U notiqqa tikilib qolgan edi. Berger minbarda

operatsiya stoli ustiga engashgandek jiddiy, Umida uning manglayidagi ter tomchisini artib olgisi kelib ketdi. Kursisi yana g'irchilladi, beixtiyor o'rnidan qo'zg'alib qo'yganini payqadi. Zal bunga qanday qaradi – Umida endi buni o'ylamas edi, negadir badani qizib ketyapti. Dimog'iga operatsiya vaqtida anqiydigan dori aralash g'alati hid kelib urildi. Nazarida, Berger uning o'ziga tikilib o'tirganini sezyapti. Umida esa o'chakishgandek yana tikildi, agar hozir gapini to'xtatib, qayrilib qarasa... Qayrilib qarasa...

Qarasa nima bo'ladi? Bu nimaga kerak? Umida buni bilmaydi. Badani o't olib ketyapti. U ko'z oldida doktor Bergerdan boshqa hech narsani ko'rmagan holda qog'ozlarini yig'ishtirib o'rnidan turib ketdi. Kursining tag taxtasi taraq etib ag'darildi, butun zal notiqdan ko'z uzib, norozilik bilan shu tomonga qaradi. Umida gangib turganida zalda «guv» etib qarsak chalindi. Notiq nima dedi, kashfiyotimi bayon eta boshladimi, qarsak nega chalindi – Umida anglayolmadi. U boshqalarga qo'shilib chapak ham chalmadi. Birdan bigiz poshnasi bilan to'q-to'q yurib, sahnadan pastga tushdi-da, birinchi qatorga, Bergerning shundoq ro'parasiga kelib kursini namoyishkorona taraqlatib o'tirdi. Zal bezovta bo'lib bir to'lg'andiyu notiq gapidan to'xtamadi.

– Yashash uchun insonga o'pkaning qancha qismi zarur? Uchdan ikki qismimi? Balki yarmi yetar? Choragi-chi? O'pka operatsiyasi, uning zararlangan qismini olib tashlash fanda oddiy narsa bo'lib qoldi. Biroq biz uning maksimal chegaralarini bilamizmi? Mening quyidagi barhayot

va hozirda sog‘-salomat bemorlarim o‘pka faoliyatining eng so‘nggi imkoniyatlari, ilmiy tajribalardan o‘tgan aniq va minimal chegaralari bilan qanoatlanib yashamoqdalar: Gans Kafeld – 1937-yilda tug‘ilgan, gamburglik, operatsiya 1954-yil 13-sentyabrdan o‘tkazilgan; David Gyunter – 1928-yilda tug‘ilgan... Goyzer qishlog‘idan...

Doktor Berger nomlarni uzoq sanadi...

Umida endi unga ro‘paradan tikilar, o‘zining qayerdaligini unutib ko‘zini izlar, notiq esa boshini ko‘tarmas, pinak buzmay axborotini o‘qir edi. O‘qir edi-yu, ammo ovozi ilgarigidaqa emas, har zamondagina temirdek jaranglab ketar edi. Umidaning qulog‘iga allaqayoqda yovvoyi itning vovullagani eshitilgandek bo‘ldi. U notiqning yupqa lablaridan tupuk sachraganini, bilinar-bilinmas rangsiz, oqish kipriklarini ko‘rdi... Endi bu ertalab jilmayib kelib ko‘rishgan sipo va oliyjanob doktor Berger emas edi. Bu aniq! Bu aniqlik Umidaning xotirasinigina emas, butun vujudini yolqindek yamlab oldi.

U yana o‘rnidan turdi. Nazarida zalda hech kim yo‘q edi. Tikka turgancha asabiy holatda bir parcha qog‘ozga bu minbarda turib ilmiy axborot berishdan voz kechganligini yozib, prezidiumga uzatdi-da, jildini qo‘ltiqlab zalning qoq o‘rtasidan taq-tuq yurib chiqib ketdi. Zalning yarmi hayratda oyoqqa turib, guvillagancha uni kuzatib qoldi. Allaqayerda kinokameralar chirilladi. Notiqning tovushi g‘ovur ichida ko‘milib ketgan edi. Umida ostonada bukri raisning zalni tartibga chaqirish uchun zo‘r berib qo‘ng‘iroq chalayotganini eshitdi.

Mehmonxonaga mashinada kelganini ham, piyoda kelganini ham bilmaydi. O‘zini yumshoq

kursiga tashlab, ancha o'tirgandan keyingina yoni-beriga qarab, yolg'iz qolganidan yengil tortdi. Ostonada aftini zang bosgandek, sepkil yuzli Berta ko'rindi:

– Doktor! Sizga nima bo'ldi? Oynaga qarang...

– Yo'q, yo'q, – dedi Umida, birov hozir oynaga qarashga majbur qiladigandek, tez-tez bosh silkidi. O'z ahvolini bilardi. Navbatchi xotin keltirgan qahvani ichgandan keyin, o'ylanib qoldi: «Nima qilib qo'ydim? To'g'ri qildimmi? Hovliqib qoldim, boshqa bir yo'l topishim kerak edi. Zal nima deb o'yladi ekan? Rais xatimni o'qib berdimi yoki... kasal bo'lib qolibdi deb xas-po'shlashdimi? Endi nima bo'ladi? Shov-shuv gap bo'lib ketsa-ya? Bu muxbirlar galasi qo'yarmidi... Nima qilishim kerak edi? O'zimni tutolmadim, o'tirolmadim, yonib ketayotganday... Hali ham, shukur, o'zimni tutib qoldim, o'rnimdan vazminlik bilan turib chiqib ketdim. Minbarga yugurib chiqib, basharasiga chang solsam nima bo'lardi...»

Eshik taqilladi. Frau Berta sariq boshini suqib:

– Matbuotdan kelishdi, doktor! – dedi.

– Yo'q, kiritmang.

Tashqarida bir nafas olag'ovur bo'ldi-yu, tindi. Lekin ko'p o'tmay, yana Bertaning ovozi eshitildi.

– Muxbirlar, frau doktor! Qo'yishmayapti.

– Qabul qilmas ekan deng.

– «Frankfurter Algemayne», madam, bittagina savol! – dedi katta ko'zoynakli pakana odam kimningdir qo'ltig'i ostidan bosh suqib.

– Yo'q! – dedi Umida, bir to'da muxbirlarning ko'z oldida eshikni shartta yopib qo'ydi. Lekin eshik yopilishidan avval to'da orqasidan kimdir

«chiq» etib uning suratini olib qo'ydi. Umida foto chirog'idan qamashgan ko'zlarini uqalagancha o'rniغا borib o'tirdi.

«Boshlandi!» – dedi uh tortib.

Yuragi siqilib ketib, yana o'rnidan turdi. Xona qorong'i, darpardalarni surib qo'ydi hamki, bari-bir qorong'i, o'sha-o'sha la'nati yaxlit bulut shahar osmonini chulg'ab turar edi. Umida nim-chasini ham, tuflilarini ham yechib tashladi. Gilamni paypooqchan bosib, yorug'lik izlagandek u derazadan bu derazaga asabiy yurardi. Nihoyat darpardani changallab devorga suyandi, qandaydir tovush uni to'xtatdi. Doktor Berger... Kurt Bergerning tovushi.

Hozir qorong'i xonada yolg'izlik yuragiga allaqanday vahima soldi. Lekin unga shu vahima kerak edi, uning allaqachon yerga ko'mgan xunuk xotiralarini shunday vahimagina uyg'ota oladi.

Kun og'di deguncha ko'chada tuman, mashinalar chiroqlarini yoqdi. Bir-birini kesib-sanchib derazada aks etgan faralardan, devorda g'alati soyalar sapchib o'ynaydi.

...Folksvagen shaloq motori bilan guvillab kelib, eshik oldida g'ippa bo'g'ilgandek to'xtadi. Yana kasallar keldi shekilli. Ularni yuk mashinasida soqchilar kuzatuvida olib kelishar edi. Kondan. Konning o'zi uzoqda. Kasalxonasi bo'lsa bu yerda, jimpit o'rmon etagida. Shunday bo'lishi ham kerakdir-da, chunki bemorlarning hammasi o'pka kasallari, sillar. Konning o'zi shunaqangi shekilli, qo'rg'oshinmi, ruxmi chiqadi. Gardi to'g'ri o'pkaga urarkan. U yerda ishiaydigan asirlar tutday to'kilarmish.

Umida bu konning dahshatini konslagerdayoq eshitgan edi. Xayriyatki, konga emas, «Revier»ga – kasalxonasiga tushib qoldi. Uning hamshiraliqi-yu, uncha-muncha nemischa bilishi ish berdi. Toleyidan rozi bo'lsa bo'ladi, har holda odam bolasini parvarish qiladi, dori-darmon beradi... Kondan kelgan o'sha sho'rliklarning ko'zidagi tuganmas hasratiga sherik bo'ladi. Bu yerga kelganlarning tuzalib chiqqanlari yo'q hisob, lekin har holda ular o'lim oldidan toza to'shak, issiq suv, Umidaning baxmalday mayin, dardkash ko'zlarini ko'radilar. Bu ko'zlardan, dori hidlari dan yilt etgan umid uchqunlarini topadilar... Kondagllarga bu ham yo'q, ular inson ekanliklarini unutib, tubanllkda, bir maxluqdek o'lib ketishadi.

Lekin konda ahvol og'ir bo'lishiga qaramay, negadir, kasalxonada odam ko'p emas. Bu yerga tuzalishiga umid qilish mumkin bo'lganlarini, yana kasbi, boshqa biron jihat bilan kerak bo'ladiganlarini olib kelishsa kerak. Jismoniy baquvvat, hali ish berishi mumkin bo'lgan odamlar bo'la di ko'pincha. Mana bugun ham Umida anchagini tetik odamlarni kutib oldi. Ular mashinadan gurs-gurs sakrab tushishdi, yoshgina hamshira qizga avval hadiksirab, ozodaligiga ijirg'anib qarashdi, keyinroq esa osuda ko'zlarida nimanidir sezib, ko'pdan beri ilk marta bo'lsa kerak, cho'chi broqqina jilmayishdi. Bular turli millat odamlari, ko'pi yoshlar edi. Kasalxonaga kelib qolganliklarni endi payqashdi shekilli, qo'lansa juldur kiyimlarini tashlab, ola xalat kiyar ekanlar, bir xillari xursand bo'lib: «Davolar ekansiz-da, froyleyn!»

deb hazillashgan bo'lishdi, bir xillari esa xavotir-da ko'z urishtirishlb, o'yga tolishdi.

Yaxshi odamlar. Ayniqsa mana bu xushchaq-chaq yoshiar bilan chiqishsa bo'ladi, ular baquvvat, dardni ham tez yengib ketishlari mumkin, Umidaga esa shu kerak. Chunki bu yerdan biron kimsa tuzalib chiqib ketsa, hamshira o'zi-da qandaydir kuch sezadi. Kuch esa unga hozir kerak, juda ham kerak. Tikanli simlar bilan o'ralgan bu yam-yashil o'rmon etagi, bu oppoq palatalarda kecha-yu kunduz azob, o'lim. O'lim, azob, o'lim... Ozoda o'lim, kasalxona sharoitida, qonuniy o'lim. Shuning uchun, bir chekkasi, bu yerda odam kamroq bo'lgani ham ma'qul. Uning nazarida kon qoshidagi bu kasalxona qandaydir xalqaro komissiya uchun «xo'ja ko'rsin»ga tashkil etilgan. Ixcham, qulay, ozoda, bahavo joyda, hozirgi zamon tibbiyat asboblari va dori-darmon bilan ta'minlangan, mukammal jihozzangan. Hatto og'ir, murakkab operatsiyalar ham bo'lib turadi. Yirik mutaxassislar bor. Masalan, bosh xirurg doktor Berger...

Lekin yangi kelgan bemorlarni Umidaga berishmadni. Uning o'z kasallari bor. Palatasidagi ol-tita joyning hammasi hozircha band. Umida ular bilan yaxshi tanishib, do'stlashib ketgan. Biri bilan ruscha, biri bilan nemischa gaplashib, yarim kechagacha yonlarida o'tiradi. Dori beradi, joylarini tuzatadi, haroratini o'lchaydi, kecha-yu kunduz hamma ma'lumotlarni yozib borib, shifokor ko'rayotganida unga topshiradi.

Vatslav – polyak. Juda hazilkash, xushchaq-chaq yigit. Ziyrak, yer tagida ilon qimirlasa biladi.

Umidaning yuz ifodasiga qarab, o'ylayotgan o'yini topa oladi. Kechasi Umida mudrab qolib, polga biron narsa taq etib tushsa, qaramasdan aytadi:

– Hamshira, tarog'ingiz tushdi.

Umidaning undan ko'ngli to'q. U tuzalib ketadi. O'tgan kunigina og'ir operatsiyadan chiqdi, bugun bo'lsa tegajaklik qilib yotibdi. Operatsiyasi juda muvaffaqiyatli o'tganga o'xshaydi. Yaqinda oyoqqa turib ketadi.

Deraza oldida yotgan kasal – nemis. Umida undan avvallari qo'rqib yurdi. Juda beso'naqay, baquvvat, o'mrovli, oyoqlari uzun, sira kasalga o'xshamaydi. Umidaga olayib, yovvoyi qarash qiladi-da, teskari o'girilib oladi, termometrni barmoq orasida sindirib qo'liga beradi. Umida unga yolvorgandek ojizgina qarab qoladi.

– Men kasal emasman! – deydi nemis.

– Bekorchi gapni qo'ying, kasal bo'lmasangiz, nega keldingiz? Sizga gapiryapman, adash...

Nemisning oti Umayder edi. Umida «adash» deb haziliashgandan keyin, badjahl, sovuq basharasi sal yumshab, yangi termometrni oladi.

Bu bilan gaplashish qiyin bo'lsa ham, hechqisi yo'q, bir gap bo'lar, lekin anavi eshik tagidagi fransuzning ahvoli chatoq. U kichkinagini. Asli shunaqami ekan, og'ir kasallik shunaqa bir burda qilib qo'yanmi – Umida bilmaydi. Uch-to'rt marta operatsiya bo'lgan. Lekin o'pkasida hamon asorati qoladi shekilli, borgan sari qovjirab ketyapti. Kechalari tizzalarini quchoqlab, ichak-chavog'i ag'darilib chiqqudek yo'tala boshlaganida, Umida chidolmaganidan orqasini o'girib, peshanasini sovuq devorga tirab qoladi. Qaramasa

ham, bo'yin tomirlarining o'ynoqilab ketganini, kaftiga qonli tupuk zarralari sachraganini ko'rib turgandek bo'ladi. Chiqib ketolmaydi, bu kasalga yomon ta'sir qilishi mumkin. Uzun tunlar bo'yи bunday azob tortgandan ko'ra, o'lib tinchigani ham tuzuk edi.

Biroq bu bechora hamon o'lmaydi, yo'tali bir zumgina tinsa, havoga to'ymayotgandek tez-tez nafas oladi, zaif tani osoyish topadi. Umidaning nazarida, u har zamonda bo'ladigan shu bir zumlik orom uchungina yashayotgandek tuyuladi. Shunday paytlarda bir og'iz gap aytib ko'nglini ko'tarish kerak edi-yu, ammo Umida tilini bilmaydi. Fransuz ham na ruschani, na nemischani tushunadi. Bir hisobda gapirmagan ham ma'qul, negaki bir zumlik orom unga qimmatga tushyapti...

Orom. Umidaning o'ziga orom olish qachon nasib bo'lar ekan? U ba'zan o'sha fransuzdan ham ayanchroq his qiladi o'zini. Nainki vujudi, butun hayoti, ruhl qiyonoqda. Dunyoda nima gap? Sa-riq darpardali bu «oltin qafas» olamdan batamom uzilgan, bu o'rmonga hech qanday xabar yetib kelmaydi, bu umidsiz, jon qayg'usida yotgan sho'rliklarga ko'ngil yorishdan esa foyda yo'q. Eng tetigi mana bu Umayder bo'lsa, o'lardek yovvoyi, johil odam, gap uqtirish qiyin. Vatslav ham ko'rinishdan tetig-u, lekin o'pkasining yarmi kesib tashlangan, o'zini xushchaqchaq ko'rsatishga uringani bilan, baribir, yarim jon...

Umida o'rmonda oqarib tong otishiga tikilib o'tirib, deraza rafiga bosh qo'ygancha mudrab ketgan ekan, fransuzning tovushidan yalt etib ko'zini ochdi. Kasal uni chaqirayotgan edi. Umida

bordi. Fransuz imlab, karavotiga o'tirishga taklif qildi. U nimadandir xursand, hamshiraga bir yaxshi gap aytmoqchidek zo'r berib iljayishga urinar, bir parchagina ozg'in yuzi bujmaygan, iltijoli ko'zlari nam kul bosayotgan cho'g'dek yillilar edi. Umida uning ayanchli yuziga qaramaslikka harakat qildi. Fransuz o'z tilida allanimalarni so'radi, qo'l harakatlari bilan tushuntirdi, bolang bormi dedi shekilli. Umida kulib bosh silki-di. Fransuz o'zining uch bolasi borligini anglatdi, har birini ta'rifladi chog'i, uzoq gapirdi, bo'yalarini ko'rsatdi.

– Jak, Demi, Lyulyu...

– Lyulyu, – deb takrorladi Umida, nom unga yoqqan edi, chiroyli ism, qiz bola bo'lsa kerak...

– Jak... Deni... Lyulyu... – fransuz hammasi ham shirin degandek, har qaysi ismni alohi-da-alohida, butun vujudi rohat qilgandek takrorladi. Gapirib darmoni qurigan edi. Lekin Umida u bilan gaplashib olgamiga xursand bo'ldi. Bu oddiygina gap fransuz uchun juda zarur edi shekilli. Balki dillagi yagona, eng ezgu gapidir. Umida bir savob ish qilgandek, ancha yengil tortdi. Buning ustiga, uni nemis ham chaqirib qoldi:

– Adash, adash...

Umida kului. Kasalning oldiga bordi.

– Siz fransuzga quloq solasiz, menga quloq solmaysiz, – dedi nemis.

– Qulog'im sizda.

– Bu yer juda yaxshi. Ozoda, tinch. Men kons-lagerdanman. Men kasal emasman. Nega bunday? Nega bunday?

– Konda ishladingizmi?

- Ha.
- Demak, o'pkangiz kasal. Bu yer yaxshi dedingiz. Bu yer yaxshi emas. Bu yer kasalxona, tushundingizmi? Odamlar o'llishi mumkin.
- Men kasal emasman.
- Jim yoting! Shifokorning ko'rigiga tayyorlanishimiz kerak.
- Ana, tag'in qulq solmadingiz... – dedi nemis beso'naqay gavdasi bilan devor tomonga o'girilib.

«Qulq solmadingiz...» Nimasiga qulq soladi? Bu odam Umidaga nimanidir da'vo qilayotgandek. Umida nima deyishi mumkin bu gapga? Shifokor bo'lmasa. Hamshira shifokorlarning aytganini qiladi, xolos. Kasal emasmish. O'pka kasali shunday makkorki, odam qip-qizil bo'lib yuraveradi... Bu yerga shunday bemorlar kelib, dardni yengolmay o'tib ketyaptiki, kelgan paytlari Umayderdan ham baquvvat edi ular.

Umida kundalik ertalabki taomilga ko'ra palatani shifokor ko'rigiga tayyorlay boshiasi. Tupdonlarni chaydi, kasallarga yuz yuvGANI ho'l sochiq berdi, joylarini tuzatdi, javonlarning changini artib, ortiqcha idishlar, dori shishalrimi olib chiqib tashladi. Keyinsovunlab qo'l yuvgach, derazalarni ochdi-da, o'z stoli oldida yangi yuvilgan xalatimi kiyib olib, kasallarning varaqalarini tartibga keltirdi.

Ko'p o'tmay, yo'lakda oyoq tovushlari eshitildi. Hali ko'rikka vaqt bor edi, Umida xalat bog'ichini yo'l-yo'lakay bog'lab yugurgancha peshvoz chiqdi. Qarasa, shifokorlar to'p bo'lib kelishyapti, oldinda doktor Bergerning o'zi.

Berger ko'rikka ko'pda qatnashmas edi. Uning palatalarga kirishi katta voqea. Kasalxona uchun

qonun bo'lib qolgan odatlar bor: kasallarning gapirishini yoqtirmaydi, bu, qariyb, taqiq degan so'z. U kasalni o'zi ko'rib, o'zi qaror qabul qllishi kerak. Hamshiralar ham gapirmasliklari shart. Har kimning kasallik tarixini, kechagi ahvolini o'zi yod biladi.

Bergerning kelayotganini ko'rib, Umida o'zini yo'qotib qo'ydi. Shifokorlarga shoshib eshik ochdi. Fransuzning ahvolini doktorga gapirishni o'ylab qo'yan edi, gapi og'zida qoldi. Berger fransuzning oldida to'xtamadi ham, yo'l-yo'lakay ko'z qirini tashladi-yu, o'tib ketdi. Sho'rlikning salqigan zahil yuzi yostiqda dog'day, qimir etmay qolaverdi.

Shifokorlar Vatslavni qurshashgan edi. Polyak o'zini tetik ko'rsatishga urinib iljayar, Bergerga chaqqon-chaqqon ko'ksini ochar, orqasini tutar, tomir urishiga qo'lini tutar edi. Doktor uning nafasini uzoq tinglagach, yuziga kulib qaradi. Vatslav shodligidan sakrab turib ketishiga sal qoldi. U haqiqatan ham tamom sog'aygandek, o'ng qo'ltig'ida yarasi bitib, ishtahasi ham ochilib, sof havoga talpinmoqda edi. Biroq yana bir nimasi bor ekan shekilli, doktor Berger to'xtab qoldi, kasalning varaqasi bilan qalam ushlab turgan Umida tomonga uzun barmog'ini turtdi. Shu holda tucksiz qoshini chimirib ancha turdi, shifokorlarning ko'zi uning og'zida edi.

Kurt Berger u paytlar sochi sal siyraklashgan bo'lsa ham, hali yosh, oltin gardishli ko'zoynak taqar edi. Boshidagi oq qalpoq, buning usti-ga chayir, oriqligi bo'yini yana ham novcharoq qilib ko'rsatar, xalat etagi ostida yaraqlagan har-

biy etik, sariq jun bosgan paydor bilaklari, qotib qolgandek qilt etmaydigan yuz chiziqlari uni shafqatsiz, irodali qilib ko'rsatar edi. Umida bunday klinikada, bunday sharoitda bosh xirurg bo'lib ishlash haqiqatan ham xuddi shunday xususiyatlarni talab qilishini o'ylab qo'ydi. Xudonning bergen kuni og'ir operatsiya bo'lsa, osonmi!

Umida uning buyrug'ini kutib turibdi.

– Operatsiyaga tayyorlang! – dedi doktor, beso'naqay burnining kataklari kengayib. Ovozi temirdek jarangladi. Umida avval anglamagandek bir nafas angrayib turdi, lekin Bergerning uzun barmogi hamon u tomonga sanchilib turardi. Hamshira buyruqni yozib bo'lganidagina tushdi bu barmoq. Shifokorlar ketidan ergashishdi.

Umida orqada qolib, yuragi betlamayroq polyak tomonga ko'z tashiadi. Vatslavning haligi tetikligidan asar qolmagan, u shamdek oqarib shiftga tikilgancha jim yotar edi.

Navbat Umayderga yetdi. Berger odatiga xilof ravishda hammillatiga qandaydir xushchaqchaq bir savol berdi. Lekin beso'naqay nemis indamay, teskari qaradi. Hozirgina polyak qo'shnisining ustida bo'lgan voqeani ko'rgan edi, endi o'zining qismatidan tahlikada. Lekin doktor uning tomir urishini ko'rdi, xolos.

– Sariyog! Sariyog'ni ko'paytiring, – dedi Umidaga qarab. Keyin harbiycha shaxdam yurib chiqib ketdi. Shifokorlar, ordinotorlar to'dalashib ergashdilar. Yo'lakda anchagacha dupur-dupur oyoq tovushlari eshitilib turdi. Keyin palatada jilik cho'kdi. Umida bu jimllkdan qo'rqiб, o'z stoli oldida, burchakda pusib turar, titroq barmoqlari

bilan xalat bog'ichlarining tugunini yechishga urinar, yer ostidan kasallariga qarab qo'yari edi. U Vatslavdan xavotir olmoqda edi. Shovqin solib, to'polon qo'zg'amasa bas. Tuzalib qolgandek edi boyaqish. Unga yana bir operatsiya buyurilishi hammaga ham alam qildi, o'zi bo'lsa zo'rg'a yotibdi, g'azabi oshib ketsa, yomon bo'ladi.

Ammo undan sado chiqmasdi. Aksiga, kutilmaganda jimlikni Umayder buzdi. U devor to-monga shunday ag'darildiki, go'yo o'zini ko'tarib urgandek bo'ldi, karavot majaqlanib ketgudek g'irchilladi. Bu nimadandir qattiq norozilik aлатмати edi. Umida uning oldiga yugurib bordi:

- Adash... Nima bo'ldi?
- Adash emish! Bu bachkanalik bilan nimani yashirmoqchisiz?
- Menga qarang, bemor!
- Ana, sizning ham yirtqich tishingiz irjayib turibdi. Yaxshisi muloyimlik niqobini olib tashlang, nima qilasiz yashirib?!

Umida nima qilishini bilmay qoldi. Tomog'iga tiqilib kelgan yig'isini bazo'r bosib, o'zini tutdi.

- Shovqinlamang, Umayder, xudo haqqi! - yalindi u eshikka xavotir bilan qarab. - Nahotki menga yomonlik tilasangiz. Axir siz... shukur qilsangiz bo'ladi. Sizga baquvvat ovqat tayinladi doktor... Demak, kasalingiz yengil. Operatsiyasiz yengib ketasiz...

- Men o'zimni o'ylayotganim yo'q... Men sizni o'ylayapman, hamshira!

Umida unga tikilgancha hayron bo'lib qoldi. Bu beso'naqay, qo'pol odamning ko'zlarida birinchchi marta allaqanday sirli bir shiddat ko'rdi.

- Sariyog'ingizni olib keling. Bo'ldi, shovqin solmayman. Og'zimni moylang.

Umida ranjib nari ketdi. U negadir birdan buk-chayib qolgan edi. Vatslavning rahmi keldi shekilli, ko'zi bilan imlab chaqirdi. Qo'lini ushladi.

- Xafa bo'l mang... – qo'pol qo'shnisi uchun uzr so'radi u. – Biz nimanidir tushunolmayapmiz. Biz ham, siz ham. Shuning uchun shunaqa.

- Qayerda?

- Bu yerda ham, butun olamda ham...

- Niman axir?

- Bilmayman.

Aftidan, bular undan nimanidir umid qilishganga o'xshaydi. Lekin niman? Umida nima qilishi mumkin? Umida hamisha bu yerda gilarning ahvoli kondagilarnikidan yaxshiroq deb o'ylardi. Hammalariga doim yaxshi qaradi, gurunglashdi, sog'ayishiarini istadi. Yana nima kutishadi undan?

Bu fikr Umidaning xayolidan nari ketmay qoldi. O'zining ichki azoblari yetmagandek, ba'zan bemorlar ham har zamonda dilini behuda og'ritib, haqorat qilishgani ortiqcha. To'g'ri, bemor odam injiq bo'ladi, buning ustiga yotaverib birovning kayfiyati bilan hisoblashmaydigan xudbln ham bo'lib qoladi. Lekin bular allaqanday, alamzada, kekli, doim talvasada... Bir chekkasi, tushunarli ham. Bular tuzalishsa ham yana konga, yana jahannamga tashlanishlarini bilishadi, qarshilarida yilt etgan umid uchquni ko'rinxaydi. Kecha-yu kunduz o'limni, shu qora qismatlarini o'ylayverishsa kerak-da. Keyin alamlarini ko'zlari oldida doim o'ralashib yuradigan yakka-yu yago-

na sog'lom odamdan – Umidadan olmay, kimdan olishsin?

Bu orada Vatslav ikkinchi operatsiyadan chiqdi. Endi uming xushchaqchaq hazilkashligi so'nib, xunuk tus olgan, ayanch masxarabozlikka, beandisha bir tubanlikka aylangan edi.

– O'pkam tog'dek ekanmi deyman, shuncha qiyimalasa ham tugamaydi. Bergerning o'zi hamchi, rosa qassob ekan-da, pinagini buzmaydi-ya! Menga qara, nemis, mening bitta o'pkam allaqa-chon yo'q, bilasanmi, Berger qiyma qilib yegan, ha-ha-ha!

Vatslav darmonsizlanib jimb qoldi. Umayer endi uning bu yasama xushchaqchaqligiga ishonmaydi, bu uning zaharli iztiroblarining blr ifodasi, xolos. Ilgarigi Vatslav endi yo'q. O'pkasi ning xirillashi shu yergacha eshitilib turibdi.

Bu orada kunlar isib, bahor kirib keldi. O'rmon etagida maysalar jonlanib, shabadasiz, tinch, iliq havoga ming xil dala gullarining nozik hidlari taraldi. Xuddi olamda qonli urush ham, mana bu oppoq palatalarda sassiz kezgan dahshatli o'lim sharpasi ham yo'qdek. Hammani hayratda qoldirib yana tuzala boshlagan Vatslav derazadan adashib kirgan asalarilar bilan gaplashar edi.

– Yopishma, odam o'z tezagini ham yaxshi ko'radimi! – derdi ularni quvlab. Ammo hazil-lari endi ilgarigidek o'tkir, dono emas. Ilgari-lari bemorlarning ko'nglini ko'tarib turadigan gaplari endi hech kimga ta'sir qilmay qo'ygan. Lekin kutilmaganda Vatslav Kurt Bergerning eng ardoqli bemorlaridan bo'lib qoldi. Doktor unga yog', asal buyurdi. (Asalarilarning deraza oshib

uning suhbatiga kelishi bejiz emas edi-da.) Doktorning o‘zi ham tez-tez kirib, undan xabar olib turadigan bo‘ldi. Yashashga umidi oshib qolgan Vatslav ham uning maslahatlarini jon qulog‘i bilan tinglar, qo‘snilari ham ko‘ziga ko‘rinmay, o‘zi bilan o‘zi ovora edi.

Umida bilan nemis bolsa ular o‘rtasida paydo bo‘lgan bu inoqlikdan taajjublanar, yuz bergen o‘zgarishga tushunisholmas edi. Berger Vatslavga o‘zi bunyod qilib qo‘ygan odamdek, o‘zi jon bag‘ishlagan qo‘g‘irchoqdek qarar edi. Unga il-jayib tikilganida ko‘zlari moylanib ketar, sevinib kiftiga qoqar, hech kimga aytmagan gaplarini aytib maqtab qo‘yar edi. Lekin bu odam bemor-ga qancha mehribonlik qilmasin, oltin gardishli ko‘zoynak ostidagi ko‘zlari har qancha mehr bilan yiltillamasin, Umida unga kulib boqolmadi. Ko‘ngli tortmasdi. Buning uchun o‘zini koyir edi ham. Chunki nima bolsa ham, shunday fojiali davrda, imson bolasingin pashshachalik qad-ri bo‘limgan bir zamonda odam sog‘lig‘i uchun kurashish olivjanoblik-ku. Umidaning o‘zi ham shunday xizmatda bo‘lganidan rozi. Umayderning unga xo‘mrayishi behuda.

Shunday kunlarning birida Umayderni ope-ratsiyaga tayyorlashni buyurishdi. Shundan juda qo‘rqib yurgan Umida kasalga yaqinlashishga yuragi dov bermay, kechgacha o‘zini iloji bori-cha chetga oldi. Kechqurun esa eshik tagida yot-gan fransuz o‘lib qoldi. Shu voqeа bilan chalg‘ib, Umayderning shashti pasaydi shekilli, to‘polon chiqmadi. Kechasi palatada uyqu ham bo‘lmadi, gap ham. Eshik tagida oq choyshab tortilgan o‘lik

yotardi. U kichkinagina, boladek... Bolalarining ismini tilga olgan bo'lsa kerak, Umida so'nggi lahzada yonida bo'lomadi. Jak... Lyulyu... Jak, Lyulyu. Yana bittasi nima edi? Xah, nima edi-ya? Hozir eng zarur narsa shudek, Umida eslashga harchand urinmasin, eslolmadi.

Birdan achchiq chinqiriq eshitildi:

– Ayting axir! Olib chiqib ketishsin!!!

Bu Umayder edi. Umida qattiq qo'rqi: o'rni-dan turib ketsa, yomon bo'ladi, Umidaga ham, o'ziga ham.

– Aytdim, tinchianing, aytdim.

Biroq o'likni tong otguncha olib chiqib ketish-madi. Ertalab ham zambil keldi-yu, murdani emas, Vatslavni olib ketishdi. Vatslav ham mur-dadek oppoq edi. U nima bo'layotganini bilma-ganidan indamadi, zambilda yotgancha bu yerda qolayotganlarga yalingandek atrofiga bir alangla-di-yu, chiqib ketdi.

Umayder boshini ko'tarib kuzatib qoldi. U ham endi o'zining kasalligiga ishona boshlagan edi, chunki o'zi ham, asabi ham bekordan-bekor-ga bo'shashib, aqli yetmaydigan narsalarga qo'l siltab, beparvo qaraydigan bo'lib qoldi. O'zining operatsiyaga tayinlanishiga ham shunday parvo-siz bo'lishga urindi-yu, lekin bir fikr sira tinch-lik bermasdi: Vatslav fransuzning ketidan, men bo'lsam Vatslavning... Hammamizning boradigan joyimiz bir.

– Hamshira! – deb baqirdi u.

Umida fransuzning o'ligini topshirish, qog'ozla-rini saranjomlash bilan ovora edi. Oldiga o'sha zahoti borolmadi. Nemis yana baqirdi. Umida

eshik oldidagi bo'shab qolgan joyni tuzatib qo'yib, ko'zidan tirqirab chiqqan yoshni shoshib artgancha, Umayderning oldiga bordi. Nemis teskari qarab yotgan edi.

– Polyakni qayoqqa olib ketishdi? – dedi.

– Bilmayman. Konsiliumga bo'lsa kerak.

– Konsilium...

Umida ishiga ketmoqchi bo'ldi.

– To'xtang. O'tiring.

– Tikka turib ham eshitaveraman. Gapiring.

Umayder anchagacha indamay yotgach, boshqacha, pastroq, muloyimroq tovush bilan so'radi:

– Yigirmaga endi kirgan ekansiz... Shundaymi? – Umida javob bermadi. Nemis shu ohangda davom etdi: – Qayoqdan o'rgana qolgan edingiz... ham u yoqqa, ham bu yoqqa ishlashni?..

Umidaning yuragi orqaga tortib ketdi. Nima demoqchi bu? Biron sir biladimi? Nega qiy Naydi?

– Menga xizmatdan tashqari gapni gapirmang.

– Xizmatingiz nima o'zi? – nemis shartta qayrilib g'azab bilan tikildi. Umida yig'lab yubordi.

Shu xilda yana bir necha kun o'tdi. Nemis ope ratsiyani kutib yotardi. Bir kuni ertalab Vatslavni yana o'rniga olib kelib yotqizishdi. Bu endi ilgari gi Vatslav emas, unsiz, rangsiz, nafas ollshi qisqa, gapirishga madori yo'q, faqat javdirab turgan ko'zlarigina qolgan edi. Ko'zlari bilan bir nima dedi shekilli, Umida tushunmadidi. Yuzidan terini artib, so'radi:

– Meni taniyapsizmi, Vatslav?

Bemor ko'zini yumdi: demak, taniyapti.

U ikki kecha shunday gapirishga chog'i kelmay yotdi, uning qisqa-qisqa nafas olishigina eshitilar

edi. Uchinchi kuni doktor Berger kirib, Umayderni operatsiyaga tayyor emas deb topib, darg'azab bo'lib ketdi. Kasal uyqudan qolgan ekan shekilli:

– Schlaffen! Schlaffen! Schlaffen! – deb baqir-di. Umida uning basharasi bunchalik dahshatli ekanini bilmas ekan: yupqa lablaridan qon qo-chib, burun kataklari kerildi, qoshsiz, kipriksiz ko'zlarida nayzadek bir narsa chaqnadi, siyrak sochlari orasidan ter qalqidi.

Yo'q, bu boshqa odam edi. Boshqa odam...

Umida qattiq qo'rqlidi. Faqat teskari qarab yotgan nemisning beparvoligina unga biroz dalda berdi.

Shu kuni Vatslavdan sado chiqdi. U Umida ga imlab derazani ko'rsatdi. Umida uning istagini tushunib, orqasiga qo'shaloq yostiq tirab, deraza-ga qaratib qo'ydi. Gurkiragan bahorning man-zarasi kasalning namchil, g'uussali ko'zlarida aks etdi. Bu ko'zlar tikilgan sari katta ochilar, yana ko'proq namlanib, qorachig'iga cheksiz hasrat pardasi tortilar edi. Umida keyin bilsa, bu fojiali vidolashuv dami ekan. Bahor bilan vidolashuv! Avji bahor chog'i hayotdan ketish... Bundan ham og'ir o'lim bo'lmasa kerak!

O'sha kechasi saharga yaqin Vatslav Umidani yoniga chaqirdi. Jonsiz ko'zlar shiftga qadalgan, darmonsiz qo'li bilan qayoqnidir, nemis yotgan tomonni ko'rsatar, ammo gapirolmas edi. Umida harchand urinmasin, uning nima demoqchi bo'layotganini anglay olmadi. Shu payt nemis yotgan yerida o'zini ko'tarib urib, baqirib yubordi. U sukunatga toqat qilolmaydigan bo'lib qol-gan edi.

– Jim yoting! – dedi Umida.

– Yana o'lim! Yana o'lim! – deb baqirdi nemis.

Umida Vatslavning aytmoqchi bo'lgan gapini eshitmay qolishdan qo'rkar edi. Nemis jahl bilan qo'l siltadi.

– Men... hozir o'laman, – dedi Vatslav pichirlab. Qiziqliki, pichirlasa ham palataga baralla eshitildi. Mangulik sukunati oldida har bir tovush tosh-dek zil bo'ladi shekilli. – U... u... operatsiyaga... bormasin... – dedi Vatslav yana darmonsiz qo'li bilan nemisni ko'rsatib. Bir so'zni to'la aytishga nafasi yetmas, nafasidek qisqa hijjalab aytar edi.
 – Hech kim bormasin. U sog' o'pkani kesyapti. Tajriba uchun. U kasallar bilan shug'ullanmaydi... Tushundingizmi?

Umida dokadek oppoq oqarib o'rnidan turdi. Ikki qo'li bilan yuzini ushlab, o'layotgan kasalga tikildi. Yuzi sovuq, nam edi. «O'lim oldidan alahlayapti...» – deb o'yladi bosh chayqab.

– Yo'q, yo'q, so'nggi gapim, rost gapim, – dedi Vatslav. – Men kasal emas ekanman. To'rt marta kesdi. Tirik odamga bemalol pichoq soladi. Qassob! Jallod! Qochinglar bu yerdan! Hozir... Qoching...

Umida tizzalari titrab orqaga tisarildi. Vatslavning nafasi ichiga tushib, oyoqlari silkindi-da, joni uzildi.

Umida qayoqqadir yugurmoqchi edi, Umayder tutib qoldi. U kiyinib o'rnidan turib olgan edi. Bir qo'li bilan Umidani ushlab, bir qo'li bilan tepadagi chiroqni o'chirdi. Qolgan ikki kasal qattiq uyquda, javon ustida bittagina tungi chiroq xira yonardi. Tong oldi qorong'isi derazalarga saqichdek yopishgan, yo'laklar, palatalar jimjit.

– Eshitdingizmi? – dedi Umida nemisning bejo ko'zlariga qarab.

– Ha, – dedi u, – men ham kasal emasman. Kasal emasman, endi tushundingizmi?

Umida undan ko'p martalab eshitgan bu gapning dahshatini endigina tubdan payqadi.

– Endi «xizmatdan tashqari» bir gap aytsam maylimi? – Nemis alangladi. – Qochish kerak. Boshqa yo'l yo'q.

Hang-mang, rangi o'chgan Umida nima deyishini bilmay o'tirardi.

– Siz urinib ko'ring. Men...

– Sizni operatsiya qilishmaydi, shundaymi? Lekin siz guvohsiz. Bunday ishning guvohi bo'lmasligi kerak, bilasizmi?

Umidaning ko'z oldiga Kurt Berger keldi: katta yaltiroq etikli, ko'zoynagi oltin gardishli, uzun barmoqlari qonga bo'yalgan. Umidaning baqirib yuborishiga oz qoldi.

– Men sizga dardisar bo'lishim mumkin... – deb pichirladi u.

– Bekorchi gapni qo'ying.

– Qo'lga tushsak-chi?

– Boshqa yo'l yo'q! – deb Umayder qizni qorong'i deraza tomon yetakladi.

Umida hozir qo'lga tushishdan ham ko'ra, yana Bergerning dahshatli basharasini ko'rishdan qo'rkar edi. Tupuk sochgan qonsiz, yupqa lablarini qimtib kipriksiz ko'zlari olayib ro'parasidan chiqib qolmasa bas. Muncha qorong'i tun... Muncha qorong'i...

Ular qochdilar.

Lekin o'sha mudhish qorong'ilik, o'sha qo'rquv Umidaning dilidan hamon ketmagandek.

Eshik taqilladi. Qorong'i ostonada ikki kishi ko'rindi. Chiroq yonishi bilan Umida beixtiyor chinqirib yubordi. Oppoq oqarib, orqasidagi yumshoq kursiga o'tirib qoldi. Ro'parasida shiyapasini qo'lida tutgancha Kurt Berger turardi. Berta seckilli qovoqlarini pirpiratib dam unisi, dam buniisiga qaradi-da, keyin karavot tagidan Umida ning tuflilarini olib berdi.

– Kechirasiz, frau doktor, sizni qo'rqitib yubordim shekilli, – dedi u. – Qorong'i tushib qoldi, chiroqni yoqmabsiz. Mana sizni jentelmen yo'qlab kelibdilar. Qahva buyuraymi? – navbatchi ayol javob ololmagach, yana uzr so'rab, chiqib ketdi.

– Frau Berta! – dedi Umida shoshib. «Chiqib ketmang!» demoqchi edi, aytmadı. – Qahva olib keling, – dedi o'zini tetik tutishga urinib.

Lekin ro'parasida Berger turardi. O'sha odam... O'sha... U negadir hozir Umida o'ylagandek dahshatli emas. Sira ham dahshatli emas. Shlyapasini ushlab, salom berib turibdi. Taqir boshi tirishgan. Qomati ham kunduzi minbarda turgandagidek tik emas.

– Xizmat... Berger? – «doktor» demadi Umida. U endi o'zini o'nglab olgan edi.

– O'tirsam maylimi?

– O'tiring.

Berger shlyapasini tizzasiga qo'ndirib, oltin uzuk taqqan uzun qo'llarini qayoqqa qo'yishni bilmagandek, o'ng'aysizgina o'tirdi. Umida xotirasidagi dahshatli Bergerning vajohatini ko'z o'ngidan quvib, bu keksa jentelmenga, boshqa Bergerga tez ko'nikib oldi, talvasaga tushgan bu odamning ayanchli ahvolini ham payqab turibdi.

Unda ertalabki viqor ham yo'q, qandaydir shumshayib qolibdi.

– Maktubingizni majlisda o'qib eshlttirdilar, hamkasaba, biz ko'p afsus qildik. Sababini ayt-magan ekansiz, salomatligingiz durustmi?

– Gapingizga qarab, bemahalda mening g'amimni yeb yurgan ekansiz deb o'ylash mumkin.

Berger shiyapasini qayoqqadir qo'yemoqchi bo'lib, yana tizzasiga oldi. Tagidagi kursi og'ir g'irchilladi.

– Bir men emas, butun ilm ahli uchun g'alati voqeа bo'ldi. Axborotingizni hamma zo'r umid bilan, qiziqish bilan kutgan edi.

– Ha, g'alati voqeа... – Umlda ro'parasida suhbatdoshi yo'qdek, go'yo o'ziga o'zi gapirardi:

- Tojlar, taxtlar, mehrobiar qonga bo'yalganini eshitganman... Olim fabrikasining darvozasiga «Mehnat va Ozodlik» deb yozib qo'yilganini ham bilardik. Onasini zo'rланган pastkashlar o'tgan. Siyosatda, muhabbatda makr-jodu azaldan bor. Go'zallik biznesga aylangan joylarni ham bilamiz. Lekin fan dargohida qonli izlar!.. Qudsiyat bormi, Berger?

«Mehmon» Umidaning uzoqdan aylantirib o'tirish niyati yo'qligini angladi. Ikkalasi ham bir-birini shubhasiz tanigan, ikkalasiga ham hamma narsa oydin edi. Berger muloyim jentelmenlikni yig'ishtirishga majbur bo'ldi, bezovtaligini yashirmay, shlyapasini divanga uloqtirdi.

– Doktor. Doktor Berger.

– Yo'q!

– Men mehmoningizman, hamkasaba, nihoyat siz o'zingiz mehmonsiz bu yurtda.

– Hamkasaba demang. Qassob sizga hamkasaba, jallod sizga hamkasaba!

– Xo‘-o‘-p... – dedi Berger, o‘rnidan turib u yoqbu yoqqa yura boshiadi. U asosiy gapning bunday tez boshlanishini o‘ylamagan edi.

– O‘zingiz keldingiz, – deb davom etdi Umida. – Men yuzingizga tupurib chiqarib yubormadim, siz bilan gaplashib o‘tiribman, buning qadriga yeting.

– Siz shifokorsiz, tushunishingiz kerak...

– Yo‘q, men shifokor emasman! Toki fan yo‘li sizdek tuban maxluqning qonli poshnasi bilan toptalar ekan, men shifokor emasman! Men avvalo inson bo‘lishim kerak, kuchli, vijdonli, hushyor inson! Aks holda, siz bu xoli xonada hozir meni ham bo‘g‘izlab ketishingiz mumkin, men sizning jinoyatlaringizga guvohman.

– Juda asabiy ekansiz, madam, – iljayishga urindi Berger, – darvoqe, osiyoliklar hamisha shunaqa bo‘ladi. Har qadamda ko‘zingizga jinoyat, o‘lim, bo‘g‘izlash ko‘rinadi. Xalqaro forumni buzmasdan, olimlarga xos vazminlik hilan ma’ruzangizni o‘qib bo‘lib, keyin chiqib ket-sangiz ham bo‘lar edi. Gapingiz bo‘lsa, keyinroq gaplashar edik.

– Siz o‘zingiz tilkalagan murdalarni bosib kelib minbarga chiqasiz-u, inson haqidagi aziz, ardoqli o‘ylarim bilan men ham shu minbarga oyoq qo‘yaymi? Fan dargohining muqaddas pokligi menga bolaligimdan ezgu bir hayrat, ulug‘vorlik, insonga mehr, ishonch, olivjanob g‘urur bag‘ishlab kelgan. Men bu soflikka o‘laksa quzg‘unlari qo‘nishini istamayman.

– Bolalikdan... Men ham bolaligimda nimaiki qilgan bo‘lsam, hammasini shu fan uchun qil-

ganman, – Bergerning yuzida hasratli o'ychanlik paydo bo'ldi. U bir nuqtaga tikilib, bir ohangda gapirar edi: – Siz shafqat uyg'otmoqchi deb o'ylaysiz, albatta. Lekin urushdan keyingi yillar och, uysiz-joysiz, vayronalarda yashab yurib... Qxirgi pulimga shifokorlik amaliyoti sotib oldim. Undan keyin...

– Berger! – dedi Umida sabri chidamay. – Siz mening oldimga nima uchun keldingiz? Bu arzi dodingizni nima uchun menga aytishga qaror qildingiz? Gapingizning ohangiga qaraganda, siz hozir tiz cho'kadiganga o'xshaysiz. Nahotki buning samimiyligiga meni ishontirmoqchi bo'lsangiz?

– Yo'q, men sizni oddiy mantiqqa da'vat etmoq-chiman, xolos. Urush. Dahshatl urush. Jahon urushi! Millionlab odamlar bekorga o'lib ketyapti. Shunday vaqtida shulardan besh-o'ntasi fan uchun qurban qilinsa, dengizdan bir tomchi-ku! Fan uchun!..

– Bas! Fanni tilga olmang! Fanga aloqangiz yo'q sizning. Gans Braun poeziya tili bilan xalqlarni qirishga chaqirib, o'zini shoir deb atagan. Osvensim pechiarini o'ylab chiqarganlar ham o'zlarini muhandis deb hisoblaganlar. Ammo bu bilan ularni fashistmas deb bo'ladimi?

– Men Rossiyani asoratga solishni orzu qilgallardan emasman. O'zingiz bilasiz, men fan fidoyisi... Mening kashfiyotim baribir fanda qoladi.

– Fan inson uchun. Siz esa qotlksiz!

– Olimlarcha, hozirgi zamon tili bilan gaplashsak.

– Hozirgi zamon... Men o'zimning insonparvarligim, insonga muhabbatim, insoniy axloqim

bilan juda eskib qolibman, juda orqada qolibman, shundaymi?

– O, naqadar primitivsizlar! Inson... inson degan allaqachondan beri qaldiragan idishdek quruq so'z bo'lib qolgan, xonim.


Umida kresloga o'rashibroq o'tirib, Bergerga tikildi.

– Ana endi o'zingizga keldingiz! Nima qilardin-giz halidan beri ming bir tovlanib?

– Ha, siz meni yaxshi bilasiz! – Berger asl qiyofasiga kirdi. Tupuk sochgan yupqa lablari qal-tirab, burun kataklari kerildi. Ammo Umidada endi qo'rquvdan asar ham qolmagan edi. Chunki u suhbat davomida bu odam ko'nglining hamma qorong'i burchaklariga kirib chiqdi.

– Bilaman, siz yanchilib bitmagan fashistsiz, – dedi Umida osoyishta. Bu bosiqlik Bergerning toqatini toq qilib yubordi. U uzun barmog'ini Umida tomonga nuqdi. Bu sobiq hamshiraga tanish harakat edi.

– Ha, bu hech kimga sir emas! Ellik yildan beri o'zingizni o'tga-cho'qqa urib, jon olib-jon berasiz. Jamiyatni tozalaymiz, sog'lomlashtiramiz, degan xom xayol bilan. Xo'sh, nima bo'ldi? Odam tobora marazga botdi, ofat, kasal yana ham ko'paydi, yangilari, dahshatliroqlari paydo bo'ldi. Siz, jamiyat uchun kurashyapmiz deb o'ylaysiz. Jamiyatga siz emas, bIZ kerak! – Berger qo'ynidan bir dasta gazeta olib, stolga sochdi. Bular bugungi kechki gazetalar edi. Sahifalari Bergerning suratlari bilan to'la. Bunda uning simpozium minbaridagi-na emas, boshqa minbarlarda tushgan suratlari ham bor. G'alati-g'alati harflar bilan terilgan sar-



lavhalar ko'zni qamashtiradi: «Doktor Bergerning kashfiyoti», «Xalqaro simpoziumda ajoyib sensatsiya», «Insonga qancha havo kerak?», «Skalpel qil ustida», «Eng kichik o'pka...» Umida sahifaning pastki burchagidagi uch-to'rt satrli xabarga ko'z soldi: «O'zbek olimasi o'z nutqidan voz kechdi».

– Siz juda katta ketdingiz, Berger, – dedi Umida gazetalarni beparvo surib qo'yib. – Agar siz bilan biz gaplashadigan bo'lsak, faqat sizning jinoyatning haqida gaplashishimiz kerak.

– Vaqt o'tgan. Yuridik jihatdan men oqman. – Berger shlyapasi ichidan oq qo'lqop olib, uzun barmoqlariga asabiylig bilan torta boshladi. – Siz meni jinoyat ustida ushlagan emassiz. Men sizni tanimayman. Ehtimol, siz olim ham emasdirsiz...

– Bilardim hech narsadan toymasligingizni. – Umida beixtiyor yurib borib eshikni ochib qo'ydi.

– Agar oramizda hozirgi tortishuv bo'lmaganda, men laqma, balki shu ko'yi uyimga qaytib ketgan bo'larmidim? O'tgan gap, u-bu deb... Ammo endi qaytmayman! Bu o'tgan gap emas, Berger, bu xuddi shu bugungi gap. Ertaga men matbuot anjumani chaqiraman.

– Isbot? Guvoh?

Umida ochik eshikka ishora qildi.

Berger yirik ter tomchilar qalqqan taqir boshiga shlyapasini bostirib kiyib, do'q-do'q yurib chiqib ketdi. Umida orqasidan qarab qolarkan, «unga etik ko'proq yarashar edi», degan fikr keldi xayoliga.

Isbot! Guvoh! U minbardan operatsiya qilib tu-zatgan o'ntacha odamni atadi, ular tirik. Umida-chi? Umida kimlarni tilga oladi? Uning guvohlari

bitta qolmay o'lib ketgan. Matbuot anjumani quruq bayonotdan, isbotsiz da'vodek, guvohsiz aybnomadan iborat bo'lmaydi-ku axir! Muxbirlar uni gangitib qo'yishmaydimi?

Umida yarim kechagacha boshini changallab o'tirdi. Uyqusi tamom qochgan edi. Endi nima qilsa! Yo bekor qo'zg'adimi bu mashmashani?

Umida hech qachon bu qadar chorasiz, bu qadar iztirobda qolgan emas edi. Qo'rg'oshindek og'ir boshini yostiqdan ko'tarib, tizzalarini quchoqlagan ko'yi tonggacha o'tirdi. Tunni uyqusiz o'tkazish azob. Yo'q, agar bu ishni shu holicha qoldirsa, uning butun umri qiynoqqa aylanishi mumkin. Jallod pichog'idan to'rtinchi o'tishida uch bolasingin ismini atashga tili kelmay, avji bahorda qiynalib jon bergen kichkinagina fransuz... Oti nima edi? Yana biri polyak Vatslav... Familyiasi-chi? Yillar o'tib shunday holga duch kelishini bilganida Umida o'sha o'limga mahkum etilgan sho'rliklarning, hatto boshqa palatadagilarning ham ism-familiyalarini so'rab olgan bo'lmasmidi!..

Umayder... Darvoqe, Umayder!.. U tirik qolgan edi-ku! Shu shaharlik edi. Ehtimol, biron yerda yurgandir? Umayder, Umayder... Hayot bo'lsa ham, urushdan keyin taqdir to'lqinlari uni qayoqlarga olib ketdi ekan, endi uni topib bo'larmidi...

Bugun odatdan tashqari oppoq oqarib tong otdi. Gotik nayzalarga sanchilib turgan muallaq bulut kechasi siljib ketganga o'xshaydi. Umidaning ham fikri ravshan tortib, boshini birdan ko'tardi, yengilgina o'rnidan turdi. «Karl Umayder, Gustav Umayder, Frits Umayder...» deb

pichirlayotganini sezib qoldi. Bu familiya xay-
olidan ketmay qolgan edi. Beso'naqay, oyoqlari
uzun, dev qomat Umayder ko'z oldiga keldi. «Shu
gavdangiz bilan kashta tikasizmi?» – deb kulgan
edi unga Umida qochib qutulganlaridan keyin.
Ular xayrslashadigan kuni allaqanday tashlandiq
bir garajda kulga kartoshka ko'mib yeishgan edi.
«Kashta tikaman. Sizdek jonon qizlarning kofta-
lariga mashinada nozik gul chekaman», – degan
edi Umayder. Uning o'zi siyosatdan qo'rqa digan
odam edi. O'g'li harbiy xizmatdan qochganligi tu-
fayligina konsentratsion lagerga tushib qolgan.
Endi yana qo'lga tushmay, urushdan eson-omon
o'tib olsa, xotini bilan mustaqil tikuv ustaxonasi
sotib olishni ahd qilib qo'ygan edi...

A? Tikuv ustaxonasi? Shaxsiy ustaxona.
Markaziy soliq inspeksiyasi biladi-ku bunday
ustaxonalarning hammasini! Agar Umayder o'z
ahdida turgan bo'lsa...

Umida g'izillagancha ko'chaga yugurib chiqdi.
Yo'lkada endigina ochilgan kichkina tamaddi-
xonadan bitta buterbrod olib, naridan-beri ovqat-
langan bo'ldi-da, soliq inspeksiyasiga yugur-
di. Markaziy soliq inspeksiyasi degani «Federal
zamin soliq inspeksiyasining prefektura boshqar-
masi» deb atalar ekan. Umida mashina kira qilib,
haydovchiga manzilni tutqazdi.

Taksi yigirma daqiqalarda eski, qizil g'ishtin
bino oldiga borib to'xtadi. Umida o'ziga kerak
xonani pastda surishtirib olib, liftni ham kut-
masdan, beshinchи qavatga chiqib ketdi. Uning
orqasidan yana birov chiqib kelardi. Bo'yniga
fotoapparat osgan, yuzi sap-sariq, qari odam. U

boya tamaddixonada ham ko'ziga chalingandek bo'lgan edi. Yo'g'e, apparat osgan odam bitta shumi!..

Umidaga o'ttiz uchta mashinachi Umayder-ning manzillini berdilar, shundan yettitasi Gustav, uchtasi Vilgelm, yana nechtasi Konrad, Yozef, Karl... Gustavlardan boshlash kerak shekilli. Manzillariga qaraganda bir-birlaridan juda uzoq yashar edilar. Birinchisi shahar chetida, badbo'y yerto'lada joylashgan ustaxonadan topildi, u yigirma besh yosiliar chamasidagi, popga o'xshash uzun sochli yigit ekan. Otasi ham Gustav Umayder bo'lgan, lekin u o'lib ketgan ekan.

– Necha yoshida? – shoshib so'radi Umida.

– Sakson ikki yoshida vafot etdi, xudo rahmat qilsin, – dedi yigit.

Umida hafsalasi pir bo'lib, metroga yugurdi. Uzoqda yana haligi sarg'ish basharali odamni ko'rganday bo'ldi-yu, to'dada yo'qotib qo'ydi. Yo'q, bunisining bo'ynida apparati yo'q edi...

Ikkinchi manzil neon peshiavhli, serhasham zamonaviy binoga olib keldi, bu ustaxona deb atalsa-da, haqiqiy fabrika edi. «Xo'jayin Myunxenga ketgan», deyishdi. Umida nima qilishini bilmay, hiyla ishlatdi:

– Men janob Umayderni yaxshi eslayman, bo'ylari... – hazilomuz qo'lini ko'tarib, novcha odamni tasvirladi. Qabulxonadagilar birdan sharaqlab kulib yuborishdi. Ularning xo'jayinlari, aksincha, bu atrofda eng pakana, baqaloq odam ekan.

«Hazilkash» mehmon ko'chaga chiqib yana taksi chaqirdi. Federal o'lkaning qaysidir shaharchasida yurganlarida bir «Mersedes» izlaridan tushdi.

– To'xtang-chi, – dedi Umida.

Taksi to'xtadi. Haligi mashina ham oldinga o'tib muyulishga qayrildi-yu, to'xtadi.

– Yuring.

«Mersedes» yana ergashdi. Kechroqqa borgan-da u ikki marta taksining yaqinginasidan g'uvillab o'tib ketdi. Umidaning haydovchisi mard yigitga o'xshaydi, nafrat bilan sal jilmaydi-da, pinagini buzmadi.

– Sizga tahdid qilishyapti, frau. Sabr qiling, men ularni adashtiraman.

Haqiqatan ham adashtirib ketdi. Kutilmagan-da qayrilib, allaqaysi jin ko'chalardan o'n besh daqiqa aylantirib chiqdi. Shundan keyin orqalaridan hech kim ergashmay qo'ydi.

Lekin keyingi manziliar ham foydasiz bo'lib chiqdi. Oxirgi Gustav shaharning o'zida ekan, Umida piyoda ketishga qaror qilib, taksiga javob berdi.

Bu oxirgi Gustav Umayder ham Umida izlagan odam emas, boshqa, serajin, badjahl bir tikuv-chi chol ekan. U o'lgudek sergap chiqdi. Umida uning uzundan-uzoq gapini oxirigacha eshitmadni ham, o'kingancha chiqib ketdi.

Lekin ustaxona xo'jayini derazadan bosh suqib, uni yana chaqirdi. «Obbo, – dedi Umida ichidan, – bekorchi quloq topsa, qo'ymaydigan xilidan ekan shekilll...»

– Moment, frau...

«Momenting» boshingdan qolsin! Umida, kuni bo'yi eshikma-eshik tinkasi qurigan, buning uestiga ertaga ertalabdan yana boshqa Umayderlarni qidirishi kerak. Foydasiz ish bo'lib chiqdi she-

killi-da. Ismsiz, manzilsiz odam topib bo'ladimi... Necha yillar o'tib ketgan bo'lsa.

– Moment. Bir voqeа yodimga tushdi. Esim qursin, keksalikda... – dedi chol.

«Hali xotiralarini ham gapiradi shekilli...» – deya g'jinib o'yladi Umida. Istar-istamas yo'lidan qaytdi.

– U ablah jirafa bilan meni tag'in chalkashtriganga o'xshaydi, qutulamanmi, yo'qmi undan! Kim berdi sizga bu manzilni?

Umida ko'zini pirpiratib pastdan yuqoriga derazaga qarab qoldi, bu mahmadona cholning badjahlligi ham endi unga beozor tuyulib ketdi.

– Jirafa dedingizmi?

– Ablah jirafa! Sug'urta kassasida mening pulimni qoqishtirib ketishlga sal qolgan! Nuql o'sha bilan adashtirishadi. Otimni boshqa qo'yaman shekilli, azbaroyi xudo!..

– To'xtang, otaxon, siz nega uni jirafa deyapsiz? Laqabimi?

– Sen, qizim, – deb salmoqlab boshladi chol, – nemischani tuppa-tuzuk gapirsang ham, ko'rinish turibdi, bu yerlik emassan. Jirafani ko'rganmisan?

– Menga qarang, qisqa qilaylik, bilaman jirafani, – dedi toqati toq bo'lgan Umida. – Ayting-chi, kimmа jirafa deyapsiz?

– O'sha ablahni-da. Sal bo'lmaganda pulimni o'marib ketardi. Men senga aytsam u...

– Uning ham oti Gustav Umaydermi?

– Avgust Umayder u ablah, Avgust Umayder! Tushundingizmi? Nega uni men bilan chalkashtrishadi, qani, ayt-chi, o'xshashligimiz bo'lmasa! U ablah, men bo'ssam kasbi korim bilan kun

ko'radigan halol kosibman. U jirafadek naynov, men bo'sam, xudoga shukur, ko'rib turibsan...

– Chol qaddini rostlab, tamakidan sarg'aygan mo'ylovini silab qo'ydi. Umida kulib yubordi.

– Men or qilaman unga o'xshashdan. Nima sababdan adashtirishadi bizni, tavba!..

– To'xtang, ota, to'xtang!

Quvonganidan fikrini bir joyga to'plolmay qolgan Umida yugurib yana ichkariga kirdi. Endi uning ro'parasida johilligi ham, sergapligi ham yoqimli, tevaragini o'rgimchak uyasiday ajin bosgan ko'zlariga mehr yashiringan bir chol turardi. U umri mehnatda o'tgan, yenglari doim mana shunday shimarig'lik, o'zi aytgandek, haqiqatan ham halol odam bo'lsa kerak.

– Demak, u ham tikuvchimi? O'sha... jirafani aftyapman!

– Ha, baxtga, qarshi.

– Avgust Umayder deng?

– Ha, baxtga karshi.

– Qayerda turadi?

– Uzoqda-da baxtga qarshi. Geldingford degan joyda turadi.

– Nega «baxtga qarshi?» – kulib so'radi Umida shaharchaning nomini yon daftarchasiga yozib olarkan.

– Yaqim bo'lganida, borib bir adabini berib kelardim.

Umida sevinganidan cholni quchoqlab, oppoq tikanak bosgan yuzlaridan o'pdi. Keyin g'izilla-gancha chiqib ketdi.

– Salom degin abiah jirafaga! – deb qoldi chol yonog'ini ushlab. – Aytib qo'y, agar yana chalkashtiradigan bo'lsa...

Umida u yog'ini eshitmadi. Qariya hali albat-ta anchagacha javraydi. Qiziq chol. Shunaqa odamlar bo'ladi. O'zining odamgarchiligidan iy-mangandek, uni yuzaki badjahllik, qo'pollik yoki sergaplik bilan niqoblashga urinishadi. Muhitga moslashishning ibtidoiy usuli.

Mehmonxonada Berta qahva bilan birga bir patnis tashrif qog'ozni olib kirdi. Kimlar so'ragani, kuni bilan qayerlardan nechta muxbir, qan-day noma'lum odamlar kelib-ketgani, yana allanimalarni uzoq gapirib chiqib ketdi. Umida bিrontasiga ham e'tibor bermadi, fikri-yodi Avgust Umayderda edi. Avgust... Bu albatta o'sha. Uni birinchi ko'rgan odamning ko'ngliga albatta shu so'z keladi: «Beso'naqay...». U juda beso'naqay edi. «Jirafa».

Umida kulib yubordi. Chol tushmagur-ey, zap topibdi lekin...

Ertaga tong otishi bilan jo'nash kerak. Gel-dingford. Umayder. Novcha... Beso'naqay...

Umida shu bilan tosh qotib uyquga ketdi. Ertalab Berta kelib eshik qoqqanda, u o'mnida yo'q edi.

Ko'chalarga sap-sariq kashtan bargi to'shalib yotibdi, onda-sonda buqsib xazon yonadi. Namxush, yalang'och xiyobonlarni tuman, tutun bulutlari chulg'agan. Tamish kuz hidi.

Faqat shahar yot. Qadimiy nemis provinsiyasi, bu yerda butun kuch, salohiyat, qobiliyat peshlavhga sarf qilingandek, har bir bachkana baqqol do'kon, hatto hammom, sartaroshxona ham ajab jimjimador harflar bilan o'zidan katta lavha yozib peshtoqiga qo'ndirgan, tepadagi boloxonalarda bolsa, arqonlarga yoyilgan ola-bula kir hilpiraydi.

Avgust Umayderning tikuv-to'quv ustaxonasi Kirxa maydonidan o'tgandan keyin, hovli ichkarisida, bir qavatli uzun binoda joylashgan edi. Eshik ochilishi bilan qaynatilgan qayin po'stlog'i, qandaydir bo'yoq hidlari dimoqqa urildi, bir maromda guvillagan tikuv mashinalari quloqni bitirdi.

Umayder ustaxonada yo'q ekan. Umida yengil tortdi. Bu Umayderning ham boshqa odam bo'lib chiqishidan qo'rkar edi.

Shuning uchun xo'jayinning qo'rasiga yetaklab borganlarida, novcha odamni uzoqda ko'rib, yuragi qinidan chiqayozdi. Boshlab kelgan odamga rahmat aytib, javob berdi-da, kashtan tagidagi o'rindiqqa o'tirdi. Endi nafasini rostlasa bo'ladi. Uff...

Lekin uning yuragi tinchimadi. O'zining bu begona yurtda nima ishlar qilib yurgani hushiga endigina birdan yetib borgandek edi. Kim buyurdi? Nima zarurat?

Vijdon yetaklasa, buyruqdan ham, zaruratdan ham kuchli bo'lar ekan. Topdi! Omadni qarang! Umida bunchalik ishim yurishar deb o'ylamagan edi. Endi uning matbuot anjumani yer yuziga shov-shuv bo'ladi. Juda soz!

Qo'rada ko'ringan odam haqiqatan ham o'sha Umayder edi. U darvoza oldida birovni ko'rib, uy soyasidagi duradgorlik dastgohidan bosh ko'tardi-da, shimiga ilashgan payrahalar ni qoqishtirib, bu tomon yurdi. Oyoq-qo'li uzun, bo'ydor, yag'rindor, yelkalari chiqqan, beso'naqay...

– Salom, kim kerak sizga? – dedi u.

Umida nariroqda to'xtab, jilmayib turdi: «Qaribdi. Ancha qarib qolibdi».

– Adash... – dedi sekin.

Umayder mehmonga boshdan-oyoq tikilib chiqdi, qulqlariga ishonmay, qoshini chimirib uzoq turdi. O'sha-o'sha, yonoqlari turtib chiqqan, dag'äl yuziga xotiralar birpasda dam xunuk soya soldi, dam chehrasini yoritdi. Beixtiyor shivirlab: «Hamshira!» – dedi u ham.

Umida dadil qo'l uzatib yaqinlashganida, u qo'pol qo'llari bilan ikki yelkasidan ushlab, bag'riga bosdi:

– Hamshira!

Uning quchog'iga Umidaga o'xshaganlardan beshtasi sig'ar edi. Hansirab, mehmonni kichkina yelkalaridan ushiab, yuziga tikildi-da, yana bag'riga bosdi. Sarg'ish kipriklari namlangan edi.

– Hamshira, hamshira... – derdi nuql. Bu so'z shuncha xotiralar bilan bog'liq bo'lgani uchunmi, bu sodda odamning yodida saqlanganigami, hozir Umidaga juda yoqimli eshitildi.

– Avgust!.. Men sizning ismingizni kechagina bildim.

Nega? Qanday qilib? Hozir bularni so'rash Avgustning xayoliga kelmasdi. U garang edi. Kutilmagan uchrashuv! Nima qilishnni, nimadan gap boshiashini bilmasdan, darrov maqtana boshiadi. Uyiga boshiab, hamma xonalarini ko'rsatdi, yillik daromadini tushuntirdi, xotini bilan tanishtirdi. Umayder, aftidan, ancha o'ziga to'q, xonalari disizroq bo'lsa ham, boy jihozlangan, ko'pirib turgan par yostiqlar, derazalarda ohorlangan oq to'r pardalar, katta toshoyna, burchakda zarhal ikona, duxoba divan suyanchig'i ustida bir-biridan kichik yettita marmar fil...

– Aytgandek, men nuql «hamshira, hamshira» deyapman nima deb atashni bilmaganimdan.

Xafa bo'lmang tag'in, ehtimol endi siz... – U Umidaning to'ladan kelgan qomatiga, sevinch to'la ko'zlariga yana tikildi.

– Ziyoni yo'q, shunday deb chaqiravering, – kului Umida. Keyin gapni chalg'itdi: – Axir olib-siz-da ustaxonani?

– Oldik. Mana, aytganimday, Gertruda bilan ikkalamiz teng sherikka, – dedi Avgust ancha hilvirab qolgan xotinining yelkasiga qo'l tashlab. Ikkovlari ham baxtiyor kulib turishardi. Gertruda yoshligida chiroyli bo'lgan bo'lsa kerag-u, hozir eridan qariroq ko'rinaridi. Erini kutib yolg'izlikda so'lgan boyaqish. Umida unga bir yaxshi so'z aytgisi keldi:

– O'sha yerda ham sizni ko'p gapirar edi Avgust, – dedi u ayolga qarab. Biroq sezdiki, «o'sha yerda» so'zi ikkalalariga ham yoqmadi...

– Qani, Gertruda, hamshirani mehmon qil! – dedi Avgust quvnoq tovush bilan. Xotini pildiraganacha chiqib ketdi.

Bular ikkovlari divanga o'tirib o'z ahvollari dan, bola-chaqalaridan, o'tgan umrlari, bosgan yo'llaridan uzoq gaplashishdi. Umidaning hikoyasi Kurt Bergerga kelib taqalganda, Avgust g'azablanib: «Obbo jallod-ey!» «Voy yirtqich-ey, tirik ekanmi-ya!» deb, ro'molchasi bllan terini artib o'tirdi. Gap matbuot anjumani, guvohlik berishga kelganda ham, cho'qmorday mushtumini tugib: «Qoyilman sizga, hamshira! Fosh qilib ada-blni berish kerak qotilning. Butun dunyoga sharmanda qilish kerak!» – deb ma'qulladi. Qizishib, tizzalariga shapatilab, o'rnidan turib ketdi.

– Qarang-a! Ilmga o'rmalabdi deng! O, yirtqich-ey! Oldingizga o'zi keldimi? Oyog'i kuyyapti-da, tipirchilab qolgan.

– Ha, Avgust, men butun voqeani ochib tashlayman, ertagayoq butun dunyo biladi. Lekin bu oson emas. Men unga matbuot anjumani chاقираман deb ochiq aytib qo'ydim. U ham hozir tinch yurmagan bo'lsa kerak. Chora ko'radi, ig'vo qiladi, muxbirlarni sotib oladi, o'zingiz bilasiz, hech qanday qabihlikdan qaytmaydigan odam. Ehtimol, u yolg'iz emasdир... Mening esa birdan-bir ishonchim – siz. Borib, matbuot anjumani vaqtida guvohlik berasiz, ya'ni, shunday-shunday voqealar haqiqatan ham bo'lgan edi, deb...

– Yo'q!!!

Bu Gertruda edi. Uning tovushi uzoq yig'lab to-mog'i qurigan odamnikiday xunuk xirillab, bo'g'iq yangradi. U qo'lida sanchqi, pichoq ushlagancha stol oldida baqrayib turardi.

– Yo'q, yo'q, yo'q! Avgust, hech qayoqqa bormaysan! – deb qichqirdi u.

– Frau Gertruda... – deb o'rnidan turdi Umida hayron bo'lib. – Frau Gertruda, axir...

– Yo'q dedimmi, yo'q! Hech qayoqqa bormaydi, bas! – deb Umidadan qo'rqqandek orqasiga ti-sarildi Gertruda. Uning oppoq, so'lg'in yuzlaridan yosh oqar edi.

Umida Avgustga o'girilib, unga savol nazari bilan tikildi. Daf'atan ishning bunday pachavasi chiqishini sira o'ylamagan edi, kalovlanib qoldi. Lekin ishning bu xotin aytgandek bo'llishini ko'z oldiga keltirolmасди.

– Gertruda... – dedi Avgust.

Xotini qaramadi.

– Asablari qattiq qaqshagan... – deb sersuyak yelkalarini qisib, xotini uchun juda o'ng'aysizlan-

gandek, uzr so'ray boshladi. Lekin shu payt Gertrudanining qattiq shang'llagan yig'i aralash g'a-zabli tovushi yana eshitildi:

– Kim qaqshatgan mening asablarimni? Kim? Qani ayt-chi, kim? Sen! Sen! Sen! O'sha siyosatingni deb...

– Men siyosatga aralashgan emasman.

– Aralashmaganmisan? Konslagerdan kim qoq suyak bo'lib qaytib keldi! O'sha siyosat tufayli emasmidi? Mana, tag'in bosh suqmoqchisan! Kim oyoqqa turg'izdi seni, unutdingmi? O'lsam o'lib bo'ldim-ku sening dastingdan... Endi uy-joyli bo'lib, jonim sal orom olganda... Yo'q, yo'q, toqatim qolmadi, tamom bo'ldim...

Uning yig'isi tinguncha jim turishdi. Keyin Umida yana Avgustga yalingandek qaradi.

– Avgust... adash...

Avgustning birdan bo'shashib, chetga qara-gancha bosh egib qolgani Umidani battar tahlikaga soldi: «Nahotki? Nahotki... Gap Gertrudanining o'zidagina emas shekilli...»

– Avgust, men sizga ishonaman. Frau Gertrudaga tushuntiring.

Avgust o'rnidan jilolmay, ikkilanib turganida yana xotinining achchiq tovushini eshitib, buk-chaydi.

– Gap tamom, xonim, biz bunday ishlarga aralashmaymiz! – derdi Gertruda nariroqda turib. Erining sal bo'shashganini ko'rib, u yana dadillangan edi, ovozi ham yangrab eshitildi. Umidanining yana Avgustga yalinishdan boshqa iloji yo'q edi.

– Buning hech qanday xavfi yo'q axir, sud emas, bor gapni aytib, tasdiqlasangiz bo'lgani, Avgust.

– Biz, hamshira, Gertruda bilan ikkalamiz ustaxona sotib olib, ro'zg'orimizni biroz yo'lga solib, bola-chaqamiz bilan endi shu kunga yetishgan edik...

– Qulay payt. Biz harakat qilmasak, kim qildi bu ishm? Minbarga chiqsa – indamasak, partiya tuzsa – indamasak... Yaqinda, o'sha yillardagidek, ko'cha to'latib marsh qila boshiashsa ham, yana deraza pardasini qiya ochib tomosha qilamizmi?..

– «U yillar...» «O'sha yillar...» Nahotki unutib bo'lmasa?! – deb dod soldi Gertruda.

– Avgust, siz mard odam edingiz-ku? Esingizdam...

– Yo'q, yo'q, esimizda yo'q! O'tib ketgan. Allaqa chongi gap! Avgust hech qayoqqa bormaydi, tushundingizmi, xonim! – Gertruda yana yig'lab kelib, erini yelkasidan quchoqladi, yosh boladek uning orqasiga pusib, yoshli ko'zlarini javdiratdi.

– Bizning bolalarimiz bor, hamshira, – dedi lat-taday bo'shashgan Avgust ham yolvorib.

– Mening ham... bolalarim bor.– dedi sekin Umida tovushi tovlanishidan qo'rqib. Jujuqlarini sog'ingan edi.

– Siz do'zaxni to'zg'itib qo'yib, bolalaringiz oldiga jo'naysiz-ketasiz, xonim, – dedi Gertruda. – Biz bo'lsak bu yerda bor-yo'g'imizdan ayrilib, yana...

– Keyin ular bizni qo'yishmaydi, hamshira...– Beso'naqay Umayderning yo'g'on tovushida ham yig'lamsirash ohangi bor edi. – Men sizdan qarzdorman albatta, men sizni hech qachon...

– Gap menda emas, Umayder, men sizdan qarz talab qilib kelganim yo'q. Bola-chaqalarimiz

tinch-omon katta bo'lishi uchun Bergerga o'xshaganlar tahlikaga tushishi kerak, agar ular o'zlarini bemalol sezishsa, o'sha yillarning yana takrorlanishi hech gap emas, frau Gertruda! Ko'rdingizmi, «o'sha yillar» ni men emas, Bergerlar eslatyapti... O'ylang, Avgust, bu juda muhim ish. Mardlik ishi. Shunday ish sizga bog'liq bo'lib turibdi.

– Yo'q, bu ish bitta Avgustga qarab qolgan emas, bitta Avgust nima qilardi? – dedi ayol Umayderning orqasida turib. Erini hozir birov tortib olib qo'yadigandek, uning ko'ylagiga yopishgan edi. – Biz hech qayoqqa bormaymiz, tamom! – U erini chimchiladi, biqiniga turtdi. Umayder ham boshini quyi solib, yelkasini qisdi:

– Biz... borolmaymiz, hamshira... afv etasiz. Umida eshikka o'girilib sovuq manglayini ushlandi.

Shuncha yugurib-yelishlaridan keyin ko'ziga avliyo ko'ringan bu odam birdan unga begona bo'lib qoldi.

Sekin eshikka qarab yurdi. Er-xotinning orqasidan tikiilib qolishganini sezib turibdi. Xotini balo-qazodan qutulgandek xursand, albatta. Ikona qarshisida yoshli ko'zlarini yiltillatib, shoshib-pishib cho'qinayotgan bo'lsa ham ajab emas. «O, mayn got!» Avgust-chi? Nima qilishini bilmay, vijdon azobida qoldi...

– Hamshira...

Mehmon bir umid bilan to'xtadi. To'xtadi-yu, orqasiga qayrilmadi, quloq soldi: nima der ekan, «Ertaga yetib boraman!» – deb qichqirsa-chi?

Ancha jimlikdan keyin Umayder uzrli tovush bilan dedi:

- Qahva tayyor edi-ku... Hamshira? Endi ko'rishmaymizmi?

- Bilmadim, Umayder... - dedi Umida. Yo'lida davom etdi. «Sizga bog'liq» deb qo'shib qo'ymoq-chi edi, indamadi. Umida hafsalasi pir bo'lib, bo'shashib ketayotgan bo'lsa ham, aslida ko'nglining bir chekkasida jindak ilinj qolgan edi: «Ertaga borib qolishi ham mumkin».

O'ziga nechog'li tasalli bermasin, nimadandir umidvor bo'lmasin, uning ahvoli og'ir edi. Endi tavakkal qilishdan bo'lak iloji yo'q. Chekinish mumkin emas. Simpozium qatnashchilari, qancha-qancha ollmlar undan izoh kutyapti. Muxbirlar har qadamda yo'lini to'sishadi. Agar indamasa, aqlbovar qilmaydigan ig'volarni to'qishlari mumkin. Eng muhimi, agar shunday qaytib ketaversa, bu noshudlik, zaiflik ifodasi bo'ladi, vijdon azobi bir dardga aylanadi. Umida o'zini biladi axir! Bemorlar yuziga boqqanida, qo'liga skalpel olgani-da, chirkin his qiynamaydimi?..

Mehmonxonada yotog'iga kirsa, stolda samolyot chiptasi turibdi. Bugunga, Moskvaga. Kimdir unga tez jo'nab ketishni taklif qilibdi.

Umida chiptani asta qo'liga olib, mayda-maya qilib yirtdi-da, o'rniga qo'ydi.

- Yo'q, ketmayman. Ishim bor, - deb yumshoq kursiga o'zini tashladi. Jilmaydi. O'zidan kimningdir qo'rqlishi zavq bag'ishlar edi...

Matbuot anjumani ertasiga, Umida turadigan eski mehmonxonaning birinchi qavatidagi doim huvillab yotadigan «Konferens-salon»da ochildi. Salon tor, almisoqdan qolgan eski divanlar, ikkinchi qavatga buralib chiqib ketuvchi, doim

g'irchillab turadigan yog'och zinalar ham liq to'la; labiga uzun mushtukli sigareta qo'ndirgan muxbir xonimlar tizzalarini ochib, derazalarga chiqib o'tirishgan: o'rtadagi uzun stol atrofida munkillab qolgan keksa, lekin sipo olimlar suhbatlashar edi. Ko'pni ko'rgan, qari, bachkana kiyangan, yosh, doim serharakat muxbirlar kinoapparatlarini moslab, yondaftarlarini varaqlab, ishchan qiyofada saqich chaynashar, bir-birlari bilan uzoqdan baqirib salomlashishar, sabrsizlik bilan alanglashar, sigaretalarini burqsitishar edi. Projektor yorug'ida hozirdanoq quyuq tutun suza boshladi.

Umida kirib kelganda, ko'p tilli g'ovur-g'uvur asta bosildi. Elchixonaning press-attashesi, dipomatlarga xos ixcham va sodda kiyangan yoshgina yigit, fotoapparatlar chiq-chiqi tugashini bir nafas kutib, anjumanni ochdi. Bayonot uchun o'zbek olimi, doktor Qoriyevaga so'z berildi.

– Xonimlar va janoblar! – dedi Umida yeb qo'ygudek bo'lib tikilgan ko'zlarga qarab. – O'pka kasalliklari bo'yicha xalqaro simpoziumda o'z ilmiy axborotimdan voz kechganimdan buyon juda ko'p matbuot vakillari buning sababini so'rab, menga murojaat qilishdi. Bu xatti-harakatimning sabablarini keng jamoatchilik bilishi zarur deb topganim uchun mazkur matbuot anjumanini chaqirib, siz muhtaram zotlarni bezovta qilishga jur'at etdim.

Umida ancha ravon, ortiqcha hayajonsiz so'zlay boshlaganini ta'kidlab qo'ydi ichida. U to'rdagi uzun, yaltiroq stol yonida yolg'iz o'zi tikkal turardi. Qora atlas ko'ylak ustidan kiygan

qora nimchasi to'lagina belini qisib turar, boshiga chambarak qilib turmaklangan yo'g'on qora sochl uni yana ham qoramag'izroq qilib ko'rsatar edi. Qo'lida ham, stolda ham hech qanday qog'oz yo'q. Shoshmasdan, yangroq nemis tilida so'zlar ekan, dastlab sal bezovtalangan osuda qorachiqlari salonning dam u yeriga, dam bu yeriga alanglab turdi. U qidirgan odamlar yo'q, na Berger, na Umayder. Ko'zlari yuqori zinalarni ham, yo'lakda tikka turganlarni ham oralab chlqdi. U Avgust-dan negadir hamon umidvor edi.

Vaqt yetib, Umida asosiy bayonotini ifodalashga kirishdi. Boshladi-yu, xuddi xotiralaridagidek, o'sha uzoq yillar ortida qolgan mash'um revierdagidek o'zini birdan yolg'iz sezdi. Tiriklayin tilkalangan o'sha odamlarning tanish yuzlari, o'lim oldidagi ingrashlari, so'niq g'azablari; oq xalat, qora etik kiygan «doktor»ning hissiz, sovuq ko'z qarashlari – hammasi ko'z o'ngida turibdi-yu, bular bari hozir ismsiz-jismsiz... Umida o'zi yolg'iz. Na guvohlar, na qurbanlar, na Bergerning o'zi...

Lekin bu yolg'izlik battar irod bag'ishlar, kuch berar edi. Zaldan yuziga qadalib turgan o'nlab foto-tele-kinoapparat obyekтивлари jonli ko'zdek tuyular, birontasidan hozir gumburlab o'q chiqib keta-digandek, Umida o'ziga o'qtalgan qurol halqumlari qarshisida qo'rqlay yolg'iz turgandek edi.

Bir payt nutqi davomida o'tirganlarni so'zlari- ga ishontirish uchun ortiqcha urinayotganini payqab qoldi. Buning keragi yo'q edi. Uning gapi mutlaqo xolis bayonot va bir olimning qat'iy vijdon noroziligidan iborat bo'lishi kerak.

Masalaning doktor Bergerga bog'liq ekanini ko'plar ilgaridan taxminlab bilgan bo'lsa ham,

bayonotning mohiyati ma'lum bo'lganda, salon ari uyasiday g'uvillay boshladi, yog'och zinalar og'ir g'irchilladi, ba'zi olg'irroq muxbirlar magnitofonlarini ochiq qoldirib, teletaypga yugurishdi. Bunday shov-shuvlarni ko'p ko'rib, pixi qayrilgallari bo'lsa, oyoqlarini chalishtirib, gavdalarini orqa-ga tashlab o'tirgancha, beparvo qulq solishar, har zamonda bir-birlariga xat yozib uzatishar, yuzlari-da g'azab ham, hayrat ham sezilmas edi.

– Sharmisorlik! Germaniyaga isnod! – degan tovush eshitildi orqadan. Uni kimdir tartibga chaqirib, tinchitib qo'ydi. Umida gapida davom etardi. U hech narsaga qaramay, deyarli osoyishta, bat afsil gapirdi, Kurt Bergerdek kishining fan dargohiga, ilmiy kafedralarga, klinikalarga oyoq bosishiga qat'iy norozilik bildirib, barcha vijdonli olimlarni bu bayonotni qo'llab-quvvatlashga chaqirdi, eng insonparvar fan bo'lgan tibbiyotning pokligini, oliyjanob an'analarini, uning ulug' insonparvar daholari hurmatini, olimlik sharafini himoya qilishga da'vat etdi.

Endi uning tovushi yana ham tiniq, dadil, yangroq edi.

Shundan keyin savol-javoblar, anjumanning eng og'ir, asabiy qismi boshlandi. U zo'r shovqin-suron bilan, go'yo hamma derazalardan, eshiklardan, yo'laklardan kirib kelgandek bo'ldi. Hamma oyoqqa turib ketgan edi.

So'z oluvchilar savolidan oldin o'z gazetasi yoki o'z radio-televide niye kompaniyasining nomi yozilgan lavhani baland ko'tarib ko'rsatar, yoki umi qichqirib e'lon qilar, savol e'tiborga loyiq bo'lmasa, o'zidan-o'zi shovqin ichida ko'milib qolaverar edi.

– Doktor, ayting-chi, Bergerning o'sha paytdagi operatsiyalarida siz hamshira sifatida bevosita qatnashganmisiz, yoki operatsiyalar jarayonini o'z ko'zingiz bilan ko'rganmisiz?

Bu savol o'ziga yo'l ochib, zalda tinchlik o'rnatdi.

– Yo'q, – dedi Umida jimjit zal o'rtasiga qarab.

– Mening vazifamga palatani ozoda tutish, bemorlarga qarash, ularni operatsiyaga tayyorlash singari yumushiar kirar edi. Men palata hamshiraligiga tayinlangan asira edim, xolos. – U bila-gini ochib konslagerdag'i asirlik raqamini ko'rsatdi. Fotoapparatlar chiqilladi. Umida g'ijinib o'zini projektor yorug'idan chetga oldi. Odamning yuzini qadoq qilib yuborishadi bular, Umida umri bo'yи ham muncha ko'p suratga tushmagan edi.

– Sizning ilmiy axborotingiz bilan qayerda, qachon tanishish mumkin? Simpozium to'plamlarida chiqadimi?

– Agar u to'plamlarga Kurt Bergerning axboroti kirsa, chiqmaydi, – dedi Umida.

– Chiqmaydi! Asli bormi o'zi? – degan xushchaqchaq tovush eshitildi.

Zinapoya tagidagi jimjimador eski divanda uch yigit saqich chaynab o'tirardi. Bu ovoz o'shalar-dan biriniki. Ular uchalasi ham bashang kiyinib, ko'krak cho'ntagidan oq ro'molchalari chiqib tur-gan, sochiarini moylab silliq taragan yosh jentel-menlar, hech narsa yozmay-chizmay halidan beri quvnoq gaplashib o'tirishibdi.

Hamma ovoz chiqqan tomonga qayrilib qaradi-yu, jimlik o'rnashmadı. Faqat, sochlari to'kil-gan keksa fransuz o'rnidan turganda zal tinchidi.

– Madam, – dedi salmoqlab qari muxbir, ko'zoynagini hafsala bilan artarkan. U ruscha

so'zlardi: – Siz tarixni ancha ishonarli qilib gapirdingiz. Lekin biz istardikki... ya'ni, bu voqealarning guvohlari bilan qachon va qayerda uchrasha olamiz?

Umida bu savolni kutgan edi. Uning javobini necha kundan beri o'ylayotgan bolsa ham, topolgan yo'q, tayyor emas.

– Guvohlar yo'q... – dedi u zalga birinchi marta xavotir bilan qarab. Nemischa javob berardi. Zal asta g'uvillay boshladi. – Tushunib turibsizki, guvohlar hammasi halok bo'lgan, janoblar. Shuning uchun, mana men guvohlik beryapman. – Guvillash orta bordi, Umida terlab ketdi: hushtak chalishmasa bo'lgani. Eh, Avgust Umayder... Shu zumda bir ko'rinish qo'ysang nimang ketardi! Yurak o'z joningni saqlash uchungina ekan-da?!

– Qiziq-qiziq xotiralaringizni hikoya qilib bermoqchl ekansiz, bizni tinch qo'yib, bola-baqrani to'plasangiz bo'lmasmidi, xonim? – deb qichqirdi haligi uch oliftaning yana biri. Bu savol javob talab qilmasdi, shuning uchun g'ovur-g'uvur yana kuchaydi – bu baqiriqni kim ma'qullamoqda, kim qoralamoqda – bilish mahol edi. Qulog'i bitgan Umida boshlar ustida suzgan quyuq tutunga tikilib turib, na o'z qadrini, na o'lik-tirikning hurmatini biladigan bu bebosha to'daga nisbatan bir parvosizlik, befarqlik sezaga boshladi.

Bir ingichka, novcha xotin inglizchalab qichqirdi. Uning gapini Umidaga tarjima qilishdi:

– Qoriyeva xonim, bir daqiqa faraz qilaylikki, o'sha qurbanlar, o'sha tajriba jarayonida o'lgan odamlar mutlaqo bo'lмаган deylik. O'shanda siz doktor Berger kashfiyotining fan uchun ahamiyatini tan olarmidингиз?

– Yo‘q, men buni faraz qilolmayman, miss. Yarim daqiqa ham faraz qilolmayman! Chunki hayvon o‘rnida tajriba stolida o‘ldirilgan o‘scha o‘nlab odamlar mening ko‘z o‘ngimda turibdi. Ular biron daqiqa va bir umr mening ko‘z o‘ngimdan ketmaydi... Men shifokorman, odamlarni o‘ldirish uchun emas, ularni o‘limdan saqlash uchun yashayman.

Zal tinch edi.

– Bizningcha, siz ko‘proq tashviqotchisiz!

Bu qichqiriq jimjit zal tepasida muallaq qoldi.

Hech kim indamadi. Haligi silliq sochli jentelmenlar tomonga hech kim qaramadi ham. Ovozning o‘shalardan chiqqanligini hamma bilardi. Bu o‘ng‘aysiz jimlik uzoqroq cho‘zildi. Buni o‘zlariga e’tibor deb bilgan haligi uchovidan biri, keksarog‘i o‘rnidan turdi.

– Madam, siz doktor Bergerga qarshi hech qanday isbot yoki guvoh ko‘rsatmadingiz, – dedi u beparvo tebranib qo‘lida kalitmi, qalammi – bir zanjirli narsani aylantirib o‘ynarkan. – Xo‘p, mayli. O‘zingizning ilmiy axborotingizni ham e’lon qilmadingiz. Endi umuman fanga aloqangiz borligiga ham hech qanday isbotsiz ishonaveramizmi?

Zal bir to‘lg‘anib, jimjit bo‘lib qoldi. Qog‘oz shitirlagani ham eshitilmas edi. Umida bu keksa oliftani qayerdadir ko‘rganga o‘xshaydi-yu, hozir bu haqda o‘ylashning payti emas edi.

– Javob beraman, ser, – dedi u. – Janoblar, siz, uchalangiz ham, – u zina tagida oyoq chalishtirib o‘tirgan haligi silliq sochli jentelmenlarni ko‘rsatdi, – siz uchalangiz ham Kurt Berger a’zo bo‘lgan partiyaga mansub ekanligingiz ayon bo‘ldi. Men

sizga hech qanday isbot keltirmayman. Sizga isbot kor qilmasligini tarix yaxshi biladi. Yuridik jihatdan sizning partiyangiz bilan biz hali ham urush holatidamiz. Biz fashizm bilan hech qachon yarashgan emasmiz!

Avval kimlardir qarsak chaldi, keyin zal portlagandek birdan guvillab, hech narsa eshitilmay qoldi. Birovlar qalam-qog'ozni yig'ishtirib yugurgancha to'dani yorib chiqib ketdi. Kimdir kursi ustiga chiqib qichqirib so'z so'rар, boshqasi so'z olmasdanoq kimnidir baqirib so'kar edi. Suhbatni davom ettirishning imkonи qolmadi. Press-attashe Umidaning imosi bilan mikrofonga bo'yini cho'zib, bir nimalar dedi, bayonotning xolis yoritilishiga umid bildirdi-da, anjumanni yopdi.

Umida yotog'ida yolg'iz qolgandan keyin asabini bosib olish uchun shoshib u yoqdan bu yoqqa yurarkan, salondagi boyagi suron miyasida hamon g'uvillayotgandek edi. Biroq asabi bosilmadi, qaytaga battar bo'lib, nafasi tiqilib, havo yetishmay qoldi. Tamaki tutuni singgan nimchasini yechib tashladi. Nima bo'ldi o'zi? O'ylagan gaplarining hammasini aytdi-ku? Ko'nglini bo'shatdi. Vijdoni oldida musaffo bo'lib oldi. Yengil tortishi kerak edi. Lekin orom topolmayapti.

Yo biron fikrini tushuntirolmadimi? Ortiqcha so'z qotdimi? Yo'q. Hammasi haqqoniy, puxta, tiniq. Ortiq chirangani ham yo'q, xotirjam, osoyishta gapirdi. Ammo nimagadir qoniqish yo'q, ko'ngli xijil, bezovta.

Nazarida u asosiy maqsadga erisholmadi, uning samimiyatini anglamadilar. Ularga isbot

kerak, guvoh kerak. Oddiy hisning, yurak nolasi-ning bunda qadri yo'q.

Qiziq, Berger qayerda? Nima qilyapti? Uning bu-gungi gaplarini eshitmagan bo'lishi mumkin emas. U ahvolini Umidadan yashiryapti. Istehzoli kulib, may ichib o'tirganmikan yoki talvasadamikan?

Har holda, ertaga bir shov-shuv boladi. Yo uning foydasiga, yo...

Umida derazani ochib yubordi. Yomg'ir hidi keldi. Bir haftadan beri yog'olmay, uzoqda bo'g'iq momaqaldiroq yumalardi. Umida namiqqan yo-qalarini bo'shatdi. Qop-qora derazaga boqarkan, hatto ko'zlarini qisdi: tun qorong'isi shu qadar quyuq, tubsiz edi. Havo bo'lsa shunday ziq, dim, elektrlanganki, gugurt chaqsang, portlab keta-diganday. Yurakni ezadigan jimlik chakkalarini og'ritdi. Endi bu qorong'i jimlik va dimlikka bardoshi tugadi deganda, qayerdandir, tun qa'ridan, qizigan temirdek oppoq chaqmoq otilib, yovvoyi kuchini qayoqqa qo'yishni bilmagandek, shunaqa gumburladiki, ko'k gumbazi chaqnab, yer titrab ketdi. Umida yerga botib turgan og'ir qizil g'isht binolarning qog'oz o'ynichoqdek silkinib ketgani-ni butun vujudi bilan sezdi. O'lik chaqin tomlar-ni, tomlardagi nayzalarni, daraxtlarni, shoxlarda ilinib turgan har bir bargni bir zum yoritib, keyin yer-u ko'kni ko'r qildi-ko'ydi.

Umida chiroq yoqishga qo'rqli, devorlarni ush-lab borib, kresloni topdi.

Bir nafasdan keyin shovillab yomg'ir quydi. Bir haftadan beri yog'olmay havoni dimiqtirib turgan bulutlar nurab to'kilmoxda edi. Umida bir me'yorda shovillagan kuz yomg'irining sarin

salqinidan sal orom topgandek bo'ldi, bo'shashib kresloga cho'kdi. Xona qorong'i edi.

U bugun ham o'tirib tong ottiradi shekilli, a'zoyi badani majaqlangandek, tamom toliqqan bo'lса ham, uyqudan darak yo'q edi. Stolda maydalab yirtilgan chipta yotibdi. Yuragi uvushdi. Birdan bolalarini qo'msab, uyiga qaytgisi kelib ketdi...

Kurt Berger baribir fosh etilmay qoldi. U hamon qomati tik, dadil yuraveradi, o'zidan mammun, sal jilmayib ta'zimlarga bosh egib qo'yadi, oq xalat kiyib, klinikalarga kiradi, minbarlarga chiqadi. Atoqli olim qiyofasida auditoriyalarni og'ziga qaratadi.

U shuning uchun odam o'dirgan, soppasog' odamlarni... ko'ksini yorib, oylar davomida o'pkasini qiymalab, asta-sekin o'dirgan. Yash-nab turgan navqiron hayotning kunlab, soatlab so'mishi, murdaga aylanishi necha martalab uningsovuuq nazaridan o'tgan. Yillar davomida...

Kimlardir tirik vujudni, miya faoliyatini butun ilohiy qudrati bilan kibernetik modelda takrorlashga urinadi. Kimlardir moddaning tiganmas sirlariga, samoviy odamlarning sehrlarini fosh etishga intiladi. Hammasi inson uchun, uning qudrati, sharofati bilan; ayni paytda kimlardadir milliard yillar ilgarigi ibridoiy yirtqichlik instinktlari hali tirik...

Yaqinda televizorda bir toshni, uning soyasini ko'rsatishdi, balki ertaga uni muzeyga qo'yarmiz. Oy toshi... Bizdan million-million nur yillari uzoqligidagi tumanliklarning kimyoviy tarkibi aniq. Ammo inson bilan hayvonning chegarasi qayerda – biz buni hali bilmaymiz.

Chindan ham insonlikning chegarasi qayerda? Mukammal, oliyjanob insoniy poklikdan hali shunchalik uzoqmizmi? Yoki hamma odamlar ham inson emasmi? Nega bo'lmasa qonunlar bir, huquqlar bir, unvonlar bir?..

Bir yepiskop shunday degan edi: «Hayvoniy instinktlar insonga tahdid sololmaydi. Inson hayvonlik bosqichidan allaqachon o'tib ketgan. Endi unga iblislik tahdid solishi mumkin, xolos».

Ajabo! Iblislik. Qanaqa iblis? «Sariq iblis»mi?

Umidaning xayolida zamonlar, tushunchalar qorishib ketdi. O'ngi bilan tushi ham, kun bilan tun ham qorishib ketdi. Bir vaqt ko'zini ochib qaraşa, derazalar yorug'. Yomg'ir tinib, havo yorishdimi yoki tun o'tib, tong ottidimi?

Eshik taqilladi. Junjikib qolgan Umida kresloden shoshib turib, u yoq bu yog'ini tuzatdi.

– Kiring.

– O, frau doktor! Qanday ko'ngilsizlik! Qanday ko'ngilsizlik! – Xonaga Bertaning o'zidan avval ovozi kirdi: – Qarang-a, shunday jentelmenni o'ldirishibdi! Qanday xushbichim edi, qanday xushmuoma-la... – U yig'lagudek bo'lib bir dasta gazetani stolga qo'ydi. Qahvani doktorning qo'liga berdi.

Umida gazetadagi suratga ko'z tashladi: qayoq-dagi ko'rimsiz, oriq, sal shishinqiragan ko'zları ichiga cho'kib ketgan, shiyapasi g'ijim bir odam edi. Nimasi xushbichim buning? Berta tanisa kerak-da. Har kimning o'z dunyosi, o'z hasrati...

Bir mahal Umidaning qo'lidagi likopcha bilan kichkina qulqollik idish tebranib zirillay boshla-di, qahva to'kilib ketdi, yaxshiki, Berta vaqtida qo'lidan oldi, bo'lmasa tushib sinardi. Umida ikki

qo'llab gazetani yozib ushlagancha kursiga o'tirib qoldi. U shoshib qolgan, hali quvonishini ham, quvonmasligini ham bilmas edi. Haligi suratning tepasidagi to'rt ustunga kechagi matbuot anjumanining hisoboti bosilibdi. To'laligicha. Savollar, javoblar, qarsaklar, shov-shuvlar hammasi! Qanday bo'lgan bo'lsa – shunday. Ikki joyda Umidaning gapirib turgan surati ham bor.

Umida shoshib ko'z yogurtirdi, ha, hammasi qanday bo'lsa, shundayligicha bosilibdi. Xolis. Gazeta o'zidan hech narsa qo'shmagan. Nechuk bunday bo'ldi? Bu yerning gazetalari unday qilmas edi-ku? Bu yaxshimi, yomonmi?

Umida yana ko'z yogurtirib, o'z javoblarini o'qiy boshladi. Yonida Berta bir qo'lida qahva ushlagancha hamon zorlanar edi.

– Juda ko'nglim bo'sh, frau... o'lay agar, yig'lab yubordim. U jentelmenni bir martagina ko'rghan bo'lsam ham, shundoq ko'z oldimda turibdi. Juda achinarli voqeа yuz berdi-da...

Umida unga qayrilib qaradi. Bertaning sepkilli yuzi qizarib ketgan edi.

– O'ldirib ketishibdi...

– Kimni? – deb so'radi Umida.

– Voy, o'qimadingizmi, frau... Mana, axir, mana, – deb Berta yonoq suyaklari chiqib turgan haligi oriq odamning suratini turtib-turtib ko'rsatdi. – O'sha kuni sizning yoningizga kelgan jentelmenchi! O'qing! O, qanday achinarli voqeа, doktor!

Umida hech narsani tushunmadi. Lekin yuragi «shuv» etib ketganini sezdi. Gazetaning qayeriga qarashni bilmay, sarlavhalarni o'qidi. Nima deyapti bu ayol? «O'sha kuni kelgan jentelman?»

Kim kelgan edi? Berger? Ha, Bergerdan boshqa hech kim kelgani yo'q...

– Men yo'g'imda kelibmidi?

– Yo'-o'-o'-q, axir! Kelib siz bilan suhbatlashib o'tirdi-ku? Xushbichim, xushmuomala...

– U Berger edi, Kurt Berger! – dedi Umida negadir zarda bilan

– Ha-ha! O'sha, axir! O'sha odamni aptyapman, frau doktor...

– Berger? Uni kim o'ldiradi? Qachon? Nega?

Umidaning xayoliga bir fikr chaqmoqdek urildi: «Umayder! Nahotki...»

Ko'zlariga ishonmagandek, yana suratga tikildi. Yo'q, bu boshqa odam edi. Umida uni hech qachon ko'rмаган.

Uff, nima balo bo'lyapti o'zi! Umida ikki qo'llini yuziga bosganicha bir zum o'tirib qoldi. So'ng yana gazetaga tikildi. Ko'zi birdan surat tepasidagi sarlavhaga tushdi: «Allo, politsiyami? Darrov yetib keling. Men odam o'ldirdim!» Qora, yirik harflarni yana bir ko'zdan kechirdi. Keyin xabarni o'qiy boshladi: Uning cho'g'laniб turgan ko'mirdek qorachiqlari gazetani yondirgudek edi.

Bugun kechasi soat ikkilarda noma'lum bir odam doktor Bergerni o'z ish xonasida otib o'ldiribdi. Qotil o'sha yerning o'zidayoq politsiyani chaqirib, o'zini qonun ixtiyoriga topshiribdi. Xabarda voqeа butun tafsilotlari bilan bayon etilgan edi, suratdagи – o'sha noma'lum odam ekan.

Umida uning kirtaygan umidsiz ko'zlariga qarab, o'rnidan turib ketdi. Bunday ko'zlar... bunday ayanchli ko'zlarni u faqat konslagerdagina ko'rgan. Bu, shubhasiz, Bergerning qurbanlariдан бiri. Lekin u qayoqdan chiqdi?

Umida shoshib kelib, yana gazetani qo'liga oldi.

Haligi xabardan pastroqda «Qotil bilan intervju» bosilgan edi. Qotil unda o'z nomini, tug'ilgan joyini aytadi. Bir vaqtlar juda baquvvat sportchi yigit bo'lgan ekan. Urush yillari, o'n to'qqiz yoshida gestapo qamoqxonasidan Berger klinikasiga ko'chirilibdi, bir necha operatsiya davomida bitta o'pkasi batamom olib tashlanibdi. Endi ikkinchi o'pkasini ham operatsiya qilishga tayyorlab yurishganda bombardimon bo'lib qolib, qochibdi. O'shandan buyon bir o'pka bilan yashab kelayotgan ekan. O'shandan beri umri to'shakda o'tibdi, o'shandan beri havoga, odamlar kecha-yu kunduz shimirib yurgan oddiy havoga zor bo'lib yashabdi. Bergerni ko'rmasdan o'lmaslikka qasd qilgan ekan. Kecha to'satdan radioda uni gapirib qolganlarida, so'nggi darmonini yig'ib to'shakdan turibdi, uyini topib kelibdi. Uchratibdi. «Bu yog'ini o'zlarингiz bilasizlar. Men shuning uchungina jon saqlab kelgan edim, endi... endi mana, qamanglar meni...» – debdi qotil.

Sahifaning eng pastida politsiya boshqarmasi xabar berar edi: qotilni qamoqqa olishga qonun yo'l qo'ymaydi. Shifokorlarning xulosasiga qara-ganda, uning bir oylikkina umri qolgan...

O'sha za'faron yuzli, qoq suyak odam, xuddi narigi dunyoning darchasidan mo'ralagandek hali-hali Umidaning ko'z oldidan ketmasdi.

– Men uning o'n to'qqiz yoshlik navqiron chog'ini sira-sira ko'z oldimga keltirolmayman, – dedi Umida bir nuqtaga tikilib.

– Bir oy bo'lsa... hozir u...
 – Endi u yo'q, Azimjon, – dedi Umida. O'ychanlik bilan qo'shib qo'ydi. – Bir o'pkali qasoskor. Mening guvohim...

– Har narsa o'z vaqtida bo'lib o'tgani yaxshi, bolam. Yana bir oy kechikkaningda shu so'nggi guvohmi ham topolmas eding.

– So'nggi guvohmikan, dada?

Ochil buva uvushgan tizzalarini uqalab, o'rnidan turdi. Piyolalarda choy sovib qolgan edi. Lim-lim oftob to'la xonalar jumjut, faqat qaysi bir darparda orqasida qamalib qolgan qovoqarigina tinmay vizillar edi.

Chetraqda o'tirgan Azimjon og'ir xotiralardan keyin chuqur o'ya tolgan bu ajoyib xolasiga tasalli bergisi keldi:

– Hech xafa bo'ladigan joyingiz yo'q ekan, Umida opa. Avvalo, uni siz o'ldiribsizmi? Qasosli dunyo qaytadi. Xo'sh... u yashab yuraversa-yu, siz shundoq qaytib kelganiningizda, ko'nglingiz battar notinch bo'lardi.

– To'g'ri aytasiz, Azimjon. Lekin o'sha yerdan qaytganimdan beri, bir noplak narsani bosib olgan odamday dilim g'ash.

– Mening ham... – dedi Ochil buva belini ushlagancha gilamda paypoqchan yurarkan, – mening ham ko'nglim xira tortdi, bolam. Endi sening uyingdan asablarimiz qittak orom olib, ko'nglimiz ravshan tortib ketarmiz desam... bo'lmadi.

– Bilasizmi, dada, borib-borib odamming axloq boyligi yetmay qolmasmikan – men nuqlu shuni o'ylaydigan bo'lib qoldim. Odam yadro ichidagi dahshatli kuchlarni ozod qilyapti, bu bilan u

o'zi ham jismoniy jihatdan yuz marta, ming mar-ta kuchliroq bo'ladi. Bu qudratni o'ziga qarshi qaratmaslik uchun axloqiy kuchi yetarmikan? Axlo-qiy irodani yadrodan olib bo'lmaydi, fandan olib bo'lmaydi, qayerdan oladi?.. Bobo-nabira tushundilarmi, tushunmay jim qoldimi, Umida ularga tikilib javob kutardi. To'g'rirog'i, u o'zidan kutardi javobni. Ammo ancha jimlikdan keyin Ochil buva uning ro'parasiga kelib, serbo'g'in, titroq barmoqlari bilan qizining peshana sochini siladi.

– Qayerdan oladi deysanmi?.. Bizdan oladi. Bizning turmushimizdan, bizning ishiarimizdan, bizning odamlarimizdan. Mana sendan oladi, qizim.

Umida keksa otasining ko'zlariga qarab turib charaqlab ketdi. Boboning gapi Azimjonga ham juda ma'qul bo'lgan edi, ajoyib xolasi haqida uning ham ko'nglida shunday yaxshi bir gap bor edi-yu, aytolmay turgan edi. Hozir Umidaning yana kechagidek chiroyli bo'lib ketgamini ko'rib, undan ko'zini uzolmay qoldi.

Ular samolyotda tishlari uzoqdan yaraqlab turadigan bir muxbir yigit bilan yonma-yon o'tirib qolishdi.

– Cho'nga denglar? Juda soz bo'ldi-da, gapshib ketamiz! – dedi yigit chaqqongina o'rnidan turib bularning narsalarini joylashga yordam-lasharkan. U juda sergap edi, samolyot havoga ko'tarilguncha shang'illab quloqlarini bitirdi.

– Yo'ldosh akamikiga deng? – hamon gapdan tinmasdi muxbir, – u kishi o'zimizning akamiz-ku! Kechirasiz, siz Ochil buvasiz-a, men sizni tанимабман. Eshitgan edim-u, ko'rgan emasdим.

Eshik tepasidagi tablo o'chishi bilan yigit sigaretta tutatdi. Uning jag'i sira tinmasdi, dam gapirar, dam o'qir, nimanidir titar, ko'pincha esa bir yo'la ham gapirar, ham nimanidir o'qir edi.

– Yo'ldosh akani bu yil deputat qilib sayladik, xabaringiz bordir, u kishi kombinatga direktor-ku hozir, – dedi muxbir eski jurnalni varaqlay turib.

Ochil buva jiyanining mansablaridan bexabar, lekin uning cho'lda obro'li odam ekanligini bilar edi.

– Yo'ldosh kam bo'lmaydi, bilaman. Bobosiga tortgan, – dedi Ochil buva gavdasini orqaga tashlab o'tirib. – Bobosi Abdulahad duma ko'p bilimdon, ailoma odam edi, rahmatlik.

– O'sha zamonda-ya, buva? U zamonlarda bir foiz ham savodxon bo'lмаган deyishadi-ku? – dedi bobosining irg'ay tayog'ini etagida ushlab o'tirgan Azimjon. – Sizning aytishingizcha, Komilaning dasasi ham, Yo'ldosh akamning bobolari ham...

– O'tmishni yoppasiga zulmat qilib ko'rsatadi-ganlarni yomon ko'raman, – dedi Ochil buva so-qolini silab. Bu uning shu topda gapga, suhbatga moyilligini bildirardi.

– «Nomi yo'q, qashshoq, gado...» deng? – kinoya qilib qo'ydi muxbir.

– O'zbek hech mahal gado bo'lgan emas, – dedi buva. – Ota-buvamiz yog' ichib, yalang'och yot-magan albatta. Noni bo'lmasa bo'lмагандир, lekm ko'ngil qashshoqligi unga begona edi...

– Menga qarang, aka, – dedi yigit Azimjonga qarab, – siz nima, oydan tushganmisiz? Shundoq bo'lsa ham, hazrat Navoiyni bilsangiz kerak hoy-na-hoy. Ulug'bekning Ptolomey bilan yonma-yon

turgan suratini ko'rganmisiz? Beruniy «Iliada»ni yunon tilida o'qigan men sizga aytasam. Sanskritdan arabchaga tarjima qilgan. Al-Farg'oniy Bag'dod akademiyasining akademigi edi. Uni Dante «Illohiy komediya»da tilga oladi. Mashrabning o'zini oling! Jasorati, taqdiri jihatidan, o'sha davr sharq sharoitida Jordano Brunodan nima farqi bor? Al-Xorazmiyning... – yigit ancha bilimdon chiqib qoldi, u shaloladay toshib gapirarkan, gapping ko'piga tushunmagan Azimjon angrayib qoldi. Ochil buva bo'lsa tarixga tomir otgan o'z ajdodlarini o'ylar edi: kimdir Buxorodan Ivan Grozniyga amirning elchisi bo'lib ketayotganda Volgada g'arq bo'lgan, kimdir «Pravda»ning birinchi sonini Orol baliqchilariga yetkazgan, kimdir Petr I ning Turon ekspeditsiyasida qatnashgan, kimdir Zavqiy bilan birga zindonda o'lib ketgan... Eh-he!!!

– Hammasini ham qo'yinglar-u, mana shu o'zimning akam – Abdulahad dumani gapirib beray sizlarga, – dedi Ochil buva. Irg'ay tayog'ini olib tayandi...

HIKOYAT

Sentyabrning oxirgi kunlari.

Ekin-tikin yig'ishtirilib, dalalar ship-shiydam bo'lib qolgan, faqat o'tloqlardagina pichan g'a-ramlari kuzak yomg'iridan qorayib, yakkam-duk-kam qaqqayib turibdi; siyraklashib, ichkarilari ko'rinish qolgan o'rmonlar kamalakdek tovlansi. Avval eng yorqin ranglar, kumush tanli qayinlar, hanuz yam-yashil qarag'ay, o'tdek yonib turgan arg'uvon, oltin barglari tinmay pildirab

uchib tushayotgan eman, teraklar ko'zga tashlanadi. Qirmizi quvoqzor etaklarida buralib ketgan so'qmoq yo'llarda qo'ziqorin hidi keladi. Endigina qazilgan kartoshka, lavlagi paykallarida bulut soyasi kezib yuribdi, u zax jarliklardan hatlab o'tib, uzoqda yaltirab ko'ringan graf qo'rasining oq imoratlari tomon o'rmalaydi.

So'qmoqda, archaning o'tgan yili to'kilgan xushbo'y ignalarini yumshoqqina bosib, qo'lini orqasiga qilgancha kelayotgan odam kuzak o'lanlarining talx hididan tabiatи ochilib, atrofga suqlanib boqar, yo'l bo'yidagi milashning qip-qizil shodalariga qo'l uzatib, bir-ikkita achchiq donasini og'ziga solarkan, yuzlarini burushtirib, lablarini chapillatib qo'yar edi. Qora movut mursak ustidan qo'sh belbog' bog'lab, ustidan olacha choppo kiygan, bir tutamgina qora soqolli qotma yuzini oppoq sallasi ochib turgan bu kimsa bu yerlarda begonadek ko'rinishi mumkin edi. Shu vajdan bo'lsa kerak, uzoqdan ko'ringan otliqning ko'ziga chalingisi kelmay, keksa emanzorga burildi.

Lekin bu yerlarda nima ko'p – buralib kelib bir-biri bilan qayta-qayta tutashib ketaveradi-gan yolg'izoyoq yo'llar ko'p. Nariroqqa borib otliq yana ro'baro'sidan chiqib qoldi. Bu yo'llar otga o'rganish bo'lib qolgan ekanmi, ang'iz bo'ylab tikkaka kelaverdi. Boshoq terib yurgan bolalar ham, o'tkinchi mujiklar ham uni ko'rishiari bilan boshlaridan qalpoqlarini olishar, egilib ta'zim qilishar edi. Yaqiniga kelib qolganida musofir ham o'zini chetga olishni ep ko'rmay, qo'lini ko'ksida qovushtirdi. Otliq bu yoqlar uchun begona odamni ko'rib tikilib qoldi.

Otliq oppoq soqoli ko'ksiga tushgan keksa odam bo'lsa ham, ot ustida qomatini tilk tutib turar edi. U pastakkina otdan yengil sakrab tushdi. Shunda musofir xuddi Xizrga duch kelib qolgan-dek, bu bukchaygan, kichkinagina qariya oldida o'zini yo'qotib qo'ydi. Oyog'ida eski mahsi, boshida, tuya junidan bo'lsa kerak, yumshoq qalpoq, yelkasiga katta tivist ro'molni ikki buklab tashlab olgan, quloqlari katta, burni sergo'sht, oppoq baroq qoshlari ko'zlarini bosib tushgan bu odam uni ilgaridan taniydigandek, u tomon yurdi. Musofir ham payqadiki, yo avliyo, yo bir buyuk siymoga duch keldi, chunki podshoh oliv hazratlari-ga ro'para bo'lganida ham, uni bu qadar salobat bosmagan edi.

– Salom alaykum, – dedi qariya qo'lini uzatib. Qo'li katta, sertomir, issiq edi, – graf Tolstoy Lev Nikolayevich.

Uzoqdan yaxshi ko'rmas ekan shekilli, u musofirga yana boshdan-oyoq razm soldi. Keng manglayidagi, qonsiz yuzidagi dag'al ajinlari yana ham chuqurlashdi, paxmoq qoshlari ostida shiddatli ko'zlar po'latdek yiltilladi.

– Men Abdulahad qori degan kimsaman... – dedi musofir hayajondan tili bazo'r aylanib. U buyuk adib haqida ko'p eshitgan, uning mulki shu atrofda ekanini bilar, ba'zi hikoya va ertaklarini o'qigan ham edi.

– Siz turkmisiz yoki eronlik?

– Men Turkistondanman, taqsir, o'zbekman.

– O, ajab qiziq. Qani, o'tiraylik-chi. – Tolstoy keksa emanlar orasidan o'tib, ikki-uch to'ngak qaqqayib turgan sarg'ish pichanzorga boshladи.

U uzilmay so'lgan bu kuzgi moychechaklar orasi-da tez-tez dam olsa kerak, to'ngaklar silliqlanib, yiltillab ketgan edi.

Lev Nikolayevich avval indamay, anchagacha nafasini rostladi. Mulla Abdulahad ham o'zini o'nglab, bu buyuk odam yoniga dadilgina kelib o'tirdi.

– Sihat-salomatligingiz durustmi, muhtaram Lev Nikolayevich?

– Yaxshi. Yaxshi. O'limga har dam yaqinman. Bu ham yaxshi. «Katta ma'raka»ning ham mavridi yetdi axir... – Uning tovushi yo'g'on, xotirjam. Gapirganida tishsiz jag'i bilan birga keng, sergo'sht burni ham qimirlar edi.

– Otingiz esli ekan, – dedi mulla Abdulahad, cholni shafqatsiz, xunuk gaplaridan chalg'itmoq-chi bo'lib. – Qo'ygan joyingizda turdi-qoldi-ya, jonivor.

Yollari uzun-uzun pastakkina bo'z biya chindan ham to'xtagan joyida qimir etmay turar, har zamonda paxmoq dumini silkib qo'yar edi. Tolstoyning ko'zlari jonlanib, yuziga muloyim tabassum yoyildi.

– Delir... Fe'li odamlarnikiga o'xshaydi. Sehrlangan shahzoda shu bo'lmasa, deb o'ylab qo'yaman goho... «Ming bir kecha»dan, yodingizdam?

– Ha, – dedi mulla Abdulahad, uning so'zida va ko'zida jonlanish paydo bo'lganidan quvonib. Graf, haqiqatan ham, birdan joniandi:

– Qayoqlardan so'raymiz, mulla, nechuk bu tomonlardasiz?

Mulla Abdulahad qariyaning ko'zlaridan payqadiki, u bilan gaplashganda hamma gapni ochiq

aytish, o'z vijdoning bilan gaplashgandek samiyyi bo'lish kerak. Aks holda baribir inonmaydi.

– Podsholik tomonidan bu yerga badarg'a qilinganman, Lev Nikolayevich.

– Shunday deng! – Lev Nikolayevich oppoq baroq qoshlarini chimirdi, bo'g'lnari tugilib ketgan qo'pol barmoqlari tivist ro'molni besaranjom paypaslab qo'ydi. – Meni sira badarg'a qilmadilar. Riyozat chekishga tashnaman. Atrofimda sizdek odamlar, minglab, yuz minglab mazlumlar azobda. Meni esa qamoqqa yo ta'qibga arzitishmadni. Men ham podsholikka zararliman, sizga aytsam. Men haqorat qilmagan podsho qolmagan, ha... Bir riyozat chekkim keladi.

– Orzu qilmang, Lev Nikolayevich.

– Bilaman, og'ir. Ammo erkinlikda undan yengil emas. Xo'sh, qanday tirikchilik qilyapsiz?

– Bir nav... bu yerda oz bo'lsa ham musulmon urfdoshlarim bor. Qorachoylar, cherkeslar.... marosimlariga taklif qilishadi, yosin o'qiyman, Qur'on tilovat qilaman...

– O, juda qiziq, xo'sh, xo'sh?

– O'z yurtimda domla, ya'ni muallim bo'lganman.

– Muallim? Qani, gapiring, gapiring, qanday gunohlarining uchun bu yerga badarg'a qilishdi? Yo siz osiyoliklar ham endilikda din-u ibodatni yig'ishtirib qo'yib, o'zlarining siyosatga urganmisizlar?

Mulla Abdulahad kulib qo'ydi. Cherkov olamini suron solib la'natlagan bu buyuk qariyaning so'nggi so'zlarini kinoya yoki hazil deb tushundi. So'ngra o'zining Davlat dumasiga a'zolik vaq-

– Muhtaram Lev Nikolayevnch...

Lekin Tolstoy, suhbatni sal yengillatgisi keldimi, payrovni buzib, to'satdan boshqa savol berdi:

– Aytganday, siz bu dalaga qayoqdan kelib qoldingiz?

Mulla Abdulahad ham suhbatdoshining chigal o'ylar dunyosidan «qaytib», oddiygina savol bilan murojaat qilganidan yengil tortdi:

– Men bu yerdan uzoq emas, Kozlova Zasekada istiqomat qilaman, Lev Nikolayevich. Bu o'rmonlar, rus kuzi ko'nglimga o'tirishib qoldi. So'nggi marta yana bir ko'rsam, ko'zlarim to'yarmi deb, aylanib chiqqan edim.

– So'nggi marta?

– Ha. Yana ikki oydan keyin «muddatim» tugaydi, Lev Nikolayevich.

– Shunday deng? Undan keyin qayoqqa borasiz?

– Yurtimga qaytaman, nasib bo'lsa, bolalarim qoshiga. Oltita farzandim bor, Lev Nikolayevich.

Ular har biri o'z o'yi bilan bo'lib, ancha jim qoldilar. Nariroqda, tilla rang o'rmon etagida pastakkina seryol Delir to'ngaklar soyasida qolgan yashil o'tni qirtishlar edi. Bulut soyasi o'tib ketdi. Surmadek qora kartoshka polizida lapanglab uchgan qarg'alar, uzoqdagi g'aram tepasida sichqon poylab yerga sho'ng'igan miqqiy, yak-kam-dukkam qolgan kungaboqarlar, dalatuz, quvoqzor jarliklar quyoshga chiqdi.

– Dilbar tabiat, – dedi Abdulahad qori.

– Bu yerlarni men ham yaxshi ko'raman.

Yasnaya Polyana mening onajonim...

– Bizda bo'lsa bu go'zallik... Yuzlab shoirlar g'azal, doston yozishar edi.

– Ha, Sharq... Sharq... Bir zamonlar men ham unga qattiq ko'ngil qo'ygan edim, – Lev Nikolayevich mayin, hazin tovush bilan hikoya qildi:
 – Dekabristlar davri haqida roman yozish niyatim bor edi. O'sha vaqtida general Perovskiyning Xivaga yurishi, Xorazm haqida ko'p narsa o'qidim. Ajab o'lkkalar, ajab shoirlar... Hozir hammasi yodimdan ko'tarilib ketibdi. She'rlaringizdan o'qing-chi menga, mulla Abdulahad.

Abdulahad qori o'ng'aysizlanib, barmoqlarini qirsillatgancha, bir nimalarni eslashga urindi. Qiyin ahvolda qolsa hamki, cho'ziq, qotma yuzida hayajonli quvonch shu'lesi o'ynardi.

– Sizga ma'nosini tushuntirib berishga qurbim yetmaydi-da, Lev Nikolayevich.

– Mayli, o'z tilingizda o'qing, tinglab ko'ray. Abdulahad qori ko'ngliga kelgan bir g'azaldan o'qidi.

– Attang, men tushunolmas ekanman, – dedi aruzning musiqiyligiga maftun bo'lgan Lev Nikolayevich. – Ammo nimasini dir anglayapman. Bilsizmi, men Qozonda o'qiganimda turkiyni ancha o'zlashtirib olgan edim. Yoddan ko'tarilibdi. Siz menga boshqasini, soddarog'ini o'qiy olmaysizmi?

– Xo'p bo'ladi. Soddarog'i mana bu – Yassaviy,
 – mulla qiroat bilan «Hikmat»ga tushib ketdi:

*Oqil bo'lsang, g'ariblarning ko'nglin ovla,
 Elni kezib yetimlarga mehr bog'la,
 Nafsi yomon najislardan bo'yin tovla,
 Ko'ngli butun xaloyiqdan qochdim mano.*

*Boshim tuproq, o'zim tuproq, jismim tuproq,
 Haq vaslig'a yetarman deb ruhim mushtoq,*

*Kuydim, yondim, bo'lolmadim hargiz oppoq,
Shabnam bo'lib yer ostig'a kirdim mano.*

*Qulni ko'rsam quli bo'lib xizmat qilsam,
Tuproqsifat yo'l ustida yo'li bo'lsam,
Oshiqlarning kuyib o'chgan kuli bo'lsam, –
Deya zor-zor yer ostig'a kirdim mano.*

*Zolimlarni shikva qilma, zolim o'zing.
Ul yuzingga agar ursa, tut bu yuzing.
Dunyo molin to'la berdim, to'ymas ko'zing,
Bu nafs uchun xor-u hayron bo'ldim mano.*

*Zolim agar zulm qilsa, mango yig'la,
Yoshing sochib, mango sig'inib, diling tig'la,
Harom shubha tark etibon, yurak dog'la,
Zolimlarga o'zim rivoj berdim mano.*

- Ajab, bu buyuk mutafakkir-ku! U sizda mashhurmi?
- Mashhur, qadimiy shoir.
- Otini nima dedingiz?
- Yassaviy, taqsir.
- Qiziq, nega men bilmayman bu odamni? Konfutsiyni bilaman, Gandini bilaman... Buni esa... Yassaviy dedingizmi! – Tolstoy yana butun vujudi bilan jonlanib, ko'zlarida savol alomati paydo bo'ldi: – Mana endi siz menga ayting: nima uchun bu ta'limotni hamma zamonlarning buyuk donishmandlari bu qadar zo'r berib targ'ib qili-shadi? Hamma dinlarda, barcha xalqlarda nima uchun bular muncha ko'p: Krishna, Budda, Lao szi, Sokrat, Epiktet, Mark Avreliy, Russo, Kant, Emerson, Channing, yana Yassaviy... Chunki bu

Isoning ta'limotigina emas, bu umumbashariy qoidalar. Axloqiy haqiqat bilan diniy haqiqat – ikkisi bir haqiqat. O'zaro mehr-u muhabbat insonning birdan-bir oqilona faollyati. Inson davlat qonunlari bilan emas, muhabbat qonunlari bilan yashab, o'z axloqiy kamolotini tinmay o'ylashl kerak. Podshoh hokimiyati buzuq, yaramas hokimiyat. U xalqni inqilob jariga itarmoqda. Dahshatli, qonli inqilob – bu juda katta jinoyat mulla. Abdullaq qori suhbatdoshini taniyolmay qolgandek, javdiray boshladi, nimadir aytgisi, e'tiroz bildirgisi kelar, ammo qariyaning so'zini bo'lolmas edi. Lev Nikolayevich to'xtamay davom etdi:

– «Jamiyat manfaati» degan gap bor. Odamlar u haqda qanchalik kam o'ylasalar, o'z ruhiy holatlari, axloqiy kamolotlari haqida o'ylashlari ga shunchalik ko'proq vaqt qoladi va zulm, qatl, qon to'kishlar shunchalik kamayadi. Odam o'zi tufayli odam o'dirmaydi, yor-u birodarları tufayli o'ldirish osonroq, «jamiyat manfaati» uchun esa minglab odamlarni qirishadi!

– Lev Nikolayevich...

– Hozirgi jamiyat faqat zulmga asoslangan. Undan qanchalik uzoqlashsangiz, shunchalik yuksak va sof bo'lasiz.

– Siz mening fikrimni tushunmadingiz, Lev Nikolayevich.

Lev Nikolayevich unga qulq solmasdan Buddha o'z bolalarini ochdan o'layotgan yo'lbarsga yedirgani haqidagi afsonani gapira ketdi.

– Lev Nikolayevich, men sizga... Men unday emasman, Lev Nikolayevich, Dumadagi paytim... Yassaviyni ham tasodifan... Endi men butunlay...

– Siz Qur’onni yod bilasiz, lekin siyosatga chalg‘ib ketmang, Yevropa odamni shunday buzadi. Billmdon odam ekansiz-u, suhbatingiz menga yoqdi... Sizning bahonangizda bekorchi muxislardan sal dam oldim, rahmat, – deb kului Lev Nikolayevich va negadir birdaniga charchagandek o‘rnidan turib, bosh barmoqlarini belbog‘iga tiqdi-da, yengil xo‘rsinib, qayishgan belini rostladi. Yumshoq odimlab biyasi tomon yurdi.

– Aytganday, – dedi yana birdan to‘xtab, – siz Tulada professor Rumyansevning kutubxonasi dan foydalaning. Bilimdon odamning kitobga zor bo‘lishdan yomoni yo‘q, – u uzun jun ko‘ylagining katta cho‘ntagidan daftар oldida, yoqasiga osig‘liq pufakli ruchkasi bilan bir parcha xat yozib, mulla Abdulahadga uzatdi. – Qo‘ramga keling, yana suhbatlashamiz. Hozir juda toliqdim. Xayr.

Mulla Abdulahad hech narsa deyolmasdan joyida turib qoldi. Yoldor pakana ot zamonning buyuk odamini butun fojiasi bilan birga asta olib ketib borardi. Mulla Abdulahad ichidagini aytolmay, unga intilgancha qoldi. «U nima deb o‘yladi meni?!» derdi quvonchdanmi, alamdanmi yoshlangan ko‘zlarini artib. Yuragida esa, afsus, armon, faryod qoldi: «Men unday emasman, Lev Nikolayevich! Siz yanglishyapsiz, men endi siz o‘ylagan odam emasman, nima desangiz deng!»

Rumyansev kutubxonasiga graf Tolstoy tavsiyasi bilan kelgan mehmonni birinchi kundanoq yaxshi ko‘rib qolishdi. Ayniqsa, professorning qizlari. Ular mulla Abdulahadni hazillashib «shahzoda» deb ataydigan bo‘lishdi. «Shahzoda» kitobga juda chanqoq chiqib qoldi, xudoning bergen

kuni eldan burun hozir-u nozir, kechgacha bosh ko'tarmay mutolaa qiladi. Bu ikki qavatli yog'och uy, uning rus uslubida yasalgan qandilli shinam zallari, ayniqsa keksa, xushmuomala shveysari bilan ko'pdan-ko'p yosh-qari ayollari unga juda yoqib tushdi. Xazinaga yo'liqqan kishidek butun vujudi bilan kitobga sho'ng'ib ketdi.

U Tolstoy asarlaridan boshlagan edi, shundan chiqolmay qoldi, kuniga kelib Tolstoyni so'rab oladi-da, oqshomda xayolchan uyiga qaytib keta-di. Kunlar, haftalar shu zaylda, atrofida hech narsani ko'rmagandek, tamoman o'zga olamda sehrlanib qolgan singari yuraverdi.

Qor uchqunlagan kechalari loy yo'llardan Zasekaga qaytarkan, ko'z o'ngida o'sha o'zga olam-nning manzaralari jonlanar edi. Goh Austerlits dala-lalarida chalqancha yotgan yarador Andreyning shivirlashlari qulog'iga chalinadi. Yuksak-yuk-sak, cheksiz, sof osmon... Tiniq, sokin, ulug'ver! «Nima uchun ilgari yuksak tiniqlikni payqama-gan ekanman? – deydi knyaz. – Hozir unga to'yib-to'yib tikilganimdan naqadar baxtiyorman! Ha! Shu bepoyon osmondan boshqa hammasi puch, hammasi yolg'on. Undan o'zga hech narsa, hech narsa yo'q... Shunga ham shukur!»

Goho «Shahzoda»ning ko'z o'ngida go'zal Natasha paydo bo'ladi. Yosh, sho'x, erka, oshiq qalb-li qizaloq... Uni ba'zan xafa qilishsa, «Shahzo-da»ning ko'ngli ozor tortadi.

Ertalabki g'ira-shlrada yana o'sha yo'ldan loy kechib Tulaga kelarkan, uning qulog'ida Olenin-ning tovushi yangraydi: «Hammayoqni o'rgim-chak uyasidek muhabbat to'rlari bilan chulg'ab tashlayman...» «Uzilib ketadi, Dmitriy Andreye-

vich, o'rgimchak to'rlari uzibb ketadi». Bunisi ajoyib qariya Yerofeyning ovozi. Dono chol Yerofey. To'g'ri-da, hammani yaxshi ko'rib bo'ladi! Yo'q, g'azab ham kerak.

Shunday o'ylab ketayotgamida mulla Abdulahad bir kuni o'zidan-o'zi qichqirib yubordi:

– Yo'q, Lev Nikolayevich, siz ham unday emassiz! O'zingiz aytganday emassiz! Unday emassiz!

Baroq qoshiari oppoq, ko'zi po'latdek yiltillagan ulug'vor qariya ko'z oldiga keldi, uning tomirlari o'ynab chiqqan, dag'al, bo'g'in-bo'g'in barmoqlari soqolini paypaslardi. Ha, ayyor, mug'ombir chol, – deb jilmaydi mulla Abdulahad ko'nglida, – itoatkorlik, mehr-muhabbatdan gapirasiz-u, o'zingiz bir umr isyon ko'tarasiz, qahr-g'azab sochasiz! Nexlyudov inqilobchilarga ixlos qo'yadi. Simonson bo'lsa – nur, yorug'lik, kuchga! Yo'q, Lev Nikolayevich, nima qilasiz dilingizdag'i quyoshni mendan yashirib! O'sha kuni Tula yo'lidan bexos Yasnaya Polyanaga qarab burildi. Lev Nikolayevichni ko'rgisi keldi. Ko'rishmasa bo'lmay qoldi, buni dilidan sezib turibdi. U bilan boshqatdan gaplashmasa yorilib ketadigandek, hovliqib, hansirab, shoshib borardi.

– Yo'q, siz unday emassiz, Lev Nikolayevich! – deb pichirlardi ichki hayajonini bosolmay. Go'yo olamshumul bir kashfiyotni Tolstoyga tezroq yetkazgani shoshardi.

...Yasnaya Polyanada hamma narsa oppoq: dalalar ham, kumush qirov ingan o'rmonlar ham qo'sh qavatli darvozaning qubbali ustunlari ham, qo'radagi hovuzlar, uylar ham. Qirtishlab kuralgan yo'llarning ikki cheti baland qor, chorra-

halarda chiroyli tarantaslar, otlari tumshug'iga kiygizilgan to'rvadan suli chaynayapti. Ayvonning zinasida, shiyponlarda to'p-to'p odamlar gurunglashib turishardi. Mulla Abdulahad tushundiki, bular hammasi uzoqdan kelib ertadan beri grafting qabulini kutishyapti. Bular orasida sotsial demokratiya haqida bahslashib turgan yashil furajkali talabalar, xudojo'y mujiklar, yupqa kiyimda junjikib qolgan keksa ziyolilar, suvsar yoqali olifta boyvachchalar, ajnabiylar bor.

Uh-ho', Lev Nikolayevichning «muxlislardan qochib dam olaman», deganicha ham bor ekan-da, endi nima qilish kerak? Qori asta nariroq borib shiyponga kirib o'tirdi. Kunning ko'zi ko'rinay deb, osmon yorishib kelayotgan bo'lsa ham, qor uchqunlamoqda edi.

Burchakdag'i kresloda tulki po'stinga o'ralib oq piyma kiygan qalam mo'ylovli yoshgina boyvachcha kerilib o'tirar, kimgadir uqtirar edi:

- Graf o'zining «Dushanba» degan asarida...
- «Dushanba» emas, taqsir...
- Ha, «Dushanba» emas, «Chorshanba» degan romanida fohishalar hayotini tasvir etadi. U buni... haligi, qhi-qhi... qayoqdan biladi deb o'ylaysiz? - boyvachcha yana bir nima deb kaftiga qiqirlab kuldi.

Mulla Abdulahad bu shilqim nodonning yohi-dan ketib, ko'k o'rindiqning narigi boshiga borib o'tirdi. O'rindiqning suyanchig'iga, shiyponning yog'och ustunlariga pichoq bilan o'yib, qalam bilan har xil yozuvlar qoldirilgan edi. Qori ermak topib oldi, shu xatlarni o'qiy boshiadi:

«O'lim jazosi yo'q qilinsin! Imzo.

«Buyuk dahoga shon-sharafl! Talabalar».

«Kurashda tolganlar, shu dargohga kelib, orom oling...»

Mulla Abdulahadning orqasida boldiriga qizil charm qo'nj – kraga kiygan novcha bir muhojir g'azablanar edi.

– Mayn gott! Qanday tartibsizlik! Men Kyolndan shu yoqqa naqd pul to'lab kelganman. Kecha kuni bilan kutdim. Bugun ham, mayn gott!

– Shuncha zarurmidi, janob?

– O, ma'lumki, Rossiyada ikkitagina... haligi, nima edi... remarkable places – diqqatga sazovor narsa bor: Vasiliy Blajenniy butxonasi-yu, graf Tolstoy. Ko'rmay qaytsam, do'stlarimga nima deyman?

Qori ensasi qotib teskari qaradi-da, yozuvlarni o'qishda davom etdi:

«Butun dunyo proletarlari, birlashingiz va inson dahosiga ta'zim qilingiz! Yosh Rossiya».

«Men, xokisor darvesh oyog'ingni o'paman».

«Gigant mutafakkir, rahmat!» Professor (imzo).

Sal narida eski chakmon ustidan belini arqon bilan tang'igan shilpiq ko'zli bir bukri cholning xotinchalish ovozi eshitilardi:

– Haq taolo o'zi guvoh, bu dunyoda neki savob orttirgan bo'lsam, hammasi muhtaram graf sharoflatlari tufayli. U kishining ta'limlari... – Bukrini yo'tal tutib, gapi bo'lindi. Saldan keyin yana tovushi chiqdi: – Chumoliga ozor bergen emasman. Go'sht, tuxum yemayman, tarki dunyo qilgaman, xudoga shukur...

Bu vaqt ayvonga yana shveysar chiqib, Lev Nikolayevich bugun qabul qilolmasligini e'lon qildi. Yana shovqin bo'lib ketdi.

- Mayn gott!
- Grafga aytsangiz, men birinchi gildiya...
- Menga qarang! Meni aytdingizmi?

Biroq shveysar kirib ketgan edi.

Abdulahadning keksa, darmonsiz Lev Nikolayevichga rahmi keldi. Bu odamlar unga nima uchun kerak? O'zi-chi? U nima qilib turibdi? Yonidagi og'zi labbay nodon ajnabiy, shilpiq darveshni o'y birpasdan xo'rligi keldi, yuzini ikki qo'li bilan to'sib yopib o'tirdi-da jo'nab qoldi. Qor astoydil gupillab yog'ar edi. Yo'llarni darrov yana qor bosibdi, oyoq g'irch-g'irch qiladi.

Yo'q, kelib uni bezovta qilish kerak emas. Dam olsim. U mana bu boylikdan quturgan be-korchilardan juda bezor bo'lsa kerak. Bu olifta «muxlis»lar «falonchini ko'rdir» deb kerilish uchungina bu yerga kelib, eshigining turumini buzyapti. Yuzsizlar!

Mulla Abdulahad yana bir haftacha ikkilanib yurdi, Tolstoy ko'z o'ngidan ketmas edi. Butun vujudi bilan unga intiladi, ertalab «albatta boram», deb o'rnidan turadi-yu, keyin o'ylab niyati-dan qaytadi.

Kunlardan bir kun bekatdagi do'konga non olgani borsa, o'sha kungi bukri shilpiqni qovoq-xonada ko'rib qoldi. Bir mujik bilan o'rtaga yarim-tani qo'yib o'tirib, qovurilgan cho'chqa go'shtihi tushirib yotibdi. Og'izlari iflos, kayfdan ko'zlari yumillb ketibdi, qo'lida katta suyak, itday g'ajiy-di! Obbo, ablak-ey, et yemasmish, tarki dunyo qilganmish!

Nafrat turtki bo'ldi-yu, mulla Abdulahad shu yerning o'zidanoq yana Yasnaya Polyanaga jo'na-

di. Omadi kelib Lev Nikolayevich bilan uchrashtish nasib qilsa, nima deyishini hali bilmaydi-yu, lekin nimadir uni o'qday uchirib borar edi.

Osmon bulut. Kech kirmagan bo'lsa ham, qorong'i, o'rmonlar bulutdek qorayib turardi. Qori tanish yo'llardan dadil yurib darvozadan kirib bordi. Uni hech kim qarshi olmadi. «Preshpekt»ning qori kuralmagan, qo'ra bo'm-bo'sh edi: na muxlislar, na izvoshlar, na xizmatchilar. Qori yaqinlashishi bilan tanish shiypon oldidagi ot tezagidan bir gala olaqarg'a ko'tarildi. Hammayoq huvillab yotar edi. Mulla Abdulahadning yuragi orqaga tortib ketdi...

Uni kimdir qo'lтиqlab darvozadan tashqariga olib chiqib qo'ydi.

– Ketdi, boyaqish, axir ketdi, – dedi o'sha kishi. Qori uning kim ekanligini bilmadi. Nariroqda mujiklar hasratlashib turishardi:

– Kechasi qochibdi, yo rab, oxiri baxayr bo'lsin...

– Yasnaya Polyanadan bosh olib ketibdi.

Mulla Abdulahad o'sha kuni Zasekada ham, Kosaya Gorada ham o'zini qayoqqa qo'yishni bilmay, maqsadsiz kezib yurdi, qayerga borsa odamlar to'planib «qochish» voqeasini gaplashishar edi. Qori notanish odamlarning suhbatlariga aralashib ketdi, sirli voqea gapirgan sari chuvalib, afsonaga aylanib borar edi. Lekin mulla Abdulahad bir narsani aniq biladi: bir Tolstoy bor! Buyuk isyonkor, mag'rur, baxtsiz Tolstoy bor!

Kechqurun bir gurungda qulog'iga chalindi:

– Tarki dunyo qillb butxonaga ketibdi.

– U dunyoligini o'ylash vaqtি ham yetdi-da axir.

– Cherkov bilan yarashmoqchi emish.

Shunda Mulla Abdulahad o'zini tutolmay to'dani yorib kirib, baqirib yubordi:

– Yo'q, u unday emas! Bilmaysizlar, u unday emas!

To'dadagilar buni tushunadigan odamlar emas edi, yelkalarini qisib, tarqab ketishdi.

– Hozir devona ko'payibdi... – dedi bittasi ketayotib.

Mulla Abdulahad hujrasiga holdan toyib qaytdi, qani endi uxmlay olsa. Cho'yan zavodining idorasida xat ko'chiruvchi bo'lib ishlaydigan o'ta halol, kamgap Matveyning hujrasi chog'roq bo'lsa ham, issiqliqina, yorug', shinam edi. Mulla Abdulahad hukumatning beradigan bir so'm yigirma tiyinidan to'qson tiyinini to'lab, uch yildan beri shu yerda turadi.

Uch yil. Keyingi kunlardagi hayajonli voqealar bilan andarmon bo'lib, Mulla Abdulahad surgun muddatining tamom bo'lib qolayotganini o'ylamabdi ham. Ilgarilar bu kunlarni qachon kelar ekan deb zoriqib kutar edi. O'sha kunlar yaqinlashib ham qoldi. Hademay ona yurtiga qaytadi. Quvonchi terisiga sig'masligi kerak edi. Ketishiga bir hafta qoldi-ya!.. Lekin negadir u osoyishta, butunlay boshqa narsalarni o'ylaydi. Uyiga qaytganida nima ish qiladi? Bola-chaqasini bag'riga bosadi, undan keyin-chi? Qozilik, qorilik endi zamonga ham, o'ziga ham erish tuyulsa kerak. Lev Nikolaevichning kitoblarini tarjima qilishga urinib ko'rsa qanday bolarkan? Eplagancha, baholi qudrat...

Mulla Abdulahadning o'ylari «qaytish» mavzusida astoydil qaror topolmay, yana chetga burilib

ketdi. O'tgan uch yil ham bir bo'ldi-yu, so'nggi bir oy ham bir bo'ldi-da o'zi. Uch yilning qanchalik behuda, ma'nosiz o'tib ketganini o'ylasa, endi o'zi ham hayron qolardi. Keyingi kunlar uning hayot haqidagi barcha tushunchalarini ostin-ustin qilib, o'zgartirib yubordi.

Yarim kecha bo'lganda joy solib yotdi. Ertaga juma edi.

Juma namozini ular Abdurahmon qori degan bir boshqirdning hujrasiga to'planib o'qishar edi. Abdurahmon bu yerga yapon urushidan keyin surgun qilingan, boshqalari qorachoylar, no'g'oymalar, chechenlar – o'n ikki-o'n uch kishi. Ko'pchiliqi quvg'indi. Ular Abdulahad qorini Hazrat deb atashar, qiroatini yaxshi ko'rishar edi.

Endi sujudga bosh qo'yganlarida eshik birdan ochilib, g'o'rillagan qahratonsovug'i bilan Gvozdikov kirib keldi. Kirdi-yu, eshikka orqa o'girgan namozxonlarni ko'rib, burchakdagi kursiga o'tirdi, mo'yovida qotgan muzlarni terib, qulqochini ni etagiga qo'yib kuta boshladi.

Uning kirib o'tirganini hamma sezdi, ko'rmasa ham tanidi, bu yerdagilar uni sharpasidan tanir edilar. Jandarmeriyada bularni har oyda ro'yxatga oladigan shu Gvozdikov. O'z ishiga berilgan, qotma ko'zi o'lik qo'yning ko'zidek jonsiz, forma kiymay, po'stin bilan qulqochin kiyib yuradi. Uning kelishida bir gap bor. Namoz zohiran davom etsa ham, aslida allaqachon qazo bo'lgan edi. Namozxonlar «omin» deb yuzlariga qo'l tortishlari bilan Gvozdikov o'rnidan turib:

– Janoblar! – dedi. – Men sizlarga vazir janobi oliyalarining yangi buyrug'ini yetkazish uchun

keldim. Bugundan boshlab uchdan ortiq kishining bir joyga to'planishi qat'iyan man etiladi. Hozir tarqalinglar va bundan buyon bunday to'planishni qonunga xi洛f deb hisoblaymiz.

Namozxonlar kigiz ustida paypoqchan tikka turardilar, shuning uchun derazalar to'sillb, uy qorong'i bo'lib qolgan edi. Qorong'idan mulla Abdulahadning ovozi chiqdi.

– Janob Gvozdikov, biz bu yerga toat-ibodat uchun to'planamiz, xolos. Har gal kelib quloq solishingiz mumkin...

Gvozdikovning mo'ylovi uchdi:

– Vazirning buyrug'i qonun! Mulla, sizga alohi-da gap bor, sizlar tarqalinglar! – Boshqalar chiqib ketgach, Gvozdikov qorini qo'lтиqlab oldi: – Gap bunday, mulla, siz anov imonsiz cholnikiga qat-nab yurganmishtsiz. Ehtiyyot bo'ling, yaxshilikcha maslahat beraman. Besh kunlik muddatingiz qolibdi. Agar qonun-qoidani buzadigan bo'lsangiz, yana rosa shuncha va'da qilaman, – u qo'lqopini yechib, uch barmog'ini Abdulahad qorining burni tagiga olib kelib ko'rsatdi, – Yana, bosh-qatdan shuncha, – deb ko'ziga ma'noli qaradi. – Ayniqsa, mana bu so'nggi buyruq – qat'iy, bilib qo'ying. – Gvozdikov shartta burilib, gurs-gurs yurib chiqib ketdi. U turgan joyda halqob bo'lib iflos qor suvi qoldi.

Uch kundan keyin, ertalab, mulla Abdulahad derazaning taqillashidan uyg'ondi. Derazani guldar qirov qoplagan edi, kim taqillatganini ko'rolmadi. Eshikni ochsa – Matvey. Rangi oqarib ketibdi, undan uzr so'ragandek ming'illadi:

– Na chora... Shunday bo'lishi kerak ekan shekillida... Katta-kichik deb o'tirmas ekan... As-

tapovo bekatida. – Matvey yana allanimalar deb po'ng'illaganicha nari ketdi. Mulla Abdulahad bu orada apil-tapil kiyinib bo'lgan edi, telpagini bostirib kiyib, choponini hilpiratgancha yugurdi, badamni sovuq ter bosgan, ko'kragi ochiq, izg'irin sovuqni sezmas edi.

Xabarning butun dahshatini Tulada poyezdga chiqib o'tirganidagina idrok etdi: «Tolstoy o'lgan! Lev Nikolayevich yo'q...» Ko'z o'ngi qorong'ilashdi. Vagonlarda ham, perronlarda ham odam tirband, lekin shov-shuv yo'q, ibodat paytidagidek. Mulla Abdulahad buni endi payqadi. Nahotki hamma Astapovoga ketayotgan bo'lsa? U yerga hamma sig'adimi, Peterburg bor, Moskva bor, hammasi Astapovoga sig'adimi? Tolstoy o'zi qanday sig'di ekan? Uni olib ketishmasmikan? Mamlakat bo'ylab, jahon bo'ylab yelkalarida ko'tarib olib ketishmasmikan?

Mulla Abdulahadni qandaydir alam, xo'rlik ezar edi. Tolstoyning jonsiz jasadini ko'z oldiga keltirishga qo'rqaadi. Bu odam uning huvillab yotgan ko'nglini allaqanday umidlarga to'ldirgan edi. U hali bilmaydi: yaxshi ko'rarmidi bu odamni yoki yo'qmi? Faqat bir narsani sezardi, bu odam hamma vaqt qandaydir buyuk narsalar bilan bog'liq edi: bashariyat bilan, o'lim, dahshat, baxt, inqilob bilan, taqdir, inson qadri bilan, hayot bilan, xudo bilan... Endi bo'lsa... Endi nima bo'ladi?

Vagonda kimdir yig'lar, kimdir uh tortardi, onda-sonda jandarmilar ham ko'rinish qolar edi. Lekin mulla Abdulahadning o'ylarini hech nima chalg'itoldi. Alam qiladi, alam! Bir umr qabihlikka qarshi kurashib shunday buyuk zot yana shu qabihiik qurshovida o'lib ketsa...

Tushdan keyin poyezd Astapovoga yetmasdan to'xtadi. Hamma tap-tap o'zini tashiab yugura boshladи. Oldinda ham poyezd turar edi. Mulla Abdulahad eshikdan turib faqat ikki rangni ko'rdi: oq-u qora. Oppoq qorda tumonat odam qop-qora bulutdek siljib borardi. Qandaydir bir to'da mulla Abdulahadni ham oyog'ini yerga tegizmay, surib olib ketdi. Tizzadan qor kechib, yalang'och daraxtlar orasidan o'tdilar, cho'yan panjaradan sakradilar.

Bekat binosi uzoqdan ko'ringanda olomon taqa-taq to'xtab qoldi. Mulla Abdulahad oyog'iga kavush-mahsi kiygani foyda qildi, chipta kavushliklar allaqachon yerga botib qolib ketgan edi. U bolsa olomonni yorib oldinga o'tib oldi. Bir joyga borib jandarmning keng yelkasiga taqaldi. Ular bu yerda ko'p edi, o'nlab, yuzlab... qo'l ushiashib, maydonni zanjirday qurshab, olomonni qaytarib turishibdi. Olomon zo'r beradi, zanjir uzilay-uzilay deydi. Lekin nariroqda nayzasini o'qtalganlar ham turardi. Odamlar baqira boshlashdi. Kimlarningdir oyoqlari muzlab yiqilib qolgan, oyoq ostida bola-chaqa, xotin-xalaj chinqirar edi. Norozilik orta bordi, orqada kimdir jandarmni haqorat qildi, kimdir muzlab qotgan ot tezagi bilan birining basharasiga tushirdi.

Shu vaqt «zanjir»ning yonginasida turgan mulla Abdulahad o'ng yelkasida kimningdir qo'lini sezdi. O'girilib qarasa – Gvozdikov.

– Va'dani bajarishga to'g'ri keladi, mulla... – dedi qo'lini uning yelkasidan olmasdan. Bu «qamoqqa olindingiz» degan ishora edi.

Mulla Abdulahadning qop-qora soqoliga qaynoq yosh yumalab tushdi. Qahraton buning qan-

day yosh ekanligini bilmasdi, tasbehning sadafiday qilib soqolida qotirdi-qo'ydi.

Samolyot tushga yaqin qo'ndi. Keng dalada bir qavatli ko'rimsizgina aeroport ekan, muxbir yigit zir yugurib zo'rg'a bir mashina topib keldi. O'n daqiqa deganda ular guvillab turgan suronli shahar ko'chasiga kirib bordilar. Son-sanoqsiz platformli yuk mashinalari shaldirab o'taverdi, sanoat markazi ekan shekilli, lekin katta, ko'rkam, yangicha, rejali shahar. Ko'chat qilingan sada, lipa qatorlari suratdagidek tekis, mashina yo'llarigina emas, ikki chekkadagi ariqlar ham betondan. Qizil alvon, bayroq, gullar bilan bezangan maydonlar uchradi, saf tortgan bolalar, maykasi-da raqami bor estafetachi qizlar o'tib ketdi.

– Cho'lga boramiz demovdingizmi, bobo? – deb so'radi.

– Cho'l eski nomi. Odamlar yangisiga ko'nikisholmayaptimi yoki osonroqmi – hali ham «Cho'l» deyishadi. O'zi shahrimizning oti Cho'lobod, – deb tushuntira ketdi sergap muxbir.

Montyor simyog'ochga rang-barang lampochkalardan marjon taqayotgan joyda mashinani to'xtatib, bosmaxona oldida tushib qoldi.

– Sizniki narigi ko'chada, – deb xayrslashdi, olib borib qo'yishni haydovchiga tayinlab, zinaga sakradi.

Yo'ldoshniki gastronom tepasida, uchinchi qavatda edi. Eshigi berk ekan. Buva nima qilishni bilmay, xurjun ustiga o'tirib irg'ay tayoqqa iyagini tiragan edi, zinadan burnini torta-torta bir bola kuchugini ko'tarib tushib qoldi.

– Yo'ldosh amakimmi kalitlari namatti tagida,
– dedi u.

Ochil buva oyoq artadigan namatni ko'tarsa, kalit yiltillab yotibdi. Obbo, zap ishonchli joyda ekan-ku. Eshikni ochishdi.

Uch xona. Kitob to'lalish xonasidan boshqalari ancha qarovsiz, betartib, ammo issiq-sovuq suvlari, sovun-u atirlarigacha tayyor ekan, egalari kelguncha maza qilib yuvinib-taranib olishdi. Azimjon anchadan beri soqolini olmagan edi, yasharib ketdi.

– Men bir narsaga hayronman, bobo, – dedi u o'zini oynaga solib, – shunday uyli-joyli nevaralaringiz, jiyanlaringiz, o'nlab-yuzlab jigarbandingiz bor ekan. Birini bir yil ko'rmabsiz, birini to'rtbesh yil. Ular ishdan bo'shamaydi shekilli, siz pensiyadasiz... Iloji bo'lsa, aylanib hammalaridan xabar olib yursangiz bo'lar ekan...

– Qaydam... Qarindoshdan xabar olmagan bo'lsam, noqarindoshdan xabar olgandirman. Yashayverganingdan keyin-chi, bolam, farqi qolmas ekan. Inson bor, bari qarindoshday.

– Shunday oilaga bosh bo'lib, kattaroq bog'-rog' ham qilmabsiz, Chinordagi hovlingizni qarang, – dedi Azimjon.

– Hovlimiz chog'roqmi? Buni payqamagan ekanman. Uyda emas, bir umr el ichida yashadim. Bir zamon katta xonodon edik. Poloponlarim uchirma bo'lib har tomonga oshyon qilib ketishdi. Bog'-rog' xayolimga ham kelmabdi. Ammo toleyim butun, Azimjon. Farzandlarimning tashvishi ko'p, hammasining yelkasida elning yuki. Men ularni shuning uchun o'stirganman. Yana nima kerak men keksa odamga?

Azimjonning bobosiga tikilib turgan quvnoq ko'zlarini yana o'ychan bo'lib qoldi. U ba'zan bobosini endi ko'rib turgandek, unga tikilib qolar, uni sira tushunib yetolmaydigandek bo'lar edi.

Yo'dosh hovliqib uch-to'rt yigit bilan kirib keldi.

Hammasing yoqalari oppoq, bo'ynida gals-tuk, egnida bashang kostyum. Ko'rishishdi, tanishishdi.

Yo'dosh xursand bo'lib mehmonlarni o'tqazdi, hol-ahvol so'radi, lekin bilinib turardiki, vaqtiziq, o'rtoqlari ham shoshib turishibdi.

– Zap kelibsiz, Ochil buva! Zora poyqadamingiz yoqib...

– Nima gap o'zi, hammayoq yasan-tusan, biron marosim bormi? – so'radi Ochil buva.

Bugun kombinatning yigirma yilligi ekan.

– To'yning ustidan chiqdingiz, Ochil buva, – deyishdi. – Katta marosim, mehmonlar, shu kombinatni qurban, o'z jamoamizdan chiqqan yor-birodarlar keladi. Ular orasida hatto fazogirlar ham bor. Ichimizdan chiqqan!

– Uni-buni qo'yinglar, mening xotinim qayyoqda qoldi? Sen bilasanmi, muhandis? – dedi nima qilishni bilmay shoshib qolgan Yo'dosh.

– Aziza o'sha yerda, Ra'noring oldida, – dedi muhandis.

Yo'dosh iymanibgina o'tirgan, o'zidan katta-roq do'stiga qaradi. Bu Ra'no deganning eri ekan shekilli.

– Ra'noni tug'ruqxonada qoldirib keldim, o'rtoq direktor, – dedi u.

– Qalay ahvoli?

– Bugun kutishyapti chamamda...

Yigitlar bir-birlariga qaradilar. Yo'ldosh qattiq o'ylab qoldi.

Bu vaqt yana bir odam kirib salom berdi. Bu keksa katta ko'zoynakli odam edi, mehmon kelganini eshitib kiribdi, Ochil buva bilan keksalar-chaga uzoq so'rashib ko'rishdi.

– Nima qilamiz? – dedi Yo'ldosh, keyin o'z qarorini aytdi: – Tantanali majlisni bugundan qoldiramiz.

– A?

– Gap shu! – Yo'ldosh Ra'noning eriga murojaat qildi. – Usta, siz o'sha yerda bo'ling, biz boramiz!

So'ngra u novcha gavdasini ko'tarishi bilan, hamma sheriklari o'rnilaridan turib, gurra chiqib ketishdi.

– Dada, siz mehmonlar bilan gaplashib o'tiring!
– dedi usta chiqib ketayotib haligi keksa odamga.

– Choy plitada! – deb qichqirdi Yo'ldosh ham chiqib ketayotib.

Ular chiqib ketganlaridan keyin Ochil buva yangi tanishidan so'radi:

– Nima bu, birovning ko'zi yorir ekan deb, butun shaharning bayramini kechiktirishyaptimi?

Ko'zoynakli chol avval choy damlab kelib, mehmonlarning ro'parasiga o'tirdi-da, shoshmasdan javob berdi:

– E, bularni bilmaysiz, taqsir, bir-birini desa, majlis ekan-ku, undan kattasini ham kechiktiradi. – Choyni qaytarib, choynakni sochiq bilan yopgandan keyin davom etdi: – Kechiktiradi, kechiktiradi. Qatordan bittasi to'lg'oqda yotadi-yu, bular majlisda o'tiradi deysizmi? Yo'q, taqsir, bular unday bolalar emas, bir-birini desa, Alining tig'iga uradi o'zini! Shunday tarbiyalanishgan,

men bilaman bularni. Biri direktor, biri usta, biri muhandis, biri tashkilotchi bo'lgani bilan, bari shu kombinatning bolalari. Qani, nonga qaranglar. Oling, mehmon o'g'lom, oling, taqsir, tortinmang... Xo'sh, – deb xushbo'y choy quydi qariya. – Ha, men bilaman bularni... Urushdan keyingi yillar edi, desangiz...

QISSA

Faqat tepadan qarab o'rgangan odamgagina pastdagilar to'da bo'lib ko'rindi, aslida esa pastda ham alohida-alohida odamlar yashaydi, har biring o'z aqli, o'z istagi bor, har qaysisi bir dunyo.

Andrey Platonov

Kakra gullagan payt. Hali yerning nami qochmagan. Cho'l havosidan allaqanday achitqi hidi keladi.

Qurilish kombinatining oppoq gardga qoplanib yotgan chala korpuslari ham, qurum purkab, biqsib turgan xumdon mo'rilari ham o'zining dim, g'uborli havosi bilan orqada qoldi. Siyrak yantoq ustidan yangi tushgan past-u baland yo'lda yelib ketayotgan shaloqroq mashina ham sakraganda kuzovidan kulrang sement to'zoni to'zg'ib, yo'lining o'sha yeri choyshabdek oqarib qoldi. Kuzonda yasanib olgan yetti-sakkiz yigit tikka turgancha ketyapti. Ko'plari bosh yalang, cho'l havosini shimirib, mastona ko'zlarini uzoqlarga tikadilar, pidjaklari barqutdek yoyilgan sari zavqlari oshib, yana ham tezroq uchgilari keladi, kabinaning tomini do'mbira qilishadi:

– Qamchila qirchang‘ini, hoy Pakana Pak!
 Kepkasining soyabonini orqaga qilib kiyib ol-gan Said ularning qo‘lidan ushiaydi:
 – Bas qilinglar! Xafa bo‘ladi, zo‘rg‘a ko‘ndirganmiz.
 Sirkasi suv ko‘tarmaydiganroq koreys haydovchi
 – uni «Pakana Pak» deyishardi – avval bormayman deb rosa noz qildi. Lekin yigitlar gapni shunday aylantirib olib kelishdiki, kuyov Pakka «oftobda qatiq yalashgan» uzoq bir qarindosh chiqib qolib, axiri ko‘ndi. Mashinasi shaloq bo‘lsa ham, haytovur, pi-yoda qolishmadi. To‘y qilayotgan cho‘pon og‘aynilariniki ellik chaqirim yo‘l axir.

Saidjon hammadan ham Azizaning o‘scha yerda bo‘lishidan xursand. Cho‘ponga turmushga chiqayotgan uning egachisi ekan. To‘y bahona, diydor g‘animat. Saidjon bu xayolidan huzur qilib jilmayib qo‘ydi. Bir mashina do‘srtlari bilan tushib boradi, Aziza yugurib chiqishga uyaladi, albatta, bir chekkada qarab turadi. «Qoch, bolalar, kim-san Saidjon keldi ulfatlari bilan!»

Ulfatlar orasida Yo‘ldoshvoy ham bor. U yigitlarning jo‘raboshisi. Bu ham obro‘ Saidjonga. U hozir Saidjonning yelkasidan mahkam ushlab, bo‘ydon gavdasini shamolda zo‘rg‘a tutib ketyapti. Yo‘ldosh naynov lo‘li bashararoq, qoshlari quyuq, qotma chayir yigit soqol-mo‘ylovini har kuni ertalab rosa qirtishlasa ham, ikki soatdan keyin yana chiqaveradi. Said esa uning aksi – semirishga moyil yum-yumaloq gavdasi kuzovning eng oldida, mixlab qo‘yilgandek, qimir etmay ketyapti. Yuzida bir tuk yo‘q, tirsillab turibdi.

Cho‘l havosi dengiz suvldek tanga yoqadi, uqlarga qarab uchgan saring uchgung keladi.

Orqada kimdir taroq tishiga suv qog'oz o'rab, «surnay» chalardi. Yo'ldosh naynov qo'llig'idagi kitobni childirma qilaman deb, ag'darilib tushdi. Qiy-chuv, kulgi ko'tarildi. Yo'ldoshning tagida qolgan ikki yigit o'rnidan turayotganda, birdan ko'zları g'alati bir manzaraga tushdi.

Yo'l chekkasidan ikki yuz metrcha narida ikkita katta mashina turibdi, biri ochiq, biri yopiq. Ochiq mashina yonida uch kishi nima haqidadir qizg'in bahslashyapti. Hatto bir-birlariga musht ko'tarib o'dag'aylashadi, agar birov ajratmasa, yoqalashgudek.

– Hoy, qani, qaysi biring zo'r?! – deb qichqirdi Said.

Haligilar qayrilib ham qarashmadi. Janjal ancha jiddiyga o'xshab qoldi. Pak mashinasini sal sekinlatishi bilan avval Yo'ldosh, Said, keyin boshqalar tap-tap sakrab, o'sha yerga qarab yugurishdi.

Janjallashayotganlar to'satdan paydo bo'lgan bu olifta yigitlarni ko'rib, angrayib qolishdi.

– Otalaringning molini talashyapsizlarmi? – dedi hansiraganicha Said.

Haligilardan keksarog'i etagidan mahkam ushlab turgan sheringining qo'llini siltab tashladi-da, «sen oliftalar yetishmay turuvding-da!» degandek Saidjonga bir xo'mrayib, yopiq mashina tomon yurdi. Sherigi bolsa Yo'ldoshga yolvorgannamo qarab, siporog'i shu ekan dedi shekilli, yig'lagudek zorlana boshladi:

– Bunga bir narsa denglar axir, jon birodarlar, qaytib ketyapti, endi men nima qilaman, qayoq-dagi qo'rqaq odamni yuborishlbdii...

– Gapirib nima qiladi, nodon, ana ko'rishsin, ko'rishsin! – dedi keksa kishi mashina yonida to'xtab. – Qo'rqoq emishman-a!

Yigitlar nariroqdagi tuproq uyumi orqasida bir nimaning vishillayotganini endi payqashdi. Yugurib o'sha yerga borishdi. Magistral gaz quvuri darz ketib, kuchli portlash yerni o'pirib tashigan, katta o'pqon tepasida hovur jimirlar edi. Burunlarini ushiab, orqaga tisarilishdi.

– Nimadan bo'ladi bu, a? – dedi kimdir boshqa gap topolmagandek.

Boyagi yordam so'rab, yalinib turgan odam tushuntirdi. O'zi trassada nazoratchi ekan, avariya xizmatiga xabar qilsa, «mana bu qo'rqoqni» yuborishibdi. «Qo'rqoq» esa sal narida: «Ha, gapir, gapir, shu tirmizaklar sening dodingga yetadi, gapir!» degandek iljayib turardi.

– Quvurlarning qalin-yupqaligi har xil, shundan bo'ladi bu, uka, – dedi nazoratchi kuyinib, – zavoddan yaroqsiz chiqqan.

- Gaz bo'g'ildimi axir? – so'radi Said.
- Bo'g'ildi. Kompressor bilan tortildi ham.
- Hali ham sizib yotibdi-ku?
- Hammasini tortib olib bo'lmayapti, masofa uzoq, sirqindisi qoladi.

– Hali bu sirqindisimi? – Pak tuproq uyumi orqasida jimirlab turgan havoni ko'rsatdi.

– Ana, ko'rdinglarmi? – dedi avariya xizmatidan kelgan chuvakkina keksa ishchi bularga yaqinlashib, uning soqoli o'sib ketgan, yuzlari burishgan. – Bu nodon bo'lsa meni payvand olovi bilan ana shuning ichiga tushasan deydi. Meni kabob qilib nima qilasan, tishing o'tmaydi, chandirman!

Bu hazilga hech kim kulmadi. Yo'ldosh Saidga qarab qo'ydi. Said uning nima demoqchi ekanini sezdi-yu, indamadi.

– Behuda janjal ekan, yuringlar, to'yga kech qolmaylik, – dedi orqada kimdir.

Lekin unga ham hech kim javob bermadi. Shuncha odam qimmatbaho zangori to'lqinlar-ning tuproq ichidan vishiliab chiqib, havoga uchayotganiga ojiz qarab turar, nima qilishini bilmas edi. Tajribali payvandchi Said ham kallasini sarak-sarak qildi: payvand u yoqda tursin, gugurt bilan ham yaqinlashib bo'lmaydi.

– To'yingdan qolma, bolalar! – dedi «avariya-chi» shaftoli qoqidek burishgan yuzini kir qo'li bilan siypab. – Gazi chiqib tugaganda o'zimiz kelib yamab beramiz.

Yigitlar bir narsa deyolmay asta orqaga qaytishdi. Pak motorni yurgizib yuborgan edi.

– Qanchada chiqib bo'ladi? – deb so'radi Yo'ldosh.

– Qaydam, – nazoratchi yelkasini qisdi, – bir oy, ikki oy...

Kimdir hayratdan hushtak chalib yubordi. Yo'ldosh to'xtadi. Kombinatning yangi ishga tushgan yuz metrli sement pishirish pechlari ko'z oldiga keldi. Ular gaz bilan ishlar edi.

– Ungacha kombinat...

– Kombinat ham, yana etakdag'i to'rt-besh korxona ham to'xtab turadi, akt qilinadi...

«Akt...» Yo'ldosh yana sheriklariga ergashib, beixtiyor yurib ketdi. Shu payt Said to'dadan chiqib, shoshganicha negadir avariya xizmatining yopiq mashinasi tomon yurdi. Borib mashi-

naning eshigini oshib ichkariga qaradi. Uzoq qarab turdi. Mashinaning xo'jayini – chol anqayib qolgan edi.

Said o'ylab turdi-da, hech narsa demasdan qaytib keldi. Yo'ldoshning yelkasiga qo'lini tashlab, o'z mashinalari tomon yurdi. Bolalar kuzovdan oshib chiqishayotgan edi. Saidga ham kimdir qo'l uzatdi. U og'ir, baquvvat gavdasini bortdan yengilgina oshirib chiqib oldi, keyin Yo'ldoshga qo'l cho'zdi, Yo'ldosh uning qo'lini oldi-yu, ko'z ko'zga tushib to'xtab qoldi. Ular nima qilishlarni bilishmas, lekin ikkalalarining ham ko'zlarida «ketaveramizmi?» degan savol bor edi. Yo'ldosh sheringining qo'lini qo'yib yuborib, kuzovga peshanasini taqagancha jim qoldi. Hali eshitilmagan, gaz oqimi endi qattiq vishillab qulog'ini tindirar, asabiga tegar edi.

– Yigitlar, muncha imiliaysizlar, borasizlarmi, yo'qmi? – deb qichqirdi Pakana Pak startyorni bosib, Yo'ldosh yurib ketgan mashinaga osilib chiqib oldi.

Endi kuzovda boyagi xushchaqchaqlikdan asar qolmagan edi. Yo'ldosh qopmi, brezent palatkami – burchakda uyilib yotgan iflos bir narsaga cho'qqayib o'tirib, taxi buzilmagan yangi kostymidan uyalgandek, boshini quyi soldi. Said bo'lsa yana «surnay»ini vizillata boshlagan sariq bolaning qo'lidan tarog'ini urib tushirdi. Hammalari jim bo'lib qolishdi. Mashina g'izillab ketib borar, lekin Yo'ldoshning nazarida u orqaga qaytib keta-yotgandek edi. Siqilib ketib o'rnidan turdi, atrofга qaradi.

– Nega indamaysizlar? Nega?

Yana hech kim indamadi, ko'zlarini olib qo-chishdi. Nima ham deyishardi? Said hammaning yuziga bir-bir qarab chiqdi.

Mashina yelib boradi. Jimlik chidab bo'lmay-digan darajaga yetgach, Said birdan kabinaning tomini buzib yuborgudek, ikki qo'llab mushtlay boshladi. Pak ham, birovni bosdimmi, degan xayolda alanglab, tormozni shunday tortdiki, Saidning yumaloq gavdasi orqadan kelib urilganlar-ning zarbidan ezillb ketay dedi.

– Qayt, Pakana! – deb baqirdi u.

Bu ovozga qarshilik ko'rsatish qiyin edi, mashi-na orqaga qaytdi.

Avariya sodir bo'lgan joyga yetib kelishlari bilan Said ham, Yo'dosh ham mashinadan sak-rab tushib, to'y kiyimlarini yechib irg'itdilar. Ular bir-birlarining niyatlarini tushungan edilar.

Haligi sariq «surnaychi» orqalaridan norozi ovoz bilan po'ng'illadi:

– Nima qilishmoqchi bu o'pkasi yo'qlar? Hayda, to'ydan qoladigan anoyi yo'q! Qolganlar qolaver-sin. Baribir uddalasholmaydi.

Keksa ishchi bilan birga yopiq mashinadan gaz payvand apparatining ballonlarini, shlangla-rini tushirayotgan Said bu gapni eshitmadi.

– Yechin, bolalar! Belkuraklar anov mashina-da! Doi, sen, surnaychi, palatkani sudrab tush! – deb qichqirdi u yonidagi cholning o'gitlariga qu-loq solmasdi.

– Yoshlik qilyapsan, uka, – deb ming'illardи chol, – gapimga ishon, o'n to'qqiz yildan beri shu ishdaman. Ovozini eshityapsanmi? Lov etsa besh metrдан jingirtob qiladi...

– Otingiz nima? – dedi Said uning gapiga javob berish o'rninga.

– Zokir...

– Zokir aka, nasosga qaysi mashinani yuboramiz? O'zingiznikini yubora qoling, tez topadi.

Zokir aka yelkasini qisib, haydovchini qidirib ketdi.

Bu vaqt Yo'dosh boshliq yigitlar belkuraklar bilan quvurning eski transheyasini ocha boshlagan edilar. Faqat «surnaychi» yechlnmagan, «To'ydan qolgandan keyin, baribir emasmi?!» deb yangi pidjagini bari bilan burnini to'sar, bir kurak tuproq otmasdanoq o'zini gazdan chetga olib qochar edi.

– Boshim aylanyapti...

– Kurakni otma, quvurga tegib o't chaqnaydi! – deb ogohlantirdi Said.

Bu vaqt uning oldiga kelib to'xtagan Yo'dosh o'ychan tashvishli tovush bilan yerga qarab gapirdi.

– Said... qanday bo'larkin...

– Bilmayman. Bilmayman! – dedi Said. Darhaqiqat, to'satdan ahd qilgan ishi to'g'rimi, yo'qmi, o'zi ham bilmasdi. Lekin endi orqaga qaytib bo'lmaydi. Said qalin brezent palatkani ariqqa botirdi, atsetilen zaxirasini, keyin gorelkalarni qayta ko'zdan kechirdi.

Nasos yetib kelganda darz ketgan quvur us-tidagi o'pqon keng puxta transheyaga aylangan, gaz hididan gangib qolgan yigitlar badanlarini oq ko'ylik bilan artib, nariroqda belkurakka tayan-gancha turishar edi.

Yo'dosh nuqlu Saidning izidan ergashib yuribdi:

– Sen... hech bo'lmasa, asabingni bosib ol.

Said indamas, o'z ishi bilan band, cholning tor kombinezonini kuchanib-kuchanib oyog'iga tortar, temir qalqonining oynalarini latta bilan artar edi.

Yarim soatdan keyin uni og'ir nam brezentga o'rab transheyaga tushirishdi.

– Hoy, yigitlar, men rozilik bergenim yo'q, men yo'q dedim, hammang eshitding, – deb javrardi haligi chol. U bilan «surnaychi»ni nariroqda turishsin deb, ariq bo'yiga, nasosga qo'yishdi. Brandspoytni Yo'dosh o'zi qo'lga olib, shaylanib turdi.

Qo'li bo'shlar bir chekkaga chiqib, damlari ni ichlariga yutib turganlarida bir necha quloch joyda havoni lov etib o't oldi. Said tushib ketgan transheyaning ustini ko'm-ko'k alanga qopla-di, atrofdagi o't-o'lan bir zumda qovjirab, qumli tuproq mazut to'kilgandek qorayib qoldi. Yaqin turganlar allanimalar deb baqirib, yuz-ko'zlarini to'sib tisarilishdi, lekin ovozlari eshitilmas, lovil-lagan o't, nasosdan sharillagan suv, payvand apparatning vishillagan tovushi quloqlarni qomat-ga keltirar edi. Yo'dosh brandspoyt bilan o'tga yaqinroq bormoqchi bo'ldi, qo'rqqanidan rangi dokadek oqarib ketgan chol bilan «surnaychi» yigitga «Bos!» deb baqirdi, hamma tipirchilab qoldi, yuzlarini qurum bosgan yalang'och «to'ychilar»: «Nima qillb qo'ydik? Said qani?» degan vahimada o't atrofida zir yugurishar edi.

O't quvurdan yarim metrcha tepada zangori rangda lov-lov yonardi. Yo'dosh chuqurda qora-yib yotgan brezentni ko'rdi, xolos. Said tirikmi, yo'qmi, bilib bo'lmaydi. Havo qizib ketgan, ya-qinroq borish amri mahol. Qancha vaqt o'tdi

o'zi? Soatga ham qarashmagan ekan, umuman, hech narsani shartlashishmabdi ham, qanday xabarlashish, qanday yordam berish, qachon... Pishiqroq reja tuzib olishmabdi. Bolalarcha ish bo'ldi. Zokir aka haq. Said sulayib yotgan bo'lsa yoki kuyib ketgan bo'lsa nima bo'ladi?

Yo'ldoshni vahima bosdi, oddiy qo'l nasosidan tizillab otilayotgan suv o'yinchoqdek tuyulib ketdi, uni o't yamlab yutib yuboryapti...

Qancha vaqt o'tdi – bir daqiqami, bir soatmi – bilib bo'lmaydi, bir payt transheyaning yolqin yamlab turgan bir chetida qora narsa qimirlab, tuproq o'pirilib tushdi. Brezentga burkangan Said o'rmalab chiqib kelmoqda edi. Hamma o'sha tomonga yugurdi. Nasosni bug'lanib turgan brezentga to'g'rilashdi, ikki-uch yigit suv ostiga kirib Saidni dast ko'targancha o'tdan olib chiqishdi. Ko'targanda noqulay kelib qo'li lat yeganmi, ishqilib, Said brezendantan chiqib oq qalqonni boshidan olib irg'itdi-da, yonidagi yigitning ko'kragidan itarib yubordi: «Qo'pol! Ho'kiz!»

Gandiraklab orqasiga yiqilib tushayotgan «ho'kiz» Saidning tovushini eshitib quvonib ketgan edi, iljaydi. Said brezentga o'zini tashlab, chalqancha yotdi-yu, tiniq osmonga tikildi. Hushidan ketishiga sal qolgan, ko'kragi temirchining damidek tez-tez ko'tarilib tushar, vujudi suv bo'lib oqar edi. Uning fildek baquvvat ekanligini sheriklari endi tan olishdi. Sof havo uni yanada o'ziga keltirgan edi. Yotgan yerida ko'zi bilan izlab Yo'ldoshni topdi.

– Qalay? – Yo'ldosh cho'kka tushib uning yelkalarini ushlab ko'rди.

– Arqon kerak, – dedi Said sekin. Hamma jim bo'ldi.

– Arqon kerak, – dedi Said yana. Ba'zilar nimadandir shubha qilib bir-birlariga qarashdi. Lekin Yo'ldosh uning rejasini tushungan edi.

– Said...

– Bir yarim, ikki daqiqa chidash mumkin. O't tepada.

– Said... Sen shoshma, o'ylab ko'raylik. Hazil emas.

– Sen gorelkaga urma, boshni mo'ljalla, boshni. Havo yetishmayapti.

– Menga qara...

Said o'midan turdi. Olib kelingan arqonni beliga bog'ladı. Brezentni ariqqa botirib, yana burkandi.

– Esini yebdi, bola... jinni bo'libdi, – deb chol teskari qaradi.

– Arqon qimir etdi – tortasanlar! – dedi Said qichqirib, uning tovushi endi ancha tetik edi. – Ikki daqiqadan ortiq qolsam, qimirlatmasam ham!

U og'ir ho'l chodirga o'ralgancha ayiqdek lapanglab borib o'tga kirdi-yu, shu zumdayoq chuqurga sho'ng'idi. Hamma o'z postiga yugurdi. Yana guvillagan tovush, boshni aylantiradigan gaz hildi, yuzni yalaydigan yolqinli havo... Arqondagilar soatdan ko'z uzmay, yer bag'irlab o'tga yaqinroq borishdi.

Ikki daqiqa bo'lar-bo'lmas arqon qimirladi, shoshib torta boshlashdi. Loy, suv oqib turgan brezent ko'rindi.

Bu safar Saidning ahvoli og'irroq edi. Ustidan paqirlab suv sepishsa ham, anchagacha hushiga kelolmay yotdi. Besh-olti daqiqadan keyingina

ko'zini ochib, to'yib-to'yib nafas olgach, atrofdagi-larga jilmayib ko'z qisdi:

– O'ylamanglar tag'in... kalla ishiab turibdi. Faqat yurak dosh berolmayapti, – dedi u yana turib. Uning yuzi ertalabkidek tarakt emas, biroz siniqqan, paylari bo'shashgan edi.

O'n daqiqachadan keyin yana tushdi. Birozdan so'ng chuqur ustida olovning kamaygani sezildi. Endi reja aniq, har kim o'z ishini biladi, natija ham ko'rinish qoldi. Hamma jonlanib ketgan edi. Lekin Saidni bu safar mutiaqo hushsiz tortib olishdi. U ingrar edi.

Biroq hushiga kelishi bilan yana o'tga, transheyaga ko'z tikdi...

Shu xilda uni yetti marta tushirib, yetti mar-ta tortib olishdi. Oxirgi tushishida yarim daqiqa o'tar-o'tmas olovning uni o'chdi. Hamma chuqur tomonga yopirildi, lekin quvurlarga hamon yaqinlashib bo'lmas, bitum, izolyatsiya qoldiqlari tutab yotar edi. Pastda hovur chiqib turgan ko'lmak suvda loy brezentga o'ralib g'ujanak bo'lib yotgan Saidni yana arqon bilan tortib olishdi. U keyingi yarim daqiqada qalqonsiz ishiaganga o'xshaydi, qalqon nariroqda, quvur ostida yumalab yotardi. Nega unday qildi ekan, qosh-kiprigi kuyib ketibdi, ko'zi omon bo'lsa bo'lgani.

Lekin sof havoga chiqarib yotqizishlari bilan o'pkasi yana temirchining damidek ishlay bosh-ladi. Uning bahodirlarcha hansirab hushsiz yotishiga o'rtoqlari havas bilan tikilib turishardi. Avariya xizmatidan kelgan keksa ishchi bilan nazoratchi o'z ko'zlariga ishonmagandek dam quvurning u yog'iga o'tishardi, dam bu yog'iga.

– Mustahkam yamabdi azamat! – deb chol soniga shapatilaganicha transheya yonidagi bal-chiqqa o'tirib qoldi. Boshda ancha sergap ko'rинган nazoratchi endi minnatdorchilik bildirishga gap topolmasdi. Yigitlar ham «hozir gap ortiqcha» degandek, jim edilar. Saidning uyquga ketgani ni ko'rgach, tuproq uyumiga o'tirib, papiros tutatishdi. Shabada kuyuk islarini ham tarqatib yubordi. Kun yarmidan og'gan, atrof jimjit edi. Allaqayoqda, osmonda to'rg'ay sayradi. Yoz kiriyapti.

Said bo'lsa qo'llarini yozgancha chalqanchasi ga yotibdi. Yerning bolasidek...

Shu yotgancha rosa bir soat uqlab, ancha tetik tortib turdi. Hammalari xursand bo'lib, hol-ahvol so'ray ketishdi. Zokir aka ham oldiga kelib, qo'llarini silkiy boshladi, qo'yib bersa, qo'llarini ko'ziga surtagan.

– Menga qarang, – dedi Said uning minnatdorchiligidan o'zini biroz noqulay sezib, – transheyani ko'mmay turinglar yamoqni yana bir tekshirish kerak, bitum bilan izolyatsiyalar ham yonib ketdi...

– Xo'p, uka, xo'p, hammasini aytganing-day qilamiz... – dedi chol qo'lini ko'ksiga qo'yib. Nazoratchi ikkalasi Saiddan ko'z uzolmasdi. Yigitlar yangi kostyumlarini qo'ltiqqa urib, mashinaga yopirilishdi. Pakana Pak motorni yurgizib yuborgan edi.

– Hoy, uka, aqalli otningni ayt, otning nimadi, kimsan? – deb qichqirardi Zokir aka. Lekin uning tovushi motor shovqini, sho'x qiyqiriq, suron orasida, o'zi bo'lsa to'zon ichida qolib ketdi. Shafaq qizartirgan keng ufqlarga qo'shiq taraldi:

*Hay-hay o'lan, jon o'lan,
O'lan ko'pdır, yor-yor.
O'lan aytgan tilingdan
Menga o'ptir, yor-yor...*

Mashina, orqadan tun quvlab kelayotgani-ni sezgandek, tinmay yelar, kuzovdagi yigitlar bir-birlarining yelkalariga qo'l tashiab, tebranib borishar, oldinda Said bilan Yo'ldoshning kir ko'ylak ustidan tashlagan pidjaklari hilpirar, «Yor-yor» esa hamon yangrar edi:

*Seni desam ichim to'lib,
Olov yonar, yor-yor.
Lablaringdan to'yib o'psam
Mehrim qonar, yor-yor.*

Bularning kayfiyati motorga ham, butun tabiatga ham o'tgan edi. Ko'kimtir qorong'i osmon, olamda faqat shularni ko'rayotgandek, tepalarida jaranglab gir aylanar, qip-qizil shafaq esa xuddi bayroq singari oldi-ga chorlar, cho'l bag'rida go'yo bir mashina quvonch, bir mashina g'urur uchib borar edi.

Kombinat shaharchasining ko'chalarida ularni «To'ydan kelishdi, hammalari shirakayf», deb kutib olishdi. Hech kim bo'lgan voqeadan gap ochmadi, ko'zları yonib, uchragan tanishlar bilan sho'x-sho'x gaplashib, uy-uylariga tarqalishi-di. Said bilan Yo'ldosh ham yelkalariga qo'l tashlashib, yotoqlariga jo'nashdi.

Bu ko'chalarda kombinatning allaqaysi sexida doim vishillab turadigan bug' tovushi kecha-yu

kunduz payvast eshitilardi. Shuning uchun bemalol gaplashib bo'lmaydi, baqirib gaplashish kerak. Said ariq bo'yida yonboshlab o'sgan yosh qayrag'och shoxiga bir sakrab, nihol sindirib oldi, tishladi. Bo'rtib turgan kurtakning nordon shirasini og'ziga yoqdi.

– «To'y» yomon bo'lindi-ya? – dedi Yo'ldosh qichqirib. Said hozir o'z hayotida qandaydir yusakkir palla ekanini his qilar, bu favqulodda mardlik unga munosib shuhrat olib kelishini, er-tadan boshiab hamma joyda duv-duv gap bo'lishini ham bilar, yuragida yongan yorqin mash'alni yashirgisi yo'q, o'rtoqlik, yigitlik hislarini oshkora qilgisi kelar edi.

– Menga o'ptir, yor-yor, bitta o'ptir... – deb kuylab yubordi u. Keyin do'stining qulog'iga cho'zilib dedi: – Azizani o'pgan emasman, ishonasanmi?

– Yo'g'-e, – bu Yo'ldoshga ham qiziq edi. Shu vaqtgacha uning yuradigan qizi yo'q.

– Bugun butun umrim birdan yalt etib yorishganday ko'zimga ko'rinish ketdi. O'shanda shu yodimga kelibdi.

– Ishonmayman, – dedi Yo'ldosh chin ko'n-gildan.

– Ishonaver. To'ydan qaytib keldimikan? – Saidning ko'zlari yonar, u baxtiyor edi. Shu payt Yo'ldoshning ko'ngli sal xira tortdi. Said hozir albatta Azizani qidirib topadi, dilidagi qonuniy g'ururni, quvonchli, baxtli hisni u bilan o'rtoqlashadi. Bugun topmasa, balki ertaga Azizanining o'zi gazeta ko'tarib yugurgancha kelib qolar. Said uni bag'riga oladi, ilgari o'pmagan bo'lsa, endi...

Yo'ldosh yotog'iga qaytarkan, boshini quyi solgan edi. U hozir kimni, nimani o'ylashini bilmay, xayollarini eplolmay qoldi. Kombinatning tungi shovqini, goho xira, goho ko'zni oladigan chiroqlari osmonni tutgan edi. Bu kombinat hali cho'lda yolg'iz, xuddi qoya-oroldek qaqqayib turibdi. Kelgusida bu yer cho'lning poytaxti – katta shahar bo'ladi, atrofda o'nlab sovxoz shaharchalari qad ko'taradi. Qurilish kombinati bu yerga shuning uchun tushgan, juda ko'p sement, g'isht, asbestos, plitalar, yirik panellar, quvurlar, temir-beton karkaslar, yig'ma konstruksiyalar, bloklar kerak. Hozir yangi-yangi sexlar ochilyapti, birining havozalarida elektrpayvand dugalarining ko'zni qamashtiradigan shu'lalari charaqlab turibdi, birining hali qozoni ham bitmagan. Yo'ldoshning o'zi avvallari temir-beton konstruksiyalarini omborga uzatadigan kranda yordamchi bo'lib ishiar edi. Hozir bloklarni pechga tashiydigan vagonetkachillarning brigadiri. Asbest quvurlar konveyerida ishlaydigan Aziza bilan shu yerda tanishdi. Bu g'alati qiz avvallari Yo'ldoshga, ham-maga aql o'rgataveradigan, kerak-nokerak yerga suqilaveradigan, hayosizzroq qizdek ko'rindi. Yo'ldosh unga Said bilan yuradigan bo'lgandan keyingina qiziqib qoldi. Razm solsa, juda ajoyib qiz ekan, ko'ngli sof, to'g'ri so'z, mulohazali. Lekin endi kech edi.

Shunday qilib, «og'zidagini oldirgani»ga ichi kuyib yurganida, mana bugun bu voqeа yuz berdi. Shu kungacha ko'ksida qandaydir umid o'ti miltillab turgan bo'lsa, hozir Aziza undan butunlay uzoqlashib ketgandek tuyuldi.

Kombinat posyolkasida kam kiyiladigan atlas ko'ylagi qorayib turgan daraxtlar orasida milt-milt ko'rinar, ihotasiz hovlilarni bosib o'tganida itlar vovillab qolar edi.

Yotoqxona yo'lagiga kirgach, Saidning eshigi oldida to'xtab, kalta qirqilgan to'lqinli sochlarini tuzatdi, keng yonoqli yuzida to'yda ichilgan jindak vinoning qizilligi hali ham balqib turar edi. Eshik ochilishi bilan qizni ko'rib yuz-ko'zi charaqlab ketgan Said uni darrov ostonadan ichkariga tortdi. U Azizani kutgan edi. Vannadan chiqib oppoq ko'ylak kiygan, yoqalari ochiq, ilhaq vujudi unga talpinib, ichki bir haroratdan lovillab turar edi.

Aziza kirishi bilanoq unga g'alati tikilib qoldi.

– To'y yaxshi o'tdimi? – deb so'radi Said. Aziza uning bezovta yuziga tikilgancha:

– Ha, yaxshi o'tdi, – deb bosh irg'adi, keyin: – Said, hammasini eshitdim, – dedi Saidning yo'g'on bilagidan mahkam ushiagancha.

Shoshib qolgan Said qizni birdan o'ziga tortib, bag'riga bosdi, butun vujudini o't olgandek, uzoq o'pdi. Bo'shashib ketgan Aziza sal gandiraklab, darrov o'zini qo'nga oldi-da, yerdan ko'z uzmay, yigitning g'ijim bo'lgan ko'ylak yoqasini tuzatdi.

– Ammo lekin hovliqib ketmang... – dedi u. Ancha jim turgandan keyin: – Ertaga klubda uchrashamiz, – deb shartta chiqib ketdi.

Said projektor shu'lasiga tushib qolgan parvonadek o'zini yo'qotib, «to'xta, sabr qil» ham deyolmadi, orqasidan yugurib chiqmadi ham. Ajab, labini kuydirdi-yu, ketdi-qoldi. Xuddi tushdagidek...

Said quvonchini ichiga sig'dirolmay, quloch kerib borib, o'zini karavotga otdi. Kutilmagan baxtli hayajon uning so'nggi darmonini olib qo'ygan edi. Toshday qotib uyquga ketdi.

Ertasiga gaz quvuri trassasida bo'lgan voqeа hammaning og'ziga tushgan edi. Ko'chada ham, sexda, idorada, uyda ham, qayerda ikkita odam to'plansa – shu gap. Birov qo'shib-chatib, ko'pir-tirib afsona darajasiga olib chiqib qo'ygan, birov bo'lsa, to'ydan kelayotganlarning mastlik bilan qilgan ishi, deb yerga urgan... Faqat uchinchi kuni, gazetada xabar bosilib chiqqandan keyingi-na mish-mishlar sal bosildi.

Gazetani bir quchoq qilib ko'tarib kelgan Salim edi. Bu o'sha sariq «surnaychi». Platformadan segment tushirardi. Qosh-kiprigi doim chang. O'zi qo'rqaq bo'lsa ham, o'lgudek baqiroq, vahima.

– Hoy, gazetaga tushibmiz! Mana: «Fidokor yoshlар!» – deb qichqirgancha kirib keldi u nonushta vaqtida sexga. Bu sex hali bitmagan, tomi ochiq, de-raza romlari yo'q, burchaklarda taxta, g'isht uyulib yotardi, ertalab yoshlар shu yerga to'planishib, biri derazada, biri g'isht ustida o'tirib, biri taxtaga qiyig'ini yoyib, nonushta qilar edi.

– Mana, «Fidokor yoshlар!» O'qidingmi? Shuni bittasi akang bo'ladi. Navbat bilan ol, shoshma, yirtasan. Shuning bittasi akang bo'ladi, ha! Nasosning lo'kidonini bosib turganman!

Salim bir dasta gazetani bir zumda ulashib chiqdi. Hamma qatig'ini, termosini, yong'og'-u turshagini bir chetga qo'yib, gazetaga yopishdi. Lekin jimlik, gazetaning shitir-shitiri uzoqqa bormadi, hamma hech narsa bo'lmagandek, yana

nonushtasiga tushib ketdi. Xabar kichkinagina, intervyu tariqasida berilgan edi.

- Vahlmangni qara, mallavoy!
- Shugina gap ekan-ku.
- Lo'kidonini bosganmish.
- Shunaqalar tarqatadi-da...

Yana o'zlarining gaplari bilan bo'lib gazeta ham unutildi. Faqat novcha Yo'ldosh taxta ustida oyog'ini osiltirib, hamon gazetaga tikilgancha o'tirar edi. O'qiyotgani yo'q, lekin ko'zini ololmayapti, rangi sal oqarinqiragan, do'stlarining gaplari-ga zimdan quloq soladi. Atrofga bir qarab, yana gazetaga ko'z tashlaydi. Intervyuni Farmonov bergen edi. Unda ongli, g'ayratli yoshlар haqida gap boradi. Kombinat jamoasi, bir guruh yoshlар... Dam olish kumi... Yo'ldosh qayta-qayta o'qib, Saidning nomimi qidirdi. Yo'q, Saidning ham, boshqa bironta yigitning ham nomi tilga olinmagan xabarda. Bu qanday bo'ldi? Yo'ldosh atrofga qarab Saidni qidirdi-yu, lekin umi ko'rib qolishdan qo'rqardi. Xuddi bunga o'zi aybdordek... Badani qizib ketdi. O'sha kungi o't-olov, brezent ichidan chiqib kelgan hushsiz Saidning siniqqan yuzi, kuygan qoshlari ko'z oldiga keldi. Chindan ham u hozir Saidning oldida o'zini gunohkor sezaboshladi, unga ro'para kelganda hima deydi, yuziga qanday qaraydi? Bu adolatsizlik-ku axir! Hayotini xavf ostida qoldirib...

Shu payt yuzldan temir qalqonini manglayiga ko'tarib bir qo'llig'ida elektrod qutisi, bir qo'llig'ida gazeta, Said kirib keldi.

– O'qidingmi? – dedi u Yo'ldoshmi ko'rib. Uning yuzidagi xotirjamlikni payqab, Yo'ldosh biroz o'zi-

ga keldi. Xayriyat. Yaxshi yigit-da. Boshqa odam bo'lganda... Said taxtaga suyanib o'tirib, papiros tutatdi.

- Chekmas eding shekilli?
- Bekorchilikdan.
- Bekormisizlar?
- Elektrod yo'q, omborda zaxlatib qo'yishibdi.
- Befarosatlar, - dedi Yo'dosh anchadan keyin g'ijinib. - Gazetadagini aytaman, - deb qo'shib qo'ydi.
- E, qo'ysang-chi...
- Yo'q, qo'ymayman, Farmonovga kiraman. Bilmagan-ko'rмаган narsasiga aralashmasin.
- Jinni bo'ldingmi? - Said etagini qoqib turib ketdi. - Men xalqimga ketdim, jamoaga! - dedi u derazadan sakrab. Ammo Yo'dosh sezdiki, uning artistligida jindak alamzadalik bor, o'zini xursand qilib ko'rsatishga urinishi yasamaroq edi. Bu tabiiy. Uni qattiq xafa qilishdi. Sald ekan-ku, Yo'doshning o'zi ham, ichida nimadir uzilib tushgandek, ko'nglidagi chiroq lop etib o'chgan-dek, bo'shashib, hamma narsaga befarq, hafsalasiz bo'lib qoldi. Adolatsizlik unga doim shunday ta'sir qilardi.

Farmonov uni o'z idorasida:

- Ha, fidokor! - deb xushchaqchaq kutib oldi.
- U Yo'doshning otini bilmaydimi, unutib qo'yadimi, xullas, doim shunday deb chaqirardi. Yo'dosh bundan xafa bo'lmaydi, «Fidokor» bo'lsa yomonmi! Faqat hozir xushchaqchaqlikning xo-nasi emas, Yo'dosh jiddiy masalada astoydil gaplashgani kelgan.

Mening ismim Yo'dosh, - dedi u jiddiy turib. Keyin bo'sh kursilardan biriga o'tirib gap bosh-

ladi. Kuzovning burchagidan tasodifan brezent chodir chiqib qolgani, yuzlari ajin Zokir aka to'g'risida, Saidning o'zini gaz o'pqoniga urib, uni yetti marta arqon bilan behush tortib olganlarida ko'zlariga o'lib qolgandek ko'rinish, hammaning yuragi orqaga tortib ketganini, yana allaqanday ikir-chikirlarni gapirdi. Bu voqeani birovga birinchi hikoya qilishi bo'lganidanmi, batafsilroq gapirgisi kealdi. Farmonov eshitib o'tirar ekan, dam stoldagi presspapyeni, dam yondaftarlarini u yoqdan bu yoqqa olib qo'yari, dam tirsagi ostidagi oynani kuh-kuhlab, g'ijim qog'oz bilan artib qo'yari edi.

– Hammasini eshitdim, qoyilman! Eshitdim, gapirib berishdi, – deb o'rnidan turib ketdi Farmonov. Serbar kamariga qo'llarini tirab, ikki qadam nari-beri yurdi. U ellikkardan oshgan bo'lsa ham, ko'saroq oqish yuzi yosh ko'rindigan, yumshoq sochi doim mashinkada olingan, katta ko'zoynakli, gapi ham, kiyimi ham puxta, ishchan kishi edi. – Ishchi sinfining haqiqiy sifatlari bu. Ko'pdan quyon qochib qutulmas, deb shuni aytadi. Ajoyib jamoa. To'g'risi, katta jamoaning kichik bo'lagi! – dedi u g'urur bilan.

– Bu gaplaringizni biz intervyuda o'qidik.
 – Xo'sh, biron narsadan norozimisiz?
 – Axir bu o'ziga yarasha qahramonlik edi, o'rtoq Farmonov.

– Ha, ha, albatta! Xo'sh?
 – Buni ayrim odamlar qildi. Jumladan, Said... To'g'rirog'i, asosan Said. Oramizda u birdan-bir payvandchi edi. Agar u bo'lmasa yoki Saidning o'rnida boshqa odam bo'lganida, balki...

– Nima gap o‘zi, nima demoqchilsiz?
 – Gazetaga Said haqida yozish kerak edi.
 Sizning xabaringizda aqalli biron famlliya ham yo‘q. Bu...

– E-ha, gap bu yoqda deng? Nima, jamoadan ayrim shaxslarni ustun qo‘yish kerakmidi sizningcha? – Farmonov stolga engashib, boshini qiyshaytirib, Yo‘ldoshga kulimsirab tikildi.

– Bu adolatsizlik-ku, u qildi hamma ishni, u jonidan kechib...

– Qolganlar-chi, siz-chi, yana bir mashina yoshillar-chi? Faraz qilaylik, u qahramoningiz yolg‘iz o‘zi bo‘lsa, qo‘lidan nima kelardi?

– Axir, aqalli nomini tilga ollish...

– Menga qarang, kim dedingiz, o‘sha... mabodo, o‘shaning o‘zi yuborgani yo‘qmi sizni mening oldimga? Ehtimol, u gazetaga tushish uchun o‘tga kirgandir?

Yo‘ldosh shunday keskin o‘rnidan turdiki, tagidagi kursi taraqlab, nariroqqa surilib ketdi.

– Nega haqorat qilasiz, o‘rtoq Farmonov! – dedi u bo‘zarib.

Farmonov stol ortidan chiqib, asta kelib Yo‘ldoshning bilagidan ushladi:

– O‘zini pesh qilgan odamni yomon ko‘raman. Lekin ma‘lumki, undaylarning davri o‘tgan. Jamoani, ommani oyoqosti qilishga endi yo‘l qo‘ymaymiz, akasi! – Farmonov uni bilagidan ushlagancha eshik tomon yetakladi. – Shunday, yigit! Yakka qahramonlik bizga yot mafkura, bizda alohida, tanlangan zotlar yo‘q, omma bor, jamoa bor...

Qabulxona eshigi ochilishi bilan, Yo‘ldosh to‘xtab qoldi. Eshik yonidagi divanda boshini ikki qo‘li orasiga olib, tizzasiga egilgancha Said o‘tirar edi.

– Said? – dedi bunga hayron bo'lgan Yo'ldosh. «Hamma gapni eshitibdi!» – degan fikr miyasiga kelib urildi.

Said sakrab o'rnidan turdi. Uning ko'zlarig'alati, yuzida allaqanday shubhalar aralash yetilib kelayotgan qat'iyat ifodasi bor edi.

– Ha, yigit, sizmidingiz o'sha... – Farmonov qiziqish bilan Saidning gavdasini ko'zdan kechir-di. Keyin qansharidan katta ko'zoynagini olib, hafsalal bilan artarkan: – Tuzuk, tavakkalchi ekansiz, – dedi.

Uning Saidga aytgan gapi shu bo'ldi. Maqtab aytdimi, qoralabmi – bilib bo'lmasdi.

Yo'ldoshning fikricha, Saidning o'zgarishi ham, fojiasi ham mana shu kundan boshian-gan edi. Odamning shu qadar keskin o'zgarishi mumkinligini haligacha aqliga sig'dirolmaydi. Saidning yurish-turishi ham, o'ylari, gaplari ham o'zgarib ketdi, o'zi ham tushunib bo'lmaydigan, g'alati bo'lib qoldi. Gap uqtirib bo'lmaydi, qaysar. Na do'stlikni, na yaxshilikni tan oladi. Yo'ldosh uning soyasi bunchalik yupqaligini bilmas ekan. Hammani tashvishga solib qo'ydi. Ayniqsa Aziza bechorani.

Bir haftadan keyin Yo'ldosh xunuk gap eshit-di: Said kombinatdan ketish haqida ariza ber-ganmish. Yo'ldosh munaligini kutmagan edi. Shunchaki ketish bo'lsa mayli edi, har kim ham ketishi mumkin: Said ham, boshqasi ham. Lekin Saidning arizasi o'sha voqeaga bog'liq-da. Bunga hammaning ham aqli yetadi. Yo'ldoshning ko'ngli g'ash tortib ketdi. Axir u bu qilmishi bilan o'ziga ham, sheriklariga ham dog' tushiradi-ku unda.

Farmonovning gapi bashorat bo'lib chiqadi: nomim gazetada chiqsin deb o'tga kirgan bo'ladi.

Ammo Yo'ldosh Saidning unday emasligiga ishonadi. Uni hozir topish kerak. Balki uydadir. Keyingi vaqtarda kechqurunlari u klubga ham chiqmay qo'ygan. Gaplashib ko'rish kerak, o'zi nima gap?

Borsa, payvandchi karavotda yarim yalang'och bo'lib papiro burqsitib yotgan ekan. Chirog'ini ham yoqmabdi. Qorong'i uy tutunga to'lgan. Yo'ldosh do'sti bilan salomlashib, chiroqni yoqdi, derazani ochib yubordi. Said baqaloq gavdasini asta ko'tarib, shimimi kiydi, oldi ochiq ko'ylagini yelkasiga tashladi. Uming bir xonalik uyi ancha fayzli, polga cho'g'dek gilam to'shalgan, bu atrofning do'konlarida topilmaydigan alomat torsher, hatto bufetida arzongina serviz ham bor edi.

Said stoldan allaqanday oldi-qochdi fantastik kitoblarni surib tashlab, qadah, stakan qo'ydi.

– Almisoqdan qolgan choraktam bor... – dedi u Yo'ldosh o'ziga kursi olib o'tirdi.

– Buning uchun kelganim yo'q... Menga qara, ariza bergaming rostmi?

– Bersam nima bo'pti? – Sald qadah bilan stakanni ijozatsiz to'ldirdi. – Birov ketadi, birov keladi, har kimning ixtiyori o'zida. Qozonchining erki bor qaydan qulqoq chiqarsa, degan gapni eshitmaganmisan? Boshqa joyda ham bir ishlab ko'raylik. Yo buning aybi bormi?

Yo'ldosh oldidagi qadahni urishtirmsandoq, yakka o'zi suvdek ichib yubordi.

– O'zingni go'llikká solib nima qilasan, Said, – dedi labini yengi bilan artib, – men bilaman-ku,

do'stlaringni, jamoani osongina tashlab ketadi-gan odam emassan. Esingmi yig', devona arazlasa to'rvasiga ziyon, deyishadi, qaytib ol arizangni. Odamlar nima deydi?

Said aroqni ichmay, yana papirosl olib karavot-ga cho'zildi. U o'zi ham haligi yotishda shu gapla-rini o'ylab yotgan ekan chog'i.

– Buni araz deb o'ylasang, sen ham jo'n ekan-san. Qaytib olmayman, ko'p o'yladim, – dedi u birozdan keyin.

– Qayoqqa borasan?

– Boshim oqqan tomonga. Shaharga, – Said birdan o'rnidan turib qizishib ketdi, papirosn kuldonga bosaman deb, barmog'ini kuydirdi: – Men pulga qiziqlayman, o'ylama...

– Bilaman.

Men qadrimga yig'layman. Bormanni, yo'q-manmi? Mana sen ham Farmonovga o'xshab, ikki gapning birida «jamo», «omma» deydigan bo'lissan. Axir jamoa mendaqalardan iborat bo'lsa, yomonmi? Nega buni tan olmaysizlar?

Ana, endi yorildi, deb o'yladi Yo'dosh. U Said-ning ariza berish sababini taxminan shunday deb bilar edi-yu, bu sababni o'zicha tahlil qilish-ga negadir cho'chib yurardi.

– Nega tan olmas ekanmiz?

– Tan olganlaring shumi? – Said qo'lini bigiz qilldi: – o'ylab qara, axir bu yerda sen bilan bizning hatto otimiz ham yo'q, «Hoy, yigit!», «Hoy, fidokor!»

– Bu bitta odamning odati. Uni sen... jamoa-ga taqma, – dedi Yo'dosh, – undan keyin, sen bu so'zga osilma! Yo'l qo'yamayman. Qudratli

so'z bu. Men uni Farmonovingday bekorga ish-latayotganim yo'q. Jamoa! U odamni qadrlaydi. Sen o'zingni yetimcha qilib ko'rsatmay qo'ya qol, diydamiz qattiq, yig'latolmaysan. Bizda ilg'orlar ishiga yarasha hurmatdaligini yaxshi bilasan.

– Ha, o'tgan yili sen bilan biz olti oygacha hurmat taxtasida osilib turdik, – dedi Said. – Esing-dami, darvozadan kiraverishda oltmishta ilg'oring katta-katta fotosuratlari osib qo'yilgan edi. Osilib turaverdik, turaverdik... Asta sarg'aydik. Yomg'irda bujmayib, shamolda yirtildik. Sening surating yirtilib, mening suratimni to'sib qoldi. Meni sezmadи deysanmi: har o'tganda zimdan ko'z qiringni tashiab qo'yarding, tuzatib qo'yay desang – noqlay, tuzatmasang, yana yaxshi emas. Oxiri yarning uzilib tushdi, men uning loyda yotganini ko'ridim, kimdir bilmey bosib olibdi. Kuzgi shamolda men ham yirtilib tushdim...

– Hamma gap shunda degin?

– Yo'q, gap bunda emas. Shunchaki esimga tushdi.

– Bo'lmasa nima demoqchisan? O'zimga alohi-da e'tibor kerak demoqchimisan? Sal kamtarroq bo'lish kerak odam. Jamoada barcha barobar.

Said do'stining yuziga tikilib kului.

– Tag'in faqat Farmonov shunday deydi, deysan. O'zing ustozingdan o'tib ketibsan-ku...

So'nggi gapi Farmonovnikiga o'xshab ketgani-ni Yo'ldoshning o'zi ham fahmladi-yu, lekin aytib bo'lgan edi. Saidning ochiq kulib qarashidan yuzini chetga oldi. Said davom etdi:

– Jamoada barcha barobar deysan, qani aytchi, nega? Nega hamma barobar bo'lishi kerak?

Yo shunday qonun bormi? Aksincha, «har kimning ishiga yarasha, qobiliyatiga yarasha» emasmi tamoyilimiz?

Yo'dosh indamadi. U o'rnida uzala tushib yotgan Saldga teskari qarab o'tiribdi. Go'yo har qaysisi o'ziga o'zi gapirayotgandek edi. Bir bo'sh qadah bilan lim to'la stakan stolda turgancha qolaverdi.

– Biron kishining nomi sal tilga tushib qolsa, «Shaxsga sig'inish bu!» deb baqiradigan «demokratlar» chiqibdi. «Ommaviy ilg'orlik», «ommaviy qahramonlik». Ommaviy bo'lgandan keyin nimasi ilg'orlik? Kimlarga nisbatan ilg'orlik? Qahramonlik ham ommaviy bo'lishi mumkin emas, Yo'doshvoy. Agar ommaviy bo'lsa, u qahramonlik deyilmaydi.

– Kechirasani... Vatan urushidagi g'alabamizchi?

– Vatan urushining qahramonlari bo'limganmi? Gastelloni tilga olmay qo'yishgani bilan, bari bir, u bor edi axir!

– Avvalo, tilga olmay qo'yishdi, deganing xato, – dedi Yo'dosh, – ikkinchidan, birovlarni hadeb gapiraverib, bu yoqdagi million-million noma'lum askarlarni unutish ham xato bo'lardi.

– «Noma'lum askar» deyishning o'zi unutish emasmi? – Said o'rnidan turib ketdi. – Yo'q, men bu iborani tushunmayman. Unda achchiq bir alam bor, odamning qadriga yig'laging keladi. U o'zi yo'q... nomi ham yo'q. Nimasi bor? – U Yo'doshning ro'parasiga kelib o'tirib, asta o'ychan davom etdi. – Eshitganmisan, Afrikada bir xil chumoli bo'lar ekan. To'da-to'da bo'lib siljiganda ikki-uch

tanob yer qop-qora bo'lib ketarkan. Agar yo'lda chuqurlik uchrasa, oldindagilar o'zini chuqurga tashlayverarkan, keyindagilar uning ustiga, undan keyin yetib kelganlar yana uning ustiga, ishqilib, chuqurni o'z gavdalari bilan to'latib, ko'prik hosil qilmaguncha bir-birlarining ustiga tashlayverar ekanlar. Bordi-yu, bu chuqur emas, tubsiz jarlik bo'lsa-chi, Yo'ldoshvoy? Ma'lumki, chumolillardan birontasi buni bilmaydi ham, o'ylamaydi ham. Ular faqat birin-ketin yurish kerakligini, halok bo'lganda ham birin-ketin halok bo'lish kerakligini biladi. Milliardlar o'z jasadidan ko'prik yasaydi, orqadagi milliardlar shu ko'prikdan hech narsa bo'lmaganday o'tib ketadi. Men jarga o'zimni tashlamay orqaga qaytsam-chi, men chumoli bo'lishni istamasam-chl, shunga nima deysan?

– Menga qara, dahshat-ku bu! – dedi Yo'ldosh sherigini hozir ko'rib turgandek tikilib. – ja-moaviylik to'g'risidagi bunday mash'um tasavvurni sen kimdan orttirding?

Said yelkasini qisdi:

– Men hech qayerga borganim yo'q, oralaringda yuribman...

– Oramizda yurganining bilan begona ekansan. Bundan ham uzoqlashib ketsang, holing nima kechadi? O'ylab ko'r, ko'pga kesak otib, ro'yoga chiqolmaysan, barmog'ingni tishlab qolasan. Jamoaning eng yomoni ham yolg'izlikdan afzal, bilib qo'y. Muddaong nima, gapir?

– Menga hech nima kerakmas! – dedi Said stakandagi aroqni derazadan sepib tashlab. – Men odamman, men borman, o'zimga yarasha

bir dunyoman, ishim, nomim, tuyg'ularim bor, moyday erib, yon-atrofimga singishib ketishni istamayman, – dedi u ko'kragiga urib, – istayman-ki, o'zligimni, o'z shaxsiyatimni his etsam.

– Bu istaging ashaddiy xudbinlikka aylanib ketibdi! Maydonga chiqib o'zingni os, hamma ko'rsin! O'zimga o'zim xo'jayinman deb baqir! O'zligingni ko'rsat! – Yo'ldosh yo'lidagi kursini oyog'i bilan taraqlatib surib, shartta chiqib ketdi. U qorong'ida turtinib-surinib shoshib borarkan, o'ylari chalkashib ketganidan peshanasini ter bosgan edi. Mana, nihoyat Said dilida borini tiliga chiqardi. Chindan ham o'zi bir olam ekan. Ammo uning bunday past-u baland o'ylari borligi Yo'ldoshning xayoliga ham kelmagan edi. Bir chekkasi, Yo'ldosh uning qaysarligini anglayotgandek bo'lib turibdi. Bu to'dachilikka, qiyofasizlikka qarshi isyon edi. Ammo unda jamoaga bunday qarash qayoqdan paydo bo'ldi?

Bu vaqt yo'lkada Aziza ko'rindi. Yo'ldosh uni g'ira-shirada ham darrov tanib, ariqlardan sakrab, ro'parasidan chiqdi.

- Aziza, men Saidnikidan chiqib kelyapman.
- Salom.
- Avzoyi buzuq. Siz ham o'sha yerga ketyapsizmi?

Aziza qarab turdi-da, indamay jo'nab qoldi. Yo'ldoshga bu o'lganning ustiga tepgandek og'ir botdi. Juda xafa bo'lib, xiyobonga o'tib, o'rindiqqa o'tirdi. Ko'rinish turibdiki, Yo'ldoshning bu ishlarga aralashuvini Aziza o'zicha tushunib, ma'qul ko'rmay yuribdi. Saidning o'zgarib qolishida Yo'ldoshning qo'lli bor deb o'ylasa ham ajab

emas. Aslida-ku, Saidning daf bo'lishi Yo'ldoshga bir omad, chunki Aziza uning izidan ergashib ketmaydi albatta, qoladi. Ammo Yo'ldoshning ko'nglida bunday reja yo'q. Agar bo'lsa, bu g'arazgo'ylik, do'stga nisbatan insofsizlik bo'lardi.

Shunday qilib, Yo'ldosh Azizaning oldida aybsiz aybdor bo'lib turibdi.

Oradan sal vaqt o'tmay qayrag'och tagidan tanish ovoz eshitildi. Yo'ldosh Said bilan Azizani ovozlaridan tanib, mushkul ahvolda qoldi: turib ketay desa, ularga yana ko'ringisi kelmasdi, indamay o'tiraveray desa gaplariga beixtiyor quloq solishga to'g'ri keladi. Shu o'ylar bilan bir qarorga kelolmay, ancha o'tirib qoldi. Narigi o'rindiqdagilarning tovushi oqshom sukunatida baralla eshitilardi. Azizaning qumri kukusi singari ko'krakdan chiqqan shirali ovozi «Seni olib qolishga o'zimning kuchim yetadi, birovlar aralashmasin», degandek ishonchli, dam past, dam baland, ehtirosli eshitilar edi.

– Men sevgimdan uyalmayman, Saidjon aka, o'tinaman, qoling. Meni bilmaydi deysizmi, ko'ribilib turibman – tengi yo'q usta mutaxassissiz. Qani endi men ham shunday bo'lsam. Siz qilgan ishni hamma ham qilolmaydi. Biroq...

– Siz xato tushunibsiz, popuk... – Saidning yo'g'on ovozi eshitildi. (Ularning gaplashib o'tirgani mayli-yu, mana shunaqa «popuk-mopugi» yuragidan o'tib ketadi Yo'ldoshning.) – Xato tushunibsiz. Men o'zimni o'ylayotganim yo'q. Axir odamlarni bir yerga jamlab, keyin barobar taqsim qilib, o'rtamiyona bir narsa hosil qilib bo'lmaydi. Jamoa bir kaft mayiz emas. Unda odamlar bor,

odamlar ichida yaxshi-yomoni, puchak-saragi bo'ladi...

- Sizning albatta boshqalardan farq qilib turgingiz keladimi? Imtiyoz...
- Qo'ying, eshitdim bu gaplarni. Hozirgina Yo'dosh bir soat javrab ketdi.

Bu zardadan Azizaning ko'ngli ranjidi shekilli, anchadan keyingina tovushi chiqdi:

- Begona bo'lib qolibsiz...
- Til birkitib olganmisizlar, nima balo! - Saidning ovozi balandlashdi. - «Boshqalardan hech farq qilma, hamma yurgan izdan yur, chapga qarama, o'ngga qayrilma, oldinga o'tma, orqada qolma, yerga kirma, osmonga chiqma, to'dadan ajralma, bo'lmasa, begona bo'lib qolasan!» Shunaqami?

Aziza piq etib yig'lab, o'rnidan turgancha yugurib ketdi.

- Aziza, popuk, popukjon! - deb Said ham gursillab chopdi orqasidan, - axir men shaharga sizni, seni...

So'ngra shu yerda birpas mashmasha bo'ldi, buning nimaligini Yo'dosh taxminlabgina biliishi mumkin edi: Said quchmoqchi bo'ldi shekilli, ammo qiz yulqindi, tarsaki tushdimi, novda sindimi, xullas, nimaningdir qirs etgani ham eshitildi, keyin biri qolib, biri jo'nadi. Qaysinisi?

Baribir emasmi...

Yo'dosh bu yerda pusib o'tirganiga o'zidan juda norozi edi, buning ustiga hozir dilida bir qil uzelgandek g'ashligi ortdi, iliq bahor oqshomida vujudi qaltirab, junjika boshiadi. Azizadek dibarning o'z qizlik g'ururini shunday yerga urganga xo'rlici keldi...

Bu uch kishining ko'nglini to'lqinlatgan muammolardan ko'pchilik bexabar edi. Kunlar o'taverdi. Kombinatning sement gardiga botgan darvozalaridan xomashyo ortgan platformalar kirib, pritseplariga yirik temir-beton konstruksiyalar yuklagan avtomashinalar to'xtovsiz chiqib turar, yangi sexlar asta qad ko'tarar, mo'rilardan burqigan tutun, xumdon va pechlardan ko'tarilgan bug' cho'l osmonini kulrang bulutlarga to'ldirar edi.

Yakshanba kuni Yo'doshni Farmonov chaqirtirib qoldi. U dam olish kunlarini ham idorada o'tkazardi.

«Xo'sh, fidokor!» deydi-ku hozir kaftlarini ishqalab. Yo'dosh uning qanday kutib olishi, nima deyishiarigacha oldindan biladi. Farmonov uncha murakkab odam emas edi.

Uning otini hech kim bilmaydi. Faqat «Farmonov» deyishadi. Otini bilishga ehtiyoj ham yo'q shekilli. Chunki Farmonov tom ma'nosi bilan «ijtimoiy odam» bo'lib, butun hayoti jamoada, idorada, majlisda, minbarda o'tgan. «Falonchijon!» deb yaqin olib, yo erkalab chaqiradigan jigari, ulfati yoki qadrdonlari ham yo'q. Bitta-yu bitta qizi bor deyishadi, u ham qayerdadir o'qishda.

Farmonov bo'ydoqlar yotog'ida, kichkina bir xonada turadi. «Turadi» deyish ham uncha to'g'ri emas, u yotoqqa yotgani boradi, xolos. Qolgan vaqtidorda, ko'proq majlislarda o'tadi. Har majlisda uni qayergadir saylaydilar, bir zamonlardi Osoaviaxim, MOFR uyushmalaridan tortib, kasaba, jamoat tashkilotlarigacha, nuqlu saylab qo'yiladigan martabalarda, ba'zan bir nechtaslda barobariga ishlab keldi.

Hozir u zavkom raisi. Lekin kombinat direktori unga ko'proq yoshiar bilan ishslashni topshirgan, hatto shu masalada o'ziga muovin qilib olgan desa ham bo'ladi. Negaki hozir kombinatda yuzlab yoshlari bor, ko'plari urush vaqtida og'ir sharoitda, FZOda o'qigan bolalar. Yangi sexlar qurilishi munosabati bilan deyarli hammasi yordamchi ishlarga qo'yilgan. Ular bilan ishslashga alohida e'tibor berish kerak edi.

Farmonov juda ishchan odam. Eski gimnastyorka ustidan bog'lagan serbar kamariga bosh barmog'ini tiqib, katta, yumaloq ko'zoynagi ostidan talabchan nazar bilan tikilganida, Yo'dosh aytmoqchi bo'lgan gapini ham yo'qotib qo'yadi. U Yo'doshni ko'pincha yoshiar bilan ishslash masalasida chaqirardi.

Yoshlarning ishdan tashqari vaqtlarini qanday «uyushtirish» to'g'risida gplashishar, kundalik grafik, ish rejalari tuzishar edi. Farmonov bu ishga katta ahamiyat beradi. Yosh ishchilarning har soat vaqt uchun g'am yeydi. Bu safar ham Yo'doshning kelishiga katta rangdor jadvallarni, grafiklarni stolga yoyib tashlagan edi.

– Xo'sh, fidokor... – dedi u murakkab jadvallarga xuddi jangovar xaritani o'rganayotgan qo'mondondek tikilib. Keyin bir bo'sh grafaga barmog'ini nuqdi. – Mana bu soatda nima ish qilishadi, aytin-chi?

Yo'dosh o'rgimchak uyasidek bo'lib ketgan jadvalning o'sha katagiga goh u yoqqa o'tib, goh bu yoqqa o'tib qaradi-yu, javob berolmadi.

– Mana bu soatda-chi? – deb shoshirdi yana Farmonov va javob kutmay, ko'rsatma berdi: – Ma'ruza! Ma'ruza qo'ying!

– Bu haftada ma’ruza juda ko‘p bo‘lib ketdi, o‘rtoq Farmonov, biroz bo‘sh vaqt... biroz o‘z ixtiyorlariga ham qo‘ysak... – dedi Yo‘ldosh.

Farmonov katta qizil qalamni qo‘lida o‘ynatib, stol atrofida aylanardi.

– Bekorchilik...

– Bekorchilik emas, har kimning o‘z ishi ham bor.

– Gapni chalg‘itmang. Bekorchilik – har qanday noma‘qulchiliklarning onasi! Ichkilik, bezorilik, buzilish, odobsizlik – hammasi bekorchilikdan kelib chiqadi. Yo‘q, ukam! Siz band qiling ularmi, ijtimoiy ish bilan band qiling, – Farmonov qizil qalamni yana o‘sha katakka niqtadi: – Klubda bo‘lishsin! Jamoada. Ma’ruza bo‘lmasa, raqs belgilang, raqs.

– Xo‘p...

Keyin kecha va o‘tgan kungi klub mashg‘ulotlariga kelmagan «ba’zi shaxslar» haqida gap boshlandi. Farmonov ularning ro‘yxatini, kelmaganlarining sababini bugunoq aniqlab, chora ko‘rishni topshirdi.

– Jamoada intizomni, birlikni buzishga yo‘l qo‘ymaymiz, ha. Hoziroq shu bilan shug‘ullaning, shunday bo‘lsin.

– Hozir? O‘rtoq Farmonov... – deb chaynaldi Yo‘ldosh, keyin ochig‘ini aytib qo‘ya qoldi. – Hozir qornim juda och... keyin, bir shaxsiy ishim bor edi.

Farmonovning bilinar-bilinmas siyrak qoshlari chimirilib ketdi. Yo‘ldoshga, xuddi ro‘parasida qanotli tuya turgandek, hayrat bilan tikilib qoldi. Ajabo, gap jamoaning tarbiyasi haqida ketayotgan bo‘lsa-yu, bu qorni ochligini gapiradi. Shaxsiy ish? Qanday shaxsiy ish bo‘lishi mumkin?

– Menga qarang.

Lekin Yo'ldosh uning fikrini ko'z qarashidan tushundi. Davom ettirishning hojati yo'q edi.

Yo'ldosh avval To'lagannikiga bordi. Yirik bloklar sexida takelajchi bo'lib ishlaydigan bu pismiqroq yigit bir keksa ustanikida ijara o'tirardi. Lekin ijaraga olgan xonasi qolib, butun vaqtini chordoqda o'tkazar, yoz kunlari o'sha yerda uxlari, o'qir, ishlar edi. Bir vaqt ustanning harbiyga ketgan o'g'liga kaptarxona bo'lgan bu chordoqni To'lagan kengaytirib, deraza ochib, o'zicha jihozlab olgan. Radiohavaskorlik ustaxonasi ham shu yerda, taraq-turuqi qo'shnilarga eshitilmaydi, tomida besh-olti xil antenna.

Yo'ldosh kaptar tezagidan oqarib ketgan yog'och zinadan chiqib borganida, maykachan o'tirgan To'laganning chehrasi yorishib ketdi. Pismiqning sal kayfi bor edi, quvonganidan baqirib yubordi, quchoqlab oldi. Yo'ldosh uni hech vaqt bunday xushchaqchaq ko'rмаган edi. Bir zumba yapaloq shishada bolgar konyagi ham paydo bo'ldi. To'lagan mashhur bir rassomning jiyani. Unda bunaqangi anvoyi narsalar bo'lib turardi.

– Yo'q, Tolya, qornim och... – deb Yo'ldosh kelishining sababini aytmoqchi edi, To'lagan gapirtirmadi.

– Menga qara, klub-mlubingni qo'y, gap bor, – dedi To'lagan. Bugun uning kayfi juda chog' edi. – Qorinni bo'lsa hozir to'yg'azamiz! Sen avval mana buni ko'r! – u qandaydir qizil daftarchani qo'ynidan olib, tiq etib stolga qo'ydi, g'urur bilan Yo'ldoshga qaradi. – Ol, ol! Qara, qo'lingga olib ko'r!

– Nima bu? – Yo'ldosh daftarchami qo'liga oldi.
 – Efirga chiqishimga ruxsatnoma! – To'lagan unga stakan tutqazdi, qattiq urishtirdi. – Ol! Ar-zimaydimi? Hammaga ham beravermaydi, yiliga ikki yoki uch kishi oladi. Radioklubga yetti yil qatnab yetishdim bunga. Ich! – Ichishdi. – Kecha shaharda, musobaqada edim.

– Musobaqada?

– Belgilar qabul qilish bo'yicha respublika mu-sobaqasi. Chakki bo'lindi, ko'rib turibsan. Sen bo'sang raqs, klub deysan.

– Bu nimaga kerak? – dedi Yo'ldosh hamon qizil daftarchani qo'lida aylantirib. To'laganning kayfiyati unga ham ta'sir qilgan edi.

– Bu degan so'zki, endi efirda mening o'z to'lqinim bor. Yer yuzida, tog'larda, sahrolarda, okeanlarda minglab do'stlarim bo'ladi, men ular bilan istagan vaqtimda gaplasha olaman.

To'lagan daftarchasini avaylab ko'krak cho'nta-giga soldi-da, Yo'ldoshning qo'liga buterbrod tutqazib, chordoqni aylantirib, ustaxonasi dagi «xo'jaligi»ni tushuntira ketdi. Bu yerda jo'ngina ishlangan radiolar, plastmassa qutida radiotelefon go'shagi, qo'lbola uzatkich, almisoqdan qol-gan Morze apparati, xilma-xil chiroqlar, akku-mulyator, batareyalar, yana allaqanday elektr asboblari, o'ram-o'ram simlar, kichik dastgoh, tokarlik asboblari, bitmagan shassi taxtalari qa-lashib yotar edi.

Quvonchi ichiga sig'may uzoq gapirgandan ke-yin To'lagan kuygan rezinka va yelim hidi kelayot-gan qadoq barmoqlari bilan faqat yonib turgan chiroqlardan iborat ochiq to'lqin qabul qiluvchi

apparatni burab, qandaydir shovqin va hushtaklar orasidan bir-ikki signal tutib, yozib oldi.

– Vaqtini beryapti... Bularning hammasi bilan tanishib olaman hali! – dedi u, go'yo endi butun osmon, hamma shahar-u qishloqlar o'z qo'llimda degandek. Chindan ham Yo'doshning ko'ziga u hozir fazo sirlarini qo'lga olgan, allaqanday mo'jizali bir til biladigan sehrgardek ko'rinish ketdi. FZoda sovuq qish kunlari doimo burnini tortib radio havaskorlari to'garagiga qatnab yurganida To'laganni hech kim pisand qilmasdi. Endi bo'lsa u chindan ham o'zi bir olam. «Vira!», «Mayna!» deb qichqirishdan boshqani bilmaydigan oddiy takelajchi deb kim aytadi uni!

Yo'dosh zavqi oshib turgan do'sti bilan xayrlashib chiqqach, shularni o'ylab kelarkan, Farmonovning topshirig'i xayolidan ko'tarilib ketganini esladi. Ha, mayli, To'laganning ko'ngliga unaqa gap sig'armidi hozir!

U Ergashnikiga qarab yo'l soldi. Ergash ham keyingi haftadan klub mashg'ulotlariga qatnay qo'yanlardan biri edi.

U oilalik bo'lgani uchun communal uydan ikki xonali seksiya olgan. Yo'dosh kirib borganدا, u o'n bir-o'n uch yoshli ikki o'g'li bilan ovora edi. Kichigiga ko'zgu ushlatib, kattasini kursiga o'tqazib, mashinka bilan sochini olyapti. Kattasi bo'yniga sovuq mashinka tekkan sari qitig'i keilib qiyqirarkan, etagiga to'plangan uyum-uyum malla soch oyoq ostiga to'kilar, unisi bo'lsa akasidan qiqirlab kulib, oynani eplab to'g'rilolmasdi. Aka-uka ikkalasi ham ko'k ko'z, malla rang, jajji bolalar. Yo'dosh ostonada to'xtab, Ergashning



bolajonligi, bolalari sho'xlik qilgan sari zavqlanishiga birpas mahliyo bo'lib turdi.

Ergash bolaning sochini olib bo'lib, yoqalarini qoqdi-da, ikkalasiga javob berdi. Bolalar hirninglashganicha chopqillab ichkariga kirib ketisharkan, ortlaridan ma'yus qarab qoldi.

– Kel, uka, – deb Yo'ldoshning yelkasiga bir qo'llini tashladi-yu, bolalar kirib ketgan eshikdan ko'zini olmadi. – Bilasanmi, uka... ketishyapti, – dedi u sekim. Charaqlab turgan ko'zidan bir tomchi yosh yumaladi. – Mariya Nikolayevna o'z tengini topibdi...

Ergash silikat g'ishtlari pishirish pechida usta yordamchisi. U Yo'ldoshdan uch-to'rt yosh katta, bir oyog'i oqsab, o'zi sal bukchayib yuradigan, shirinsuxan, odamoxun yigit. Hozir Yo'ldosh uning qattiq xafaligini payqadi.

– Butunlay ketishyapti... – deb takrorladi Ergash, – shuncha yildan keyin, birdan. Birdan yolg'iz qolaman...

Bu achchiq fig'on edi. Bu gapdan Yo'ldoshning ham eti jimirlab ketdi.

Mariya Nikolayevna bilan Ergashni ko'pchilik er-u xotin deb bilar, ularning totuvligiga havas qilar edi. Ishchilar tushlikka chiqqanda savat yo tugun ko'targan yumaloqqina, o'rta yashar, chiroqli rus xotin ikki bolasi bilan kombinat darvozasи oldida paydo bo'lar, bolalardan birining qo'lida bir shisha sut, birining qo'ltig'ida issiq non, otalarini ovqatga kutishar edi. Ergash ularni uzoqdan ko'rib yugurar, bolalarni bitta-bitta osmonga otib erkalagach, ariq bo'yidagi maysaga o'tirishar edi. Cho'l keng, ariq bo'yi shabada, lovillagan pech

oldidan chiqqan Ergashning teri qotib, ishtahasi ochilib ketadi. Mariya Nikolayevna uning yarim yalang'och bo'lib ariqda yuvinishini, maysa ustida yonboshlab ishtaha bilan ovqat yeishini, atrofda bolalarning chug'ullashi, qudratli kombinat shov-shuviga jo'r bo'lib yovvoyi o'tlar orasida ariqning maym shildirab oqishini yaxshi ko'rardi.

Bir necha yildan beri shunday. Bu ajoyib oilani hamma hurmat qilardi. Hatto xotin-xalaj Mariya Nikolayevnaning o'z eridan sakkizmi-o'n yosh kattaligini tilga olib qolgudek bo'lsa ham, buni qoralash ma'nosida emas, oilaning totuvligini ta'kidlash uchungina eslashardi.

Oiladagi asl munosabatlarni esa Ergashning yaqin do'stlarigina bilishardi.

1942-yili Berdichev shahri evakuatsiya qilinayotgan kunlari yosh leytenant Ergash qiy-chuv, to'polon ustidan chiqib qoldi. Vaqt ziq, transport yetishmaydi, sarosimada tartib-intizom buzilib ketgan, ayniqsa, uyushmagan aholi o'rtasida vahima, yig'i-sig'i, faryod, har oila o'zi eplagancha otda, piyoda qochmoqda, it egasini tanimaydi. Ergash turadigan uyning bekasi – yumaloqqina chiroyli beva xotin to'rtta kichki-na bolasi bilan chinqirib ko'chada qoldi, tuguni ni tugib, go'dagini ko'ksiga bosgancha, qolgan uchtasini yetaklab ko'chaga chiqqan-u, qayoqqa yurishini, nimada ketishini bilmaydi. Ergash u yoqqa yugurdi, bu yoqqa yugurdi, qani endi bir mashina yoki aravaga o'tqazib yuborishning iloji bo'lsa! Transport, so'nggi ot-ulovgacha tashkilotlar, korxonalar, muassasalarga taqsimlab bo'lin-

gan edi. Vaqt oz qolyapti, yana bir necha soatdan keyin shahar to'pga tutiladi, yong'in lovillaydi, yirtqichlar bostirib kiradi.

Ergash yugurganicha qaytib kelib bolalarni uysa qamadi-da, ko'ksidagi go'dagi bilan Mariya Nikolayevnani FHDYOga yetakladi. Ergash sudragan tomonga yelib ketayotgan Mariya Nikolayevna hansirar, qoqinar, qayoqqa ketayotgani ni bilmas edi. Ro'parasida FHDYO yozuvi paydo bo'lqandagina tushundi: zabitlarning oilalariga benavbat transport berilayotgan edi. Mariya Nikolayevna avval gangib, o'ng'aysiz ahvolda qoldi, qaytib chiqmoqchi bo'ldi, lekin Ergash uning bilagidan mahkam ushlagan edi: «Mariya Nikolayevna! Kolya, Irina, Misha haqi... Vitya uchun!» – dedi va bekasining qo'lidan go'dakni oldi.

Keyin idoraning jihozlarini ortish bilan ovora bo'lgan xodimani topib keldi, u ulardan tezroq qutulish uchun apil-tapil qog'oz qilib berdi.

Shunday qilib, ular «er-xotin» bo'lib qolishdi. Mariya Nikolayevna O'zbekistonga evakuatsiya qilingan edi, urushdan keyin Ergash ularni mana shu kombinat qurilishidan topdi. Kolya o'qishda, Irina o'n yettidayoq erga chiqib ketdi. Misha bilan Vitya Ergashning qo'lida o'sdi.

- Birdan bo'lsa qiyin bo'larkan... Bo'lmasa, o'zim ham bilardim, o'zim aytganman Mariya Nikolayevnaga, – derdi Ergash ostonada Yo'ldoshning yelkasiga qo'lini qo'yib xomush turarkan.
- O'zim aytganman, erga teging deb. U meni qistardi: «Uylan, axir men sening qo'lingni bog'lab turganday qiynalyapman, qachon uylanasan»,
- derdi. Men qanday qilib uylanaman, bularni

tashlab, o'zing o'yla... – u ma'yus ko'zlar bilan bolalar kirib ketgan eshikni imlab ko'rsatdi.

Ergash bilan Yo'ldosh uzoq dardlashib o'tirdilar, Ergash juda ezilgan, cho'kkani edi. Qo'shni xonadagi bolalarning har qiyqirig'i, har kulgisi uning vujudini larzaga solardi. Shunday totuv oila, o'z farzandidek bo'lib qolgan bolalar, ularning mehr-oqibati, sho'xliklariga o'rganib qolgan, shularni deb yigitlik davrini o'tkazib yuborgan odam endi bular huvillatib ketadigan uyda so'ppayib yolg'iz qolsa chindan ham og'ir. Buni eshitib Yo'ldoshning ham yuragi ezilib ketdi.

Shu kayfiyat bilan ko'chaga chiqdi. Nima qilib yuribdi o'zi dam olish kuni? Ergashga ham na tassali beroldi, na gapini aytoldi. Hozir shartta uyga borib o'zini karavotga tashlagisi, alamini uyqudan olgisi keldi-yu, lekin Farmonovning aytgani ni bajarmasa bo'lmaydi, ertaga so'raydi.

Hafsalasi pir bo'lgancha, sudralib Temir bilan Po'latnikiga ketdi. Ularni birga eslaganiki, yo Temir Po'latnikida bo'ladi, yo Po'lat Temirnikida. Ikkalasi ham yangi sexda ishlaydi, ikkalasi ham bokschi, kombinatdagilar ularni, go'yo bir kishidek, doim birga «Temir-Po'lat» deb atashadi, klubda boks bo'lsa afishada ham «Birinchi juft Temir-Po'lat!» deb yoziladi. «Bugun Temir-Po'lat ekan!» deb klubga ham bola-baqra yopirilib ketadi.

Shunday bo'lsa ham, Yo'ldosh bularning biron daqiqa bahslashmay turishganini ko'rmagan. Na ajralisha olishadi bular, na kelisha olishadi. Bu safar ham Yo'ldosh Po'latning eshigiga yaqinlashishi bilan ikkalasining ovozini eshitdi. Ba'zilar bu bahslarni mensimay, mahmadonalik deb qara-

shadi: «Ha, bularga murabbiyi papirotni, aroqni man qilgan, ichmasa, chekmasa, nima ham qiladi, gap sotadi-da!» deyishadi. Yo'ldosh esa boshqacha fikrda. Masalan, Po'latni olsa. U bundan bir necha yil muqaddam shaharda yoshgina bir shifokor qizni yaxshi ko'rib qolib, o'shandan beri tibbiyotni o'ziga xudo qilib olgan. Ibn Sinonimi yoki boshqa biron tibbiy kitobni o'qib o'tirgan bo'lsa, uni na to'yga, na azaga surgab bo'ladi.

Yo'ldosh kirganda Po'lat deraza rafida tizzasini quchoqlab o'tirar, stolda, yostig'i ustida tibbiyot ensiklopediyasining tomlari sochilib yotar edi. Temir bo'lsa ikki qo'lini cho'ntakka tiqib u yoqdan bu yoqqa yurardi.

– Inson avloddan avlodga o'sib, yuksalib borishi kerak. Har avlod – bir bosqich. Sen aytganday, o'zi bilan o'zi ovora bo'ladigan bo'lsa. – Temir Yo'ldoshga qo'l berib so'rashdi-yu, gapini to'xtatmadi, – agar o'zi bilan o'zi ovora bo'lsa, u yuksak ongli mavjudot bo'lib qayoqqa bordi?

– Kecha kechqurun qayerda edinglar? – deb so'radi Yo'ldosh oraga suqilib.

– Kecha ham shu yerda edik, – dedi Po'lat. – Gap shunda-da, yuksak ongli mavjudot deb atalamiz. Biz o'zga olamlarga intilsag-u, oyning tuproq tarkibini bilsag-u, o'z qonimiz tarkibini bilmasak, jigarimiz qayerdaligini, uning nimaga kerakligini bilmasak, unda yuksak mavjudot deb atalishimizning ma'nosi qayerda qoldi? – Po'lat bir nafas tinganda Yo'ldosh yana tiqilinch qildi:

– Oldingi kuni-chi?

– Oldingi kuni ham shu yerda edik, – Po'lat yana to'xtamasdan davom etdi, – inson dastav-

val o'zini mukammal bilishi kerak. U hayotning toji – kishiga umr bir marta beriladi. Balki butun olainda eng bebaho narsa inson hayotidir. Inson aqli so'nsa, olamni zulmat qoplaydi... Ammo aql nima, miya nima – bilamizmi? Inson hamma narsadan avval o'z fiziologiyasini: o'zining yashash sirini, tuzilishini, asab, qon, miya, yurak qonuniyatlarini yaxshi bilishi kerak, toki...

– Buning uchun alohida ixtisoslar, jumladan tibbiyot bor, – dedi Temir hamon u yoqdan bu yoqqa yurarkan.

– Baili, har bir odam avvalo shifokor bo'lishi kerak, – yana ilib ketdi Po'lat, – ammo birovlarni davolash uchun emas, o'zi uchun, o'z ongi davr saviyasida bo'lishi uchun. Inson nomi bo'la turib, o'zini bilmasa – uyat. Axir, mana sen Yerdan olti milliard yorug'lik yili chamasi uzoqda uchib yurgan Kvazarlar to'g'risida gapirding, biroq hozir qorning og'rib qolsa kimgadir muhtojsan, ojisan, kimdir o'zingdan so'rab-so'rab senga taxminiy tashxis qo'yadi. Aslida esa organizmingni o'zingdan yaxshiroq biladigan, vujudingda nimalar bo'layotganini sendan yaxshiroq sezadigan odam yo'q. Tashxisni sen qo'yishing kerak, shifokorlar esa davolasin. Tibbiyot alohida, katta, murakkab soha, har bir ongli kishi, aqalli, u bilan gaplasha olish uchun tillini bilishi kerak.

– Boshqa ishlarni kim qiladi?

– Inson bo'lmasa boshqa ishlar ham yo'q. Shunga ko'ra inson uchun inson fiziologiyasi – yashash alifbosi bo'lib qolishi kerak. Boshqa ishlar – alifbodan keyin...

– Sen xudbinlikni targ'ib qilyapsan, o'zing uchun o'l yetim... – dedi Temir. – Hali o'zing ayt-

ding: insonga umr bir marta beriladi deb. Umr esa qisqa. Shunday bo'lgandan keyin o'zgalar uchun, kelajak uchun, avlodlar uchun yashash kerak. Biz ilmni, texnikani qaysi darajaga ko'tardik, olam sirlarini o'rganishga qanday hissa qo'shdik – kelajak bizdan shuni so'raydi. Yo'q, aka, yashashning qizig'i, tub ma'nosi – yaratish, yangiliklar ochish, mo'jizaning o'zagiga sanchilib, yulduzday chaqnash... Ana o'shanda yashadim, desang arziydi. Hali sen Kvazarlarni esga solding. Kvazarlar – koinot bolaligining guvohlari. Ularning milliard yiliar avval yo'lga chiqqan nuri, radio to'lqinlari koinotning qaysi bir galaktikasiga endi yetib kelibdi. Ular yerga yetib kelganda ne-ne dunyolarning tarixini so'zlab berarkan! Ular so'zlaganda, biz tilini anglay olamizmi?.. Sen bo'lsang, ichburug'dan kelasan.

Po'lat sheri giga «bachkana bo'lma» degandek, achchiq bilan qarab derazadan tushdi, stoldagi kefirdan shimirdi. Ikkalasining bo'y-basti ham teng, o'zlari o'rategalik. Sochlari jingalak, yag'rindor yigitlar. Yo'dosh ularning bahsida o'ziga mustaqil yo'l topolmay, qaysinisi gapirsa, o'shanisining fikriga qo'shilib uzoq o'tirdi. Lekin suhabatlari tugaydiganga o'xshamasdi. Qorong'i tushib qoldi. Hali Azizanikiga ham borishi kerak. Shuning uchun sekin o'rnidan qo'zg'aldi...

Aziza kombinat shaharchasining uch-to'rt qavatli binolar tusha boshiagan yangi qismida turadi. Bu yer kombinatdan chetroq bo'lgani uchun, eski odat bo'yicha uni hali ham cho'l deyishadi. Kelgusida shahar shu yerga qurilar ekan, hali nomi ham yo'q, faqat gazetachilar uni har zamonda maqlolarida «Cho'lobod» deb atashadi.

Eshikni Azizaning o'zi ochdi. Ochdi-yu, Yo'ldosh ostonani hatlab o'tishi bilan, boshini uning ko'ksiga qo'yib yig'lab yubordi. Qiz bosh yalang, yoqasi ochiq keng burma ko'ylakda, yalang oyoq edi. Uning yumshoqqina, pastak gavdasi yigitning ko'ksida titrab turibdi, atir aralash allaqanday sehrli bo'y dimog'iga urildi. Bu yig'iga tushunmay turgan Yo'ldosh battar esankirib qoldi.

– O'rtog'ingiz ketib qolibdi. Avval bola bechorani umidvor qilib, keyin hech narsaga qaramay... Mana endi... – Ona yengini tushirib, teskari burildi.


Demak, Said axiyri ketibди-da. Yo'ldosh o'shanda uning ketaman deganiga ishongan edi, hozir bo'lsa ishonolmay turibdi. Ochig'i, Aziza buni shunchalik og'ir olar deb o'ylamagan edi.

– Qiz boshingni xor qilma, yalinma, dedim. Yo'q, mana ko'rib turibsiz... – Qizning yig'isidan yurak-bag'ri ezilgan ona kursiga behol o'tirib qoldi.

Yo'ldosh ham o'tirib, ona-bolani yupatgan bo'ldi: qayoqqa ham ketardi, qaytib kelar, kelmasa xat yozar, yaxshi o'rashsa chaqirtirar, kombinatdan bo'lak joy yo'qmi, dunyo keng... Mehr-oqibat bo'lsa bo'lgani...

Yo'ldosh shu topda Azizaning ezilishini ko'rib, do'stidan voz kechishga ahd qilvordi. Saidning qizda jindak ko'ngli bo'lsa, bunday qilmasdi. Ish-qilib, Aziza izzat-nafsinı oyoqosti qilib orqasidan izlab ketmasin-da...

Yo'ldosh xayrlashayotib o'zi ham kutmagan ishni qildi: qizning yig'idan qizargan yonoqlariga kaftini tegizdi. Aziza buni qanday qabul qilgani ni bilmaydi-yu, o'zi uchun bu katta voqeа edi.

Qizning yal-yal yongan yonoqlari yo'l bo'yи ko'z o'ngidan ketmadi, kafti esa o'tdek qizir edi...

Yo'dosh bugun yana qolipchi Normat, labrant Olga, xumdonagi Zarif degan bolalarnikiga borishi kerak edi. Bormay qo'ya qoldi. Baribir ish chiqmaydi: Normat hozirgi rassomlarning suratlарини kolleksiya qiladi, botinka ipiga puli bo'lmasa ham, so'nggi chaqasiga borib surat oladi. Har dam olish kuni shaharda. Olga bo'lsa... Uni qandaydir general yaxshi ko'rib qolgan. Uning hozir klub-mlubing bilan ishi yo'q. Generalga nima deb javob berish kerak – qarindosh-urug'ini yig'ib, shuning maslahati bilan andarmon. Zarifni hozir o'tirgan joyidan bigiz bilan cho'qilab ham chiqarib bo'lmaydi; u kombinatning tarixini yozyapti...

Lekin Farmonov o'z topshirig'ini unutmagan edi. U ertasigayoq Yo'doshni chaqirtirib, bosh barmog'ini ayilday keng sariq kamari ostiga suqdi. Bu uning «Xo'sh?» degani bo'lardi. Yo'dosh chaynalibroq gapirdi, lekin hamma haqida bir-bir to'xtab, klub mashg'ulotlariga kelmaslik sabablarini bat afsil aytib berdi.

– Bu deyman, ularni oqlagani keldingizmi, nima balo? – dedi Farmonov «fidokor»ning gap ohangidan norozi bo'lib, – yo ular sizni dallol qilib yuborishdimi?

– Yo'q, nega, men bo'lgan gapni gapiryapman. Har birining o'z g'ami, o'z quvonchi, olam-olam tashvishi, manfaati...

– Men sizni shaxs manfaatini emas, jamaa manfaatini himoya qiling deb, yuborgan edim,
– Farmonov xafa bo'lsa ham, og'irgina gapirdi, u kamdan-kam qizishar edi. – Yo'q, bu gapla-

ringizning birontasini ham uzrli deb bo'lmaydi. Ro'yxat qilib bering, chora ko'rish kerak.

– Siz ularning qanday odamlar ekanini bilsangiz edi, o'rtoq Farmonov... – dedi Yo'dosh yalinqanday.

– Bilgim ham kelmaydi, intizomidan ko'rinish turibdi kimligi. Ularning har qaysisi: men bosh-qalarga o'xshamayman, men alohidaman deb o'laydi. Yo'q, ukam, biz hammamiz birmiz, biz yakdilmiz, biz jamoamiz, ha!

– Shunday-ku, lekin har birining qalbiga kirib, qo'yniga qo'l solib ko'rsangiz...

Farmonov o'tirgan joyida ko'zini katta ochib, yosh bolani erkalaganday kulimsirab qaradi.

– Bilasizmi, ukam, mening qo'limda ikki ming-uch minglik jamoalar ishlagan. Agar har bir odamning qalbiga kirib chiqaversam, butun umrim kirdi-chiqdi bilan o'tardi. Rahbar degan hech vaqt har bir shaxsni alohida tarbiyalay olmaydi, akasi, buning uchun qudratli jamoa bor. Jamoa bizning qo'limizda katta quroq.

«Quroq emas, bu sizga niqob!» – deb yuborishi-ga sal qoldi Yo'doshning. Keyinroq o'zini bosib, o'ylasa: yaxshi ham aytmagan ekan, naq Saidning gapi bo'lib chiqardi. Yo'dosh endi Saidni nafratsiz yodga ololmaydi. Shuncha savlat, shuncha chiroyli gaplar bari puch ekan, uning jamoa yuziga oyoq qo'yib ketishi Farmonov oldida Yo'doshning tilini qisiq qilib qo'ydi.

– ...Har biri bir olam emish-a!.. – davom etdi Farmonov. – Har kim o'zini alohida olam deb hisoblasa, jamoa nima bo'ladi? Kitob o'qiganmisiz, akasi?

Yo'ldosh Farmonovning nima demoqchi ekanligini tushunmay, kiftini qisdi. Garangsib chiqib ketdi.

Farmonovning yoshlari bilan ishlash ishtiyobi har zamonda xuddi isitmadek xuruj qilib qolar edi. Keyingi vaqtarda avji pasaydi shekilli, Yo'ldoshni chaqirtirmay qo'ydi. Aytishlariga qara-ganda, qandaydir xo'jalik ishlari bilan juda qattiq band emish.

Yo'ldosh ham boshqa narsa ko'ngliga sig'may, Azizani kuzatish bilan band bo'ldi. Uning oldiga borolmas, tayyorlab qo'ygan gaplarini aytolmas, faqat zimdan kuzatar edi: Saidni izlab shaharga tushyaptimi, yo'qmi? Yo'ldosh uchun hozir eng muhilm narsa shu edi.

Bahor o'tib, yoz quyoshi cho'lni shafqatsiz qovjirata boshladи. Oqshomlari shaharchaning zarang bog'ida havaskor orkestr hammaga tanish bo'lib ketgan kuylarni chalar, yosh-yalang o'zining sirli ishlari bilan band, faqat Yo'ldosh yolg'iz, Azizaning derazasi tagida aylanar edi. U qizni uchratib gaplasholmasa ham, ko'ngli ancha tinchib qolgan edi. Azizaning shaharga tushgанини ko'rmasdi ham, eshitmadi ham.

Bu orada kombinatda ham keramzit sexi ishga tushib, ancha o'zgarishiar, yangiliklar yuz berdi. Yangiliklarning muhimi shu ediki, kombinatga xomashyo tashiydigan yangi yo'llar ochish uchun yoshlardan brigadalar tuzila boshladи. Shunday brigadalardan birini tuzish Yo'ldoshga topshirildi. Yangi, notanish yerlarga ko'chish, o'z tengi yosh-yalang bilan dala-dashtda chodir qurib yashash, katta pul ishslash hammani qiziqti-

rar, «Meni yoz! Meni yoz!» – deydiganlar ko‘p edi. Ammo Yo‘ldosh ko‘proq To‘lagan, Ergash, Temir, Po‘lat, Salim vahima, Normat, Zarif singari o‘z tanishlarini ro‘yxatga oldi.

Hammalari ich-ichidan jonlanib, «Qachon ekan?», «Qayoqqa?», «Kim boshliq bo‘ladi?» deb bir-biriga ming xil savol berib, shaylanib yurganlarida, birdan ma‘lum bo‘ldiki, tog‘dagi silikat konlariga yo‘l ochadigan bu brigadaga Farmonov boshliq bo‘lib borar ekan. Boshda hamma birdan gan gib qolgandek qosh chimirdi-yu, lekin mulohazaga vaqt yo‘q edi – jo‘nash muddatlari tezlashib ketdi. Faqat Yo‘ldosh o‘ylanib qoldi: Farmonov u tuzgan ro‘yxatni ko‘rib nima deydi? «Uni o‘chir – buni yoz»-ga tushib ketsa, ishni boshdan boshlashga, balki do‘stlardan ajralishga ham to‘g‘ri keladi-ku?

Xayriyatki, Farmonov shaxslar bilan qiziqmadidi, ro‘yxatdagilarning birontasini tanimasdi ham, familiyalari ham yodida yo‘q, u Yo‘ldoshning o‘zini ham ba’zan tanimay qolar edi.

– Jamoa tayyormi, fidokor? – dedi u ishchan xushchaqchaqlik bilan. – Nechta bo‘ldi? – deb ro‘yxatning oxiriga qaradi-yu, kasblarini surishtirib, olib qoldi. Yo‘ldosh xursand edi, Farmonov ham bu safar unga yoqdi: «Yomon odam emas bu, xudo haqqi!» – dedi ichlda zinadan yugurib tusharkan, yalt etib esiga keldi: Azizaga borish kerak!

Ketishga ikki kun qoldi, har kuni borishi kerak. Xayrlashish bahona, balki dilidagini ham aytib olar.

Ketishdan oldin aytib olsa yaxshi bo‘lardi, taraddudda qiynalib yurishdan yomoni yo‘q.

Yangi boradigan joylarida hali ish qanaqa bo'ladi, sharoit qanday bo'ladi – har qanday og'ir paytda ham ko'nglingda bir umid bo'lsa, mushkuling oson ko'chadi.

U hech yerda to'xtamasdan Cho'lobodga yugurdi. U yerga endi tik yo'llar tushgan, Cho'lobodning nomi ham rasmiylashib, undan kombinatga avtobus qatnaydigan bo'lgan edi. Odam ko'z o'ngida yuz bergen o'zgarishlarni sezmaydi. Yo'dosh Azizalar ning uyi ko'r kamgina suvoqdan chiqib, eshik oldida gulzor paydo bo'lganini, ariqlarga shildirab suv kelgamini ham payqamabdi.

Tanish tugmami bosgamida eshikni Azizaning onasi ochdi. U qiziga juda kuyunsa ham, unga gapi o'tmagamidan zorlanuvchi mushtipar...

– Ketdi, – dedi ko'ziga yosh olib, – o'shani izlab ketdi.

Yo'doshning yuragi orqaga tortib, rangi quv o'chdi. Ilgarilari shunday bo'lishini kutsa ham, bu safar sira xayoliga keltirmagan edi. Ustidan sovuq suv quygandek, butun hayajonlari, hislari, tayyorlagan o'tll so'zlari ham birdan sovib, mulzam bo'lib orqaga qaytdi. «Qayoqda edingiz, bolam, nega ilgariroq kelmadingiz?» – derazadan onaning tovushi eshitildi, lekin Yo'doshda javob qilgudek majol yo'q edi. Haqiqatan ham, qayoqda edi, nega ilgariroq kelmadidi? Bo'shangligidan, lандавурлигидан. Saldning ketishiga ham shu sabab bo'lgan edi. Said-ku go'rga, undan nari... Lekin mana bunisi oshib tushdi. Kelib-kelib, yo'l qurilishiga jo'nash oldidan...

Yo'dosh yotoqxonaga qaytib, ichkariga kir-gisi kelmay, hovlidagi gulpechak chirmashgan

sersoya so'ri ostidagi chorpoymaga cho'zildi. Dam qayoqqadir shoshib ketayotgan Aziza, dam kamriga qo'lini tiqib tikilib turgan Farmonov ko'z oldiga kelar, goh vagonetkalarning tovushi, goh sershovqin do'stlari to'la mashinaning cho'llarda yelib borishi qulog'iga eshitilar edi. Nimani o'ylashni, nimada to'xtashni bilmaydi. Qandaydir o't ichidan iljaygan Saidning basharasi ko'ziga ko'rinish, o'ylashga xalaqit beradi. Indinga ketishi kerak. Azizani ko'rmay ketadimi? Yuragidagi dardini aytmay ketadimi? Nahotki... Nahotki...

Bu payt Aziza shaharda Said ijara turgan uyning eshigini taqillatmoqda edi. «Hovlida qopag'on it bor» deb yozilgan tunuka lavhadan vahimaga tushib, nariroqqa borib turdi. Eshik ochilavermadı. Yana oyoq uchida borib asta taqillatdi-da, undan ham nariroqqa qochdi. Mu-yulishda bozorcha bor ekan, ko'cha gavjum edi. Ertalabdan beri shahar kezib shu hovlini qidirgan Aziza sumkasini dam u qo'liga, dam bu qo'liga olib, oyog'ida zo'rg'a turar, g'uborli havoni of-tob qizitgandan qizitar edi.

Nihoyat eshik sekin g'irchillab ochildi. O'rta yoshlardagi, do'mboqqina, istarasi issiq ayol eshikdan boshini chiqarib, u yoq bu yoqqa alangladi. Aziza «Ayacha, ayacha!» deb yugurib bormasa, eshikni yopib kirib ketadigan. Aziza Saidni so'radi. Shu yerda turarkan, lekin hozir ishda ekan.

– Siz kimi bo'lasiz, aylanay? – deb so'radi shirin so'z «ayacha» qizning boshidan oyog'igacha razm solib.

– Men... Men u kishlning ilgarigi ishlaydigan joylaridan... Singil qatori...

– Ha-a... – dedi ma'noli qilib ayacha. – «Singil»laringizni olib kelmaysiz, deb shartlashgan edik-ku u kishi bilan?!

U semiz gavdasi bilan bir tolg'anib, ingichkagina ikki o'rim sochini yelkasiga silkib tashladi.

– Shunaqa shart ham bo'ladimi? – deb so'radi Aziza.

– Ha! Bu ijara chilarni ko'p ko'rganmiz, oyimqiz. Ayniqsa bo'ydoqlari... – ayachaning ko'zlari moylanib Azizaga: «Tushunib turibsan. Xo'sh, o'zing qanaqasidansan?» degandek qadalib turardi. – Shart qo'ymasa bo'ladimi, o'rgilay.

Bu ayolning g'alati tagdor gaplari Saidning sha'niga dog' tushirayotgandek tuyulib, Azizaning orini keltirdi.

– U kishini ko'rishim kerak edi. Uzoqdan kelganman. Qachon qaytarkin?

– Kira qoling, – dedi uy bekasi zarda qilgandek, burilib ichkariga yurdi.

Aziza vahima bilan o'ng-u so'liga alangladi:

– It-chi? It qayerda?

– It yo'q! – dedi xotin orqasiga qaramay. Eshikdagi it surati solingan tunuka esida ham yo'q ekan chog'i. Aziza uning izidan so'ri tomon yurdi.

Bu ko'rimsizgina bir hovli edi. Devorlari nuragan, ikkita qarib qolgan olma soyasida, zah, go'ngli tuproqda uch-to'rt jo'yak ola chiqqan qu'lupnay, besh-olti tup atirgul. Uzun ayvonga tutashgan uch xonaga uch eshik.

Beka past poshna amirkon tuflisini g'archil latib, shu eshiklarning dam unisi, dam bunisiga kirib chiqar, nima qilayotganini bilib bo'lmas edi.

– Uzuklarining biram chiroyll ekan! – dedi Aziza bekaning qo'lidagi qo'shaloq oltin uzukka

boyayoq ko'zi tushgan edi. – Qayerda ishlaysiz, ayacha?

– Voy, siz tomonda odatmi deyman, Saidjon ham meni avvallari «ayacha» deb yurdi. Nahotki shunaqa qarib qolgan bo'lsmam?! Otim Malohat, o'rgilay.

– Yolg'izmisiz, Malohat opa?

– Yolg'iz bo'lmasam mana bu yer yutgurlarga cho'ri bo'lib yurarmidim, aylanay! Bularning tashvishi oz deysizmi?

– Ijarachilaringiz ko'pmi?

– Uchala uyimda ham odam. So'qqabosh bo'lsa go'rga-yu, kampir-sampirligi ham bor, jonimdan to'yib ketaman.

– Said aka qaysi uyda turadi?

Malohat imo bilan ko'rsatdi. Boyagi uch xonadan biri ekan.

– Ko'rsam maylimi? – Aziza Said turadigan xonaga kirdi. Bu katta xonada avvalo devordagi katta qizil gilam lov etib yuziga urildi. Polda ham kattaligidan ikki buklab solingan xitoy gilam. Toshoyntali garderob tepasida chinni vazalar, Bellinda chiqadigan qimmatbaho garnitur yilt-yilt etadi, baxmal pardalar, televizor, magnitofon... Azizaning og'zi ochilib qoldi, hech kimning uyida bunaqa dahmazani ko'rmagan edi.

– Muncha chiroyli! – dedi u ko'zlarini o'ynab.

– Voy, topganiga yarasha-da, o'rgilay, qandini ursin! Kimsan shahar gazning nazoratchisi turadi bu uyda, sal kam muhandis-a!..

– Shularning hammasi Saidjonnikimi?

– Voy, meniki bo'larmidi? Men bir beva-bechorada bunaqa narsalar qayoqdan bo'lsin, aylanay? Bozor-o'charimga yetib tursa bo'lgani.

Aziza jihozlardan hamon ko'z uzolmay, kursiga omonatgina o'tirdi. Malohat yilt-yilt qilib turgan servantni dam yengi bilan, dam etagi bilan artib gapirardi.

– Said akamning oyligi shunaqa kattami? – deb so'radi Aziza.

– Voy, o'rgilay, tushunmagan odamday gapirasiz-a. Kim hozir oylikning o'zi bilan turadi? Bunaqangi avliyolar qayoqda deysiz!

– Bo'lmasa qayoqdan...

– Ajab sodda ekansiz! Shu shahri azimning nechtaki o'chog'i bo'lsa, bari shu kishining qo'li-da-da, o'rgilay. Yon desa – yonadi, o'ch desa – o'chadi. Undan keyin, bularning hammasining ruxsati bor deysizmi? Biri o'g'rincha, biri texnika-ga xilof deganday... Men sizga aytsam, gaz plita qo'ydirish bir dunyo tashvish: navbat deysizmi, rejasi deysizmi, ruxsati, balloni deysizmi! Bir yillab navbat kutib yurganlar bor. Shunaqalar Saidjonning qalovini topsami – bir kunda tap-pa-tayyor-da; ruxsati ham, chizmasi ham, plitasi ham, hammomida ham, oshxonasida ham! Imi-jimida, tushundingizmi?

Azizaning yuragi o'ynab, yuzlari oppoq oqarib ketdi. «Tuhmat! Tuhmat! G'alamis ayol ekansiz!» deb qichqirib yubormaslik uchun tishini tishi-ga qo'yib o'tirardi. Said bunday bo'lishi mumkin emas. Yo'q, yo'q!

Malohat jihozlar orasida lapanglab yurib davom etardi:

– Pulini qo'ying, martabasini ayting, o'rgilay, nima desangiz ham, ishi savob ish-da, hozir sha-harda eng taniqli odam kim desangiz, shu Said-

jon. Ha, aytganday, ochiqroq aytmadingiz, kimi bo'lasiz, o'rgilay?

Buning unga nima qizig'i bor? Saidjonga butunlay begona bo'lsa. Birovning ishiga aralashib nima qilar ekan.

Ayol Azizaning ko'ziga birdan sovuq ko'rinish ketdi. Shubha bilan qarashi, baq-baqaloq barmoqlaridagi katta oltin uzuklari, didsiz kiyinishi, yosh bo'lib ko'rinishga urinishi kulgisini qistatdi.

Bir vaqt Said kelib qoldi. Uyda birov borligini payqadi shekilli, shoshib kirdi. Dik etib o'rnidan turgan Azizani ko'rib to'xtab qoldi. U yana ham to'lishgan, yuzi shaharliklarnikiga o'xshab oqarinqiragan, ustida yangi chiqqan lavsan kostyum. Asbob sumkasini ostonaga qo'ydi-da, nariroqda surbetlik bilan tikilib turgan Malohatga o'qrayib qaradi. Ayol buni tushunib, zarda bilan tuflisini g'irchillatib chiqib ketdi. Shundagina Said Aziza tomon intildi, ammo Aziza ilgarigidek quchog'iga tashianmay, sekin bosh egdi.

– Endi xat yozay deb turgan edim... – dedi Said chaynalib.

– O'zingizni oqlamang.

– O'zimni nega oqlarkanman, biron jinoyat qillbmanmi? – Said Azizaga yoqadigan odatdagি muloyimligini qilib suykalib kelaverdi – O'zingiz tuzukmisiz, popuk, kelganiningiz juda yaxshi bo'ldi-da. Og'aynilar qalay, nima yangiliklar bor?

Aziza yon berdi, yuzidan o'ptirdi. Said ham shu bilan savoliga javob olgandek, boshqa gapga o'tdi. Choy damlab keldi, hashamatli bufetdan qimmatbaho konfetlar bilan tuzalgan kumush patnis oldi.

– Qachon keldingiz, yo'lda xo'p charchagandir-siz?.. – U ko'p gapirar, ko'p so'rар edi, lekin Aziza payqadiki, javobiga uncha qiziqmayapti.

Jajjigina yiltiroq stolchada o'tirib choy ichishdi.

– Issiq, – dedi u yengil hansirab. Sal qalqib chiqa boshlagan qornining past-u baland tebrangani bilinib turardi.

– O'zingizdan juda mammunsiz deyman? – so'radi Aziza choy ho'play turib, Said iljaydi. Jiringlagan telefonga o'tirgan joyidan qo'l uzatdi.

– Qo'yishmaydi, – dedi gaplashib bo'lgach.

Sal o'tmay telefon yana jiringladi. Said qo'ng'i-roq qilgan odam bilan pisand qilmay, hafsalasiz gaplashar edi.

– Qayoqdan izlab topishadi-ya? – dedi go'shakni qo'yib. – Bilishadi, ishqilib. Hurmat qilishadi.

– Ishlaydigan jamoangizzdanmi?

– Jamoa... Aytganday, Yo'ldoshlar yurishibdimi «jamoa, jamoa» deb? – beozor jilmaydi u. Keyin savoliga javob kutmay davom etdi: – Bizda jamoa bori-yo'g'i o'n uch kishi. Bir-birimizni ko'rmaymiz ham. Bu telefon qilgan ular emas, xalq.

– Maqsadingizga erishibsiz-da? – Aziza yer tagidan qarab so'radi: – Jamoadan ozodsiz, mustaqilsiz, xalq orasida mashhursiz.

Said iljaydi. Ajabki, u ilgarigidek ehtiros bilan suhbatlashmas, pichinglarga ham parvo qilmas, umuman u bilan gaplashish ancha zerikarli edi.

– Bu mol-u mulkni darrov qayoqdan orttira qoldingiz? – dedi Aziza atrofga imo qilib.

– Be, mening bu yerda hech narsam yo'q. Mana, magnitofon oldim, bu meniki.

– Qolgani-chi?

– Qolgan bari Malohatniki, bularga ham pul oladi.

Azizaning boshi qotib qoldi. Qaysi biriga ishonish kerak.

– U qayerdan oladi? Ishiamasa...

– E, u usta xotin, – dedi Said. Maqtab aytdimi, qoralabmi – bilib bo’lmadi.

– Menga qarang, Saidjon aka... – Azizaning keng yonoqlari qizardi, qisiq ko’zlari chaqnab, shaddodligi tutdi: – O’zgarib ketibsiz. Tashlab ketgan uch ming kishilik jamoangizni eslaysizmi? Do’stlarin-gizni-chi? Klubdagи, bog’dagi oqshomlarni? Anov o’t ichiga kirgan kuningizni-chi? Siz unda ko’rkam edingiz, qalban ko’rkam edingiz, eslaysizmi?

Said Azizaning tovushi o’zgarganidan sal cho’chidi-yu, hayajonini bildirmadi.

– Eslayman, nega eslamas ekanman, – dedi sovuqqina.

– Yo’q! Eslamaysiz. Siz so’la boshiabsiz. Pechak chirmasha boshlabdi sizga. Hamma narsaga lo-qayd, befarqsiz. Qayoqqa ketayotganingizni...

– Men sizni... axir, popuk, meni ko’rgani kelibsiz deb xursand bo’lsam... Siz tashviqotga kelgan ekansiz.

– Ha! – deb qichqirdi Aziza. – Sizni ko’rgani ke-lish kerak, ziyorat qilish kerak sizni, siz buyuk shaxssiz! Alovida, benazir, noyob shaxs! Maxsus ekskursiya uyushtiramiz! Maydonga borib, taxti-ravonga chiqib turing!

– Bo’lmasa, mayli, qiling tashviqotingizni, nima deysiz?

– Biz sizni odam deb qutqazamiz, yo’lga sola-miz deb yuribmiz. Essizgina... Lekin yo’q, baribir

qo'ymaymiz, qulog'ingizdan tortib chiqaramiz bu botqoqdan! Hali Yo'ldoshlar bilan kelamiz! – Aziza sumkasini olib, shartta chiqib ketdi.

– Aziza! Popuk, menga qarang...

Aziza chiqishi bilan hovli eshlgi taraq etib yopilib, zanjiri tushdi. Bu uy bekasi Malohat edi. Baland devor, yopiq eshik orqasidan Saidning chaqirgan tovushi eshitilmay qoldi.

Umidlari puchga chiqib, qattiq iztirobga tushgan Aziza ko'chada it surati solingan muzdek tunukaga peshanasini tlrab, ho'ngrab yig'lab yubordi.

«Hali Yo'ldoshlar bilan qaytib kelamiz», – derdi u yig'lab. Azizaning birdan-bir umidi shu edi.

Yo'ldoshlar esa bu mahal kombinatdan ikki yuz o'ttiz kilometr uzoqda, tog'-toshiar orasida yangi ish joylarini ko'zdan kechirmoqda edilar. Negadir Dovtepa deb ataladigan bu joylardan qadimda ham karvon yo'li o'tmagan, yovvoyi dasht ekan. Bir tomoni yalang'och yassi tog'lar bilan o'ralgan, bir tomonidan pastlab nafsiz daryo oqib o'tardi. Kombinatga bu yerdan birdan-bir yo'l – shu daryo. Agar tog'dagi konlardan daryoga tikka yo'l ochilsa, silikat ma'danlari qariyb tekinga tushadi. Yo'ldoshiar Dovtepaga mana shuning uchun kelib o'tirishibdi.

Ularni barjalarga ortib, o'n besh-o'n olti kun deganda butun lash-lushlari bilan keltirib tashlashdi. Loyihachilardan qolgan ikki chayla yoniga uchta yotoq-vagon, oshxona bilan omborlar uchun yana bir nechta brezent tomli taxta chodirlar o'rnatildi. Tabiiy bandargohday qulay qirg'oq ekan, skreperlar, ekskavatorlar barjadan

– Nimadan?

– Shu... chaqirib koyishdan-da. Uning o'zi shunaqa, kitobsiz turolmaydi.

– Kitobni men ham yaxshi ko'raman, akasi. Yana anchagina narsalarni yaxshi ko'raman, lekin ko'pchilik davlat ishl deb jon fido qilib turganida, shaxsiy manfaatimni ustun qo'yib, o'sha o'zim yaxshi ko'rgan narsalarim bilan mashg'ul bo'lolmayman. Bu xudbinlik, intizomsizlik! Birinchi kundanoq jamoani to'zitib yubormoqchimisizlar?

Farmonovning kamariga tayanib turishi bu yerda yarashmasdi. Gimnastyorkasi g'ijim, hujrator, qorong'i, tepadagi selluloid tuynukchadan xiragina nur tushib turibdi, xolos, stol yo'q, pol yo'q, burchakda yupungina yig'ma karavot...

Yo'dosh juda charchagan. Ustiga-ustak, tomog'i shamollagan edi. Namakob bilan g'ar-g'ara qilib yurib, kechagina zo'rg'a tuzatib oldi. Bugun kuni bilan trassaga parma tishlari, burg'u to'qmoqlarini tashib, hozirgina qaytib keldi. Po'lat ham o'sha yerdan kelib hansirab o'tiribdi. Yo'doshning uni chaqirib bergani ko'ngli bo'lmadidi.

– Po'latni o'zimizga qo'yib bering, rahbar odam hech vaqt har bir shaxsning tarbiyasi bilan alohida shug'ullanmaydi. Buning uchun jamoa bor, – dedi Yo'dosh.

– Bekor gap!

– Bu sizning gapingiz, o'rtoq Farmonov. – Farmonov uni tanimay qolgandek, ko'zlarini pirpiratdi.

– Ammo o'sha gapingizda jon bor edi: agar sizga o'xshash rahbar tarbiya ishiga kirishsa, Po'latlarning ham jamoani tashlab ketishi hech gap emas. Said nima bo'lganini...

– Gapirmang menga u shuhratparastni! Bilamiz-ku uning bizdan nima talab qilganini! Siz kimi larning tarafini olmoqchisiz, akasi?

– Akasi demang, otim bor. Aslida Said ni ma-yu, siz nima! U jamoani mensimay ketib qoldi. Siz-chi? Siz mensiysizmi? Siz hech qaysimizni tanimaysiz, bilmaysiz. Said-ku dilidagini har holda ochiq-oydin bildirdi. Siz bo'lsangiz mensimasligingizni yashirmoqchi bo'lasiz, «jamo», «omma» og'zingizdan tushmaydi, ashaddiy «demokrat»siz. Shoshmay turing hali sizni ham tarbiyalab olishga kuchi yetadi jamoaning. Tarbiyalay olmasa ham, esingizni kiritib qo'yadi.

Yo'dosh taxta eshlknki taraqlatib yopib chiqib ketdi. Farmonovning rangi o'chib, g'ujanak bo'lib qoldi. U birinchi marta o'zini bunchalik ojiz seishi edi, xo'rlici keldi. Qandayadolatsizlik? Bular nega uning yuziga oyoq qo'yishadi? Nega bunchalik yomon ko'rishadi? Bu sovuqlik ilgari ham bormidi yoki shu yerga kelganlaridan keyin paydo bo'ldimi? Ilgari ham bor edi shekilli. Bor edi-yu, lekin u vaqtarda Farmonovning bu haqda o'ylashga ehtiyoji yo'q edi. Mana endi o'ylanib qoldi. Nega bunday?

Nahotki boshliq bo'lsa-yu, o'z jamoasi bilan bo'lgan munosabatni o'zi belgilab berolmasa? Yo bu unga bog'liq emasmi? Nega?

Nega? Nega? Nega? Qo'l ostidagi odamlar bilan yuzma-yuz yaqinlashgan sari, Farmonov o'chakishganday nizolarga tikka qarab boraverdi. Bu uning asabini buzar, ayni choqda zavq ham berar, qiynar, ming xil savollar tug'dirar edi.

Oradagi munosabat tobora tarang tortmoqda edi. Yo'dosh ba'zan o'zining Farmonovga qilgan

shaddodligidan pushaymon bo'lar, lekin boshliq ba'zan yoshlari bilan qattiq olishib qolsa ham, idoraga chaqirtirmay, o'sha yerning o'zida ishni bir yoqlik qila boshlaganini ko'rganda esa, munosabatlarining mana shunday tarang turgani ma'qulmikan deb o'ylab ham qo'yari edi.

Bu vaqt hamma jabhalarda ish boshlanib ketgan edi. Qirlarning orqasidan skreperlarning ovozi eshitila boshladi, qiyalikdagi tandirda chirsillab archa yonadi, daryo sohiliga yangi so'qmoqlar tushdi, ishga chaqiruvchi rels jarangi quloqlarga sinashta bo'lib qoldi. Trassaning o'zi uzun emas, lekin ishning qiyini bo'lg'usi yo'lni to'sib turgan ikki yassi tepalikni qirqib olib tashlash edi. Ayniqsa narigisi, tog' etagidagisi devor kabi tikka, uzoqlarga cho'zilib ketgan, go'yo bu yerdan yo'l o'tmasin deb ataylab yasab qo'yilgandek, Dovtepa degan nom ham ehtimol shu bilan bog'liqdir. Bu tepa nuqul qoya toshli tog' jinslardan iborat bo'lib, uni portlatishdan boshqa chora yo'qligi loyihadayoq ko'rsatilgan edi. Shuning uchun bu tepada hozirdan o'nlab qiya quduqlar, shurflar kovlash zarur deb topilib, asosiy kuch o'sha yerga tashlandi, cho'kichli parma dastgohlari o'rnatila boshladi.

Farmonov bolalarning ishidan inannun bo'lsa ham, muomalalarini hazm qilolmasdi. Ularning muomalalari juda jo'n, sodda, «boshlig'imiz» deb hayiqish yo'q, go'yo o'z tengqurlaridek. Aslida hech kim boshliqning obro'sini tushirishga urinayotgani yo'qdir, lekin Farmonovga ularning har bir qilig'i shunga qaratilgandek tuyular edi.

Bir kuni portlatish tarmoqlarining montajji haqida yo'riqnomasi bo'ldi. To'lagan bilan yana

bir-ikki yigit «bilamiz» deb kelishmabdi. Farmonovning qattiq g'azabi keldi: «Bilsa bilar, boshliq aytgandan keyin kelish kerak-da axir!»

Kechga yaqin Farmonovning o'zi yotoqqa borib, o'zboshimcha To'laganning adabini berib qo'yishga qaror qildi.

Tajang bo'lib borib eshikni ochsa, yotoqda hech kim yo'q. Lekin g'ira-shira qorong'i puchmoqdan ovoz chiqди:

– Nega so'roqsiz kirding, yo'qol! Nega so'roqsiz kirding, yo'qol!

Farmonovning sochi tikka bo'lib ketdi: bu qanaqa muomala? Ichkariroq kirdi. Karavot saranjom, darpardalar tushirilgan, hech kim ko'rinxmaydi-yu, haligi ovoz yana takrorlandi:

– Nega so'roqsiz kirding, yo'qol!

Farmonov burchakka qarasa, butun boshli ustaxona – usti ochiq radiopriyomniklar, telefon go'shaklari, antennalar, chuvalib yotgan simlar, g'altak, bolg'a, qisqich, izolyator... Bularning hammasi To'laganniki edi. Mana u nima bilan band!..

Farmonov bum o'ylab ulgurmay, haligi ovoz yana eshltildi:

– Nega so'roqsiz...

Farmonov payqadiki, bu magnitofon ekan. Jahl bilan shartta tugmasini bosib, ovozini o'chirdi. Biroq shu payt boshiga taq etib kaltak tushdi. Boshini ushlab tepaga qarasa, shiftda lapanglab o'qlov osilib turibdi. Qayirib olib tashiayman deb jon-jahdi bilan ushlab tortgan edi, ustiga qayoqdandir shuvillab qum to'kildi, oyoq ostida mushak portlab, ko'zi tindi.

Qoni miyasiga urib, darg'azab bo'lib ketgani-dan na ko'zini uqalash, na ust-boshini qoqish xayoliga kelar, atrofga alanglar edi.

– Bezarilar! – deb baqirib, telbalarcha borib burchakdag'i qandaydir asboblarni tepib ag'dardi, ustiga chiqib yana tepkiladi, nima balolar taraqturuq ag'darilib eshikdan chiqqanida, hamma yog'idan shuv-shuv qum to'kilar, ust-boshi iflos, ko'zi tingan edi.

Vujudi g'azabdan lovillab turgan bo'lsa ham, ko'zlarida: «Hech kim ko'rmadimikan vajohatimni?» degandek savol bor edi.

Xayriyat, atrofda deyarli hech kim yo'q ekan, faqat boshliqni uzoqdan ko'rigan oshpaz xotingga: «Voy o'lay!» deganicha uyning panasiga o'tib ketdi.

To'lagan bilan og'aynilari ishdan qaytishganda oshpaz xotindan bu gapni eshitib, avvaliga qotib-qotib kulishdi, keyin eslarini yig'ib, «Yaxshi bo'lma bdi, borib uzr so'rash kerak» degan qarorga kelishdi. Axir To'lagan bu hazil «texnika»ni qurganida, vagonga boshliq kirib qolar deb xayoliga ham keltirmagan edi-da. U buni hazilkashi Temir uchun qilgan. Temir «Qisqa to'lqinli radiouzat-kich orqali qizlar bilan tanishamiz», deb To'laganlarning vagoniga kelaverdi. Kechasi ham, kunduzi ham. To'laganning borida ham, yo'g'ida ham kelib, apparatlarga ruxsatsiz tegaverdi. Ma'lumki, ruxsatsiz, parolsiz efirga chiqish mumkin emas. Shuning uchun To'lagan haligi «texnika»ni o'ylab chiqarib, Temirning adabini bermoqchi edi. Bu «qopqon»ga kelib-kelib Farmonov ilinibdi. Yo'q, undan borib uzr so'rash kerak. Ya'ni, shundoq-shundoq edi, o'rtoq Farmonov, kechirasiz, deb...

Biroq vagonga kirib, apparatlarining pachoq-pachoq bo'lib yotganini ko'rgach, To'laganning fig'oni falakka chiqib ketdi. Bu insofdan emas, hazilni tushunish kerak axir, boshliq bo'lmay xudo bo'lsang ham! Axir bularni bunyodga keltir-guncha...

To'lagan yig'lagudek bo'lib, majaqlanib ketgan uzatkichning qoldiqlarini yig'ishtira boshladi. Chilparchin bo'lib ketibdi-ya apparati. To'lagan uzr so'ramadi, boshliq ham chaqirtirmadi. Ko'ngilsiz voqeа shunday qilib bosdi-bosdi bo'lib ketgandek edi-yu, biroq oradagi munosabat borgan sari keskinlashib borardi.

Xuddi shu kunlari Dovtepaga Farmonovning qizi keldi-yu, ahvol o'zgardi-qoldi. Qiz rassom edi. Yozgi ta'tilni cho'lda o'tkazmoqchi bo'lib, kombinatga kelgan ekan, otasining Dovtepadaligini eshitib, yo'lni bu yoqqa solibdi. Esankirab qolgan dadasini darrov tinchitdi: «Xuddi men qidirgan manzaralar shu yerda ekan: tog', daryo, toshkesarlar!»

Farmonovning oilaviy, qarindosh-urug'lik muomalalarini sira ko'rmagan yoshlар bu uchrashuvga juda qiziqib qolishdi. Ajabki, sira o'ylamagan joyda Farmonovning otalik mehri jo'sh urib, yurishi, tovushida, yuz-ko'zida muloyimlik paydo bo'ldi. Qizi yolg'izlanib, qiynalib yurgan kunlarda keldi shekilli, qayerga borsa, Ra'nosini yonidan uzoqlashtirmas edi.

Ra'no – cho'pdekkina, ozg'in, qoracha. Ko'rim-sizgina bo'lsa ham, ancha esli, bama'ni, hunariga juda berilgan qiz ekan. Shuning uchun avvallari faqat Farmonovning qizi sifatidagina diqqatni tortgan Ra'no ko'p o'tmay yigitlarning tinchini

o'g'irlab qo'ydi. U hamma joyda o'zi haqida gap bo'layotganini, yigitlarning ataylab u ishlayotgan so'qmoqlardan yurishga harakat qilishini, serashula bo'lib, kechroq yotadigan bo'lib qolishganini sezар, lekin buni o'z jozibasidan deb bilmay, jamoada boshqa qiz zoti yo'qligiga yo'yar edi. Yigitlar esa uning bunday gaplarini eshitganchi sari atrofida battar parvona bo'lar edilar.

Ra'no etyudlarini oshxona devoriga suyab qo'yardi. Yigitlar bo'lsa etyudlaridan ham ko'ra, ko'proq o'zini ko'rish payidan edilar. Uni har kim o'zicha tasavvur qilib, o'zicha fazilat qo'shar, har qaysisi ko'nglida o'z Ra'nosini ardoqlar edi. Uylanish pallasi o'tinqirab qolgan Ergash bir kuni unga qarab turib ochiqdan-ochiq uzun uh tortib qo'ydi. Buning ma'nosini o'zi biladi-yu, xudo biladi.

Ish vaqtida Ra'no ko'k biuzkasi bilan jigarrang cholvarini kiyib, dam u tepalikda, dam bu tepalikda paydo bo'lar, ba'zan portlashlarning gard-g'ubori ichida, qoyatosh ustida kun bo'yi o'tirib, ishchilar bilan birga qaytar edi. Uning molbertini ko'tarishib qaytayotgan yigitlar yangi etyuddagi manzaralarni tanib faxrlanar edilar:

- Mana bu bizning uchastka, orqadagi tog'ni ko'rdingmi?
- Mana bu chang buluti – bizniki. Parmadastgoh ham.
- Ra'noxon, yaqinda biz tepani portlatamiz, ellik trotil, ikki yuz atmosfera! Ana shunda ko'ramiz chang bulutini, o'n daqiqagacha tosh yog'adi, ajoyib manzara! Borasizmi?

Yigitlar Ra'no qurilishda bir kun ko'rinxicha zerikadigan bo'lib qolishdi, ilgari usiz qanday

ishlashganiga endi o'zlarini ham hayron. Bir kuni jindek tobi qochlb, hujrasidan chiqmay qolgan ekan, ishlagandek bo'lishmadi. Buning ustiga, o'sha kuni Farmonov ob-havo prognozini eshitib, ko'ngli g'ash bo'llib yurgan edi, ish sur'atini ko'rib battar tutuni chiqdi. Taxmimga ko'ra, tog' tumanlarida kuchli yomg'ir, sel kutilar ekan. Agar bu tosh quduqlarga zaryad berish vaqtiga to'g'ri kelsa, butun ish, bir necha oylik mehnat chlppakka chiqadi. Quduqlarga suv to'lib, portlovchi mod-dalar namiqadi, oqib ketadi. Selgacha zaryadlar-ni portlatib ulgurish uchun sur'atni yana ham oshirish lozim edi... Bular bo'lsa...

Bular bo'lsa mana bugun ham kechki ovqatdan keyin oshxonada stollarni bir chetga surib, yarim kechagacha raqs qilishdi. To'lagan bisotidagi magnit tasmalarini ikki martadan aylantirib chiqdi. Ra'no hali u yigit bilan, hali bu yigit bilan aylanib pildirar, hansirab, yuzlari olmadek qizarib ketgan edi. U bugun kaltaroq, keng yubka kiygan, bir yigit quchog'idan uchib, ikkinchisiga otilganda etaklari hilpirab, o'zi qiyqirib kular, Temir yoki Po'latdek baquvvatlari esa uning yengil gavdasini aylantir-ganda ko'tarib-ko'tarib tashlashar edi. Ra'no faqat Ergash quchog'iga tushganda sal damini rostlaydi, chunki Ergash bosiq, boshini egib, boshqalardek qizning yuziga tikilmay, unga ozor bermay salmoq bilan aylantiradi. Oshxonaning tuprog'i o'ynab, changi chiqib ketdi.

Shunday qilib, o'sha kechasi brezent tom tagida rosa to's-to'polon, qiy-chuv, o'yin-kulgi bo'ldi. Shuncha yigit bilan barobar o'yinga tush-gan Ra'no oxirida juda holdan toyib, yigitlarning

tungi daryo sayri haqidagi takliflariga ham unamasdan, rangi oqarinqirab otasining hujrasiga kirib ketdi. Yigitlar ham bu kecha dong qotib uqlashdi.

Ertasiga havo shunday sarin, shunday mayin ediki, navqiron kun xuddi hozirgina, xuddi shu yerda, Dovtepa etaklarida tug'ilgandek, endi esa uzoq safarga otlanayotgandek edi. U chindan ham hozir jahon bo'ylab keza boshlaydi, chang yutadi, tutunga to'yadi, havoning bu qadar shirin ekanligini bilmaydigan odamlar yoniga boradi, charchaydi, qariydi...

Qirda bong urdi, tinch ufqlarda temir sadosi uzoq yangrab turdi. Trassada ish tugagan edi.

Yigitlar yuvinib-taranib, endi ishga otlanganlari-da Salim vahima xunuk xabar topib keldi: Ra'no to'satdan qattiq kasal bo'lib, yotib qolganmish!

Yo'dosh soatiga qaradi:

– Birrov kirib ko'rib chiqamiz!

Bu gap hammaga ma'qul tushdi. Farmonovning hujrasiga oshxona orqali kirilar edi. Yigitlarning ko'ngil so'ragani kelishganini ko'rib, qizining boshida o'tirgan Farmonovning ko'zidan yosh chiqib ketdi. Ra'no burchakdagi yig'ma karavotda yuzigacha burkanib yotardi. Uning avzoyldan hamma qo'rqib ketdi: kechagi loladek yonib turgan Ra'no qayqdoya-yu, bu qayqdoya! Yuzini sovuq ter bosgan, yallig'lagan mijjalari nam, ko'zlarining oqi sarg'aygan, isitmadan qaltirar, nafas oli-shi og'ir, har zamonda ko'ngli behuzur bo'lib, turishga intilar, lekin qayt qilolmay azoblanar edi. U kelganlarni tanimadi shekilli, ingrab to'lg'andi.

Kelganlar Po'latga yo'l berib, oldinga o'tkazishdi.

– Ra’no, Ra’noxon! – dedi Po’lat qizning yondagi kursiga o’tirib. Qiz kipriklarini zo’rg’a ochib, uni tanidi. Po’lat uning issig’ini o’lchadi, tomir urishini ko’rdi.

– Tilingizni ko’rsating-chi, Ra’noxon. Keyin Po’lat o’rtoqlariga:

– Chiqib turinglar, havoni to’smanglar... – dedi qo’l siltab. Ra’no bilan yolg’iz qoldi. Ota eshik ol-dida turardi.

– Anov kuni kasal bo’lganiningizda ham isitman-giz balandmidi?

– Ha, – dedi qiz zaif tovush bilan.

Po’lat uzoq o’ylanib o’tirdi-da, tasalli beradigan bir so’z aytolmay, o’rtoqlari oldiga chiqdi. Ham-malari oshxonada kutib turishardi.

– Hech nima biloldingizmi? Tuzalib ketarmi-kan? – deb so’radi Farmonov. Bu savol hamma-ning ko’zida bor edi. Po’lat javob berolmasdan bir zum indamay turdi-da, yana kasal oldiga kirib ketdi. Hamma eshikka yopirilib, quloq soldi. Oradagi omonatgina taxta eshik yaxshi yopilmas, xunuk g’irchillar, uning boridan yo’g’i durust edi, baribir hamma gap eshitilib turibdi.

– Ra’no... nima bo’ldi sizga? Qayeringiz og’ri-yapti?

Qiz ingrab bosh silkidi:

– Bilmayman...

Po’lat sochiq bilan uning manglayini artib, yana so’radi:

– Menga qarang, portlatilgan toshlar orasida yurganiningizda, qoyada o’tirganiningizda sezmadin-gizmi... biron narsa chaqmadimi?

Ra’noning ko’zlari katta ochildi. Ko’z qo-rachiqlari vahimada yiltillar edi. Keyin bosh qi-

mirlatib, sekin: «Ha, chaqqan edi», – dedi. De-di-yu, «Siz qayoqdan bilasiz?» degandek savol nazari bilan tikilgancha qoldi. Po'latning peshanasi tirishdi.

– Qachon? Eslay olasizmi?..

Qiz o'pkasi og'ziga kelgandek, nafasi bo'g'ilib, qayt qilolmay, to'lg'ana boshladi. Tomirlari bo'r-tib, yuz-ko'zi birpasda jiqla suv bo'lib ketdi.

Nima edi? Nima edi, Po'lat aka?

– Mayli, gapirmang, hech gap emas. O'zingizni urintirmang, charchaysiz...

Po'lat oshxonaga chiqdi. Farmonovni imo bilan kasal yoniga kiritib yuborib, o'zi eshik tomon yurdi. U atrofda o'rtoqlarini ko'rmayotgandek, besaranjom, parishon edi. O'rtoqlari undan javob kutishardi. Nima gap? Xavfli emasmi? Buni bu yerda Po'latdan boshqa kim ham bilishi mumkin?

Po'lat eshik oldida to'xtadi, Yo'ldosh bir nimani sezgandek xavotirda u tomon yurdi.

– Xo'sh? Bir nima deyolasanmi?

Po'lat indamadi, u allaqanday sarosimada o'rtoqlarini zimdan kuzatar edi.

– Qani bo'lmasa tashqariga chiqaylik, o'sha yerda bir maslahatga kelarmiz, – dedi Yo'ldosh soatiga qarab. Hamma qo'zg'aldi.

Shu payt Po'lat ildam yurib borib, eshikni orqasi bilan to'sdi. Shu turgancha orgada qo'li bilan paypaslab, oldin temir tambani tushirdi.

– Nima qilyapsan? Bu nimasi?

Po'lat indamay, eshikni ichkaridan qulfladi-da, kalitni cho'ntagiga soldi.

– Iye, ha?!

– Och eshikni!

– Mumkin emas! – dedi Po'lat, xuddi bunga o'zi aybdordek, past va keskin ovoz bilan.

Yigitlar bir-birlariga qarab, oz vaqt jim qolishdi-yu, yana g'ala-g'ovur ko'tarildi.

– Nima qilmoqchisan, nima gap? Gapir axir!

– Eshikni och!

– Ochmayman, – dedi Po'lat va o'z gumonini tushuntira boshladi Uning gumonicha, Ra'nning kasali og'ir, yuqumli kasal bo'lishi mumkin. Chunki uni ag'darilgan g'or tuprog'i orasida yomon kana chaqqan. Po'latga aniq ma'lumki, bunday kanalarning ba'zilari jazirama cho'l sharoitida tabiiy epidemiya o'chog'i bo'lib, chaqqanda badanga spiroxeta degan xavfli infeksiya tarqatadi.

– Mening tashxis qo'yishga hech qanday haqqim yo'q, bilganimni aytyapman, kasalning barcha belgilari shundan dalolat berib turibdi...

– dedi Po'lat boshini egib. U birdan majolsizlanib eshik tagidagi yog'och o'rindiqga o'tirib qoldi. Yo'dosh ham o'tirdi, boshqalar lol, tikka turishar edi. Qizining yonidan chiqqan Farmonov ichkari eshik ostonasida bu g'alati jimlikdan xavotir olib qotib qoldi, katta ko'zoynagi g'ira-shirada g'alati yiltillar edi. Anchadan keyin Ergashning vazmin ovozi jimlikni buzdi:

– Bu tushunarli. Ra'no, afsuski, – dedi u Po'latga yaqinlashib, – xo'sh, bu eshikni qulflaganing nimasi? Bizlar...

Po'lat ortiqcha tushuntirishni negadir ep ko'rmadi, ko'ngliga kelgan fikrdan o'zi cho'chidimi, yo o'z gumonlariga ishonchi komil emasmi, xullas, bejo ko'zlari bilan do'stlariga yalinganday qaradi-yu, indamadi. Gap o'zi tushunarli edi, ke-

cha axir bular hammasi yarim kechagacha Ra'no bilan o'yinga tushishdi, bugun xonasiga kirishi... Hamma jim edi. Kimdir voqeani hali ham miyasiga singdirolmay norozilik bildirish uchun, qizishib, nafasi tezlashib so'z qidirar, kimdir tuzoqqa tushganini tan olgandek, fikrni bir joyga to'plash uchun o'ziga o'zi: «Xo'-o'-o'-sh...» der, kimdir boshini quyi solgan, kimdir vahimada baqrayib qolgan edi. Bu yerda butun bir smena, boshliq bilan to'qqiz kishi, tungi smenadagilarning hali bu voqeadan xabari yo'q, ular ertalab ishdan kelib uxlab yotishibdi.

Birdan Farmonov o'zini eshikka urib qoldi. Voqueaning jiddiyligini endi tushundimi yoki hech narsani tushunmaganmi, birdan qo'llarini siltab, qizishib ketdi:

– Qani oching! Oching deyapman! – deb qichqirdi u Po'latga. – Sizga kim huquq berdi? Kim huquq berdi!

Yo'ldosh borib eshikni to'sdi.

– O'rtoq Farmonov... – keyin u ham ovozini balandlatishga majbur bo'ldi: – O'rtoq Farmonov!

– Oching deyapman! – Farmonov yana eshikka intildi. Kim boshiiq bu yerda? Kim boshliq? Sizdan so'rayapman!

– O'rtoq Farmonov...

– Axir, axir.. – Farmonovning tovushi o'zgaridi ayanchliroq eshitila boshladi, – axir kasalga doktor chaqirish kerakmi, yo'qmi? Erta-indin sel kelyapti quduqlarning zaryadini tugatish kerakmi, yo'qmi? Men bu yerda boshiiqmanmi, yo'qmi? Nima, qamab qo'ymoqchimisanlar! Oqibati yomon bo'ladi, bilib qo'y!

– O'rtoq Farmonov, – Yo'ldosh uni chetroqqa boshlamoqchi bo'ldi, – nahotki tushunmasangiz ahvolni?

– Taxmin! Guman!

– Bunaqa ishda taxmin bilan gumanning o'zi yetarli. Tashqarida odamlar bor. Bizning haqqimiz yo'q.

Farmonov shashtidan sal qaytdi.

– Nima qilmoqchisizlar?

– Maslahatlashaylik.

Hamma bularning atrofiga g'uj bo'lgan edi.

– Birinchi vazifa: – Bu vaqt ichkaridan Ra'nning ingragan ovozi eshitildi, Po'lat gapini bo'lib, bemor oldiga kirib ketdi. Yo'ldosh davom ettirdi:

– Birinchi vazifa o'taldi: kasal va u bilan munosabatda bo'lganlar izolyatsiya qilindi, – u eshikka ko'z tashiab qo'ydi, – sarosima bo'lmasin. Ikkinchi vazifa tezlikda shifokor chaqirishning yo'lini topish...

Qalpog'ini g'ijimlab burchakda sportchi haykalday qotib turgan Temir shart kesdi:

– Buning yo'li yo'q.

– Yuk barjasи qachon keladi?

– To'rt kundan keyin.

Yana jimlik cho'kdi. Har kim har qayerga joylashib o'tirib oldi. «Ana xolos, pishdi gilos», – deb qo'ydi ustunga suyanib o'tirgan Ergash.

Birdan shovqin ko'tarib o'rnidan turgan Salim vahima Yo'ldoshning yoqasiga yopishib qoldi:

– Eshikni ochasan! Menga yuqqan emas! Men soppa-sog'man! Haqqing yo'q, ochasan! – deb chinqirardi u. Do'ppisi boshidan tushib, sochi to'zib, og'zidan ko'pik sachradi, – Och deyman!

Menga yuqqan emas! Kim aytdi? Kim doktor?
Qani, doktor aytsin! Gch!

Uch kishi bo'lib zo'rg'a joyiga o'tqazishdi.

– E, juda ingichka ekansan-ku, xumpar, – dedi Ergash kaftini qoqib.

Salim vahima holdan toyib, kichkina jussasi g'ujanak bo'lib, o'tirib qoldi. Ko'ylagi yirtilgan, shimi tuproqqa belangan, og'zining cheti ko'piklangan, ko'zi bejo, ayanchli edi. Farmonovning unga ko'zi tushib, rangi so'lib ketdi, o'zi ham boyagina shu tutqanoqqa o'xshab dag'dag'a bilan baqirganini esladi shekilli...

Ichkaridan Po'lat chiqdi.

– Isitmasi tushyapti. Meningcha, har kim uning oldiga kiraverishi shart emas. Mana men... bundan keyin ham faqat...

– Kelishdik, – dedi Yo'dosh. – Aytib qo'yay, chinakam intizomni ko'rsatishning xonasi keldi. Gap boshqalarning hayoti haqida ketyapti. Ehti-yotsizlik qilishga haqqimiz yo'q...

– Gap o'zimizning ham hayotimiz haqida ketyapti. Bir yo'lini topishimiz kerak, – dedi Po'lat. Uning bu gapi hammani hushiga keltirib, o'ylatib qo'ydi: yo'l yo'q edi.

Bu orada Yo'dosh tashqariga chiqib, oshxonadan nariroqdagi ustunga boshqalarni ogohlantiradigan qog'oz yopishtirib kirdi.

– Qani, nima qilamiz?

Hech kim indamadi.

Quyosh ham tikkaga kelib, o'tovdek yuma-loq, brezent tomning tepa tuynuklaridan tushgan yolqinli shu'la oshxonaning havosini dim qilib yubordi. Birov taqdirga tan berib, o'rindiqqa

cho'zilgan, yana birov hamon nima bo'layotgani-ga aqli bovar qilolmay, sonini shapatilab o'kinar, uh tortar edi. Birdan Ergashning hovliqqan ovozi eshitildi.

– Menga qaranglar! – dedi o'rnidan sakrab turib. – To'laganning uzatkichi-chi? To'laganning uzatkichi qutqazadi! Unga xabar qilish kerak.

O'tirganlar turib, yonboshlaganlar o'tirib, hamma qimirlab qoldi, shovqin ko'tarildi. Ammo shu vaqt Temirning burchakdan kelgan ovozi hammaning hafsalasini pir qildi:

– Dabdala bo'lib ketgan. Uzatkich yo'q, – dedi u. Bu gapdan keyingi jimlik Farmonovga cho'yandek og'ir tuyuldi. U o'tirgan joyida g'ujanak bo'lib qolgan, ko'zi yerda bo'lsa ham, atrofdagilarning nazarini sezardi. Shu payt u boshliq ekanligini ham, obro'si tushishini ham unutib, ko'ziga yosh oldi:

– Jon ukalar, bolani qutqazish kerak... Ra'noni qutqazish kerak, jon birodarlar. Yo'dosh, Po'lat-jon, inim...

«Ajabo, otlarimizni bilib olibdi!» – deb o'yladi Yo'dosh hayron bo'lib. Farmonov unga hozir shu do'stlaridek sodda, yaqin tuyulib ketdi. «O'zining ismi nima ekan-a?»

Kun og'ib qoldi. Hali hech qanday chora topilgani yo'q, o'ylab o'ylariga yetisholmadi. Hamma nimanidir kutar, nima ekanligi ma'lum emas edi. Yuk barjasinimi? Xo'sh, undan keyin-chi? Unda ham shifokor yo'q-ku? Tashqaridagilarning biror tadbir topishiga umid bog'lash ham behuda. Ular nima qilishi mumkin? Buldozer bilan yo'lga tushsa necha kunda yetadi, yo'l topoladimi? Yo'q, hamon o'sha yuk barjasini kutish qoladi.

Hamma ko'nglida bir iloj qidirar, lekin sirtdan buni bildirmaslikka urinib, o'zi bilan o'zi band, boshqa, ahamiyatsiz gaplar bilan o'zini chalg'itib o'tirar edi. Yaxshi ham oshxonada qamalib qolishgani. Bu yerda suv ham, oziq ham bor. Burchakda Ra'noning suratlari, qandaydir temir-tersak, buzuq radio. Goho Ra'noning bezovta alahlashi eshitiladi. Po'lat uning oldiga kirib-chiqib otasini yupatgan bo'ladi. Keyin u bir chekkada shumshayib o'tirgan Salimning peshanasini ushlab ko'rdi. Isitmasi yo'q edi.

– Xafa bo'lma, vahima, – deb qo'ydi kulib. Borib Yo'ldoshning yoniga o'tirdi.

– Nimani o'ylayapsan?

– Ahvolimizning bema'niligini-da, – dedi Yo'ldosh past ovoz bilan. – Har narsada ham qandaydir ma'ni bo'lishi kerak. Yashashda ham, o'lishda ham...

Nariroqda Ergash, yana bitta qora bola, Farmonov o'tirishibdi. Qora bola juda kamsuqum, kamgap, doimo qandaydir darsliklar qo'ltiqlab yuradi. Shu yerda ham «Fizika»ni varaqlab o'tiridi. Xuddi ertaga imtihonga kiramigandek. Ergash, bekorchilikdan, avval boshliqqa murojaat qildi:

– Mana shunaqa, o'rtoq Farmonov, kelajagimiz porloq... – U qollarini yoydi. Boshliq achchiq kinoyasiga javob qilmagach, qora bolaga qaradi:

– Shu yerdan eson-omon chiqsam, shartta uylanaman. Sen-chi, akasi? Sen nima qilasan?

Bola yelkasini qisib, darsligiga tikilib o'tiraverdi. Uning o'rniiga nariroqdan boshqa yigit javob qildi:

– Menmi? Men omon chiqsam, odamlarga qolimdan kelgancha yaxshilik qilaman. O'ylab

qarasam, umrimda hech kimga bir tuzukroq yaxshilik qilmagan ekanman.

Bu gap qorong'lda ko'ngillarga cho'kib ketdi. O'qtin-o'qtin gap, gurung eshitilib qolardi. Farmonovning diqqati Ergashda: boshliq uni xotin, bola-chaqalik deb o'ylar, Yo'ldoshning bir vaqtlar u haqda aytgan gaplariga ishommagan edi. Hozir suhbatiga quloq solsa, hammasi rost ekan. Boqib olgan bolalari onasi bilan ketib qolibdi. Ularni deb uylanmay o'tayozgan Ergash bolalarni sog'inganini yig'lagudek bo'lib gapirib o'tiribdi. Farmonov birdan so'rab qoldi:

- Menga qarang, inim, sizning otingiz Ergash-a?
- Ha, o'rtoq Farmonov.

Farmonov boshini sarak-sarak qilib, yerga qaradi, indamay qoldi.

Tepa tuynuk tagida o'tirgan Temir yonidagilarni nuqul osmoni falak haqidagi aql bovar qilmaydigan hikoyalari bilan band qilgan edi. Tuyukdan Somon yo'li ko'riniib turibdi. Yonidagilar Temirni savolga tutishadi:

- Hammasi yulduzmi? – dedi kimdir jimir-jimir etgan Somon yo'liga qarab.
 - Hammasi, soni-hisobi ham ma'lum.
 - Be, sanab bo'larmidi?
 - 150 milliard yulduz! – dedi Temir.
 - Bir-biri bilan urishib ketishi mumkinmi?
- Temir yulduzlarning to'qnashish imkonlari haqidagi gapga tushadi.
- Taxminan bir necha milliard yilda bir marta to'qnashish ehtimoli bor. Masalan, bizga eng yakin Sentavr yulduzini olaylik. U bizdan atigi 4,2 yorug'lik yili uzoqda. Quyosh bu masofani yuz

ming yilda bosishi mumkin. Bordi-yu, agar u tikk'a Sentavrga qarab yursa ham, uni quvib yetib to'qnashishi uchun besh milliard yil kerak...

Ichkaridan Ra'noring qattiq alahlab ingragani eshitildi. Po'lat o'rindiqqa cho'zilib uxbab qolgan edi. Uni chaqirishdi, turtishdi, uyg'otishholmadi – juda toliqqan ekan. Farmonov o'rnidan turib atrofga bejo alangladi. Po'latni yana silkib ko'rdi. Qizining tovushi uning yuragini tilmoqda edi. Shu vaqt Ergash shartta turib, to'zg'igan sochlarini tuzatdi-da, taxta eshikni g'irchillatib kasal oldiga kirib ketdi.

– Ergash! Ergash!.. – deb chaqirgancha qolishdi.

U qaytib chiqqanda Po'lat uyg'onib, ko'zlarini uqalayotgan edi.

– Uxlayver, uxlayver, hech gap yo'q, suv ichirdim. Nega odam ko'p, nima qilib o'tiribsizlar, deyapti...

Po'latning uyqusi tamom qochgan edi, Ergashga afsuslanib qaradi:

– Chakki qilbsan...

Keyin kursini ko'tarib borib, Ra'noring eshigi tagiga o'tirdi.


– Ergashvoy... – dedi Farmonov sekin. Ergash uning yoniga o'tib o'tirdi.

– Yotib dam olsangiz bo'lardi... Ra'nodan xavotir olmang, xabardor bo'lib turamiz.

Farmonov bir nima demoqchi-yu, aytolmay qiynalayapti.

– Kechirasiz, o'rtoq Farmonov, ismingizni bilmaymiz...

– Ismim... Ismim Muhammadjon, – dedi Farmonov. O'zi yayrab ketdi. Xuddi shuni aytolmay qiynalib turgan ekanmi.



– Muhammadjon aka... Shunday iliq, sodda otingiz bor ekan-ku, bilmas ekanmiz, – dedi Ergash. Mudrab o'tirganlar ham hir yangilik topgandek, hushyor tortib, Farmonovning ismini takrorlashdi.

– Yigitlar sel o'tguncha quduqlarni zaryadlamay turishsa edi, siz nima deysiz, Ergash inim? – dedi Farmonov. – Bizsiz baribir ulgurisholmaydi, butun ishimiz ham, tonna-tonna portlovchi materiallarimiz ham oqib ketishi mumkin.

Yo'ldosh ham ularning yoniga kelib o'tirdi.

– To'g'ri aytasiz, Muhammadjon aka, ertalab tongdayoq yetkazamiz buyrug'ingizni.

– Yetkazing, Yo'ldoshvoy.

– Xo'p, Muhammadjon aka.

Tong yaqin. Ko'pchilik pinakka ketgan. Tong oldi jimligida uzoqdan daryo shovillashimi, qir shamolimi qulqoqqa chalinar edi. Shu payt qayerdadir bir nima taraqladi. Uyg'oq yotgan Ergash eshikka yugurdi, eshikda hech kim yo'q. Po'lat Ra'nodan xabar oldi, bemor ham isitma azobidan darmonsizlanib, tong salqinida uyqua ketgan edi. Yana jimlik cho'kdi. Lekin bir nafasdan keyin oshxonaning orqa tomonida yana bir nima qattiq taraqladi. Uyqudan uyg'onganlar esini yig'ib ulgurmay, devorming ikki taxtasi gurs etib qayrilib tushdi-yu, teshikdan birovning hansiragani eshitildi, sharpa ko'rindi. Bir qo'lida bolta, bir qo'lida yana allanimalar, iljayib qarab turardi.

– To'lagan?!

Yo'ldosh, Po'lat, Ergash oyoqqa turishdi.

– Qayt orqangga!

To'lagan qaytish o'rniliga, qayrilgan taxtani joyiga qoqib, yerdan yana allanimalarni ko'tardi-da, bular tomonga iljayib kelaverdi.

– Jinni bo'pti bu!

– Tentak!

Lekin uyqusi qochgan yoshlari uni qurshab ollshdi: «Nima gap?» «Biron chora ko'rdinglarmi?» «Yo'li topildimi?» «Xabar berildimi?»

To'lagan bo'lsa, hech narsa bilmasdi. U voqeadan xabardor bo'lgandan beri yigirma soat davomida vagonga qamalib ishladi. Ovqat yegani yo'q, suv ichgani yo'q.

U qo'llidagi qutichani avaylab yerga qo'yib, eshik tagidagi suv bakiga intildi. To'kib-sochib yutoqib suv ichdi, qolganini yuziga sepdi-da, Po'latning yoniga keldi.

– Qani, nima deymiz?

Ergash bilan Yo'dosh ham ularning yoniga keliishdi. Yo'dosh To'laganni quchog'iga olib:

– Bo'lar ish bo'ldi, balli! – deb ko'kragiga musht tushirdi.

– Ra'nuning ahvoli qalay? – derdi To'lagan. Unga hech kim javob bermasdi.

– Lekin ahmoqlik bu, – deb Po'lat qutichadan uzatkichni oldi, – g'irt ahmoqlik, – dedi yana avaylab qo'lida aylantirarkan. – Buning uchun bu yerga o'g'rincha bostirib kirishing shartmidi?

Eshikdan kelsam kirgizarmidinglar? Sizlarsiz bunga nima deyishimni qayoqdan bilaman?

– Bu faqat uzatkich, qabuli yo'q, shundaymi?

– Ha, ko'p aylantiraverma, tushirib yuborasan. Bir marta pachaqlangan edi, yetar... – To'lagan nariroqda hayajon ichida indamay turgan Farmonovni ko'rib, ko'zi ko'ziga tushdi. – Shuni ham

zo'rg'a eplashtirdim. – Uzatkichni ikki qo'llab ushlab devor oldidagi stolga olib borib o'rnatdi.

– Qani, tezroq ber matningni, mening ishim bor.

– Qanaqa ish? Endi chiqib bo'psan bu yerdan.

– Mayli, ber matningni. Har o'n besh daqiqada takrorlayversam, biron havaskor albatta tutadi. Mening to'lqinim yaxshi.

Po'lat matn yozishga o'tirdi.

– Qisqa, aniq bo'lsin! – dedi To'lagan, yengini shimarib. Uni hammalari qurshab olishgan, ularda umidvorlik paydo bo'lib, yuz-ko'zları jonlangan, tinmay so'roqqa tutishar edi.

– Demak, javobini ololmaysan?

– Signalingni birov tutdimi, yo'qmi, qayoqdan bilamiz?

– Kim buzgan o'zi, nega buzgan?

– Jim!.. Jim! Tarqalinglar, xalaqit bermanglar.

Yo'dosh bilan To'lagan stolni to'sib o'tirishdi, Po'lat matnni olib kelib berdi.

«Biz Dovtepadanmiz. Tibbiy yordam kerak. Tezda tibbiy yordam kerak. Shifokorga yetkazing, kana chaqqan deb taxminlanadi. Spirocheta Sogdiana! Yoki ornithodorus papillipes! Karantindamiz».

To'lagan uzatkichning kalitini bosdi. Uzunkalta, uzun-kalta «bi-bip, bi-bi-biyp»lar qator tizilib kumush g'ildirakchalarday efirga singib ketdi. O'tirganlar bu ajoyib g'ildirakchalarining yumalashini ko'rgandek bo'ldilar, chehralariga nur qo'nib, bir-birlariga qaradilar. Faqat Farmonovning chiroyi ochilmay, peshanasi terlab, nimagadir azob chekar edi. Bu yigitlarning har biri uning ko'zi oldida daf'atan bir kashfiyotdek ochilib ketdi.

To'lagan degan shu ekan-da. Noyob hunari bor ekan-ku. Unday desa, boshqalari ham... Mana, Po'lat, Ergash, Temir... Yo'ldosh aytgandek, har biri bir olam deganicha bor. Anov bittasi ham g'alati edi.

Farmonov birdan eslab, go'yo hozir eng muhim masala shudek, jiddiy so'rab qoldi:

– Yo'ldoshvoy, hov bir og'ayningiz bor edi, gaz trassasida o'tga kirgan-chi, keyin bizdan xafa bo'lib ham yurdi, oti nima edi?

– Said, – dedi Yo'ldosh. – U o'sha ketgancha ketdi, Muhammadjon aka. Nobud bo'ldi u.

– Nechuk?

Yo'ldosh Azizaning xatlaridan o'ziga ma'lum bo'lgan voqealarni aytib berdi: Said borib-borib o'sha uy bekasi Malohatga uylangan edi. Malohatning o'zi kechasi bostirib kiribdi, deydimi – xullas, birga turadigan bo'lib qolishibdi. Ikki haftadan keyin esa orada muhabbat tugul, biron insoniy ilinj ham yo'qligi ma'lum bo'lgan. Said Azizaga tavba-tazarru qilib, yolvorib xat yozibdi. Aziza undan yuz o'giribdi. Shundan keyin Said tushkunlikka tushib, ichkilikka berilib ketibdi.

– Malohat bilan sudlashibdi chog'i, o'zi ham miliatsiya nazoratida emishmi, nima balo... xullas, quridi, so'ldi bola... – dedi Yo'ldosh yer chizib o'tirib.

– Attang-a! Ketmasa-ku, ko'pchilik yo'nga solib olardi.

– Albatta! Kimlarni hushiga keltirmaydi deysiz jamoa!

Bu payt yana Ra'noning bezovta tovushi eshitildi. U qusolmay qiyinalar, o'qtin-o'qtin hushidan ketar edi. Ovozi eshitilganda Farmonov

novning jussasi kichrayib, ko'zlarini javdirab qoladi, Po'lat uni qizining oldiga kiritmaydi. Bu yoqda uzatkichning ovozi tinmaydi. To'lagan har o'n besh daqiqada «bi-biyp»lab turibdi. O'zicha hijjalab qo'yadi:

– Spi-ro-che-ta Sog-di-a-na...

Salim vahimaning tutqanog'i yana boshlandi. Asabi juda chatoq ekan bolaning. Kasalning ingrashlariga ham, jimlikka ham bardosh berolmaydi.

– Havoga ketyapti bari! Foydasi yo'q! – deb avval To'laganga baqira boshladi, keyin borib Yo'ldoshga yopishdi: – Och eshikni! Ketaman, piyoda jo'nayman! Bu do'zaxda qamalib o'lib ketaveramanmi! – Keyin borib Farmonovga osildi: – Sizga baribir, Eshmat o'ladimi, Toshmat o'ladimi, qirilib ketsin, sizga jamoa qolsa bas! Bilamiz! «Jamoal!», «Jamoal!» og'zingizdan tushmaydi!

Qizining betob bo'lib qolganidan ezilib o'tirgan Farmonovga Salimning bu dag'dag'asi o'lganning ustiga tepgan bo'ldi. Chol bechora yosh boladek burchakka suqilib qoldi. Unga juda rahmi kelib ketgan Yo'ldosh Salim vahimaning ko'pik sochayotgan og'ziga qarab bir musht tushirdi. Salim gandiraklab ketdi.

– Qo'ying, Yo'ldoshvoy... – dedi Farmonov yiqilayozgan Salimning bilagidan ushlab qolib.
– Yaxshi emas. U to'g'ri gapiryapti. Oting kim, o'g'lim?

Salim yig'lamsirab otini aytdi.

– Salimjon. Kel, qizishmasdan gaplashaylik...

Ular ota-boladek bir yerga o'tirdilar. Nariroqda To'lagan katta stolga qutisidagi barcha as-

bob-uskunalarini sochib tashlab, buzuq radio-ning ham astar-avrasini ag'darib, goh kichkina dastgohida sim g'altak o'rар, dam bir nimalarni ular edi.

– Menga qara, sen matnga o'zimgdan bir nimalarni qo'shyapsan shekilli, – deb so'radi Temir uning yoniga kelib.

– Aloqa vaqtini tayinlayapman.

– Aloqa vaqtini? Qabulni ham yo'lga qo'ya ola-man deb o'ylaysanmi?

– Bekorga terlab-pishyapmanmi?

– Faqat vaqt.... vaqt yo'q. Kechgacha korres-pondentimni tutolsaydim!

U yana uzatkichga borib, qo'lini kalitga qo'ydi.

Kun og'ib qolgan edi. O'tirganlar kechadan beri qorin ochganini endi sezib, birinchi marta non chaynashdi.

Temir yigitlarni atrofiga to'plab kosmosdagi allaqanday portlashlar haqida safsata sotayotgan edi, birdan yer qattiq silkinib, tashqarida yer-u ko'kni titratuvchi kuchli portlash yuz berdi. Hamma o'rnidan turib ketdi, qulqlar ding bo'ldi. Portlashning guvillashi hamon tinmay, havoni zirillatib, osmonda muallaq turgandek edi.

– Biznikilar! – deb qichqirib yubordi Yo'ldosh.

Hamma Farmonovni qurshab, ko'zlarini katta ochgancha, undan gap kutar edi.

– Biznikilar portlatishdi, o'rtoq Farmonov!

– Ha-ha, ha-ha... – derdi boshliq, hamon tash-qariga qulqutib. – Bu to'qqiz quduqning hammasi! Kuchli portlash. Eshitdinglarmi? Lekin zaboyka qilishdimikan? Zaboykasiz portlatish-gan bo'lsa chatoq bo'ladi, hammasi bekorga keta-di. Bilisharmikan?

Hamma jim bo'lib qoldi. Chindan ham bundan bexabar bo'lishsa-chi? Hovliqib bekorga portlatib qo'yishgan bo'lsa-chi?

– Zaboyka... Zaboyka, – deb pichirlardi Ergash u yoq bu yoqqa asabiy yurib. – Yo'q, nahotki...

– Xavotir olmanglar, hammasi joyida! – bu bir chekkada o'z ishi bilan band bo'lib o'tirgan To'laganning ovozi edi. – Hammasi joyida, sizlarning bunday ahvolda qolganlaringni bilgandan keyin bir nafas ham tinch turishgani yo'q. Zaboykani ham bilishadi. Menga, aytmagin, deyishuvdi, o'rtoq Farmonov man qiladi deb qo'rqb...

– Azamatlar... – dedi Farmonov sekin. Yuziga qon yugurdi. Vujudida yoqimli charchoq sezib, yonidagi kursiga o'tirib qoldi. Ilgarilar uning ko'zi qayerda ekan. Nega bunchalik hissiz, sovuqqon bo'lib yashar ekan-a? Agar qizining kasali sabab bo'lib, bu yigitlari bilan mana bunday ikki kungina yuzma-yuz to'qnashmasa, bunday hayajon nimaligini bilmas, ularni ham bunchalik yaqin-dan taniy olmas edi. Bularning har biri bir olam, turgan-bitgani yangilik, voqeа.

Kechga borib haqiqatan ham qissamizni shartta kesadigan bir voqeа yuz berdi. Qir, sohillarga mayin oqshom sokinligi cho'kib, kechki shabada yovvoyi o'tlarning namxush hidlarini tarata bosh-lagan bir paytda osmonda vertolyot parragining vag'illashi eshitildi.

Bu yoqdan qulog'iga qo'l bola qulochchinini tut-gan To'lagan baqira boshladи:

– To'xtanglar! Jim bo'linglar! Men korrespondentimni tutdim. Jim bo'linglar axir!

Qani endi jim bo'lishsa! Vertolyot go'yo bularning yuraklarida vag'illayotgandek edi.

- Jim bo'linglar deyapman!
- Jim! – dedi Yo'dosh. Biroz tinchishdi. – Qani gapir, korrespondenting nima deyapti?

– Oqmolmi, Oqshommi degan qishloqdan bir havaskor qozoq bola ekan, – deb kulib yubordi Tolagan. – Meni ertalabdan beri eshitayotgan ekan. Erta bilanoq tumanga xabar beribdi. Shifokor bilan maslahatlashibdi. Karantin eng birinchi, eng to'g'ri chora, debdi doktor! – Yasha, azamat!

Bundan keyingi shovqin-suronni pastlab kelayotgan vertolyotning guvillashi bosib ketdi.

Qissamiz oxirlashga oxirladi-yu, lekin buromadida hir uchrashuv haqida aytib o'tmasak, tugallanmaganga o'xshab qolyapti.

Dovtepadan qaytib kelgandan keyin o'rtoq Farmonov to'satdan pensiyaga chiqib ketdi. Undan buni hech kim kutmagan, o'zi ham bu qarorga to'satdan kelgan bo'lsa kerak. Bir umr ko'nikib, havosini olib olgan bu ishi endi o'ziga ham vahimali ko'rinib qoldimi, xullas, «Yo'q, yo'q, baholi qudrat ishlab keldik, endi javob beringlar», deb turib oldi.

Pensioner bo'lib olgandan keyin, zerikib, ko'pincha shaharga borar, qadimiy xiyobonlarda sof havodan nafas olib o'tirar edi. Shunday kunlardan birida u o'tirgan o'rindiqqa birov kelib o'zini tashiadi. Ko'm-ko'k, soya-salqin, ozoda xi-yobonda har qanday begona hid darrov seziladi. Farmonov burnini jiyirdi: yonidagi qo'pol odamni, gavdasini gurs etib tashlab, o'rindiqni mayishtirib yuborganidan tashqari, hiqichoq tutib, og'zidan srimsoq bilan aroq hidi gupillab turar edi.

Farmonov ensasi qotib, turib ketmoqchi bo'lib yoniga qaragan edi, haligi odam tanishga o'xshab

tuyuldi. G'alati bo'lib ketdi. Tungi yomg'irdan paydo bo'lgan xalqob yonida ikki musicha kukulab yurgan edi, mastning hiqichog'idan cho'chib, uchib ketdi. Farmonov peshanasini tirishtirib o'ylar edi: Bu o'sha Said-ku! Yopiray, odam ham shunaqa o'zgaradimi!

Saidni haqiqatan ham tanib olish qiyin edi. U beso'naqay qorin qo'ygan, ust-boshi g'ijim, iflos, kamarining to'qasi uzilib ketay deb turibdi. Baqaloq yuzini soqol bosgan, ko'zlarining tagi xalta-chaga bo'lib osilgan. Eng hayratda qoladigani: tanib bo'lmaydigan darajada qarimsiq bo'lib qolgan edi, ilgarigi Saiddan asar ham yo'q.

Farmonov Yo'ldoshning u haqdagi hikoyalari ni esladi: qandaydir o'zidan katta xotin, shubhali tirikchillk, qaltis ishlar, sud, ichkilik...

Said yon-verida birovni tanimas, ba'zan ko'ngli behuzur bo'lib ko'zi olayar, atrofga alanglasa ham, hech kimni ko'rmagandek yana ko'zini yumbib, har zamonda butun gavdasi bilan silkinib «hiq-hiq» qilar edi.

Farmonov muzdek bo'lib ketdi. Turay desa, nimadir yelkasidan bosib turgandek edi.

– Menga qarang... – deb qoldi Said qo'pol, mast ovoz bilan, – hazar qilyapsizmi? Nega hazar qilasiz? Meni... meni kim yaratdi? Xudo yaratdi! Ha! Sizni ham, aslini olganda. Shuning uchun nimai-ki aybimiz bo'lsa, xudodan! – U qo'lini o'rindiq suyanchig'iga siltab tashlab, ko'zini yumdi. Shu bilan indamay qoldi.

– Sho'rlik... – dedi Farmonov shivirlab. Keyin o'rnidan turib, yoqasini ko'tardi-da, asta jo'nadi. Xiyobon jimjit, havo iliq. Lekin Farmonov junjikib ketdi. Orqasidan haligi odam ko'lanka singari

sudralib kelayotgandek tuyulardi. Farmonov qadamini tezlatdi:

– «Xudo yaratdi...» Yo‘q, seni men yaratdim. Lekin aslida sen nima-yu, men nima! Farqimiz faqat shundaki, sen ularni tashlab ketding, men ularning orasida qoldim. Oqibatda mana: men o‘zim haqimda fikr qilishga qobilman. Sen esa...

Kimsasiz xiyyobonda bukchayib ketayotgan Farmonov o‘zicha shunday deb pichirlar, orqasi-da qadam tovushi eshitayotgandek shoshar, lekin qayrilib qaray desa, o‘zidan uyalar edi.

Tashqarida qosh qoraydi. Cho‘lobod xiyyobonlarida chiroqlar yonib, kombinatning kunduzi eshitilmaydigan o‘ziga xos suroni oqshom sukunatida yana qalqib chiqdi.

Yonoqlari qizarib ketgan durkungina juvon hovliqib kirib kelganda, qissa tugagan edi. Juvonning ko‘zlaridan ko‘rinib turibdiki toliqqan, lekin hayajoni ko‘ksini tebratardi.

– Assalomalaykum...

Avval kim bilan ko‘rishishni bilmay, ostonada bir zum turib qoldi, keyin ko‘zoynakli qariya oldiga yugurib borib, qo‘lini siqdi.

– Nevaracha muborak! Ra’no qiz tug‘di...

Chol ko‘zlariga yosh olib, juvonning kiftiga qoqdi. Ochil buva bilan Azimjon ham ularga ya-qinroq kelishdi. Tikilib qolishdi.

– Demak, siz...

– Men o‘sha Farmonovman, taqsir... – dedi chol ko‘zidagi quvonch yoshlarni eplolmay. Ochil buvaga qo‘l berdi, boshqatdan tanishdilar.

– Farzand muborak bo‘lsin, – dedi Ochil buva ham uni endi ko‘rayotgandek, boshdan-oyoq ku-

zatib. Keyin juvonga qaradi: – Siz Azizaxonsiz, shundaymi?

– Ha... – dedi Aziza kelinlik ibosi bilan bosh egib. Keyin yana birdan ochildi: – Voy o'lay, juda uyat bo'ldi-ku, a! Quruq non bilan choy ichib o'tiribsizlar... – U oshxonaga yugurdi. Keyin uning xushchaqchaq ovozi o'sha yoqdan eshitildi. – Hozir Yo'dosh akamlar hammalari tug'ruqxonadan kombinatga ketishdi. Bayram ertaga qoldirildi-ku, xabarlarining bordir... Undan aeroportga chiqishadi...

Haligi qissaning ichidan chiqolmay o'ralashib qolgan Azimjon hamon Farmonovga tikilardi.

– Menga qarang, ota... Ergash deganingiz haligi usta, shundaymi?

– Balli. Kuyovim, – dedi faxrlanib Muhammadjon aka.

– Muhandis-chi? To'laganmi?

Farmonov «topdingiz» deb bosh irg'adi.

– Fazogir-chi, fazogir? – negadir sekinroq so'radi Azimjon. Farmonov kului.

– Bunisi sir. Bunisini o'zinglar topinglar, – dedi u Aziza keltirgan sabzi taxta bilan pichoqni qo'lga olib. Stolga yaqinroq o'tirib, sabzi to'g'rashga kirishdi. – Lekin u hali haqiqiy fazogir emas, faqat nomzod ekan deyishadi. Ertaga bayramda ko'rishamiz nasib qilsa...

Kahrabodek sap-sariq sabzi uning pichog'i ostida ipak singari eshilib, taralib chiqar edi. Oshxona tomondan ishtahani qo'zg'atadigan piyoz dog' hidi keldi.

...Kombinatning yuhileyi uch kun davom etdi. Mehmonlar uch kungacha tantanadan tanta-naga, majlisdan ziyofatga yurib, izzat-hurmat

ko'rdilar. Azimjon ham qayerga borsa bobosi bilan Yo'ldoshning yonida, to'rda o'tirar, qissada tanishgan oshnalarini qidirar edi. Ularni tanib olish qiyin, deyarli hammalari jamoaning rahbarlari, ishlab chiqarish yetakchilari bo'lib ketishgan, undan tashqari, bu bayram kunlari rahbar qaysi-yu, ishchi qaysi – ajratib olish mushkul, hammasi bir xil, hammasi apoq-chapoq, gapdon, shirakayf... Lekin shunday bo'lsa ham, Azimjon «tanishlari»ning hammasini, hatto Salim vahimagacha taxminlab tanib oldi. U faqat shularni, shularning bosib o'tgan yo'lini, taqdirini, iqbolini o'ylar edi. Hammasi unga qandaydir yaqm, qarindoshdek tuyular, Orif aka, Komila, Umida, Yo'ldoshiar bilan birga o'zini ham Ochil buva atrofidagi shu azim oilaga bir jigarband deb sezar, lekin bular orasida o'zi kim – buni sira aniqlab ololmas edi. U hali ko'p narsani o'ylashi, ko'p chigallarni yechishi kerak, hozir xayoli chuvalib turibdi, bu voqealar, yangi tanish-u, yangi qarindoshlar, safar tashvishlari, bayram shov-shuvlari orasida fikrni bir joyga to'plolmayapti. Shuning uchun to'rtinchi kuni Ochil buva:

– Endi qaytaylik, bolam, Chinorga qaytaylik, – deganida Azimjon shoshib qoldi. Chinor! Afsonaviy, osoyishta go'sha! Har qancha o'y bo'lsa, ana o'sha yerda o'ylab, tagiga yetish mumkim. Azimjon xuddi o'sha yerda tug'ilib o'sgandek, butun safari davomida Chinorni o'yladi, uni sog'inib qolgan edi.

– Chinorga qaytamiz, buva!

Ular xayrlashishdi. Yo'ldosh, Muhammadjon aka, Aziza, Ergash, To'lagan, Ra'no, Temir, Po'lat,

Salim, yana ancha odamlar bekatgacha chiqib, kuzatib qolishdi. Ochil buva safarni tugatganidan, ezgu bir farzni bajo keltirib, koni savobga botgan odamdek mamnun ko'rinar, sokin va sobir edi.

Poyezd ularni bir kechada olib borib qo'ydi. Safarga chiqib ketganlariga necha yillar bo'lgan-dek edi, lekin hali-hali o'sha kuz. Chinor tog'ning etagidagi boboqishioq o'sha-o'sha, kuzning sovuq kechalariga chidam bergen chinor hali ham ko'mko'k shovillab turibdi, soyasida guzar-u choyxo-na gavjum.

Ochil buva odati bo'yicha ko'chaning boshidayoq mashinadan tushib, piyoda yurdi, beqasam to'n kiygan Azimjonning etigi chang, xurjunini yelkasiga ko'tarib olib, otaning ketidan ergashdi. Qishloq tepasida yomg'ir sevalardi, jo'xori poyasi o'rib olingan tomorqalar ko'pchib, halim-dek bo'lib yotibdi.

Ochil buva tuyulishdagi temirchilikning bostirmasiga qarab burildi. Badanidan sharros ter oqqan bo'z bola yomg'ir shabadasidan rohat qilib bolg'a urar, uchqun sachratar edi. Azimjon yukni qo'yib, ko'cha boshidagi chinorga tikildi, chinor bu balandlikdan yaqingina bo'lib ko'rinar, mayda yomg'irda ulug'vor tovlanib, bug'lanib turar edi.

– Zo'g'atasi bo'shab qolibdi sandonning, kundasini ertagayoq boshqa qil, – deb tushuntirardi buva temirchi bolaga. U bostirmaga yomg'irdan qochib emas, bolg'aning g'alatiroq ovozini uzoq-dan eshitib, nasihat qilgami kirgan ekan, gapi ni aytibоq ko'chaga chiqdi, sevalab yog'ayotgan yomg'irni pisand qilmay, ko'cha bo'ylab pastga, chinor tomonga yurdi.

Chinorning tagi qup-quruq, tosh so‘rilarda choyxo‘rlar u yoq bu yoqdan suhbatlashib o‘tirishar edi. Uzoqdan boboni ko‘rishi bilan katta-kichik o‘rnidan turdi. Uni hamma qurshab oldi, boboning o‘rni yo‘qlanib qolgan ekan, biri quchog‘ini ochar, biri qo‘lini uzatar, xullas, har kim qo‘lini olish payidan edi. Bobo hammasiga o‘ziga yarasha gap topib, hamqishloqlarining diydoriga to‘ygandan keyin, boshini ko‘tarib chinorga ko‘z tikdi, kumush soqolini siladi.

Xurjunni yerga qo‘yib, nariroqda to‘xtagan Azimjon qadim chinor bilan keksa boboning ko‘rishuvini, so‘zsiz so‘rashishlarini tomosha qildi. Chinorga qarab, baland bir shoxida lip-lip uchib, yomg‘irdan yashirinmoqchi bo‘lgan chit-takni ko‘rdi. Tuxumdakkina qushcha tovlanib, ko‘pirib, guvillab turgan yashil bulut qo‘ynida ko‘zga arang chalinardi. Bu qadimiyl, ulug‘vor chinor ehtimol qachonlardir mana shunday kichkinagina bir qushchaning tumshug‘ida olib kelgan bitta urug‘dan unib chiqqandir...

Ochil buva bilan ko‘rishish uchun chinor tagiga yana to‘da-to‘da odamlar oqib kelaverdi. Odam odamga aziz. Azimjon bu yurtga kelganidan beri shuni ko‘radi: ko‘rishish, xayrlashish, ko‘rishish, xayrlashish. U katta oilasining bir qismi bilan tanishib, Chinorga qaytdi. Bobosini qurshab olgan mana bu guzardagilar ham o‘sha oilaning odamlariga o‘xshashadi. Har birining katta-kichik o‘z qissasi bo‘lsa kerak. Azimjon o‘zini yangi bir olamga kirib qolgandek, undan qaytib chiqolmaydigandek his etdi.

Yomg‘irda chinor hamon shovillar edi.

Guzardagilar bobo-nabirani hovligacha kuzatib qo'yishdi. Darvoza tagida unga Tolibjonning bolalari chug'urchuq galasiday yopirilishdi, bir zumdan keyin brigadirning o'zi paydo bo'lib, qoramoyga bo'yalgan qo'llarini shoshib artib qu-lochini yozdi. Qo'shnilar tog'orada osh, savatda issiq non ko'tarib chiqishdi. Ochil buva o'zi ham o'yga toldi: endi astoydil qarib, hamqishloqlariga tabarruk bo'lib qolibdi shekilli, safardan kutish marosimi har yildagidan ham uzoqroq, yarim kechagacha cho'zilib ketdi. Odamlar boboning suhabatini sog'inishgan edi.

Hamma jo'nab ketgach, kechasi Tolibjon jiyanga bir xat tutqazdi. Ajnabiy markalar yopishtirilgan bu xatning kelganiga ancha bo'lgan ekan.

Azimjon xatni olib, chiroq ostiga keldi. Ochil buva uy to'rida o'tirib, uning oqarinqiragan yuziga, xat ochilganida, sal titragan qo'llariga qarab turdi.

– Xayrli xabarmi, bolam?

Azimjon xatni yana bir qayta o'qigandan keyin, bobosiga g'alati bo'lib qaradi:

– Ha...

– U yoqdanmi?

– Ha.

– Tinchlikmi?

– Shirkatimizning bosh direktori vafot qilibdi.

– Attang... Yaxshi kishimidi?

– Dadamning do'sti, dadam o'rnila edi.

Ochil buva bilan Tolibjon yuzlariga fotiha tortishdi.

– Yaxshi bolsa, joyi jannatdadir. Olim hammaning ham boshida bor. Qolganlar omon bo'lsin. Qayg'urma, bolam.

– Bobo... – Azimjon anchadan keyin kelib bobo-sining ro'parasida cho'kkaladi, – shirkatda eng katta ulush – dadamniki, ya'ni, hozirda meniki. U yerning odaticha bosh direktor kursisi nasldan naslga meros qolar edi. Marhumning esa farzandi yo'q, o'rnini menga vasiyat qilib, xat qoldiribdi...

– Bu nima degani bo'ladi?

– Bu... avvalo, juda katta mol-dunyo, bobo, juda katta pul!

Buva bexosdan darmoni qurigandek boshini og'ir-og'ir tebratib qo'ydi:

– Unda jadal yetib borishing kerakdir?

– ... Shunday.

Keyin uyga vazmin jimlik cho'kdi. Tungi bu jimlik ularning orasida qalin qora devordek o'sib chiqdi. Uning og'irligi chigirtkalarning chirillashi-ni ham, chiroq atrofidagi parvonalarining pirpi-rashini ham bosib tushdi.

– Nima ham qilardik, – dedi bobo yerga qarab, – nasibang o'sha yoqlarga sochilgan ekan. Otlan, bo'tam, hayallama.

Azimjon chamadonlarini saranjomlay boshladи. Tizzasida o'tirib uxlab qolgan qizchasini ichkari uyga yotqizib chiqib, Tolibjon ham unga qarashdi. Buva nevarasiga so'nggi o'gitlarini aytarkan, tovushi uzoqlardan zo'rg'a yetib kelgandek, siniq eshitilardi.

Ular tun yarimlab qolganda yotishdi.

Lekin Azimjon uxbayolmadи. Tong oidida sar-poychan eshikka chiqib, oq tosh zinapoyada uzoq o'tirdi. Tun qorong'i, hatto chinor ham ko'rinxas, lekin uning qayerdadir shu atrofda osmonni to'ldirib turganligi sezilar edi. Ko'p o'tmay bir qush-

cha chirq etdi. Kechagi chittakmikan? Xuddi shu zaif tovushni eshitgandek, ufqda bilinar-bilinmas ilk tong nuri chizildi. Azimjon birdan osmonni ko'rdi. Xuddi ro'parasida har joy-har joyida kuzgi bargi oltinsimon tovlanib turgan ulug'vor chinorni ko'rdi. Kechagi xat hali ham qo'lida edi. Pul! Bu uni yana qanchadan-qancha dushmanlarga, xavf-xatarlarga, nizolarga duchor qiladi! Ajab: bobosi bilan shuncha yo'l yurib, shuncha odamlarni, shuncha voqealarni ko'rdi, ammo birontasi pul bilan bog'liq emas... Azimjon o'tirgan joyida xatni asta maydalab yirtdi. Bobosi orqasida tikka turgan edi, shu payt o'zining shu yerdaligini bildirib qo'ydi. Nabirasi sapchib o'rnidan turdi. Ular bir-birlarining ko'zlariga tikilib qolishdi.

– Bobo, – dedi Azimjon hayajonda, – xatoni tuzatish uchun mardlik kerak degan edingiz, esin-gizdam?

Kumush soqoliga tong nurlari oralagan Ochil buva nevarasining qarorini tushunib, boshini sarak-sarak qildi. Nevarasining yelkasiga qoqdi...

Aziz kitobxon, katta oilaning qissalari tugamadi, to'g'ri. Ochil buvamning har yilgi safarini bir kitob qilish mumkin. Ammo Tavrotda aytilganidek, mehnat qilishimiz farz-u, barcha ishlarmizni tamom oxiriga yetkazish bizga nasib qilmagan.

Adabiy-badiiy nashr

ASQAD MUXTOR

CHINOR

Roman

Muharrirlar

Ma'mura QUTLIYEVA,
Hasanboy TESHABOYEV

Badiiy muharrir

Uyg'un SOLIHOV

Musahhih

Madina MAHMUDOVA

Kompyuterda sahifalovchi

Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2015-yil 17.07da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogi 18.0. Shartli bosma tobogi 30.24.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 141.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatorol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14; 129-09-72.

Marketing bo'limi – 128-78-43; 397-10-87.

faks – 273-00-14; e-mail: yangiasravlod@mail.ru

**«Yangi asr avlodı» NMM
«Yoshlar kutubxonasi» ruknida
quyidagi yangi kitoblarni nashr etdi:**

**SHUKUR XOLMIRZAYEV
«O'n sakkizga kirmagan kim bor»
84x108 1/32, 388 bet, qattiq muqova**

Mazkur kitobga O'zbekiston xalq yozuvchisi, iqtidorli adib Shukur Xolmirzayevning eng sara qissa va hikoyalari kiritilgan. Ularda sevgi-muhabbatning o'zgacha talqini, oshiqlik va ojizlik, matonat va razolat, inson ma'naviyati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy va axloqiy masalalar bayon etiladi.

**ABDULLA QAHHOR
«Muhabbat»
84x108 1/32, 248 bet, yumshoq muqova**

Abdulla Qahhorning ilk hikoyalar to'plamni 1932-yilda chop etilgan. Bugungacha bo'lgan davr mobaynida o'zbek adabiyotida, jumladan, hikoyanavislikda juda ko'p asarlar yaratildi. Sara hikoyalar, deya e'tirof etilgan bir qancha ijod namunalari o'quvchilar hukmiga havola etildi. Ammo Abdulla Qahhor hikoyalari yillar chig'irig'ini pisand etmay, hamon sevib o'qiladi.

Adib qahramonlari o'quvchi uchun qadrdon va ardoqli. Mutolaadan keyingi tanaffusda Unsin uchun qayg'uramiz, Turobjonning xotiniga anor ilinamiz, Qobil boboga taskin bergimiz keladi, ming bir joni Mastura va uning vafodor eri Akromjonga havas qilamiz. Sodda va kamtar insonlar sizni suhabatga chorlaydi. Beixtiyor yana mutolaaga shoshilasiz. Abdulla Qahhor hikoyalarida ana shunday ohanrabo bor...

O'TKIR HOSHIMOV

«Dunyoning ishlari»

84x108 1/32, 336 bet, yumshoq muqova

XX asr o'zbek adabiyotida o'z o'rni va uslubiga ega bo'lgan adib – O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov, aytish mumkinki, XXI asr o'quvchisining ham sevimli adibi bo'lib qoladi.

Jonli va hayotiy tasvirlar, sof o'zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o'ttasidagi suhabatlar mutolaasi o'quvchini o'z ta'siriga oladi. Nafaqat millat, balki chin insoniylik tarannumi yozuvchi asarlari-da yetakchilik qilishi kitobxon uchun tarbiyaviy va hayotiy saboq bo'ladi. Xoh jiddiy, xoh hajviy bo'lsin O'tkir Hoshimov asarlarida hayot qaynaydi: unda har birimiz o'zimizni, oilamizni, do'stu yorimizni, hatto hech kimga o'xshamagan onamizni ko'ramiz...

Bir inson umrini qamragan roman bo'lsin, qator novellalardan iborat qissa yoki hikoya bo'lsin, janridan qat'i nazar, O'tkir Hoshimov asarlarida dunyoning ishlari mujassam. Mutolaa har qanday o'quvchi uchun katta hayotiy xulosa berishiga ishonamiz.

SAID AHMAD

«Ufq»

84x108 1/32, 912 bet, qattiq muqova

Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi nafaqat yozuvchi ijodida, balki o'zbek adabiyotida yangi janr hisoblanadi. Ijodining eng sermahsul davrida yozgan ushbu roman-trilogiyada yozuvchi Ikkinchchi jahon urushining olovli yillarida o'zbek dehqonlarining front orqasida ko'rsatgan mehnat qahramonliklari haqida hikoya qiladi, urushdan oldingi va keyingi davr muammolari haqida bahs yuritadi.

Davrga xos qiyinchiliklar, mashaqqatlar og'ushi-da urush va mehnat frontiga safarbar qilingan yoshiar qalbi jo'shqinlik va muhabbat tuyg'ularidan yiroq emas: Azizzon va Lutfinisa, Nizomjon va Dil-dor, Tursunboy va Zebixon... Asarda o't-olov bo'lib yongan oshiq-ma'shuqlarning hech biriga visol na-sib etmaydi. Qiyinchiliklardan keyin qahramonlar yana sevgiga, sadoqatga ro'baro' bo'lishadi, ammo birinchi muhabbat davr va sinovlar qa'riga singib ketadi...

O'quvchi mutolaa davomida nafaqat jonli tas-virlar orqali tarixiy ma'lumotlar bilan tanishadi, balki hayot mashaqqatlaridan saboq chiqarishga, insoniylik va muhabbat aynan qiyinchiliklar ta'siri-da toblamishiga amin bo'ladi.

JADID ADABIYOTI NAMOYANDALARI

«Odob-axloq kitobi»

84x108 1/32, 192 bet, yumshoq muqova

O'tgan asr boshlarida yangi tuzem maktablari-ning tashkil etilishi nafaqat davr farzandlarining, balki millat bolalarining ma'naviyatida tub burilish yasadi, desak xato bo'lmaydi. Zamon ma'rifatparvarlari o'quvchilar uchun qator darsliklar yaratishdi, risolalar chop etishdi, gazeta va jurnallar ochishdi.

Bugungi o'quvchilar aynan o'sha maqolalarni, asarlarni, kitoblarni qayta-qayta o'qishi lozim, chunki ustozlarimizni, boringki, ustozlarimizning ustozlarini ma'rifatga chorlagan, ilmga oshno qilgan, ziyoli qilgan asarlar bugungi davr uchun ham qadrli, ham zarur.

Mazkur kitobda XX asr boshlaridagi adabi-yot – ilm va chin insoniylikka chorlovchi asarlar jamlandi.

O'LMAS UMARBEKOV

«Odam bo'lish qiyin»

84x108 1/32, 352 bet, yumshoq muqova

O'tgan asrning ikkinchi yarmidagi o'zbek nasri rivojida yozuvchi O'lmas Umarbekovning o'ziga xos o'rni bor. Uning yoshlar hayoti, ma'naviy-axloqiy muammolar, insonlarning murakkab munosabatlari haqida yaratilgan roman, qissa va hikoyalari bugungi kunda ham sevib o'qiladigan asarlardir. Adib bolalarning bepoyon orzular olami, yoshlarning goh lazzatli, goh iztirobli muhabbat, sidq-u vafo, xiyonat, otalar va bolalar, umuman, turfa toifadagi insonlar o'rtasidagi munosabatlarni g'oyat chuqur va samimi tasvirlaydi. Shuning uchun ham adibning asarlari hamon kitobxonlar qalbini rom etib kelmoqda.